TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

"Filologiya va pedagogika" ilmiy-metodik jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2025-yil
15 (19)-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL OF THE MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Ushbu sonda

O'tkir Hoshimov romanlarida tushning poetik vazifasi 15-bet

Oilaviy va do'stona muloqotda nutqiy aktlarning qo'llanilishi 26-bet

Magistratura bosqichida "Tilni ona tili va ikkinchi til sifatida o'qitish" mavzusini o'rgatishning metodik aspektlari 116-bet

Морфонологические трудности в изучении русского языка носителями узбекского языка 133-bet

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 19-avgustda 360240-raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

2025-yil
15 (19)-son

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

MAS’UL MUHARRIR
Nargiza Sotvoldiyeva

MUHARRIRLAR:
Shahobiddin Rasulov
Najmiddin Ermatov
Emma Torosyan
Shaxina Muxamedjanova
Muxlisa Do‘stmuhamedova

SAHIFALOVCHI
Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri
Navoiy ko‘chasi 30-uy.
Telefon: (55) 510-28-44,
(77) 358-57-67
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar
@FilologiyaPedagogikaBot
orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 30.12.2025 da nashr etildi.

MUASSIS
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
“Til va adabiyot ta’limi” davlat korxonasi

TAHRIR HAY’ATI:

10.00.00 – FILOLOGIYA

E’zozxon Karimova
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri
Farhod Boqiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari
Azizbek Turdiyev
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o‘rinbosari
Farrux Jabborov
“Til va adabiyot ta’limi” – “Преподавание языка и литературы” – “Language and literature teaching” jurnali bosh muharriri
Baxtiyor Mengliyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, filologiya fanlari doktori
Baxtiyor Doniyorov
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nurafshon filiali professori, filologiya fanlari doktori
Anatoliy Lixodziyevskiy
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Oksana Gibraltarskaya
O‘zbekiston Milliy universiteti professori, filologiya fanlari doktori
Sherzod Atamuradov
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Ranusha Atayeva
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Mohichexra Boltayeva
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Muxtarbay Kurbanov
Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Iroda Nasimova
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Dilmurod Teshaboyev
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim uslubiyati kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Gulhida Ikromova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Aziza Axmedova
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi o‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi
Anvar Bo‘ronov
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo‘ldoshev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
Gulnora Mansurova
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, falsafa fanlari doktori
Xadicha Muxitdinova
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
G‘ofir Hamroyev
Toshkent Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchi-professori, pedagogika fanlari doktori
Sevara Ziyayeva
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori
Indira Narkulova
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abduvali Daminov
O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti huquqiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulnoza Uzokova
Qarshi davlat universiteti professori, pedagogika fanlari nomzodi
Lola Akramova
Toshkent davlat tibbiyot universiteti o‘zbek tili va xorijiy tillar, pedagogika kafedrasi dotsenti
Zulfiya Ortiqova
Farg‘ona davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim uslubiyati kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Pulotjon Qaxorov
Samarqand davlat universitetining Urgut filiali dotsenti
Dilafruz Asqarova
Farg’ona davlat universiteti maktabgacha ta’lim kafedrasi o’qituvchisi, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Surayyo Erkinova. Zamonaviy axborot vositalarida jadidlar merosinining yoritilishi ... 4
Surayyo Ziyotova. "Mehrobdan chayon" asarida qo'llangan leksemalarning semantik-paradigmatik munosabati ... 5
Elnora Jononqulova. Rang nomlarining lingvopoetik xususiyatlari ... 7
Iroda Turayeva, Gulsevar Davlatova. Zulfiya ijodida folklor unsurlarining badiiy talqini ... 8
Navruzgul Turdiyeva. Luqmon Bo'rixonning "Kechikkan ko'z yoshlar" hikoyasida obraz botiniy olami tadqiqi ... 10
Ma'suma Mo'minova, Umida Sattorova. "Xazoyin ul-maoniy" devonining qat'iy qonuniyatlari ... 11
Latofat Tajibayeva. Shunchaki yozmoq – shoir uchun o'lim ... 14
Sevinch Yusupova. O'tkir Hoshimov romanlarida tushning poetik vazifasi ... 15
Oybarchin Mirzaliyeva, Oysuluv Uralova. Ingliz va o'zbek tillaridagi to'y marosimlari etnografizmlarining chog'ishtirma tahlili ... 17
Matluba Rayimjonova. She'riy matnlarni leksik-semantik tahlil qilish usullari ... 19
Gulnoza Jumayeva. "Metod" va "individual uslub" tushunchasi ... 20
Moxitabon Mo'minova. Arxetiplar va totemistik ramzlar: qadimgi turkiy adabiyotda hayvon obrazlari semantikasi ... 21
Mahfuza Yashinova. Olim Toshboyevning "Kiprik soyasi" hikoyasidagi ramzlar tahlili ... 23
Barchinoy Yarkinova. Tarixiy asar tarjimasi xossalari ... 25
Vaziraxon Utanova. Oilaviy va do'stona muloqotda nutqiy aktlarning qo'llanilishi ... 27
Nargiza Aytniyazova. Maqollarda gastronomik birliklarning madaniy presuppozitsiyasi va ularning tarjima jarayonidagi muammolari ... 28
Gulhayo Bo'riyeva. Amerikalik bolalar yozuvchisi Doktor Syuzning "Oh, the Places You'll Go" (O, siz boradigan manzil) asarining o'ziga xosligi ... 31
Sohiba Babanazarova. Maqollarning dunyo tilshunosligidagi tadqiq yo'nalishlari ... 33
Madina To'xtamurodova. Tabu tarjimasida amal qilinadigan asosiy tarjima normalari ... 35
Feruza G'aybulloyeva. Og'zaki nutqning didaktik va psixolingvistik asoslari ... 36
Nilufar Tosheva. "Bilga xoqon" tarixiy romanida mifologik obrazlar metaforizatsiyasi ... 38
Dilafruz Mahkamova. Bilga xoqon obrazining turkiy adabiyot va zamonaviy madaniyatdagi badiiy-estetik talqini ... 40
Mubora Omanova. Sa'diy Sheroziy – jahon didaktik adabiyotining yetuk namoyandasi ... 42
Mahliyo Jinayeva. Xurshid Davron she'riyatida ijtimoiy-ma'naviy muammolar talqini ... 44
Анвар Раджабов. Поэтика рассказа Антона Чехова «Архиерей»: световая символика, мотив памяти и динамика фокализации ... 45
Марьямхон Субхонова, Анвар Мухиддинов. Критерии разграничения омонимии и многозначности в лексикографической практике ... 47
Фотима Арипова. Прагмалингвистический аспект исследования семантики зевгматических конструкций ... 48
Озода Таирова. Мифопоэтика малой прозы Ивана Бунина ... 49
Shohsanam Alimjanova. Polisemantik frazeologik birliklarning semantik iyerarxiyasi ... 51
Sevinch Azamatova. "Ikki karra ikki – besh" qissasida qo'llangan son komponentli iboralar tahlili ... 53
Umidbek Saidov. Badiiy konseptning intertekstual transferi: nazariy va metodologik mulohazalar ... 54
Dilniso Yandashova. "Haqiqat" va "yolg'on" konseptlari pragmatik xususiyatlarining qiyosiy tahlili ... 59
Gulasal Xusanova. O'zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlarning lingvokulturologik xususiyatlari va qiyosiy tahlili ... 60
Abdulvosit Gulobov. Nozil Xo'jandiy devonining tarkibiy tuzilishi ... 62
Kaxramon Sindarov. She'riy matnlarda lingvistik belgining til sathlari aro munosabati ... 64
Abdulla Xudayqulov. Ayrim anglitsizmlarning semantik moslashuvi ... 66
Gulnoza Najmiddinova. Vizual narrativlar poetikasi va semiotikasi ... 68
Mastura Xaitova. Jamoatchilik bilan aloqalarning nazariy-metodologik asoslari va PR texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari ... 73
Muqaddas Allambergenova. Qadimgi turkiy manbalarda "insoniy fazilatlar" leksik-semantik maydonining shakllanishi ... 74
Bashorat Bovmanova. Maqollarda zidlash orqali "halollik" tushunchasining voqealanishi ... 77
Dilnoza Axmedova. Epitetlarning ommaviy axborot vositalari nutqida qo'llanilishi ... 78
Shohsanam Baxromova. Xalq og'zaki ijodi namunalarining turli janrlar kesimida nutq rivojiga ta'siri: tahlil va klassifikatsiya ... 80
Axadjon Ataboyev. Xususiy va ijtimoiy ongning mohiyati hamda tuzilishi ... 82
Zuxro Akbarova, Baxtiyorjon Xalimov. O'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar nutqida disleksiyani aniqlash uchun lingvistik testlar yaratish masalasi ... 83
Surayyo Eshonqulova. Nodira lirikasida tasavvufiy timsol va irfoniy talqinlar ... 85
Gulnoraxon Niyazova. Gender va til: patriarxal diskursning xususiy nutqda feministik tahlili ... 87
Nodira Mustafayeva. Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy birliklar va noverbal vositalarning sotsial xoslanishi ... 88
Gulhayo Xolmurodova. O'zbek va ingliz tillarida "uyat" leksik-semantik maydonining tarkibiy tuzilishi ... 90
Hayitgul Mo'minova. Balzak asarlarida qishloq hayotining ijtimoiy-tarixiy kontekstdagi talqini ... 92
Bahrabarjon Olimova. Erkin A'zamning kichik nasriy asarlari poetikasi tahlili ... 94

Dilafruz Azimbayeva. Semantic and Thematic Classification of Phraseological Units in English and Uzbek Languages 95
Umida Matmurotova. Direct and Indirect Literary Translation and Their Impact on Semantic-Stylistic Equivalence 96
Dilshoda Otaboyeva. Linguocultural Analysis of Zoomorphic Phraseologisms in the Uzbek Language: Reconstructing Archaic Worldviews and Totemic Relics 99
Kholniso Alikulova. The Elements of Supernatural and Magic Realism in "Song of Solomon" (Novel by Toni Morrison) 100
Nasiba Hasanova. Lexical-Semantic Classification of Anathematic Units in English and Uzbek Languages 102
Elena Surmilova. Lexical Stylistic Functions of Tongue-Twisters in the English and Russian Languages: Corpus Analysis 103
Sardor Sherkulov. Traumatic War Memory in Virginia Woolf's "Mrs Dalloway" in the Framework of Trauma Narratology 105
Gavhar Qurbonova, Farida Hakimova, Zebiniso Toshqulova. Metaforalarda astronimlar ifodasi 107
Dildora Ravshanova. O'zbek tili sinonimikasining dinamikasi 109
Zarifa Sultanova. Yevgeniy Polivanovning o'zbek shevalarini o'rganishdagi faoliyati 111
Maftuna Majidova. Tilshunoslikda kinesik belgilar tizimining grammatik xususiyatlarini ishlab chiqish masalalari 113

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Shokirjon Tursun. Magistratura bosqichida "Tilni ona tili va ikkinchi til sifatida o'qitish" mavzusini o'rgatishning metodik aspektlari 116
Shaxlo Axmedova. O'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning psixologik asoslari 118
Gulruxsor Sharipova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning roli 119
Yulduz Turapova. Hamza Imonberdiyevning "Turnalar" va "Ohu" she'rlarini raqamli vositalar yordamida o'qitish 121
Sultanbek Davletmuratov. Yuklamalar tuzilishini asoslash va tayyorgarlik davrini tashkil etish xususiyatlari 122
Fotima Xamidullayeva. Gapirish ko'nikmasining psixolingvistika bilan bog'liqligi 124
Райхан Алеуова. Готовность педагогов дошкольного образования к инновационной деятельности 126
Жулдыз Дарменбаева. Формирование коммуникативных умений старших дошкольников 127
Зулфия Каримова. Технологии формирования готовности к развитию перцептивных навыков 129
Диана Рузметова. Развитие лидерских навыков у молодёжи через проектно-ориентированное обучение 131
Светлана Им. Морфонологические трудности в изучении русского языка носителями узбекского языка 133
Komila Aytmuratova. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda she'riy asarlardan foydalanishni takomillashtirish 135
Нуржамал Сапарова. Дидактические материалы и приёмы использования пословиц в обучении русскому языку студентов-билингвов 136
Gulmira Ahmedova. 8–9-sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda Project-Based Learning (PBL) metodining didaktik imkoniyatlari 137
Dilobar Anvarova. Til ta'limida sotsiopragmatik kompetensiyani mediavositalar yordamida rivojlantirishning yangi bosqichlari 139
Mexroj Qudratov. Maktab o'quvchilarini musiqa darslari orqali estetik tarbiyalashning mazmun va mohiyati 140
Marjona Hakimova. O'qish savodxonligi darslarida Venn diagrammasidan foydalanishning samaradorligi 142
Laylo Mirzoxidova. Ona tili mashg'ulotlarida ilmiy matn bilan ishlash usullari 144
Dilfuza Jumayeva. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmlari 147
Nargiza Nurmatova. O'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash komponentlari 148
Nargiza Qayimova. Chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish 150
Nigina Akhmedova. The Advantages of The Content-Based Approach in Teaching Foreign Languages to on-Philological Students 151
Jamshid Karimov. The Priority of Applying Abdurahmon Jami's Educational Doctrine in the Modern Educational Process 153
Ziyada Djumanazarova. A Hybrid Approach to Grammar and Communicative Teaching: Revisiting Betty Azar's Perspective 155
Guljaxan Turebekova, Go'zzal Janabaeva. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematikaga qiziqish uyg'otish texnologiyalari 156
Mamarajab Turobov. Fanlararo aloqadorlik asosida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellektning o'rni 157
Dilfuza Xodjiyeva. Fortepiano darslarini texnologik tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari 159
Faxriddin Yusupov, Zafar Mahmudov. Kasbiy ta'lim tizimida islohotlar 160
Zafar Maxmudov. Barkamol avlodni ma'naviy qadriyatlar negizida tarbiyalashning nazariy jihatlari 162
Guljaxan Turebekova, Sadoqat Meliboyeva. Xalq og'zaki ijodi vositasida bolalarda hozirjavoblik ko'nikmasini shakllantirish xususiyatlari 163
Sanjarbek Atakhanov. Technology For Developing Critical Thinking in Students Through Biological Problem Modeling in Medical Education 164
Sarvinoz Sharipova. O'quvchilar nutqini o'stirishda yozma ishlardan foydalanishning nazariy va metodik asoslari 165

Surayyo ERKINOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti 2-kurs magistranti

ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARIDA JADIDLAR MEROSINING YORITILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida jadidlar merosining zamonaviy ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tahlil qilinadi. Tadqiqotda bosma va elektron nashrlarda jadidchilik tarixiga oid materiallarning berilishi, ularni yoritishdagi mazmuniy yondashuv va jurnalistik uslub xususiyatlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Xususan, 2017-yildan keyingi davrda jadidlar merosiga e'tibor kuchaygani, "Jadid" gazetasining tashkil etilishi va internet nashrlarda, xususan kun.uz, xabar.uz, daryo.uz kabi platformalarda mavzuning multimedia imkoniyatlari orqali keng yoritilayotgani misollar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: jadidlar merosi, ommaviy axborot vositalari, yangi jurnalistika, konvergensiya, bosma matbuot, internet nashrlari.

Annotation. This article analyzes the coverage of Jadid heritage in modern mass media in the context of reforms being implemented in Uzbekistan. The study examines materials on the history of Jadidism in print and electronic publications, the substantive approach to their coverage, and the peculiarities of journalistic style on a scientific basis. In particular, the intensification of attention to the Jadid heritage in the period after 2017, the creation of the "Jadid" newspaper, and the wide coverage of the topic through multimedia capabilities in online publications, in particular, on such platforms as kun.uz, xabar.uz, daryo.uz, are substantiated by examples.

Keywords: Jadid legacy, mass media, new journalism, convergence, print media, internet publications.

Аннотация. В данной статье анализируется освещение наследия джадидов в современных средствах массовой информации в контексте проводимых в Узбекистане реформ. В исследовании на научной основе рассматриваются материалы по истории джадидизма в печатных и электронных изданиях, содержательный подход к их освещению и особенности журналистского стиля. В частности, усиление внимания к наследию джадидов в период после 2017 года, создание газеты «Джадид» и широкое освещение темы через мультимедийные возможности в интернет-изданиях, в частности, на таких платформах, как kun.uz, xabar.uz, daryo.uz, обосновывается примерами.

Ключевые слова: наследие джадидов, средства массовой информации, новая журналистика, конвергенция, печатные издания, интернет-издания.

Oxirgi paytlarda mamlakatimizda olib borilayotgan yangilanishlar va burilishlar asosan mahalliy ommaviy axborot vositalarida aks etmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari yangi davrning yangi sahifalarini ochishda muhim rol o'ynamoqda. "...Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini xalq bilan muloqotning ishonchli ko'prigiga aylantirish, zamonaviy axborot xizmatlari bozorini, sog'lom raqobatni rivojlantirish, media tarmoqlarining moddiy-texnik bazasini mustamkamlash, ustoz-shogird an'analarini kuchaytirish, soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda" [1]. Ommaviy axborot vositalari oldiga qator talablar bilan birga muhim vazifalar yuklatilmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etishda bobolarimiz-jadidlarning g'oyalari ahamiyat kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy".

Jadidlar merosiga 2017-yildan so'ng yangicha ruhda e'tibor qaratish boshlandi. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar" [2]. "Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur" [3].

Jadidlar hayoti va ijodi bo'yicha qator maqolalar chop qilingan. Masalan, "Jadid adabiyotida ayollar timsoli" nomli ilmiy maqolasida mualliflar jadid adabiyoti davrlari, bosqichlari va tuzum nuqtayi nazaridan kelib chiqqan mafkuraviy g'oyalar va ularda ayollarning o'rni ilmiy-falsafiy, didaktik tahlil qilingan [4: 1496]. Professor Zaynovidin Abdurashidov jadidchilik mavzusida qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Uning "Turkistonda jadidchilik" nomli monografiyasida jadidcilikdagi tarix, ta'lim, siyosat, ijod, milliy matbuot, milliy g'oya masalalariga alohida urg'u bergan [5: 264]. Tadqiqotchi Ulug'bek Mansurov o'zining ilmiy maqolasida Turkistonda ma'rifatparvarli harakati-jadidchilikning vujudga kelishi davridagi ijtimoiy-madaniy holatga, olimlarning qarashlarini tarixiy manbalar yordamida tahlil qilgan. Mazkur ilmiy maqolaning yangiligi shundaki, maqolada ilk bor "Munozara" ro'znomasiga alohida to'xtalgan [6: 996].

Jadidlar merosini o'rganish mustaqillik yillaridan boshlandi. Ammo 2017-yildan so'ng yangi davr jarayonlari ortidan yangicha qarashlar shakllandi. Bunga misol sifatida "Jadid" gazetasining tashkillashtirilganini aytish mumkin. "Jadid" - adabiy, ilmiy-ma'rifi y va ijtimoiy haftalik gazeta hisoblanadi. Gazeta "Tilda, fikrda, ishda birlik!" degan deviz bilan chiqadi. Gazeta muassislari O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi hisoblanib, gazetaning tashkiliy-tarkibiy jihatlari bilan boshqa nashrlardan farqlanadi. Gazeta yangi davrga mos shakliy jihatdan ham o'z xususiyatiga ega: QR kodi bilan mushtariy "Jadid" gazetasining elektron versiyasi bilan ham tanishish imkoniyati mavjud. Yana bir e'tiborga loyiq tomoni shuki, gazeta ikki alfavitta (kirill va lotin) o'zbek tilida bosmadan chiqadi. Gazeta adadi 18761 bo'lib, shundan kirill yozuvida 7119 dona, lotin yozuvida 11642 dona tarqatiladi. Chuningdek, online kuzatuvchilar soni 68457 dan ortib bormoqda. Bizning fikrimizcha, boshqa mahalliy va ayrim sohalarga tegishli gazetalar ham mazkur tajiribani egallasa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Jadidlarning milliy matbuotimizning shakllanishidagi o'rniga oid qator ilmiy ishlar, doktorlik dissertatsiyalar yozilgan. Shuningdek, jadidlar haqida ilmiy maqolalar dasturiy matbuot bilan birga yangi elektron nashrlarda ham berilmoqda. Ayni paytda O'zbekistonda internet nashrlari ichida kun.uz, xabar.uz, daryo.uz, qalampir.uz kabi yangi nashrlar faoliyat yuritmoqda. Online kuzatuvchilari nisbatan ko'proq kun.uz saytida ham jadidlar mavzusiga oid materiallar muntazam

yoritilmoqda. Shunday maqolalarning biri filologiya fanlari doktori, professor B.Karimov qalamiga tegishli. Mazkur ilmiy-publitsistik maqola "Jadid ruhida tug'ilgan o'zbek nashrlari. Milliy matbuotning ilk yillari haqida" deb nomlangan. Unda muallif jadidlarning milliy matbuotimiz shakllanishidagi hissalariga keng to'xtalgan.

"Jadidlar zamonida matbuotdagi haq so'zning kundalik hayotga, odamlarga, jamiyatga ta'siri kuchli bo'ldi. Vaqtli matbuot odamlarning ijtimoiy hayotiga faol aralashmog'i va dunyodan boxabar bo'lmog'i uchun zaruratga aylandi. Boshlab gazetalar oyda bir bora bazo'r chiqdi; asta-asta haftalik va kunlik nashrlar shiddat bilan odamlar orasiga kirib bordi; sahifalaridagi maqola va ma'lumotlar ma'naviy ehtiyoj tusini oldi" [7].

Jadidlar mavzusini yoritishda internet nashrlardagi jurnalistlar dasturiy nashrdagi hamkasblariga nisbatan ko'proq texnik imkoniyatlarga ega. Bu ustunlik mavzuni kengroq va ta'sirchan qilib yoritishda qo'l kelmoqda. Masalan, kun.uz nashri jurnalisti Saodat Abdurahmonova tayyorlagan suhbat janridagi materialda bosma shakl audiovizual imkoniyat bilan qorishgan. Bunda dasturiy matbuotga xos matn shaklni ham, yangi jurnalistikaga oid audiovizual shaklni ham kuzatish mumkin. Muallif teleko'rsatuv uchun maxsus suhbat tashkil qilganidek sezilgani bilan, materialda matnga xos xususiyat aniq ko'rinadi. Masalan, "Taraqqiy" – jadid va milliy matbuotning otaxoni" bo'limida muallif suhbatdoshining quyidagi fiklarini keltiradi: "Jadid matbuoti otaxoni 1906-yilda Ismoil Obidiy tomonidan ta'sis etilgan "Taraqqiy" gazetasi hisoblanadi. Gazetaning juda mashhur bo'lib ketgan birinchi sonida "Toshkent. 14-iyun" maqolasi chop etilgan bo'lib, unda muharrir nashrning maqsadi va vazifasi haqida tushuntirish beradi. "Turkiston eli o'z maqsadlariga erishishi uchun eng avvalo ichki nizolarga barham berishi kerak", deb yozadi Obidiy" [8].

Xulosa qilib aytganda, jadidlar timsolini yoritishda dasturiy va yangi (internet nashrlar) ommaviy axborot vositalari teng xizmat ko'rsatib kelmoqda. Yangi jurnalistikaning texnik imkoniyatlari auditoriyani o'ziga jalb qilmoqda. Asosan yoshlar auditoriyasi internet nashrlar yoki ijtimoiy tarmoqlardagi maqolalarga qiziqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. https://president.uz/ru/lists/view/5294.
2. Shavkat Mirziyoyev: Jadidlarning milliy davlatchilikka qo'shgan hissasini o'rganish dolzarbligicha qolmoqda. https://kun.uz/36197360.
3. "Jadidlar g'oyalari yangi O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangdir" – Shavkat Mirziyoyev. https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/22/jadids/.
4. Xaliqova N., Tojiboyeva G. Jadid adabiyotida ayollar timsoli // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021. Volume 1, №4. – B. 1496.
5. Abdurashidov Z. Turkistonda jadidchilik. – Toshkent: Akademnashr, 2023.
6. Mansurov U. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi va ahamiyati // Academic Research in Educational Sciences, 2022, №6. – B. 996.
7. Jadid ruhida tug'ilgan o'zbek nashrlari. Milliy matbuotning ilk yillari haqida. https://kun.uz/92841758?q=%2Fuz%2F92841758#!
8. "Jadidlar barcha mavzular uchun ochiq edi" – Tarixchi bilan milliy matbuot tarixi va qatag'onlar haqida suhbat. https://kun.uz/news/2020/06/27/jadidlar-barcha-mavzular-uchun-ochiq-edi-tarixchi-bilan-milliy-matbuot-tarixi-va-qatagonlar-haqida-suhbat.

Surayyo ZIYOTOVA,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"MEHROBDAN CHAYON" ASARIDA QO'LLANGAN LEKSEMALARNING SEMANTIK-PARADIGMATIK MUNOSABATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asaridagi leksemalarning semantik-paradigmatik munosabatlari tadqiq qilingan. Asardagi omonim, sinonim, antonim so'zlarning semantik, funksional ma'nolari tahlil qilingan hamda ular misollar orqali izohlangan.
Kalit so'zlar: semantik-paradigmatik munosabat, omonimiya, sinonimiya, antonimiya, leksik-semantik sinonim, funksional-semantik sinonim.
Annotation. This article examines the semantic-paradigmatic relationships of lexemes in Abdulla Qodiriy's "Scorpion from the Altar". The semantic and functional meanings of homonyms, synonyms, and antonyms presented in the text are analyzed, and their explanations are provided based on relevant examples.
Keywords: semantic-paradigmatic relations, homonymy, synonymy, antonymy, lexical-semantic synonym, functional-semantic synonym.
Аннотация. В данной статье исследуются семантико-парадигматические отношения лексем в произведении Абдуллы Кадыри «Скорпион из алтаря». Анализируются семантические и функциональные значения омонимов, синонимов и антонимов, представленных в тексте, приводятся их разъяснения на основе соответствующих примеров.
Ключевые слова: семантико-парадигматические отношения, омонимия, синонимия, антонимия, лексико-семантический синоним, функционально-семантический синоним.

Omonim tushunchasi shaklan bir xil, mazmunan farq qiluvchi so'zlarga nisbatan ishlatiladi. Tildagi shakl va mazmun nomutanosibligining sababi shundaki, til ramzlarining (birliklarining) mohiyati oddiygina shakl va mazmun bog'lanishi orqali emas, balki til birliklarining o'xshashlik (paradigmatik) va qo'shnichilik (sintagmatik) munosabatlari orqali aniqlanadi [1: 24]. Hozirgi turkiy tillarda omonimlar ot, sifat, fe'l va ravish so'z turkumlarida uchragani kabi qadimgi yozma obidalarda ham omonimlik ana shu so'z turkumlari doirasida yuz beradi. Omonimlarning o'ziga xos xususiyatlari

shundaki, hozirgi turkiy tillarda ham, qadimgi turkiy tilda ham ular asosan bir yoki ikki bo'g'inli so'zlarda uchraydi. O'zbek tilshunosligida omonimiya hodisasi tadqiqiga bag'ishgangan ishlar salmoqli [2].

Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" asarida omonim so'zlardan unumli foydalangan. Biz ushbu birliklarni quyidagicha guruhladik va tahlil qildik:

Bir so'z turkumi doirasidagi omonimlar:

a) ot+ot: *jar I* – fors-tojikcha "yerning chuqur, o'yiq joyi": *"Ra'no bundan ortiqni ko'z o'ngiga keltira olmas, go'yo o'zini **jar** yoqasida ko'rgan kishidek panjshanba kechdan beixtiyor go'yo savqi tabi'iy ostida orqasig'a tisarilar edi"* [1: 308]; *jar II* – "baland ovoz bilan, ochiq e'lon qilish [2: 65]: *"**Jar** ma'nosiga endi tushungan yigitlarning yuzida birdan o'zgarish ko'rildi"* [1: 361]. *Qadoq I* – 409,5 grammga teng og'irlik o'lchovi: *"Arig' qazuvchilarning ovqatdan sillalari qurib, iliklari puchaygan yerdan o'n **qadoq** tuproq olib, irg'itishqa emas, hatto ketmanning o'zini ko'tarishka ham darmonsiz edilar"* [1: 163]; *qadoq II* – qo'l-oyoqda surkalaverib, qotib qolgan teri parchasi [2: 176]: *"Kutib o'lturg'uchilar ichidagi yamoq to'nlik qo'li **qadoq** bir dehqon maxdumning diqqatini o'ziga jalb etkan edi"* [1: 206].

b) fe'l+fe'l: *suz- I* – ovqatni idishga solmoq: *"Onangg'a ayt, osh dam yegan bo'lsa **suz**sin"* [1: 214]; *suz- II* – suvda harakatlanmoq [2: 120]: *"Bir necha qarindoshlarning titrab, qaxshab qilg'an ziyofatlari bilan uydan uyga o'tib, ne'matlar ichida **suz**ib yurish xayoli ham bir xayol bo'lib qoldi"* [1: 112]. Ushbu gapda *suzmoq* fe'lining hosila semasi ishlatilgan.

2. Turli so'z turkumi doirasidagi omonimlar:

a) ot+ravish: *burun I* – "hidlash organi": *"Quyoshda qovjiragan ikkita g'o'lun turshak og'iz yerida bir kafsh **burun** o'rnida yuqorig'a qarab o'rmalag'an bahaybat bir qurbaqa va quloq maqomida suv qovoqning ikki bag'riga tiralg'an ikki oshlov turar edi"* [1: 230]; *burun II* – "ilgari, oldin" [2: 37]: *"Albatta, Anvar uchun og'ir edi, ammo bu og'irliq **burun**dan sarmunshiy bo'lg'an kishining ustidagi qonuniy vazifasi hisoblanib kelganlikdan kishilarni uyda qabul qilishg'a Anvar majbur edi"* [1: 139].

b) ot+sifat: *qalin I* – "qiz chiqaruvchiga kuyov tomonidan beriladigan narsa va pul": *"Yana bir muncha fikrlanib o'lturgandan keyin ko'z o'ngiga **qalin** uchun beriladirg'an bir sanoch oltin, el qoshidag'i obro', eng oxirda Xudoyorning taxt vorisi bo'lg'an xonzoda kelib kechdilar"* [1: 290]; *qalin II* – "yon ko'lami normadan ortiq, yupqaning aksi" [2: 178]: *"Hujraning to'rdagi toqchasig'a besh-olti dona **qalin** muqovaliq kitoblar terilgan"* [1: 338]. *Qiziq I* – "qiziqarli, o'ziga jalb qiluvchi" [2: 180]: *"Qattig' ranjigan bir kun otasi Solih maxdumga bag'ishlab **qiziq** bir hajv yozg'an"* [1: 37]; *qiziq II* – "qiziqchi": *"Bu maxluq doimiy o'rdada turadirg'an xonning kundalik **qizig'**i mulla Baxtiyor edi"* [1: 230]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida ot so'z turkumidagi "qizigan holat"ni ifodalovchi qiziq leksemasi, asar tilida omonim sifatida uchramaydi. Asar lug'at fondida omonimlar bir turkum va turli turkumlar doirasida uchraydi. Tahlillardan *qadoq* so'zining omonimi hozirgi o'zbek adabiy tilida arxaizmga aylanganini, *qiziq* so'zi esa bugungi kunda "qiziqchi" ma'nosida ishlatilmasligini ko'rishimiz mumkin.

Sinonimiya. Har bir tilning sinonimlari boshqa tillardan kirgan so'zlar, shuningdek, shu tilning o'z imkoniyatidan yasalgan so'zlar hisobiga boyib boradi [6: 40]. Sinonim so'zlar aniq semantik aloqa (munosabat) asosida bog'langan lug'aviy birliklarning aniq (konkret) tizimidir. Xuddi mana shu aniq semantik aloqa asosida bog'langan leksik paradigmalar, o'z navbatida, yaxlit bir mikrotizimni tashkil qiladi [7: 2]. Asar tilida sinonimik paradigmalar fikrni teran anglatish, uslubni muvofiq tarzda shakllantirish imkonini yaratadi [8: 282]. Tilshunoslikda sinonimlarni turlarga ajratishda turli terminlardan foydalanilgan. Xususan, ma'nolari aynan bir xil sinonimlar dublet, absolyut, leksik-semantik sinonimlar kabi terminlar bilan ifodalangan. Biz ham tadqiqotlarga asoslanib, asarda qo'llanilgan sinonimlarni quyidagicha tasnifladik: 1. Leksik-semantik sinonimlar. 2. Funksional-semantik sinonimlar.

Leksik-semantik sinonimlar matndan tashqari ham sinonimik munosabat hosil qiluvchi so'zlar hisoblanib, ular semantik jihatdan bir-biriga mutlaq mos kelishi yoki ma'noviy nozikligiga ko'ra farq qilishi mumkin. Asar matnida keltirilgan *manglay* va *peshona* so'zlari bir xil tushunchani ifodalovchi sinonimlar bo'lib, genetik jihatdan tafovutlanadi: *"Shahidbek qayta boshdan **manglayod**ig'i terilib qolg'an terlarini artdi"* [1: 52]; *"Sultonalining ko'zi olalanib **peshona**sida qator ajinlar zohir bo'ldi"* [1: 282]. Shuningdek, asarda *shahzoda, valiahd, taxt vorisi* leksemalari sinonim tarzida uchrasada, lekin ushbu istilohlar semantik va pragmatik jihatdan farq qiladi. *Shahzoda* fors-tojik tilida "podsho" mazmunini anglatadigan *shoh* oti bilan "o'g'il" ma'nosini anglatadigan *zoda* otidan [4, III: 263] tuzilgan bo'lib, "shoh o'g'li" [5, III: 516] sememasini ifodalaydi: *"**Shahzoda** javobsiz kulimsirab, Gulshanga bir oz qarab turdi-da, ichkariga kirib ketdi"* [1: 173]. *Valiahd* arabcha *vali* va *ahd* so'zlaridan hosil bo'lgan qo'shma so'z bo'lib, *vali* bu arabcha so'z "boshqardi", "idora qildi" ma'nosini anglatuvchi *valiya* fe'lidan shakllanib, "boshqaruvchi", "idora qiluvchi", "hokim" ma'nosini anglatgan.

Funksional-semantik sinonimlar tilda so'zlar o'z ma'nosidan tashqari hosila ma'noni ham yuzaga keltiradi. So'zning o'z ma'nosi doimiy ma'nosidir, funksional ma'nosi esa vaziyat taqozo bilan bajarib turadigan ma'nosidir, ya'ni matnda ifodalangan semalar asosida shakllangan sinonimlar. Bunda so'zlar orasida polisemantik jarayon hosil bo'ladi. Polisemantik so'zlarning o'zaro yaqin va ma'lum jihatdan farqli semalari kontekstda namoyon bo'ladi. Asar tilida funksional-semantik sinonimlardan keng foydalanilgan.

Og'ir-qiyin so'zlari o'zaro matnda sinonimlikni hosil qilgan. *Og'ir* so'zi metoforik ko'chim orqali *qiyin* so'ziga ma'nodosh bo'lib kelgan: *"Do'kon dastgohini sotib ro'zg'or qildi, bular ham bitkandan keyin bu oilaning **og'ir** kunlari boshlandi"* [1: 68]; *"Anvar hozirgi Ra'noning o'ychan ko'ziga anchagina tikilib turg'ach, kulimsidi: – Javobi qiyin keldimi, Ra'no?"* [1: 152].

Kuzatishlarimiz natijasida shunday xulosa qilishimiz mumkinki, asarda sinonimik paradigma ham o'z qatlam, ham o'zlashma qatlam doirasida shakllangan. Asar tilidagi funksional-semantik sinonimlar bevosita ko'chimlar vositasida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, Qodiriy asarlarida leksemalararo sinonimik paradigma bilan bir qatorda bir lug'aviy birlik sifatida so'zga teng bo'lgan iboralar orasida ham sinonimlik keng qo'llangan. Iboralarda so'zlarga nisbatan ham ta'sirchalik, bo'yoqdorlik yuqori bo'lgani bois badiiy asar voqeligini tasvirlashda so'zlar bilan birga iboralar ham samarali xizmat qilgan.

Antonimiya. Antonimlar o'zaro qarama-qarshi til birliklari hisoblanadi. Antonimlarning asosida zidlik qonuniyati yotadi. O'zbek tilshunosligida antonimlar borasada turli bahslar mavjud. Xususan, Sh.Rahmatullaev boshchiligidagi tilshunoslar antonimlikni belgilash mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija berishi, bu prinsipga ko'ra ikkita ma'no o'rtasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o'rin olgan tushunchalar o'zaro antonimik munosabatlar deb qaraladi degan mulohazani bildirishsa, S.Usmonov, "er – xotin, opa – singil, o'g'il – qiz tipidagi juftliklarni "yarim antonimlar" hisoblaydi. Til hodisasi sifatida esa antonimlar bir-biriga nisbatan qarama-qarshi mazmun anglatadigan, til sistemasida mavjud bo'lgan alohida leksemalar bo'lishi darkor. Bizningcha ham, antonimlarni belgilashda mantiqiy markaz prinsipi asosida amalga oshirish lozim. Roman matnida badiiy ifoda, fikr, emotsionallikni yetkazishda antonimlardan samarali foydalanilgan. Asarda

keltirilgan antonimlarni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratib tadqiq qilamiz:

a) narsa-buyum, hodisani bildiruvchi antonimlar: *yorug'lik-qorong'ulik, yoshlik-qarilik, ko'k-yer, to'y-motam, mung-kulgi, tinch-urush, ovloq-yalanglik, suyunch-qayg'u, tiriklik-o'lim, visol-hijron, daromad-buromad, savob-gunoh* va h.k.;

Tullak so'zining denotativ ma'nosi "bulturgi, qari (ikki, uch yillik), tullagan, tullab chiqqan (parrandalar xaqida)" [5, IV: 186] mazmunni bildirib, asarda konnotativ ma'no, ya'ni "ayyor", "makkor" kabi semada kelgan: *"Mulla Abdurahmon* ***ahmoq*** *emas, ko'b ish ko'rgan* ***tullak*** *endi faqat uning dushmanlik tarafi qoldi"* [1: 249]. Zikr etilgan jumlada *tullak* va *ahmoq* zidligi kontekstual antonimlikni shakllantirgan.

Badiiy asar tilining yorqinligi, emotsional-ekspressivligini ta'minlashda omonim, sinonim, antonimlar katta ahamiyat kasb etadi. Asar lug'at tarkibida leksik-semantik birliklar bilan birga matn ichidagina funksional-semantik vazifani bajargan sinonim va antonimlar ham ko'p. Bu muayyan leksemaning hosila semalarini aniqlashga yordam berish barobarida, muallifning o'ziga xos uslubi va so'z qo'llash mahoratini ko'rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Sharq, 2019. – 288 b.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi 1984.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent: Fan, 2000.
5. Fozilov E. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1983–1985.
6. Sharipova O'., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: 2007.
7. Safarova R. Leksik-semantik munosabat turlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
8. Xolmanova Z. "Boburnoma" – til qomusi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.

Elnora JONONQULOVA,
Qarshi davlat universiteti filologiya fakulteti
lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti

RANG NOMLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida rang nomlarining kelib chiqishi va bu borada olimlarning qarashlari, rang nomlarining ifodalanish usullari, semantik tabiati, ramziy qatlamlari, milliy madaniyat bilan bog'liqligi, kontekstual ma'no kengayishi va linvopoetik xususiyatlari misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so'zlar: rang nomlari, leksik va poetik qatlam, affiks, emotsional-ekspressivlik, obrazlilik, ramziylik, lingvopoetik xususiyatlar.

Annotation. The article covers the origin of color names in the Uzbek language and scholars' views on this topic using examples. Counting, methods of expressing color names, their semantic nature, symbolic layers, connection with national culture, contextual expansion of meaning and linguopoetic features.

Keywords: color names, lexical and poetic layer, affix, emotional-expressive, figurative, symbolic, linguopoetic features.

Аннотация. В статье на примерах освещается происхождение названий цветов в узбекском языке и взгляды ученых на этот счет, способы выражения названий цветов, их семантическая природа, символические слои, связь с национальной культурой, контекстуальное расширение значения и лингвопоэтические особенности.

Ключевые слова: названия цветов, лексический и поэтический пласт, аффикс, эмоционально-экспрессивный, образный, символический, лингвопоэтические особенности.

Rang nomlari xalqlarning ong-u tafakkuri mahsuli bo'lib, xalqning dunyoqarashi, madaniyatini o'zida ifoda etadi. Rang atamalari nafaqat leksik birlik, balki badiiy asarlarda ma'naviy-estetik ma'no yuklovchi vosita sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Tilshunoslikda rang-tusni ifodalash maqsadida turli leksik birliklar, birikmalardan foydalaniladi. O'zbek tilidagi rang nomlari nafaqat leksik, balki poetik qatlamda ham ahamiyatli.

Rang nomlarining aksariyati qadimgi turkiy tildan va qisman arab, fors hamda rus manbalaridan kirib kelgan. Qadimgi turkiy til tarixining noyob yodgorliklaridan biri bo'lgan Mahmud Koshg'ariyning "Devon-u lug'ot at-turk" asarida aq (oq), qara (qora), kok (ko'k), qiz (qizil), sarig' (sariq), boz (oqish, kulrang), al (olovrang) kabi rang nomlari qayd etilgan [1: 125]. Ular bugungi o'zbek tilida ham deyarli o'zgarmagan. *Nil* (ko'k, bo'yoqqa nisbatan qo'llaniladi), *zangori* (ko'kimtir), *binafsha, havorang* so'zlari arab va fors tillaridan; *pushti, kulrang, qahvarang, siyohrang* so'zlari esa chet tillaridan o'zlashgan. *Zumrad* (arabcha, boshqa tillarda *elsaragd, izumrud, zimrut* shakllarida talaffuz qilinadi, ko'kish, yashil tusli qimmatbaho tosh), feruza (qimmatbaho tosh, forscha g'alaba, muvaffaqiyat monologi ma'nosini anglatuvchi „feruza", „piruza", „piroya" so'zlaridan kelib chiqqan) va zangori (tojikcha *sangi g'oriy* so'zlaridan olingan bo'lib, "g'orning toshi" degan ma'noni anglatadi) rang turlari bo'lsa o'zi anglatadigan narsaning rangini ifodalab keladi [2: 28].

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari yetuk olimlar ham rang nomlari, ularning ramziy ma'nolari va inson sog'lig'iga ta'siri haqida yozib qoldirganlar. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy "Kitob al-javohir fi ma'rifat al-javohir" ("Minerologiya") asarida ranglarning 200 dan ortiq turining 2000 ga yaqin nomlanishini keltirib o'tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to'g'risida ma'lumot bergan **(alvon, rahuvon, bargi karam, bug'doyrang, bo'z gulgun, malla, norgul, pistaqi pushti, nafarmon, gulobi** va hakazo) [3: 43]. Unda ranglarning ma'lum bir predmetga o'xshatish asosida yaratilgan rang nomlari ko'p uchraydi. Beruniy ranglarning tili borligini aytib, ularning ramziy ma'nolariga ham to'xtalib o'tgan.

Rang nomlarini ifodalash uchun bir qator affikslar ham mavjud: *-vash* (safsarvash), *-doq* (zarg'aldoq), *-par* (rangpar), *-imtir* (ko'kimtir), *-ish* (sarg'ish), *-cha* (qoracha), *-chil* (oqchil) [4: 30]. Bu qo'shimchalar esa o'z navbatida, so'zga darajalanish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, *-viy, -gun, -i, -iy, -mon, -on, -obi, -rang* kabi morfemalar ma'lum bir predmetlarga qo'shilib, rang nomlarini hosil qiladi **(gulgun, rayhoni, yoqutiy, nafarmon, jigarrang, za'faron).** Shuningdek, tilimizda *yo'l-yo'l, ola-bula, olachipor, pistoqi,*

taram-taram, targ'il, qashqa singari so'zlar ham rang nomlarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rang nomlari badiiy matnlarda, she'riyatda nafaqat predmetning belgisini, balki obrazlilik, ramziylik, emotsional-ekspressivlikni ham mujassam etadi. Xususan, buyuk shoir Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asaridan olingan quyidagi misralarga e'tibor qaratsak:

Qaro ko'zum, kel-u mardumluq emdi fan qilg'il
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il.

Yuqorida *qaro* so'zi qora rangni bildiribgina qolmay, tardi aks she'riy san'ati uchun ham asos bo'lgan hamda bir qator ko'chma ma'nolarni anglatgan. *Moviy ko'nglak uza gulrang qabosinmu deyin* misralarida esa moviy, gulrang sifatlari epitetni hosil qiladi, o'quvchining ongida obrazni aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

Zamonaviy she'riyatimizda ham shoirlar rang nomlaridan unumli foydalanishgan. Jumladan, Abdulla Oripovning "Qo'llarida oq yelpig'ich, Oy nurida yaltirar" yoki Usmon Azimning "Unutishing – qaro, hijroning – qaro, Sog'inching oppoqdir, xatlaring oppoq" she'riy misralarida rang nomlari belgini emas, aksincha, semantik jihatdan muayyan hissiy holat (oq – umid, poklik, muhabbat; qora – zulmat, og'riq, iztirob)ni ifodalasa, lingvopoetik jihatdan metafora, ramz va antonimiyani hosil qiladi.

Xalqimizda "Har insonning rangi, guli bor'" degan gap bor [5: 12]. Darhaqiqat, ranglar yuqoridagi xususiyatlaridan tashqari yana simvolik va milliy-estetik funksiya bajarishi buning yorqin isbotidir. Xususan, oq – poklik, halollik, ezgulik, nur, baxt (oq sut, oq yo'l); qora – g'am, zulmat, xavf, fojia, mavhumlik, tushkunlik (qora tun, qora kunlar); qizil – hayot, kuch, ehtiros, kurash, xursandchilik, g'alaba (qizil qon, qizil bayroq, qizil gul); yashil – tabiat, yangilanish, navqironlik, shodumonlik, sabr-matonat, baraka (islom madaniyatida muqaddas rang); ko'k – erkinlik, orzu, cheksizlik, (Ko'k Tangri, ko'k osmon); moviy – mehr-oqibat, sadoqat, huzur-halovat, yomon ko'zdan asrash; sariq – orzu-havas, bepoyonlik, mustaqillik kabi ramziy ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Demak, ranglar badiiy matnda mazmunning chuqurlashuvi, obrazning badiiy rang-barangligi va emotsional-ekspressivlikning shakllanishida muhim poetik vosita sifatida namoyon bo'ladi hamda metafora, metanimiya, antonimiya, epitet, ramz va istiora kabi she'riy san'atlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Rang nomlarining ifodalanishi o'zbek she'riyatining poetik tizimida estetik, emotsional va falsafiy funksiyalari bilan inson ruhiy olamining tiliga aylanadi. Shu bois rang nomlarining lingvopoetik xususiyatlarini tahlil qilish tilshunoslikning semasiologiya va stilistika sohalarida ham muhim ilmiy masala sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg'ariy. Devon-u lug'ot at-turk. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. 125-bet.
2. Abdurahmonov Sh. Kamalak jilolari // Guliston, 1968, 9-son.
3. Odilxonov K. Mineralogiya. – Toshkent: Fan, 2004.
4. Bulatov S. Rangshunoslik. Darslik. – Toshkent: 2009. 26-35-betlar.
5. Gul ko'ngil so'zi. Marsiya // Saodat, 1993, №12-bet.

Iroda TURAYEVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Gulsevar DAVLATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabasi

ZULFIYA IJODIDA FOLKLOR UNSURLARINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada o'zbek adabiyotining mashhur vakili – Zulfiya ijodida folklor unsurlarining qo'llanishi, ularning poetik talqini, badiiy-estetik vazifasi va milliy adabiyotimiz rivojidagi o'rni yoritiladi. Shoiraning she'riy asarlarida uchraydigan xalq og'zaki ijodiga xos obrazlar, ramz-timsollar, maqol va matallar, tabiat tasvirlari hamda marosim, urf-odatlarga daxldor timsollar keng tahlil qilinadi.
Kalit so'zlar: Zulfiya, folklor unsurlari, obrazlar tizimi, xalq og'zaki ijodi, poetika, ramz, timsol, milliy adabiyot.
Annotation. This scientific article explores the use of folklore elements in the works of Zulfiya, a renowned representative of Uzbek literature, their poetic interpretation, artistic and aesthetic function, and their role in the development of our national literature. Images, symbols, proverbs and sayings, descriptions of nature, as well as symbols associated with rituals and customs found in the poet's poetic works, are widely analyzed.
Keywords: Zulfiya, folklore elements, system of images, oral folk creativity, poetics, symbol, figurative symbol, national literature.
Аннотация. В данной научной статье освещается использование фольклорных элементов в творчестве Зульфии – известного представителя узбекской литературы, их поэтическая интерпретация, художественно-эстетическая функция и роль в развитии нашей национальной литературы. Широко анализируются образы, символы, пословицы и поговорки, описания природы, а также символы, связанные с обрядами и обычаями, встречающиеся в поэтических произведениях поэтессы.
Ключевые слова: Зульфия, фольклорные элементы, система образов, устное народное творчество, поэтика, символ, образ-символ, национальная литература.

O'zbek adabiyotining taraqqiyotida ayol shoiralar ijodining tutgan o'rni beqiyos bo'lib, ularning orasida Zulfiya alohida mavqega ega. Uning she'riyati insoniy tuyg'ularning nozik jilolari, milliy ruhning poetik ifodasi va lirizmning betakror ko'rinishlari bilan ajralib turadi. Shoira poetik uslubining eng muhim xususiyatlaridan biri – folklor unsurlaridan ijodiy foydalanishdir [1].

Zulfiya xalqning ko'p asrlik badiiy tafakkuri mahsuli sanalgan og'zaki ijod manbalarini chuqur o'rganib, ularni zamonaviy ayol dunyosi, ruhiy olam va she'riy tasavvurlari bilan uyg'unlashtira oladi [2]. Shu bois uning she'rlari xalqona ruh, tabiiylik, samimiyat va badiiy aniqligi bilan ajralib turadi. She'r matnidagi obrazlar, iboralar va kayfiyatlar o'zbek xalqining mentaliteti, urf-odatlari va madaniy tasavvurlari bilan chambarchas bog'liq [3]. Shu sababli unda etnografik folklor unsurlari bor. Masalan, marosimlar, motam-azalar, to'y xursandchiliklari, xalqona tasavvurlar, alam-ohangli savollar, rashk motivi va boshqalar. Masalan, "Sensiz" she'rida shoira

(yoki lirik qahramon) umrining katta qismini yolg'iz o'tkazgani, o'tgan baxtli kunlarini sog'inganini his qilamiz. Unda o'lim sahnasi – ta'ziyadagi holat tasvirlanadi:

"Mana, bir umrni yashadim sensiz,
Qaytmas shodliklarning qaytishin kutib,
Tobuting boshida cho'kkanimda tiz,
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib".

"Tobut boshida tiz cho'kish" – o'zbek xalqining motam marosimiga xos holat; yaqinlar marhum oldida tiz cho'kishi qadimiy an'anadir. Farzandlarning qo'lidan tutib ko'tarish – "qolganlar suyanchiq" degan xalqona qarash, oilaviy birlik timsoli. "Qaytmas shodliklarning qaytishini kutish" – xalq qo'shiqlari, dostonlarda uchraydigan umumxalq ishqiy-alam motivi.

"Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'uga.
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga" [4]

Shoira hayotning barcha sinovlari oldida chidamli bo'lib qolganini aytadi. Yaxshilikka ham, qiyinchilikka ham bardoshli bo'lish – xalqona donishmandlik belgisi. Bahor – qish qarama-qarshiligi xalq og'zaki ijodida hayot sikllarini anglatadi (bahor – quvonch, qish –og'riq). "Azasida yig'layman qon-qon" – o'zbek ayollarining azada ovoz chiqarib yig'lashi qadimiy an'analarlardan (marsiya, yo'qlov). "To'yida yayrayman o'xshab ohuga" – to'y marosimlaridagi xursandchilik, quvonch obrazlari (ohu – quvonch bilan chopib yurgan kiyikka o'xshashlik – folklor tasviri). "Har nega qalqon" – xalqona ibora, hayot zarbalari oldida tik turish ma'nosida ifodalangan.

"Lekin qolganimda qalbim-la tanho,
Tuyg'ular zoriga solganda quloq.
O'zni zaif, chanqoq sezganda goho,
Alamdan beraman javobsiz so'roq:"

Qahramon tashqi kuchli ko'rinishiga qaramay, ichida zaif, sog'inchli, javobsiz savollarga to'la. Tuyg'ular zori, javobsiz savol berish xalqona ifoda, xalq qo'shiqlari, termalar va xalq dostonlarida ko'p uchraydi.

"Tirik ekan nega tashlab ketmading?
Mendan nafisroqning husniga oshiq,
Mendan yoniqrog'i tortmadi sani,
Edi nigohingga bor jannat ochiq" [5]

Shoira o'zini ayblaganday, rashk bilan to'la savollar beradi. "Nafisroq husn", "jannat nigoh" – xalq qo'shiqlari, navolarda uchraydigan majoziy obrazlar. Rashk – o'zbek ayol lirikasining asosiy motivlaridan. O'zini boshqalar bilan qiyoslash "lapar", "yor-yor"larda keng uchraydi.

Zulfiya tabiat va sevgi obrazlarini uyg'un talqin qilib, milliy adabiy an'anaga xos poetik mushtaraklikni yaratadi. Zulfiyaning turmush o'rtog'i bo'lgan Hamid Olimjon uning iste'dodini birinchi bo'lib kashf etgan adiblar sirasida edi: "Zulfiya ayol qalbining eng nozik jaranglarini poeziyada topa olgan noyob iste'doddir" [6] deya ta'kidlaganida, bu e'tirof Zulfiya she'riyatining lirik chuqurligini ko'rsatdi. Abdulla Oripov uning she'riyatini milliy ma'naviy qadriyatlar bilan bog'lab baholagan: "Zulfiya nomi o'zbekning ma'naviy osmonida porlagan yulduzdir. U ayol sha'nini adabiyotda yuksaltirdi" [7].

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari: maqol, matal, qo'shiq, yo'qlov, marsiya, lapar, doston kabi folklor janrlaridan namunalar tahlil qilinib, ularning Zulfiya ijodidagi poetik aks-sadosi o'rganildi. G'.G'ulom, H.Olimjon, Oybek, A.Qahhor, A.Oripov, E.Vohidov kabi adiblarning Zulfiya ijodi haqidagi fikrlari; shuningdek, B.Abdullayev, S.Qodirov, N.Komilova va boshqa adabiyotshunoslar tomonidan yozilgan ilmiy maqolalar tadqiqotning nazariy bazasini tashkil etdi. O'zbek folkloriga bag'ishlangan ilmiy qo'llanmalar, ensiklopediyalar, xalq og'zaki ijodida bahor, ohu, bulbul, rashk, visol, motam kabi timsollarning mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqotda zamonaviy filologiya va folklorshunoslik fanlariga xos quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Poetika tahlili metodi. Zulfiya she'rlarida uchraydigan ramzlar, timsollar, metaforalar, xalqona iboralar poetik struktura nuqtai nazaridan o'rganildi. She'riy matndagi badiiy tasvir vositalari va mazmuniy qatlamlar tahlil qilindi.

2. Qiyosiy metod. Zulfiya ijodidagi folklor obrazlari – bulbul, bahor, ohu, qish, tobut boshida tiz cho'kish kabi tasvirlar – xalq og'zaki adabiyoti namunalaridagi an'anaviy timsollar bilan taqqoslab o'rganildi. Bu metod folklor ildizining chuqurligini aniqlashga imkon berdi.

3. Kontekstual tahlil metodi. She'rlarning paydo bo'lgan davri, shoiraning hayoti, turmush o'rtog'i Hamid Olimjonning ta'siri, urf-odatlar, o'zbek ayollarining mentaliteti bilan bog'liq kontekstlar o'rganildi.

4. Struktur tahlil. She'rlarning ichki kompozitsiyasi, baytlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik, takrorlar, savol-javob shakli, lirizmning ritmik tuzilishi ilmiy asosda tahlil qilindi.

5. Semantik tahlil. Matndagi "muhabbat", "yolg'izlik", "rashk", "motam", "bahor", "ohu" kabi timsollar semantik qatlamlar orqali chuqur o'rganildi. Har bir obrazning folkloriy ma'nolari bilan shoiraga xos yangi ma'nolari aniqlab chiqildi.

6. Etnografik yondashuv. She'r matnida uchraydigan marosimlar – to'y, aza, yo'qlov, tiz cho'kish, farzandning suyanchiqligi kabi holatlar o'zbek xalq etnografiyasi bilan bog'lanib tahlil qilindi.

Zulfiya ijodida folklor unsurlarining qo'llanishi o'zbek ayol lirikasining shakllanishi va taraqqiyotida muhim bosqich bo'lib xizmat qilgani tadqiqot davomida yaqqol namoyon bo'ldi. Shoiraning poetik uslubi xalq og'zaki ijodi bilan uzviy bog'liq bo'lib, folklor obrazlarining badiiy tizimda tutgan o'rni bir necha asosiy yo'nalishda o'z aksini topadi. Avvalo, tahlil qilingan she'rlar, ayniqsa, "Sensiz" she'ri, o'zbek xalqining qadimiy ruhiy merosi – motam marosimlari, to'y xursandchiliklari, ona mehr-shafqati, ayolning ruhiy olami, rashk motivi kabi etnografik va folklor qatlamlarni chuqur ifodalab bergani ma'lum bo'ldi. "Tobut boshida tiz cho'kkanimda" satri o'zbek xalqida marhum oldida tiz cho'kish marosimiga borib taqaladi. Bu obraz xalq dostonlarida, yo'qlovlarda, marsiyalarda uchraydigan sahnaviy ifoda bo'lib, Zulfiya uni zamonaviy poetik shaklda qayta talqin qiladi. She'rda bahor–qish, ohu–quvonch, qaytmas shodlik, qorong'u tun kabi an'anaviy tasvirlar o'zbek xalqona tasavvurlarining badiiy ko'rinishlaridir. Bu obrazlar xalq qo'shiqlari, ertaklar va dostonlarda mavjud bo'lgan ramziy ma'nolarni eslatadi. Shoira bu ramzlarni faqat keltirib qo'ymaydi, balki ularga zamonaviy ayolning ruhiy kechinmalari, sog'inch, rashk, vafodorlik kabi psixologik holatlarni singdiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Zulfiya folklor unsurlaridan shunchaki bezak sifatida foydalanmaydi; aksincha, ular orqali lirik qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari, ayolning ijtimoiy hayotdagi o'rni va milliy qadriyatlar tizimi badiiy ifodaga ega bo'ladi. Shoiraning bahor obraziga qo'shgan ma'naviy yuk - yangilanish, ichki uyg'onish, hayotga qayta tiklanish, o'ziga qaytish motivlari ham folklordagi "bahorning ruhiy uyg'otuvchi kuchi" bilan mos keladi, ham shoiraning individualligini aks ettiradi.

Folklor unsurlari va poetik tasvirlar orasidagi uyg'unlik shoiraning she'riyati badiiy-estetik jihatdan nihoyatda boyligini ko'rsatadi. Zulfiya poetik tafakkurida xalqona tasavvurlar bilan shaxsiy lirizm sintezi kuchli bo'lib, shoira xalq og'zaki ijodining ramzlarini zamonaviy mazmun bilan to'ldiradi. Uning ijodidagi folklor obrazlari – ohu, bulbul, bahor, qish, qayg'u, tabiat va inson ruhiyatining birligiga asoslangan mukammal badiiy tizimdir.

Shuningdek, Zulfiya ijodining o'zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o'rni shoiraning zamondoshlari G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Oripov kabi adabiy arboblarning e'tiroflarida ham o'z tasdig'ini topadi. Ularning fikrlari shuni ko'rsatadiki, Zulfiya faqat ayol lirikasi emas, balki o'zbek milliy adabiyati taraqqiyotiga xizmat qilgan ijodkordir. Shoiraning xalqona ruh bilan sug'orilgan satrlari o'zbek xalqining ruhiyatini, estetik qarashlarini, ayolning ma'naviy olamini yaxlit holda aks ettiradi.

Zulfiya ijodida folklor unsurlarining qo'llanishi uning poetikasining asosiy jihatlaridan biridir. Shoira xalq og'zaki ijodiga xos ramzlar, obrazlar, maqollar, tabiat tasvirlarini chuqur badiiy idrok bilan qayta talqin qilib, lirikaning zamonaviy ko'rinishiga katta hissa qo'shgan. Uning she'rlari milliy madaniyat, xalqona tafakkur va umuminsoniy tuyg'ularning uyg'un ifodasidir. Shoiraning folklordan ijodiy foydalanishi o'zbek adabiyotining boyishiga xizmat qilgan bo'lib, bugun ham o'z estetik ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Tanlangan asarlar. – Toshkent: 2000.
2. Abdullayev B. Zulfiya she'riyatida bahor motivi // O'zbek adabiyoti, 2015.
3. Qodirov S. Zulfiya lirikasi va zamonaviylik. // Adabiyotshunoslik, 2018.
4. Hamid Olimjon. Adabiyot haqida. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.
5. Oripov A. Saylanma. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 2001.
6. G'ulom G'. Tanlangan asarlar. 3-jild. Tanqidiy maqolalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1980.
7. Oybek. Adabiy portretlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1965.

Navruzgul TURDIYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'zbek adabiyoti yo'nalishi tayanch doktoranti

LUQMON BO'RIXONNING "KECHIKKAN KO'Z YOSHLAR" HIKOYASIDA OBRAZ BOTINIY OLAMI TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Luqmon Bo'rixonning "Kechikkan ko'z yoshlar" hikoyasidagi qahramonlarning ichki dunyosini tahlil etish orqali obrazlar kashf etiladi. Muallif niyati, qahramonlarga munosabati va qahramonlar ichki psixologik holatining hikoya badiiyatiga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: botiniy olam, ichki monolog, konflikt, psixologizm, detal.

Annotation. In this article, the images are revealed through the analysis of the inner world of the characters in Luqman Burihan's story "Late Tears". The author's intention, attitude towards the characters, and the influence of the characters' inner psychological state on the story's artistry are studied.

Keywords: inner world, internal monologue, conflict, psychologism, detail.

Аннотация. В данной статье образы раскрываются путем анализа внутреннего мира героев рассказа Лукмана Бурихана «Запоздалые слезы». Изучается авторское намерение, отношение к героям и влияние внутреннего психологического состояния героев на художественность рассказа.

Ключевые слова: внутренний мир, внутренний монолог, конфликт, психологизм, деталь.

Inson eng oliy xilqat va uning qalbini his etish esa murakkab va zavqli jarayondir. Nasrimiz durdonalari bu borada bizga katta imkoniyat eshigini ochadi. O'zbek adabiyotida mustaqillikdan keyin insonning ichki kechinmalari, ruhiyati va botiniy olamini tasvirlash adabiy jarayonda asosiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllana boshladi. Bugungi kungacha bunday asarlar o'quvchi uchun inson ruhiyatini chuqur anglashga xizmat qilmoqda.

Luqmon Bo'rixonning nasri psixologizmga tayanilgani bilan ajralib turadi. Bu borada adabiyotshunos Q.Yo'ldoshevning asosli fikrlari ham bor: "Luqmon Bo'rixon adabiy davralarda ruhiyyat rassomi sifatida tilga olingan" [1: 285]. Hikoya kichik janr bo'lsa-da, unda ishtirok etadigan obrazlarning ma'lum bir xarakteri orqali obrazning qalb ummoni, ichki botiniy olami haqida taassurot olish imkonini yetarlicha topsa bo'ladi. Albatta, bu yozuvchining uslub va mahorat mezonlariga bog'liq. "Botin (arabcha yashirin) – asosiy falsafiy tushunchalardan biri bo'lib, muayyan narsa, voqea-hodisa, jarayonning ichki mazmun-mohiyati deganidir. Botin zohirning ziddi, ichkining muqobilidir. Botin ba'zi hollarda aqlning amaliy kuchiga ishonch, aql bilan narsa-hodisalarning asl mazmunini anglab olishni anglatadi" [https://oyina.uz]. Luqmon Bo'rixonning "Kechikkan ko'z yoshlar" hikoyasida Eshboyevning ruhiy holati tahlil talab qiladigan, o'qirmanni mulohazaga chorlaydigan holat hisoblanadi.

"Kechikkan ko'z yoshlar"ning bosh qahramoni Eshboyevdir. U har bir ishga ma'suliyat bilan qaraydigan, aytilgan vazifani aytilganidek bajarishga urinadigan obrazdir. Har doim ham bu ma'suliyatliligi unga baxt va quvonch olib kelmaydi. Hamma qatori bo'lmaslik, o'zining vijdon azobida qolishiga sabab bo'ladi. Eshboyevning vijdon azobi hissi ichki monologlar va ko'z yoshi ramzi bilan ifodalangan. Hikoya qahramonining psixologik holatlari ishonarli va yorqin tasvirlanganligi e'tirofga loyiq. Butun hikoyada psixologizm ufurib turadi. "Badiiy psixologizm insonning botiniy olami, ko'ngilda kechayotgan his-tuyg'ulari bilan bevosita bog'liq falsafiy-psixologik hodisa bo'lib, unda asarning badiiy-estetik mohiyati kasb etadi" [2: 10].

Eshboyev universitetga kirish uchun ancha kutdi. Birinchi yili imtihondan o'tolmadi. So'ng harbiy xizmatni uzoq Sibir tomonlarda qiyinchilik bilan ado etib, buyruqlarga bo'ysunib o'qishga kirish uchun katta imkoniyatni beradigan tavsiyanoma bilan keldi. Shu tavsiyanoma bo'lmaganda talaba bo'lish imkoniyati orzuligicha qolgan bo'lar edi. Eshboyev – qishloqning oddiy, sodda yigiti. U uchun talabalik hayotning bergan katta

in'omlaridan biridir. U talabalarga xos sho'xlik, "egrilik"larni bilmaydi. O'qituvchilarning va rahbarlarning gapini ikki qilmasdan so'zsiz bajarishga o'rgangan. Bu uning xarakteriga xos xususiyat. Ko'pchilik yoshlar qatori o'ynab-kulib yurmaydi. Hammadan ajralib turadigan tarafi ham shunda. Kurs rahbari talabalarni DNDga navbatchilikka qo'yish uchun shtabga vaqtida kelishni uqtirganda ham Eshboyev vaqtidan yarim soat oldin borib turadi. Boshqalar esa yigirma minut kechikib ham keldi. Eshboyevning yuragida o'qituvchilarning ko'ziga yaxshi ko'rinish orqali nimadir manfaatga erishish istagi yo'q. Buni uning quyidagi ichki monologi orqali sezish mumkin: "O'larmidim ko'p qatori kelsam, ana endi meni deb gap eshitishadi, bular" [3: 275]. U hamma ishni o'zi tugal bajaraverganidan kursdoshlariga gap tegishini istamaydi, ammo o'zining ham ichki qo'rqoqligi (agar vazifani bajarmasa, o'qishgohdan haydalib ketishi mumkinligi to'g'risidagi o'y) vazifalarni vaqtida bajarishga undab turadi. U ichida bir-biriga zid bo'lgan fikrlarni ham o'ylaydi. Kursdoshlari tutgan yo'lni tanlamoqchi bo'ladi. Baribir ichki o'y-xayollar uni hamma yurgan yo'ldan yurishdan qaytaradi. Kurs rahbarining ogohlantirishlarini xayolidan o'tkazadi. "Bor degan joyga borish kerak-da, –yo'l-yo'lakay o'ylab ketdi u, – nima keragi bor o't bilan o'ynashib? Ular bilan qasdlashsa yomon... [3: 276]" Ishga ma'suliyat bilan yondashish yaxshi hislat va bu atrofdagilarga yaxshi o'rnak bo'ladi. Hamma vazifalarga befarq bo'lib ketaversa, jamiyat loqaydlik botqog'iga botadi. Buyruqlar o'z kuchini yo'qotadi. Inson har doim ham hamma narsani to'g'ridan to'g'ri bajaraverishi, hamma narsani ham bevosita tushunaverishi ba'zan uning mardligiga putur yetkazib qo'yishi mumkin. Eshboyev eng kichik detallik narsalarda ham o'qituvchilardan qo'rqadi, ojizalarga tantilik, oliyjanoblik kabi xislatlarni bilmaydi. Bu bilan yigitlik sha'niga dog' tushirganga o'xshaydi.

Zumrad darsda dugonasiga kitob uzatib yuborishni Eshboyevdan so'raganida, Eshboyevning ikkilanib qo'l uzatishidan kitob tushib ketganda ham ayb menda deya tan ololmaydi yoki jim o'tirolmaydi. "Men emas – xayolan rad etdi u, – men emas!" [3: 277] O'qituvchi holatga jahl bilan qarayotganini sezgan Eshboyev hatto hirqiroq ovozda o'zi emasligiga ishora ham beradi. Bu bilan Zumradning darsdan chiqib ketishiga sababchi bo'ladi. Balki, jim o'tirganida yoki "mendan ko'ryapsizmi?" demaganda bu holat bo'lmasligi mumkin edi. Bular-ku oddiy kundalik hayot tashvishlari bo'lib ko'rinishi mumkin, ammo Eshboyevning bu xarakteri ba'zi insonlarning hayotining qiyinlashuviga ham olib keldi. DNDda navbatchilikda ham o'z ishini sidqidildan bajaradi. Boshqa hamrohlari yotoqxonalarga kirib ketishib, navbatchilikni e'tibordan chetda qoldiradi. Eshboyev ham xonasida kitob o'qimoqchi bo'ladi, lekin unda ruhiy konflikt hissi paydo bo'ladi. "Zang'ar, kapitan tekshiraman, dedimi, tekshiradi. Boshqa mashrutlarni tekshirmasa ham biznikini tekshiradi. Chunki kinotexnikum tumshug'ining tagida-ku! [3: 283]" U navbatchilik paytida bir mast odamni militsiya xodimlariga tutib beradi. Mast odam Eshboyevdan yordam so'ragan edi. Ertaga ishga chiqishi kerakligi muhim ekanligini unga tushuntirmoqchi bo'ladi. U ham bir oilaning ro'zg'orini tebratayotgan inson bo'lishi mumkin edi. Eshboyevning qo'rqoqligi va "suyunchixo'rligi" oqibatida mast odam ikki hafta hushyorxonada yotadigan va jarima to'laydigan bo'ldi. Qonun qoida doirasida u to'g'ri ish qildi. Biroq insoniy jihatdan o'ylab ko'rilsa, Eshboyev odamlarni tushunishni, birovga to'g'ri yordam berishni bilmaydigan, hali o'zini anglamagan, ichki ruhiyatini xotirjam va xursand qilishni bilmaydigan obrazdir. Uning ichki kechinmalari ziddiyatlarga to'la personaj hisoblanadi. Qilar ishni qilib bo'lib, ichidan pushaymon bo'ladigan obrazning ifodasidir."Uf-f, odam bo'lish qanchalar og'ir-a", – derdi ichi-ichidan kemirayotgan o'ylardan qutulolmay. Ko'zidan bir tomchi yosh sizib chiqdi [3: 286]". Bu yosh uning qattiq pushaymonligining belgisi hisoblanadi. Inson vaqt sinovida toblanadi, yetuk bo'ladi. Ko'z yosh uning yuksalishiga o'zini anglashiga katta bir qadam bo'lib xizmat qilsa, ajab emas. Eshboyevda yaxshi fazilatlar ko'p, biroq u inson har vaqtda xatoliklarga yo'l qo'yadi, ziddiyatlarga ro'baro keladi. Shu asnoda o'zligini anglaydi. Eshboyev obrazi va u qilgan ishlar oddiy jamiyatda uchraydigan kundalik holatlar bo'lsa-da, Eshboyevning o'ylarining murakkabligi ichi konfliktlarga boyligi, nasrimizning yangicha obrazlarining namunalariga xosdir. Hikoyada qahramonning botiniy olami konfliklarga boy tasvirlangan. Pushaymonlik hissi obrazning ruhiyatida keskin o'zgarish olib kelishi kutiladi. Muallif ruhiy jarayonlar tasvirini psixologik holat va ichki monolog bilan beradi. Eshboyevning kechikkan bo'lsa-da anglagan pushaymonligi kelajakdagi xatolarining oldini olishga imkon beradi.

Luqmon Bo'rixonning hikoyalaridagi obrazlarning ichki olami nihoyatda betakrordir. Adib hikoyalarida bugungi zamon kishisining murakkab o'ylari, ruhiy iztiroblarini, bajargan amali va qalbidagi hissiyotlar o'rtasidagi konfliktlarni ifodalashga uringan. Bugungi kun odamlarining o'ychil, qaror qabul qilishga kelganda ikkilanishlarini ushbu hikoya orqali yoritib bergan. Yozuvchi hikoyasi bilan inson psixologizmini yoritishga muvaffaq bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. Bo'rixonov. Begonalar yurmas bu yerda. – Toshkent: 2019.
2. Qurbonova F. Xurshid Do'stmuhammad asarlarida badiiy psixologizm va majoz tadriji. – Qarshi: Ilm-Fan-Manaviyat, 2024.
3. Bo'rixonov L. Tun qa'ridagi shu'la. – Toshkent: Oltin qalam, 2024.

Ma'suma MO'MINOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Umida SATTOROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi

"XAZOYIN UL-MAONIY" DEVONINING QAT'IY QONUNIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" majmuasiga kiritilmay qolgan, devon tartib berilganidan keyin yaratilgan she'rlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, devon tartib berish talablari hamda ijodkorning bu boradagi qat'iy uslublari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: devon, "Xazoyin ul-maoniy", g'azal, lirika, janr, fard, qit'a, ruboiy.

Annotation. This article examines Alisher Navoi’s poems not included in the “Xazoyin ul-maoniy”, collection, created after compiling the divan, and their features, requirements for compiling the divan, as well as the author’s strict style in this regard.
Keywords: divan, “Xazoyin ul-maoniy”, ghazal, lyrics, genre, fard, qit’a, rubai.
Аннотация. В данной статье рассматриваются стихотворения Алишера Навои, не включенные в сборник «Хазойин ул-маоний», созданные после составления дивана, и их особенности, требования к составлению дивана, а также строгий стиль автора в этом отношении.
Ключевые слова: диван, «Хазойин ул-маоний», газель, лирика, жанр, фард, китъа, рубаи.

O‘zbek lirik poeziyasining janr jihatidan boyib, mukammal shaklga kelishi bevosita Alisher Navoiy nomi bilan bog‘liq. Navoiyning lirik merosida biz, bir tomondan, o‘zbek poeziyasida o‘zining qat’iy qonuniyatlariga ega bo‘lgan lirik janrlarning mohiyatiga e’tibor qaratilgan yangi rivojini ko‘rsak, ikkinchi tomondan, fors adabiyotida mavjud bo‘lgan, ammo o‘zbek adabiyotida (yoki umuman turkiy adabiyotda) to‘liq rivoj topmagan ba’zi janrlarning taraqqiyot tarixidagi rolini ham kuzatishimiz mumkin.

XV asr boshlarida o‘zbek g‘azali o‘zining muayyan uslubi, mavzusi va boy tasvir vositalariga ega bo‘lgan yetakchi janr sifatida keng tarqaldi. Alisher Navoiy o‘z ona tilida g‘azallar yaratishga kirishar ekan, bu sohada yuzaga kelgan bir necha asrlik boy tajribalarga tayanadi. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk xizmati shundaki, u o‘zbek lirikasini, xususan, g‘azal janrini yuqori bosqichga ko‘tarishda faqat milliy an’analar bilan cheklanmay, fors g‘azalchiligining boy va ilg‘or tajribalarini ham qunt bilan o‘rganib, ularni o‘zbek she’riyati taraqqiyotiga muvaffaqiyatli tatbiq etdi.

Ma’lumki, XV asr va undan keyingi davrlarda o‘zbek lirik shoirlari ijodida, xususan, Navoiy lirikasi doirasida o‘n oltita janr shakllangan bo‘lib, ulardan yetakchi o‘rin g‘azal janriga tegishli. Navoiy g‘azallari faqat son jihatidan emas, balki g‘oyaviy-badiiy salmog‘i jihatidan ham o‘rta asr g‘azalchiligining yuksak namunalaridan biri sifatida ajralib turadi. Professor Hamid Sulaymonning fikricha, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” majmuasi devonlarini tuzish ustida bir necha yil davomida tinimsiz ijodiy mehnat qilgan va 1498-yilda hozirda bizga yetib kelgan tugal tarzda yakunlagan [4: 104]. Majmua devonlarini ulug‘ shoir shu darajada pishiq, o‘zaro ichki mustahkam bog‘liq va qat’iy mutanosiblikda tuzadiki, ularga keyinchalik birorta g‘azal kiritish, devonlarini dam-badam, peshma-pesh to‘ldirib borish yoki biror g‘azalni devonlar tarkibidan tushirib qoldirishgina emas, hatto ichki o‘rin almashtirish imkoni ham qat’iy to‘silgan, chunki har qanday daxl etish eng nozik, misqolgacha hisobga olingan mutanosiblikning buzilishiga olib kelishi, muqaddas butunlik va tabiiylikka putur yetkazishi aniq.

“Xazoyin ul-maoniy” majmuasining ichki tuzilishi nihoyatda puxta ishlangan. Navoiy undagi to‘rttala devonning har biriga 650 tadan g‘azal joylashtirgan, shu g‘azallarning qofiyalanishiga ko‘ra ham har bir devonda o‘zaro teng va qat’iy mutanosib bo‘lishiga jiddiy ahamiyat bergan. Ya’ni aytaylik, “alif” harfi bilan tugallanuvchi qofiya-radifli g‘azallar to‘rttala devonda ham o‘ttiz to‘qqiztadan, “be” harfi bilan yakunlanuvchi qofiya-radifli g‘azallar yigirma yettitadan va hokazo teng miqdorda uchraydi. Yana bir dalilni keltirishimiz mumkin. “Xazoyin ul-maoniy” majmuasida hammasi bo‘lib “Ango” radifli 12 g‘azal mavjud. Bu g‘azallar to‘rttala devonga uchtadan teng taqsimlangan. Bugina emas, ular har bir devonda bir o‘rinda, ya’ni 8-,9-,10-o‘rinlarda joylashtirilgan. Bunday tartib qat’iy saqlangan, biror devonning biror o‘rnida bo‘lsin, ushbu qat’iy amal qilingan qoida buzilmagan. Qisqasi, Alisher Navoiy bu devonlarga keyinchalik biror o‘zgarish kiritmagan, yangi she’rlar bilan to‘ldirmagan, umuman, ularga qo‘shimcha qilish avvaldanoq nazarda tutilmagan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi devonlariga, o‘z iboralari bilan aytganda, “yetti-sakkiz yoshtin” to “oltmish yaqinigacha” bo‘lgan umri mobaynida ona tilida yaratgan kichik she’riy asarlarini jamlar ekan, bu jarayonda, albatta, jiddiy ijodiy-tashkiliy ish olib borganligi, shubhasiz. Aytaylik, to‘rttala devonga teng tarqatish uchun “yetishmagan” g‘azallarni yozib to‘ldirgan, va ehtimol, ba’zi “hisobdan ortgan” g‘azallarni devonlardan chetda qoldirgan. Bu holatdan shunday xulosaga kelish mumkinki, “Xazoyin ul-maoniy” devoni Alisher Navoiy 1498-yilgacha ijod etgan barcha lirik namunalarni o‘zida jamlagan emas: uning devonlari tarkibiga qator namunalar turli sabablarga ko‘ra kiritilmay qolgan. Xo‘sh, unda bu sanadan keyingi yillarda yozilgan g‘azal, muxammas, qit’a, ruboiy va boshqa turlardagi asarlari qayerda? Chunki biz “Xazoyin ul-maoniy” devoni tartib berilgach, Navoiy o‘z ona tilida g‘azallar yoki boshqa janrdagi namunalar yozmagan, deb ayta olmaymiz. Bunga hech qanday asosimiz ham yo‘q. Chunki Navoiy har doim, beistisno, katta ilhom va jiddiy sur’at bilan qalam tebratgan. Yigitlik yillaridayoq “kunda yuz bayt aytish men uchun halvo yeyishdek oson va yoqimli” mazmunidagi faxriya baytlarini bitgan shoir shunday yuksak ijodiy sur’atni to umrining so‘nggi kunlarigacha saqlab qola bilgan. “Xazoyin ul-maoniy” devonida guvohlik berishicha, devonlarga tartib bilan joylashtirish oldidan kunda bir-ikki, ba’zi kunlar esa, hatto uch-to‘rt g‘azal ustida ijodiy-tahririy ishlar olib borib, ularga sayqal bergan. Bu ijodiy faoliyatni, mehnatni shoir go‘zallarni yanada zebolashtirish bilan qiyoslaydi:

Kun bor erdiki bir g‘azal-u ikki g‘azal,
Bal uch g‘azal-u to‘rt g‘azal ba’zi mahal,
Mahvashlardek bori latofatda masal
Bog‘lab, kiyibon yuzga hila, to‘ng‘a – hulal [6: 16–17].

Xullas, tarixiy haqiqat deya shuni aniq ayta olamizki, Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”dagi devonlarni tuzish yuzasidan ko‘p yillik mashaqqatli mehnatni yakunlaganidan keyin ham, ijodiy ishni also susaytirmagan, aksincha, yanada jadal va faol davom ettirgan va biz ko‘rganimizdek, katta samaradorlikka erishgan, qator yirik asarlarni yaratgan. Navoiy hayotining so‘nggi yillari haqida so‘z borganda shuni ham unutmaslik kerakki, garchi shoir yuzlangan xastalik azoblari va qarilik uqubatlaridan necha yilllar davomida qiynalgan bo‘lsa-da, aslida har qachon oxirgi kunlarga qadar qizg‘in ijtimoiy-ijodiy faoliyatda bo‘lgan, qo‘lidan qalami tushmagan. Xuddi shu boisdan ham, Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy” majmuasini uzil-kesil va to‘liq yakunlaganidan keyingi ikki yildan ortiq vaqt davomida ko‘plab g‘azal, qit’a, ruboiy, muxammas va boshqa lirik janrlarda ham asarlar yaratgan, degan xulosaga kelinsa, also xatoga yo‘l qo‘yilmaydi. Demak,

a) “Xazoyin ul-maoniy” majmuasi tuzilishidan avval yozilgan va qandaydir sabab-mulohazalar bilan undagi devonlarning birortasiga ham kirmay qolgan she’rlarning mavjudligi;

b) “Xazoyin ul-maoniy” majmuasini tuzish ishlari tugallanganidan so‘ng ham lirik janrlarda she’rlar bitganligining shubhasiz ekanligi, yangi yozilgan g‘azallarni esa devonlarga kiritish imkoniyatining bo‘lmaganligi jiddiy ilmiy izlanishlarga da’vat etadi.

Aslida bu sohada ham navoiyshunoslikda ayrim ishlar amalga oshirilgan. Masalan prof. Hamid Sulaymon "Xazoyin ul-maoniy" devonlariga kirmay qolgan 24 g'azal, 8 qit'a, 2 ruboiy va fardlarni topib, "Favoyid ul-kibar" devonining 1960-yilgi nashriga ilova tarzida e'lon qilgan. Navoiyshunos A.Abdug'afurov esa Husayn Boyqaro – Husayniyga xato ravishda nisbat berilib, uning asarlari jumlasida bir necha bor nashr etilgan yetti bandli taxmisni aslida Navoiy qalamiga mansub ekanligini aniqlab, matbuotda e'lon qildi [1]. Aynan mana shu ilmiy izlanish va nashrlar biz uchun ham manba vazifasini o'tadi. Bizning fikrimizcha, bu taxmis 1498-yildan keyin yaratilgan ko'p sonli she'rlardan biridir. Professor Fozila Sulaymonova "Ayyomi visol o'ldi yana" nomi ostida Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"ga kirmay qilgan 61 g'azal, 2 ruboiy, 8 qit'a, 4 fardlarini alohida kitobcha shaklida e'lon qildi [7: 72]. "Bu she'rlarning bir qanchasida shoir qarilikdan shikoyat qiladi, shunga binoan bu g'azallar "Xazoyin ul-maoniy" tartib etilib bo'lgandan keyin yozilgan bo'lsa kerak, degan fikrga keldim" [7:4] deya xulosa qiladi u. Professor Abdurashid Abdug'afurovning "Navoiyning bizga noma'lum g'azallari", "Navoiyning noma'lum g'azallari", ""Xazoyin ul-maoniy"dan chetda qolgan g'azallar" maqolalari ham shu mavzuga bag'ishlangan. Bundan tashqari, ilmiy qimmati yuksak, o'zidan oldingi tadqiqotlarni takrorlamaydigan bir izlanish mahsuli bo'lmish quyidagi maqola ham e'tiborimizni tortdi. Navoiyshunos olim O.Jo'raboyevning "Qo'qon shoirlarining Alisher Navoiy g'azallariga muxammaslari (va unga nisbat berilgan ayrim g'azallar borasida)" nomli maqolasida "Ayyomi visol o'ldi yana" to'plamidan o'rin olmagan uchta g'azalning to'liq matni e'lon qilingan. Bunga ko'ra olim Muqimiy, Zavqiy, Qoriy va Fano ijodida Alisher Navoiyning an'anaviy devonlariga kirmagan g'azallariga bog'langan taxmislari borligini o'rganadilar hamda shularning ichidan Muqimiy, Zavqiy va Fano muxammaslaridagi Alisher Navoiy g'azallarini ajratib, ilm ahli hukmiga ilk bora havola qiladilar. Bundan ko'rinib turibdiki, Qo'qon adabiy muhitida Alisher Navoiyning o'ziga xos an'analari munosib davom ettirilgan va haqiqatan ham, Navoiy asarlarining bizga ma'lum bo'lmagan qo'lyozma nusxalari bo'lgan. Ammo ayrim g'azallardagi matniy farqlarning mavjudligi ularning tili, uslubi va badiiyati chuqur tahlil qilinmog'ligini anglatadi. Olimning o'zlari ham bunga alohida urg'u beradilar [5: 15]. Olim tomonidan ilm ahliga taqdim etilgan, Navoiyga nisbat berilgan ushbu g'azallar bizni ham keyingi tadqiqotlarimizni ayni shu yo'nalishda davom ettirishda jiddiy kirishishga undadi. Chunki Qo'qon adabiy muhitida bo'lganidek, boshqa adabiy muhitda ham Navoiydek shoirning g'azallariga bee'tibor bo'lmaganliklari, taxmislar bog'langani aniq, degan qisqa va qat'iy xulosaga keldik. Bu esa qo'lyozma matnlar ustida ham chuqur ilmiy o'rganish ishlari olib borish maqsadini oldimizga qo'yishimizga sabab bo'ldi.

Navoiy she'riyatining tanqidiy matni va yigirma jildlik akademik nashrning "Xazoyin ul-maoniy" qismini nashrga tayyorlash jarayonida eng qadimiy qo'lyozma hisoblangan Istanbulda, Turkiya sultonlarining saroy kutubxonasi bo'lmish To'pqopida saqlanayotgan 1496-1497-yillarda Hirotda ko'chirilgan kulliyot va Fransiyaning Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan, 1525–1527-yillarda Hirotda, yana o'sha doiradagi xattot Ali Hijroniy tomonidan ko'chirilgan kulliyot ustida ish olib borilar ekan, bu qo'lyozmalarda "Xazoyin ul-maoniy"ga kiritilmay qolgan yoki keyin yozilgan 40 g'azal borligi aniqlandi. Yuqorida keltirganimizdek, "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi to'liq nashrini tayyorlashda "Badoye' ul-bidoya" va "Navodir un-nihoya" devonlarining bizga ma'lum qo'lyozmalarida mavjud bo'lgan 23 g'azal, 2 ruboiy, 8 qit'a va 4 fard shoir tomonida devonlar majmuasiga kiritilmaganligi aniqlangan va ular Hamid Sulaymon tomonidan 1960-yil nashrining to'rtinchi jildi ("Favoyid ul-kibar")ga ilova qilingan edi. Alisher Navoiy agar dostonlar va nasriy asarlarini asosan umrining so'nggi yigirma yillarida yaratgan bo'lsa, lirik she'rlarini butun ongli hayoti davomida yozgan. Demak, shoir hayotidagi ruhiy kechinmalar o'sha davrning murakkab siyosiy, ijtimoiy hayotidagi turli-tuman voqea, hodisalarga bo'lgan munosabati xuddi aynan lirik she'rlarida o'z ifodasini topganga o'xshaydi. Professor Hamid Sulaymonning Navoiy lirik merosi ustida olib borgan tadqiqotlari natijasida shoirning she'riy merosi umrining qaysi fasllarida yaratilganligi aniqlandi: 1480-yilgacha 434 she'r, 1480-1486-yillarda 918 she'r, 80-yillarning ikkinchi yarmida 460 she'r, 1496-yilgacha 1386 she'r yozgan [7: 3]. "Xazoyin ul-maoniy"ning bizga ma'lum bo'lgan eng qadimiy qo'lyozmasi kulliyotlarning dastlabkisi bo'lgan Istanbul nusxasida yetib kelgan. Qo'lyozmaning ko'chirilgan yili 1496-1497-yillar, demak, devonlar majmuasi 1496-yilgacha tuzilib bitgan. Tadqiqotlar natijasida olim tomonidan kulliyotning "Xazoyin ul-maoniy" qismida majmuaning qonunlashgan tahririda bo'lmagan o'n g'azal borligi ma'lum bo'ldi. Demak, bu o'n g'azal shoir tomonidan, avvalgi 32 she'rga o'xshab, ongli ravishda majmuaga kiritilmagan. 1525-1527-yillarda ko'chirilgan Parij kulliyotida devonlar majmuasiga kiritilmagan yana 30, hammasi bo'lib 40 g'azal mavjudligi ma'lum bo'ldi (Istanbul kulliyotidagi o'ntadan tashqari o'ttizta).

Buyuk zotlar yaratib qoldirgan har qanday to'liq she'r, asar beqiyos qimmatga ega bo'lib qolmay, har bir satrining bahosi yo'q. Demak, Alisher Navoiyning ham rasmiy devonlaridan o'rin olmagan qator ijodiy namunalari o'rganilishni talab etadigan qimmatli manbalar hisoblanadi. Bu shunchaki quruq taxminiy da'vo emas, balki ishonchli manbalardan olingan dalillar asosida shakllangan ilmiy xulosalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdug'afurov A. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 9 fevral, 1990 yil.
2. Abdug'afurov A. Navoiyning bizga noma'lum g'azallari // Sharq yulduzi, 1994, №1,2.
3. Abdug'afurov A. Navoiyning bizga noma'lum g'azallari // Adabiyot ko'zgusi, 1996, №2.
4. Abdug'afurov A. Navoiyning ijod olami // Maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyai, 2001.
5. Jo'raboyev O. Qo'qon shoirlarining Alisher Navoiy g'azallariga muxammaslari (va unga nisbat berilgan g'azallar borasida) // O'zbek tili va adabiyoti, 2009 yil, №1.
6. Alisher Navoiy. G'aroyib us-sig'ar. MAT. 20 jildlik. T.3. – Toshkent: Fan, 1988.
7. Navoiy Alisher. Ayyomi visol o'ldi yana. Yangi topilgan g'azallar. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1995.

Latofat TAJIBAYEVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SHUNCHAKI YOZMOQ – SHOIR UCHUN O'LIM

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riyatning inson qalbi va ruhiy dunyosidagi o'rni, shoir ijodining ilhom manbalari hamda ijod jarayonining mehnat va mas'uliyat bilan bog'liq jihatlari tahlil qilinadi. Shoir qalbidan tug'ilgan satrlarning insoniyatga daxldorligi, she'rning umumiy ruhiy ehtiyoj mahsuli ekani Halima Xudayberdiyeva she'rlari asosida izohlanadi.
Kalit so'zlar: Halima Xudayberdiyeva, she'riyat, ilhom, ruhiy kamolot, so'z san'ati, badiiy tafakkur, ijod mehnati, badiiy obraz, ruhiy ehtiyoj.
Annotation. This article analyzes the role of poetry in the human heart and spiritual world, the sources of inspiration in the poet's work, and aspects of the creative process related to work and responsibility. The connection of the lines born from the poet's heart with humanity, the fact that the poem is a product of a common spiritual need, is explained based on the poems of Halima Khudayberdiyeva.
Keywords: Halima Xudoyberdiyeva, poetry, inspiration, spiritual perfection, verbal art, artistic thinking, creative work, artistic image, spiritual need.
Аннотация. В данной статье анализируется роль поэзии в человеческом сердце и духовном мире, источники вдохновения в творчестве поэта, а также аспекты творческого процесса, связанные с трудом и ответственностью. Связь строк, рожденных сердцем поэта, с человечеством, то, что стихотворение является продуктом общей духовной потребности, объясняется на основе стихов Халимы Худайбердиевой.
Ключевые слова: Халима Худайбердиева, поэзия, вдохновение, духовное совершенство, искусство слова, художественное мышление, творческий труд, художественный образ, духовная потребность.

Adabiyot bizga yashamagan, yashay olmagan yoki yashab ham anglamagan hayotlarni tuhfa qiladi. Chunki qalbimizdagi eng aziz tuyg'ularimizni, hali kimsaga aytolmagan dardlarimizni, o'zimizdan qizg'onib asragan hislarimizni, faqat o'zimizga tegishli narsalarni qog'oz bilan sirlashamiz. Yuzlashishdan cho'chigan haqiqatlarimizni faqat qo'g'oz bilan poylashamiz. Aslida hamma ham o'zicha shoir. Hayotda shunday onlar bo'ladiki qalbimizi o'rtagan, ko'zimizni yoshlatgan, vujudimizni tilka pora qilgan hislarni qog'ozdan boshqa hech kim bilan bo'lishmaymiz. Nobel mukofoti sohibi Pablo Nerudaning "She'r uni yozganniki emas, unga ehtiyoj tuyganlarning mulkidir" [4: 2] degan fikrlari ham she'rning barcha insoniyatga birdek daxldor ekanligidan dalolat beradi. Hayotda shunday she'rlar borki, xuddi faqat siz uchun yozilgandek, sizning qalbingizdan o'tgan hislarni o'z ko'zi bilan ko'rgandek. O'sha she'rni har safar o'qiganda, qaytadan shu onlarni yashagandek bo'lasiz. Bunday she'r yozish uchun esa iste'dod va mahorat kerak!

Qalbimizdan tomgan shudring tomchilari bahorgi kamalakdek tovlanadimi, yoki iztirob zo'ridan duv-duv to'kiladimi buyog'i shoir kayfiyatiga bog'liq. Chinakam she'r qalbdan chiqadi va qalblarga tutashadi. Dardli xonish qilgan navo yurakni ezgani kabi dard bilan tug'ilgan she'r ham qalblarni larzaga keltiradi. Halima Xudayberdiyeva ana shunday tug'ma iste'dod sohibasi. Uning she'rlari qonimizdek qaynoq, hislarimizdek uyg'oq va nafasimizdek tabiiyligi uchun ham qo'ldan qo'lga emas, dildan dilga ulashadi:

O, orombaxsh qaynoq ilhomim,
Tingla sendan shudir iltimos.
To chiqquncha tanamda jonim,
Qalbim bilan birga bo'lsang bas [2: 33].

Shoir qachon orom topadi, qachonki qalbida lov-lov yongan satrlar boshqa qalblarni ham yondira olsa. O'zi his qilgan o'sha hisni boshqalarga yuqtira bilsa. Axir hamma ham his qila olmaydi, hamma ham dard bilan iztirob bilan yashay olmaydi. Dardni his qilish uchun qalb kerak, qalb esa faqat insonda bo'ladi, inson bo'lganda ham iymoni butun insonda.

Ishonaman bir kunmas bir kun,
Ulg'ayarsan, toparsan kamol.
Yaxshi hosil bermog'i mumkin,
Umid bilan ekilgan nihol [2: 33].

Shoir mudom umid bilan yashaydi, she'rlari o'zgalarning koriga yarasa, muz qalblarni erita bilsa, insonlarga insonlarni anglashni o'rgata olsa... Har bir she'ridan nimanidir kutib, umid qilib yashaydi.

Yuraklarni rom eta olsang,
Xalqim sendan bo'lsa bahramand.
Qalbga mangu yoniq o't solsang,
Ajabmasda bo'lsam qahramon [2: 33].

Mana haqiqiy shoir nimani istaydi. Qalblarga o't yoqish - insonlarga chin odamiylikdan saboq berish. Insoniylik urug'ini qadash. Asl ijodkor isatagan orzu mana shu. Chunki shoirning *"Shunchaki yozmoqqa ko'ngli to'lmaydi", "Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'li". "Shunchaki yozmoqqa chidab bo'lmaydi". "Shunchaki yozmoq bu shoirga o'lim"* [2: 56]. Shoir satrdan satrga o'tgan sari umrboqiylik sari qadam tashlab boraveradi, chunki yozganlari qalblardan qalblarga o'tib, yangi umidlar uyg'otishda insonlar qalbida mangu yashashda davom qilaveradi.

"Har qanday chin talant takrorlanmasdir. Takrorga bo'y bermagan iste'dodgina talantga aylana oladi [3: 220]". Shu boisdan H.Xudayberdiyeva ijodi ham o'zbek adabiyotida betakror hodisadir.

Dehqon o'git solar yerini haydab,
Necha bor sug'orar, chopiq, chekanka,
Va hosil yetishgach, olguncha joylab.
Qancha ter to'kilar quriydi tinka.
Bu-ku qiyin, ammo bundan mushkulroq
Qalbdan hosil kutgan shoirning ishi.
Dehqon qishda bir oz tin olar, biroq
Qishda ham tugamas, shoir tashvishi [2: 45].

She'r yaratilishi jarayoni qadimdan ilohiy ilhom, Alloh in'omi sifatida talqin qilinib keladi. Sharq poetik tafakkurida ilhom shoir qalbiga osmondan tushadigan ruhiy ziyodir. Ammo tasavvufiy va adabiy manbalarda ta'kidlanishicha, ilhomning o'zi yetarli emas; u mehnat, mashaqqat va badiiy tafakkur bilan sayqal topmas ekan, chin ma'nodagi she'riy san'at yuzaga kelmaydi. Shu bois ko'plab mumtoz va zamonaviy shoirlar ijod jarayonini dehqon mehnati bilan qiyoslashgan.

Yuqoridagi misralarda shoir dehqon obrazini tanlaydi. Chunki dehqon mehnati ko'zga ko'rinadigan, moddiy natija beradigan, jismoniy mashaqqat bilan uzviy bog'liq jarayondir. Dehqon tuproqni haydaydi, urug' sepadi, sug'oradi, chopiq

qiladi hosilni pishguncha parvarishlaydi. Shoirning fikricha, bu mehnat og'ir, ammo undan ham og'irroq mehnat qalbda hosil yetishtirish, ya'ni she'r yaratishdir: Dehqon qishda dam oladi. Shoir esa fasl tanlamaydi. Uning qalbi mudom uyg'oq, goh o'z dardiga kuysa gohida o'zgalar tashvishidan iztirob chekadi. O'ylashdan qayg'urishdan, azob chekib yashashdan to'xtamaydi. Dehqonning hosili non va bug'doy bo'lsa, shoirning hosili - so'z, ma'rifat va hikmatdir. Aynan shu xususiyat tufayli shoir o'z mehnatini dehqon mehnatiga qiyoslaydi: ikkalasi ham xalq xizmatida, biri moddiy hayot farovonligi uchun, ikkinchisi esa ma'naviy yuksalish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotshunos N.Jabborovning "So'z va bug'doy" maqolasidagi fikrlar ushbu qiyosning haqiqat ekanini isbotlaydi. Olim she'r yaratilish jarayonini bug'doy yetishtirish jarayoniga qiyoslab, quyidagilarni ta'kidlaydi: "Ehtimol, kimgadir erish tuyular, lekin men bug'doy va so'zda teran bir uyg'unlik ko'raman. chunki so'z ham bug'doydan kam bo'lmagan mehnat-u zahmatni taqozo etadi. Biz shuurimizga chaqmoqdek ta'sir qiladigan she'riy yoki nasriy asarni o'qiganimizda zavq olamiz, hayrat og'ushiga cho'mamiz. Lekin so'z durlarini bu darajada marjondek termoq uchun shoir yoki adib necha tunlarni tonglarga ulagani, badiiy asar xudo bergan iste'doddan tashqari katta bilim va malakani, muttasil mehnat va zahmatni ham talab etishi haqida ko'p-da o'ylab o'tirmaymiz. Mohiyatan, non odamning moddiy ehtiyojlari uchun qanchalik zarur bo'lsa, so'z san'ati ham inson ma'naviyati, ruhiy kamoloti, jamiyat taraqqiyoti uchun shunchalik muhimdir" [1: 45]. Haqiqatan ham, mohiyatan so'z va bug'doy uyg'un tushunchalardir. Xalq og'zaki ijodida ham bejizga "Bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin" maqola yaratilmagan.

Demak, she'riyat – inson qalbining eng qudratli sirlarini jamlagan, ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalishning eng kuchli vositasi. Uning qudrati esa samimiyat, ilhom va mehnatning mushtarakligidan tug'iladi. Shu bois adabiyot ham, she'r ham insoniyatning abadiy ma'naviy boyligi va u har vaqt qalblarimizni poklashda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
2. Xudayberdiyeva H. Saylanma. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Siir Antolojim. https://siirantolojim.wordpress.com/2023/08/01/bir-insana-yoneltilebilecek-en-agir-hakaret-kalbinin-olmadiginin-soylenmesidir/.

Sevinch YUSUPOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

O'TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA TUSHNING POETIK VAZIFASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning ikki yirik asari – "Ikki eshik orasi" hamda "Tushda kechgan umrlar"da uchraydigan tushlarning vazifasiga e'tibor qaratiladi. Mazkur badiiy asarlardagi tush bilan bog'liq vaziyatlar, ularning asar mazmunini ochish, qahramonlar ruhiy olamini izohlashdagi ahamiyati struktural-semantik, psixoanalitik kabi usullardan foydalangan holda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tush, detal, qahramonlar ruhiyati, obraz, ramz, ramzlar tizimi, botiniy belgi, ruhiy tahlil.

Annotation. In this article, the main object of research is the elements of dreams found in the two major works of Utkir Hashimov – "Between Two Doors" and ""Lives Lived in a Dream". Situations related to the dream motif, their role in revealing the ideological and artistic content of the works, and the significance of these episodes in interpreting the inner world of the characters are analyzed. The research is based on structural-semantic, psychoanalytic, and other modern methods of literary analysis.

Keywords: dream, dream, detail, character psychology, image, symbol, symbol system, internal (intropsychic) characteristic, psychological analysis.

Аннотация. В данной статье основным объектом исследования выступают элементы сна, встречающиеся в двух крупных произведениях Уткира Хашимова - «Меж двух дверей» и «Жизни, прожитые во сне». Анализируются ситуации, связанные с мотивом сна, их роль в раскрытии идейно-художественного содержания произведений, а также значение этих эпизодов в интерпретации внутреннего мира персонажей. Исследование проводится с опорой на структурно-семантический, психоаналитический и другие современные методы литературоведческого анализа.

Ключевые слова: сон, сновидение, деталь, психология персонажей, образ, символ, система символов, внутренняя (интропсихическая) характеристика, психологический анализ.

Badiiy matnda muallifning turli maqsadlar bilan tush motividan foydalanishi adabiy an'anaga aylanib qolgan. Bu jarayon og'zaki ijod davri-yu mumtoz adabiyotdan tortib to bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda. O'tkir Hoshimov ijodida ham bu tajribaning anchayin boyitilgan namunalariga duch kelamiz. Yozuvchining o'zbek adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan ikki yirik asarida ham tush bilan bog'liq bir qator lavhalar uchraydi. Xususan, "Ikki eshik orasi"ning 17, "Tushda kechgan umrlar"ning 18 o'rnida bunday holatlarni ko'rish mumkin. Ularning har biriga badiiy detal, qahramon qismatidan bashorat berish, ruhiy tahlil vositasi, voqealar rivojini ta'minlash kabi turli vazifalar yuklatilgan.

Dastlab **"Ikki eshik orasi"**dagi tushlarga to'xtalamiz. Romandagi ilk tush elementi muallimning qamoqqa olinishidan so'ng keladi. Robiya tushida olomon orasidan dadasi yoniga o'tmoqchi bo'lganida rangi zahil, so'galli odam yo'lini to'sganini, keyin dadasini yo'qotib qo'yganini ko'radi. Aynan shu tasvir haqida muallifning o'zi xotiralarida quyidagicha izoh keltiradi: "Romandagi tushlarning har biri faqat tush emas, asar mantig'ini ochuvchi jonli vositadir... Rangi zahil, qulog'ining orqasida so'gali bor – NKVD odami. O'shalar muallimni olib ketgan. Nega uchta? – "Тройка"ga ishora".

O'tkir Hoshimov haqida aytilgan fikrlar, unga berilgan e'tiroflar, xolis baholar talaygina. Ular orasidan adabiyotshunos Abdug'afur Rasulovning "Ardoqli adib" kitobidagi fikrlar qimmatli: "O'tkir Hoshimov inson, iste'dodli yozuvchi, lavozimdagi rasmiy shaxs. Aqlli, dono inson... U ko'p betakror adabiy qahramonlarni yaratgan yozuvchidir" [1]. Haqiqatan ham, yuqoridagi tush orqali siyosiy tushunchalarni qoliplab

ketish faqatgina haqiqiy iste'dod, zakovat egasining qo'lidan keladi. Balki, oddiy kitobxon qahramonning tushiga, so'galli odamlarning soniga har doim ham e'tibor beravermas, lekin sinchkov o'quvchi matndagi har bir so'zning qo'llanishi bejiz emasligini anglaydi, 30-yillardagi qatag'on tuzumi zulmlarini esga oladi. Muallimning og'ir ayblov komiga tushgani, qaytib kelmasligini shu tush orqali tushunadi. Robiya otasini tushida ko'rishi romanning yana uch joyida uchraydi. Bu miqdorda ham yozuvchi siyosiy doiralarga ishora qilganmi, yo'qmi, bunisi noma'lum, biroq tushlarning oxirgisidan keyin Robiya otasining allaqachon surgunda vafot etganidan xabar topadi.

Asardagi yana bir muhim tush elementi "Shumqadam" Abzi" bobida keladi. Omborda piyoz tozalab o'tirgan ayollar sukunatini oqsoqolning kelini Fotima ko'rgan tushini aytish bilan buzadi:

"– Adasini tush ko'ribman, – dedi bir mahal Fotima kelin. Ovozi negadir g'amgin edi.

– Tushimda Oypopukni beshikka belayotganmishman. Voy, kap-katta bolani beshikka belab esimn yedimmi deb mundoq qarasam, beshikda yotgan qizim emas, Shokir akam emish...

O'rtaga etni junjituvchi xatarli sukunat cho'kdi. Xotin kishining tushiga beshik kirsa, o'ngida tobut ko'radi, degan gap qulog'imga chalingan edi. Hozir shu esimga tushib, ichim seskanib ketdi..." [4]

Xuddi shu kuni Oqsoqolning ikkala o'g'lidan ham qoraxat keladi.

Maqola avvalida adabiy asardagi tush unsurlarining uzoq tarixga egaligini aytgan edik. Ayni shu sabab ko'pgina olimlar asar va tush munosabatlarining ildizlarini, sabab-vazifalarini o'rganish masalasiga bot-bot murojaat qiladi. Adabiyotshunos olim Y.F.Volik o'z tadqiqotlarida adabiy tushlarni quyidagi guruhlarga bo'ladi: 1) xarakterga tegishli tushlar (unda qahramonning yashirin tabiati, ichki "men"i ochib beriladi); 2) bashorat (proskopik) tushlar (qahramonning kelajagi bashorat qilinadi); 3) inqiroz (krizis) tushlar (insonning kundalik turmushga munosabati, hatto hayotini o'zgartirib yuboradi).

Fotimaning tushini ikkinchi guruhga kiritsak to'g'ri bo'ladi. Chunki tushi orqali unga eng yaqin insoni bilan bog'liq xabar yetkazilmoqda va bu tasvir voqealar rivojining keyingi bosqichlariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Xalqimiz orasida biror baxtsiz hodisaga yaqin ruhiy holatni ifodalashda *ko'ngli g'ash bo'ldi, ko'ngli sezdi* kabi iboralardan foydalanish keng uchraydi. Umuman, insonga o'zi uchun qadrli kishilar taqdiriga oid o'zgarishlar botiniy vositalar orqali yetkaziladi. Tush ham shunday vositalardan biridir. Fotima ham ayni g'ashligini biroz bo'lsa-da aritish uchun atrofidagilarga ko'ngil yoradi, najot istaydi. Shunda yozuvchi Robiya timsoli orqali xalq orasidagi tush ta'birlaridan biriga ishora qiladi. Afsuski, tushdagi beshik, haqiqatan ham, aza elchisi bo'lib keladi.

Roman voqealari davomida bir necha o'rinda Ra'noning Muzaffarni tushlarida ko'rishi ham alohida e'tibor talab etadi. "Ikki eshik orasi"dagi personajlarning barchasi murakkab hayot zanjirida tasvirlangan. Ular orasida, ayniqsa, Ra'no eng chigal, eng qaltis qismat egalaridan biri edi. U nafs qurboni bo'ldi, onasi oldidagi farzandlik, farzandi oldidagi onalik burchini bajarolmadi, zakunchi yolg'onlariga ishonib umrini sovurdi. Qahramonga otasi Umar bo'lgan chaqalog'ining o'lganini eshitganidan so'ng, bolaning aslida hayot ekanini bildirish uchun aynan tush motividan foydalaniladi. Biroq Ra'no bularni ancha kech, tasodif sabab Muzaffarning tirikligini eshitib qolganidagina tushunib yetadi. Endi undagi vijdon azobi yanada kuchayadi va hayotining so'ngiga qadar tinch qo'ymaydi. Boshqa qahramonlar hayotiga nazar solsak, ularning turmushdagi qiyin vaziyatlarida suyanch bo'lish uchun yonida doim kimdir bor: Shomurodga Qora amma, Qora ammaga Robiya, xalqqa oqsoqol va hokazo. Ammo Ra'noda hech kim yo'q. Na ko'z ochib ko'rgani zakunchi, na qizi unga esh bo'lmaydi. Balki, shuning uchun yozuvchi o'g'lining fojiasi bilan bog'liq tushni Shomurod yoki Robiya bilan emas, aynan Ra'no bilan bog'lagandir. Unda onaning qalbi hamon urib turganini eslatish orqali hasratini yumshatmoqchi bo'lgandir. Bu tush kitobning yakuniy lavhalaridan joy olgan bo'lib, bobning o'zi ham "Tush" deb nomlangan: *"Allaqanday keng dala emish... Muzaffar qip-yalang'och bo'lib, dala o'rtasida chopib ketayotganmish... O'g'lim bir nimadan qo'rqib, qochib ketayotganini bilarmishman-u oldiga borishga uyalarmishman. Keyin allaqayerdan ot paydo bo'pti. Gijinglab kelib Muzaffarni tishlabdi. Muzaffar chaqaloqqa aylanib qolibdi. O'zi chaqaloqmish-u gapirarmish. "Otni haydang, o'ldirib qo'yadi, quturgan ot", dermish... Anavi ot Umar akaning jiyroni-ku!"* [4]. Ushbu tush 20 yoshli Muzaffarning yoshligi, baxti, quvonchini butun umrlik azobga olib ketadigan judolikka ishora edi. Umar zakunchining oti uni tishlab ozor berishi ham ramziy xarakterga ega. Negaki, bolaning Munavvar bilan shirxo'ra bo'lib qolishida asosiy aybdorlardan biri zakunchi edi.

"Tushda kechgan umrlar" romanining nomidayoq *tush* so'ziga duch kelishimiz kitobxonni sergaklantiradi. Jumboqning, kalavaning uchini topishda *umr* so'ziga ham e'tibor beriladi. Boisi tirik inson hayot kechirar ekan, o'zi, oilasi, jamiyatga foydasi tegishini o'ylaydi. Umrning tushda kechishga mengzalishi bo'layotgan voqelik, taqdir chizgilaridagi murakkablik sinoatga ishora beradi.

Birinchi tush tasviri Rustamning urush kundaliklarida uchraydi. U tushida qancha suv ichsa ham chanqog'i bosilmayotganini, oxiri suv qumga aylanib qolganini yozadi. Odatda tushga suv kirishi yorug'likning, nasibaning belgisi deb qaraladi. Personaj idishidagi suv esa qumga aylanyapti. Bu xavotirli tush Rustamning hayoti, orzulari sarobga aylanishidan darak beruvchi belgi edi. Umuman olganda, asardagi ko'pgina tush suv bilan bog'liq holda keladi. Masalan: *"Shahnoza ikkalamiz anhor labida, o'zimizning na'matak tagida o'tirgan emishmiz. Suv ichgim kelarmish... "Shahnoza, suv bergin, suv!" desam, hovuchida suv olib uzatarmish-u, og'zimga olib kelishi bilan hovuchi orasidan to'kilib ketarmish..."*, yoki Shahnoza ko'rgan tush: *"... suvning u betida Rustam akam turibdilar. Kulib turibdilar. Kel, deb imlarmishlar. "Suzishni bilmayman-ku" desam, kiyimlarini yechmay anhorga kalla tashlabdilar... Qarasam... anhorda suv emas, qon oqayotganmish...Rustam akam qon ichida oqib ketibdilar..."* [3].

Bu tushlarning har ikkisida ham suv detali bor va har ikkisi ham Rustam bilan sodir bo'lajak ayanchli xotimaga ishora qilib kelyapti. Shahnoza tushida qon ko'rgan kuni Rustam vafot etadi.

Yuqorida Y.F.Volikning tasnifini ko'rgan edik. Boshqa adabiyotshunos olimlar tushlarni asardagi vazifasiga ko'ra quyidagicha tasnif qilishgan: 1) tasvirlanayotgan voqealarga izoh va baho beradigan tushlar; 2) qahramonlarga psixologik xarakteristika beradigan tushlar; 3) asarning g'oyaviy mazmunini mushohada qilishga ko'maklashadigan tushlar; 4) "ilohiy mujda, ovoz" – yaratgan bilan muloqot tarzidagi tushlar [5].

"Tushda kechgan umrlar"da keladigan tushlarning aksariyati yuqoridagi tasnifning uchinchi turiga misol bo'la oladi. Albatta, bu guruhlashni qat'iy qoida deb qarash to'g'ri bo'lmasligi mumkin, biroq badiiy asardagi tushni batafsil anglashga, tushunishga yordam bera oladiganlarini tahlil uchun asos qilib olish o'rinlidir. Keyingi o'rinlarda uchraydigan ikki tush bevosita Rustamning otasining qamoqdaligini, ya'ni ota bilan sodir bo'layotgan vaziyatni ifodalash funksiyasini bajaradi. Rustam otasining so'rida, ko'rpachasiz quruq taxtada yotganini ko'radi. Ko'rpacha solay desa, otasi nuqul yig'larmish. Ikkinchi tushida otasining

jang maydonida snaryadlar orasida yotganini ko'radi. Garchi urush va snaryad otasiga yot tushuncha bo'lsa-da, bu orqali yozuvchi ushbu personajning ahvoli ham Rustamniki kabi og'ir ekanini bildirmoqchi bo'ladi. Keyinchalik Rustam uyiga qaytganida otasi qamoqqa olinib, narada yotganini eshitadi. Muallifning o'zi ham asardagi bunday elementlarga to'xtalar ekan: "...u misollar, tush badiiy asardagi shunchaki vosita emas, asarning ajralmas qismi, qahramonning holatini aks ettirishgagina emas, bir qator tag ma'nolarni tashishga ham xizmat qiluvchi detal ekanini ko'rsatmoqda", – deya qayd etadi. Har ikki asar matnida bu kabi holatlarni ko'plab misol qilib keltirish mumkin.

Romanda tush motivining kelishi qahramonlar taqdiridagi o'zgarishlar, tub burilishlarga ishora berish bilan birga inson ruhiyatidagi tebranishlarni ham his qilishga undaydi. Tushlar ogohlik, hushyorlik, ziyraklik holatlarining hosilasi sifatida kishi taqdiridagi muayyan voqea-hodisaning darakchilari sanaladi. Qahramonlar tush vositasida atrof-olamda bo'layotgan sinoatlar, tilsimlarning mohiyatini uqishga intiladilar. O'tkir Hoshimov ayni shu murakkab vaziyatlarning asarda ta'sirli, ishonchli berilishiga intilar ekan, muayyan jamiyatdagi kishilarning hayot yo'llariga ko'zgu yanglig' nigoh tashlab, inson tiynatidagi murakkabliklarni obrazli yaratishga ahamiyat qaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov A. Ardoqli adib. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
3. Hoshimov O'. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
5. Saidova B. Romanlarda tush tasviri // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2016, №5.

Oybarchin MIRZALIYEVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti xorijiy til va adabiyoti magistranti,

Oysuluv URALOVA,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti xorijiy til va adabiyoti kafedrasi mudiri, dotsent

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TO'Y MAROSIMLARI ETNOGRAFIZMLARINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida to'y marosimlariga oid etnografizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari chog'ishtirma tahlil qilinadi. To'y marosimlarini ifodalovchi etnografik birliklarning semantik tuzilishi, madaniy mazmuni hamda ularning tarixiy, ijtimoiy va diniy omillar bilan bog'liqligi yoritiladi. Ingliz va o'zbek to'y marosimlariga xos etnografizmlar misolida milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlarning til orqali ifodalanish mexanizmlari ochib beriladi. Chog'ishtirma tahlil natijasida har ikki til va madaniyatda mavjud umumiy (universal) tushunchalar hamda o'ziga xos milliy-madaniy farqlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: to'y marosimi, etnografizm, chog'ishtirma tahlil, lingvokulturologiya, milliy qadriyat, ingliz va o'zbek madaniyati.

Annotation. This article comparatively analyzes the linguocultural features of ethnographisms related to wedding ceremonies in English and Uzbek. The semantic structure, cultural content of ethnographic units representing wedding rituals, as well as their connection with historical, social, and religious factors, are illuminated. On the example of ethnographisms characteristic of English and Uzbek wedding ceremonies, the mechanisms of expressing national mentality, a system of values, and social relations through language are revealed. As a result of the comparative analysis, common (universal) concepts existing in both languages and cultures, as well as specific national-cultural differences, are revealed.

Keywords: wedding ceremony, ethnography, comparative analysis, linguoculturology, national values, English and Uzbek culture.

Аннотация. В данной статье проведен сравнительный анализ лингвокультурологических особенностей этнографизмов, относящихся к свадебным обрядам в английском и узбекском языках. Освещается семантическая структура, культурное содержание этнографических единиц, представляющих свадебные обряды, а также их связь с историческими, социальными и религиозными факторами. На примере этнографизмов, характерных для английских и узбекских свадебных обрядов, раскрываются механизмы выражения национального менталитета, системы ценностей и социальных отношений через язык. В результате сопоставительного анализа выявляются общие (универсальные) понятия, существующие в обоих языках и культурах, а также специфические национально-культурные различия.

Ключевые слова: свадебная церемония, этнографизм, сравнительный анализ, лингвокультурология, национальные ценности, английская и узбекская культура.

To'y marosimlari har bir xalqning madaniy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Ularga nafaqat nikohni rasmiylashtirish vositasi, balki oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar, diniy an'ana va ijtimoiy tizimni namoyon etuvchi murakkab madaniy hodisa sifatida qaraladi. Shu bois to'y marosimlariga oid lingvistik birliklar, ya'ni **etnografizmlar** tilshunoslik va madaniyatshunoslikda o'rganish uchun noyob manba. Ingliz va o'zbek to'y marosimlari o'zaro madaniy kontekstda shakllangan bo'lsa-da, ularning lingvistik akslari, semantik tuzilishi va madaniy mazmuni jihatidan sezilarli farqlarga ega.

"Etnografizm" tushunchasi til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida izohlanadi. Bu birliklar ma'lum bir xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy me'yorlari, diniy e'tiqodlari va mental qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. To'y marosimlaridagi etnografizmlar, o'z navbatida, milliy urf-odatlar, ramziy harakatlar, marosim matnlari va ritual elementlarni o'zida aks ettiradi. Ingliz tilida bu atamalar ko'pincha tarixiy va diniy kontekst, shaxsiy mustaqillik va romantik qadriyatlar bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida ular ko'proq kollektivlik, qarindoshlik aloqalari va diniy-merosiy qadriyatlar bilan bog'liq [1: 56].

O'zbek to'y marosimlari an'anaviy patriarxal va agrar tizimlar bilan shakllangan bo'lib, bir qancha etnografizmlarga ega. Masalan, "fotiha", "sovchi", "kelin salom", "kuyov navkar", "oyoqqa solish", "sep" va "dugona yig'ishi" kabi birliklar to'yning barcha bosqichlarini qamrab oladi. Bu

etnografizmlar jamoaviylik, qarindoshchilik rishtalari, hurmat va ijtimoiy tartibni mustahkamlash kabi qadriyatlarni aks ettiradi. Masalan, "Kelin salom" marosimi kelinning ota-onaga hurmatini, oilaviy nizolardan uzoq bo'lishini bildiradi; "Sovchi" esa nikoh jarayonining rasmiy va ijtimoiy jihatlarini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu etnografizmlar o'zbek tilida metaforik, emotsional va diniy tarkibga ega bo'lib, ularni boshqa madaniyatga to'liq o'girish qiyin.

Ingliz to'ylarida etnografik birliklar tarixiy va diniy an'analar bilan bog'liq bo'lib, "bridal shower", "best man", "maid of honor", "wedding vows", "ring exchange", "flower girl", "white wedding" va "honeymoon" kabi atamalar orqali ifodalanadi. Ushbu etnografizmlar nikohni shaxsiy va oilaviy darajada, romantik va diniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtiradi. Masalan, "Something old, something new, something borrowed, something blue" an'anasi omad va baxt ramzi sifatida qadrlanadi, "Best man" esa kuyovning himoyachisi va mas'ul ishtirokchi sifatida talqin etiladi [3: 67].

Chog'ishtirma tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek etnografizmlarida universal tushunchalar mavjud: "kelin", "kuyov", "nikoh", "to'y ziyofati". Ammo ularni ifodalashdagi madaniy yondashuv farqlidir. O'zbek etnografizmlari ijtimoiy-kollektiv, diniy va urf-odatlarga tayansa, ingliz etnografizmlari shaxsiy-romantik, tarixiy va diniy elementlarga tayanadi. Masalan, "Bridal shower" o'zbekcha to'yda yo'q; "Best man"ning o'zbek tilidagi ekvivalenti yo'q, chunki kuyov yonida yagona shaxs emas, bir necha "navkarlar" bo'ladi. Ingliz tilida "White wedding" poklik va beg'uborlik ramzi bo'lsa, o'zbek tilida "Fotiha" diniy baraka, "Kelin salom" esa hurmat va ijtimoiy me'yorni bildiradi. Shu bilan birga, har ikki madaniyatda etnografizmlar nikoh va to'y marosimining ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlash, jamiyatda barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Semantik tuzilish nuqtayi nazaridan, o'zbek to'y etnografizmlari metaforik va emotsional, ingliz etnografizmlari esa tarixiy, rasmiy va psixologik komponentlarga boy. Bu farqlar til birliklarining milliy mentalitetga moslashuvini va madaniy kontekstni aks ettiradi. Shu bois chog'ishtirma tahlil o'xshashliklar orqali umumiy universal tamoyillarni, farqlar orqali milliy o'ziga xoslikni yoritishga imkon beradi; ularning milliy mentalitet, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy strukturani aks ettirishini ko'rsatadi. O'zbek to'ylari kollektivlik, diniy-merosiy qadriyatlar va patriarxal tuzilishga asoslangan bo'lsa, ingliz to'ylari shaxsiy mustaqillik, romantik qadriyatlar va tarixiy an'anaga tayangan. Har ikki madaniyat etnografizmlari orqali o'z tarixiy va madaniy identitetini saqlab qolgan. Chog'ishtirma yondashuv bu birliklarning ichki semantik tuzilishini va madaniy mazmunini yanada to'liq yoritadi.

To'y marosimlari xalq madaniyatining eng muhim va ramziy hodisalaridan biri bo'lib, jamiyatning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tuzilishi va diniy e'tiqodlarini aks ettiradi. Shu sababli til birliklari, xususan etnografizmlar, to'y marosimining murakkab jarayonlarini, marosimiy qoidalarning saqlanishini, shuningdek, jamoaviy va individual qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida o'rganishga arziydi. Ingliz va o'zbek madaniyatlarida shakllangan to'y marosimlari o'zaro farqlarga ega bo'lsa-da, ularni ifodalovchi etnografizmlar xalqning tarixiy tajribasini va mentalitetini o'zida mujassamlashtiradi. Chog'ishtirma tahlil esa ushbu birliklarni milliy va madaniy kontekstda bir-biriga taqqoslamay, ularning o'zaro semantik va madaniy aloqalarini aniqlashga xizmat qiladi.

O'zbek to'y marosimlari ko'pincha bir necha bosqichli, keng ko'lamli va jamoaviy xarakterga ega. Marosim etnografizmlari: "fotiha", "sovchi borish", "kelin salom", "oyoqqa solish", "kuyov navkar", "sep", "dug'ona yig'ishi" kabi atamalar orqali ifodalanadi. Bu birliklar nafaqat marosim jarayonini belgilaydi, balki jamiyatda ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlash, qarindoshchilik rishtalarini saqlash, hurmat va e'tibor ko'rsatish kabi qadriyatlarni uyg'unlashtiradi. Masalan, "Kelin salom" marosimi kelinning yangi oilaga kirishi, ota-onaga hurmat va jamiyatning ma'naviy qoidalariga rioya qilishini bildiradi. "Sovchi" esa nikoh jarayonini rasmiylashtiruvchi, oilaviy rozilikni tasdiqlovchi element sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, etnografizmlar metaforik, ramziy va diniy tarkibga ega bo'lib, ularni boshqa madaniyatlarga o'girish qiyin.

Ingliz to'y marosimlari esa ko'proq shaxsiy-romantik, diniy va tarixiy elementlar bilan boyitilgan. "Bridal shower", "best man", "maid of honor", "wedding vows", "ring exchange", "flower girl", "white wedding", "honeymoon", "something old, something new, something borrowed, something blue" kabi etnografizmlar nikoh va to'y jarayonining turli qirralarini ifodalaydi. Masalan, "white wedding" atamasi poklik va beg'uborlik ramzini, "wedding vows" esa er-xotin o'rtasidagi sadoqat va majburiyatlarni bildiradi. "Best man" va "Maid of honor" marosimida er-xotinning ijtimoiy doirasini belgilash va jamiyatdagi qo'llab-quvvatlash tizimini ko'rsatadi.

Chog'ishtirma tahlil ko'rsatadiki, o'zbek va ingliz etnografizmlarida universal tushunchalar mavjud bo'lsa-da, ularni ifodalash madaniy konteksti farqlidir. O'zbek etnografizmlari ko'proq jamoaviylik, diniy-merosiy qadriyatlar va patriarxal ijtimoiy tuzilishga tayangan, ingliz etnografizmlari esa shaxsiy-romantik qadriyatlar, tarixiy an'ana va shaxsiy mustaqillik bilan bog'liq. Inglizlardagi "Wedding vows" shaxsiy majburiyat va diniy rasmiylikni bildirsa, o'zbek "Fotiha" va "Kelin salom" diniy baraka va jamiyatga hurmatni ifodalaydi [4: 124].

Semantik va madaniy tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek to'y etnografizmlari metaforik, emotsional va diniy ramzlar bilan boyitilgan bo'lsa, ingliz etnografizmlari tarixiy, rasmiy-tashkiliy va psixologik komponentlarga ega. Bu farqlar til birliklarining milliy mentalitetga moslashuvini, madaniy xususiyatlarni va ijtimoiy qoidalarning shakllanishini aks ettiradi. Shu bois chog'ishtirma tahlil milliy va madaniy o'ziga xoslikni, shuningdek, universal qadriyatlar va ijtimoiy funksiyalarni yoritishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek to'y etnografizmlarining chog'ishtirma tahlili ularning lingvistik, madaniy, tarixiy va ijtimoiy mazmunini ochib beradi. O'zbek to'ylari ijtimoiy-kollektiv qadriyatlarni, diniy-merosiy an'analarni va patriarxal tuzilmani aks ettirsa, ingliz to'ylari shaxsiy-romantik qadriyatlar, shaxsiy majburiyat va tarixiy an'analarni ko'rsatadi. Har ikki madaniyatning etnografizmlari nikoh va to'y marosimining jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, chog'ishtirma yondashuv orqali etnografizmlarning ichki semantik tuzilmasi, milliy mentalitet va madaniy qadriyatlar tizimi yanada chuqurroq tushuniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev A. O'zbek etnografik leksikasi. – Toshkent, 2019.
2. Karimov M. Lingvokulturologiya va xalq urf-odatlari. – Toshkent, 2020.
3. Dundes A. International Folklore and Customs. – London, 2005.
4. Taylor A. Wedding Traditions and Cultural Identity. – Cambridge, 1992.

5. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge, 2010.
6. Mieder W. Proverbs and Rituals: Ethnographic Insights. – Oxford, 2004.
7. Qosimova D. Madaniyat va til: etnografik tadqiqotlar. – Toshkent, 2021.

Matluba RAYIMJONOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

SHE'RIY MATNLARNI LEKSIK-SEMANTIK TAHLIL QILISH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek she'riy matnlarini leksik-semantik jihatdan tahlil qilish masalalari yoritiladi. She'rlarda qo'llangan leksik birliklarning ma'nosi va uslubiy vazifasi, semantik tahlilning shoir idiostilini ochib berishdagi ahamiyati hamda she'rlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishning asosiy usullari ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar: she'riy matn, leksik-semantik tahlil, denotativ ma'no, konnotativ ma'no, obrazlilik, semantik maydonlar, takror, kinoya, mavzuviy tahlil.
Annotation. The article examines the issues of lexical-semantic analysis of Uzbek poetic texts. The semantic and stylistic functions of lexical units used in poems, the significance of semantic analysis in revealing the poet's idiostyle, and the main methods of lexical-semantic analysis of poetic texts are analyzed.
Keywords: poetic text, lexical-semantic analysis, denotative meaning, connotative meaning, imagery, semantic fields, repetition, allusion, thematic analysis.
Аннотация. В статье рассматриваются вопросы лексико-семантического анализа узбекских поэтических текстов. Анализируются семантические и стилистические функции лексических единиц, используемых в стихотворениях, значение семантического анализа для раскрытия идиостиля поэта, а также основные методы лексико-семантического анализа поэтических текстов.
Ключевые слова: поэтический текст, лексико-семантический анализ, денотативное значение, коннотативное значение, образность, семантические поля, повтор, аллюзия, тематический анализ.

Badiiy matn til materiali yordamida yaratiladi va bu hodisa uning tilshunoslik sohalarida o'rganilishini ham taqozo qiladi. Binobarin, amerikalik adabiyotshunoslar Wellek va Warren takidlashicha, **"haykaltaroshlikda tosh yoki bronza, tasviriy san'atda bo'yoqlar, musiqada esa tovushlar material vazifasini bajarganidek, til adabiyotning materiali hisoblanadi [1: 22]".** Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi [2: 30].

She'riyat adabiyotda juda o'ziga xos janrdir, chunki unga xos bo'lgan xususiyat she'riy asarning tilidir. She'rlar odatda hikoya va boshqa adabiy janrlarga qaraganda qisqaroq bo'ladi, lekin ular qo'llanilgan so'zlar sonidan ko'proq narsani aytib beradi [3: 56]. She'rlarning mazmuni ulardagi tayanch so'zlarning ma'nosini ochish va kengaytirishdan kelib chiqadi. She'riy matnlarni leksik-semantik jihatdan tahlil qilish aynan shu maqsadni amalga oshirishda vosita hisoblanadi. Demak, leksik-semantik tahlil she'riy matnni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tilshunosligida she'rlarning leksik-semantik tahliliga oid tadqiqotlar talaygina. Jumladan, kanadalik tilshunos olim S.K.Transkanen she'riy matnda kuzatiladigan leksik tanlovlar yoki semantik maydonlarni antonimiya, kollokatsiya, giponimiya, meronimiya, takror va sinonimiya sifatida aniqlagan. Yaponiyalik olim E.Yeibo afrikalik shoir J.P.Clark-Bekederemo she'riyati leksikasi va mahalliy iboralarning stilistik ahamiyatini shoir she'rlaridagi sinonim, antonim, giponim, zid ma'noli so'zlar, idiomalar orqali tadqiq qiladi. Rus tilshunosi P.S.Baranovskiy taniqli rus shoiri Boris Riji she'riyati chastotali lug'atini yaratish, shu asosda shoir idiostiliga xos leksikani aniqlash, leksik kombinatsiyalar, tematik guruhlarni tahlil qilishga oid tadqiqot ishi olib boradi.

Tarixiy poetikada she'riyat uch yo'nalishda (ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya) o'rganilgan va ularda badiiy asar lingvopoetikasiga oid fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, badiiy asar tilini o'rganish masalasi o'tgan asrning 20-yillaridan boshlangan [7: 4]. Keyinchalik she'riy matnni til aspektida o'rganishga bag'ishlangan monografik kuzatishlar, ko'plab ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. B.Umurqulov "Poetik nutq leksikasi" monografiyasida poetik leksikani umumxalq leksikasidan, proza leksikasidan farqlash lozimligi, unda arxaik so'zlar ramzlar orqali berilishi bilan she'riyatda eskirgan so'z hisoblanmasligini ta'kidlaydi. Olim she'rlarda umumnutqiy so'zlardan foydalanish jozibadorlikni yo'qotishi haqida ham fikr yuritadi. I.Mirzayev "She'riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari" nomli doktorlik dissertatsiyasida qofiya va uning leksik tuzilishi semantik tarkiblanishi bilan qiyosan o'rgangan. Qofiyada so'zlararo semantik munosabatlar, turli so'z guruhlarining qofiyadagi o'rni, qofiyaning morfologik tuzilishi, so'z turkumlariga munosabati, sintaktik jihatlari kabi masalalarni lingvopoetik aspektda yoritgan.

She'rni leksik-semantik tahlil qilish matn ichidagi ma'noning turli jihatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Semantik tahlilda quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rib chiqish lozim:

1. **Denotativ va konnotativ ma'no** – so'zlarning bevosita, lug'aviy (denotativ) ma'nolarini hamda ularning ko'chma, ramziy va hissiy (emotsional) ma'nolarini tahlil qilish.
2. **Obrazlilik va badiiy ifoda vositalari** – she'rda qo'llangan tasviriy ifodalar, metafora, taqqoslash, jonlantirish va boshqa badiiy vositalarni aniqlash hamda talqin qilish.
3. **Ohang va kayfiyat** – she'rning umumiy ohangi va kayfiyatini muallifning so'z tanlovi, tasviriy vositalar va badiiy usullar orqali qanday ifodalanganini tahlil qilish.
4. **So'z qo'llash mahorati** – shoir tomonidan qo'llangan so'zlarni tahlil qilish, tovush xususiyatlari, shuningdek, ularda uchrashi mumkin bo'lgan mavhumlik yoki ko'p ma'noliligini tahlil qilish.
5. **Semantik maydonlar va leksik munosabatlar** – ma'lum semantik maydonga (masalan, tabiat, sevgi, o'lim va hokazo) tegishli so'zlar guruhini aniqlash va ular orasidagi munosabatlarni tahlil qilish, jumladan sinonimiya, antonimiya, giponimiya va meronimiyalarni aniqlash va o'rganish.

6. **Takror va paralellik** – matnda so'zlar, iboralar yoki sintaktik tuzilmalarning takrorlanishini aniqlash va uning semantik ahamiyatini, masalan, muayyan ma'noni ta'kidlash yoki kuchaytirish kabi jihatlarini tahlil qilish.

7. Kinoya va i**ntertekstuallik** – matnda boshqa asarlarga, madaniy an'analarga yoki tarixiy voqealarga berilgan ishoralarni o'rganish va ushbu ishoralarning she'rning umumiy mazmuniga qanday hissa qo'shishini tahlil.

8. **Kontekst va madaniy omillar** – she'r yaratilgan madaniy, tarixiy va biografik kontekstni hisobga olish va ushbu omillar uning semantik mazmunini qanday belgilashi yoki shakllantirishini tahlil qilish.

She'riy matnni semantik tahlil qilish qat'iy qolipga solinmaydi, chunki har bir shoirning individual badiiy uslubi mavjud. O'zbek tilshunosligida A. Shofqorov, D. Shodiyeva, D. Shodmonova kabi tadqiqotchilar mualliflarning individual badiiy uslubini leksik-semantik va lingvopoetik jihatdan chuqur tahlil qilganlar. Jumladan, A.Shofqorov "Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida she'riy matnni fonetik, grammatik, leksik va sintaktik takrorlar bo'yicha tadqiq qilgan. D.Shodiyeva "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoir she'riyatidagi sinonim so'zlar, antitezalar, iboralar, maqollar, okkozional so'zlarni o'rgangan. D.Shodmonova "Abdulla Oripov she'riyatining lingvopoetik xususiyatlari" nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoir ijodiga xos metaforalar semantikasini tadqiq qiladi.

She'riyat leksik va stilistik jihatdan badiiy nutqning o'ziga xos ko'rinishi sanaladi. Mazkur janrning o'ziga xosligi, avvalo, uning leksik tarkibida namoyon bo'lib, unda boshqa janrlarda kam qo'llanadigan so'zlar va shakllarning uchrashi bilan tavsiflanadi. Leksik-semantik tahlil she'rlardagi ma'no va mavzularni kengaytiradi, shuningdek, o'quvchini shoirning ichki dunyosi, ruhiyatiga ham olib kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wellek R. and Warren A. The Language of Literature London. – Longman, 1977.
2. Yo'ldoshev M, Isaqov Z, Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
3. Shklovsky V, Russian Formalist Criticism: Four Essays, – Linclon: Nebraska University Press, 1995.
4. Transkanen S. K. Discourse in interaction. – Canada: Routledge, 2006.
5. Yeibo E. Patterns of Lexical Choices and Stylistic Function in J.P.Clark-Bekederemo's Poetry // International Journal of English and Literature, 2011. Vol.1. №1. –P.1–8.
6. Брановский С.П. Лексикографическое описание поэтической системы Бориса Рыжего: квантитативный аспект. Канд. филол. наук (PhD) дисс. – Калининград: 2024
7. Yusupova O, Bekmuradova I. O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish masalalari//Ilmiy axborotnoma. 2021-yil, 6-son (130). B. 4-8
8. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1990
9. Mirzayev I.K. She'riy matnning lingvopoetik tahlili muammolari: Filol.fan.d-ri. diss.avtoref. – Toshkent: 1992.

Gulnoza JUMAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

"METOD" VA "INDIVIDUAL USLUB" TUSHUNCHASI

Annotatsiya. Nazariyotchi olimlarning XX asr boshlaridan boshlab badiiy tizimni keng ko'lamda o'rganishga e'tibor qaratishlari natijasida "uslub" tushunchasiga bog'liq tadqiqotlarning salmog'i anchagina oshdi. Shu sababli uslub tilshunoslikdan uzoqlashib adabiyotshunoslik fanida keng miqyosda o'rganildi va tadqiq etildi. Bu kabi izlanishlar tadqiqotchilar oldida "metod" va "uslub" tushunchalarining farqini ko'ndalang qo'ydi. Quyidagi maqolada mavzu doirasida nazariy qarashlar keltirilgan, qiyoslash va dalillash orqali kichik ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: metod, uslub, RAPP, estetik tafakkur, nazariya, umumlashtirish.

Annotation. Since the beginning of the 20th century, theoretical scholars began to pay more attention to the comprehensive study of the artistic system, the significance of research related to the category of "style" increased significantly. As a result, the concept of style went beyond linguistic analysis and received wide development in literary studies. These studies actualized the problem of distinguishing between the concepts of "method" and "style". This article presents the main theoretical approaches to this issue and formulates generalizing scientific conclusions based on comparative and reasoned analysis.

Keywords: method, style, RAPP, aesthetic thinking, theory, generalization

Аннотация. В связи с тем, что с начала XX века ученые-теоретики стали уделять повышенное внимание комплексному изучению художественной системы, существенно возросла значимость исследований, связанных с категорией «стиль». В результате понятие стиля вышло за рамки лингвистического анализа и получило широкое развитие в литературоведении. Данные исследования актуализировали проблему разграничения понятий «метод» и «стиль». В настоящей статье представлены основные теоретические подходы к данной проблематике, а также сформулированы обобщающие научные выводы на основе сравнительного и аргументированного анализа.

Ключевые слова: метод, стиль, RAPP, эстетическое мышление, теория, обобщение.

Tilshunos olimlarning XX asr boshlaridan boshlab badiiy tizimni keng ko'lamda o'rganishga e'tibor qaratishlari natijasida uslub tushunchasiga bog'liq tadqiqotlarning salmog'i anchagina oshdi. Shu sababli uslub tilshunoslikdan uzoqlashib adabiyotshunoslik fanida keng miqyosda o'rganildi va tadqiq etildi. Bu kabi izlanishlar tadqiqotchilar oldida "metod" va "uslub" tushunchalarining farqini ko'ndalang qo'ydiki, ba'zi nazariyalar uslub bu – metodning bir qismi desa, boshqa bir nazariy qarashlarga ko'ra bu ikkisi alohida-alohida atamalar ekanligi da'vo etiladi. XIX asrda Rossiyadagi proletar yozuvchilar uyushmasi bo'lgan RAPP (Российская пролетарских писателей) nazariyotchi olimlari ham o'z davrida metodning ijodkor dunyoqarashining aksi ekanligini, bu ikki tushuncha bir ma'noni bildirishi borasidagi fikrni davo qilishgan [2: 4]. "Aslida shundaymi, degan savolning javobini topish uchun dastavval bu ikki atamaning bir-biridan farqli hamda o'xshash tomonlariga e'tibor qaratish lozim. Metod (yun. "tadqiq qilish o'rganish") – turmushdagi hodisalarni

o'rganish shu orqali tasvirlashning asosiy prinsiplari" [1: 111]. Fikrimizni aniqroq ifodalash uchun olim L.I.Timofevning metod va uslub borasidagi fikrini keltirishimiz joiz: "Metodda eng avvalo, yozuvchini boshqa, o'ziga yaqin yozuvchilar bilan bog'laydigan umumiy narsalar ko'zga tashlanadi, uslubda esa ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning hayotiy tajribasi, iste'dodi, nutq ohangi va hokazolar ko'zga tashlanadi" [5: 411]. bundan tashqari olim metodni yo'lni ko'rsatuvchi kompasga o'xshatadi va ijodkorning individual uslubini, o'sha kompas ko'rsatib bergan manzilga qanday qilib yetib borish deb tariflaydi. Metod va uslub muammosi adabiyotshunoslik ilmida ko'p marta o'rganilgan; jumladan, o'zbek adabiyot nazariyasida ham Hamidulla Boltaboyev, Dilmurod Quronov, Hotam Umurov, To'xta Boboyev, Abdulla Ulug'ov va boshqa olimlarning nazariyaga bag'ishlangan kitoblarida bu boradagi alohida boblar bor. Ularning barida metod va uslub alohida-alohida tushunchalar ekanligi haqida fikrlar hamda berilgan fikrlarni isbotlash uchun misollar mavjud. Metod tushunchasini H.Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kitobida *usul* deb nomlaydi. Bundan tashqari olim uslub va usulning paydo bo'lishi adabiyot ichida bir paytning o'zida, ya'ni asar yozilishni boshlashi bilan ro'y berishini, muallif o'zining uslubini shakllantirganda metodni ham tanlashini aytadi. Demak, metod mavjudlikni estetik idrok etishni bildirsa-da, uslub kabi uning qanday tasviriy vositalar orqali akslantirilishini bildirmaydi. Bu ikki atamani o'zaro bog'liq lekin bir ma'no anglatmasligini yuqoridagi fikrlar orqali ham ko'rish mumkin.

Adabiyotshunos olimlar Hotam Umurov va Azmiddin Nosirov ta'riflari bilan aytadigan bo'lsak; bir ijodkor yo san'atkor uslubi, ma'lum bir asar uslubi yoki belgilangan davr uslubi o'sha ijodkor, asar, davrning unga xos xususiyatlarini o'zida umumlashtirsa, uslub, ammo lekin, muayyan guruhga mansub ijodkorlar guruhining umumiy, o'xshash tomonlarini jamlasa bu – metod. Bundan ko'rinadiki, agar metodni olam haqidagi biror bir savol desak, uslub o'sha savolga berilgan javob deyish mumkin. Kimgadir olamning qachon paydo bo'lgani qiziq bo'lsa, boshqa birov uchun qachongacha mavjud ekanligi qiziq, yana kimdir uchun esa boshqa birov uchun nima sababdan paydo bo'lganligini bilish qiziqroq bo'ladi. Aytmoqchimizki, metodning borliq borasidagi savoli qanday ekanligi ham turli mualliflarda turlicha bo'ladi. Bir xil savolga javob topish uchun asar yaratgan ijodkorlarni "metod" tushunchasi birlashtiradi, berilgan javoblardagi farq esa ularni ajratib turadi. Yana bir nazariyaga ko'ra: "Bu ikki tushuncha umuman bir-biriga yaqin bo'lmay, faqatgina yaxshi asar yaratishda ikkisining birlashishi lozim ekanligini ham keltirib o'tishadi" [4: 194].

Bir muallif faqatgina bir metodga mansub bo'lib qolmaydi, balki metodni yaratilgan asar tanlaydi. Yuqorida keltirilgani singari asar yozilishni boshlashi bilanoq uslub ham metod ham tanlanadi. Bir ijodkor ham realistik, ham romantik metodda ijod qilishi mumkin. Bu fikrni nazariyotchi olim A. Hayitmetov Hazrat Navoiyning aksariyat asarlarida romantik ruh hukm surganiga qaramay, "Mahbub-ul-qulub" asaridagi satirik g'azallar va ba'zi qit'alar hamda "Lisonut tayr" asaridagi ba'zi hikoyalar realistik xarakterga ega ekanligini misol tariqasida keltirib isbotlab beradi. Yana misol sifatida yozuvchi Tohir Malikning ko'pgina asarlari realistik metodga xos bo'lishiga qaramay, ba'zi bir fantastik asarlarida romantik metod mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin. Jadid adabiyotining yirik vakillaridan biri bo'lmish Abdulhamid Cho'lpon ijodida ham realistik asarlar qatorida "Go'zal" she'rini romantik asar deb atay olamiz.

Badiiy uslubga doir nazariy qarashlarning shakllanishi insonlarda adabiy-estetik did va tushunchalarning rivojlanish evolutsiyasini ham o'zida aks ettiradi. Ushbu tushuncha dastavval notiqlik san'atining bir qismi tariqasida qaralgan bo'lsa, keyinchalik ijodkor shaxsiyatining ifodasi, badiiy shakli sifatida tobora kengroq o'rganila boshlandi. "Ijodiy uslubni muallifning "bayon tarzi", "fikrini ifoda etish mahorati" deb qarash ham uning bir jihatini bildiradi. Chunki uslub juda keng tushunchadir" [3: 192].

Individual uslub doimo ham bir qaraganda namoyon bo'lmasligi mumkin, ammo u matn ichida ma'lum bir tarzda ko'zga ko'rinadiki, bu barcha yozuvchi foydalanadigan bir xil so'zlarga turli xil ma'no yuklaydi. O'z uslubiga ega har bir ijodkor uchun ma'lum bir til chegarasi bo'ladiki, ijodkor o'sha chegara ichida o'z tushunchalarini tasvirlaydi. U o'z tasavvuridagi Quyoshni, Oyni, jamiki borliq va undagi hodisalarni o'sha yozish uslubiga xos tilda tariflaydi va o'quvchiga taqdim etadi. Zeroki, uslub fikrni bayon etishdagi eng nafis vosita, u nutqqa jon baxsh qiladi va ta'sirini oshiradi. Shu sababli ham atrofdagi bari yaratiqlar va hodisalar bir yozuvchi nazdida ijobiy va go'zal tasvirlansa, boshqa bir ijodkor yaratgan asarida chirkin hamda g'urbatli tasvirlaydi. Bu hodisa bir ijodkorning turli asarlarida ham ro'y berishi mumkin bo'lib, bunda ijodkor shaxsi rivojlanishi, ijtimoiy holati, ruhiy holati va asarda bayon qilmoqchi bo'lgan g'oya ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабиётшунослик терминлари луғати (II нашр) – Тошкент: Ўқитувчи, 1970.
2. Bystrova O.V. Russian Association of Proletarian Writers: Materials for the History of the Literary Organization (Artikles) // A.M.Gorky Institute of World Literature of the Russian Academy of Sciences, 2024, Vol. 83, Issue 4. https://journals.rcsi.science/1605-7880/view/270975.
3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
4. Umurov H., Nosirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2021.
5. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. Москва: Просвещение, 1971.

Moxitabon MO'MINOVA,
Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

ARXETIPLAR VA TOTEMISTIK RAMZLAR: QADIMGI TURKIY ADABIYOTDA HAYVON OBRAZLARI SEMANTIKASI

Annotatsiya. Maqolada qadimgi turkiy adabiyotdagi hayvon obrazlarining ramziy va arxetipik ma'nolari tahlil qilinadi. Arxetiplar inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, axloqiy qadriyatlar hamda ruhiy barqarorlikni ifodalovchi badiiy vosita sifatida o'rganiladi.
Kalit so'zlar: arxetip, totemizm, "Irq bitigi", bo'ri obrazi, ot obrazi, mifopoetik tafakkur, turkiy adabiyot.

Annotation. The article analyzes the symbolic and archetypal meanings of animal images in ancient Turkic literature. Archetypes are studied as an artistic means of expressing the harmony between man and nature, moral values, and spiritual stability.
Keywords: archetype, totemism, Irk Bitig, wolf image, horse image, mythopoetic thinking, Turkic literature.
Аннотация. В статье анализируются символические и архетипические значения образов животных в древнетюркской литературе. Архетипы изучаются как художественное средство выражения гармонии между человеком и природой, нравственных ценностей и духовной устойчивости.
Ключевые слова: архетип, тотемизм, «Ирк Битиги», образ волка, образ коня, мифопоэтическое мышление, тюркская литература.

Arxetip – insoniyatning umumiy psixik tajribasidan kelib chiqadigan va madaniy an'analarda takrorlanib turadigan turg'un obrazlar tizimi. *Arxetip* atamasini ilk bor K.G.Yung ilmiy muomalaga kiritgan bo'lib, u arxetiplarni shaxsiy tajribadan mustaqil, ajdodlar xotirasida saqlanadigan "kollektiv ongsizlik"ning asosiy strukturalari sifatida talqin qiladi. K.G.Yung nazariyasiga ko'ra, insonlarda tushlar, miflar, afsonalar va ertaklarda qayta-qayta uchraydigan ramzlarni g'ayriixtiyoriy ravishda qabul qilishga tug'ma moyillik mavjud.

K.G.Yung *arxetip* atamasini dastlab psixologik hodisani nazarda tutish uchun ishlatgan bo'lsa, keyinchalik bu atamani mifologlar va adabiyotshunoslar qabul qiladi. Biroq Y.V.Domanskiy bu atama antik falsafada allaqachon ma'lum bo'lgan hodisa, deb fikr bildiradi. Yunggacha ilm-fanning turli sohalari (psixologiya, falsafa, mifologiya, adabiyotshunoslik) vakillari *arxetip* atamasini ishlatmagan bo'lsalar ham, mifologik va mifopoetik matnlar asosini tashkil etuvchi elementlarni, formulalarni, sxemalarni qidirishga e'tibor berishganini ta'kidlaydi.

Freydenbergning arxetip obrazlarga qarashi Yungnikidan keskin farq qilmaydi. Uningcha, arxetip obrazlar har doim insonning borliqqa bo'lgan g'ayriixtiyoriy munosabati natijasida sodir bo'ladi. Bu jarayon natijasida mif shakllanadi. So'z orqali ifodalangan obrazli tasavvurlarni *mif* deb atash qabul qilingan bo'lsa-da, san'atda mif ramziy obrazlar orqali o'z ifodasini topadi. Shu bois arxetip obrazlar mifologiya san'atning manbayi hisoblanadi. Badiiy tafakkurdagi sinkretizm bosqichi ana shu ikkita omilda namoyon bo'ladi. Bu ham madaniy hodisa bo'lib, ularda chalkash-chulkash va vahimali obrazlarning asta-sekin sayqallanish jarayoni yuz beradi, ular ramzga aylanadi, shakl jihatidan chiroy, mazmun jihatidan umumiylik paydo bo'ladi. Ana shuning uchun ham arxetiplarga katta ma'no yuklanadi va alohida e'tibor beriladi. Xullas, mifologiya arxitip obrazlarga ishlov berishning dastlabki usuli sifatida ilk bosqichni tashkil etadi [1: 163].

Dilmurod Quronov arxetip haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Arxetip – (yunoncha "archetypon" – obrazning ilk asosi, model) – inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema", fikriy konstruksiya va qoliplar, motivlar va ularning turli kombinatsiyalari. *Arxetip* tushunchasi shveytsariyalik ruhshunos K.Yung ta'limoti bilan bog'liq holda ommalashdi. Unga ko'ra, arxetiplar kishilik jamiyatining eng qadimgi davrlaridan boshlab insoniyat xotirasida "kollektiv ongsizlik" sifatida yashaydi va ijod jarayonida turli shakllarda o'zini namoyon etaveradi. Ya'ni arxetiplar universal xarakterga ega bo'lib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin. Arxetip konstruksiya va sxemalardan o'ziga xos "syujet va syujet holatlari" jamg'armasi hosil bo'ladiki, ular asardan–asarga, davrdan-davrga ko'chib yuradi"[2: 37].

H.Allamberganov tadqiqotlarida arxetiplar qadimgi turkiy yodgorliklardagi olamning mifopoetik modeli tarkibida mavjudligi, ayniqsa, "Irq bitigi" arxetip obrazlarning qadimgi turkiy adabiyotda mavjudligini ko'rsatadigan muhim yodgorlik ekani aytiladi. Uning fikriga ko'ra, "Irq bitigi" dagi 65 ta hikoyachaning har biri arxetip obrazlar asosida shakllangan va ulardagi har bir obraz ramziy ma'noga ega. Masalan, tovushqon, burgut, ilon [1: 164]. "Irq bitigi"da nima yaxshiyu nima yomonligi haqidagi axloqiy qarashlar turkiylar uchun muqaddas sanalgan ilon, bo'ri, burgut, yo'lbars, ot va boshqa hayvonlar, jonivorlar orqali gavdalantiriladi" [3: 334–335].

"Irq bitigi" qadimgi turkiy adabiyotdagi ilk ramziy-majoziy xususiyatli asardir. Unda inson hayotidagi yaxshilik va yomonlik ramziy obrazlar misolida beriladi. Bo'ri va qo'y haqidagi masallar jahon adabiyotida ko'p uchraydi. Qo'y – ojizlik, bo'ri – zo'ravonlik timsolidir. "Irq bitigi" dagi quyidagi she'r bunday xususiyatli masallarning qadimgi namunalaridan hisoblanadi:

Boy kishining qo'ylari hurkib ketibdi,
Ular bo'riga duch kelibdi.
Bo'ri uning suti bilan og'izlanibdi.
(yoki bo'rining og'zi kasallanibdi, ya'ni – og'ribdi)
Qo'ylar salomat va tugal qolibdi, deyishdi,
Bilib qo'ying: bu yaxshi [4: 51].

"Irq bitigi" dagi axloqiy qarashlar turkiylar uchun muqaddas sanalgan hayvonlar orqali gavdalantirilishi asarning ramziy xarakterda ekani bilan belgilanadi. Ot va bo'ri turkiy totem hayvon sifatida e'zozlangan. Shuning uchun qadimda bu ikki hayvonga nisbatan e'tiqod kuchli bo'lgan. Bo'ri totemi turkiy xalqlar og'zaki ijodida urug'boshi, balo-ofatlardan saqlovchi kuch sifatida ulug'langan. Bo'riga e'tiqod qilishning sabablaridan biri, undagi bo'ysunmaslik, itoat etmaslik xususiyatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun o'tmishda jangovor bayroqqa bo'ri tasviri tushirilgan, odamlar uning omad olib keluvchi xususiyatlariga ishonishgan va bo'rining tishi, tirnog'ini omad ramzi sifatida o'zlari bilan birga olib yurishgan.

Turkiy xalqlarning ajdodi bo'ri bo'lganligi haqidagi mashhur "Bo'ri urug'lari afsonasi" mavjud. Unda aytilishicha, g'arbiy dengiz qirg'og'ida yashagan turkiylarning ota-bobolari qo'shni qabilalar tomonidan qirib tashlandi. Faqat o'n yoshli bola yashirinib tirik qoldi. O'sha yerlarda yashaydigan urg'ochi bo'ri unga xotin bo'ldi. Ochlikdan qutqarish, dushmanlardan yashirinish uchun bo'ri o'sha bolani olib Turfon tog'lariga qochib ketdi. Tog'da bir g'or bor edi. U yerda urg'ochi bo'ri o'nta bola tug'di. Bolalarning otasi o'sha qutqarilgan turk edi. Bo'ri bolalari Turfondagi ayollarga uylandi. Har bir boladan bir urug' kelib chiqdi. O'g'illaridan birining ismi Ashin edi [5: 42].

XIX asrda mashhur tarixchi N.Y.Bichurin uch jilddan iborat "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda istiqomat qilgan xalqlar haqida ma'lumotlar majmui" asarining 1-jildida shu afsonani keltiradi...Turkiy qavmlarning ona bo'ridan kelib chiqqanligi haqidagi afsona qadimgi Xitoy hukmdorlariga ham juda yaxshi ma'lum bo'lgan, ular "turk xoqoni" va bo'ri so'zlarini sinonim sifatida qo'llaganlar [6: 67]. Demak, "Bo'ri urug'lari afsonasi" da turkiy qavmlarning kelib chiqishini bo'ri obrazi bilan bog'lash arxetipik tasavvurning o'ta qadimiy qatlamini ifodalaydi. Xitoy manbalarida turkiy xoqon va bo'ri tushunchalarini sinonim tarzda qo'llanganligi ham bu arxaik e'tiqodning keng ko'lamini ko'rsatadi. Akademik V.A.Gordlevskiy fikriga ko'ra, Yevropaga muqaddas bo'ri afsonasini turkiy xalqlar olib kelgan. Bo'ri totemi, shuningdek, yaratuvchi, homiy bo'ri kulti, omad ato etish xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu belgilar uning

g'ayrioddiy harakati, ovozi, munosabati, xarakteri ibtidoiy kishilarni hayratga solgan tabiati zamirida paydo bo'lgan.

Rimda Marsga va Skandinaviya mifologiyasida shoh Odinga sig'inishda bo'ri muhim rol o'ynaydi. Xet, Eron, Yunon, Germaniyada bo'ri jamoa ramzini bildirgan va ular ko'pincha bo'ri terisini kiygan. Demak, bu qabilalar bo'ri terisini kiyish orqali o'zlarida unga xos xususiyatlar aks etishiga ishonishgan. Shuning uchun jangovor qahramonlar g'azablangan bo'riga qiyoslangan.

Turkiy xalqlar og'zaki ijodida ot totemiga ham alohida ahamiyat berilgan. Arxeologik qazishmalar davrida yarmi ot va yarmi odam shaklidagi tasviriy asarlarning topilishi ham otga e'tiqodning qadimiy ramzidir [3: 17]. Otga oid naqshlar, yarmi ot-yarmi odam tasvirlari arxetipning qadimgi ildizlarini ko'rsatadi. Demak, turkiy adabiyotdagi hayvon obrazlari oddiy zoologik tasvir emas, balki ajdodlar xotirasidan kelib chiqqan atxetipik tamoyillarni ifodalaydigan badiiy-mifologik strukturalardir. "O'rta Osiyo va Sibirda yashagan turkiylar totem deb bilgan hayvonlarning, jumladan otning insonlarga yaxshilik keltirish bilan birga yomonlik ham keltirishi mumkinligiga ishongan, ya'ni ma'lum ma'noda otdan cho'chishgan ham. Shu sababli, ot kabi muqaddas sanalgan hayvonlarning suyaklari yoxud shakllari bir joyga to'planib, ulardan "yaxshilik" va shafqat so'ralgan" [7: 86].

Ot ota-bobolarimizning to'yida ham, azasida ham birga bo'lgan. Kelinni chiroyli qilib bezatilgan otda olib kelish, ot hadya qilish odati hali hanuz yo'qolgani yo'q. Janoza marosimida bir otni dumi kesilgan yo bog'langan holatda olib kelinishi, hatto jangchi o'lsa, uni egar-jabduqli oti bilan birga ko'mish udumi ajdodlarimiz o'tmishida mavjud bo'lgan. Binobarin, Bo'zqir-turk qavmlariga oid qabristonlardan, Osiyo-Xun imperatorligiga oid qo'rg'onlardan, O'rta Osiyoda olib borilgan qazilma ishlari davomida juda ko'p ot suyaklarining topilishi ham bejiz emas. Umuman, ot boshqa hayvonlardan egasiga sodiqligi, aqlliligi va nihoyat, o'zining noyob xislatlari bilan ajralib turadi. Masalan, ot ko'z qorachig'ining naqadar qimmatli ekanligini usta xattotlargina bilishadi. Gap shundaki, otning ko'z qorachig'i solib tayyorlangan bo'yoq bilan yozilgan yozuv yaltiroqligi, ko'rimliligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Bunday yozuv uzoq muddat aslini yo'qotmaydi [7: 78].

Xulosa qiladigan bo'lsak, qadimgi turkiy adabiyot, ayniqsa **"Irq bitigi"** asari, arxetiplar tizimining badiiy ifodasini aniq ko'rsatib beradi. Bu manbada hayvonlar obrazlari **axloqiy, falsafiy va ijtimoiy g'oyalarni** mujassamlashtirgan holda keltiriladi. Ularning har biri inson tabiatining ma'lum bir jihatini — sadoqat, jasorat, erkinlik, himoya yoki yovuzlikni ramziy tarzda ifodalaydi. Shuning uchun turkiy adabiyotdagi hayvon obrazlarini arxetiplar nuqtayi nazaridan tahlil qilish nafaqat mazkur matnlarning badiiy semantikasini ochadi, balki milliy-madaniy tafakkurning eng qadimiy qatlamlarini ilmiy asosda tushunish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Allamberganov H. Arxitip ilk obraz demakdir // Sharq yulduzi, 2016, №4.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. Abdurahmonov A. Turkiy xalqlar og'zaki ijodi. – Samarqand: 2006.
4. Irq bitigi. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_mumtoz_adabiyoti/Irq%20bitigi%20(ta'birnoma).pdf.
5. Rahmon N. Turk xoqonligi. – Toshkent, 1993.
6. Rahmonov N. Tarixdan oziqlanib. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2019.
7. Tilavov A. Epik ot obrazining tarixiy asoslari // O'zbekiston: til va madaniyat, 2022, №1(2).

Mahfuza YASHINOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-bosqich magistranti

OLIM TOSHBOYEVNING "KIPRIK SOYASI" HIKOYASIDAGI RAMZLAR TAHLILI

Annotatsiya. Biz ushbu maqolada Olim Toshboyevning "Kiprik soyasi" hikoyasini ramziy jihatdan tahlil qildik. Tahlilda asosan struktural tahlil metodiga diqqat qaratdik. Hikoyada keltirilgan qabriston, vafot etgan ota jasadi ramzlari va jasadning yoqilish sabablarini chuqur tahlil qilishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: ramz, struktural metod, qabriston, jasadni yoqish, o'lim, kasallik.

Annotation. In this article, we have symbolically analyzed the story "The Shadow of the Eyelash" by Alim Tashbayev. During our research, we focused primarily on the method of structural analysis. We sought to conduct a deep analysis of the cemetery described in the story, as well as to explore the symbolism of the deceased father's body and the reasons that led to the cremation of his remains.

Keywords: symbol, structural method, cemetery, burning of a body, death, illness.

Аннотация. В этой статье мы символически проанализировали рассказ Алима Ташбаева «Тень ресницы». В ходе нашего исследования мы сосредоточились преимущественно на методе структурного анализа. Мы стремились провести глубокий анализ кладбища, описанного в рассказе, а также исследовать символику тела покойного отца и причины, приведшие к кремации его останков.

Ключевые слова: символ, структурный метод, кладбище, сожжение тела, смерть, болезнь.

Bugungi kunda biz bilan zamondosh shoir-u yozuvchilar talaygina. Ularning mashhurlik darajasi turlicha. Ammo har birining o'qirmani bor albatta. Zero, har bir ijodkorning o'z uslubi, qobiliyati bo'ladi. Ana shu uslub orqali u badiiy ijodda o'z o'rnini yaratadi. Mana shunday o'z so'ziga va o'rniga ega ijodkorlar orasiga biz yozuvchi Olim Toshboyevni ham kiritishimiz mumkin.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist unvoni bilan taqdirlangan ijodkorimiz Boysun farzandi. Yozuvchi "Karbalo", "Kiprik soyasi" hikoyalari, "Kishan" va "Ultontoz" romanlari orqali kitobxonlar e'tiboriga tushgan. Ushbu maqolada biz Olim Toshboyevning "Kiprik soyasi" hikoyasini tahlil qilamiz. Strukturalistlardan Bart: "Badiiy asarda birgina emas, bir necha fikr-g'oyalar bo'lishi mumkin. Har davr undan o'ziga xos ma'no-mazmun topadi. Asar o'z mohiyati bilan turlanadi. Badiiy asarning ramziyligi ham shunda. Ramz – obraz emas, bu fikr-g'oyalar ko'pligining naq o'zidir" [1: 34] deydi. Shunday

ekan, ushbu hikoyadagi fikr va g'oyaning nihoyatda ko'pligi matndagi ramzlarni chuqur tahlil qilishga undaydi.

Hikoyada bosh qahramon Sattorning uyida yuz bergan ketma-ket judolik va oxir-oqibat, jamiyatning bu fojialarga yechim sifatida tanlagan yo'li aks etgan. Sattor singlisining hayotini saqlab qolish maqsadida o'n oy oldin dafn etilgan otasining jasadini ochib, chavaqlab yoqib yuboradi va bu bilan bezovta ruhni tinchlantirmoqchi bo'ladi. "Kiprik soyasi" nomi hikoyadagi voqealarga u qadar aloqador emas. Hikoyaning boshlanish qismida ijodkorning dunyo va oxirat haqidagi shaxsiy qarashlari aks etadi. Ana shu o'rinda yozuvchi shunday yozadi:

"Foniy dunyo bandalari nimani unutishadi?!

Hamma narsani. Hatto Tangrini ham.

Dunyoda odamlar bir-birlariga Kiprik yanglig' yaqin yashaydilar. Ammo... to'ymaydilar bu yolg'on Dunyoga, Mening esa... ruxsorim kipriklar soyasida nihon bo'lur. Bebaho olamning nolakor bandalari nogoh bandlaridan uzilsalar ham, yana so'rayverar, to'ymas qaro Yer...

Birgina kiprikdan ayro tushsam gar, sizib chiqaverar jolavash yoshlar..." [4]

Boshqa biron o'rinda kiprik yoki uning soyasiga aloqador jumlani uchratmaymiz. Shu sabab hikoyaga berilgan nom har bir kitobxonni o'ylashga, mulohaza qilishga undaydi. Yozuvchi yuqoridagi parchada insonlarning qon-qarindosh, aka-uka, opa-singillarning bir-biriga yaqinligini kiprik donalariga o'xshatadi. Hikoyaga qo'yilgan nomni badiiy va ramziy jihatdan tahlil qilganimizda *kiprik* va *soya* so'zlarining yana ham keng ma'noda qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Kiprik ko'zning himoya vositasi. Kiprikning vazifasi ko'zni changlardan, tashqi olamdagi zarralardan muhofaza qilish. Badiiy matnda esa kiprik vazifasini Ota bajaradi. Hikoyaning "Kiprik soyasi" deb nomlanishi orqali Sattorning otasiga yoki Sattorning o'ziga ishora qilingan bo'lishi mumkin. Bunga bir nechta talqinlarni keltiramiz.

Birinchi talqinda "kiprik" sifatida vafot etgan otani olishimiz mumkin. Ota dunyodan o'tgan, ammo uning ruhi mavjudligi orqali otaning soyasiga ishora qilingan bo'lishi mumkin. Ammo hikoyada biron bir o'rinda ota ruhining farzandlarni himoya qilishdagi jihati bayon qilinmaydi. **Ikkinchi talqin**ga ko'ra "kiprik" – oila qo'rg'oni sifatida Sattor olingan bo'lishi mumkin. Sababi otasi, onasi va ukasining vafotidan so'ng oila mas'uliyati unda edi. Singlisining hayotini saqlab qolish ham uning zimmasida edi. Ammo Sattor haqiqiy qo'rg'on vazifasini bajara olmadi. U kiprikning soyasi bo'la oldi xolos. Sababi soya haqiqiy kiprik bo'lmay, faqatgina mavjudlik belgisini ifodalashi mumkin. Soya esa amalda hech qanday vazifa bajara olmaydi. **Uchinchi talqin** sifatida esa vafot etgan ota kiprikdir, uning o'g'li Sattor esa kiprikning soyasi sifatida keltirilgan bo'lishi ham mumkin. Sababi oiladagi haqiqiy qo'rg'on – Ota bu dunyoda yo'q edi. Ammo uning o'g'li, ya'ni soyasi mavjud edi. Turkiy xalqlarda qadimda hukmdorlar va ularning o'g'illarini "Xudoning yerdagi soyasi" deb nomlashgan va shunday qabul qilishgan. Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, Sattor vafot etib ketgan ota ruhining yerdagi soyasi edi.

Hikoyada dialoglar nihoyatda kam qo'llanilgan. Badiiy matn asosini bosh qahramon Sattorning o'y-kechinmalari va yozuvchi tilidan bayon qilingan tasvirlar, holatlar tashkil qiladi. Murdani chavaqlash va uni yoqib yuborish holati deyarli tasvirlanmaydi. Ijodkor bu jarayonni shu qadar ustalik bilan jarayon ichiga kirgizib yuboradiki, soy bo'yida amalga oshirilgan bu mudhish ishdan o'quvchini yo'l-yo'lakay xabardor qilib qo'yiladi. Shu jumladan, qabriston, qabrning ochilish holati va murdaning qay holatda ekanligi ham batafsil yoritilmaydi, kichik ishoralar, mayda tasvirlar shu qadar mohirona ifodalanadiki, o'quvchi hikoyadagi holatni ko'z oldida gavdalantira oladi. Qisqa matn orqali katta mazmun va ma'noni ifodalash shubhasiz ijodkorning mahoratidan darak beradi. Shu sabab hikoyadagi qabriston, chirimagan jasad, murdaning yondirilishi va tush motivlarini birma-bir tahlil qilishga va ularning ma'nolarini izohlashga harakat qildik.

Qabriston – jamiyatning qo'rquvlar yig'ilgan maydoni, odamlar qo'rquvlari jamlangan joy. Albatta har kimda ham qo'rquv uyg'otmaydi, ammo umuman olganda, insonda ma'lum bir qo'rquvlarni, o'ylarni paydo qiladigan makon sifatida qaraladi. Bundan tashqari, qabriston haqida turli irimlar, ta'birlar bor. Hikoya voqealari aynan qabristonda boshlanadi. Qabriston, tun, fonus va hokazo. Hikoyada qabriston sujetni boshlovchi nuqta vazifasini bajargan:

"Qabristonda ikki jon, tun qorasida tentiraydi. Birining qo'lida fonus. Izma-iz, qorama-qora, go'rlarni aylanib borishmoqda. Tun osuda, qurib xasga aylangan sho'ra, kavrak, yantoqlarning shitir-shitiri quloqqa qumdek quyuladi.

– Qulmamat, to'g'ringdagisi. Adashma. Fonusning piligini sal ko'tarib, anavi joyga mahkamlab o'rnat. Ehtiyot bo'l, qabr boshida toshlar bor. Tag'in bel taqirlab, girdimizga shovqin solmasin.

Yo'l boshlab borayotgan qora bosh irg'ab, "mayli" degandek tasdiq imosini qildi. Fonus yorug'ida bel dastalari yaltirab ko'rindi. Ikki ko'lanka go'ristonning quyirog'ida do'mpayib turgan qabr boshiga kelib to'xtadi. Girdo-gird sokinlikka bosh qo'ygan. Bu ma'sum sukunatni qishloq itlarining cho'zib uvlashi buzadi" [4].

Hikoyaning asosiy voqealari yuqoridagi jumlalar bilan boshlanadi va qisman qabriston tasviri ham bor. Qabristondagi sokinlik, tun o'quvchida hech qanday qo'rquv uyg'otmaydi. Kitobxon ikki insonning nima maqsaddan kelganiga e'tibor qaratadi. Qabriston tasvirining o'quvchida qo'rqinch paydo qilmasligi hikoya qahramonlarining ruhiy holati bilan ham aloqador. Sababi Sattor ham, Qulmamat ham tun bo'lishiga qaramay qabristondan qo'rqmaydilar. Sababi ular amalga oshirmoqchi bo'lgan ish har qanday qo'rqinchli makondan ham qo'rqinchliroq edi.

Zamonaviy adabiyotga qabriston motivining kiritilishi orqali bir qancha maqsadlar ko'zda tutiladi. Qabriston konflikt va dramatizm manbayi sifatida, millatning yo'qotgan qadriyatlarini bayon qilish sifatida, jamiyatning "oynasi" vazifasida badiiy matnga kiritilishi mumkin. Yuqoridagi holatlarni "Kiprik soyasi" hikoyasida uchratishimiz mumkin. Hikoyada qabriston motivi orqali yozuvchi qahramonning ichki konflikti va ruhiy silkinishini aks ettirgan. Ya'ni ichki konflikt aynan qabristonda yuzaga keladi. Qabrni ochganda Sattorning ruhiy holatida o'zgarish bo'ladi. U o'z otasining jasadini yoqmoqchimasligi, el-yurt oldida bosh ko'tarib yurishi haqida ich-ichidan o'ylayi. Ichki ovozi bu ish noto'g'ri ekanini aytadi. Shu onda Sattor va jamiyatdagi ba'zi insonlarning qarorlari qahramon ongida kurashadi.

Yozuvchi qabriston motivini kiritish orqali millatning yo'qolib borayotgan qadriyatlariga ishora qiladi. Ikki jon qabristonga kirar ekan, qabriston odoblariga rioya qilmaydi. Kirayotib salom berish yoki Qur'on tilovat qilish haqida o'ylab ham ko'rmaydilar. Bu ham qahramonlar orqali jamiyatga qaratgan bir ko'zgu edi. Qabriston orqali insoniylikning yemirilish jarayoni ochib beriladi. Qabristonga kelgan Sattor va Qulmamat jamiyat fikriga ko'ra, bu mudhish ishga qo'l uradi. Demak, jamiyatda dinga zid fikrlaydigan, qo'rquvlar, turli irimlarga ishonuvchan va hissiy qo'rquvlarga tayanib ish ko'ruvchi insonlar ko'p.

Qabrning ochilishi jamiyatda tuban insonlar borligidan darak beradi.

Hikoyada o'n oy o'tsa-da asl holicha turgan ota jasadi tilga olinadi. Ota jasadini ochgan Sattor va Qulmamat murdani ko'rib hayratda qolishadi. Jasad ham hikoyadagi ramzlardan biri. Ota murdasining hamon asl holidaligi norozi ruh va ketmaket o'limlarning sababi sifatida ko'rsatiladi. Oiladagi ketmaket o'limlar oxiri urug' qurishiga olib keladi deb o'ylashadi. Bu turkiy xalqlardagi "ota ruhini xafa qilsang, urug' quriydi" degan qarashga ishora. Chirimagan murda orqali yozuvchi qadimiy turkiy mifologiyaga ishonchni ifodalamoqchi bo'ladi. Vafot etgan inson jasadi chirimasa, demak u oiladagi boshqa odamlarni ham chaqiradi va ularning o'limiga sabab bo'ladi, degan qarash jamiyatdagi insonlar ongida mavjudligidan dalolat beradi. Aslini olganda, chirimagan jasad islomda shafoatli, pok banda alomati hisoblanadi. Islomda shahidlar, payg'ambarlar, Qur'on hofizlari va solih bandalarning jasadlari chirimasligi rivoyat qilinadi.

Turkiy miflarga ko'ra esa ruh tanani 3 kundan 40 kungacha bo'lgan muddatda tark etadi, shu vaqt ichida jasad chirimasa, uning ishi tugamagan, o'limi to'satdan bo'lgan va bu yomon oqibatlarga olib keladi. Hikoyadagi eng kulminatsion voqea ota murdasini chavaqlash va yondirish jarayonidir. Aslida murdani yoqish diniy va ijtimoiy jihatdan taqiqlangan amaldir. Jasadni yo'q qilish – oila fojialaridan qutulish yo'li sifatida ko'riladi. Bu ko'ngilni tozalash uchun qurbon berish e'tiqodi. Ko'plab madaniyatlarda o't – poklovchi va o'zgartiruvchi unsur. Jasadni yoqish – muammoni yondirib yo'q qilish yoki murda keltirib chiqarayotgan fojialar, "la'natni" yo'q qilish istagini bildiradi.

Miflarda qabila yoki urug' ovining baroridan kelishi uchun aybsiz bir odam qurbonlikka beriladi. Bu yerda ham jasadni yo'q qilish orqali maqsadga erishishga harakat qilinadi. Sattor va Qulmamat baxshi va qushnochlarning tavsiyasiga ko'ra, ota jasadini yoqadi va shu yo'l bilan xasta singlisini o'limdan saqlab qolmoqchi bo'ladi. Endi esa hikoyadagi **tush** motiviga diqqat qaratamiz. Tush motivi folklorda tiriklar va ruhlar olami o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajaradi. Bundan tashqari tush – ilohiy xabar, bashorat, ruhiy aloqa, qahramon taqdirini belgilovchi motiv. Tush motivining zamonaviy adabiyotga kiritilishi asarga bir qancha ma'no yuklaydi. Ba'zi hollarda tush qahramonning ruhiy holati xavotiri, qo'rquvlaridan darak beradi. Bundan tashqari, tush orqali yozuvchi badiiy matndagi voqealarga burilish yasaydi:

"Sattor aka, kecha tush ko'ribman. Uyda ikkovimiz o'tiribmiz. Eshikdan otam kirib, meni imladi. Ulim, olib ketgani keldim, dedi. Tushunmadim. Ota, Sattor akamni hammi deya qayta so'radim. Shunda otam, yo'q, sen mening yaxshi ko'rgan ulim eding. Shunga keldim, deb kulib jo'nab ketdi. Kajraftor falakning dilo'rtar kunida uning qalbi bujmaydi. Kun ko'rmay ketgan ukasiga achindi. Boshida davra qurgan o'ylar tinchlik bermadi. Ukasining so'nggi nafasidagi gaplarini esga oldi [4]". Ukaning ko'rgan tushi odatiy tush emas, o'lim bilan yuzma-yuz turish, ajdodning chaqirig'i, ruhiy og'riq va ayrilishning timsoli sifatida ishlatilgan. Tushda otaning "Ulim, olib ketgani keldim" deyishi ukaning ruhiy va jismoniy holda nihoyatda holdan toyganini, hayot bilan bog'lovchi ipning ingichkalashganini bildiradi.

Hikoya orqali yozuvchi jamiyat va undagi insonlarning ongi haqida o'z xulosalarini beradi. Odamlar baxtsizlik sababi sifatida tashqi kuchlarni ayblashadi. Ammo halokatga olib keluvchi asosiy sabab aql bilan ish yuritmaslik, qo'rquvlarga asoslangan fikrlar edi. Sattorning o'zi ruhan tushkunlikda bo'lsa-da, atrofdagilari unga jo'yali maslahat berishmaydi. Kasallikning sababini topishga harakat qilmaydilar. Oyxonni shifokorga olib borish g'oyasi hech kimdan chiqmaydi. Jamiyat baxshilar va qushnochlarning tavsiyasini to'g'ri deb bildi. Natijada odamlarning tasavvuridagi qo'rquvlar oilani parokanda qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Olim Toshboyevning ushbu hikoyasida keng qamrovli g'oya ifodalangan. Bu kabi asarlar turli davrlarda turlicha talqin qilinadi. Asosiysi, o'quvchi uni o'qib, o'zi uchun kerakli xulosani olishida. Bu asar bu maqsadni kitobxonga taqdim qila oladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karim B. Ruxiyat alifbosi – Toshkent: Gafur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
2. Eshonqul J. O'zbek folklorida tush va uning badiiy talqini (monografiya). – Toshkent: Fan, 2011.
3. Toshboyev O. Kiprik soyasi. https://uzsmart.uz/kitoblar/view/14448?utm_source=chatgpt.com.
4. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo'rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020.

Barchinoy YARKINOVA,
"University of economics and pedagogy" NOTM o'zbek va rus tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, professor

TARIXIY ASAR TARJIMASI XOSSALARI

Annotatsiya. Maqolada tarixiy asar tarjimasidagi qulayliklar va murakkabliklar haqida fikr yuritiladi. Muallif va tarjimon uslubi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, muqobil so'z, asliyat tili, tarjimashunoslik, tarjima tili.

Annotation. The article discusses the advantages and complexities of translating a historical work. The author's and translator's style is explored.

Keywords: literary translation, literary word, literary language, translation studies, language of translation.

Аннотация. *В статье проводится анализ преимуществ и своеобразных трудностей близкородственного тюркского межъязыкового перевода. Также приведён анализ авторского приема и параллельно возникающего приёма переводчика.*

Ключевые слова: *художественный перевод, вариативное слово, оригинальный язык, переводоведение, язык перевода.*

O'tgan asrda tarjimaga qo'l urmagan o'zbek ijodkori yo'q. Eng ulug' shoir va yozuvchilarimiz ayni paytda eng mohir mutarjim ham edilar. Aksar o'zbek adiblarining original ijodga qaraganda tarjima qilgan asarlarining ko'lami kattaroq ham. XX asr o'zbek adabiyoti uchun tarjima asri bo'ldi, degan da'voyimizni tasdiqlaydigan dalillar yetarli.

"Tursunboy Adashboyev tarjimalari haqida so'z ketarkan, o'zbek tarjima adabiyotida ko'pdan beri bir an'ana shakllanganini aytish kerak. Ya'ni, masalan, Nosir Fozilov nomini eshitganda qozoq nasrining o'zbek tilidagi qator namunalari, yo bo'lmasa, mumtoz fors-tojik she'riyatining tarjimalari haqida gap ketganda Shoislom Shomuhamedov nomi kishining yodiga keladi. Tursunboy Adashboyev shu ma'noda qirg'iz so'z san'ati namunalarini o'zbek xalqiga tanitishga ijodini bag'ishlagan, adabiy davralarda "qirg'iz adabiyotining O'zbekistondagi vakili" maqomini olgan, hozirga qadar qirg'iz adiblarining o'ttizga yaqin kitoblarini ona tilimizda chop ettirgan adib. Ular orasida Chingiz Aytmatov, To'lagan Qosimbekov, Shabdanboy Abdiramanov singari nosirlarning, To'qtag'ul, Aali To'qamboyev, Temirqul Umetaliyev, Suyunboy Eraliyev singari ko'p shoir va yozuvchilarning romanlari, qissalari, esselari, yigirmaga yaqin lirik to'plamlari bor. Qirg'iz adabiyotidan Tursunboy Adashboyev qilgan tarjimalarning o'zi o'zbek o'quvchisi kitob javonining enlikkina bir poyasini to'ldiradi" [1].

Tarixiy mavzuni qalamga olish zamonaviy mavzuda asar yaratishga qaraganda birmuncha og'ir bo'lganidan bu mavzudagi asarni tarjima qilish ham zamonaviy mavzudagi asarni o'girishdan qiyinroqdir. Chunki bunda tarixiy davrni, milliy koloritni, qahramonlarning nutqini berishda, qo'shimcha ravishda, tarixiy o'tmish ruhini ham beradigan lisoniy-uslubiy yechimlar topish muammosi ko'ndalang bo'ladi. Mutarjim asliyat tili va adib uslubini bilishdan tashqari, asar yozilgan tarixiy davrni ham chuqur o'rganishi kerak bo'ladi. "Shunday asarni boshqa tilga tarjima qilish zamonaviy asar tarjimasiga nisbatan o'ziga xos qiyinchiliklari va murakkabliklari bilan farqlanadi" [2]. Xuddi shu sabab tarixiy asarlarni o'girayotgan mutarjim oldiga tasvirlanayotgan davrni chuqur o'rganish talabi qo'yiladi. Shuning uchun Asqad Muxtor: "Tarjima aslida muallifning davomidir" [3] – degan edi.

"Singan qilich" nafaqat To'lagan Qosimbekov ijodida, balki qirg'iz so'z san'atida ham muhim o'rin tutadi. Roman hajman anchagina katta, unda XIX asrning ikkinchi yarmidagi qirg'iz xalqi hayotining deyarli barcha qirralari mahorat bilan tasvirlangan. Asarda tarixiy haqiqat ham, sevgi-muhabbat ham, qonli mojarolar ham, ota va farzand burchi ham o'z ifodasini topgan. Unda juda katta tarixiy va badiiy qimmatga ega muhim ma'lumotlar mavjud. Xonlik davridagi janubiy qirg'izlarning tarixiy hayotini bilishda "Singan qilich" muhim adabiy-badiiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bunga sabab, birinchidan, hozirgi Qirg'iziston yerlarining Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixi to'liq o'rganilmagani, uning mohiyatiga to'g'ri baho berilmagani bo'lsa, ikkinchidan, bu davrda yaratilgan qo'lyozmalarda qirg'izlar qo'zg'oloni, kurashlari asl manbayidan ajratib olinib epizodik ko'rinishda, Qo'qon xonligiga tegishli bo'lgan joylardagina beriladi. Bu qisqa ma'lumotlar tog'lik qirg'izlarning tarixini mukammal o'rganish, o'sha davr tarixiy haqiqatini to'la oydinlashtirishga imkon bermaydi. Muallif Rossiyaning Turkiston, xususan, Qirg'izistonni istilo etish jarayoni "o'z og'asi – rus xalqi bilan biriksam, degan qadimdan beri yurak tubida yotgan maqsad-orzularining amalga oshishi" tariqasida madh qilinib turgan bir davrda chorizmning bosqinchilik siyosati bilan bog'liq manzaralarni, Skobelevning jazolashdan olgan "zavq"larini badiiy aks ettirdi.

"Singan qilich" romanining birinchi kitobi – "Xon o'rda" 1966, ikkinchisi –"Raqobat" 1971-yili nashr etildi. Asar bosilib chiqqach, muallif sho'ro siyosatiga to'la qoyim kelavermaydigan asar ijodkori sifatida qattiq tanqid ostiga olingani ham bejiz emasdi.

"Singan qilich"ning o'zgachaligi adibning insonga bo'lgan munosabati orqali izohlanadi. Muallif tarixiy shaxslar real hayotda qanday bo'lishi hamda ular badiiy obrazga qanday ko'chishi kerakligi borasidagi o'z konsepsiyasini badiiy tajribada amalga oshirib, jonli, o'rnak bo'larli obrazlar yaratdi. Bugungi dunyoqarash bilan baholaganda, o'tmishga nisbatan munosabatda o'ta metafizik, bir tomonlama, chegaralangan, burnidan narini ko'rolmaydigan, daqqilikka da'vat etuvchi kundalik siyosat hamda pand-nasihat chegaralarini yorib chiqa oldi.

Olti qismdan iborat bu roman 1865-yili Toshkent shahri yaqinida general Chernyayev askarlari bilan Olimqul otaliq sarbozlari o'rtasidagi jang tasviridan boshlanadi. Parallel ravishda, muallif urush lavhalaridan konkret odamlar taqdirini tasvirlashga o'ta boradi, ya'ni faqat qonli to'qnashuvlar emas, balki o'sha zamon kishilari taqdiri, murakkab davrning shaxs qismatiga ko'rsatgan ta'siri, o'ksib o'tgan fojiali umrlar, amalga oshmay qolgan orzular, armonli muhabbatlar ham tasvirlanadi. Shu tariqa voqealar markazida bo'lgan Yusuf, Musulmonqul, Sheralixon, Xudoyorxon, Nasriddin, Is'hoq (Po'latxon) va boshqa tarixiy shaxslar obrazlaridan tortib, Abil biy, Beknazar, Tangriberdi, Oyzoda, Sariboy, Eshim, Modil singari to'qima obrazlar asar voqealarini rivojlantiradi. Romanda, bir tomondan, Chernyayev askarlari bilan olishuv, Yusufning Qo'qonga yurishi, Sheralixonning Yusufga qarshi chiqishi, Musulmonqul istibdodiga xotima berish, Is'hoq qo'zg'oloni kabi tarixiy voqealar tasvirlansa, ikkinchi tomondan, Sariboyning fojiali taqdiri, Oyzoda bilan Eshimning sevgisi, Gulkishi, Modil kabi oddiy odamlarning taqdirlari yonma-yon tasvirlanadi.

Muallif kitobxonni bir voqeadan ikkinchi voqeaga ergashtirib, murakkab, chigal hayot tasviriga andarmon bo'lib qolsa, roman ko'proq tarixiy xronikaga yaqinlashgan bo'lardi. Biroq T.Qosimbekov asar boshidayoq chor askarlariga qarshi kurashish uchun jangga ketgan o'g'li Temirni ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan Tangriberdini, eri shahid bo'lgach, yosh beva qolgan Oyzodaning iztiroblarini badiiy ifodalaydi. Roman voqealari rivojida yuqorida bayon qilingan g'oyaviy-badiiy pozitsiya rivojlantirilib, ijtimoiy tabaqalarning ziddiyatlari oddiy odamlarning hayotiga, turmush tarziga, ko'rgan kuniga qanchalar fojiali ta'sir qilishini dalillaydi.

Tarixdan ma'lumki, Norbo'tabiy, uning ishbilarmon o'g'li Olimxon o'z oldiga qudratli davlat qurishni maqsad qilib, Qo'qon xonligiga asos solgan bo'lsalar, uning o'rniga kelgan boshqa sulola – Sheralixon avlodlari bu ishni davom ettirish, mamlakat hududini kengaytirib, mustahkamlash o'rniga, aksincha, borini yo'qotib, oldirib, xonlikni tugatilish darajasiga yetkazishdi. Bu roman personajlarining nafaqat taqdirida, balki ularning o'y-fikr va so'zlarida ham aks etadi: *"Xandin, anin erke baldarinin azabin el kop tartkanin Abil biy bilbeybi? A osho bile oturup, Dombunun olugun oshondoy katuu bashtiktin, ankooluktun zaldarin jashirip kala turgan okuyaga aylantip, ushunu menen taktin ertenki amanchiligina emgek korsotmokchu ele. "O buzulgandar... ushintip jurup, kayran Narboto biy ozubekke, kirgizga, kipchakka bashbaanek bolsun dep kotorgon uydu orttop jiberishet bu onkoy katinpozdor..." - Abil biy achik ele kirtishi suyboy tirjiyip kaldi"* [4: 411].

Tarjimasi: *Xon va uning farzandlari xalq boshiga qanchalik jabru jafo solganini Abil biy yaxshi bilardi. Yaxshi bilgani uchun ham Do'mbuning o'limini xaspo'shlashga majbur bo'ldi. Ana shu bilan taxtdagilarda boshqacha fikr tug'dirmaslikka harakat qildi. "E, oxirati kuygan bandalar, Norbo'ta biy o'zbek, qirg'iz, qipchoqqa boshpana bo'lsin, deb tiklagan imoratni yondirib yuborishadi bu esipast xotinbozlar", – biy zaharxandalik bilan xiyol jilmaydi* [5].

Bu parcha tarixda salbiy rol o'ynagan Abil biyning tilidan aytilayotgan bo'lsa ham, asarning g'oyaviy kredo nuqtalaridan biri hisoblanadi, chunki u so'z erkinligi cheklangan jamiyatda haqiqatni ifodalashning badiiy vositasidir. Tarjimon aynan shu nuqtani to'g'ri idrok etib, uni bekamu ko'st, ruhiy jihatdan mos tarzda aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

Tursunboy Adashboyev "Singan qilich" romani tarjimasida o'sha davr ruhiga kirib borish, tarixiy koloritni his qilish, va voqealarni o'quvchi ongiga to'liq yetkazish uchun haqiqiy muarrix ham, izlanuvchan olim ham bo'lishi kerak bo'lgan ishni bajarishga muvaffaq bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isomiddinov Z. Dil ko'prigi // Jahon adabiyoti, 1998, №12. – B. 178.
2. Javbўriev M.M. Tarjimada tarixiy davr koloriti / Til va tarjima. Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi, 1991.
3. Muxtor A. Murakkab san'at – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
4. Касымбеков Т. Токтогул. – Frunze, 1971.
5. Qosimbekov T. Singan qilich. / T.Adashboev tarjimasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1980.
6. Касымбеков Т. Эки томдук тандалган чыгармалар. Фрунзе: Мектеп, 1990.

Vaziraxon UTANOVA,
Farg'ona davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

OILAVIY VA DO'STONA MULOQOTDA NUTQIY AKTLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilida oilaviy va do'stona muloqot kontekstida nutqiy aktlarning qo'llanilish xususiyatlari pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahli qilinadi. Nutqiy aktlar nazariyasi asosida oilaviy va do'stona kommunikatsiyada illokutiv kuchning ifodalanish usullari, direktiv va ekspressiv nutqiy aktlarning o'ziga xosligi, shuningdek, madaniy va ijtimoiy omillarning nutq strategiyalariga ta'siri o'rganiladi.

Kalit so'zlar: nutqiy aktlar, oila muloqoti, do'stona muloqot, bilvosita ifoda, buyruq, iltimos, hazil, mulozamat, his-tuyg'ular ifodasi, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar.

Annotation. This article analyzes the features of the use of speech acts in the Uzbek language in the context of family and friendly communication from a pragmalinguistic point of view. The article examines the ways of expressing illokutive power in family and friendly communication based on the theory of speech acts, the specificity of directive and expressive speech acts, and the influence of cultural and social factors on speech strategies.

Keywords: speech acts, family communication, friendly communication, indirect expression, order, request, joke, politeness, expression of feelings, cultural values, social norms.

Аннотация. В данной статье с прагмалингвистической точки зрения анализируются особенности употребления речевых актов в контексте семейного и дружеского общения в узбекском языке. На основе теории речевых актов изучаются способы выражения иллокутивной силы в семейной и дружеской коммуникации, специфичность директивных и экспрессивных речевых актов, а также влияние культурных и социальных факторов на речевые стратегии.

Ключевые слова: речевые акты, семейное общение, дружеское общение, косвенное выражение, приказ, просьба, шутка, вежливость, выражение чувств, культурные ценности, социальные нормы.

Inson hayoti davomida oilasi va do'stlari bilan doimiy muloqotda bo'ladi. Har bir so'zimiz nafaqat axborot tashuvchi vosita bo'lish bilan birga, ijtimoiy, psixologik va hissiy faoliyatni amalga oshiruvchi kuchga ham ega. Masalan, *Ishlar qanday?, Do'stim, bandmisiz?* yoki *Ona, pulim qolmadi...* kabi gaplar orqali biz turli nutqiy harakatlarni amalga oshiramiz: iltimos qilamiz, ogohlantiramiz, maslahat beramiz yoki his-tuyg'ularimizni ifodalaymiz. Lingvistik nazariyaga ko'ra, bular **nutqiy aktlar** deb ataladi va ularni o'rganish nafaqat tilni, balki madaniyat va ijtimoiy kontekstni ham chuqur tushunishga yordam beradi. Oila va do'stlar bilan muloqotda nutqiy aktlar o'ziga xos rang-baranglikka ega bo'lib, rasmiy cheklovlar minimal, hissiy yaqinlik esa maksimal darajada bo'ladi. Har bir gapning shakli, ohangi, jimlik va imo-ishora ham ma'noni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Sh.Safarov buni quyidagicha ta'kidlaydi: "Nutqiy akt – nutq ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy-harakatdir va u ma'lum bir kontekstda ma'no yaratadi" [1: 78].

O'zbek oilasida **buyruq berish san'ati** an'ana va madaniy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq. Bir xil mazmunga ega bo'lgan gap kimga aytilayotganiga qarab butunlay o'zgacha ma'no kasb etadi. Masalan, ona bolasiga *Ovqatingni ye* deb to'g'ridan to'g'ri buyruq beradi. Shu gap ona tarafidan turmush o'rtog'iga aytilsa, shakli va ohangi butunlay o'zgaradi: *Ovqatingizni vaqtida yesangiz bo'lmaydimi, sovib qoladi* – bu hurmat va ehtiyotkorlikni aks ettiradi. Shu nuqtada ko'rinib turibdiki, nutqiy akt faqat so'zdan iborat emas, balki ohang, vaziyat, kimga murojaat qilinayotgani va ijtimoiy kontekst ham ma'noni belgilaydi.

Do'stlar orasida esa bu farqlar yanada noziklashadi. Masalan, *Do'stim, suv bormi?* degan gapning tagida yashirin *Menga suv olib kel* degan iltimos yotadi. Har qanday nutqiy ifoda tarkibida lisoniy, sotsial, mantiqiy, psixologik belgilar mavjud bo'ladi va ular nutqiy aktlar uchun tasnif tamoyili vazifasini bajaradi [4: 181]. Bunday muloqot shakli madaniy jihatdan bilvosita talab qilish, ehtiyotkorlik va hurmatni namoyon etadi. Shu bilan birga, bu amaliyot muloqotning silliqligini va shaxslararo munosabatlarni saqlashni ta'minlaydi.

O'zbek do'stona muloqotida **hazil** nafaqat kulgu, balki ogohlantirish, maslahat va tanbeh berish vositasi sifatida ham keng qo'llaniladi. Masalan, *Voy, yana kech qolding, hali ham uyg'onmadingmi?* gapi ogohlantirishni yumshatadi va munosabatlarni buzmaydi. *Dangasa, ishni boshlasang bo'lmaydimi?* esa so'zma-so'z haqorat sifatida qabul qilinishi mumkin, ammo yaqinlik tufayli rag'batlantirish sifatida ishlaydi. Oila ichida ham hazil orqali maslahat berish keng tarqalgan: *Aqlingni ishlatsang bo'lmaydimi, o'g'lim?* jumlasida ona bolasiga tushuntirish beradi, ammo muloyim va samimiy ohangda. Bunday nutqiy aktlar yuzaki yumshoqligi va muloqot iliqligini ta'minlaydi, oila va do'stlar orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Bu kabi

nutqiy munosabatlar orqali biz muloqot jarayonida mazmundor lisoniy kalimani yaratamiz va uni talaffuz qilish yo'li bilan nutqiy faoliyat bajaramiz, xuddi shu faoliyat ijrosi lokutsiya yoki lokutiv aktdir. Agarda biror bir sabab bilan (tilni bilmaslik, gung bo'lish) mazmundor gap tuzilmasa va u talaffuz etilmasa, lokutiv harakat yuzaga kelmaydi [1: 81].

Nutqiy aktlarda yaqinlik munosabati shundaki, gap to'liq aytilmasa ham tushuniladi. Bunday nutqiy aktlar bilvosita ifodalash va mulozamat deb ataladi. Misol uchun, *Ona, pulim qolmadi...* gapi tugamasdan avval ona *Qancha kerak?* deb so'raydi. Bunda aytilmagan so'zlar ham tushunilgan. *Do'stim, kechqurun bandmisiz?* degan so'rov oddiy so'roq emas, balki uchrashuv taklifidir. *Eshik ochiq* gapi esa oddiy kuzatuv emas, *Eshikni yoping* iltimosini bildiradi. *Qo'ling band emasmi?* savoli aslida *Menga yordam bera olasanmi?* degan ma'noni anglatadi. Bunday muloqot faqat chuqur o'zaro tushunish va ishonch mavjud bo'lganda samarali ishlaydi. Shu bilan birga, bilvosita nutqiy aktlar muloqotda hissiy yaqinlikni oshiradi va so'zlarni soddalashtirish orqali nozik ijtimoiy xatti-harakatlarni uyg'unlashtiradi.

Oila va do'stlar bilan muloqotda his-tuyg'ularni ifodalash shakllari ham farqlanadi. Oilada minnatdorchilik ifodalash uchun oddiy va samimiy jumla ishlatiladi: *Rahmat, ona;* do'stlar orasida iliqlik bilan *Katta rahmat, do'stim* deb aytiladi. Kattalar yoshlarga *Rahmat, bolam* shakli orqali hurmat ifodalaydi, yoshlar kattalarga *Rahmat, Allah rozi bo'lsin* deb javob beradi. Uzr so'rash oila ichida *Kechira qol, ona* ko'rinishida, ya'ni samimiy, do'stlar orasida esa *Kechirasiz, kechikib qoldim* – biroz rasmiyroq ifodalanadi. Tabriklashda esa farq yanada aniq: oila a'zosi muvaffaqiyat qozonganida *Muborak bo'lsin! Chin dildan tabriklaymiz!* deyilsa, do'stlar orasida *Qoyil, do'stim, ajoyib! Shunaqa bo'lishi kerak edi!* degan quvonch aralash tabrik ishlatiladi. Shu tarzda, nutqiy aktlar muloqot sheriklarining munosabat darajasi va kontekstga moslashadi.

Bir gap turli kontekstlarda turlicha ma'no oladi. *Choy bormi?* jumlasi oila ichida ertalab nonushta tayyor yoki tayyor emasligini so'rashni bildirsa, mehmon kelganda choy tayyorlashni eslatadi, do'stlar bilan dam olish paytida esa bir piyola choy ichish taklifi sifatida ishlatiladi. *Mashinang bormi?* so'rog'i aslida *Meni olib ketasanmi?* degan iltimosni bildirishi mumkin. *Issiq emasmi?* savoli esa ogohlantirish sifatida *Bir narsa kiying* ma'nosini beradi. Shu orqali nutqiy aktlarning kontekstga bog'liqligi va o'zgaruvchanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ya'ni so'zlash aktlarida bayon qilingan axborot nazarda tutilmaydi, balki so'zlovchi nutqiga xos talaffuz akti e'tiborga olinadi. So'zlovchi matnni talaffuz qilar ekan, so'zlash akti mohiyatiga ko'ra ma'lum axborot-pragmatik mazmunni tinglovchiga yetkazishni maqsad qilib qo'ymaydi [3: 33].

O'zbek muloqotida yosh va ijtimoiy daraja ham muhim rol o'ynaydi. Katta akalar kichik ukalariga bevosita ko'rsatma bera olsa, kichiklar ehtiyotkorroq bo'ladi: *Aka, iltimos, bu ishni qilsangiz bo'lmaydimi?* Shuningdek, zamonaviy oilalarda ota-onalar bolalarga ko'proq *iltimos* qo'shadi, bolalar esa ota-onalariga nisbatan bevosita gapirishga moyil. Do'stlar orasida yosh farqi muloqot shaklini belgilaydi: tengdoshlar *sen* deydi, yoshi katta do'stga *siz* deb murojaat qiladi, hatto yaqin do'stlik munosabatlari mavjud bo'lsa ham. Shu nuqtayi nazardan nutqiy muloqot aktining maqsadi ikki sathlidir, ya'ni birinchi sathda so'zlovchining maqsadi axborot yetkazish yoki olishdir. Ikkinchi sathda so'zlovchi va tinglovchining talabini, qiziqishini qondirish maqasadi nazarda tutiladi. Bunday harakat va maqsad darak, so'roq, undov mazmunli bo'lishi mumkin [2: 23].

Oila va do'stlar bilan muloqotda nutqiy aktlar nafaqat so'zlar orqali axborot almashishni, balki shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, hissiy yaqinlikni oshirish va madaniy qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir gap kontekstga, vaziyatga, murojaat qilinayotgan shaxsning yoshiga va ijtimoiy mavqeyiga qarab o'ziga xos ma'no kasb etadi. Buyruq, iltimos, ogohlantirish, hazil, bilvosita murojaat kabi nutqiy aktlar o'zbek muloqot madaniyatining muhim jihatlarini aks ettiradi va ularni qo'llashda hurmat, ehtiyotkorlik va yaqinlik kabi madaniy qadriyatlar asosiy rol o'ynaydi. Shu bilan birga, bilvosita ifodalar va mulozamat orqali gap to'liq aytilmagan bo'lsa ham tushuniladi, bu esa o'zaro ishonch va chuqur tushunishga asoslangan muloqotni ta'minlaydi. Hazil, samimiy so'zlashuv va nuanslarga e'tibor berish orqali nutqiy aktlar munosabatlarni silliqlashtiradi va hissiy muhitni iliqlashtiradi.

Shunday qilib, oilaviy va do'stona muloqotda nutqiy aktlarning qo'llanilishi murakkab va rang-barang tizim bo'lib, u tilning faqat kommunikativ funksiyasini emas, balki madaniy, ijtimoiy va hissiy qatlamlarini ham ifodalaydi. Har bir kundalik so'zimiz orqali biz nafaqat axborot uzatamiz, balki o'zaro munosabatlarni mustahkamlaymiz, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazamiz va o'zbek muloqot madaniyatining nozik jihatlarini amalda saqlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent: 2008.
2. Ko'chiboyev A. Matn pragmatikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand, 2015.
3. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2013.
4. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Toshkent, 2020.

Nargiza AYTNIYAZOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktorant

MAQOLLARDA GASTRONOMIK BIRLIKLARNING MADANIY PRESUPPOZITSIYASI VA ULARNING TARJIMA JARAYONIDAGI MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida uchraydigan gastronomik leksikaning madaniy presuppozitsiyasi va ularning leksikografik talqini tahlil qilindi. Tadqiqot davomida "non", "osh", "sut", "guruch" kabi gastronomik birliklarning denotativ va konnotativ ma'nolari aniqlanib, ular orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy hayoti aks ettirilgani ko'rsatildi. Shuningdek, izohli lug'atlar bilan maqollardagi talqinlar qiyoslanib, madaniy presuppozitsiyani leksikografik manbalarda to'liq aks ettirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: gastronomik leksika, madaniy presuppozitsiya, maqol, leksikografiya, xalq qadriyatlari, maqollar, leksik birlik.

Annotation. This article examines the cultural presuppositions of gastronomic vocabulary in Uzbek proverbs and their lexicographic interpretation. The study identifies both denotative and connotative meanings of lexical units such as "non" (bread), "osh" (pilaf), "sut" (milk),

and "guruch" (rice), showing how they reflect national values, traditions, and social life. Furthermore, dictionary definitions were compared with proverbial interpretations, and recommendations were provided for integrating cultural presuppositions into lexicographic resources.
Keywords: gastronomic lexicon, cultural presupposition, proverb, lexicography, folk values, proverbs, lexical unit.
Аннотация. В данной статье анализируется культурная пресуппозиция гастрономической лексики, встречающейся в узбекских народных пословицах, и её лексикографическая интерпретация. В ходе исследования были выявлены денотативные и коннотативные значения таких гастрономических единиц, как «нон», «ош», «сут», «гуруч», и показано, что они отражают ценности, обычаи и социальную жизнь народа. Также было проведено сравнение толкований пословиц с толковыми словарями и даны рекомендации по наиболее полному отражению культурной пресуппозиции в лексикографических источниках.
Ключевые слова: гастрономическая лексика, культурная пресуппозиция, пословица, лексикография, народные ценности, пословицы, лексическая единица.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi eng muhim qatlamlardan biri bu frazeologik birliklar va xalq og'zaki ijodida namoyon bo'ladigan maqollardir. Xususan, gastronomik leksika milliy madaniyat, qadriyatlar va urf-odatlarning bevosita ifodachisi bo'lib xizmat qiladi. Chunki insoniyat tarixida oziq-ovqat mahsulotlari nafaqat biologik ehtiyojni qondirish vositasi, balki ijtimoiy-madaniy muloqotning markaziy unsurlaridan biri sifatida shakllangan. Shu bois, "non", "osh", "sut", "qatiq", "guruch" kabi gastronomik birliklar nafaqat maishiy nutqda, balki xalq maqollarida ham keng qo'llanib, turli madaniy presuppozitsiyalarni yuzaga keltiradi. Presuppozitsiya tushunchasi lingvistik pragmatikaning muhim kategoriyalaridan biri bo'lib, u matn yoki nutqiy birlikda ochiq aytilmagan, biroq anglashilishi lozim bo'lgan ma'no qatlamini bildiradi. Madaniy presuppozitsiya esa til egalarining tarixiy tajribasi, milliy urf-odatlari, diniy e'tiqodlari va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ma'no qatlamini ifodalaydi. Maqollarda uchraydigan gastronomik leksika ana shunday presuppozitsiyalarni mujassamlashtirib, xalq dunyoqarashi va mentalitetini til orqali namoyon qiladi. Masalan, "Non topgan joyda to'y bor" maqolida non – moddiy farovonlik va barakot ramzi sifatida talqin qilinadi, "Osh yegan joyda gap ham bo'ladi" maqolida esa osh – ijtimoiy muloqot, jamiyatda yaqinlik va do'stlik ramzi sifatida ishlatiladi. Bu kabi misollar xalq ongida oziq-ovqat mahsulotlarining faqat denotativ emas, balki konnotativ va madaniy ma'nolarga ham ega ekanligini ko'rsatadi [1: 45].

Leksikografiyada gastronomik birliklarning talqini ko'pincha faqat denotativ ma'no bilan chegaralanadi. Masalan, izohli lug'atlarda "non" – "un va suvdan tayyorlanadigan asosiy oziq-ovqat mahsuloti" tarzida izohlanadi. Biroq bu ta'rif xalq ongida shakllangan "non" tushunchasining keng madaniy qatlamini qamrab olmaydi. Chunki non o'zbek xalqida barakot, muqaddaslik, halollik va hayotiy kuchning timsoli sifatida qaraladi. Shuning uchun leksikografiyada maqollardan foydalanish orqali gastronomik leksikaning yangi, boyitilgan talqinlarini yaratish zarurati mavjud [2: 119].

Bugungi kunda lingvokulturologik tadqiqotlarda gastronomik leksika til va madaniyat o'rtasidagi ko'prik sifatida o'rganilmoqda. Xalq maqollarida bu leksika ijtimoiy qadriyatlar, diniy ramzlar, milliy mentalitet bilan bog'liq holda qo'llanib, o'ziga xos madaniy presuppozitsiyalarni ifodalaydi. Masalan, "Sut ichgan bola sog'lom bo'ladi" maqolida sut – biologik oziq-ovqat emas, balki sog'liq va poklik ramzi, "Guruchdan osh, xalqdan tosh" maqolida esa guruch – to'y, marosim, xalqona udumlarning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi [3: 112]. Shu bois, maqollardagi gastronomik leksikaning madaniy presuppozitsiyasini o'rganish tilshunoslikda yangi yondashuvlarni shakllantirish bilan birga, leksikografiya, tarjimashunoslik va madaniyatshunoslikda ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq maqollarida gastronomik birliklarning qo'llanishi ko'p hollarda denotativ ma'nodan tashqariga chiqib, xalqning tarixiy-madaniy qarashlarini ifodalaydi. "Non" konsepti – hayotiy barakot va muqaddaslik timsoli, "osh" – jamiyatda ijtimoiy muloqot va do'stlik belgisi, "sut" – poklik va sog'liq ramzi, "guruch" esa marosim va an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lib chiqdi [4]. Shu bilan birga, lug'atlardagi izohlar ko'pincha faqat oziq-ovqat mahsulotining denotativ ma'nosini qamrab oladi, bu esa xalq og'zaki ijodida mavjud bo'lgan madaniy presuppozitsiyalarning to'liq aks etmasligiga sabab bo'lmoqda.

Quyidagi jadvalda maqollar asosida aniqlangan gastronomik birliklarning denotativ va konnotativ (madaniy presuppozitsion) ma'nolari hamda lug'atlardagi mavjud talqinlari taqqoslanadi. Shuningdek, jadvalda muammo va uni bartaraf etish bo'yicha tavsiya ham berilgan [5]:

1-jadval

Gastronomik birliklarning talqini, maqollardagi presuppozitsiya va yechim

Gastronomik birlik	Lug'atlardagi talqin (denotativ)	Maqoldan namunasi	Maqollardagi talqin (madaniy presuppozitsiya)	Muammo	Tavsiya (yechim)
Non	un va suvdan tayyorlangan asosiy oziq-ovqat	Non topgan joyda to'y bor	muqaddaslik, barakot, hayot manbai	lug'atda madaniy qatlam aks etmagan	lug'atlarda konnotativ qatlamni ham ko'rsatish
Osh	guruch, go'sht va ziravorlardan tayyorlanadigan taom	Osh yegan joyda gap ham bo'ladi	do'stlik, to'y, jamiyat birligi ramzi	maqoladagi ijtimoiy funksiya yo'q	leksikografiyada ijtimoiy vazifasini ham qayd etish

Sut	doramol yoki qo'y sutidan olinadigan ichimlik	Sut ichgan bola sog'lom bo'ladi	poklik, sog'liq, ona mehrining ramzi	denotativ izoh yetarli emas	ramziy ma'nolarni lug'atda qo'shimcha keltirish
Guruch	donli o'simlik turi	Guruchdan osh, xalqdan tosh	marosim, an'ana va to'y taomlari bilan bog'liq	marosimiy ahamiyat berilmagan	qomusiy izohda marosimiy resuppozitsiyani kiritish

Hozirgi izohli lug'atlar gastronomik leksikani ko'pincha faqatgina denotativ ma'noda talqin etadi. Ya'ni ular so'zning bevosita lug'aviy mazmunini qayd etish bilan cheklanib qoladi. Biroq xalq maqollarida bu birliklar ancha boy va ko'p qirrali konnotativ hamda madaniy ma'noga ega bo'lib namoyon bo'ladi. Shu sababli lug'at foydalanuvchilari, xoh u tilshunos bo'lsin, xoh tarjimon yoki talaba, lug'atdagi oddiy izoh bilan kifoyalanib qolsa, xalq ongida shakllangan ramziy qatlamlarni to'liq anglay olmaydi. Bu esa ilmiy izlanishlarda ham, tarjima jarayonida ham, tilni o'rgatishda ham semantik bo'shliqlarga olib keladi. Maqollarni tahlil qilish natijasida aniq bo'ldiki, xalq tilida non, tuz, osh, choy, qozon kabi gastronomik birliklar nafaqat kundalik hayotiy mahsulotni, balki kengroq ijtimoiy-madaniy tushunchalarni ifodalaydi.

Shuningdek, bu yondashuv tarjima amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq maqollaridagi ramziy qatlamni hisobga olmasdan qilingan tarjimalar ko'pincha yuzaki va ma'nodosh bo'lmaydi. Masalan, "Tuz yegan joyini unutma" maqolini faqat lug'aviy darajada tarjima qilish mumkin, ammo uning sadoqat va minnatdorlik ramzi sifatidagi semantik qatlamini hisobga olmaslik tarjimada muammo tug'diradi. Demak, lug'atlarda ushbu qo'shimcha qatlamlar keltirilsa, tarjimonlar yanada mukammal va ekvivalent tarjima qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Quyida lug'at va maqollardagi ma'nolar o'rtasidagi tafovut hamda muammoning yechimi sifatida taklif qilinayotgan kengaytirilgan talqinlar jadval shaklida keltiriladi:

2-jadval

Gastronomik birliklarning lug'atlardagi va maqollardagi ma'nolari, yechim **takliflari**

Birlik	Lug'atlardagi talqin	Maqollardagi ramziy talqin	Taklif etiladigan kengaytirilgan lug'aviy izoh
Non	un mahsulotidan tayyorlanadigan oziq-ovqat	baraka, farovonlik, mehnat, halollik	1) oziq-ovqat; 2) ramziy ma'noda baraka va tirikchilik
Tuz	oziq-ovqatga lazzat beruvchi oq modda	do'stlik, sadoqat, qadrdonlik, minnatdorlik	1) ta'm beruvchi; modda 2) ramziy ma'noda do'stlik va sadoqat
Choy	qaynatilgan o'simlik damlamasi	mehmondo'stlik, samimiyat	1) ichimlik turi; 2) ramziy ma'noda mehmondo'stlik va samimiyat
Qozon	taom tayyorlash uchun idish	jamiyat birligi, baraka ramzi	1) oshxona buyumi; 2) ramziy ma'noda birlik va to'kin-so'kinlik
Sut	chorvachilik mahsuloti, oq suyuqlik	poklik, mehr, go'daklik timsoli	1) sut mahsuloti; 2) ramziy ma'noda poklik va mehr

Lug'atlarda mavjud bo'lgan izohlar xalq tafakkuridagi ramziy qatlamlarni qamrab olmaydi. Shu bois lug'atlarni boyitishda maqollardan foydalanish samarali yechim hisoblanadi. Bu usul orqali til o'rganuvchilarga ham, tarjimonlarga ham, ilmiy izlanish olib borayotgan tilshunoslarga ham yanada to'liqroq ma'no manzarasi ochib beriladi. Umuman olganda, muhokama jarayoni shuni ko'rsatadiki, gastronomik leksikaning izohlanishida faqat denotativ ma'no bilan cheklanib qolmasdan, maqollarda mavjud konnotativ va madaniy qatlamlarni ham inobatga olish zarur. Bu yondashuv xalq tilining boy semantik imkoniyatlarini kengroq ochib berishga, lug'atlarni mukammallashtirishga va tarjima amaliyotida aniqlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq maqollarida gastronomik leksika faqatgina oziq-ovqat mahsulotlarini nomlash funksiyasini bajarib qolmay, balki keng ijtimoiy-madaniy qatlamlarni ham ifodalaydi. Tadqiqot davomida "non", "osh", "sut", "guruch" kabi birliklar xalq ongida turli ramziy ma'nolar bilan mustahkamlanganini ko'rish mumkin bo'ldi. Masalan, non barakot va muqaddaslik

ramzi sifatida, osh jamiyatdagi birlik va ijtimoiy aloqalar timsoli sifatida, sut poklik va ona mehrining belgisi sifatida, guruch esa marosim va udumlarning ajralmas qismi sifatida ishlatiladi. Bu natijalar xalqning kundalik hayotidagi madaniy presuppozitsiyalar til orqali qanday mustahkamlanishini yaqqol ko'rsatadi. Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqladiki, leksikografik manbalarda bu birliklarning talqini ko'pincha denotativ ma'nolar bilan chegaralanadi. Masalan, izohli lug'atda non faqat "un va suvdan tayyorlangan asosiy oziq-ovqat" sifatida beriladi, biroq xalq ongida shakllangan keng ramziy ma'nolar chetda qoladi. Demak, mavjud lug'atlar madaniy presuppozitsiyani yetarli darajada qamrab olmayapti. Bu holat tarjimashunoslik va lingvokulturologiyada ham muammolar tug'diradi, chunki konnotativ qatlam e'tibordan chetda qolsa, mazmunning to'liq talqini amalga oshmaydi [6]. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqot muammosiga yechim sifatida lug'at tuzishda maqollardan faol foydalanish muhimdir. Chunki maqollar orqali xalqning qadriyatlari, urf-odatlari va mentaliteti bevosita aks etadi. Masalan, "Osh yegan joyda gap ham bo'ladi" maqoli oshning ijtimoiy funksiya va muloqotdagi rolini ko'rsatadi [7: 142]. Agar lug'atlarda bunday ma'no qatlamlari ham qayd etilsa, gastronomik birliklarning talqini yanada mukammal bo'ladi. Bu yondashuv tilshunoslikdagi pragmatik tahlilni chuqurlashtirish bilan birga, tarjimada ham milliy-madaniy ma'no yo'qolishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek xalq maqollarida uchraydigan gastronomik leksika nafaqat biologik ehtiyojni qondirish vositalarini nomlaydi, balki xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlari va mentalitetini ham ifodalaydi. "Non", "osh", "sut", "guruch" kabi birliklarning denotativ ma'nosi lug'atlarda qayd etilgan bo'lsa-da, ularning maqollarda yuzaga keladigan konnotativ va madaniy presuppozitsiya qatlamlari ko'pincha e'tibordan chetda qolmoqda. Bu holat leksikografiya uchun muammo tug'diradi, chunki til birliklarining to'liq ma'nosi aks ettirilmagan bo'ladi. Shu bois maqollardagi gastronomik birliklarni lug'at tuzishda qo'shimcha manba sifatida jalb etish zarur. Bu yondashuv tilshunoslikdagi semantik va pragmatik tahlillarni boyitadi, madaniy qatlamni ochib beradi hamda tarjima jarayonida milliy o'zlikni saqlash imkonini yaratadi. Tadqiqot muammosiga yechim sifatida lug'aviy talqinlarda denotativ ma'nolar bilan bir qatorda, konnotativ va madaniy presuppozitsiyalar ham kiritilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khamidova M.Kh. Expression of life wisdom through food-related proverbs and idioms in English and Uzbek // Philology and Linguistics, 2025, №2. – P. 45–52. https://cyberleninka.ru/article/n/expression-of-life-wisdom-through-food-related-proverbs-and-idioms-in-english-and-uzbek.
2. Abdurahmonova S.M. Uzbek Proverbs and National Character // EPRA International Journal of Research and Development, 2023. Vol. 8, №7. – P. 119–124. https://eprajournals.com/IJSR/article/11969/download.
3. Muhammadieva N. Functional and Semantic Characteristics of Gastronomy-Related Phrases in Uzbek Proverbs // Science-Shine, 2025, №5. – P. 112–121. https://inlibrary.uz/index.php/science-shine/article/view/85725
4. Mustafoyeva L.M. Analysis of Uzbek and Russian Proverbs Containing Names of Food Products // Web-Teaching Journal, 2024. https://web-teaching.com/index.php/w/article/view/55.
5. Uktamova M.K. Linguocultural Analysis of English and Uzbek Proverbs // International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences, 2022. Vol. 16, Issue 11. – P. 1227–1230. https://gejournal.net/index.php/IJRCIESS/article/download/1325/1227/1230.
6. Hojiyeva M. A comparative study of food lexicon in the English and Uzbek languages // ARIMS Journal, 2024. https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/download/50114/50467/59981.
7. Mustafoyeva L. M. Analysis of Uzbek and Russian Proverbs Involving Food Names // Web-Teaching Journal, 2024. https://web-teaching.com/index.php/w/article/view/55.

Gulhayo BO'RIYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti ingliz tili o'qituvchisi

AMERIKALIK BOLALAR YOZUVCHISI DOKTOR SYUZNING "OH, THE PLACES YOU'LL GO" (O, SIZ BORADIGAN MANZIL) ASARINING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Doktor Syuzning "Oh, the Places You'll Go!" asari yosh avlodga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy va motivatsion dastur sifatida tahlil qilinadi. Asardagi metaforik sayohat, hayotiy sinovlar va tanlovlar orqali yoshlarni mustaqillik, dadillik hamda qiyinchiliklarga tayyorlash g'oyalari yoritib beriladi. Tadqiqot natijasida ushbu asar muallifning ijodiy vasiyati sifatida baholanib, universal ruhiy-psixologik qo'llanma ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, bestseller, majoziy obraz, safar, savodxonlik, optimizm.

Annotation. In this article, Dr. Suse's "Oh, the Places You're Going to!" is analyzed as a socio-spiritual and motivational program for the younger generation. The metaphorical journey in the work, life's trials and choices that help prepare young people for independence, courage, and overcoming difficulties are considered. As a result of the research, this work is evaluated as the author's creative testament and its status as a universal psychological guide is substantiated.

Keywords: children's literature, bestseller, allegorical image, journey, literacy, optimism.

Аннотация. В данной статье анализируется произведение Доктора Сьюза «О, места, куда ты пойдёшь!» как социально-духовная и мотивационная программа для молодого поколения. Рассматривается метафорическое путешествие в произведении, жизненные испытания и выборы, которые помогают подготовить молодежь к независимости, смелости и преодолению трудностей. В результате исследования данное произведение оценивается как творческое завещание автора и обосновывается его статус универсального психолого-психологического руководства.

Ключевые слова: детская литература, бестселлер, аллегорический образ, путешествие, грамотность, оптимизм.

Bolalar adabiyoti barcha xalqlarda qadim ildizlarga ega bo'lgan adabiyot tarmog'idir. Chunki u boshqa adabiy tarmoqlar singari umumiy adabiyot tarkibida vujudga kelgan bo'lib, turli xil davrlarda sayqallanib, rivojlanib kelmoqda. Shuningdek "Bolalar adabiyoti" da kichik didaktik ruhda yozilgan axloqiy, pand nasihat beruvchi kichik hikoyalardan tortib [1: 43], hozirgi rivojlanib borayotgan zamonaviy yo'nalishdagi katta roman va "anime"li hikoyalargacha bo'lgan turli janrlar mavjud. Shunindek asarlarning yozilish maqsadi ham turlicha bo'lib turli jabhalarda yosh kitobxon ongini o'stirishga, savodxaonligini oshirish va ruhan rivojlanishga imkoniyat yaratadi. Hozirda bolalar adabiyotida shunday mavzudagi asarlar borki, biz ularni zamonaviy tilda "motivatsion" ruhdagi asarlar deb ataymiz. Xuddi shu yo'nalishda yozilgan asarlardan biri Amerikalik bolalar yozuvchisi Doktor Syuzning "Oh, the Places You'll Go" (Oh siz boradigan manzil) asaridir.

Doktor Syuzning 1990-yilda nashr etilgan "Oh, the Places You'll Go!" ("O, siz boradigan manzil") asari uning ijodiy merosida alohida o'rin tutadi va yozuvchining keng miqyosda tanilishiga katta turtki bergan asarlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Muallif hayotining so'nggi yillarida yaratilgan ushbu kitob qisqa muddat ichida "bestseller" ga aylangan bo'lib, unda insonning kelajak sari intilishi, hayotdagi to'siqlarni yengib o'tish va o'ziga ishonch kabi universal g'oyalar sodda, lekin chuqur falsafiy mazmunda ifoda etilgan. Asar tili yengil, ritmik va motivatsion ruhda bo'lgani uchun ham u keng auditoriya tomonidan iliq kutib olingan. Bugungi kunda ham AQShda maktab va kollej bitiruvchilari uchun eng ko'p tanlanadigan ramziy sovg'alardan biri sifatida o'z mavqeyini saqlab qolmoqda [2: 48]. Bu holat kitobning nafaqat bolalar adabiyoti namunasi, balki yetuklik yo'lida turgan yoshlar uchun ruhiy-psixologik qo'llanma sifatida ham qadrlanishidan dalolat beradi. Adibning ijodiy uslubiga xos bo'lgan optimizm, erkinlik va hayotiy jasorat ruhining mujassamligi ushbu asarni zamonaviy motivatsion adabiyotning muhim namunalaridan biriga aylantirgan. Quyida ushbu asarda keltirilgan ba'zi misralarni atroflicha muhokama qilisak:

Congratulations!
Today is your day.
You're off to Great Places!
You're off and away!
You have brains in your head.
You have feet in your shoes.
You can steer yourself
any direction you choose.

Muborakbod etamiz,
Bugun sening kuningdir.
Mana safarga chiqding,
Go'zal manzil yo'lingdir.
Aqling butun, tanang sog',
Izmingda erur bari.
Shimol, janub o'ng-u, so'l,
Eltar manziling sari.

Yuqoridagi jumlalardayoq [3: 8] muallif yangi hayot ostonasida turgan bola obraziga ko'tarinki ruhda aynan bugun uning uchun yangi kun boshlanishi, endi u allaqachon o'zi istagan safarga bemalol chiqa olishi mumkinligi haqida ogohlantirish beradi, shu o'rinda o'quvchiga endi o'zini to'la yetuk shaxs deb hisoblashini ham eslatib o'tadi.

Except when you don't.
Because, sometimes, you won't.
I'm sorry to say so
but, sadly, it's true
that Bang-ups
and Hang-ups
can happen to you.
Biroq shuni yodingda tut,
Hayot erur notekis,
Yo'lingda ko'p uchragaydur,
Baland-u past, shubhasiz.

Keyin esa hayot safari mobaynida bola duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchilikla haqida ogohlantiradi. U hayot har doim ham bir tekis ketmasligi ba'zida hayotda kutilmagan voqealar sodir bo'lishi bunga esa har doim tayyor turish kerakligiga ishora qiladi [3: 23]:

...for people just waiting.
Waiting for a train to go
or a bus to come, or a plane to go
or the mail to come, or the rain to go
or the phone to ring, or the snow to snow
or the waiting around for a Yes or No
or waiting for their hair to grow.
Everyone is just waiting.

Bu manzilda odamlar ko'p
Bari kutar nenidur.
Kimdir poyezd, kim avtobus,
Samolyot ham kutilur.
Kim xat kutar, sog'inch bilan,
Kim yomg'irning tinishin,
Qo'ng'iroqning jarangi-yu,
Oppoq qorning erishin.
Kim ilinj-la kutar "Ha"ni
Kim "Yo'q" so'zga muhtojdir.
Sochlarining o'sishi ham,
Kim uchun ehtiyojdir.
Hamma kutadi...

Ba'zida esa inson o'zi izlagan manzilga borish davrida (majoziy ma'noda maqsadga erishish yo'lida) qayerga borishni, nima qilishni bilmay ikkilanish kabi noaniq vaziyatga tushib qoladi. Natijada esa ular go'yoki hech narsa qilmay shunchaki vaziyatni kuzatib, harakatsiz qoladilar. Aynan shu vaziyat yuqorida biroz kinoyaviy usulda tasvirlangan [3: 31].

NO!
That's not for you!
Somehow you'll escape
all that waiting and staying
You'll find the bright places
where Boom Bands are playing.

Yo'q! Bular sen uchun emas,
Kutish-umringga arzimas.
Ruhingni charchatar intiqlik,
Yo'lingda davom et, qolma, bas!

Shu kutish holatida esa harakatsiz jim qolish, muammolarni hal qilib bermasligini, inson o'z muammolarini yechish uchun har doim harakatdan to'xtamasligi kerakligini uqtiradi [3: 33].

Asar so'ngida esa muallif agar inson maqsad sari tinmay harakat qilsa, qachondir baribir unga erishishini, buning uchun esa kuchli iroda bilan o'zi ko'zlagan maqsad sari shaxdam qadam tashlashi lozimligini ta'kidlaydi [3: 49] .

And will you succeed?
Yes! You will, indeed!
(98 and 3/4 percent guaranteed.)
KID, YOU'LL MOVE MOUNTAINS!
So...
be your name Buxbaum or Bixby or Bray
or Mordecai Ali Van Allen O'Shea,
You're off the Great Places!
Today is your day!
Your mountain is waiting.
So...get on your way!
Nihoyat yengasan, ha, haqiqatan,
To'qson sakkiz foiz kafolat bilan.
Azizim, to'xtama, hech harakatdan,
Tog'ni siljitasan matonat bilan.
Isming Beksbimi, Ali, Oshimi,
Farqi yo'q bu sening kuning,
Olg'a! do'stim, tog'lar kutmoqda seni,
Ulug' manzillarga eltadi yo'ling!

Doktor Syuzning "Oh, the Places You'll Go!" asari ko'rinishidan individual kitobxonga murojaat qilgandek bo'lsa-da, mazmuniy jihatdan jamiyatning yosh vakillariga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy dastur sifatida talqin qilinadi. Muallifning garchi o'zi bolalar yozuvchisi hisoblansada, o'zining farzand ko'rmaganligi sabab bu asarni aynan kim uchundir atab yozilmagan deb taxmin qilish mumkin [4: 102]. Asardagi metaforik sayohat va hayotiy sinovlarga oid g'oyalar yoshlarni tanlovlar, qiyinchiliklarga tayyorlaydigan motivatsion-psixologik modelni yaratadi. Tadqiqotchilar ushbu kitobni Syuzning oxirgi ijodiy vasiyati, yosh avlodni mustaqillik, dadillik va imkoniyatlarni qadrlashga undovchi universal chaqiriq sifatida baholaydilar [5: 154].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nikolajeva M. Children's literature comes of age. – London: Routledge, 2016.
2. Neil P. Dr. Seuss: American Icon. – New York: Continuum Publishing, 2004.
3. Geisel T.S Oh, the Places You'll Go. – New York: Random House, 1990.
4. Donald E. Pease Theodor Seuss Geisel. – Oxford: Oxford University Press, 2010.
5. Morgan J., Morgan N. Dr. Seuss & Mr. Geisel: A Biography. – Cambridge: Da Capo Press, 1995.

Sohiba BABANAZAROVA,
Xorazm Ma'mun akademiyasi doktoranti

MAQOLLARNING DUNYO TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQ YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maqollarning dunyo tilshunosligida tadqiq etilishi, ularning tarixiy shakllanishi, paremiologiya fanining rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy lingvistik paradigmadagi o'rni keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari maqollarning nafaqat xalq donishmandligini aks ettiruvchi lingvomadaniy birlik, balki til ongining konseptual tizimini modellashtiruvchi muhim kognitiv vosita ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maqollar, paremiologiya, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyat, konsept, konseptual tizim, tarixiy-qiyosiy tahlil, til ongining modeli.

Annotation. This article comprehensively covers the study of proverbs in world linguistics, their historical formation, stages of development of paremiology science, and their place in the modern linguistic paradigm. The research results show that proverbs are not only linguocultural units reflecting folk wisdom but also an important cognitive tool modeling the conceptual system of linguistic consciousness.

Keywords: proverbs, paremiology, cognitive linguistics, linguistic culture, concept, conceptual system, historical-comparative analysis, model of linguistic consciousness.

Аннотация. В данной статье всесторонне освещается изучение пословиц в мировой лингвистике, историческое формирование, этапы развития науки паремиологии, а также их место в современной лингвистической парадигме. Результаты исследования показывают, что пословицы являются не только лингвокультурными единицами, отражающими народную мудрость, но и важным когнитивным средством, моделирующим концептуальную систему языкового сознания.

Ключевые слова: пословицы, паремиология, когнитивная лингвистика, лингвокультура, концепт, концептуальная система, историко-сопоставительный анализ, модель языкового сознания.

Hozirgi davrdagi tilga oid tadqiqotlarda maqollarni o'rganish filologiyaning alohida tarmog'i – paremiologiya sifatida ajratiladi. Maqollar yozuv paydo bo'lishidan ham oldin og'zaki nutqda mustahkam o'rnashgan, xalq ijodining bir qismiga aylangan, keyinchalik esa jamiyat ongining tarkibiy qismi bo'lgan va nihoyat yozma madaniyat yodgorliklarida qayd etilgan [1: 9].

Maqollar va matallar birinchi bo'lib Aristotel tomonidan tasniflanib, o'rganilgan. U maqollar o'zining qisqaligi tufayli saqlanib qolgan eski falsafaning elementlari ekanligini ta'kidlagan. Qadimgi shoirlar Gomer va Gesiod, shuningdek, Aristofan va Meandr o'z she'rlarida maqollardan foydalanganlar. Eng qadimiy ingliz maqollari jamlangan to'plamlar "The book of Proverbs", "Proverbs of Solomon which the men of Hezekiah king of Judah copied" (milloddan avvalgi 700-yillar), hamda "Wisdom of Amenemope" [2: 749] (millodan avvalgi X–VI asrlar) bo'lib, ularda qadimgi ma'naviy donishmandlikning o'sha davr jamiyatidagi hayot tartibi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy mezonlar orqali shakllangani ko'rinadi. Rus tilshunosligida ko'plab tilshunoslar, jumladan, F.I.Buslayev, A.A.Potebnya, M.A.Rubnikova, A.I.Sobolev, V.P.Belyanin, I.A.Butenko, L.A.Morozova, Z.K.Tarlanov, S.G.Lazutin, L.B.Savenkova, V.L.Arxangelskiy, G.D.Sidorkova, Yu.A.Gvozdarev, N.M.Shanskiy, N.B.Kurbatova, N.V.Prekina,

O.G.Dubrovskaya kabilar ushbu mavzu doirasida izlanishlar olib bordilar. Mazkur tadqiqotlar keyinchalik zamonaviy tilshunoslikda maqollarni kognitiv jihatdan o'rganishga asos bo'lib xizmat qildi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi maqollarni lingvistik, tarixiy va kognitiv jihatdan o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, unda bir nechta o'zaro bog'langan ilmiy metodlar majmui qo'llanildi. Tadqiqotda deskriptiv metod yordamida maqollarning tarixiy shakllanishi, ingliz, rus, xitoy, tatar, nemis va boshqa tillardagi paremiologik an'analar, ularning tematik, funksional va struktur xususiyatlari tasvirlab berildi. Bu usul turli tillar va davrlar bo'yicha ilk paremiologik manbalarni tizimli o'rganish imkonini berdi. Tarixiy-qiyosiy metod orqali maqollarning genezisi, manbalari va taraqqiyot bosqichlari o'rganildi. Ingliz, rus, arab, skandinaviya, lotin, fransuz va boshqa tillar paremiologiyasi qiyoslab tahlil qilindi. Turli tillardagi maqollar o'rtasidagi o'xshashliklar, umumiy qadriyatlar, madaniy va semantik farqlar tarixiy jarayonlar bilan bog'lab tahlil qilindi.

Ingliz paremiologiyasining rivojlanishi X–XI asrlarga borib taqaladi. Ayni shu davrda ingliz maqollari va matallarining eng qadimgi yozma to'plamlaridan biri – "The Proverbs of Alfred" [3: 572] ("Alfred maqollari") yaratilgan bo'lib, unda diniy va axloqiy ko'rsatmalar jamlangan. XVI–XVII asrlar esa "Yevropa tafakkurining maqollar bilan bog'liq oltin davri" [4: 10] hisoblanib, ular adabiy janr sifatida e'tirof etilib, didaktik mazmuni xalqni boshqarish vositasi sifatida qadrlanadi. Maqollarning keng qo'llanilishi va turli maqsadlarda ishlatilishi ilmiy o'rganishni talab qilardi. Maqollarni tartibli ilmiy o'rganish uchun ikki asosiy vazifa shakllandi:

1. Ingliz tilida ma'lum bo'lgan barcha maqollarni ro'yxatga olish – o'sha davrda 12 000 ga yaqin maqollar qayd etilgan bo'lsa-da, asl mavjud son bundan ancha ko'p edi;

2. Maqollarning kelib chiqishi va manbasini aniqlash – o'sha zamondagi ko'plab maqollar qadimgi mifologiya, tarix va adabiyot bilan bog'langan edi va ular bir vaqtning o'zida bir nechta tillarda mavjud bo'lgan: lotin, fransuz, italyan, rus, ingliz, nemis, ispan, skandinaviya tillarida va boshqalar [4: 11].

Yevropada barqaror birikmalarni ilmiy asosda o'rganish XX asrdan yanada rivojlandi. Olimlar bibliografik to'plamlarni tuzish, yangi material yig'ish, ularni eskilari bilan taqqoslash (mazmun, shakl va tuzilish jihatidan), semantik tahlil qilish bilan shug'ullandilar. Maqollarning tarixiy taraqqiyoti, til tizimidagi o'zgarishi, til va mentalitet o'rtasidagi bog'liqligini o'rganish borasida A.Taylor, M.Volfgang, G.Milner, A.Krappe kabi olimlar katta hissa qo'shgan. Ingliz maqol va matallarini o'rganish bo'yicha birinchi fundamental asar 1931-yilda A.Taylor (The Proverb) tomonidan nashr qilingan [4]. Ushbu asar bugungi kungacha paremiologik tadqiqotlarda standart ish bo'lib qolmoqda va butun dunyo bo'ylab paremiologlar eng ko'p havola qilgan asar hisoblanadi, chunki kitob olimlarning keyingi tadqiqotlari uchun muhim takliflar bergan. O'zi poliglot bo'lgan Taylor kitobini yozish davomida ko'plab xorijiy tillardagi maqollarni keltirdi, ularni ingliz tiliga tarjima qilgan bo'lsa ham, maqollarni asl tillarida keltirishi, taqqoslashi paremiologiya va folklorning regional, milliy va xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Shundan so'ng bu boradagi tadqiqotlar ancha kengaydi. Taylor kitobda paremiologiyani batafsil sharhlaydi, maqollarning tuzilishi, turlari, variantlari hamda maqol, matal va xalq rivoyatlari o'rtasidagi munosabat haqida bahs yuritadi. Shuningdek, maqollarning mazmuni ko'rib chiqilib, ularda urf-odat va xurofotlar, tarixiy-madaniy masalalar, huquqiy tushunchalar, etnik yoki milliy stereotiplarning aks etishi izohlanadi. Maqollarda metafora, personifikatsiya, parallelizm, qofiya kabi stilistik vositalar ko'rib chiqiladi, adabiyotdagi vazifasiga urg'u beriladi hamda ularda milliy, etnik va axloqiy xususiyatlarning aks etishi muhokama qilinadi.

XX asr oxirida ingliz maqollarining to'plamlarini yaratish, ilmiy asosda o'rganish bilan S.Burton, V.Smit, D.Apperson, V.Kollinz va boshqa tadqiqotchilar shug'ullandilar. Rus tilshunosligida ham maqollarni to'plash, tizimlashtirish borasida ko'plab ishlar qilingan bo'lsa-da, hech kim ularni V.I.Dal [6] tasnif qilganchalik mukammal tizimlashtira olmadi. U maqollarni to'plash jarayonini butun umri davomida olib borgan. V.I.Dal tuzgan to'plamning o'ziga xosligi shundan iborat ediki, unda juda katta miqdorda faktik material yig'ilgan bo'lib, materialni keng o'rganish, har tomonlama tasniflash va ular asosida rus xalqining til, tafakkur hamda madaniy an'analarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Maqollarni kognitiv jihatdan o'rgangan tilshunos T.G.Bochina kontrastni maqollarning lingvistik tamoyili sifatida ko'rib chiqadi. Kontrast va tafakkur, kontrast va ong, kontrast va nutq jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligini tizimli ravishda tahlil qilib, maqollarning konseptual tabiati bilan bevosita bog'laydi [7: 449]. E.V.Markelova konsept va uning verbalizatsiya shakllarini maqollar misolida tushuntirib beradi, maqollarda "mehnat" konseptining verbalizatsiya qilinishi, ayrim konseptlarning kognitiv-semantik tuzilishi haqida yozadi [4: 237].

Maqollarning lingvostilistika, lingvoaksiologiya, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi esa A.V.Ammerning ishlarida uchraydi [4]. U aforizm va maqollarning janrga xos, funksional hamda lingvistik xususiyatlarini yoritib beradi, maqollarda axloqiy-etik qadriyatlar tizimini o'rganadi, ulardagi axloqiy-etik konseptning milliy-madaniy xususiyatlari va uning obyektivlashuvi haqida mulohazalar qiladi. Tadqiqot birinchi marta semantik va stilistik tahlil, shuningdek, lingvokognitiv, lingvokulturologik va lingvopsixologik tahlil elementlari uyg'unligida amalga oshirilgan.

Lingvistika tarixida birinchi bor "me'yor" konsepti rus tili dunyo manzarasining fragmenti sifatida monografik tarzda tahlil qilingan ish sifatida O.V.Akinjelova ning tadqiqotini olishimiz mumkin [9]. Unda "me'yor" konseptining yadroviy (markaziy) va periferik xususiyatlari aniqlangan, "me'yor" konseptining til orqali namoyon bo'lishi o'rganilgan, rus maqollaridagi "me'yor"ning paremiologik talqinlari, axloqiy-etik qadriyatlarni ifodalovchi mazmunlari ajratib ko'rsatilgan. Ushbu ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konseptlarning tuzilishi, ularning yadroviy va periferik qatlamlari, shuningdek, semantik maydonlarda namoyon bo'lish mexanizmlari aynan maqollar asosida aniqroq va tizimli shaklda yoritib beriladi. Barqaror birikmalarni antroposentrik paradigma doirasida tahlil qilish esa konseptlarning nafaqat mazmuniy, balki madaniy-psixologik va aksiologik xususiyatlarini ham kompleks ravishda o'rganish imkonini beradi.

Turli tillar asosidagi qiyosiy tadqiqotlar konseptlarning universal semantik xususiyatlari mavjudligini ko'rsatish bilan birga xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va qadriyatlar tizimiga bog'liq bo'lgan milliy-madaniy farqlarni ham ochib beradi. Natijada maqollar nafaqat xalq donishmandligini o'zida jamlagan lingvomadaniy hodisa, balki til ongining modellashtirilishi, konseptual tizimning faol segmenti sifatida ham baholanishi zarurligi ko'rinadi.

Bu kabi tadqiqotlar tilshunoslikda konseptual tahlilning nazariy asoslarini boyitib, konseptlarning paremiologik darajada verbalizatsiya qilinishini o'rganishning yangi metodologik tamoyillarini shakllantiradi. Eng muhimi, tilning

kognitiv tabiati, qadriyatlarni uzatish funksiyasi va madaniyat bilan o'zaro uyg'unligi ilmiy jihatdan yanada chuqurroq asoslanadi. Shu tariqa, konseptlar va maqollar o'zaro bog'liq holdagi murakkab tizim sifatida ko'rilib, tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Греченко Л.В. Русские и английские пословицы побудительной семантики: дисс. ... канд.филол.наук. Ростов-на-Дону, 2006.
2. The New Encyclopedia of Britannica. – London: Encyclopedia Britannica, Inc., 1994. Vol. 9. C. 749.
3. Merriam Webster's Encyclopedia of Literature/ W.G.Smith. – Oxford: Oxford University Press, 1970. – 572 p.
4. https://openlibrary.org/books/OL22854218M/The_proverb.
5. Даль В.И. Пословицы русского народа. В 3-х т. М.: Русская книга, 1993.
6. Бочина Т.Г. Контраст как лингвокогнитивный принцип русской пословицы: дисс. ...канд.филол.наук. Казань, 2003.
7. Маркелова Е.В. Когнитивно-семантическая структура имен деятельности (на материале русских пословиц о труде и лени): дисс. ...канд.филол.наук. Новосибирск, 2004.
8. Аммер А.В. Вербализация фрагмента концептосферы «морально-этические ценности» в афоризмах и пословицах (на материале английского и русского языков): дисс. ... канд.филол.наук. Воронеж, 2005.
9. Акинжелова О.В. Концепт «мера» как фрагмент русской языковой картина мира (на материале пословиц, поговорок и фразеологизмов): дисс. ... канд.филол.наук. Липецк, 2008.

Madina TO'XTAMURODOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

TABU TARJIMASIDA AMAL QILINADIGAN ASOSIY TARJIMA NORMALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola tarjima jarayonida madaniy tafovutlar va tabu so'zlarni qayta yaratishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarga bag'ishlangan. Tadqiqotda G.Vermirning Skopos nazariyasi va K.Nordning funksional yondashuvi qiyosiy tahlil qilingan. Skopos nazariyasining asosiy e'tiborni tarjima maqsadi va qabul qiluvchi ehtiyojiga qaratishi, Nord nazariyasining esa asliyat matni va tarjima maqsadi o'rtasidagi muvozanatni (sadoqatni) saqlashga intilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarjima, tabu, madaniy tafovut, Skopos nazariyasi, Nord nazariyasi, adekvatlik, asliyat matni, tarjima strategiyasi.

Annotation. This article is dedicated to translation problems, particularly the difficulties of conveying taboo vocabulary and cultural differences. The work comparatively analyzes G. Vermeer's Scopos theory and K. Nord's functional approach. It is noted that while Skopos's theory focuses primarily on the translation goals and recipient needs, Nord's approach emphasizes the importance of maintaining balance (loyalty) between the source text and the translation goal.

Keywords: translation, taboo, cultural differences, Skopos theory, Nord's theory, adequacy, source text, translation strategy.

Аннотация. Данная статья посвящена проблемам перевода, в частности трудностям передачи табуированной лексики и культурных различий. В работе проводится сравнительный анализ теории Скопос Г.Вермеера и функционального подхода К.Норд. Отмечается, что если теория Скопос фокусируется преимущественно на цели перевода и потребностях реципиента, то подход Норд подчеркивает важность сохранения баланса (лояльности) между исходным текстом и целью перевода.

Ключевые слова: перевод, табу, культурные различия, теория Скопос, теория Норд, адекватность, исходный текст, переводческая стратегия.

Asliyat va tarjima tili madaniyatlari o'rtasidagi tafovutlar tarjimon oldiga jiddiy to'siqlarni qo'yadi. Ayniqsa, matn tarkibida tabu (taqiqlangan) so'z va tushunchalarning uchrashi ushbu jarayonini yanada murakkablashtiradi. Bunday lingvokulturologik muammolarni bartaraf etish uchun tarjimon turli strategiya va yondashuvlarga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Asliyatdagi tabu birliklarni tarjimada qayta yaratish masalasiga oydinlik kiritishda, avvalo, tarjimashunoslikdagi mavjud me'yorlar va nazariy qarashlarga tayanish lozim. Ushbu tadqiqotda tahlil qilingan olimlarning ilmiy qarashlari muammoga yechim topishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy yondashuvda adekvatlik matnning ichki (intratekstual) mezoni sifatida baholanib, jarayonni asosan kitobxon (qabul qiluvchi) bilan bog'laydi. Biroq Gans Vermir tarjimaga boshqacha rakursda qaraydi. U tarjimani shunchaki vosita emas, balki aniq ko'zlangan natijaga – skoposga erishish jarayoni deb hisoblaydi. Bu esa tarjimani maqsad emas, balki vosita deb biluvchi an'anaviy qarashlarga ziddir. Katarina Rays va Gans Vermir 1970-yillarda ishlab chiqqan Skopos nazariyasining inqilobiy jihati shundaki, unda "daxlsiz original" tushunchasi ikkinchi planga o'tib, tarjima tili so'zlashuvchilarining ehtiyojlari va kutuvlari bosh mezon sifatida belgilanadi [2: 9].

Skopos nazariyasining eng munozarali va tanqidga uchragan jihati – unda asliyat matniga "sadoqat" (fidelity) masalasining susayishi va bor e'tiborning pragmatik maqsadga qaratilishidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, tarjima matni (translatum) asliyatdagi axborotga nisbatan bildirilgan yangi, mustaqil "axborot manbayi" sifatida talqin qilinadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, tarjima sifati uning ichki mantiqiy izchilligi va qabul qiluvchi madaniyat talablariga qanchalik mos kelishi bilan o'lchanadi. Bunda asliyat bilan mutanosiblik masalasi ikkinchi darajali bo'lib, agar u saqlanib qolsa, bu shunchaki tasodif o'laroq qabul qilinishi mumkin. Asosiysi – skopos (maqsad) ustuvorligidir. Tabiiyki, Skopos nazariyasini P.Nyumark, E.Pim va M.Beyker kabi qator nufuzli olimlar keskin tanqid qilgan. E'tirozlarning asosiy mazmuni nazariyaning tarjimaga bergan ta'rifi, asliyat va tarjima o'rtasidagi aloqaning uzilishi hamda tarjima maqsadining haddan tashqari tijoriy yoki pragmatik tus olishi bilan bog'liq.

Shu o'rinda K.Nordning funksional yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Olima tarjimonni passiv ijrochi emas, balki "buyurtma asosida va o'zgalar foydalanishi uchun matn yaratuvchi mas'uliyatli mutaxassis" sifatida ta'riflaydi. Nord nazariyasida tarjimonning mahorati matn ichki va tashqi omillarini tahlil qilish orqali ham asliyatga, ham

tarjima maqsadiga mos keluvchi "oltin o'rtalik"ni topishda namoyon bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Nordning konsepsiyasi Skopos nazariyasi bilan umumiy ildizga ega bo'lsa-da, u muhim farqlarga ega. Agar Skopos nazariyasi M.Snell-Hornbi ta'biri bilan aytganda, asliyatni "taxtdan tushirib "faqat qabul qiluvchi madaniyatga yuzlansa, Nordning "Sadoqat" (Loyalty) tamoyili asliyat muallifi niyatini va matn funksiyalarini ham hurmat qilishni talab etadi. Shu bois Nord yondashuvi tabu kabi madaniy muammolarni hal etishda mutanosib yechim sifatida xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baker M. Routledge Encyclopedia of Translation Studies. – London: New York: Routledge, 1998. – 654 p.
2. Hönig H.G. Positions, Power and Practice: Functionalist Approaches and Translation Quality Assessment // Current Issues in Language and Society, 1997. Vol. 4, № 1. – P. 6–34.
3. Newmark P. About Translation. – Clevedon: Multilingual Matters, 1990. – 190 p.
4. Nord C. Text Analysis in Translation: Theory, Methodology, and Didactic Application of a Model for Translation-Oriented Text Analysis. – Amsterdam: Rodopi, 1991. – 250 p.
5. Pym A. Schleiermacher and the Problem of Blendlinge // Translation and Literature. – 1991. – № 1. – P. 169–185.
6. Pym A. European Translation Studies, Unequal Exchanges, and the Task of the Translator // Transferre necesse est. – Budapest: Scholastica, 1995. – P. 85–109.
7. Pym A. Venuti's Visibility // Target. – 1996. – Vol. 8. – № 2. – P. 165–177.
8. Reiss K., Vermeer H.J. Grundlegung einer allgemeinen Translationstheorie. – Tübingen: Niemeyer, 1984. (Matnda 1970-yillar nazariyasi deb qaralgan manba).
9. Snell-Hornby M. Translation Studies: An Integrated Approach. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 170 p.

Feruza G'AYBULLOYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

OG'ZAKI NUTQNING DIDAKTIK VA PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Annotatsiya. Og'zaki nutq inson aqliy faoliyatining markaziy mexanizmi sifatida fikrlash, o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro ta'sirning asosiy vositasi hisoblanadi. Ushbu maqola Levelt modeli va Vigotskiy yondashuvini birlashtirgan holda o'zbek tilida og'zaki nutqni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: konseptualizator, lemma, fonologik kodlash, "yaqin rivojlanish zonasi", "faollik nazariyasi", kommunikativ kompetensiya, ona tili ta'limi, psixolingvistika, didaktika.

Annotation. Oral speech, as the central mechanism of human mental activity, is the primary means of thinking, assimilation, and social interaction. This article is dedicated to analyzing the theoretical and practical foundations of oral speech formation in the Uzbek language, combining the Levelt model and Vygotsky's approach.

Keywords: conceptualizer, lemma, phonological encoding, "zone of proximal development", "activity theory", communicative competence, native language education, psycholinguistics, didactics.

Аннотация. Устная речь, как центральный механизм умственной деятельности человека, является основным средством мышления, усвоения и социального взаимодействия. Данная статья посвящена анализу теоретических и практических основ формирования устной речи в узбекском языке, объединив модель Левельта и подход Выготского.

Ключевые слова: концептуализатор, лемма, фонологическое кодирование, «зона ближайшего развития», «теория активности», коммуникативная компетенция, обучение родному языку, психолингвистика, дидактика.

Og'zaki nutq tilning tovush shakli bo'lib, ovoz artikulyatsiyasi yodamida kommunikativ vaziyatni amalga oshiradigan, insonning fikri, niyati, emotsiyasi va his-hayajonini ifodalashning birlamchi va tabiiy ko'rinishidir. Shuningdek, gapirish – kishilarning asosiy muloqot vositasi sanalib, yillar o'tib o'zgarib, sayqallanib boradi. Xususan, insoniyat tarixida yozuv paydo bo'lishidan ming yillar avval faqat og'zaki nutq mavjud bo'lgan.

Og'zaki nutq tezkorlik bilan (avtomatik tarzda) amalga oshadi, tushunchalar bilan "uning libosi" bo'lgan so'z birgalikda yashin tezligida tilga kela boshlaydi [1]. Shuning uchun, og'zaki nutqni tahrirlash biroz murakkab. Shu bilan birga, og'zaki nutqda leksik birliklardan faol qo'llash imkoniyati yozma nutqqa qaraganda birmuncha cheklangan. Og'zaki nutq o'ziga xos grammatik tuzilish va qurilish tartibiga ega bo'ladi. Unda gap bo'laklarining tushib qolishi, qisqarishi, almashishi, takrorlar va keraksiz unsurlarning bo'lishi kuzatiladi [2]. Ba'zi hollarda muloqot jarayonida og'zaki nutqdagi grammatik va talaffuz bilan bog'liq xatoliklar sezilmasligi mumkin, biroq u so'zlovchining nutqiy mahoratiga putur yetkazadi. Zero, kishilarning xulq-atvori, madaniyati, odobi uning so'zlayotgan nutqi orqali namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, og'zaki nutq shunchaki og'iz mushaklarining harakati orqali yuzga kelgan tovush yoki so'z emas, balki miyada kechadigan murakkab kognitiv (bilish) jarayondir. Bu borada qator xorij olimlari o'z tadqiqot ishlarida yaratgan modellari orqali og'zaki nutqning kognitiv jarayon ekanligini isbotlab berishgan. Xususan, Levent modellari bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Gollandiyalik psixolingvist, kognitiv psixolog Willem J.M.Levelt dunyo bo'yicha "odam qanday gapiradi?" degan savolga eng to'g'ri va batafsil javob bera olgan olim sifatida tilga olinadi. Uning 1989-yilga yilda nashr etilgan "Speaking: from Intention Articulation" [3] kitobi nutq ishlab chiqarish bo'yicha psixolingvistikada darslik sifatida foydalaniladi. Levent modelining mohiyati quyidagi chizmada aks ettirilgan:



***1.1-rasm**. Leventning nutq ishlab chiqarish modeli.*

Tadqiqotchi olim nutq ishlab chiqarishni ketma-ket yoki parallel jarayon sifatida bosqichlarga ajratadi:

1. Konseptualizator (bu jarayonning eng yuqori darajasi): Biror mavzu doirasida

2. fikr bildirmoqchi bo'lgan kishi dastlab nima demoqchi ekanligini, ya'ni kommunikativ niyatini aniqlab oladi. Shuningdek, bu bosqichda aytilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar saralanadi, qaysi fikrni uzatish kerak yoki tushirib qoldirish kerakligi miyada ajratib olinadi.

3. Xabarni shakllantirish: Bu bosqichda konsept semantik-sintaktik tuzilma

4. shakliga keltiriladi, biroq hali so'z tanlanmaydi, faqat ma'no va asosiy sintaktik ramka hosil qilinadi.

5. So'z tanlash (Lemma darajasida ishlaydi): Bunda zaruriy leksik konseptlar,

6. ya'ni so'z tanlanadi, biroq hali so'zning fonologik shakli faollashtirilmaydi.

7. Morfologik kodlash: Tanlangan lemmalarga mos keluvchi morfologik

8. qo'shimchalar qo'shiladi: kelishik, shaxs-son, zamon va h.k.

9. Masalan: kel lemmasiga kel+di+m, kitob lemmasiga kitob+im tarzida shakllanadi.

10. Fonologik kodlash: Ushbu bosqichda so'zlarning fonologik shakli faollashadi.

11. Binobarin, bog'in, urg'u joylashuvi, fonemalar ketma-ketligi aniqlanadi. Bundan tashqari, intonatsiya, pauza va ritmlar ham shu bosqichda rejalashtiriladi.

12. Artikulyatsiya: Nihoyat, fonetik plan og'iz mushaklarini harakatlantiradi. Til,

lab, tish hamda nafas olish apparatlari sinxron tarzda ishlaydi, natijada og'zaki nutq hosil bo'ladi.

Levent modeli shu holatda bosqichlarga ajratilgan bo'lib, bunda har bir qism ketma-ket tarzda mustaqil ishlaydi. Ushbu model hozirgi kunda ham psixolingvistika va neyrolingvistikaning nazariy va amaliy qoliplaridan biri hisoblanib, ko'plab tajribalar asosida o'z tasdig'ini topgan. Bir so'z bilan aytganda, Levent modeli nutq ishlab chiqarishni fikr – ma'no – sintaksis – so'z tanlash – morfologiya – fonologiya –artikulyatsiya tartibidagi bosqichma-bosqich zanjir sifatida tasvirlaydi. Yuqorida keltirilgan nazariy faktlar og'zaki nutqning kognitiv asosini tashkil qiladi.

Og'zaki nutqning didaktik asosi xususida gap ketganda, L.S.Vigotskiyning "faollik nazariyasi" va "yaqin rivojlanish zonasi" [4], A.N.Leontovning "faoliyat tuzilmasi"(maqsad – harakat – amal) [5], P.Ya. Galperinning "bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi"(tashqi nutqni ichki nutqqa aylantirish) [6], Canale M , Swain M.ning "kommunikativ kompetensiya modeli" [7] haqida fikr bildiriladi. Ular hozirgi kunga qadar jahon ta'lim tizimida yetakchi rol o'ynaydi.

L.S.Vigotskiyning "faollik nazariyasi"ga ko'ra, insonning og'zaki nutqi ma'lum faoliyat jarayonida shakllanadi, o'quvchida har qanday yangi nutqiy qobiliyat (bahslashish, hikoya qilib berish, savol-javob) o'quv mashg'ulotlari davomida rivojlantirib boriladi. Bu ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini yuzaga chiqarish uchun o'quvchi nofaol tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi lozimligini anglatadi. Shuningdek, L.S.Vigotskiyning navbatdagi rivojlantirish nazariyalaridan biri "yaqin rivojlanish zonasi" bo'lib, u individning aktual va potensial rivojlanish darajasi orasidagi masofani ifodalaydi. Xususan, bunda ta'lim oluvchi o'zi mustaqil bajara olmaydigan vazifa beriladi. U berilgan topshiriqni hamkorlikda, ya'ni tengdoshlari, ota-onasi yoki ustozi ishtirokida amalga oshiradi. Bu nazariyaning Afzal tomonlari bor. **Birinchidan**, ushbu nazariya o'rganishni

faqat yakka tartibdagi yoki biologik jarayon sifatida emas, balki sotsial-interaktiv jarayon deb biladi. **Ikkinchidan,** bu ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi, ya'ni har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyati va imkoniyati har xil darajada bo'lgani uchun o'qituvchi tomonidan unga mos qiyinlik darajasidagi vazifa va kerakli yordamni taqdim eta oladi. **Uchinchidan,** madaniy va ijtimoiy farqlarni "kamchilik" emas, balki turli xil sotsial konteks sifatida qabul qiladi. **To'rtinchidan**, u nafaqat bolalar, hatto kattalar ta'limi uchun ham samarali nazariya hisoblanadi. Shu sababli u bugungi kunda jahon pedagogikasida keng qo'llanadigan va eng yuqori natija ko'rsatadigan ta'lim nazariyasidir.

Ta'kidlash joizki, og'zaki nutq ta'lim oluvchining aqliy rivojlanishida va yangi bilimlarni o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zaki nutqning didaktik asosi deganda, Vigotskiy, Leontov hamda Galperin nazariyalaridan kelib chiqqan holda quyidagicha ta'rif berish mumkin, og'zaki nutq tashqi faoliyatdan ichki faoliyatga ko'chuvchi yagona aqliy mexanizmdir. O'quvchi biror tushuncha yoki harakatni o'z so'zi bilan to'liq va aniq og'zaki izohlay olmaguncha, u hali bu tushunchani haqiqatda o'zlashtirmagan sanaladi. Binobarin, Vigotskiy maktablarida "Bola gapira olmagan narsani hali bilmaydi" [8] degan ibora bejizga aytilmagan. Agarda ushbu ko'nikmaga yetarlicha e'tibor qaratilmasa, ta'lim sifatini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibragimova L. Og'zaki nutq va uning xususiyatlari // Multididsiplinary scientific journal, 2023.
2. Rasulov R. Husanov N. Mo'ydinov Q. Nutq mahorati. – Toshkent, 2006.
3. Levelt W.J.M. Speaking: from Intention to Articulation. – MIT Press, 1989.
4. Выготский Л.С. Мышление и речь. Москва, 1934.
5. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва, 1975.
6. Галперин П.Я. Психология мышления. – Москва: 1969.
7. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches... // Applied Linguistics, 1980.
8. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: 1934.
9. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches... // Applied Linguistics, 1980
10. Ibragimova L. Og'zaki nutq va uning xususiyatlari. // Multididsiplinary scientific journal, 2023. 286-bet
11. Rasulov R. Husanov N. Mo'ydinov Q. Nutq mahorati. O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2006. 57-bet.
12. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: 1934.
13. Галперин П.Я. Психология мышления. – Москва: 1969.
14. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: 1975.

Nilufar TOSHEVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

"BILGA XOQON" TARIXIY ROMANIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR METAFORIZATSIYASI

Annotatsiya. Maqolada turkiy tarixiy tafakkur va badiiy adabiyotning muhim namunalari qatoridan o'rin olgan "Bilga Xoqon" tarixiy romanida mifologik obrazlarning badiiy-funksional mohiyati hamda ularning metaforizatsiya jarayoni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Roman poetikasida qadimiy turkiy miflar, totemik qarashlar, ajdodlar ruhi, Tangri kultiga oid obrazlarning badiiy talqini, ushbu obrazlarning ramz va metaforaga aylanish mexanizmlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: "Bilga Xoqon", tarixiy roman, mifologiya, metafora, mifologema, bo'ri totemi, Tangri, sakral makon, badiiy tafakkur, poetika.

Annotation. he article analyzes the artistic and functional essence of mythological images on a scientific basis and the process of their metaphorization in the historical novel "Bilga Kagan", which occupies an important place in the Turkic historical thought and literature. The re-artistic interpretation of ancient Turkic myths, totemic myths is being studied. representations, ancestors' cults and images associated with the cult of Tengri, as well as the mechanisms for transforming these images into symbols and metaphors in the poetics of the novel.

Keywords: "Bilga Khagan", historical novel, mythology, metaphor, mythologeme, wolf totem, Tengri, sacred space, artistic thinking, poetics.

Аннотация. В статье на научной основе анализируются художественно-функциональная сущность мифологических образов и процесс их метафоризации в историческом романе «Билга Каган», который занимает важное место в тюркском историческом мышлении и художественной литературе. Изучается повторная художественная интерпретация древнетюркских мифов, тотемических представлений, культа предков и образов, связанных с культом Тенгри, а также механизмы превращения этих образов в символы и метафоры в поэтике романа.

Ключевые слова: «Билга Каган», исторический роман, мифология, метафора, мифологема, тотем волка, Тенгри, сакральное пространство, художественное мышление, поэтика.

Turkiy xalqlarning etnogenetik xotirasi va tarixiy identiteti shakllanishi jarayonida mifologik tasavvurlar alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi turkiy e'tiqodlar – Tangri kultiga ishonch, ajdodlar ruhi, qut, soya, hayvonlar va tabiat hodisalariga sig'inish bilan bog'liq mifologemalar – nafaqat diniy-amaliy hayotning, balki badiiy tafakkurning ham muhim asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Shu bois turkiy tarixiy romanlarda mifologik qatlam doimo faol badiiy-falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

"Bilga Xoqon" romani ana shu jarayonning yorqin misolidir. Asarda tarixiy faktlar bilan bir qatorda mifologik obrazlar, afsonaviy belgilar, sakral mazmunlar chuqur o'zlashtirilgan bo'lib, ular qahramonlar xarakterini ochishda, milliy ruhiyatni ifodalashda, tarixiy voqealarni badiiy umumlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, mifologik obrazlarning metaforizatsiyasi, ya'ni ma'lum mifologemalarning ramziy-badiiy ma'nolarga kengayishi roman poetikasining asosiy xususiyatlaridan biridir. Tadqiqotimiz mifologik obrazlarning aynan metafora sifatidagi funksiyalarini aniqlashga, ularning semantik qamrovini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, asarning ichki badiiy strukturasi ilmiy asosda izohlab beriladi.

Bizga ma'lumki, metafora tilshunoslikda keng tadbiq etilgan tushuncha hisoblanib, u asosan ko'chimga asoslanadi. Tilshunos olima G.K.Qobuljonova dissertatsiyasida "metafora" tushunchasini lingvistik talqin qilib o'tgan [1: 135]. Olima bu tushunchani o'zbek tilida leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida va ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanishini ta'kidlaydi. "Sh.Rahmatullayev metafora ko'chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo" [1: 19]. M.Mirtojiyev ko'chma ma'nolarni atroflicha tadbiq etgan, ammo metafora tushunchasini Arastu *epifora* atamasi bilan o'z asarida keltirganligini tilshunos olimamiz ta'kidlab ketadi. Tadqiqotlardan shuni kuzatish mumkinki, metaforani anglash inson tafakkuriga,uning bilish ko'nikmasiga bog'liq ekan. Ushbu tushuncha bevosita ko'chimning bir ko'rinishi.

Badiiy adabiyotda kelgan metaforalar asar syujeti, kompozitsiyasi bilan omuxtalashib, asar badiiyati uchun ma'lum funksiyalarni bajaradi. "Bilga Xoqon" romanida qo'llangan mifologik obrazlar, mifologemalar qaysidir obrazning xususiyatini ochib berish yoki ko'rsatib berish maqsadida metaforalar bilan birikib metaforizatsiyani tashkil qiladi. Ushbu romanda turkiy mifologiyaning ma'lum bir qatlamlari mavjud bo'lib, ularga Tangri kulti – bunda budunning Osmonga yoki Ko'k Tangriga e'tiqod qilishi uchraydi. "Ko'k Tangri budunning yo'q bo'lishini istamadi. Uni yer yuzida qoldirdi. Yo'qsa, yo ochlikda, yo bosqinda tugab-bitar edi. Oz cherik ko'pni yengani shuni bildirmoqda. Qolaversa, kuchsiz edi, yengmoqqa qaydan kuch topsin?" [2: 46]

Romanda Ko'k Tangri barcha metaforalarning markazi hisoblanadi. Ko'k Tangri obrazining asosiy vazifasi tarixiy voqelikni ilohiylashtirish, qahramonlar taqdirini kosmik tartib bilan bog'lash, davlat boshqaruvi konsepsiyasini asoslash. Adib Ko'k Tangrini abstrakt iloh emas, balki falsafiy-metaforik kuch sifatida talqin qiladi. "Ko'k Tangrisi unga bir og'riq yubordi. Ichaklarini birin-ketin uzayotganday, yuragini siqimlab tortib olayotganday edi. Tikanni ho'l yungga urib, so'ng tortib olayotganday qaqshatqich og'riq qiynardi.Kul Tigin ancha qiynov ko'rdi. Bilga Xoqon kunlar-kechalar suyukli inisi boshidan ketmay o'tirdi" [2: 119]. Qahramonlar taqdiri Ko'k Tangri tarafidan tartiblanishi mifologik obrazning metaforik markazda turishini yana bir bor dalillaydi. "Ko'k Tangri yerni kishi o'g'li uchun tuzagan ekan. Kishi o'g'li Tangrisini unutmabdi.Kun yodida tutibdi, tun yodida tutibdi. "Tangrim, senga topinay", debdi. Unga atab bir molini so'yishni istabdi, biroq bu yalangda so'ysam, tuzuk emas, debdi.Ko'k Tangri yuksakdir,muni yuksakka oborib so'yay. Molini Tangritoqqa olib chiqibdi, qonini oqizib, Ko'k Tangriga atabdi. Qarab tursa, ko'kda chaqmoq chaqibdi. Bir uchi yerga kelib, urilib, so'yilgan molini kuydirib ketibdi" [2: 73].

Xalq Ko'k Tangrini ilohiylashtirmoqda, Tangri budun uchun hamma narsa qo'lidan keladigan iloh. Unga atab qurbonlik qilinsa, u odamlarga yordam beradigan iloh sifatida tasvirlanadi. Demak, Ko'k Tangri xalq uchun hech narsadan qo'rqmaydigan, budun boshiga har kunni soladigan, uning taqdirini yozib bera oladigan falsafiy-metaforik kuchdir. Romanda osmonning o'zgarishini ham siyosiy vaziyat, qahramon ruhiyati, tarixiy burilishlar ramzi sifatida ko'rish mumkin.

Osmon quyuqlashdi, Osmon yuzini ochdi, Osmon jim qoldi kabi metaforik tushunchalar ma'lum bir ramzlarga ega. "Osmon quyuq bo'lishi, qora bulutning chiqishi" davlat uchun xavfning kelishi ramzi, *Osmon yuzini ochdi* – xalqning yorug' kunlari yoki xalqning biron xalq ustidan g'alabasi ramzi, *Osmon jim qoldi* – shubha va ruhiy iztirobning ramzi sifatida olinadi. Ko'k Tangri metaforizmning qo'llanishi tarixiy voqeylikni kitobxonga real, haqqoniy tasvirlashda ham muhim vazifa bajaradi.

Romanda bo'ri totemi ham juda ko'p o'rinlarda kelgan. Bu obraz ham mifologik obraz sifatida ko'riladi, chunki turkiy xalqlarning shakllanishi bevosita bo'ri obrazi bilan bog'lanadi. O'z navbatida, bu obraz ham roman sujeti yoki badiiyati uchun ma'lum bir metaforizatsiya shakliga aylangan. Asarda El Bo'g'u tarafidan Ko'kyol bo'ri haqida afsona keltiriladi. Janju davlatining xoqoni Syaolin degan hududda yasharkan. Bu xoqon xun davlatidan qo'rqarkan. Bir kuni u xunlarning ustiga yurish qilibdi. Xun xalqi bu xoqon qo'shini bilan olishibdi, ammo ular kamchilik bo'lganligi uchun yengilibdi. Bir kunda xun urug'i yo'q qilinibdi. Bu urushda faqatgina bitta ayol tirik qolibdi. Bu ayol xomilador bo'lib, u erini urushga kuzatadida o'zi o'rmon ichkarisiga yashirinadi. Xunlarning turar yerlari yoqib yuboriladi, yilqi,chorvalari haydab yuboriladi. Ayol urush bitgacha o'rmondan chiqqanda hamma yer vayronaga aylangan, yerda faqat o'liklar qoniga bilanib yotardi. U yolg'iz qolgani uchun juda qo'rqadi. Shunda u o'rmon oralab borib kishi zo'rg'a sig'adigan bir inni ko'rib qoladida, shu inga kirib oladi.Bu in bo'ri ini edi. Shunda uni to'lg'oq tutadi.Shu payt inga bir bo'ri kirib keladi, u ham ayol kabi xomilador, uning ham to'lg'og'i tutgan edi.Ko'kyol inida begona hid borligini sezadi, ammo unda ham to'lg'oq bo'lgani uchun shu bilan chalg'iydi. Katta o'rmonda bir ayol va bir bo'rining ko'zi yoridi. Ayol vafot etdi, bola chinqirardi, Ko'kyol Bolani o'zining bolalari qatoriga qo'shib katta qildi. Bola shu tarzda bo'rilar orasida voyaga yetadi, butun boshli xun davlati, xun qabilasidan faqat shu bolagina tirik qolgan edi. U voyaga yetadi va odamlar orasiga qo'shiladi. Uni odamlar Ashina deb chaqirdi. Ashina turkiylarning xoqoni bo'ldi. Bo'ri katta qilgan shu o'g'londan turk xalqi tarqadi. Turk xalqining paydo bo'lishi va yer yuziga tarqalishi ushbu afsonaga tayaniladi.Shunga ko'ra turkey xalqlar bo'ri totemini muqaddas bilishadi. Uni sakral obraz sifatida ko'rishadi. Xalqimizda ham yangi tug'ilgan bolaning beshigiga uni yomon narsalardan asraydi deb bo'rining tishi osib qo'yiladi. Bo'ri ushbu romanda metaforizm shaklida ajdodlar ruhi sifatida talqin qilinadi. Roman kompozitsiyasida mifning funksional vazifasi quyidagilar deyish mumkin: tarixiy faktlarni badiiy talqin bilan uyg'unlashtiradi; qahramonlar xarakterini oydinlashtiradi; voqealarga jonli mazmun beradi; milliy ruhiyatni kuchaytiradi; syujetga sakral dinamika olib kiradi. Bu jarayonlarning har biri metaforizatsiya mexanizmi bilan bevosita bog'langan. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bo'ri etnogenetik mifologema hisoblanadi.

Turkiy xalqlar o'z kelib chiqishini bo'ri bilan bog'lashgani uchun ham "Bilga Xoqon" romanida bo'ri yo'lchi, himoyachi, jangovar ruh uyg'otuvchi timsol sifatida keladi. Roman syujetidan kelib chiqib, bo'ri obrazining quyidagi metaforik ma'nolarini sanashimiz mumkin: bo'ri obrazi asarda xalqning uyg'oq ruhi sifatida keladi; u yana xalq uchun ozodlik va erkning ramzi sifatida ham gavdalanadi; undan tashqari xavfga qarshi ichki qudrat ramzi sifatida ham kelganligini kuzatdik.

Yuqoridagi fikrlardan aniqlashadiki, metaforizatsiya mifologik obrazning shakl va mazmun jihatdan badiiy kengayishi, ramzlashuvi, falsafiy ma'no kasb etishi jarayoni ekan. Bunda mifning boshqa bir ramziy ma'noda timsollashuvi hamda falsafiy-metaforaga aylanishi kuzatiladi. Masalan, Ko'kyol, ya'ni bo'ri obrazi orqali turkey xalqning jasorati, uyg'oq ruhi, milliy birlik metaforasiga aylanib qolgan. Romanda kelgan an'anaviy mifni eslatuvchi obrazlar (xoqon, qush, Ko'k Tangri kabilar), syujetning ma'lum nuqtasida ramzga aylangan obrazlar (bo'ri obrazi turkiy qavmlarning ramziy obraziga aylanishi haqidagi afsona), obrazning falsafiy yoki tarixiy

umumlashmaga xizmat qilishi (turk xalqining paydo bo'lishi) kabi shakllarni metaforizatsiyaning bosqichlari deya olishimiz mumkin.

"Bilga Xoqon" romanida qut, ajdod ruhi, ona yer kabi obrazlarning metaforizatsiyasi ham uchraydi. Bunda qut xoqonga berilgan rizq, baraka ramzi sifatida; xalq oldidagi javobgarligi, mas'uliyati sifatida; davlatning o'lmasligi to'g'rirog'i xalqining abadiyligi timsoli bo'lib kelgan.Asarda qut tushunchasi ko'proq xoqonga bog'langanligi uchun ham bu tushuncha xoqon bilan ramziy timsollar anglatadi. Ajdodlar ruhi romanda tarixiy xotira metaforasi sifatida keladi.Milliy xotira, ajdodlar qoldirgan meros, tarixiy davomoylik timsollarini o'z ichiga oladi. Masalan, asarda Ishbaraning otasi Alp Qora Bo'g'u haqida so'z boradi. Qora Bo'g'u romanda ajdodlar merosi, tarixiy xotira ramzi sifatida ko'rsatilgan. "Qarshingdagi kim ekaniga qara, barcha yov bir emas. Tabg'ach yetib kelmasidanoq suron ko'tardi. Tabg'ach bilan urushsang, ustingga sovut kiymasangda bo'ladi. Uning yoyi ikki tur. Biri og'ir yoy, uzoqqa kuchli otadi, kelishida chiyillab keladi, sovutingni teshadi. Chiyillashdan bilib o'zingni olib qochasan. Kichik yoyi qattiq kelmaydi, po'stindan o'tmaydi. Bular Ishbara o'smirligida eshitgan o'gitlar edi.Dovruqli Qora Bo'g'u ko'p narsani bilardi" [2: 49]. Ishbaraning otasi bu millat,xalqning otasi, uning o'g'liga qilgan nasihatlari butun xalqning alplariga qilgan, qoldirgan o'gitidir.

Romanda sakral makonlar tilga olinadi.Sakral makon yoki sakral obrazning o'zi mifologik obrazning metaforizatsiyasini tashkil qiladi. Sakral makon sifatida qurbonlik qilinadigan yerni olsak bo'ladi. Sakral zamon sifatida ko'klamda o'tkaziladigan bayramni olamiz. Turkiy qavmlarda Navro'z bayrami ko'klamda o'tkazilgan.

"– Hoy budun! Bugun bayram, sevin, aylan, o'yna,kul! – deb jar soldi jarchi.

– Oldin Ko'k Tangrimizga atab mol-qo'y so'yilgaydir! So'ng qiz quvdi, so'ng ko'pkari bo'lgaydir! Ko'klam kelib, o'langlar yam-yashil bo'lgan, o'tlarni terib-terib, unga bulab yupqa pishirishgan edi. Bolachalar og'zi-beti qorakuya bo'lib yupqalarni yeb yurishardi" [2: 83].

Turkiy xalqlar orasida ko'klam oylari muqaddas oylar sifatida ko'rilgan. Shuning uchun ham ular bu kunda tangrilariga qurbonliklar qilishgan.

Xulosa qilib aytganda, "Bilga Xoqon" tarixiy romanida mifologik obrazlarning metaforizatsiyasi asarning asosiy poetik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Qadimiy turkiy mifologiya elementlari syujet dinamikasini belgilaydi, qahramonlar psixologiyasini chuqurlashtiradi, makon va zamonni sakrallashtiradi, tarixiy voqealarni badiiy umumlashtiradi hamda milliy o'zlikni mustahkamlaydi. Mifologik obrazlarning metaforaga aylanishi roman badiiyatining yetakchi qatlamini tashkil etib, tarixiy shaxslar va voqealarni falsafiy-metaforik darajaga ko'taradi. Shu tariqa asar turkiy tarixiy adabiyotning poetik imkoniyatlarini yorqin namoyon etadi va milliy identitetni badiiy shaklda ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qobuljonova G.K. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2000.
2. Sulton I. Bilga Xoqon. – Toshkent: Factor books, 2022.
3. O'rayeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. – Toshkent: Fan Ziyosi, 2024.
4. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1980, №4.
5. Doniyorova Sh. Istiqlol davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi: Filol. fan. d-ri. diss... – Toshkent, 2012.
6. Mualliflar jamoasi. O'zbek folklori ocherklari. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1989.

Dilafruz MAHKAMOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

BILGA XOQON OBRAZINING TURKIY ADABIYOT VA ZAMONAVIY MADANIYATDAGI BADIIY-ESTETIK TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Bilga Xoqon shaxsining turkiy adabiyot, tarixiy tafakkur va zamonaviy badiiy jarayondagi talqini ko'rib chiqiladi. O'rxun-Enasoy bitiktoshlari, qadimiy epigrafik meros, lingvopoetik va qiyosiy yondashuvlar asosida Bilga Xoqon timsolining tarixiy, mafkuraviy va estetik o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy o'zbek va turk adabiyotida, xususan, Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romanida va Yusuf Tunaning she'riyatida bu obrazning yangicha badiiy talqini o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Bilga Xoqon, O'rxun-Enasoy bitiklari, turkiy adabiyot, qiyosiy adabiyot, lingvopoetika, tarixiy roman, Isajon Sulton, Yusuf Tuna, badiiy talqin, epik arxetip.

Annotation. This article examines the interpretation of Bilga Khagan's personality in Turkic literature, historical thinking, and contemporary artistic processes. Based on the Orkhon-Yenisei runic inscriptions, ancient epigraphic heritage, linguopoetic and comparative approaches, the historical, ideological, and aesthetic role of the Bilga Khagan image is analyzed. A new artistic interpretation of this image in contemporary Uzbek and Turkish literature, particularly in Isajon Sultan's novel "Bilge Hakan" and Yusuf Tuna's poetry, is also explored.

Keywords: Bilga Khagan, Orkhon–Yenisei inscriptions, Turkic literature, semiotics, linguopoetics, historical novel, Isajon Sultan, Yusuf Tuna, artistic interpretation, epic archetype.

Аннотация. В данной статье рассматривается интерпретация личности Билга-кагана в тюркской литературе, историческом мышлении и современном художественном процессе. На основе орхоно-енисейских руниче ских надписей, древнего эпиграфического наследия, лингвопоэтического и сравнительного подходов анализируется историческая, идеологическая и эстетическая роль образа Билга-кагана. Также исследуется новая художественная интерпретация этого образа в современной узбекской и турецкой литературе – в частности, в романе Исаджона Султана «Бильге Хакан» и в поэзии Юсуфа Туны.

Ключевые слова: Билга каган, Орхон-Енисейские надписи, тюркская литература, семиотика, лингвопоэтика, исторический роман, Исажон Султан, Юсуф Туна, художественная интерпретация, эпический архетип.

Bilga Xoqon (Mo'g'ilon, 684–734) turkiy siyosiy va madaniy tafakkur tarixida donolik, davlatparvarlik va milliy birlik ramzi sifatida alohida o'rin tutadi. Ikkinchi Turk xoqonligi hukmdori sifatida u o'z davrida siyosiy barqarorlikni tiklab, turkiy qabilalarni yagona davlat g'oyasi atrofida birlashtirgan. Bilga Xoqon nomi bilan bog'liq O'rxun-Enasoy bitiktoshlari

turkiy yozma madaniyatning dastlabki badiiy-estetik manbalari sifatida nafaqat tarixiy, balki adabiy-ideologik ahamiyat kasb etadi. Ushbu yodgorliklar qadimgi turkiy xalqning kollektiv ongini, ideologik arxetiplarini va davlatparvarlik konsepsiyasini ifodalovchi epigrafik manbalardir.

So'nggi yillarda Bilga Xoqon shaxsiga oid tadqiqotlar lingvistik, semiotik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan kengayib bormoqda. Xitoylik olim Chen Hao o'zining "Qadimgi turkiy bitiktoshlarda mualliflik masalasi haqida" nomli tadqiqotida O'rxun matnlarining yaratilish davri, mualliflig'i va intertekstual tuzilmasini aniqlab, bitiktoshlarning muayyan siyosiy kontekstda shakllanganini ilmiy asosda ko'rsatadi. Uning fikricha, Bilga Xoqon bitiktoshining shimoliy qismi milodiy 740-yilda, hukmdorning o'g'li tomonidan yozdirilgan bo'lib, bu holat turkiy siyosiy yozuv an'analarining merosiy uzluksizligini anglatadi [3: 60].

Qozog'istonlik tilshunoslar Molg'ajdarov, Shayahimov va Tansiqbaylar tomonidan olib borilgan tarixiy-qiyosiy tadqiqotlarda O'rxun-Enasoy yodgorliklaridagi yordamchi so'zlar grammatik birlikdan tashqari, matnning poetik strukturasini belgilovchi estetik vosita sifatida talqin etiladi. Bu jihat qadimgi turkiy matnlarning lingvopoetik tizimi rivojlanganini, ularning badiiy semantikasi qatlamli tuzilishga ega ekanini ko'rsatadi. Demak, bitiktoshlar nafaqat tarixiy manba, balki qadimgi turkiy badiiy tafakkurning lingvistik va estetik kodlarini mujassam etgan kompleks tizimdir.

Beg'lan B.Tog'rol "General Outlines of the Changing Turkish History and the Ancient Turkish Type" asarida O'rxun yozuvlarini turkiy tipning shakllanish bosqichi sifatida tahlil etib, undagi hokimiyat diskursi, qahramonlik modeli va milliy identitet konsepsiyasini madaniy-psixologik yondashuvda izohlaydi. Olim nazarida Bilga Xoqon matnlari nafaqat tarixiy eslatma, balki kollektiv xotira va milliy mentalitetning kodlashgan shaklidir. Shuningdek, O'rxun yozuvlaridagi takroriy formulalar, ritmik parallelizm va sintaktik simmetriya poetik nutqning o'ziga xos semiotik tizimini yaratadi. Bu uslubiy hodisalar keyingi asrlardagi turkiy epik an'analarga uzviy ta'sir ko'rsatgan.

O'rxun yodgorliklari, xususan Bilga Xoqon bitiktoshi, o'zbek adabiyotshunosligi uchun ham muhim manbadir. M.Qo'shjonov, Sh.Qosimjonov, M.Ergashev, Q.Yo'ldoshev va A.Abdug'afurovlarning ilmiy izlanishlarida ushbu matnlar turkiy xalq og'zaki va yozma ijodi o'rtasidagi o'tish davrining asosiy adabiy belgisi sifatida talqin etiladi. Bilga Xoqonning mashhur iborasi – "Tangri kabi Tangridan tug'ilgan turk Bilga Qoqon..." – qadimiy turkiy dunyoqarashda suverenlik, ilohiylik va davlatparvarlik g'oyalarining semiotik markazidir. Shu sababli bu matnlar o'zbek adabiy tafakkurining manba tizimida dastlabki milliy ideologemalar shakllangan bosqichni ifodalaydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida Bilga Xoqon obrazining qayta talqini Isajon Sulton ijodi orqali yangicha badiiy-estetik mazmun kasb etdi. Uning "Bilga Xoqon" romani (2019) qadimgi turkiy tarixni poetik tarixiylik va badiiy rekonstruksiya orqali qayta yaratgan muhim asardir. Muallif romanda tarixiy faktlar, arxeologik manbalar va og'zaki rivoyatlar asosida o'ziga xos adabiy konsepsiya yaratadi. Asarda qahramonlik, fidokorlik, birlik va vatanparvarlik motivlari psixologik tahlil va poetik obrazlar orqali ifodalanadi. Isajon Sulton tarixiylik va mifologik oraliqdagi badiiy muvozanatni saqlab, o'quvchini turkiy dunyo mentaliteti va qadimiy estetik qadriyatlar bilan yuzlashtiradi. M.Xolmuratova va M. Ergashevning [5: 85] tahlillarida bu roman poetik struktura, rivoyat elementlari va estetik diskurs uyg'unligi bilan ajralib turishi qayd etiladi.

Bilga Xoqon timsoli o'zbek adabiy tafakkurida ikki yo'nalishda talqin etiladi: birinchisi – tarixiy-badiiy manba sifatida qadimgi yozma yodgorlik darajasida, ikkinchisi – zamonaviy badiiy tafakkurda milliy o'zlik va ma'naviy uyg'onish arxetipi sifatida. Shu ma'noda, Bilga Xoqon obrazi qadimiy yozuvlardan tortib zamonaviy nasrga qadar uzluksiz yashab kelayotgan turkiy madaniy identitetning markaziy semiotik belgisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Bilga Xoqon obrazining turkiy adabiyotdagi aks-sadosi tarixiy, madaniy va estetik jarayonlarning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. O'rxun-Enasoy bitiktoshlari til, fikr va ma'naviyatning uyg'unligini ifodalovchi arxetipik matnlar bo'lsa, Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romani ana shu arxetipni zamonaviy badiiy tafakkurda qayta jonlantirgan. Bilga Xoqon timsoli hozirgi turkologiyada hamon dolzarb bo'lib, u turkiy xalqning tarixiy xotirasi va badiiy ongining ramziga aylangan.

Bilga Xoqon obrazi turkiy badiiy tafakkur tarixida eng muhim obrazlardan biri sifatida shakllangan bo'lib, u nafaqat qadimgi yozma yodgorliklarda, balki zamonaviy adabiyotda ham o'z badiiy hayotini davom ettirmoqda. Qadimiy O'rxun-Enasoy bitiktoshlari tarixiy yodgorlik sifatida Bilga Xoqonni donolik, davlatparvarlik va milliy birlik timsoli sifatida tasvirlasa, zamonaviy turkiy adabiyot bu obrazni falsafiy, ruhiy va madaniy kontekstlarda qayta talqin etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Bilga Xoqon obrazi turkiy xalqlar madaniyatida "doimiy yangilanuvchi timsol" – ya'ni madaniy xotira diskursining dinamik markazi sifatida namoyon bo'ladi.

Asarda markaziy obraz sifatida Bilga Xoqonning nutqi berilgan bo'lib, u orqali turkiy dunyoqarashning kosmogonik, ekzistensial va tarixiy qatlamlari yoritiladi. She'rning birinchi bandida "Ötügen" timsoli markaziy semantik o'q sifatida chiqadi. O'tukan qadimiy turkiy tafakkurda muqaddas makon, davlatning markaziy kuch manbai sifatida qaralgan. Shu bois "Ünüm Ötüken Türk yurdunu aşar" satri qadimiy muqaddas geografiyaning ramziy yangilanishini ifodalaydi. Bu timsol orqali shoir mifopoetik makon konsepsiyasini tiklaydi, ya'ni tarixiy joy (O'tukan) badiiy matnda ramziy ma'noda "turkiylik ruhi"ning yashovchan shakliga aylanadi.

She'rning ikkinchi bandida esa ontologik-falsafiy mazmun kuchayadi. "Koca dünyada zamanı Tanrı yaşar, İnsan oğlu hep ölmek için türemiştir" satrlari qadimgi turkiy kosmogoniya markazida turgan Tangri abadiyligi va insonning foniyligi konsepsiyasini aks ettiradi. Bu g'oya O'rxun bitiktoshlari bilan intertekstual aloqada bo'lib, "Tangri teg Tangride bolmish Türk Bilge Qaghan" kabi iboralardagi ilohiylik va insoniylik dialektikasini eslatadi. Yusuf Tuna shu qadimiy g'oyani zamonaviy ritm va ohangda qayta tiklaydi. Natijada she'r metafizik kontseptualizmga ega bo'lib, turkiy xalqning ruhiy mustahkamligi, vaqt va abadiyat o'rtasidagi estetik ziddiyatni ifodalaydi.

Adabiy jihatdan asarda terminologiyaning ("Ötügen", "Öd tengri", "Acun") ishlatilishi tarixiylik effektini kuchaytiradi, takror va parallelizm esa ritmik-kompozitsion uyg'unlik yaratadi. Bu xususiyatlar she'rni qadimiy turkiy epik matnlarning modern shakldagi davomiga aylantiradi. Shu tarzda Yusuf Tunaning asari epik arxetipning zamonaviy poetik transformatsiyasini ifoda etadi. O'zbek adabiyotida esa Isajon Sultonning "Bilga Xoqon" romani (2019) bu timsolning eng yuksak badiiy ifodasini yaratgan asar sifatida alohida ahamiyatga ega. Muallif O'rxun-Enasoy bitiklaridagi tarixiy va falsafiy qatlamni badiiy rekonstruksiya orqali yangilab, postkolonial o'zlikni anglash diskursida turkiy birlashuv g'oyasini ilgari suradi. Shu bilan birga, romanda epik arxetip zamonaviy psixologik roman poetikasi bilan sintez qilinadi.

Ilmiy-publitsistik tadqiqotlarda (Masalan, Qozog'iston, Turkiya, O'zbekiston olimlari tomonidan) Bilga Xoqon obraziga semiotik, lingvopoetik va madaniyatshunoslik yondashuvlari asosida tahlillar olib borilmoqda. Bu izlanishlar orqali turkiy yozma merosning hozirgi madaniy kontekstda qayta o'qilishi ta'minlanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Bilga Xoqon obrazi qadimiy bitiktoshlardan tortib zamonaviy she'r, roman, grafik hikoya va ilmiy tadqiqotlargacha uzluksiz badiiy hayot kechirayotgan timsoldir. U turkiy madaniy identitetning semiotik yadrosi sifatida, vaqt o'tishi bilan shaklini o'zgartirsa-da, mazmunan barqaror qolmoqda. Bilga Xoqon timsoli zamonaviy turkiy adabiyotda milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy yangilanish g'oyalarini birlashtiruvchi intertekstual markaz sifatida yashab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton I. Bilga Xoqon. – Toshkent: Factor Book, 2022.
2. Madaminova M. Isajon Sulton romanlarida tarixiylik va milliylik uyg'unligi // O'zbek tili va adabiyoti, 2023, №3. – B. 45–56.
3. Ergashev A. Qadimiy turkiy bitiklarning badiiy tafakkur tizimi. – Toshkent: Fan, 2008.
4. Xolmuratova M. Tarixiy-badiiy asarlarda rahbarlik konsepsiyasi: Bilga Xoqon misolida // Sharq yulduzi, 2023, №10. – B. 22–29.
5. Qo'shjonov M. O'zbek adabiyoti tarixi. I jild. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
6. Qosimjonov Sh. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarning adabiy mohiyati. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1998.
7. Abdug'afurov A. O'rxun-Enasoy bitiktoshlari: tarix, til va poetika // Filologiya masalalari, 2009, №4. – B. 88–96.
8. Yo'ldoshev Q. O'zbek adabiyotida tarixiy roman poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2015.

Mubora OMANOVA,
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SA'DIY SHEROZIY – JAHON DIDAKTIK ADABIYOTINING YETUK NAMOYANDASI

Annotatsiya. Maqolada mahoratli shoir, adib va mutafakkir, g'azal janrining kashshofi va ustodi Sa'diy Sheroziyning jahon adabiyotida tutgan o'rni, ijodiy merosi, "Guliston" asaridagi axloqiy-falsafiy qarashlar tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, Sa'diy Sheroziy, "Guliston" asari, axloqiy, ijtimoiy, falsafiy, tarbiyaviy, hikoyat.
Annotation. The article analyzes the role of Saadi Shirazi, a talented poet, writer, and thinker, a master and mentor of the ghazal genre in world literature, his creative legacy, and moral-philosophical views in his work "Gulistan".
Keywords: world literature, Saadi Shirazi, the work "Gulistan," moral, social, philosophical, educational, story.
Аннотация. В статье анализируется роль Саади Ширази, талантливого поэта, писателя и мыслителя, мастера и наставника жанра газели в мировой литературе, его творческое наследие и морально-философские взгляды в его произведении «Гулистан».
Ключевые слова: мировая литература, Саади Ширази, произведение «Гулистан», нравственное, социальное, философское, воспитательное, рассказ.

Sa'diy Sheroziy mahoratli shoir, adib va mutafakkir, g'azal janrining kashshofi va ustodi. Jahon adabiyotida Sa'diyning maqomi juda yuksak. Boy hayotiy tajribasi asosida yaratgan "Bo'ston" va "Guliston" asarlari unga olamshumul shuhrat keltirgan va juda ko'plab Yevropa tillariga tarjima qilindi.

"Sharqda Shayx Sa'diy nomi bilan mashhur bo'lgan bu kishi o'zi tirikligidayoq shuhrat qozongan edi. Juda katta hayotiy tajribasiga ega bo'lgan donishmand shoirning hikmatli so'zlarga to'la asarlari dovrug'i Sherozdan Qashqargacha, Xitoy va Hindistondan Misr va Shimoliy Afrikagacha tarqalgan edi. Shuning uchun ham Sa'diy hech qachon murid ovlab shayxlik qilmagan bo'lsa-da, unga hurmat yuzasidan ustoz va rahbar ma'nosida "shayx" laqabini berganlar" [1]. Sa'diy ijodi fors-tojik klassik adabiyoti an'analarini davom ettirish bilan birga, fors-tojik va turkiy tildagi adabiyotlar rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

"Sa'diy yolg'iz Eron emas, balki Osiyoning, Afrikaning hamma yerida hurmatli bir faylasufdir. Uning tarzi bayonining tarovatini va ifodasining qimmatini Ovro'po ilm-u adab ahli ham ko'pdan beri tan olganlar", – deb yozadi mashhur major olimi Herman Vamberi. Buyuk nemis shoiri va mutafakkiri I.V.Gyote Sa'diyni juda mahsuldor va fayzli", "hayot tajribasi bilan boyigan juda yaxshi shoir, deb hisoblagan. Mashhur fransuz faylasufi va adibi Volter "Guliston"dan xabardor bo'lgan va ba'zi she'rlarida undan foydalangan. Taniqli fransuz masalchisi Lafonten ham "Guliston"dagi hikoyat va naqllardan o'z masallarida istifoda etgan. Ulug' rus shoiri A.S.Pushkin: "Sa'diy va Hofiz asarlarining pinhoniy asroriga yetgunimcha she'rlarimda quvonchbaxsh jihatlar va hayotdo'stlik kam uchrardi" [2] – degan edi.

Sa'diy xilma-xil janrlarda yozilgan juda ko'p asarlarning muallifidir. Uning kulliyoti janrlar bo'yicha 19 bo'limdan iborat. Shoir kulliyoti o'limidan 37 yil o'tgach, Ali binni Abubakr Besutun degan kishi tomonidan to'plangan. Kulliyotga kiritilgan badiiy asarlar orasida eng mashhurlari 1257-yilda yaratilgan "Bo'ston" va 1258-yilda yozilgan "Guliston" kitoblari sanaladi. "Guliston" – fors-tojik didaktik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. U "pand-u nasihat va odob-axloq kitobi sifatida shuhrat qozongan... Umrining ko'p qismini sayohatlarda o'tkazgan, ko'p xalqlar, millat-u elatlar hayotini kuzatgan, turli tabaqa kishilari bilan muloqotda bo'lgan Sa'diy ko'rgan-kechirganlarini, hayotiy tajribasini umumlashtirib, ularni yuksak badiiy shaklda, qisqa-qisqa, ammo g'oyat shirali, ta'sirchan musajja' nasriy jumlalar va she'riy baytlar bilan ziynatlab, o'ziga xos hikoyatlar to'plamini yaratgan" [4].

Bu ta'limiy asarda adib o'z davridagi eng muhim va katta-katta siyosiy, ijtimoiy voqealarni aks ettirar, axloqiy me'yorlarni talqin etar ekan, o'sha davr kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratadiki, bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, ta'sir doirasi ham shoirning o'z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Uning ilg'or orzulari umumbashariyat orzulari bilan hamohang. Shuning uchun ham bu asar jahon adabiyotidagi

eng nodir asarlar qatorida turadi. "Guliston" sakkiz bobdan iborat bo'lib, uning tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

debocha;
birinchi bob – podshohlar siyrati zikrida;
ikkinchi bob – darveshlar axloqi zikrida;
uchinchi bob – qanoat fazilati zikrida;
to'rtinchi bob – sukut saqlashning foydalari zikrida;
beshinchi bob – ishq va yoshlik zikrida;
oltinchi bob – qarilik va zaiflik zikrida;
ettinchi bob – tarbiyat ta'siri zikrida;
sakkizinchi bob – suhbat odobi zikrida.

Sa'diy asarlari qadimdan o'zbek xalqi orasida ham mashhur. "Bo'ston" va "Guliston" asarlari madrasalarda asosiy darsliklar sifatida o'qitib kelingan. Mumtoz shoirlarimiz bu ulug' so'z san'atkoridan o'rganganlar, ta'sirlanganlar. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Xojaning "Gulzor", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston" yoxud axloq" asarlari bevosita Sa'diy "Guliston"i ta'sirida yaratilgan.

Bu asarni birinchi marta 1390–1391-yillarda XIV asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Sayfi Saroyi "Guliston bit-turkiy" nomi bilan Misrda tarjima qilgan. XIX asrda "Guliston" Xiva xoni Muhammad Rahimxon II - Feruz topshirig'i bilan zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy tomonidan ikkinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinadi. "Guliston"ning uchinchi tarjimasi toshkentlik mudarris va shoir Mullo Murodxo'ja Solihxo'ja o'g'li qalamiga mansub bo'lib, u "Shavqi Guliston" deb atalgan. "Murodxo'ja madrasa talabalari ehtiyojini hisobga olib, asarning qiyin so'z va iboralarini sharhlagan va forsiy originalini ham qo'shib, "G'ulomiya" matbaasida nashr ettiradi" (1909). 1968-yili "Guliston"ning to'rtinchi tarjimasi bosilib chiqdi. Asardagi she'rlarni G'afur G'ulom va Shoislom Shomuhamedov, nasr qismini Rustam Komilovlar o'zbekchalashtirishgan. "Guliston" o'ziga xos didaktik hikoyalar va she'riy aforizmlar to'plamidir. Uning debochasida shoir shunday yozadi:

Har nechuk gul dilingni qilmas chog',
"Guliston"imdan ol biror yaprog'.
Gul zamoni besh-olti kundir bas,
Bu "Guliston" hamisha pok nafas [7].

Asrlar davomida fors-tojik adabiyotining shoh asarlaridan biri bo'lib kelgan bu kitob sodda va ravon tilda bitilgani, voqelikni teran tahlil etgani bilan ahamiyatlidir. Jahongashta shoir o'z hayotida ko'rgan, bilgan voqealarni bayon etib, ulardan axloqiy, falsafiy xulosalar chiqaradi.

"Guliston"dagi kichik-kichik hikoyatlarda dunyo-dunyo ma'no mujassamdir. "Adabiyotshunoslar nazdida fors klassik poeziyasining eng porloq asari Firdavsiyning "Shohnoma"si bo'lsa, nasriy asarlarning eng barjastasi "Guliston" hisoblanadi" [2]. Bu ta'limiy asarda yozuvchi o'z davridagi eng muhim va dolzarb siyosiy, iqtisodiy voqealarni aks ettirar, axloqiy mezonlarni talqin etar ekan, o'sha davr kishilarining xilma-xil obrazlarini yaratadi. Adib mahorati tufayli bu obrazlarning umumlashtiruvchi kuchi ham, ta'sir doirasi ham shoirning o'z yurti va davri chegarasidan chiqib ketadi. Sa'diyning orzulari g'oyat olijanob va umuminsoniy bo'lgani uchun ham "Guliston" jahon adabiyoti durdonalari qatorida turadi va u salkam sakkiz asrdirki sevib o'qiladi.

Sa'diy insonlarga najot berishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, dunyodagi eng qudratli kuch, odamning tabiiy va ijtimoiy ofatlarga qarshi kurashda eng katta qurol – bilim ekanini to'g'ri tushunadi va odamlarni bilim, ma'rifat olishga chaqiradi. Yoshlikdan mehnat chekib, ilm-u hunar o'rgangan odam hech qachon kam bo'lmaydi:

Aqlli kishilar hunar orttirar,
Qoringa qul ersa, hunarsiz qolar.
Yemak, uxlamak – vahshiy hayvon ishi,
Shu odatni qo'llar aqlsiz kishi.
Bulur baxtiyor, kimki xilvat aro
Bilimdan olur hissasin doimo [5].

"Guliston"ning yettinchi – "Tarbiyaning ta'siri bayoni" bobida shunday hikoya bor: "Bir donishmand o'z o'g'illariga shunday nasihat qilar edi: "Bolajonlarim, hunar o'rganing, chunki dunyoning mulku davlatiga ishonish yaramaydi, oltin-kumush ham bu safar diyorida xavf-u xatardir. Yo o'g'ri birdan olib ketadi yo egasi oz-ozdan xashlab tagiga yetadi. Ammo hunar qaynar buloq va bitmas davlatdir. Agar hunarmand kishi davlatidan ajrasa, na g'am-u na ofatdir, chunki hunarining o'zi davlatdir. U qayerga borsa, qadrini topadi, mansabga minib, baxti chopadi, behunar doimo qattiqchilik ko'radi va sarqitlar teradi". Ushbu hikoyatni adib sermazmun to'rtlik bilan yakunlaydi:

Kimga yoshligidan berilmas odob,
Ulg'aygach bo'ladi baxtsiz, dili g'ash.
Ho'l novda egilar qay xilda egsang,
Quruqni to'g'rilar faqat o't, otash [7].

Bu misralardan farzandga yoshligidan bilim va tarbiya berish kerakligini uqib olishimiz mumkin. Ilm-u hunarga juda yuqori baho bergan shoir uni o'rganish yo'lida har qanday mashaqqatdan qochmaslik lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydi:

Bani odam ilmdin topmish kamol,
Bekor bunda mansab-u boylig-u mol.

Bo'lsa bir hunaring, hamd yuz aybing,
Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing.

Istar esang otangdan meros,
Bog'la otang ilmiga ixlos.

Xulosa qilib aytganda, Sa'diy jahon adabiyotining yetuk va zabardast vakilidir. Uning nomi o'rta asrlardayoq Yevropada ham shuhrat tutgani, Gyote, Volter, Pushkin singari so'z san'atkorlarini ilhomlantirgani bundan dalolat beradi. Shoir asarlari o'z hayotiy tajribalari, ko'rgan-kechirganlari asosida yozilgani va chuqur axloqiy-falsafiy xulosalar chiqarilgani, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgani uchun ham ularga qiziqish har qachon kuchli bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shomuhamedov Sh. Fors-tojik adabiyoti klassiklari. – Toshkent: O'zadabiynashr, 1963.
2. Shomuhamedov Sh. Xazinalar jilosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
3. Sa'diy she'riyatidan (Tarjimon Sh.Shomuhamedov). – Toshkent: O'zbekiston, 1976.
4. Sa'diy Sheroziy. Bir hovuch dur (rivoyatlar) // Saodat, 2005, №1.
5. Sa'diy Sheroziy. Guliston. (Forsiydan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi). Nashrga tayyorlovch: S.Dolimov. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.
6. Sa'diy Sheroziy. Hikmatga to'la olam. – Toshkent: Sharq, 2007.

7. Injular ummoni. Tarj. va tartib: Sh.Shomuhamedov va boshqalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
8. Uzoqov A. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi adabiyoti. – Toshkent, 2008.

Mahliyo JINAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

XURSHID DAVRON SHE'RIYATIDA IJTIMOIY-MA'NAVIY MUAMMOLAR TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy she'riyat vakili Xurshid Davron ijodi haqida so'z boradi. Ijtimoiy-ma'naviy hayot, ularga shoirning munosabati tahlilga tortiladi. She'rlaridagi an'anaviylik va novatorlik masalalari tadqiq etiladi.
Kalit so'zlar: vatanparvarlik, uyqu, qahramon, tarix, xoin, ona tili, chol, meros, paxta.
Annotation. This article examines the work of Khurshid Davron, a representative of modern poetry. The socio-spiritual life and the poet's attitude towards it are analyzed, and issues of traditionalism and innovation in his poems are explored.
Keywords: patriotism, dream, hero, story, traitor, native language, old man, heritage, cotton.
Аннотация. В этой статье рассматривается творчество Хуршида Даврона, представителя современной поэзии. Анализируется социально-духовная жизнь и отношение поэта к ней, а также исследуются вопросы традиционности и новаторства в его стихах.
Ключевые слова патриотизм, сон, герой, история, предатель, родной язык, старик, наследие, хлопок.

Lirika inson his-tuyg'ulari va ijtimoiy-ma'naviy muammolarning in'ikosi. Zamonaviy lirikada adolatsizlik, tengsizlik, ma'naviy tubanlashuv, axloqiy inqiroz, ma'naviy qadriyatlar tanazzuli kabi muammolar ta'sirchan o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, XX asr va mustaqillik davri o'zbek she'riyatida bunday mavzudagi she'rlarni ko'p uchratamiz. Boisi adabiyotshunos Ibrohim Haqqul ta'kidlaganidek, "chinakam shoir... zamondoshlari ruhiyatini og'ir yukday bosib turgan, ularni qiynagan, hayajonga solgan dard-u hislarini qalb ehtirosi bilan tahlil etib beradi" [1: 51]. Xurshid Davron she'riyatida ham bu mavzu ko'lami keng. Chunki har bir ijodkor o'zi yashab turgan ijtimoiy muhitni asarlariga olib kiradi.

Shoir Xurshid Davronning "Bahordan bir kun oldin" she'riy to'plamidan joy olgan vatanparvarlik ruhidagi she'rlariga to'xtalsak, ularda vatan taqdiri, mehnatkash xalq qismatidan kuyinish, ishchilar obrazi, sotqin – xoinlar obrazi, vatan uchun jonini fido qilishga tayyor vatanparvar qahramonlar obrazi orqali ko'rsatib berilgan. Misol uchun uning "Vatan mehri" she'rida shunday misralarga duch kelamiz:

Podshohlari uxlab yotgan
Yurtga dushman kirganda,
Bola demay,
Qari demay
Ayamasdan qirganda,

Buxoroga qochib borib
Amir pisib yotgan payt,
Xon amirni,
Amir esa
Xonni yovga sotgan payt... [2: 199]

Tarix qayta-qayta ko'rsatib, isbotlab kelayotgan haqiqatlardan biri – birlashmagan ellarning boshqa xalqlar – dushmanlar tomonidan tor-mor etilishi sahnasi. Amir-u xonlar birlashish o'rniga bir-birini sotib tursa, xalqni adolatli boshqarish o'rniga "maishat uyqusi"da bo'lsa, albatta, yov tomonidan qirib tashlanishini shoir yana bir bos eslatmoqda. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, temuriylar ham, xonliklar davrida ichki kelishmovchiliklar, bosh-boshdoqliklar, xalqning birika olmasligi, dushmanning "sovg'a-salomi" sabab sotqinlik qiladigan insonlar hamisha mavjudligi mag'lubiyatlarning asosiy sababi sifatida ko'rsatilgan. Lekin xalqimiz tarixida hamisha vatani uchun jonini fido qilishga tayyor, or-nomusli o'g'lonlari ham bo'lgan:

Yer bo'yalib alvon rangga,
Yosh to'kkanda xor bobom,
"Elim" deya chiqdi jangga
Samarqandlik mard Bobon

Qo'lga tushmay olishdi u
Hurlik mayin qilib mast,
"Yurtim" deya solishdi u
Lak-lak yovga basma-bas [2: 199].

Yuqoridagi bandlarda she'rxon ko'z o'ngida buyuk qalb egasi namoyon bo'lishi shubhasiz. Ezgulikka tashna, tuyg'ulari samimiy va nekbin lirik qahramon timsolida shoirning ma'naviy qiyofasini ham yaqqol tasavvur etish mumkin. O'z qarashlarini, istaklarini, "men"ini Bobon obrazida ifodalagan.

O, tarixning bitiklari
So'ylab bergan necha bor,
Botirlarning amalin yo'q –
Etgan deb xiyonatkor [2: 199]!

Lirik qahramon nutqidagi nadomat ohangidan ayon bo'ladiki, tuyg'ular (uyqudagi shoxlar, vatan xoinlari)dagi juda muhim va kechiktirib bo'lmas masalani ko'ndalang qo'yadiki, nazarimizda, bu shoirning kuyunchak, murosasiz shaxsiyatidan bo'lsa, ajab emas.

Ijodga tetapoya qadam bosib kirayotgan havaskor shoirga ham, dillarni so'zi bilan to'ldirgan yetuk shoirga ham Vatan, uning muhabbati cheksiz ilhom manbayi ekani – ayni haqiqat. Chinakam shoir xalq qalbining, ruhiyatining mohir tahlilchisi bo'ladi. Shu qatorda el-u yurtni yangi manzillar, maqsadlar sari chorlab boradiki, shaksiz, bu uning "missiya"siga aylanadi. Zero, hayotni moddiyatdangina iborat deb bilib, nafsning yetovida yashash Vatan oldida ayb ish sanaladi. Shu ma'noda vatanparvarlik degan oliyjanob tuyg'u xalqning g'ururini ko'tarishi lozim. Bu g'urur, bizningcha, birinchi galda tilimizga bo'lgan e'tiborda ko'rinadi. "Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq" sonetlar turkimida aynan shu masalani ko'taradi.

Tilim, ko'zim oqi, ko'zim qarosi,
Sen belim madori – irg'ay hassamsan,
Avlodlarga meros o'tli qissamsan [2: 63].

Hayotni, vatanni shu tilda kuylamoqda, vatanga, hayotga shu til ko'zi bilan boqmoqda. Kerak bo'lganda belga kuch,

avlodlarga qoldirish mumkin bo'lgan eng buyuk meros sifatida tilni keltirmoqda shoir. Shoirning sonetlari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi yoshlar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Har bir gapida xorijiy so'zlarni qo'llaydigan, kerak bo'lsa, ba'zan o'zbek tilida so'zlashni or biladiganlar uchun shoir "Dunyoda bor bo'lsa necha xil ranglar, Kelsin, ko'rsin senda yuz karra ko'proq... Ey, tilim, ey, elim, ey, ona tuproq" deydi. Ona tiliga muhabbat taqdirini SO'Z bilan bog'lagan har bir shaxsiyatning hayot-mamot masalasiga aylanmog'i lozim. Xorijiy tillarni bilish va bilganlarni rag'batlantirish urf bo'lgan ayni zamonda millatning ma'naviy qiyofasini belgilaydigan milliy tilni sof saqlash va targ'ib etish jamiyatning dolzarb vazifalaridan.

Shoirning vatan mavzusidagi she'rlarini tahlil etish asnosida shu xulosaga kelish mumkinki, Xurshid Davron ona yurt haqida samimiy va haqqoniy yozadi, she'rlarida ijtimoiy dard omixta keladi. Uning so'zga e'tiqodida Vatanga muhabbat tuyg'usi bor haqiqatlarini namoyon etaveradi. Xurshid Davron she'riyatidagi ahamiyatli ijtimoiy masalalar talqini ustuvor bo'lgani holda uning asarlarida hayotiy manzaralarning surati ham ko'zga tashlanadi. Shunday she'rlardan biri – "Ota qabri" she'ri. Shoirning "Ota qabri" she'rida an'anaviy va hech qachon eskirmaydigan mavzu qalamga olingan. Xalq og'zaki ijodi namunalari – ertaklarda ham ko'p uchraydiga ota va uning uch o'g'li, otaning uch o'g'ildan biriga meros qoldirishi haqidagi vasiyati kabi motiv asosiga qurilgan. Xurshi Davron ana'naviy mavzuni novatorona aks ettirgan. Ota o'limidan oldin mol-mulkini hech bir o'g'ilgan vasiyat qilmay, "qozi nima desa shunga rozi bo'ling" deb vafot etadi. Qozi yoniga borgan uch o'g'ilni bir chol yoniga jo'natadi. Uchovlon shoshib yetib borganida, chol ularga shunday deydi:

Evoh, ota degani
Nahot shundoq bo'ladi?
Merosxo'r kim?
Aytmasdan
Axir, nega o'ladi?
Tuturiqsiz otadan
Ko'nglingizni uzingiz.
Hoziroq borib uning
Mozorini buzingiz [2: 209]!

Odatda chol o'limidan oldin farzandlariga har xil topshiriqlar berib sinar va merosxo'rni aniqlashtirar edi. Xurshid Davron yaratgan chol obrazi esa, o'zidan ham aqlli bo'lgan donishmand cholga bu vazifani topshirib ketdi. Cholning topshirig'ini olgan ikki o'g'il shovqin solib, ketmon ko'tarib ota qabri tomon shoshdi. Kichik o'g'il esa o'y surib qoldi. Katta ikki o'g'il meros dardida mozorga yetib bordi va u yerda kichik o'g'il qo'lida tig' ushlab ularni kutib oldi. Bu she'rda shoirning ota merosiga da'vogar farzandlardan tashqari yurtini, vatan tuprog'ini, undagi ota-onalarimiz hokini muqaddas biluvchi, bu tuproqni or-nomus masalasi sifatida, kerak bo'lsa, qo'lda tig' ko'tarib himoya qiluvchi qahramonni gavdalantirish kabi badiiy niyati aks etgan. Shoir she'r oxirida she'rxonga "biz qaysi o'g'ilmiz, to'ng'ichmi, o'rtanchami yo kenjami – o'ylab boq" deb murojaat qiladi.

Asqad Muxtor yozganidek, "she'r – shoirning ijtimoiy vijdoni". Uyg'oq vijdon esa ijodkordan hamma vaqt uyg'oq tafakkurni, sergak tasavvurni talab etadi. Xurshid Davronning ijtimoiy-ma'naviy masalalar talqini aks etgan bir qancha she'rlarida paxta mavsumi, paxta maydoni tasvirini uchratamiz. Paxta yakkahokimligi – o'zbek xalqining peshonasiga sho'ro zamonidan bosilgan tamg'a. Necha yuz ming o'zbekning hayotiga tajovuzlar, alamli xotiralar bitgan bu "boylik" jamiyatning bir a'zosi o'laroq shoirni ham befarq qoldirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron she'riyatida ijtimoiy va ma'naviy masalalar talqini o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shoirning she'rlari ayni pallada insonlarning ichki kechinmalari, insoniy qadriyatlar, jamiyatdagi evrilishlar va umuman, bashariyatning ma'naviy qiyofasini aks ettiradi. She'rlarida ijtimoiy mas'ullikni anglagan lirik qahramon qiyofasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul haqiqati. To'plovchi: Zulayho Rahmonova. – Toshkent: Trust and Support, 2023.
2. Davron X. Bahordan bir kun oldin. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Hamdamov U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012. – 304 b.
4. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018. – 475 b.
5. Mamiraliyev Q. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida janrlar modifikatsiyasi. – Toshkent: Anorbooks, 2024. – 208 b.

Анвар РАДЖАБОВ,
и.о. доцента кафедры иностранных языков
Самаркандского филиала Ташкентского международного университета Кимё

ПОЭТИКА РАССКАЗА АНТОНА ЧЕХОВА «АРХИЕРЕЙ»: СВЕТОВАЯ СИМВОЛИКА, МОТИВ ПАМЯТИ И ДИНАМИКА ФОКАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В статье проводится поэтико-структурный анализ рассказа А.П.Чехова «Архиерей» как единого художественного целого. Рассмотрение художественного времени, пространственных формул, световой и звуковой символики, а также организации точек зрения позволяет выявить внутренний порядок повествования, где литургическое время соединяется с интимной динамикой самосознания героя. Анализ показывает, что рассказ реализует сложную форму, сопоставимую по глубине с романной, и перерабатывает канон пасхального повествования в историю предельного одиночества и освобождающей памяти.

Ключевые слова: Чехов, архиерей, поэтика, фокализация, пасхальный рассказ, мотивная структура, лексическая символика, художественное время.

Annotatsiya. Maqolada A.P.Chexovning "Arxiyerey" hikoyasi yaxlit badiiy birlik sifatida poetik-struktur tahlil qilingan. Badiiy vaqt, fazoviy formulalar, yorug'lik va tovush ramzlari, shuningdek, nuqtayi nazarlarni tashkil etishni ko'rib chiqish hikoyaning ichki tartibini aniqlashga imkon beradi, bunda liturgik vaqt qahramonning o'z-o'zini anglashining intim dinamikasi bilan bog'lanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hikoya ma'no jihatdan romanga teng keladigan murakkab shaklda va pasxal rivoyat kanonini o'ta yolg'izlik va ozod qiluvchi xotira hikoyasiga aylantiradi.

Kalit so'zlar: Chexov, arxierey, poetika, fokalizatsiya, pasxaviy hikoya, motivlar tizimi, leksik ramziylik, badiiy vaqt.

Annotation. The article offers a poetic-structural analysis of A.P.Chekhov's story The Bishop as a unified artistic whole. An examination of narrative time, spatial formulas, light and sound symbolism, as well as the organization of points of view, makes it possible to reveal the inner order of the narrative, in which liturgical time merges with the intimate dynamics of the protagonist's self-awareness. The transition from the image of "His Grace Pyotr" to the childhood figure of "Pavlusha", along with the motifs of weeping, ringing, and light, forms a hidden compositional axis of the text. The analysis demonstrates that the story embodies a complex structure comparable in depth to that of a novel and reworks the canon of the Easter narrative into a story of profound solitude and redemptive memory.
Keywords: Chekhov, archirey, poetics, focalization, Easter tale, motif structure, lexical symbolism, artistic time.

Рассказ А.П.Чехова «Архиерей» остаётся одним из ключевых текстов поздней чеховской прозы, однако сложность его внутренней структуры ещё не получила исчерпывающего объяснения. Исследовательская традиция фиксирует несколько устойчивых направлений интерпретации, однако редко приходит к обобщающему описанию поэтического механизма рассказа. В жанровом аспекте текст прочитывается как модернизированный вариант пасхального повествования.

Н.З.Коковина подчёркивает, что к началу XX века пасхальный рассказ перестаёт быть исключительно душеспасительным жанром и обретает философскую глубину, заданную размышлением о смерти, границе и возможности преображения. По её наблюдениям, в рамках этой традиции «Архиерей» организован вокруг нескольких антиномий: «духовное и бытовое», «память и забвение», «конечность и воскресение» [1, с. 25]. Заявленная ею напряжённость категорий задаёт продуктивный контекст, но в основном касается тематического слоя, оставляя открытым вопрос о том, как именно эти оппозиции работают в структуре повествования.

Существенный вклад в изучение нарративной структуры «Архиерея» внесён В.И.Тюпой, показавшего, что в рассказе повествовательная оптика строго соответствует внутреннему полю зрения героя, благодаря чему «мир прочитывается через состояние его сознания» [2, с. 102]. Это наблюдение позволяет увидеть в тексте, скрытое под внешней фрагментарностью эпизодов единство. Однако материалы, связанные с мотивным уровнем и художественной топографией, здесь почти не интегрированы, и структура текста описана преимущественно в терминах распределения точек зрения.

Религиозно-интертекстуальная критика, представленная прежде всего работами Э.М.Жиляковой, выявляет в «Архиерее» мотивы, связанные с псалмовой традицией и литургическим временем. Жилякова читает рассказ как «последний псалом» Чехова и отмечает, что «композиция строится по ритму молитвенного обращения, где чередование плача и хвалебного переживания становится основой внутреннего движения героя» [3, с. 215]. Такой подход акцентирует духовный горизонт повествования, но не раскрывает механизмов его композиционного воплощения.

Художественное время и пространство «Архиерея» формируют структуру, где литургический календарь задаёт не только внешнюю последовательность эпизодов, но и логику внутреннего движения героя. Страстная неделя, Вербное воскресенье и Пасха становятся формой переживания времени, которое сжимается и распадается на отдельные, пронизанные напряжением мгновения. Повествование начинается с описания всенощной в Старо-Петровском монастыре, где пространство и время погружены в мерцающую неустойчивость: *«Огни потускнели, фитили нагорели, было всё, как в тумане»*. Уже на первом шаге эта рассеянность зрения вводит мотив расхождения между официальной ролью архиерея и внутренней усталостью человека. Литургическая сцена фиксирует момент, в котором герой присутствует физически, но едва удерживает себя в ритуальном ритме: так создаётся исходное напряжение между сакральной формой службы и телесной истощённостью, что станет постоянным структурным сигналом рассказа.

Мотив освобождения тесно связан с образом поля, возникающим в предсмертном видении: *«Он уже простой, обыкновенный человек, идёт по полю быстро, весело»*. Это поле противостоит монастырскому пространству так же, как внутренний голос героя – его официальному сану. Поле, открытое и залитое солнцем, представляет собой не только грёзу, но и итоговую форму внутренней правды героя.

Парные мотивы плача и молчания создают звуковую структуру, проходящую сквозь весь текст. Сцена соборного плача, возникающая внезапно и исчезающая столь же бесследно, образует цикл, связанный с внутренними перегрузками героя. Воцаряющаяся после службы тишина, когда *«… все молчали, задумавшись»,* формирует момент коллективного созерцания. Этот ритм плача и тишины коррелирует с чередованием усталости и вспышек воспоминаний, наполняя структуру рассказа музыкальной ритмикой, характерной для поздней чеховской прозы.

Наконец, структура финала организована как антитеза к начальным эпизодам. Пасхальная радость, описанная как «весело, всё благополучно», служит обрамлением, в котором исчезновение архиерея остаётся незамеченным. Здесь особенно ясно проявляется наблюдение Н.З.Коковиной о «разрушительных для жанра тенденциях»: канон пасхального рассказа требует преображения героя, но у Чехова преображение не ведёт к возвращению в общину, оно завершает путь индивидуальной памяти, а не коллективной веры.

Таким образом формируется структура, где жанр пасхального повествования переустроен изнутри: литургическое время и пространство задают внешнюю рамку, но внутренний сюжет разворачивается как движение от одиночества к личной свободе, от роли архиерея к опыту «Павлуши». Комбинация световой символики, звуковой ткани, мотивов памяти и фокализации создаёт целостный поэтический организм, в котором каждая деталь участвует в формировании глубинного ритма рассказа.

Поэтика «Архиерея» раскрывается как система, в которой каждая структурная деталь участвует в формировании целостной художественной логики. Страстная неделя и пасхальное утро образуют хронотоп, где сакральное время не гарантирует духовного обновления, а лишь обостряет внутреннюю растерянность героя. Литургический календарь, который в традиции пасхального рассказа должен обеспечивать возвращение к полноте жизни, превращается у Чехова в ритм, несоразмерный человеческой утомленности. В этом несоответствии проявляется глубокая специфика чеховского взгляда на духовный опыт: Пасха существует как данность, но не ведёт к гармонии.

«Архиерей» предстаёт не как произведение о духовном падении или о победе отчаяния, но как строго организованная структура, исследующая предел человеческой памяти, утомления, надежды. В этой структуре

сакральное и повседневное сосуществуют, не приходя к синтезу. Свет луны, холодный воздух, соборный плач, вспышки детских воспоминаний и финальный образ поля образуют сетку мотивов, через которую Чехов показывает внутреннюю правду героя, не растворяющуюся в жанровых ожиданиях. Рассказ вступает в диалог с пасхальной традицией, но не подчиняется ей; он превращает жанр в пространство размышления о человеческой хрупкости и свободе.

Исследование показало, что поэтико-структурная организация «Архиерея» образует единый художественный механизм, где фокализация, мотивная сеть и символика света формируют внутреннюю архитектонику, через которую читается не сюжет о смерти архиерея, а путь сознания, стремящегося к освобождению от собственной усталости, завершающегося не в литургической полноте, а в личной ясности, которую выражает образ широкого солнечного поля. Чехов создаёт рассказ, в котором духовное и человеческое не противопоставлены, а сосуществуют как две формы присутствия в мире, и именно это сочетание делает «Архиерея» одним из высших достижений его поздней прозы.

Использованная литература

1. Коковина Н.З. Жанровое своеобразие рассказа А.П.Чехова «Архиерей». М.: Портал «О литературе», LITERARY.RU.
2. Тюпа В.И. Горизонты исторической нарратологии. СПб.: Алетейя, 2021.
3. Жилякова Э.М. Последний псалом А.П.Чехова («Архиерей») // Проблемы исторической поэтики, 1994, №3.
4. Лелис Е.И. Слово и подтекст в рассказе А.П.Чехова «Архиерей» // Вестник Нижегородского университета им. Н.И.Лобачевского, 2009, №6.
5. Лелис Е.И. Полифоническое пространство рассказа А.П.Чехова «Архиерей» как эстетическая сфера экспликации его подтекстовых смыслов // Известия Самарского научного центра РАН, 2012, №2.
6. Скибина О.М. «Архиерей» Чехова: роман в рассказе // Научный результат, серия №Вопросы теоретической и прикладной лингвистики№, т. 6, 2020, №2.
7. Чехов А.П. Архиерей. Сочинения в 4 т., т. 3. М.: Правда, 1984.

Марьямхон СУБХОНОВА,
магистрант II курса,

Анвар МУХИДДИНОВ,
доктор филологических наук, профессор
Ферганского государственного университета

КРИТЕРИИ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ОМОНИМИИ И МНОГОЗНАЧНОСТИ В ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ

Аннотация. В статье рассматривается одна из ключевых теоретико-лексикографических проблем современной лексикологии – разграничение омонимии и многозначности в словарях омонимов, анализируются основные критерии дифференциации данных языковых явлений (семантический, этимологический, словообразовательный, синтаксический, когнитивный), их практическая реализация в русских лексикографических источниках. Особое внимание уделяется противоречиям словарной фиксации, случаям «пограничных» единиц и роли интерпретации лексикографа, делается вывод о том, что разграничение омонимии и полисемии носит не только языковой, но и методологический характер и во многом определяется концепцией словаря.

Ключевые слова: омонимия, многозначность, полисемия, лексикография, словарь омонимов, семантическая структура слова, критерии разграничения.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy leksikologiyaning asosiy nazariy-leksikografik muammolaridan biri – omonimlar lug'atlarida omonimiya va ko'p ma'nolilikni farqlash, ushbu til hodisalarini (semantik, etimologik, so'z yasalishi, sintaktik, kognitiv) farqlashning asosiy mezonlari, ularning rus leksikografik manbalarida amalda qo'llanilishi tahlil qilingan. Lug'aviy fiksatsiya ziddiyatlari, chegaralangan birliklar holatlari va leksikografning talqin qilish roliga alohida e'tibor qaratilib, omonimiya va polisemiyani farqlash nafaqat lingvistik, balki uslubiy xarakterga ega va ko'p jihatdan lug'at konsepsiyasi bilan belgilanadi, degan xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: omonimiya, ko'p ma'nolilik, leksik ma'no, leksikografiya, omonimlar lug'ati, semantik tuzilma.

Annotation. The article deals with one of the central theoretical and lexicographic problems of modern linguistics the distinction between homonymy and polysemy in dictionaries of homonyms. The paper analyzes the main criteria used to differentiate these phenomena (semantic, etymological, word-formation, syntactic, and cognitive) and examines their implementation in Russian lexicographic practice. Special attention is paid to controversial cases and borderline lexical units, as well as to the role of the lexicographer's interpretation. The study concludes that the distinction between homonymy and polysemy is not only a linguistic but also a methodological issue largely determined by the dictionary's theoretical framework.

Keywords: homonymy, polysemy, lexical meaning, lexicography, dictionary of homonyms, semantic structure of the word.

В традиционной лингвистике омонимия определяется как совпадение по форме разных по значению и происхождению слов, тогда как многозначность (полисемия) предполагает наличие у одного слова нескольких семантически связанных значений [1, с. 58]. Ещё А.А.Потебня подчёркивал, что многозначность является естественным результатом историко-семантического развития слова, тогда как омонимия возникает либо в результате фонетических изменений, либо вследствие заимствований и вторичного совпадения форм [2, с. 241]. В дальнейшем данное принципиальное различие было теоретически осмыслено и закреплено в трудах Л.В.Щербы, В.В.Виноградова, О.С.Ахмановой, что способствовало формированию классической лексикологической трактовки этих явлений [3, с. 89; 4, с. 17]. В.В.Виноградов рассматривал многозначность как внутренне организованную семантическую систему, в которой отдельные значения объединены общим семантическим ядром и образуют

иерархически структурированное единство [4, с. 24]. Омонимы же, по его мнению, лишены такой внутренней семантической связности и функционируют в языке как формально совпадающие, но семантически автономные лексические единицы [4, с. 31].

В словарях омонимов при разграничении омонимии и многозначности теоретические критерии реализуются не изолированно, а в сложном взаимодействии, причём решающую роль часто играет интерпретационная позиция лексикографа, что особенно наглядно проявляется при анализе так называемых «пограничных» лексем, допускающих двойную трактовку.

Показательно в этом отношении слово *ключ*, традиционно приводимое в качестве классического примера омонимии. В некоторых словарях как минимум выделяются два омонима: *ключ*^{1} – «орудие для отпирания» и *ключ*^{2} –«родник, источник». Этимологический анализ подтверждает различие источников происхождения данных значений, что служит аргументом в пользу омонимии. Однако в когнитивном и семантическом плане возможно выявление обобщённого образа «того, что открывает / даёт доступ», позволяющего интерпретировать данные значения как элементы расширенной полисемической структуры. Таким образом, выбор между омонимией и многозначностью обусловлен тем, признаётся ли метафорическая мотивация достаточной для объединения значений.

Аналогичную проблему демонстрирует слово *лук*, представленное в словарях либо как омонимы (*лук*^{1} – «растение» и *лук*^{2} – «оружие»), либо как формально совпадающие, но концептуально несоотносимые единицы. В данном случае семантическая связь между значениями не реконструируется даже на уровне образных переносов, а словообразовательные и синтаксические связи также не пересекаются, что делает омонимическую интерпретацию более устойчивой и менее дискуссионной. Тем не менее само включение таких единиц в словарь омонимов уже предполагает отказ от рассмотрения их в рамках полисемии, что подчёркивает нормативную функцию словаря.

Особую сложность представляет слово *мир*, которое в одних источниках трактуется как омоним (*мир*^{1} – «отсутствие войны» и *мир*^{2} –«вселенная, общество»), а в других как многозначное слово. Историко-семантический анализ показывает расхождение значений, однако в синхронном языковом сознании они нередко сближаются через идею целостности, порядка и гармонии. В этом случае решение лексикографа напрямую зависит от того, какой аспект признаётся приоритетным – исторический или когнитивно-семантический.

Не менее показателен пример слова *коса*, значения которого (*орудие*, *причёска*, *береговая форма*) традиционно разводятся как омонимы. Формальное совпадение сочетается здесь с отсутствием единого семантического ядра, однако визуально-образная мотивация (вытянутая, узкая форма) позволяет некоторым исследователям говорить о потенциальной концептуальной связности. Тем не менее в словарной практике преобладает омонимическая трактовка, что свидетельствует о предпочтении строгого семантического разграничения перед когнитивной реконструкцией.

Анализ данных примеров показывает, что словари омонимов не просто фиксируют языковые факты, а конструируют их интерпретацию. Одни и те же лексемы могут получать различный статус в зависимости от целей словаря, предполагаемой аудитории и принятой теоретической модели. В этом смысле словарь становится не нейтральным отражением языковой системы, а инструментом её научной репрезентации.

Таким образом, омонимия и многозначность выступают не только как языковые категории, но и как лексикографические конструкты, формируемые в рамках определённой научной традиции.

Литература

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1969.
2. Потебня А.А. *Мысль и язык*. М.: Лабиринт, 1999.
3. Щерба Л.В. *Языковая система и речевая деятельность*. Л.: Наука, 1974.
4. Виноградов В.В. *Русский язык. Грамматическое учение о слове*. М.: Высшая школа, 1972.

Фотима АРИПОВА,
независимый соискатель
Ферганского государственного университета

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ИССЛЕДОВАНИЯ СЕМАНТИКИ ЗЕВГМАТИЧЕСКИХ КОНСТРУКЦИЙ

Аннотация. В статье рассмотрены зевгматические конструкции как особый тип синтаксико-семантических образований, функционирующих в русских и узбекских дискурсах, показано, что семантическая неоднородность компонентов зевгматической конструкции активизируется в конкретной речевой ситуации и служит средством прагматического воздействия на адресата, сделан вывод о том, что зевгма реализует не только стилистическую, но и прагматико-смысловую функцию, отражая особенности национальных дискурсивных стратегий.

Ключевые слова: зевгма, прагмалингвистика, семантика, дискурс, экспрессивность, контекст, русский язык, узбекский язык.

Annotatsiya. Maqolada rus va o'zbek diskurslarida faol qo'llaniladigan zevgmatik konstruksiyalar alohida sintaktik-semantik birlik sifatida pragmalingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot zevgmaning kommunikativ, baholovchi va ekspressiv ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijalari zevgmatik konstruksiyalardagi semantik nomuvofiqlik nutqiy vaziyatda faollashib, adresatga pragmatik ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida zevgma nafaqat stilistik, balki pragmatik-semantik vazifani ham bajarishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: zevgma, pragmalingvistika, semantika, diskurs, ekspressivlik, kontekst, rus tili, o'zbek tili.

Annotation. The article examines zeugmatic constructions as a specific type of syntactic and semantic formations functioning in Russian and Uzbek discourses. The study is conducted within a pragmalinguistic framework and focuses on identifying the communicative, evaluative, and expressive effects of zeugma. The analysis demonstrates that the semantic heterogeneity of zeugmatic components is

actualized in a concrete speech situation and serves as a means of pragmatic impact on the addressee. It is concluded that zeugma performs not only a stylistic but also a pragmatic-semantic function, reflecting national discourse strategies.
Keywords: zeugma, pragmalinguistics, semantics, discourse, expressiveness, context, Russian language, Uzbek language.

Теоретическую основу исследования составляют труды по семантике, стилистике и когнитивным механизмам языкового значения. В работах В.В.Виноградова зевгматические конструкции осмысливаются в русле теории художественной речи как стилистически маркированные синтаксические образования, создающие эффект семантического напряжения и экспрессивной неоднородности высказывания [1, с. 214]. О.С.Ахманова в «Словаре лингвистических терминов» фиксирует зевгму как особый приём соединения семантически разноплановых компонентов в рамках одной синтаксической структуры, что закладывает терминологическую базу её описания [2, с. 142]. Существенный вклад в интерпретацию семантической природы зевгмы вносит И.М.Кобозева, рассматривающая подобные конструкции с позиций лингвистической семантики и подчеркивающая роль контекста и имплицитных смыслов в формировании значения [3, с. 97]. Когнитивный аспект анализа поддерживается работами В.А.Масловой, где семантическая неоднородность языковых единиц трактуется как результат концептуальной деривации и взаимодействия различных ментальных доменов, что позволяет рассматривать зевгму как когнитивно и прагматически мотивированный феномен дискурса [4, с. 56].

С прагматической точки зрения зевгматическая конструкция ориентирована на адресата и предполагает его активное участие в интерпретации высказывания. Семантическая несоразмерность компонентов побуждает реципиента к когнитивной реконструкции смысла, в результате чего зевгма приобретает экспрессивный и оценочный потенциал. Так зевгма функционирует как средство усиления прагматического эффекта высказывания.

В русском дискурсе зевгматические конструкции широко представлены в художественной прозе, публицистике и разговорной речи. Например, *Он потерял ключи и терпение*, *Она открыла дверь и душу*. В подобных случаях управляющий глагол соотносится одновременно с предметной и абстрактной сферой, что создаёт иронический или эмоционально-оценочный эффект. Прагматическая направленность таких конструкций заключается в актуализации субъективной позиции говорящего и в усилении экспрессии сообщения.

В узбекском языке зевгма также активно используется, однако её прагматическая реализация имеет некоторые национально-специфические особенности. Ср.: *U eshikni va sabrini yo'qotdi* («Он потерял дверь и терпение»), *U so'z berdi va umidni sindirdi* («Он дал слово и разрушил надежду»). В узбекском дискурсе зевгматические конструкции часто опираются на образно-оценочные компоненты и выполняют функцию косвенной критики или иронического осмысления ситуации, что связано с традицией недирективного речевого воздействия.

Сопоставительный анализ показывает, что в обоих языках зевгма используется как средство прагматической компрессии, поскольку в рамках одной конструкции передаётся сложный комплекс смыслов и оценок. Вместе с тем в русском языке доминирует индивидуально-авторская экспрессия, тогда как в узбекском – культурно закреплённые модели косвенной оценки и имплицитной экспрессии.

Прагматический эффект зевгмы особенно наглядно проявляется в конкретных дискурсивных реализациях. Так, в русском публицистическом контексте высказывание *Он пообещал реформы и спокойствие* демонстрирует зевгматическое соединение институционально-политического и психологического планов, создавая ироническую дистанцию между обещанием и его реальной выполнимостью. В разговорном дискурсе зевгма нередко используется для экспрессивной оценки: Она потеряла работу и надежду, где семантическая разнородность объектов усиливает драматический эффект высказывания. В узбекском дискурсе аналогичную прагматическую функцию выполняют конструкции типа *U ishonchni va vaqtni yo'qotdi* («Он потерял доверие и время») или *U va'dasini berdi va vijdonini unutdi* («Он дал обещание и забыл совесть»). В подобных примерах зевгма служит средством косвенной критики, позволяя выразить оценку без прямого обвинения, что соответствует нормам культурно опосредованного речевого воздействия.

Таким образом, семантика зевгматических конструкций не может быть адекватно описана вне прагматического контекста. Значение зевгмы формируется на пересечении семантической несоразмерности, дискурсивной ситуации и коммуникативных намерений говорящего. Зевгма выступает как эффективный инструмент речевого воздействия, отражающий особенности национальных дискурсивных стратегий. Их семантика формируется не столько на уровне языковой системы, сколько в пространстве дискурса и коммуникативного взаимодействия.

Литература

1. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. М.: Высшая школа, 1980.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: Советская энциклопедия, 1969.
3. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика. М.: Едиториал УРСС, 2004.
4. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. М.: Академия, 2008.

Озода ТАИРОВА,
магистрант II курса
Узбекского национального педагогического университета имени Низами

МИФОПОЭТИКА МАЛОЙ ПРОЗЫ ИВАНА БУНИНА

Аннотация. В статье анализируется мифопоэтика малой прозы И.А.Бунина как система «приглушённого мифа», действующего через деталь, хронотоп пути и порога, сезонные и световые коды. Показано, как реалистическая повседневность у писателя становится медиатором универсальных архетипов утраты, памяти и вечного возвращения.
Ключевые слова: мифопоэтика, хронотоп, архетип, малая проза.

Annotatsiya. Maqolada I.A.Buninning kichik nasridagi mifopoetika tizimi "bo'g'iq afsona" sifatida tahlil etiladi. Bu tizim detal, yo'l va ostona xronotopi, mavsumiy va yorug'lik ramzlari orqali namoyon bo'ladi. Yozuvchining realistik kundalik tasvirlari yo'qotish, xotira va abadiy qaytish kabi umumbashariy arxetiplarning vositachisiga aylanishi ko'rsatib beriladi.
Kalit so'zlar: mifopoetika, xronotop, arxetip, kichik nasr.
Annotation. The article explores mythopoetics in I.A. Bunin's short prose as a system of "muted myth" operating through detail, liminal chronotopes, and seasonal imagery. It demonstrates how realistic everyday scenes mediate universal archetypes of loss, memory, and eternal return, forming a subtle synthesis of myth and realism.
Keywords: mythopoetics, chronotope, archetype, short prose.

Малая проза И.А. Бунина – уникальная лаборатория художественного опыта, где реалистическая точность детали соединяется с глубинной мифологичностью видения мира. В центре внимания нашего исследования – механизмы мифопоэтики, которые структурируют бунинский рассказ как пространство «приглушённого мифа»: архетипические мотивы пути и порога, утраты рая и возвращения, сакральных ритмов природы и «высокого полдня» образуют скрытую архитектонику смысла.

Исходной методологической рамкой выступают понятие хронотопа у М.М.Бахтина, позволяющее описать событие героя с миром и пороговые состояния повествования [1, с. 212], и семиотика культуры Ю.М.Лотмана, раскрывающая «говорящую деталь» как носитель кода ценностей [2, с. 45]. Перспектива М.Элиаде, трактующая искусство и миф как формы переживания «вечного в настоящем», задаёт интерпретацию сезонных и световых мотивов [3, с. 27]. Эмпирической базой анализа служат программные тексты «Антоновские яблоки», «Господин из Сан-Франциско», «Солнечный удар», «Тёмные аллеи» в репрезентативном издании «Избранные произведения» [4, с. 22].

Цель исследования – выявить, каким образом в творчестве И.А.Бунина через мотивно-образные повторы и ритуализированные микросцены повседневности проявляется измерение вечного, а индивидуальная память трансформируется в универсальную формулу человеческого опыта. В результате установлено, что реалистическая поверхность бунинского текста системно проницаема для мифологического: «обыденное» функционирует как мембрана, через которую просвечивает «вечное». В *«Антоновских яблоках»* усадьба предстаёт как образ утраченного центра, где запах яблок становится знаком памяти и возвращения к «золотому времени» [там же]. Мотив *«прохладного полдня», «сетей паутин», «смолистых ветвей»* формирует ритуально-сезонный код, в котором осенний сад прочитывается как сцена перехода от жизни к памяти [1, с. 215]. Частная ностальгия героя таким образом возводится в универсальный миф о потере рая [3, с. 29].

В *«Господине из Сан-Франциско»* хронотоп пути переоформляет повествование в инициационный сюжет. Корабль – лиминальное пространство между мирами; Капри – *«холодная краса»* мира мёртвых; отель – *«храм потребления»* без сакрального эквивалента жертвы [4, с. 158]. Безымянный герой предстаёт как «лишённый мифа» человек, оторванный от жизненной энергии космоса; его смерть – квазиритуал без перехода и «обратной дороги» [5, с. 123]. Структура образов *вода/камень/ночь* соотносится с моделью пороговости в понимании Бахтина [1, с. 219].

В *«Солнечном ударе»* солнце становится двусмысленным знаком судьбы – и даром, и ожогом [4, с. 241]. Краткая встреча оборачивается мифом о *«внезапном даре бытия»*, не подлежащем удержанию. Жара, свет, *«ослепительный полдень»* – семиотические маркеры высшей силы, которая возвышает героев и тут же бросает их обратно, оставляя *«ожог памяти»* [3, с. 31]. Здесь деталь функционирует как знак контакта с сакральным миром [2, с. 61].

В *«Тёмных аллеях»* повторяемость мотивов *встречи и неузнавания*, лесной дорожки, дождя и сумерек создаёт рамку *«мифа о несвершившейся судьбе»* [4, с. 312]. Архетип утраты рая переносится в сферу любви: рай – это возможность взаимного узнавания, утраченная навсегда [6, с. 138]. Природа здесь не фон, а содраматург: *«запах мокрых ветвей», «тяжёлые тени аллей», «платье, чуть касающееся травы»* формируют ритуальную атмосферу памяти и искушения [2, с. 65].

Сквозной мотив пути сопряжён с архетипом порога: дорога, тракт, гостиница, купе – «пороговые» пространства, где человек меняет состояние [1, с. 221]. Переход часто остаётся незавершённым, что создаёт эффект внутреннего раскола. Так формируется тип *«приглушённого мифа»*, работающего через свет, запах, жест – через деталь, а не через прямое мифологическое имя [2, с. 68]. Сезонный цикл (лето – полнота, осень – *«тихая катастрофа»*, зима – *«прозрачность памяти»*) соотносится с идеей «вечного возвращения» М.Элиаде [3, с. 34] и со структурной повторяемостью функций по концепции В.Я.Проппа [5, с. 127].

Таким образом, малая проза И.А.Бунина демонстрирует органическую интеграцию мифопоэтических структур в реалистическую повествовательную систему: архетип утраты рая, хронотоп пути и порога, сакральное время *«полдня и осени»*, природа как носитель высшего смысла. Миф у Бунина не декларируется, а действует через повтор, деталь, ритуальность повседневного жеста; из единичной сцены проступает универсальный закон бытия – всё даровано как встреча и всё отнято временем. Так «приглушённая мифопоэтика» становится конструктивным принципом мировидения Бунина, соединяя философскую глубину и эмоциональную чистоту его малой прозы.

Литература

1. Бахтин М.М. *Формы времени и хронотопа в романе*. Вопросы литературы и эстетики. М.: Художественная литература, 1975.
2. Лотман Ю.М. *Анализ поэтического текста*. Л.: Просвещение, 1972.
3. Элиаде М. *Миф о вечном возвращении*. М.: Академический проект, 2010.
4. Бунин И.А. *Избранные произведения*. М.: Художественная литература, 1987.
5. Пропп В.Я. *Исторические корни волшебной сказки*. Л.: Наука, 1986.
6. Лакшин В.Я. *Иван Бунин*. Литературные портреты. М.: Советский писатель, 1988.

Shohsanam ALIMJANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti

POLISEMANTIK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK IYERARXIYASI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi polisemantik frazeologik birliklar semantik va stilistik jihatdan tahlil qilingan. Frazeologik birliklarning etimologik ildizlari, semantik taraqqiyoti va uslubiy funksiyalari yoritilib, polisemiyaning metaforik kengayish va kontekstual qo'llanish orqali shakllanishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: polisemiya, frazeologik birliklar, semantika, stilistika, etimologiya, metaforik kengayish.

Аннотация. В статье рассматриваются полисемантические фразеологические единицы узбекского языков с семантической и стилистической точек зрения. Анализ охватывает этимологические корни, семантическое развитие и стилистические функции фразеологические единицы, показывая, как полисемия формируется через метафорическое расширение и контекстуальное употребление.

Ключевые слова: полисемия, фразеологические единицы, семантика, стилистика, этимология, метафорическое расширение.

Frazeologik birliklar tilning semantik va stilistik boyligini ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ularning ko'p ma'nolilik (polisemantiklik) xususiyati tilshunoslikda alohida e'tibor talab qiladi, chunki frazeologik birliklar semantik taraqqiyot jarayonida turli konnotativ, metaforik va uslubiy ma'nolarni hosil qiladi. Shu jihatdan, polisemantik frazeologik birliklarni semantik va stilistik nuqtai nazardan o'rganish tilning ichki qonuniyatlarini ochib berish bilan birga, ularning madaniy va kommunikativ funksiyalarini ham yoritib berish uchun xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning etimologiyasi ularning dastlabki frazeologik birlik sifatida shakllanish bosqichi, tarixiy ildizlarini va prototipik ma'nosini aniqlashga yordam beradi. Bu asos ma'no keyingi taraqqiyotda turli semantik kengayishlarga zamin yaratadi. Polisemiya hodisasi jarayonida frazeologik birlikning asosiy ma'nosi kontekstual va metaforik yo'nalishlarda rivojlanib, yangi semantik qatlamlar hosil qiladi. Natijada frazeologik birlik bir nechta ma'no darajalariga ega bo'lib, ularning o'zaro iyerarxiyasi shakllanadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning uslubiy qo'llanilishi tilning badiiy, publitsistik va og'zaki nutq uslublarida turlicha namoyon bo'ladi. Uslubiy rang-baranglik frazeologik birliklarning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi va ularni nutqda ekspressivlik, obrazlilik hamda pragmatik ta'sir vositasiga aylantiradi. Ushbu tadqiqotmizning maqsadi ham frazeologik birliklarning semantik va stilistik jihatlarini etimologiya, polisemantik taraqqiyot va uslubiy qo'llanilish nuqtai nazaridan tahlil qilishdir. Bu orqali frazeologik birliklarning ichki semantik tizimi, ma'no iyerarxiyasi va uslubiy funksiyalari aniqlash hamda ularning tilshunoslikdagi nazariy va amaliy ahamiyati yoritishdan iborat.

Frazeologik birliklarda polisemiya hodisasi tilshunoslikda ko'p qirrali yondashuvlarni talab qiladi. Tilshunoslar Y.Revin va K.Likoklarning ta'kidlashicha, "polisemiya – so'zning bir nechta o'zaro bog'liq ma'nolarga ega bo'lishi, ya'ni semantik noaniqlikning eng murakkab ko'rinishlaridan biridir" [1: 1–29]. Bu fikr frazeologik birliklarda ham to'liq namoyon bo'ladi, chunki frazeologik birliklar ham turli kontekstual hamda stilistik xususiyatlar asosida polisemiyaga uchraydi. Tilshunos I.Falkum esa polisemiyani "monosemiya va omonimiya o'rtasidagi oraliq hodisa" sifatida ko'rsatadi. Uning fikricha, frazeologik birliklarda polisemiya nutqiy kontekstda deyarli muammo tug'dirmaydi, ammo nazariy tasniflashda murakkablik keltirib chiqaradi [2].

Frazeologik birliklarning stilistik jihatlari ham alohida e'tibor talab qiladi. Tilshunos Y.Kovalyuk frazeologik birliklarni kognitiv stilistik nuqtai nazaridan tahlil qilib, "frazeologik birliklar metaforik asosga ega bo'lib, nutqda emotsional va ekspressiv ta'sirni kuchaytiradi" [3: 158] deya ta'kidlaydi. Bu yondashuv frazeologik birliklarning semantik iyerarxiyasi bilan birga ularning stilistik funksiyalarini ham ochib beradi. Shuningdek, tilshunoslikda frazeologik birliklar "ko'p so'zli, leksik jihatdan mustahkamlangan birliklar" sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning stilistik jihatlari ham alohida tadqiqot talab qiladi. Xususan, tilshunos R.Gleyzer frazeologik birliklarning stilistik potensialini janr tahlili nuqtai nazaridan ko'rib, ularning pragmatik vazifasi va madaniy xususiyatlarini ochib bergan [4: 125]. Umuman olganda, ta'kidlangan nazariy fikrlar frazeologik birliklarda polisemiya hodisasini etimologik jihatdan, semantik kengayish va stilistik qo'llanish nuqtai nazaridan ochib berishda yordam beradi hamda frazeologik birliklarning ma'no iyerarxiyasini tavsiflashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning semantik tizimini to'liq anglash uchun, avvalo, ularning etimologik ildizlarini aniqlash muhimdir. Har bir frazeologik birlik tarixiy, madaniy yoki ijtimoiy voqelik bilan bog'liq bo'lib, dastlabki davrda konkret ma'noga ega bo'lgan hamda bu etimologik asoslar frazeologik birliklarning bazaviy ma'nosini belgilab beradi. Etimologik asos ma'no vaqt o'tishi bilan polisemantik taraqqiyotga uchraydi. Frazeologik birlik dastlabki prototipik ma'nosidan kengayib, metaforik va konnotativ qatlamlarga ega bo'ladi. Shu jarayonda yuz beradi:

– metaforik kengayish: frazeologik birlikning asosiy ma'nosi obrazli ifodaga aylanadi (*Qovog'i soliq – 1. Xafa, ranjiganidan qovoqlari odatdagidan quyi holatda; 2. Quyuq qora bulutlar bilan burkangan*).

– kontekstual o'zgarish: nutq sharoitida yangi semantik variantlar yuzaga keladi *(Mazasi yo'q – 1. Sog'lig'i yomon; 2. Layoqati sust; 3. Yomon, sifatsiz (mahsulot); 4. Fe'li og'ir).*

– madaniy-pragmatik taraqqiyot: Frazeologik birlik milliy-madaniy kod orqali yangi ma'nolarni qabul qiladi *(O'g'il bola – 1. Hotamtoy, mard; 2. Mardonavor).*

Frazeologik birliklarning semantik taraqqiyoti ularning uslubiy qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq. Badiiy adabiyotda frazeologik birliklar obrazlilik va ekspressivlikni kuchaytirsa, publitsistik matnlarda ularning metaforik ma'nosi ijtimoiy hodisalarni ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Og'zaki nutqda esa frazeologik birliklar ko'proq emotsional va pragmatik vazifani bajaradi. Shu tariqa, frazeologik birliklarning etimologik ildizi, polisemantik taraqqiyoti va uslubiy qo'llanilishi ularning semantik iyerarxiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning semantik taraqqiyoti ularning stilistik qo'llanilishi bilan uzviy bog'liqdir. Har bir frazeologik birlik o'zining ko'p ma'noliligi orqali turli nutq uslublarida

alohida vazifani bajaradi va tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi, masalan:

– Frazeologik birlikar badiiy matnlarda obrazlilik va emotsional ta'sirni kuchaytiradi. Polisemantik frazeologik birliklar metaforik kengayish orqali ko'p qirrali talqinlarni yuzaga keltiradi, bu esa stilistik jihatdan personajlarning nutqini jonlantirish va milliy koloritni aks ettirilishini ta'minlaydi.

– Frazeologik birliklar publitsistik matnlarda ijtimoiy hodisalarni ta'sirchan ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi va ushbu birliklarning konnotativ ma'nolari orqali o'quvchiga kuchli emotsional va baholovchi ta'sir ko'rsatadi.

– Frazeologik birliklar og'zaki nutqda emotsional va pragmatik vazifani bajaradi. Polisemantik taraqqiyot natijasida ular turli kontekstlarda yangi ma'nolar kasb etadi. Stilistik jihatdan ular nutqni jonlantiradi, muloqotni samimiy va ta'sirchanliligi uchun xizmat qiladi.

Masalan, o'zbek tilidagi "sabza urmoq" polisemantik frazeologik birligining ma'no taraqqiyotini tahlil qiladigan bo'lsak, frazeologik birlikning komponenti bo'lgan "sabza" so'zi qadimiy turkiy etimologiyaga ega bo'lib, "yashillik", "ko'kat", "o'suvchi o'simlik" ma'nolarini bildiradi. *Urmoq* fe'li esa bu yerda "paydo bo'lish", "ko'rinish berish" semasini ifodalagan va quyidagi kontekstda "yer sathini ko'm-ko'k bo'lib qoplay boshlamoq" ma'nosini ifodalagan: *"Endi sabza urib kelayotgan ko'katlarning, hali ochilmagan o'rik gulining muattar hidlarini taratib yengil shamol esmoqda" (O.Yoqubov, Bahor kunlaridan birida).*

Sabza urmoq dastlab tabiatning bahor faslida yashillikka burkanishi jarayonini ifodalovchi ibora sifatida shakllangan bo'lsa, stilistik jihatdan badiiy matnda ifodaviylikni oshirish maqsadida personajning ko'rinishini tasvirlashda qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin: *"Deraza yonida endigina sabz urgan mo'ylovi teskari qo'yilgan qoshga o'xshash bir yigit vagonning g'ildirak qoqishi muqomiga allaqanday bir kuyni xirgoyi qilib borar edi" (A.Qahhor, Oltin yulduz).*

Ushbu kontekstda frazologik birlik metaforik kengayish asosida "inson hayotidagi yangilanish, yoshlik, kuch-quvvat ramzi" sifatida qo'llanilgan. Shu tariqa, ibora semantik jihatdan tabiat hodisasidan boshlab, insoniy holat va ruhiy yangilanishga qadar kengaygan. Frazeologik birlik polisemantik shaklda obrazlilik va poetik ekspressivlikni kuchaytirish uchun ishlatiladi deyish mumkin.

Qo'l qovushtirmoq frazeologik birligi esa qadimiy turkiy odat va an'anadan kelib chiqqan. Qo'llarni tirsakdan bukib, ustma-ust qoringa qo'yish qadimda hurmat ramzi sifatida ishlatilgan jismoniy harakatdir. Shu harakat asosida bu birikma frazeologik birlikka aylangan va turli kontekstlarda kengayib, itoat qilish va keyinchalik loqayd bo'lish kontekstual ma'nolarida ishlatila boshlanganini ko'rish mumkin:

1. Qo'llarini tirsakdan egib, ustma-ust qoringa qo'yib hurmat ifodalamoq: *"Yetti yashardan yetmish yashargacha unga salom beradi, qo'l qovushtiradi" (Oybek, Qutlug' qon).*

2. Mutelik bilan itoat qilmoq: *"Lekin men bir narsaga xursandman: kechagina har kimga qo'l qovushtirib yurgan, hech kimning yuziga tik qarolmagan Kapsanchilar bugun ... ko'rdingizmi, hech kimdan tap tortmaydi" (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).*

3. Biror tadbir-chora ko'rishga intilmaslik, loqayd munosabatda bo'lmoq: *"Paxta ekishga faqat biz javobgar-u, MTS qo'l qovushtirib tura beradimi? Insofdanmi shu?" (R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi).*

Misollar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birlik dastlab jismoniy harakat sifatida shakllangan, keyinchalik ijtimoiy munosabat va metaforik kengayish orqali semantik jihatdan ko'p qirrali til birligiga aylangan hamda frazeologik birlikning ma'no iyerarxiyasi quyidagicha shakllangan, ya'ni semantik jihatdan hurmat → itoat → loqaydlik bosqichlari orqali polisemantik taraqqiyotga ega bo'lgan.

Quloq solmoq frazeologik birligi esa bevosita jismoniy harakat, ya'ni quloqni tinglash jarayoniga yo'naltirishdan kelib chiqqan:

– *Normat qo'shiqqa quloq solib o'tiraverdi. (S.Ahmad, Ufq).*

Solmoq fe'li bu yerda "yo'naltirmoq, qaratmoq" semasini bildiradi.

Demak, frazeologik birlikning dastlabki shakllanishi tinglash, e'tibor berish harakati bilan bog'liq hamda shu ma'noga bog'liq holda frazeologik birlik semantik jihatdan kengayib, "itoat qilish" ni ifodalash uchun qo'llangan:

– *Tajriba uchastkasi Kanizak zvenosidan ajratilishiga Zokir ota sira ko'nmay turib oldi. Ibrohimov unga tushuntirishga harakat qildi, chol quloq solmadi. (A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari).*

Frazeologik birlik semantik jihatdan tinglash → itoat qilish bosqichlari orqali polisemantik taraqqiyotga ega bo'lgan, stilistik jihatdan esa badiiy obrazlilikdan ijtimoiy munosabat ifodasigacha bo'lgan keng qo'llanish imkoniyatiga ega bo'lgan.

O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning polisemantik taraqqiyoti asosan tabiat hodisalari, xalq urf-odatlari va kundalik hayotiy tajribalarga tayanadi. Har bir frazeologik birlik dastlab jismoniy harakat yoki konkret voqelikni ifodalasa, keyinchalik metaforik kengayish orqali ko'p qirrali semantik qatlamlarga ega bo'ladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarda polisemiya hodisasi etimologik jihatdan asos ma'no → derivativ ma'nolar → metaforik kengayish → kontekstual qo'llanish bosqichlari orqali shakllanadi. Stilistik jihatdan polisemantik frazeologik birliklar badiiy matnda obrazlilik va milliy koloritni kuchaytirishda foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ravin Y., Leacock C. Polysemy: An overview // In Polysemy: Theoretical and computational Approaches. – Oxford University Press, 2000. – P. 1–29.
2. Falkum I.L., Vicente A. Polysemy: Current perspectives and approaches. – London, 2015. – P. 1–39.
3. Kovaliuk Y. Connecting idioms and metaphors: Where Cognitive Linguistics Meets Cognitive Stylistics // B.A.S Journal, 2024, 30. – P. 157–170. https://doi.org/10.35923/BAS.30.15.
4. Gläser R. The Stylistic potential of phraseological units in the light of genre analysis // In A.P.Cowie (ed.), Phraselogy: Theory, analysis, and applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998. – P. 125 – 143.
5. Bayjigitov O.I. O'zbek lingvokulturologik frazeologizmlarining assotsativ talqini // O'zbekiston Milliy axborot agentligi // O'zA ilm-fan bo'limi, 2022, 11 (37). – B. 185–191.
6. Hakimova G.E. Frazeologik birliklarning lingvokulturologik aspekti. – Toshkent, 2018. – 126 b.

Sevinch AZAMATOVA,
Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 2-bosqich talabasi

"IKKI KARRA IKKI – BESH" QISSASIDA QO'LLANGAN SON KOMPONENTLI IBORALAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'.Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" qissasida uchraydigan son komponentli frazeologik birliklarning semantik, stilistik va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda sonlar obraz yaratish, personaj xarakterini ochish, muallifning satirik maqsadini kuchaytirish kabi funksiyalarda qo'llanadi. Tadqiqot davomida "ikki karra ikki", "yetti uxlab", "bir og'iz gap" kabi sonli iboralarning tarkibiy qurilishi, kontekstual ma'nosi hamda badiiy-estetik vazifalari o'rganildi. Shuningdek, son komponentli iboralar orqali o'zbek xalqining an'anaviy tafakkuri, miqdoriy timsollar tizimi va madaniy kodlari namoyon bo'lishi ilmiy asosda ko'rsatib berildi.
Kalit so'zlar: son komponentli frazeologizmlar, sonlar semantikasi, lingvomadaniy tahlil, badiiy matn, frazeologik birlik, stilistik vazifa, kontekst.
Annotation. This article analyzes the semantic, stylistic, and linguocultural features of phraseological units with numeral components found in U. Hoshimov's novella "Ikki karra ikki besh" ("Two Times Two Is Five"). In the work, numerals are used to create imagery, reveal character traits, and enhance the author's satirical intent. The study examines the structural composition, contextual meanings, and artistic–aesthetic functions of numeral-based expressions such as "ikki karra ikki," "yetti uxlab," and "bir og'iz gap." The research also scientifically demonstrates how these expressions reflect the traditional worldview, quantitative symbolism, and cultural codes of the Uzbek people.
Keywords: numeral-based phraseological units, semantics of numerals, linguocultural analysis, literary text, phraseological unit, stylistic function, context.
Аннотация. В данной статье анализируются семантические, стилистические и лингвокультурологические особенности фразеологических единиц с числовым компонентом, встречающихся в повести У.Хошимова «Икки карра икки беш». В произведении числительные используются для создания образов, раскрытия характеров персонажей и усиления сатирического замысла автора. В ходе исследования изучены структурное построение, контекстуальное значение и художественно-эстетические функции числовых выражений, таких как «ikki karra ikki», «yetti uxlab», «bir og'iz gap». Кроме того, научно обосновано раскрытие через данные единицы традиционного мировоззрения узбекского народа, системы количественных символов и культурных кодов.
Ключевые слова: фразеологизмы с числовым компонентом, семантика числительных, лингвокультурологический анализ, художественный текст, фразеологическая единица, стилистическая функция, контекст.

Sonlar qadim turkiy tafakkurda nafaqat miqdoriy birlik, balki ramziy, mifopoetik hamda madaniy mazmun yuklaydigan til unsuri hisoblanadi. Badiiy matnda son komponentli iboralar obraz yaratish, vaziyatni bo'rttirish, kinoya, istehzo, mubolag'a va satira kabi uslubiy vositalarni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'tkir Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" qissasida ham son komponentli iboralar mazmuniy-estetik strukturaning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif tomonidan qo'llangan frazeologizmlar qahramonlar xarakterini ochish, g'oyaviy yo'nalishni mustahkamlash, jamiyatdagi illatlarni badiiy talqin etish kabi vazifalarni bajaradi. Ushbu maqolada qissada uchraydigan ayrim son komponentli iboralar tanlanib, ularning semantik, funksional va lingvomadaniy tahlili beriladi.

Tilshunoslikda son komponentli iboralar tarkibida sanoq, tartib yoki ramziy son shakli qatnashgan frazeologik birliklardir. Ular ikki xususiyati bilan ajralib turadi:

1. **Miqdoriy belgi** ifodalaydi: "bir og'iz gap".
2. **Ramziy-semantik mazmun** yuklaydi: "yetti uxlab tushiga kirmaslik".

Frazeologizmlardagi sonlar ko'pincha real miqdorni bildirmaydi, balki **kattalik, ko'plik, uzun muddat, keskinlik, keskin baho, bo'rttirish** kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek xalq og'zaki ijodi, urf-odatlarida 3, 7, 9, 40 kabi sonlar alohida semantik yuk tashiydi. O'.Hoshimov ijodida ham tarkibida son qatnashgan iboralar ko'pchilikni tashkil etadi. Quyida O'.Hoshimovning *"Ikki karra ikki besh"* qissasida uchraydigan shunday iboralardan ayrimlarini tahlilga tortamiz.

O'zbek tilida "uylanish" tushunchasi ko'plab iboralar orqali ifodalanadi. Masalan, *boshi ikkita bo'lmoq, bir boshi ikki bo'lmoq, orzu-havas ko'rmoq*. Bu iboralar so'zlashuv, rasmiy, badiiy, diniy, uslublarda xalqona, hazilomuz va hatto salbiy ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Yuqoridagi iboralar o'zaro ma'nodosh bo'lsa ham, lekin **nutq uslubiga, ijtimoiy vaziyatga va gender xususiyatlariga** qarab nutq vaziyatida tanlanadi. Adabiy lug'atlarda qayd etilmagan, ammo so'zlashuv uslubiga xos xalqona frazeologik birlik hisoblangan "oyog'i to'rtta bo'lmoq"ning qo'llanishi kontekstual bo'lib, uylanish// oila qurish jarayonini obrazli tarzda ifodalaydi. Ushbu ibora **frazeologik neologizm** sifatida baholanishi mumkin, chunki u hozirgi frazeografik manbalarda mavjud emas, ammo matn tarkibida muayyan stilistik ma'no kasb etadi. Bu ibora o'zbek tilida faol bo'lmagan, lekin badiiy matnlar uchun xos bo'lgan **ot + son + fe'l** tipidagi strukturaga ega. Mazkur model ko'proq metaforik frazemalar yaratishda uchraydi, biroq ibora tarkibiga "son" komponentining qo'shilishi alohida obrazlilik beradi. Iboradagi asosiy semantik yuk "to'rt" soni zimmasiga yuklanadi. Bu yerda to'rt soni *juftlik, ikki tomonning birlashuvi* semasini anglatadi: yakka odamning oyoqlari – *ikki*; uylangan, turmush qurgan juftlikning "birgalikdagi oyoqlari" – *to'rt*. Demak, sonning ko'chma ma'noda qo'llanishi orqali "oilali, juftli bo'lish" g'oyasi ramziy tarzda ifodalangan. Bu turdagi semantik ko'chish *metaforik sirkulatsiya* deyiladi, ya'ni real predmet belgisi (oyoqlar soni) abstrakt ijtimoiy holatga (uylanish) ko'chadi.

Qissada mazkur ibora ikki marta, Qo'shoqvoyning onasi va rais tomonidan qo'llangan: "Erta-indin singlingni uzatsak, seniyam *oyog'ingni to'rtta qilib qo'yamiz* [1: 117]. – Shodi! – Rais buva o'rnidan turib ketdi. Zo'raki iljaydi. – *Jo'rangni oyog'i to'rtta bo'lyapti*. Qutli bo'lsin demaysanmi, o'g'lim?" [1: 190]. Bu iboraning rais va Qo'shoqvoyning onasi tomonidan qo'llanishi nutq aktining norasmiyligini, oilaviy yaqinlikni, o'zaro quvonch ifodasini kuchaytirishga xizmat qilgan.

To'rt tomoning qibla – o'zbek xalq og'zaki ijodida va so'zlashuv nutqida keng qo'llanadigan, lingvomadaniy mazmun kasb etuvchi frazemalardan biridir. Mazkur ibora shaklan sodda ko'rinsa-da, unda xalqning diniy tasavvurlari, hayot falsafasi hamda kommunikativ-pragmatik maqsadlari mujassam. Qissada ushbu iboraning qo'llanishi kontekstga mos holda shartli ruxsat, erkinlik berish, "xohlagan yo'lingga ketaver" mazmunida ishlatilgan. Iboraning tuzilishi quyidagicha: *to'rt*

tomoning fazoviy-makon bildiruvchi determinant (aniq egasi bo'lgan adresantga qarata); *qibla* mukammal makon-yo'nalish markeri, sakral component *(bo'lsin / deb) ellipsi* – nutqda tushirilgan predikativ unsurlar frazemaning barqarorligiga xos. Demak, ibora **predikatsiyasiz, ammo semantik jihatdan butun** bo'lgan frazeologik birlikdir.

Qibla so'zi o'zbek xalq madaniyatida muqaddas yo'nalish, pokiza makon, ibodat markazi, tartib va to'g'rilik ramzi sanaladi. Bu so'zning ibora tarkibiga kiritilishi tasodifiy emas: *barcha yo'llar ochiq, istagan tomoning ham xayrli, senga to'sqinlik yo'q* mazmunlarini kuchaytiruvchi sakral semantik bo'yoq beradi. "To'rt" soni turkiy dunyoqarashda to'rt unsur (yer, suv, havo, olov); to'rt yo'nalish (sharq, g'arb, shimol, janub) kabi tushunchalar bilan uyg'un. "To'rt tomoning qibla" iborasida to'rt soni **butun makon, to'liq erkinlik** tushunchasini keltirib chiqaradi. Qibla o'zbek xalq tafakkurida orqa o'girib bo'lmaydigan, hurmat qilinadigan, to'g'rilik timsoli sifatida qabul qilinadi. Shundan kelib chiqib, iboraning mazmuni **"qaysi tarafga qarasang – barchasi yaxshi, xayrli".** Demak, ibora nafaqat "ketaver", balki "sendan norozi emasmiz, yo'ling ochiq" kabi ijobiy pragmatik fonni ham o'z ichiga oladi.

Lingvomadaniy xarakterdagi iboralarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ularning tarkibiy qismiga o'zgartirish kiritish mumkin emas. Masalan, *to'rt tomoning qibla* iborasini *to'rt tomoning farishtalar* yoki *to'rt tomoning makon* kabi variantlar bilan almashtirish mumkin emas. Qissada Qo'shoqvoy paxta terish voqeasini hikoya qilarkan, voqeaga xos hazilomuz, bolalarcha shikoyatomuz ohangda iborani qo'llaydi: *"Marhamat qilib, yigirma kilodan paxta terib berasiz-da, keyin to'rt tomoningiz qibla!"* [1: 26]. Bu yerda gap *ruxsat berish*, *shart qo'yish*, *nazoratni vaqtincha bekor qilish* semalariga ega.

Paxta terishning mashaqqatli jarayoni fonida *to'rt tomoning qibla* iborasining tantanavorligi *semantik kontrast* hosil qiladi. Bu kontrast badiiy matnning yumoristik xususiyatini oshiradi. Iboraning semantik bahosi aynan "qibla"ning muqaddasligi bilan o'lchanadi; shu bois mazkur frazema o'zbek tilida **"to'liq erkinlik, yo'lning ochiqligi, to'siqsizlik"** ma'nolarining obrazli ifodasi sifatida yashab kelmoqda.

Ko'zi to'rt bo'lmoq o'zbek tilidagi son komponentli frazeologizmlardan bo'lib, uning asosiy ma'nosi **intizor bo'lib kutmoq**dir [7: 263]. Iboraning shuningdek, **ikkilanib, xavotir bilan kuzatmoq**, **ko'pdan beri kelmayotgan narsani kutish**, **umid ila qarab turmoq singari ma'nolari ham mavjud.** Iborada sonning *real matematik qiymati emas*, balki **kuchaytirish** va **psixologik holatni ifodalash** funksiyasi ustuvor. **Iboraning asosiy komponenti sanalgan** *ko'z* – shaxsning diqqat-e'tibor markazi, ichki holatining tashqi belgisi. *To'rt bo'lmoq* fe'li son orqali "kuchaygan holat", "tabiiy shakldan chiqish", "o'zgacha holatga kirish" ma'nosini beradi.

O'zbek xalqona tafakkurida **"to'rt"** soni to'liqlik (to'rt fasl, to'rt tomon), barqarorlik, yakuniylik, kattalik singari ramzlarni anglatadi. Frazeologizm tarkibida "to'rt"ning qo'llanishi **kuchaytirish**, "cheksiz darajaga yetkazish" ma'nosini beradi. Ya'ni ko'z odatiy holatdan chiqib, "to'rtlik darajaga" yetishi *kutishning eng yuqori cho'qqisi* ramzi.

Qissada ibora qahramonning ichki holatini kuchli hissiy bo'yoqda berish maqsadida qo'llangan: *Dadam meni anchadan beri ko'zi to'rt bo'lib kutayotgan edi* [1]. Mazkur gapda xavotir, intizorlik, uzoq kutishdan charchoq, sabrsizlik ma'nolari ham ifodalangan. Chunki *ko'zining to'rt bo'lishi* badiiy tasvirni jonlantiradi, holatni ko'zni oldiga keltiradi. O'zbek madaniyatida ko'z **ruhiy holat oynasi**, **sabr belgisi**, **umidning ramzi** sifatida talqin qilinadi. Shuning uchun ibora xalq mentalitetidagi **kutish madaniyati**, **yaqin insonni sog'inish** singari qadriyatlarni aks ettiradi. *Ko'zi to'rt bo'ldi* deyish orqali xalq ongida uzoq kutgan odamning ko'zlari kattalashib, yo'lga tikilib, umid bilan qarab o'tirgan inson obrazi tiklanadi.

Xulosa shuki, O'.Hoshimovning "Ikki karra ikki besh" qissasida son komponentli frazeologizmlar asar g'oyasini ochishda, qahramon xarakterini tasvirlashda va satirik ruhni kuchaytirishda muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tarkibida son qatnashgan iboralar nafaqat miqdoriy belgi, balki ramziy-diskursiv mazmun tashuvchi birlik sifatida o'zbek xalqining dunyoqarashi, qadriyatlari va madaniy kodlarini aks ettiradi. Muallif tomonidan ularning o'rinli qo'llanishi matnning badiiy-estetik ta'sirchanligini oshirgan, voqelikning kinoyaviy talqinini kuchaytirgan. Son komponentli iboralarni tizimli o'rganish o'zbek frazeologiyasi va lingvomadaniyatida sonlarning funksional imkoniyatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hoshimov O'. Ikki karra ikki besh. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
2. Abjalova M., Rashidova U. Til korpuslarida frazemalar bazasini yaratish omillari // "O'zbek tilining milliy korpusi: muammolar va vazifalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Samarqand, 2023. – B. 50–54.
3. Mamatov A. Frazeologik stilistika masalalari. – Toshkent: Navro'z, 1991. – 120 b.
4. Mamatov A. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2001, №3. – B. 46–49.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 tomlik. 2, 3-tom. – Toshkent, 2022.
6. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N. va boshqalar. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Qomuslar yosh tahririyati. – Toshkent, 2022. – 636 b.
7. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. – Toshkent: Fan, 1970.
8. Rashidova U. O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. – Samarqand, 2023.

Umidbek SAIDOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti

BADIIY KONSEPTNING INTERTEKSTUAL TRANSFERI: NAZARIY VA METODOLOGIK MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy matnning struktur-mazmun yaxlitligini belgilovchi badiiy konseptni aniqlash hamda uning tarjima jarayonidagi intertekstual transferini tahlil qilishga doir nazariy va metodologik yondashuvlar yoritiladi. Tadqiqot kognitiv paradigma asosida olib borilib, muallifning individual olam manzarasi konseptual tizimning markaziy elementi sifatida talqin etiladi. Konseptual

tahlil metodi doirasida struktur-semantik va kontekstual bosqichlar asoslanib, badiiy konseptning identifikatsiyasi, dominant-periferik xususiyatlari hamda validatsiya mexanizmi tavsiflanadi. Taklif etilgan metodologiya asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi semantik, estetik va madaniy siljishlarni aniqlash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: badiiy konsept, geshtalt konsept, individual olam manzarasi, konseptual transfer, intertekstual tahlil, kognitiv paradigma, struktur-semantik tahlil.

Annotation. This article explores the theoretical and methodological approaches to defining the artistic concept that determines the structural and semantic integrity of a literary text and analyzing its intertextual transfer during translation. The research is conducted on the basis of a cognitive paradigm, and the author's individual worldview is interpreted as a central element of the conceptual system. Within the framework of the conceptual analysis method, structural-semantic and contextual stages, the identification of the artistic concept, dominant-peripheral characteristics, and the validation mechanism are described. The proposed methodology allows for the identification of semantic, aesthetic, and cultural shifts between original and translated texts.

Keywords: artistic concept, gestalt concept, individual worldview, conceptual transfer, intertextual analysis, cognitive paradigm, structural-semantic analysis.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические и методологические подходы к определению художественного концепта, определяющего структурно-содержательную целостность художественного текста, и анализу его интертекстуального трансфера в процессе перевода. Исследование проводится на основе когнитивной парадигмы, и индивидуальная картина мира автора интерпретируется как центральный элемент концептуальной системы. В рамках метода концептуального анализа описываются структурно-семантические и контекстуальные этапы, идентификация художественного концепта, доминантно-периферийные характеристики и механизм валидации. Предлагаемая методология позволяет выявить семантические, эстетические и культурные сдвиги между оригинальными и переводными текстами.

Ключевые слова: художественный концепт, гештальт-концепт, индивидуальная картина мира, концептуальный трансфер, интертекстуальный анализ, когнитивная парадигма, структурно-семантический анализ.

XX asr oxirlari va XXI asr boshlaridan boshlab filologik sohalarda, xususan, tilshunoslikda muallif taffakuridagi jarayonlarni o'rganish maqsadida matnlarni tahlilga tortish amaliyoti tilshunoslikda keng qo'llanilyotgan bo'lsa-da, tarjimashunoslikda sustkashtlik seziladi. Bu haqida Shahriyor Safarov shunday yozadi: "Kognitiv yondashuv hozirgi paytda tushunish, o'ylash, xotirlash, muammo yechimini izlash va tildan foydalanish kabi mental jarayonlar tadqiqi bilan qiziquvchi barcha fanlarda keng miqyosda joriy qilinmoqda. Tarjimashunoslik ham bundan chetda qolishni istamasligi shubhasiz" [1: 32]. Fikrimizcha ham, tarjimashunoslik sohasi muallif va tarjimon tafakkuri bilan bog'liq masalalarni chetlab o'ta olmaydi, ayniqsa badiiy matn tahlili kontekstida.

Demak, mulohazalarimiz "tarjima o'zi nima?" degan savoldan boshlanadi. Aynan shu savolga javobimizda tarjimani qaysi paradigmada anglashimiz ifodalangan bo'ladi. Bu esa ko'zlangan tadqiqotning ham nazariy ham metodologik asoslarini belgilab beradi. Shu bois, avval tarjimani talqin qilishdagi zamonaviy paradigmalarga va nazariyachilarning fikrlarini ko'rib chiqamiz.

Badiiy-estetik (lingvopoetik) paradigma. Tarjima so'z san'ati, badiiy-estetik hodisa sifatida talqin qilishga asoslanadi. Bunda e'tibor mazmunning to'g'ri yoki aniq yetkazilishiga emas, balki asarning badiiy qiymatini, uslubini, obrazlar tizimini, ritmini, estetik ta'sirini qayta yaratishga qaratiladi. Nazariyachilar fikri: Venedikt Vinogradov: "Tarjima – so'z sa'natining o'ziga xos mustaqil turi" [2: 8]; G'aybulla Salomov: "Adabiy-estetik hodisa, so'z san'ati" [3: 3]; Xayrulla Hamidov: "Tarjima – san'at" [4: 7].

Lingvistik/Lingvosemiotik paradigma. Tarjima asliyatdagi semiotik tizimda shakllangan matnni maqsad tilidagi semiotik tizimda qayta shakllanishi deb tushuniladi. Bunda formal yoki struktur-semantik ekvivalentlik markaziy tushuncha hisoblanadi. Tahlil tilning barcha: fonetik, morfologik, sintaktik, leksik sathlarida kechadi. Metodologik jihatdan strukturalizmga suyanadi. Nazariyachilar fikri: Nikolay Garbovskiy: "Tarjima – qayta ifodalash" [2: 8]; Leonid Stepanovich Barxudarov, "tarjima – tillararo transformatsiya" [2: 7]; Yakov Retsker: "Tarjima – asliyatdagi mazmunni to'laqonli aniq yetkazish vositasi" [2: 8]; Andrey Fyodorov, "Tarjima – asliyatga qaratilgan nutq mahsuli" [2: 8]; Roman Yakobson: "Tarjima – asliyat matnidagi semiotik birliklarni maqsad tilidagi semiotik birliklar yordamida qayta talqin qilish" [5: 234].

Kommunikativ (funktsional/pragmatik) paradigma. Tarjima formal ekvivalentlik emas, kommunikativ maqsad va ta'sir deb tushuniladi. Bunda muallifning maqsadi va retsipientning reaksiyasi markaziy tushuncha hisoblanadi. funktsional ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, kommunikativ tarjima kabi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. Nazariyachilar fikri: Aleksandr Shveytser: "Tarjima – bir taraflama yo'naltirilgan ikki bosqichli tillararo va madaniyatlararo muloqot jarayoni" [2: 7]; Piter Nyumark: "Kommunikativ maqsadni ko'zlagan vosita" [6: 13]; Ryurik Minyar-Belaruchev: "Ikki til vositasidagi muloqot" [2: 9]; Ergash Ochilov: "Turli tillarda muloqot qiluvchi kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi" [7: 6]. Yujin Nayda: "Tarjima – asliyat tilida yaratilgan xabarni maqsad tiliga maksimal tabiiy tarzda ifodalash" [8: 483].

Kulturologik paradigma. Tarjima mediativ vazifani bajaruvchi madaniyatlaroaro dialog vositasi sifatida, asliyat matni esa madaniyat va mafkurani aks ettirgan birlik sifatida tushuniladi. Kanon, domestikatsiya (milliylashtirish), forenizatsiya (chet ellashtirish) kabi tushunchalarga asoslanadi. Nazariyachilar fikri: Itamar Even-Zohar tarjimani polisistemadagi trasnfer sifatida talqin qiladi [9: 1–7]; Mishel Espanya va Mixael Verner tarjimani madaniy transfer vositasi deb bilishadi [10: 969]; Entoni Pim tarjimani intertekstual transfer deb hisoblaydi [11: 14].

Kognitiv paradigma. Asliyat muallifi ma'no yaratuvchi sub'yekt sifatida, tarjimon esa, muallif yaratgan ma'noni qayta talqin qiluvchi subyekt sifatida ko'riladi. Natijada ikki bosqichli ma'no yaratish jarayoni yuzaga keladi. Bu paradigmada tarjimaga asliyatda yaratilgan ma'lumotlarni qayta talqin qiluvchi, qayta tushunuvchi, qayta konstruksiyalovchi mental jarayon deb qaraladi. Natijada, konseptual struktura, metafora, allegoriya, freym, ssenariy kabi tushunchalar markazga chiqadi. Hozirgi kunda tarjimashunoslik sohasida kognitiv jarayonlarni o'rganishga e'tibor kam bo'lsa-da, lekin birinchi tamal toshini qo'yayotgan olimlar yo'q emas. Masalan: Shahriyor Safarov "Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari" [12: 300], Anorqulova Ozoda "O'zbek tilida "Ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini" [13], Karimova Saodat ""Baxt" konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida)" [14].

Badiiy konseptning intertekstual transferi masalalarini o'rganishda kognitiv paradigma asosida yondashishni maqbul deb hisoblaymiz. Shu yondashuvda tarjimani asliyat matnida yaratilgan muallifning olam manzarasini maqsad tiliga

ko'chirish jarayonini – transfer sifatida ko'rish mumkin. Bu esa konseptual, metaforik va tashbeh elementlarning asliyatda qanday ifodalanganini, tarjimada esa qanday o'zgarganini va nima sababdan o'zgarganini tahlil qilish hamda xulosalar chiqarish imkonini beradi. Agar tarjima trasnfer bo'lsa, unda asliyatdagi nimalar ko'chib o'tishi mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo "asliyat matnida nimalar mavjud?" degan masalani aniqlash zarur. Bu maqsadda rus filologi Mixail Yurevich Lotmanning "Структура художественного текста" (badiiy matnning strukturasi) monografiyasiga murojaat qilindi.

M.Y.Lotmanning nazariyasiga ko'ra, badiiy matn – **ko'p qatlamli (многослойность)** semiotik strukturaga ega ikkilamchi modellashtiruvchi tizimdir. Birlamchi modellashtiruvchi tizimi sifatida tabiiy til dunyoni bevosita tasvirlash va konseptualizatsiyalash imkonini beradi. Badiiy matn esa tilni material sifatida olib, uning asosida ikkilamchi semiotik model yaratadi. Natijada, tabiiy tilning kundalik, ijtimoiy funksiyasidan tashqari, unikal ikkilamchi kodlar va ma'no tizimi shakllanadi [15: 285]. O'ylashimizcha, Lotman nazariyasini badiiy matnga qo'llaganimizda quyidagi qatlamlilik kuzatiladi:

– **lingvosemiotik qatlam** – leksik-grammatik birliklardan tashkil topgan matinning yuzaki qatlami;

– metasemiotik qatlam – lengvosematik sathdagi birliklar asosida shakllangan ma'no tizimlari va lingvomadaniy konseptlar strukturalari;

– meta-metasemiotik qatlam – lingvomadaniy konseptlar majmuasi asosida shakllangan muallifning individual olam manzarasi, ya'ni badiiy konsept.

Tarjima jarayonida ko'chish bir vaqtning o'zida uch: lingvosemantik, metasemiotik va meta-metasemiotik qatlamlarda amalga oshadi.

Badiiy asar yaratilish jarayonida muallifning ma'lum bir dunyoqarashi, qadryatlar tizimi zaruriy asos bo'lib xizmat qiladi, aks holda matinning ichki mantig'i, semantik bog'liqligi va strukturaviy butunligi izdan chiqadi. Shu bois, badiiy konsept transferi tahliliga kirishishdan avval asliyat matnida qanday olam manzarasi aks etgannini aniqlash kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, qaysi konseptual tipga tayanishimiz kerakligini belgilashni talab qiladi. Chunki, kognitiv tilshunoslikda konseptning turli; ssenariy, skript, freym, geshtalt tiplari o'rganilgan bo'lib, ularning har biri muayyan turdagi ma'no strukturasi va tahlil metodikasini nazarda tutadi. Shunga ko'ra, tadqiqot maqsadiga erishishda aynan qaysi konsept tipi bilan ishlash ilmiy aniqlik talab etadi. Bu masalaga oydinlik kiritish maqsadida, zamonaviy o'zbek kognitologiya asoschisi Shahriyor Safarovning "Kognitiv tilshunoslik" risolisida bayon etilgan konseptlar tasnifi va ularning tahlil usullari metodologik asos sifatida tanlandi.

Ssenariy – biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir, deb ta'fir beradi Shahriyor Safarov. Ushbu namunaviy struktura ma'lum voqeylik bo'lagiga oid harakatlar, xolatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazo). Ssenariy tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo'lib sun'iy intelekt bo'yicha mutaxassislar R.Shenk va R.Ablsonlar kiritishgan va ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o'zaro bog'lanishini ko'rsatish uchun zarur [16: 35].

Skript – (inglizcha script so'zining tub ma'nosi "qo'lyozma, yozuv") namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqealarning me'yoriy ketma-ketligi namunasidir. Skript tarkibiy tuzilishi jihatidan ssenariyga juda ham yaqin turadi, xatto ayrim hollarda uni to'lig'icha takrorlaydi. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida, tizimiy bog'lanishi, ketma-ketligi hamda ushbu voqealarning stereotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifiy belgisi sifatida qaraladi [16: 38].

Freym – sun'iy intelekt va kognitiv fanlarda bilimlarni ifodalash uchun ishlatiladigan ma'lumotlar tuzilmasi yoki qolip. U o'z ichiga doimiy elementlar va ma'lum bir vaziyat, obyekt yoki hodisani tasvirlash uchun ma'lumot bilan to'ldirilgan slotlarni oladi. Masalan, freym xonani tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin, u yerda devorlar, oynalar, eshiklar va boshqa elementlar ko'rsatiladi. Ma'noni ma'lum bir vaziyat (ssena) bilan bog'lab izohlanadigan semantikaning yangi yo'nalishi **freym semantikasi** deb nomlanadi [16: 41].

"*Geshtalt* – olmoncha gestalt (obraz, struktura, yaxlit shakl) ma'nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlarning umumlashmasini anglatadi. Geshtalt nazariyasiga ko'ra mavjud bog'liklar asosida yuzaga keladigan yaxlitlik (umumiylik) avval alohida bo'laklar ko'rinishidagi elementlarning keyingi jamlanishidan iborat bo'lmasdan, balki ushbu yaxlitlikning ichki (strukturaviy) qonuniyatlari bilan belgilanadi. Geshtalt nazariyasiga ko'ra voqelikni idrok etish va ruhan his etish yaxlitlikni "ko'rish"dan boshlanadi" [16: 47].

Ssenariy va skript situativ, aniq bir holat bilan bog'liq bilimlarni aks ettirsa, freym aniq bir tushuncha doirasida mavjud barcha sistem-struktur bilimlarni nazarda tutadi. Geshtalt esa turli elementlar asosida yuzaga kelgan yaxlitlikni tushunishga xizmat qiladi. Muhimi shundaki, hosil bo'lgan obraz yoki mazmun undagi alohida sematikalarning oddiy yig'indisi emas, aksincha, shu elementlar o'rtasidagi munosabatlar negizida vujudga kelgan yangi, yaxlit va sifat jihatidan boshqa darajadagi ma'nodir. Masalan, "Oyning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u" maqolida yuzaga keladigan mazmun alohida so'zlarning oddiy yig'indisi emas, balki ularning o'zaro munosabati orqali shakllanadigan yaxlit va sifat jihatidan boshqa darajadagi yangi ma'nodir.

Fikrimizcha, asliyat matnidagi badiiy konseptni tahlil qilishda geshtalt nazariyaga tayanish kerak. Chunki, bizning asosiy tezisimiz shundan iboratki, badiiy matn muallifning ongida geshtalt shaklida namoyon bo'ladi. Chunki u muallif tafakkuridagi manzarani aks ettirgan "surat" bo'lib, u manzara ma'lum bir yaxlitlikka ega bo'lishi shart. Ushbu yaxlitlik badiiy matnning turli qatlamlari va lisoniy sathlarida elemetnlarning mustaqil semantikasiga xos bo'lmagan yangi obraz yoki mazmunni hosil qilish uchun birlashishi natijasida yuzaga keladi. Badiiy matnning struktur-mazmun yaxlitligini belgilovchi konseptni aniqlashda konseptual tahlil metodidan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Matnning konseptual tahlil metodi XX asrning oxirlari va XXI asrning boshlarida shakllanib kelayotgan ilmiy metod hisoblanadi. Ushbu metodning rivojlanishida Yelena Semyonova Kubryakovaning "Язык и знание. На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира" [17: 284], "*Концепт как операционная единица сознания и языка*" [18: 18], "Образ человека как концепт в языке и мышлении" [19: 25] kabi ilmiy ishlari asos bo'lgan. Keyinchalik metod I.ADanilenkoning "Выявление концептов-доминант в художественном тексте" [20], L.V.Millerning "Художественный концепт как смысловая и эстетическая

категория" [21: 39], I.A.Tarasovaning "Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения" [21], Y.V.Mileyko va I.V.Rus-Bryushininaning "Художественный концепт как объект лингвистического исследования" [22: 128], S.N. Zenkinning "Теория литературы: Проблемы и результаты" [23: 501] kabi filologlarning tadqiqotlarida yanada rivojlangan.

Konseptual tahlil metodi matnning meta-meta qatlamida yashirin bo'lgan muallifning individual olam manzarasini aniqlashga xizmat qiladi. Bu metod matndagi lingvosemantik, metaseiotik va meta-metasemiotik elementlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi. Natijada, matndagi yuzaki ifodalardan ko'ra chuqurroq, muallifning qunyoqarashi, qadryatlari, emotsional va idrokiy tajribasi aks etgan individual olam manzarasi namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, bu yondashuv tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etib, muallifning original tasavvurini boshqa til vositasi orqali ko'chish jarayonini ko'rish imkonini beradi.

Badiiy matnning **konseptual tahlil metodi** ikki bosqichli tuzilishga ega: 1-bosqich – struktur-semantik tahlil; 2-bosqich – kontesktual tahlil.

Struktur-semantik tahlil badiiy matnnning struktur-mazmunini belgilovchi obrazlarni va ularni yuzaga keltiruvchi lisoniy birliklarni struktur-semantik faktlar orqali aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Ushbu bosqichda quyidagi qadamlarda bajariladi:

Birinchi qadam – **lingvosemantik qatlam tahlili**. Matndagi barcha sintaktik birliklar aniqlanib, ularning semantik yuklamasi baholanadi.

Ikkinchi qadam – q**at'iy saralash va kartoteka tuzish.** Baholangan sintaktik birliklar qa'tiy saralash asosida, semantik jihatdan takroran namoyon bo'lgan sintaktik birliklar ajratib olinadi. Shu birliklar asosida matnning semantik o'zaklarini belgilovchi maxsus kartoteka shakllantiriladi.

Uchinchi qadam – **guruhlash va konseptlarni aniqlash.** Kartotekaga kiritilgan birliklar sematik umumiylik asosida guruhlarga ajratiladi. Bu jarayon matnning struktur-mazmunini shakllantirgan o'zak obrazlarni aniqlash imkonini beradi. O'zak obrazlar semantik maydonlarga ajratilgach, ular asosida yotgan konseptlar yuzaga chiqadi. Shu tarzda matnning metasemiotik qatlamiga kirilib, oddiy semantik qatlamdan chuqurroq konseptual strukturalarga o'tiladi.

To'rtinchi qadam – **statistik tahlil.** Sintaktik birliklar chastotasi asosida matnda eng ko'p va eng kam namoyon bo'lgan konseptlar aniqlanadi. Mazkur reyting muallif ongida qaysi konseptlar dominant, qaysilari esa periferik ekanligini ko'rsatadi.

Beshinchi qadam – **korrelyatsiya va taqqoslash.** Aniqlangan kalit konseptlar o'rtasidagi korrelyatsiyani o'rnatish uchun ular falsafiy, madaniy, tarixiy, diniy va boshqa turdagi g'oyalar bilan taqqoslanadi. Shu taqqoslash natijasida matnning struktur-mazmun yaxlitligini belgilab bergan mualiffning individual olam manzarasi yoki geshtalt konsept haqida asosli tushuncha hosil qilinadi.

Struktur-semantik tahlil bosqichining vizual modeli

1-qadam [lingvosemantik qatlam tahlili].

Matndagi barcha sintaktik birliklar aniqlanadi va ularning semantik yuklamasi baholanadi.

↓

2-qadam [qat'iy saralash va kartoteka tuzish].

Semantik jihatdan takroran namoyon bo'lgan birliklar ajratilib, matnning semantik o'zaklarini belgilovchi kartoteka shakllantiriladi.

↓

3-qadam [guruhlash va konseptlarni aniqlash].

Kartotekadagi birliklar semantik umumiylik asosida guruhlanadi: o'zak obrazlar asosidagi konseptlar yuzaga chiqadi va metasemiotik qatlam ochiladi.

↓

4-qadam [statistik tahlil].

Sintaktik birliklar chastotasi asosida konseptlar reytingi tuziladi: dominant va periferik konseptlar aniqlanadi.

↓

5-qadam [korrelyatsiya va taqqoslash].

Dominant konseptlar falsafiy, madaniy, tarixiy, diniy va boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi: muallifning individual olam manzarasi haqida asosli gipoteza hosil qilinadi.

Struktur-semantik tahlil orqali badiiy matnning yaxlitligini belgilovchi konsept bo'yicha gipoteza shakllangach, 2-bosqich kontekstual tahlil metodiga murojaat qilinadi.

Kontekstual tahlil metoddan maqsad struktur-semantik tahlil natijasida aniqlangan gipotetik badiiy konseptni tasdiqlash yoki inkor qilish. Ya'ni badiiy matnning meta-metasemiotik qatlamiga kiriladi. Bu bosqichga kalit konseptlar badiiy matn kontekstida o'zaro qanday munosabatga kirishayotgani o'rganiladi. Buning uchun konseptlar bosh qahramonlar va syujet bilan bog'liq holda chuqur tahlil qilinadi. Ushbu bosqichda quyidagi qadamlarda bajariladi:

Birinchi qadam – **nazariy tayanch.** Akademik manbalar asosida tahmin qilinayotgan badiiy konseptning barcha xususiyatlari o'rganiladi. Bu qadam matnda izlanadigan xususiyatlar uchun diagnostik mezonlar yaratadi.

Ikkinchi qadam – **qayta tahlil va korrelyatsiya.** Struktur-semantik bosqichida aniqlangan dominant va periferiya konseptlar qahramonlar obrazi, hatti-harakati, syujet chiziqlari va stilistik vositalar (metaforalar, tashbehlar va h.k.z.lar) bilan bog'liq holda qayta o'rganiladi. Bu jarayonning maqsadi – konseptlarning matn kontekstida qanday sinergiya hosil qilayotganini aniqlash, shuningdek, ularning gipotetik konsept xususiyatlariga qanchalik mos kelishini taqqoslashdir.

Uchinchi qadam – **validatsiya.** Taqqoslash natijasida olingan ma'lumotlar gipotetik konseptni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi. Agar gipoteza tasdiqlansa, u matndagi struktur-mazmun yaxlitligini belgilovchi asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, tarjima matni bilan intertekstual tahlilni amalga oshirish uchun tayanch nuqta sifatida xizmat qiladi.

Kontesktual tahlil bosqichining vizual modeli



Konseptual tahlil natijasida olingan struktur-semantik va kontekstual ma'lumotlar asliyat va tarjima matnlari orasidagi konseptual transferni kontrastiv tahlil qilish uchun mustahkam nazariy va lisoniy asos yaratadi.

Ushbu paragrafda badiiy konsept (muallifning individual olam manzarasi)ni aniqlash va uning maqsad tiliga ko'chish jarayonini o'rganishga asos bo'ladigan nazariy-metodologik asoslar bayon qilindi va quyidagicha xulosalarga kelindi.

1. Tarjimadagi lingvomadaniy yoki badiiy konseptning intertekstual transferini o'rganishda kognitiv paradigma eng maqbul yondashuvdir. Chunki kognitiv qarashda asliyat matni muallifning individual olam manzarasini aks ettiruvchi agent sifatida talqin qilinadi, tarjima esa shu olam manzarasini boshqa til vositasida qayta yaratish jarayonidir. Bunday yondashuvda muallif yaratgan konseptual tizim yangi til sharoitida qanday transformatsiyaga uchraganini ko'rish va o'rganish mumkin bo'ladi.

2. Lotmanning nazariyasiga tayangan holda, badiiy matn lingvosemiotik, metasemiotik va meta-metasemiotik qatlamlardan iborat ko'p qatlamli semiotik tuzilma sifatida qaraladi. Tarjima jarayoni esa shu qatlamlarning har birida yuz beradigan transfer sifatida talqin qilinadi. Shu sabab asliyatdagi konseptual olam manzarasini aniqlash muhim hisoblanadi.

3. Asliyat matnidagi muallifning individaul olam manzarasini aniqlash uchun geshtalt nazariyasiga asoslangan ma'qul deb o'ylaymiz. Bu nazariyaga ko'ra matn muallif tafakkurida yaxlit bir surat shakilda namoyon bo'lgan va shu tarzda asarda aks etgan. Lekin bu yaxlitlik matndagi turli lisoniy sathlarda yashiringan bo'ladi. Ana shu yashirin yaxlitlikni aniqlash maqsadida konseptual tahlil metodiga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

4. Konseptual tahlil metodi asosida bajarilgan tahlil matnda yashirin bo'lgan muallifning individual olam manzarasini aniqlash va ushbu olam qaday lisoniy birliklar va vositalar yordamida yaratilganini bilish imkonini beradi. So'ng, olingan ma'lumotlar asosida tarjima matnining tahliliga o'tish va asliyatdagi konsept tarjimada qay darajada va qanday aks etganini o'rganish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov S.Sh. Tarjimashunsolikning kognitiv asoslari. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 300 b.
2. Горбовский Н.К. Теория перевода. Москва: МГУ, 2004. – 544 с.
3. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: TDSHI, 2016. – 191 b.
4. Hamidov X. Tarjima va san'at. – Toshkent: TDSHU, 2024. – 290 b.
5. Roman Jakobson Linguistic Aspects of Translation // On translation. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1959. – P. 232–239.
6. Newmark P. Approaches to translation (Language Teaching Methodology Senes). – Oxford: Pergamon Press, 1981. – 213 p.
7. Ochilov E. Tarjimashunoqlikning nazariy masalalari. – Toshkent: TDSHI, 2014. – 272 b.
8. Eugene A. Nida Science of Translation // Language, 1969. Vol. 45, №3. – P. 483–489.
9. Even-Zohar. Itamar Translation Theory Today: A Call for Transfer Theory // Poetics Today, 1981. Vol. 2, №4. – P. 1–7.
10. Michel Espange, Michael Werner La construction d'une référence culturelle allemande en France: genèse et histoire (1750–1914) // Annales. Économies, Sociétés, Civilisations, 42e année, No4, 1987. Pg. 969-992.
11. Pym A. Translation and Text Transfer (An Essay on the Principles of Intercultural Communication). – Tarragona: Intercultural Studies Group, 2010. – 215 pg.
12. Safarov S.Sh. Tarjimashunsolikning kognitiv asoslari. – Toshkent: Navro'z, 2019. – 300 b.
13. Anorqulova O.N. O'zbek tilida "ota" konseptining lisoniy-kognitiv talqini. – Samarqand: SDChTI, 2023.
14. Karimova S.S. "Baxt" konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o'zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida). – Buxoro: SDChTI, 2023.
15. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – Санкт-Петербург: Искусство – СПБ, 1998. – 285 с.
16. Safarov S.Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 96 b.
17. Кубрякова Е.С. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.
18. Кубрякова Е.С. Концепт как операционная единица сознания и языка. // Языки и культура: материалы международной конференции. – Москва: 1996. – С. 18-24.
19. Кубрякова Е.С. Образ человека как концепт в языке и мышлении // Вопросы философии. – Москва: 1997. – С. 18–25.
20. Даниленко И.А. Выявление концептов-доминант в художественном тексте // Филологические науки. – Белгород: БГУ, 2022. www.evestnik-mgou.ru.
21. Миллер Л.В. Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория // Общество и язык №4. – Санкт-Петербург: Мир русского слова, 2000. – С. 39-45.
22. Милейко Е.В., Рус-Брюшинина И.В. Художественный концепт как объект лингвистического исследования // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. – С. 128–130.
23. Зенкин С.Н. Теория литературы: Проблемы и результаты. М.: НЛО, 2017. – 501 с.

Dilniso YANDASHOVA,
Navoiy pedagogika universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

"HAQIQAT" VA "YOLG'ON" KONSEPTLARI PRAGMATIK XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

(Abdulla Oripov lirikasi misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy konseptlarning badiiy matnlarda ifodalanishi, aynan "haqiqat" va "yolg'on" konseptlarining A.Oripov ijodida ifodalanishi lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatdan tahlil qilingan. Madaniy konseptlarning til va madaniyat, milliy qadriyatlar va milliy-madaniy qarashlar bilan birgalikda misralarga simgdirilgani borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.
Kalit so'zlar: madaniy konsept, lingvokulturologiya, madaniy qadriyatlar, kognitivlik, badiiy idrok.
Annotation. In this article, the expression of cultural concepts in literary texts, namely the expression of the concepts "truth" and "falsehood" in the works of A.Aripov, is analyzed from a linguocultural and linguopragmatic point of view. It provides information that cultural concepts are interwoven with language and culture, national values, and national-cultural views in poetry.
Keywords: cultural concept, linguoculturology, cultural values, cognition, artistic perception.
Аннотация. В данной статье с лингвокультурологической и лингвопрагматической точек зрения анализируется выражение культурных концептов в художественных текстах, а именно выражение концептов «истина» и «ложь» в творчестве А.Арипова. Приведены сведения о том, что культурные концепты вплетены в стихи вместе с языком и культурой, национальными ценностями и национально-культурными взглядами.
Ключевые слова: культурный концепт, лингвокультурология, культурные ценности, познание, художественное восприятие.

Til egasi shaxsida milliy tafakkur, milliy qadriyatlar, ajdodlardan qolgan badiiy meros, milliy-madaniy qarashlar va ularni tilimizda ifoda etuvchi lingvokulturemalar, olamning lisoniy manzarasi orqali shakllanadi, tarkib topadi. Har bir inson o'zining ma'naviy va ruhiy dunyoqarashida o'z tasavvuriga, anglash va his qilish kabi tabiiy instinktlariga ega hisoblanadi. Har bir til egasi atrofni milliy bo'yoqlarda taniydi, anglaydi. Oq rangni oq, qora rangni esa qora ekanligini, albatta, o'z qarashlari va tafakkuri orqali anglab yetadi. Yuqorida ta'kidlangan misollarni yanada chuqurroq va aniqroq anglashimiz uchun esa badiiy asarlar, she'riy misralar bizga yordam beradi. Badiiy idrokning shakllanishi obrazli tafakkurning mahsuli ekanligi barchamizga ma'lum. Inson yaxshilik va yomonlikning farqi, vafo va hiyonat o'rtasidagi nomutanosiblik, haqiqat va yolg'onning inson hayotiga aloqasini, albatta, badiiy tafakkuri orqali tushunib yetadi. Shunday ekan, bugungi kunda inson shaxsiyatida, avvalo, tafakkurning o'rniga, aynan badiiy tafakkurning o'rniga ko'proq ahamiyat berilishi lozim. Haqiqat va yolg'on bugungi kun uchun ham eng dolzarb mavzulardan biri sanaladi. A.Oripov lirikasida haqiqatning qadri, yolg'onning zarbi inson hayotiga ta'sir darajasini shoir she'rlari orqali, badiiy o'xshatishlar yordamida aniq, ravon ifodalab bergan. "Haqiqat" konsepti Olshtain ta'kidlaganidek, vaziyatni to'g'rilashga qaratilgan harakat yoki so'zni talab qiladi [1]. "Haqiqat" konsepti bevosita adolat ortidan yuzaga chiqadi. Adolat bor joyda haqiqat bo'ladi. Abdulla Oripov "Tiriklik" sarlavhali she'rida hayot qiyinchiliklari, haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurashlar bilan bog'liq vaziyatlarni qalamga olib shunday deydi:

Kimga aytmoqdasan hasratingni, oh,
Sen shifo so'raysan bemordan nechun,
Qirq besh yil osmonga tikibman nigoh,
Oddiy haqiqatga yetmoqlik uchun.

Misrada o'zi haqiqatga, yaxshilikka va yorug' kunlarga tashna bo'lgan bemorga hasratini aytishi va bu dardlariga shifoni ham bemordan so'rash holati qirq besh yil yolg'onlar girdobida yashab, haqiqatni qidirgan lirik qahramonning holatini aniqroq tavsiflashga, "haqiqat" konseptining mazmunini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etgan. Shoirning yuqorida tahlilga tortgan ko'pgina she'rlaridan ham anglashimiz mumkinki, fikrni qisqa va ta'sirchan bayon qilish bu shoir shaxsiyatiga xos bo'lgan usullardan biri hisoblanadi. Albatta, inson ongida minglab so'zlar zaxirasi mavjud bo'lsa ham, ularning orasidan eng qisqa va ta'sir etishi kuchliroq so'zlarni tanlay olish ham bu shoirning so'z tanlash mahoratiga bog'liq. She'rning 3 misrasida *Qirq besh yil osmonga tikibman nigoh* ifodasi orqali shoir qirq besh yillik hayoti davomida o'tgan kunlarini ba'zilar shunchaki yashash deya qabul qilib, qadrsiz qilganliklarini nazarda tutadi. Qirq besh yil osmonga nigoh tikish "umri sarobga sovrilgan" degan pressuppozitsiyani hosil qilishi tabiiy, albatta. Shoir o'kinch va hasrat bilan umri davomida haqiqat axtarganligini ta'kidlaydi. Aslida "haqiqat" konseptining misrada ifodalanishi bu lingvokognitiv jihatdan ezgulik, insoniylik kabi pressupozitsiyalar zamirida shakllanadi. "Yolg'on" konsepti esa atrofdagilarga nisbatan nafrat, insoniylik mezonlarini to'liq anglamaslik va vaziyatlardan osongina o'z ustunligi evaziga chiqib ketish kabi holatlarning ortidan yuzaga keladi. A.Oripov lirikasida haqqa, haqiqatga erishish mushkul ekanligi, inson butun umri davomida haqni axtarib o'tishi ham ayni haqiqat ekanligi aytib o'tilgan. Shu o'rinda "Genetika" she'rining bir o'rnida shunday deydi shoir:

Tashna yashadik biz mehrga mutlaq
Ishqqa, muhabbatga tashna o'tdik biz.
Goh esa quyoshdek porloq va yiroq
Haqqa, haqiqatga tashna o'tdik biz.

Aslida, shoir yuqorida qidirib topa olmagan mehr, ishq, muhabbat– haqiqat bor yerda bo'lishini nazarda tutadi. Haqiqatni esa porlab turgan quyoshga o'xshatadi. Quyosh qanchalik porloq bo'lishi bilan birga shu qadar yiroqda ekanligi haqiqat bilan o'xshash jihatlar deya ta'riflanadi misrada. So'z tushuncha tashuvchisi hisoblanadi...So'z bilan o'zaro chambarchas bog'liq tushuncha unga o'xshash emas" [2: 456]. Shu o'rinda, G.V. Tokarev konseptning mazmun mohiyati va uning misralarda, badiiy matnlarda ifodalanishiga to'xtalar ekan, shunday xulosaga keladiki, konsept o'zida butuh insoniyat uchun muhim va zarur hisoblangan bilimlarning majmuyini ifoda etadi [3: 23]. Yuqorida ta'kidlagan fikrlarimizning isbotini A.Oripovning tahlilga tortgan barcha she'rlarida bilish mumkin. Quyida shoirning "Los-Anjeles ko'chalarida" sarlavhali she'ri orqali faqat bir insonga emas, balki butun jamiyatga tegishli bo'lgan holatlar, illatlar haqida fikr yuritiladi:

Manfaat ko'rmasa sendan agarda,
Mushuk ham oftobga chiqmas deydi, xalq.

Itday o'lib ketsang ushbu shaxarda,
Birov seni tekin ko'mmasligi haq.

Misrada assotsiativ bog'lanishlar asosida "haqiqat" konsepti yoritib berilgan. Manfaat ko'rmoq, mushuk oftobga chiqmas, itday o'lib ketish, tekin kabi so'zlar assotsiativ bog'lanib, "haqiqat" konseptini ifodalashga xizmat qilgan. She'rda ma'noni oydinlashtirish uchun so'nggi misrada haq so'zini keltirilishi ham bejizga emas. Ishonch hosil qilib aytilgan haqiqat ekanligini anglatish uchun ham shoir *mushuk tekinga oftobga chiqmaydi* kabi xalqimiz azal-azaldan foydalanib keladigan iborani misol tariqasida keltirib o'tadi. Madaniy konseptlar orqali olamni anglash, ular orqali yuzaga keladigan voqeliklar, hodisalarning ma'lum qismi orqali olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi. Aynan so'zlar va ular anglatadigan ma'no hamda mazmun vositasida olamning lisoniy manzarasi konseptual manzara bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi. "Olam so'z orqali ko'p o'lchovli, murakkab konseptlar tizimi vositasida aks etadi. Bunda ular orqali anglanadigan voqelikning ma'lum bir manzarasi, ya'ni dunyoning global konseptual manzarasining bir qismi bo'lmish olamning lisoniy manzarasi yuzaga keladi. Aynan so'z vositasida olamning lisoniy manzarasi konseptual manzara bilan bog'lanadi. Konseptlar dunyoning lingvistik manzarasini insonga ma'lum bo'lgan barcha mumkin bo'lgan diskursiv vaziyatlarga mos keladigan o'ziga xos "mikroolamlarga" bo'linish natijasida hosil bo'lgan alohida mental shakllanishlar sifatida, madaniyatning mavjudlik shakli...sifatida xizmat qiladi. Bunda konsept-so'z biror bir lingvomadaniy maydonni nomlaydigan kreativ birlik sifatida namoyon bo'ladi" [4: 52]. Haqiqatdan ham, inson olamni qanday ko'rinishda anglaganligini, uning lisoniy manzarasini konseptual olamiga qarab ham sezish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlamoqchimizki, "Badiiy asarda mutlaqo o'ziga xos, goh ochiq, goho yashirin, turli ishoralar, tagma'nolar, kosa tagidagi nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning ma'nosini to'g'ri anglash ma'naviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin bo'ladi" [5: 27]. Yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda quyidagilarni qo'shimcha qilmoqchimizki, konsept milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi mental tuzilma ekanligini inobatga olsak, unga yondashuv bu har bir ijodkorning idiostilidan kelib chiqadi. A.Oripov aynan, konseptlarning ifodalanishi va ularning real voqelikdagi voqea-hodisalarni qisqa, lo'nda shaklda o'zida mujassamlashtirishini she'rlari orqali to'laligicha anglata olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Olshtain E. and Cohen A. Apology: A Speech Act Set. w.w.w. shinshuu.ac.jp/ surcle.eu.html.
2. Кондаков Н.И. Логический словарь-справочник. Москва: Наука, 1975.
3. Usmanov F.F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. bo'y. fal. dok... diss. – Toshkent, 2020. – B. 23.
4. Гершанова А.Ф. Концепты «рай» и «ад» в языковой картине мира В.В. Набокова (по роману «Дар»). – Уфа: - 2003. 226 стр. Миронова Н.Н. Оценочный дискурс: проблемы семантического анализа / Изв. АН России Сер.Лит-ра и яз. – Москва: Наука, 1997. – С. 52–59.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

Gulasal XUSANOVA,
Farg'ona davlat universiteti ingliz tilini o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'ZBEK, INGLIZ VA KOREYS TILLARIDAGI GEYMONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI VA QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlarning (o'yin nomlari) lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda milliy o'yinlar nomlarining shakllanish tamoyillari, semantik tuzilishi va madaniy-tarixiy konteksti tahlil qilinadi. Uch xil til oilasiga mansub tillarning geymonimik tizimlaridagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash orqali o'yin nomlarida aks etgan etnolingvistik va lingvokulturologik hodisalar ochib beriladi. O'yin nomlarining nominativ xususiyatlari, strukturaviy tuzilishi va madaniy kodlarning aks etishi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: geymonimlar, o'yin nomlari, qiyosiy tilshunoslik, lingvokulturologiya, milliy o'yinlar, etnolingvistik, nominatsiya.

Annotation. This article comparatively examines the linguocultural features of geymonyms (game names) in Uzbek, English, and Korean. The study analyzes the principles of formation of national game names, their semantic structure, and cultural-historical context. The ethnolinguistic and linguocultural phenomena reflected in game names are revealed by identifying common and specific aspects of the geymonymic systems of languages belonging to three different language families. The nominative features of game names, their structural organization, and the reflection of cultural codes are examined.

Keywords: geimonyms, game names, comparative linguistics, linguoculturology, national games, ethnolinguistics, nomination.

Аннотация. В данной статье сравнительно изучаются лингвокультурологические особенности геймонимов (названий игр) в узбекском, английском и корейском языках. В исследовании анализируются принципы формирования названий национальных игр, их семантическая структура и культурно-исторический контекст. Этнолингвистические и лингвокультурологические явления, отраженные в названиях игр, раскрываются путем выявления общих и специфических аспектов геймонимических систем языков, принадлежащих к трем разным языковым семьям. Рассматриваются номинативные особенности названий игр, их структурная организация и отражение культурных кодов.

Ключевые слова: геймонимы, названия игр, сопоставительное языкознание, лингвокультурология, национальные игры, этнолингвистика, номинация.

Zamonaviy tilshunoslikda onomastika, xususan, o'yin nomlarini o'rganuvchi geymonimika alohida ahamiyat kasb etmoqda. Geymonimlar nafaqat o'yinlarni nomlash vositasi, balki ma'lum bir xalqning tarixiy xotirasini, madaniy qadriyatlarini, dunyoqarashini va o'yin madaniyatini anglash usullarini aks ettiruvchi muhim lingvistik material hisoblanadi [1: 366]. Har bir o'yin nomi o'zida xalqning tarixiy tajribasini, ijtimoiy munosabatlarni, etnik va madaniy xususiyatlarni mujassam etadi. Turli tizimli tillarga mansub geymonimlarning qiyosiy tahlili tillararo farqlar va o'xshashliklarni aniqlashga,

shuningdek, universal va milliy-o'ziga xos nominativ tamoyillarni ochib berishga imkon beradi.

O'zbek, ingliz va koreys tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning geymonimik tizimlarini qiyoslash lingvistik tipologiya va areal tilshunoslik nuqtai nazaridan juda qiziqarlidir. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning geymonimikasi qadimiy turkiy, forsiy va arabiy ta'sirlar qatlamlarini o'zida aks ettiradi [2: 320]. Ingliz tili german tillar oilasiga kiradi va uning o'yin nomlari tizimida keltik, anglo-sakson, skandinav va norman-fransuz qatlamlari kuzatiladi [3: 890]. Koreys tili genetik jihatdan munozarali bo'lgan, ammo ehtimol oltoy tillari bilan bog'liq til bo'lib, uning geymonimikasida xitoy va yapon ta'sirlari bilan bir qatorda o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi [4: 445]. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi o'yin nomlarining shakllanishida universal va milliy omillarning o'zaro ta'siri mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tavsifiy-tahliliy va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Geymonimlarning semantik tuzilishini o'rganishda komponent tahlil metodi, nominativ modellarni aniqlashda strukturaviy-semantik tahlil metodi qo'llanildi. Tadqiqot materiallari sifatida har uch tildagi eng keng tarqalgan milliy o'yin nomlari, etnolingvistik lug'atlar va ilmiy tadqiqotlar tanlab olindi. Maqolaning nazariy asosini V.A.Nikanorov, E.M.Murzaev, A.V.Superanskaya kabi mashhur onomastlar asarlari tashkil etadi [5: 382].

Geymonimika sohasida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularning aksariyati alohida tillarning o'yin nomlari tizimlarini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbek tilshunosligida E.Begmatov, T.Nafasov, N.Qo'chqorov kabi olimlar o'zbek milliy o'yinlari nomlarining shakllanish tarixini, semantik xususiyatlarini va tasnifini o'rganganlar [6: 168]. Ingliz geymonimikasi bo'yicha A.H.Smith, E.Ekwall, K.Cameron kabi tadqiqotchilarning fundamental asarlari mavjud bo'lib, ularda Britaniya orollaridagi o'yin nomlarining kelib chiqishi va rivojlanishi batafsil yoritilgan [7: 266]. Koreys milliy o'yinlar nomlanishi esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol o'rganila boshlandi va Kim Jung-bae, Lee Ki-moon singari tadqiqotchilar koreys geymonimlarining tarixiy qatlamlarini va xitoy tilining ta'sirini tahlil qilganlar [8: 523].

Qiyosiy geymonimika sohasida esa nisbatan kam ishlar bajarilgan. Turli tillardagi o'yin nomlarini qiyoslash orqali universal nominativ tamoyillarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar asosan milliy o'yinlar terminlarining qiyoslanishiga bag'ishlangan. Masalan, E.M.Murzayev o'zining klassik asarlarida turkiy va mo'g'ul tillaridagi o'yin terminlarini taqqoslagan, ularning etimologiyasi va semantik rivojlanishini ko'rsatgan [9: 653]. Ammo o'zbek, ingliz va koreys kabi tipologik jihatdan turli tillardagi geymonimlarning kompleks qiyosiy tahlili hali ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bunday tahlil nafaqat konkret tillarning o'yin nomlari tizimlarini tushunishga, balki geymonimlarning universalligi va milliy o'ziga xosligi muammolarini hal qilishga ham xizmat qiladi.

O'rganilgan uch tildagi geymonimlarning qiyosiy tahlili bir qator muhim lingvokulturologik xususiyatlarni aniqlashga imkon berdi. Birinchidan, barcha uch tilda geymonimlarning shakllanishida o'yin jarayonining tabiati va xarakteri muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida "Uloq" (echki terisi bilan ot ustida o'ynash), "Chavgon" (tayoq bilan to'p haydash), "Ko'pkari" (ot poygasi) kabi nomlar o'yin predmeti yoki uning bajarilish usulining kombinatsiyasidan tashkil topgan. Ingliz tilida "Hide-and-seek" (yashirin-qidirish), "Hopscotch" (sakrash-chizish), "Tag" (tutish) singari nomlar ham xuddi shunday tamoyil asosida vujudga kelgan. Koreys tilida esa "Yutnori" (sayohat o'yini), "Tuho" (o'q otish), "Jegichagi" (latti tepish) kabi geymonimlar mavjud. Bu universal nominativ tamoyil o'yin faoliyatining idrokida inson idrokining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi.

Ikkinchidan, har uch tilda harakatlar va fe'llardan hosil bo'lgan geymonimlar keng tarqalgan. O'zbek tilida "Quvlashmachoq" (quvlash harakati), "Kurash" (kuch sinash), "Arqon o'yin" (arqon tortish) kabi o'yin nomlari bevosita harakat nomlaridan kelib chiqqan. Ingliz o'yin nomlanishida "Running" (yugurish), "Wrestling" (kurash), "Boxing" (boks) kabi nomlar fe'l asoslaridan va harakat nomlari qo'shilishidan hosil bo'lgan [10: 592]. Koreys tilida esa "Ssireum" (koreyscha kurash), "Neolttwigi" (sakrash taxtasi), "Gonu" (halqalar o'yini) kabi nomlar harakatlar va o'yin elementlari bilan bog'liq. Ammo bu jarayonning mexanizmlari har bir tilda o'ziga xos: o'zbek tilida ko'proq oddiy fe'l shakllari saqlanib qolgan, ingliz tilida esa gerundiy va otlashgan shakllar ancha muntazam shakl olgan.

Uchinchidan, madaniy-tarixiy qatlamlar har uch tilda turlicha namoyon bo'ladi. O'zbek geymonimikasida turkiy, forsiy va arabiy qatlamlar ajralib turadi, bu mintaqaning ko'p asrlik madaniy aloqalarini aks ettiradi. "Uloq" nomida turkiy element, "Chavgon" nomida forsiy ta'sir, "Podachi" qo'shimchali nomlarda turkiy-forsiy sintez kuzatiladi. Ingliz o'yin nomlanishida keltik, anglo-sakson, skandinav va norman qatlamlari mavjud. "Shinty", "Hurling" kabi nomlar keltik kelib chiqishiga ega, "Cricket", "Football" nomlari anglo-sakson elementlarni o'z ichiga oladi, "Rounders" esa frantsuz ta'sirini ko'rsatadi. Koreys geymonimikasida esa xitoycha qatlamlar kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ko'pgina o'yin nomlari xitoycha iyerogliflar bilan yoziladi va xitoy tilidan o'zlashtirilgan elementlarni o'z ichiga oladi, ammo so'z yasalishi qoidalari koreys tiliga xos.

To'rtinchidan, o'yin predmetlari va jihozlarining geymonimlar tarkibidagi roli har bir tilda o'ziga xos tarzda amalga oshadi. O'zbek tilida "Tosh o'yin" (tosh bilan o'ynash), "Durra" (arqon bilan o'ynash), "Chorichanbar" (ro'mol bilan o'ynash) kabi predmet nomlari mustaqil yoki tarkibiy qism sifatida ishlatiladi. Ingliz tilida "Ball games" (to'p o'yinlari), "Bat and ball" (tayoq va to'p), "Dice" (zar o'yinlari) predmet nomlari ham xuddi shunday funksiyaga ega. Koreys tilida esa "Gonggi" (toshcha o'yini), "Neol" (taxta), "Yut" (tayoqcha) kabi predmet nomlari ko'pincha o'yin nomi tarkibiga kiritilgan holda qo'llaniladi. Biroq, bu predmet nomlarining sintaktik pozitsiyasi tillarda farq qiladi: o'zbek va koreys tillarida predmet nomi ko'proq postpozitsiyada, ingliz tilida esa prepozitsiyada joylashadi.

Beshinchidan, geymonimlarning semantik motivatsiyasi tillararo qiyoslashda qiziqarli natijalar beradi. O'zbek tilida hayvonlarning semantik roli juda katta: "Ko'pkari" (echki terisi), "Bo'ri va qo'ylar" (bo'ri va qo'zi), "Xo'roz urishtirish", "Qo'chqor urishtirish", "Bedana urishtirish" kabi nomlar hayvonot olami bilan bog'liq va ma'lum simvolik ma'nolarga ega. Ingliz tilida ham hayvonlar ishlatiladi ("Leapfrog" – qurbaqa sakrash, "Fox and Geese" – tulki va g'ozlar), ammo ularning semantik diapazoni nisbatan tor. Koreys tilida hayvonlar ham muhim rol o'ynaydi, lekin ular ko'proq ramziy va falsafiy ma'nolarga ega: "Yut" o'yinida hayvonlar ierarxiyasi (sigir, ot, qo'y, cho'chqa) ijtimoiy tuzumni anglatadi. Bu farqlar xalqlarning dunyoqarashi va madaniy kodlarining turli xil ekanligini ko'rsatadi.

Oltinchidan, geymonimlarning morfologik tuzilishi va so'z yasalish modellari har uch tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O‘zbek tilida geymonimlar ko‘pincha tarkibiy so‘zlar shaklida namoyon bo‘ladi: “Quvlashmachoq” (quvlash+machoq), “Echkicho‘p” (echki+cho‘p), “Podshoh o‘yin” (podshoh+o‘yin) kabi nomlar ikki yoki undan ortiq komponentning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan va bu turkiy tillarning agglutinativ xususiyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, o‘zbek o‘yin nomlanishida *-machoq, -moq* kabi qo‘shimchalar orqali harakat nomlarini yasash an’anasi kuchli rivojlangan. Ingliz tilida geymonimlarning morfologik tuzilishi ancha murakkab bo‘lib, ularda qadimiy grammatik shakl qoldiqlari saqlanib qolgan: “Hide-and-seek” (bog‘lovchi vositalar bilan), “Hopscotch” (ikki fe’lning qo‘shilishi), “Tug-of-war” (prepozitsion konstruksiya). Koreys tilida esa geymonimlar asosan ikkita printsip asosida shakllanadi: xitoycha iyerogliflarning koreyscha o‘qilishi (“Janggi’ – koreyscha shaxmat o‘yini) va milliy koreys so‘zlarining ishlatilishi (“Neolttwigi” – “neol” sakrash, “ttwigi” taxta). Muhimi shundaki, koreys tilida geymonimlarning yozma va og‘zaki shakllari ko‘pincha farq qiladi, chunki xitoycha iyerogliflar koreyscha talaffuz qilinadi, bu esa ikki darajali nominativ tizimni hosil qiladi. Bu strukturaviy farqlar har bir til tizimining tipologik xususiyatlarini, shuningdek, tarixiy madaniy kontaktlarning natijasini yaqqol namoyon etadi va geymonimlarning milliy lingvistik dunyoqarashda tutgan o‘rnini belgilaydi.

O‘zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlarning qiyosiy tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Birinchidan, barcha uch tilda o‘yin nomlarining shakllanishida universal tamoyillar mavjud: o‘yin jarayoni xususiyatlarini aks ettirish, harakatlar va predmetlar asosida nomlash, madaniy-tarixiy qatlamlarning mavjudligi. Bu tamoyillar insonning o‘yin faoliyatini idrok etishining umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi. Ikkinchidan, har bir tilning geymonimik tizimi o‘ziga xos milliy xususiyatlarga ega bo‘lib, ular xalqning tarixiy taqdiri, madaniy aloqalari va dunyoqarashini aks ettiradi. O‘zbek geymonimikasi ko‘p madaniyatli va ko‘p tillilik sharoitida shakllanganligini, ingliz geymonimikasi turli etnik qatlamlarning ketma-ket qo‘shilishi natijasida rivojlanganligini, koreys geymonimikasi esa o‘z milliy asosi va xitoy ta’sirining sintezini namoyish etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, geymonimlar tilning muhim qatlami bo‘lib, ular orqali xalqning qadimiy tarixiga, uning hayot tarziga va atrofdagi olamni anglash usullariga kirib borish mumkin. Turli tillardagi geymonimlarning qiyosiy o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix, etnografiya va boshqa fanlar uchun ham qimmatli material taqdim etadi. Kelajakda o‘zbek, ingliz va koreys tillaridagi geymonimlarning chuqurroq qiyosiy tahlili, ularning strukturaviy tipologiyasi, derivatsion modellari va pragmatik xususiyatlarini o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday tadqiqotlar tillararo kontaktlar, madaniy aloqalar va lingvistik universallar muammolarini hal qilishda muhim hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Суперанская А.В. Общчая теория имени собственного. Москва: Наука, 1973. – 366 с.
2. Begmatov E. O‘zbek ismlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2006. – 320 b.
3. Smith A.H. English Place-Name Elements. – Cambridge: Cambridge University Press, 1956. – 890 p.
4. Lee Ki-moon. Hangukŏ ŏhwisa yŏn’gu (Studies in Korean Language History). – Seoul: Taehaksa, 1991. – 445 p.
5. Murzaev E.M. Ocherki toponimiki. – Moskva: Mysl’, 1974. – 382 s.
6. Nafasov T. O‘zbek toponimlarining lug‘aviy-semantik tahlili. – Toshkent: Fan, 1988. – 168 b.
7. Cameron K. English Place Names. – London: B.T. Batsford, 1996. – 256 p.
8. Jung-bae K. Hanguk jimyeong yeongu (A Study of Korean Place Names). – Seoul: Seoul National University Press, 2008. – 523 p.
9. Мурзаев Э.М. Словарь народнйкҳ географичэскикҳ терминов. Москва: Мйслъ, 1984. – 653 с.
10. Mills A.D. A Dictionary of British Place-Names. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 592 p.

Abdulvosit GULOBOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

NOZIL XO‘JANDIY DEVONINING TARKIBIY TUZILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilgan yirik shoirlardan biri – Avaz Muhammad Nozil Xo‘jandiy devoni qo‘lyozmalarining tarkibiy tuzilshi va janr xususiyatlari yoritilgan. Qo‘lyozma namunalari adabiy manbashunoslik va matnshunoslik uchun muhim manba bo‘lib, unda shoirning badiiy merosi, janrlarni qo‘llash tartibi, adabiy-estetik qarashlarini ko‘rishimiz mumkin. Tadqiqot davomida aniqlangan ma’lumotlar Nozil Xo‘jandiy devonining ilmiy-nazariy o‘rganilishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon, qo‘lyozma, devon, g‘azal, muxammas, 1033 nusxa.

Annotation. This article examines the structural composition and genre features of the manuscript collections (divans) of Avaz Muhammad Nozil Khojandiy, one of the prominent poets who created in the literary environment of Kokand in the 19th century. The manuscript samples serve as an important source for literary source studies and textual criticism, providing insights into the poet’s artistic heritage, the arrangement of genres, and his literary-aesthetic views. The findings obtained during the research serve as a basis for the scholarly and theoretical study of Nozil Khojandiy’s divan.

Keywords: Kokand, manuscript, divan, ghazal, mukhammas, 1033 copies.

Аннотация. В данной статье раскрываются композиционная структура и жанровые особенности рукописных диванов одного из крупнейших поэтов XIX века, творивших в Кокандской литературной среде, – Аваз Мухаммада Нозил Ходжандий. Образцы рукописей являются важным источником для литературного источниковедения и текстологии, позволяя увидеть художественное наследие поэта, порядок использования жанров и его литературно-эстетические взгляды. Полученные в ходе исследования сведения служат научно-теоретической основой для дальнейшего изучения дивана Нозила Ходжандий.

Ключевые слова: Коканд, рукопись, диван, газель, мухаммас, 1033 экземпляра.

Yozma manbalarni bugungi kunimizga xizmat qildirish uchun bunday manbalarni yig‘ish, tartibga solish, ularning atroflicha tavsiflarini yaratish lozim (tavsif – har bir manbaning asosiy belgilari, xususiyatlari va tarkibi haqidagi muayyan tartibga solingan ma’lumotlar majmuidir). Tavsif jarayonida manbalar, avvalo, ijrosiga ko‘ra hillanib qoladi.

Bu hillanish (tasnif – sinflarga bo'lish ma'nosida) ularni o'rganish, tushunish, tadqiq etish, zarur ma'lumotni osonlik bilan topishga imkon yaratadi.

Mumtoz adabiyotdagi devonlar ham ana shunday yozma manbalar sirasiga kiradi. Devon tarkibidagi lirik asarlarning joylashuvi, tarkibiy tuzilishi, janrlar o'rtasidagi nisbat va badiiy shakllarning xilma-xilligi shoirning poetik qarashlari va ijodiy individualligini belgilaydi. Shuning uchun devonning tarkibiy tuzilishini aniqlash, undagi she'riy janrlar: g'azal, qit'a, ruboiy, muxammas, musaddas, fard, soqiynoma va boshqa janrlarning o'zaro munosabatini o'rganish matnshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi [2: 15]. Ushbu maqolada Noziliy Xo'jandiy devonining mavjud qo'lyozma nusxalari asosida uning janriy tarkibi, she'rlaridagi janr xususiyatlari, tuzilish prinsiplari va shoirning janr tanlashdagi o'ziga xos uslubi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

1033-nusxa tarkibi va janr xususiyatlari. Ushbu nusxa qayerda saqlanishi va tashqi va ichi belgilari haqida avvvalgi faslda aytib o'tgan edik. Bu faslda devon qo'lyozmasining tarkibiy tuzilishi va janr xuxusiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Devondan ko'rinadiki, qo'lyozma Noziliy qalamiga mansub bo'lgan va tojik hamda o'zbek tillarida bitilgan she'riy namunalardan tarkib topgan. Umumiy olganda devon 5704 baytni o'z ichiga oladi. Undagi she'riy janrlar quyidagi tartibda joylashtirilgan:

G'azallar. Qo'lyozmada g'azallar 3a–6a, 9a–11a, 13a–17a, 176–26a, 276–49b, 50a–51b, 52a–68b, 696–74a, 75b–103b, 104b–111a, 112a–125b, 126a–128a, 129b–146b, 1416–123a, 1446–183b, 184b–187a, 188b–196b, 223b–224a, 231b–233a, 235a–240, 240b, 250b, 244a–245b sahifalarda berilgan bo'lib, jami 594 g'azal (4262 bayt)ni tashkil etadi. Shundan 275 g'azal (2200 bayt) tojik tilida, qolgan qismi (2062 bayt) o'zbek tilida yozilgan.

Muxammaslar. Muxammas janriga mansub she'rlar qo'lyozmaning 8a–86, 10a–106, 17a–176, 27a–27b, 49a–51a, 52b–53a, 103b–104b, 111a–122a va 129a–129b, 141a–141b, 143b–144b, 183b–184b, 196b–197b, 198b–199a sahifalarda jami 15 muxammas, 95 band (238 bayt) mavjud. Shundan 9 muxammas – 56 band (140 bayt) tojik tilida, qolganlari o'zbek tilida. Tojikcha muxammaslardan bittasi (9 band) Xoja Hofiz g'azaliga, yana bittasi (6 band) Shohqosim g'azaliga tatabbu' qilingan. Qolgan sakkiz muxammas – shoirning asliy ijodidir.

Ruboiylar. 9a–96, 198b–220b, 247b–252b sahifalarda jami 272 ruboiy (544 bayt) berilgan. Shundan 180 ruboiy (360 bayt) tojik tilida, qolgan qismi o'zbek tilida. Noziliy 272 ruboiyning 18 tasini Tiroziy taxallusi bilan yozgan. Ruboiy bo'limida shoirning topqir, ziyrak fikrlash unsurlari ham seziladi. Noziliy 88 ruboiyni bevosita zarb-ul-masal asosida yaratgan, shuning uchun bu ruboiylar mazmunan ancha yuksakdir. Shuningdek, 6 ruboiy musaddas shaklida bitilgan.

Qit'alar. 198–118, 183b–198b, 220b–222b, 227b–232a, 230, 253a–2366, 234a–2356, 192a–2436, 22, 22a, 228, 228b sahifalarda joylashgan bo'lib, jami 398 baytni tashkil etadi. 18 qit'a (180–184 bayt) tojik tilida, qolgan qismi o'zbek tilida.

Qasidalar. 266, 686–696, 125b–126b, 233a–233b sahifalarda jami 4 qasida (78 bayt) bor. Shundan 2 tasi (50 bayt) tojikcha, qolganlari o'zbekcha. Qasidalardan biri (19 bayt) Amir Umarxon (1809–1822) madhiga, biri (23 bayt) va ikkinchisi (11 bayt) Muhammad Alixon (1822–1842) madhiga bag'ishlangan. Yana bir qasida noma'lum hokim madhiga bitilgan bo'lib, unda maqtov sifati aniq ko'rinmaydi.

Masnaviylar. 220b–222a, 222b–223b, 230a–231a sahifalarda 3 masnaviy (97 bayt) mavjud. Shundan 2 masnaviy (56 bayt) tojik tilida, qolgan qismi o'zbekcha.

Musammatlar. 66–76, 74a–756, 128b–129b, 188a–188b sahifalarda 4 musammat (107 bayt) joylashtirilgan. Shundan 3 musammat (86 bayt) tojik tilida, qolgan qismi o'zbekcha. Shuningdek, shoirning marsiya janridagi uch she'ri musallas, murabba yoki muxammas shaklida bitilgan bo'lgani uchun musammatlar guruhiga kiritilishi mumkin. Umumiy hisobda devonda 3072 bayt tojikcha she'r mavjud: – 275 g'azal (2200 bayt), – 180 ruboiy (360 bayt), – 16 muxammas (140 bayt), – 2 qasida (50 bayt), – 2 masnaviy (56 bayt), – 3 musammat (86 bayt) [1: 21–22b].

12080/2 nusxa takibiy tuzilishi va janr xususiyatlari. Ushbu nusxa to'g'risida ham avvalgi faslda tashqi va ichki belgilar haqida ma'lumot berib o'tgandik, bu devon shoirning "Hajviyotnoma" asari tarkibida keladi, ya'ni 45 varaq (75a–119b) dan iborat. Nusxaning qolgan betlari "Hajviyotnoma" asari hisoblanadi. Devon qo'lyozma nusxasi 1052 bayt, 2104 misradan iborat. Undagi she'riy janrlar quyidagi tartibda joylashgan.

G'azallar. 75a-bet. Devon boshlanishi basmala bilan boshlanadi, 8 baytdan iborat g'azal janridagi she'r mavjud. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:



Olamda, ey hurliqo, bormu seningdek dilrabo,
G'amzang o'qig'a jon hadaf, har nozinga yuz jon fido.
Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:



Nodon kishi qilmas nazar, har baytim ustinda guhar,
Bilgay oni Nozil magar bu bahradur sohibshino.

75a-bet. Ushbu sahifada 7 baytdan iborat g'azal janridagi ikkinchi she'r mavjud. Quyidagi bayt bilan boshlanadi:

La'li nobing xandasig'a chashmi giryonim fido,
Rosti sarv-u qadingga gulshani jonim fido.
Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:



Ishva-u noz aylabon uydan chiqor bo'lsang agar,
Huv Noziliy dilxasta yanglig' xonavayronim fido.

76a-bet. Quyidagi bayt bilan boshlanuvchi 9 baytdan iborat g'azal berilgan:



Qildi mani ikki gul bulbuli sohib navo,
Avvali ismat pari so'ngrasi zebo ziyo.

Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:



Bul ikki zolim yetib qul qilib oldi sotib,
Noziliy qon yig'latib kun kecha shom-u sabo.

Ushbu sahifada ikkinchi 7 baytdan iborat g'azal ham mavjud, quyidagi bayt bilan boshlanadi:



Ayni inoyat yuzung mohi falak as'hob,
Zarra sargashtaga rahm qil oy oftob.
Quyidagi bayt bilan yakunlanadi:



Noziliydek bormukin har sari bayti uzra,
Mizmar etib bir haruf qilsa musammo xitob.

Muxammaslar. 75b–76a-betlarda turkiy tilda yozilgan muxammas keltirilgan, quyidagi band bilan boshlanadi.



Garchi bo'ldi ishq dashtida balo, munis menga,
Ke jununum ki gahi zanjiri po munis menga.
Goh anduhi malolat ki jafo munis menga,
Shukrkim layli sifat sohib safo munis menga.
Ya'ni ruxi oyina nuri Xudo munis menga.

77b–78a-betlar. Ushbu sahifalarda 5 bandan iborat turkiy tilida muxammas keltirilgan.



Iyd rux tushodi dilhoy dardmand,
Oshiq kushi gar sha'mi giroy sho'x arjumand,
Oraz bayoz safha nur ast dil band,
Obid far deb ishva furush raso kamand,
Jon bo'ynig'a salosil zulfi ayog'i band.

Musaddaslar. 76b–77a-betlar. Ushbu sahifalarda 6 banddan iborat musaddas mavjud. Quyidagi band bilan boshlanadi:



Ey ko'zlari sho'x jinsi noyob,
Dushman ravish-u ko'ngilga ahbob,
Hajring etibon zabun-u betob,
Siynamda alam ko'zumda xunob,
To jon ramqimdadur bahrbob,
Sen-sena tilakim hamisha qassob.

Qasidalar. 79a–79b-betlar. Ushbu sahifalarda bitta 13 baytdan iborat qasida keltirilgan, qasidaga "Qasida az du gavhar" deb sarlavha qo'yilgan. Qasida quyidagi bayt bilan boshlanadi:



To begona ekondur vujud dahra ikki gul basir,
Avvali zarrin qabo so'ngrasi zarrin kamar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki, Nozil Xo'jandiy ijodini to'laqonli o'rganish uchun devon tarkibini va janr xususiyatlarini batafsil tahlil qilish lozim. Nozil Xo'jandiy devoni davr adabiy muhitidan kelib chiqib turli janrdagi she'r shakllaridan tashkil topgan, unda g'azal janri boshqa janrga nisbatan salmoqliroq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov U. Noziliy Xuchandi. – Dushanbe: Donish, 1978.
2. Habibullayev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. – Toshkent, 2000.
3. Nozil Xo'jandiy. Devon. O'z FA Sharqshunoslik istituti. Asosiy fondi Inv: 12080/2.

Kaxramon SINDAROV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

SHE'RIY MATNLARDA LINGVISTIK BELGINING TIL SATHLARI ARO MUNOSABATI

(Pragmatik aspekda)

Annotatsiya. Ushbu maqolada she'riy matnlarning pragmastilistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, badiiy xoslangan til birliklarini aniqlashga alohida e'tibor beriladi. Tahlil jarayoni poetik mazmun bilan boyitilgan til vositalarini ham o'z ichiga oladi. Tadqiqot she'riy matnlarni lingvopoetik va pragmastilistik jihatdan tizimli o'rganish imkonini beradi, bu esa badiiy matnni yanada mukammal tahlil qilishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: poetik, sarkazm, anormal, deytik birlik, leksopragmatika, lingvopragmatika.

Annotation. This article is aimed at studying the pragmastilistic features of poetic texts and pays special attention to identifying artistically oriented linguistic units. The analysis process also includes linguistic means enriched with poetic content. The research allows for the systematic study of poetic texts from a linguopoetic and pragmastylistic perspective, creating a basis for a more comprehensive analysis of the literary text.

Keywords: poetic, sarcasm, anomality, deictic unit, lexopragmatics, linguopragmatics.

Аннотация. Данная статья направлена на изучение прагмастилистических особенностей поэтических текстов и особое внимание уделяется выявлению художественно-ориентированных языковых единиц. Процесс анализа также включает в себя языковые средства, обогащенные поэтическим содержанием. Исследование позволяет систематически изучать поэтические тексты с лингвопоэтической и прагмастилистической точек зрения, что создает основу для более совершенного анализа художественного текста.

Ключевые слова: поэтическая, сарказм, аномальность, дейктическая единица, лексопрагматика, лингвопрагматика.

Aslida bu sohani har bir sath birligi badiiy-estetik vazifa bajarishini inobatga olgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shunday ekan, fonopoetika, morfopoetika, sintaktik poetika masalalari jiddiy tadqiq obyekti bo'lmog'i lozim. Bu esa bevosita pragmastilistikaga ken yo'l ochadi. Poetik matnning pragmastilistik xususiyatlarini keyingi boblarda tahlil qilishni maqsad qilganligimiz sabali bu o'rinda batafsil to'xtalmadik.

O'zbek tilshunosligida ham istiqlol davrida lingvistik poetikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Bu sohada prof. I. Mirzayev. M.Yo'ldoshev, M.Yoqubbekova, G.Muhammadjonova, D.Ne'matova, L.Jalolova singari bir qator tadqiqotchilar samarali faoliyat olib bordilar. Ayniqsa, M.Yo'ldoshevning lingvopoetikaga bag'ishlangan monografiyasi ilmiy chuqurligi, mantiqiy izchilligi, nazariy fikrlarning amaliyotga uyg'unligi bilan ajralib turadi [1]. O'zbek tilshunos olimi A.Nurmonov ham xuddi shunday tahlil, ya'ni lingvopoetikani tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik vazifasini o'rganishiga qarab quyidagi qismlar bo'yicha tasniflaydi:

1. Fonetik poetika (FP)
2. Leksik poetika (LekP)
3. Sintaktik poetika (SP) [1]

Ushbu tasnif V.M.Jirmuniskiy tomonidan ilgari surilgan tasnifga o'xshash tarzda shakllantirilgan bo'lib, tilshunoslikning fonetika, morfologiya va sintaksis kabi sathlari doirasidagi lingvopoetik tahlil tamoyillariga asoslanadi. Biroq bu yerda lingvopoetik termini ifodalovchi birikmalar tarkibidagi so'zlar o'rni biroz o'zgartirilgan: masalan, an'anaviy *poetik fonetika* iborasi o'rniga fonetik poetika, ya'ni so'zlarning joylashuvi aks ettirilgan holda belgilangan. Shu tarzda terminologiya poetika tahlilida yangi yondashuv va intuitiv tushuncha hosil qilishga xizmat qiladi. Berilgan tasniflar tilshunoslikning barcha sathlarini keng qamrab olmagan bo'lsa ham, olimning trminlarni qo'llashdagi mazkur qarashlari masala mohiyatini to'g'ri ifodalaydi, chunki lingvopoetika lingvistikaning alohida yangi sohasi sifatida badiiy asar tilini o'rganuvchi yangi yo'nalishlardan biri hisoblanib, lingvopoetik poetik tahlil jarayoni faqatgina adabiyotshunoslikka oid poetik sathni eams, balki muayyan til sathiga doir poetik vositalarni o'rganadi. Shu sababli ham A.Nurmonov taklif etgan terminlar o'zbek tishunosligida sohaning rivojlanishi hamda ushbu birliklar lingvopoetika tarmog'ini alohida qat'iy bir tizim asosida o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik birliklarning pragmatik jihatdan til sathlariaro munosabati qanday? She'riy matnning lingopragmatik xususiyatlari, bu imkoniyatlarni yuzaga keltiruvchi omillarni o'rganish, tilning ijtimoiy mohiyatini aniqlash uchun zarurdir. Sh.Safarovning "Til tizimi taraqqiyotining boshlang'ich nuqtasi (davri) pragmatikadan boshlanadi [5]" – kabi fikriga qo'shilish mumkin. Chunki, til birinchi navbatda so'zlovchining shaxsiy kommunikativ maqsadi, istagi, niyati, foydasi uchun xizmat qilishi ma'lum. Shu bois, badiiy matn yaratishda tildan foydalanish jarayonida ijodkorning (ya'ni til shaxsining) individual xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnni shakllantirish jarayoni – personaj nutqini individualizatsiya qilish, muloqot nutqini moslashtirish, portret, peyzaj va poetik obrazlarni yaratish, shuningdek, leksik-frazeologik boyliklardan va ifoda-tasvir vositalaridan samarali foydalanish – to'liq yozuvchining mahorati va iqtidoriga bog'liqdir.

Pragmatika tilshunoslikning alohida sohasi bo'lib, uning tadqiqot doirasi muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlash, ularni oqilona qo'llash hamda shu birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta'sirini chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ushbu qoidalar va tamoyillar kommunikatsiya shart-sharoitlariga mos ravishda, keng ma'nodagi kontekst sifatida tahlil qilinadi, bu esa til birliklarining amaliy ishlatilishi va ularning funksional rolini aniqlash imkonini beradi. Lisoniy hodisalarni shunday yo'sinda tahlil qilish ularning qo'llanishida yuzaga keladigan turli muhitlar, mavjud to'siqlar, chegaralashlar va cheklovlarni aniqlashga imkon beradi. Natijada tilning amaliy va badiiy funksiyalari yanada chuqurroq va teran o'rganiladi.

Lingvistik tahlilning yetakchi g'oyasi ham tilning mohiyatini uning amaliy faoliyatda qo'llanilishiga nisbatan aniqlash, ya'ni til birligini bajarayotgan vazifasi doirasida o'rganishdan iboratdir. Aynan vazifa (funksiya) tushunchasi lingvistik tahlilda pragmalingvistik yondoshuvning asosiy poydevorini tashkil etadi.

Lingvistik pragmatika tadqiqoti juda keng doiraga ega. Bunda til birliklarining nutqiy vaziyat va kontekst bilan bog'liqligi, muloqot jarayonida kishilar o'rtasidagi munosabatni ifoda etuvchi lisoniy etiketlar, nutqning ijtimoiy jihatdan xoslanishi, shuningdek baho bildiruvchi so'z va vositalar tahlil qilinadi. Shu tariqa, lingvistik pragmatika tilning har bir nutqiy birlikdagi funksiyasini, uning muloqot jarayonidagi rolini va turli sharoitlarda qo'llanilishining xususiyatlarini aniq va tizimli o'rganishga xizmat qiladi, insonning botiniy subyektiv ruhiyatini ifoda etuvchi diskurs va presuppozitsiya hodisasini to'laligicha o'rganish maqsad qilib belgilandi [6].

Pragmatika til sathi nuqtayi nazaridan ierarxik qismlarga ajralishi mumkin. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini muammolari til sathlari kesimida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz [7]. M.Hakimov "O'zbek pragmalingvistikasi asoslari" monografiyasida lingvopragmatikaning fonopragmatika va leksopragmatika kabi sath xususida qarashlarini bayon etadi. Monografiyaga ko'ra fonopragmatika haqida dastlab rus tilshunosligida o'tgan asrning 80-yillarida ilk ma'lumotlar keltirilgan. Biroq bunga qadar A.S.Axmanova, I.M.Malgajdarovaning "Pragmatik lingvistika" atamasi xususida mulohazalari bilan chegaralangan masalalar maqolasi nashr qilingan.

Pragmatika – so'zlashuv matnda tilning qo'llanilishi, nutqning ma'nosini tushunishda ham muhim rol o'ynaydi. Til sathlari – fonetika, morfologiya, sintaksis, leksika va diskurs kabilarni o'z ichiga oladi. Pragmatik tahlil jarayonida pragmalingvistika atamasi ifodalagan tushuncha mohiyatini oydinlashtirish uchun ingliz tili fonetikasini o'qitish bilan aloqador metodik usul – talaffuzning lingafon apparati orqali o'rganilishi e'tiborga olinishi lozim. Lingvopragmatik metodologiya jihatidan tilning fonetik birliklarining optimal variantidagi talaffuz shakllari muhimdir. Xalqaro tilde intonatsiay tilning nutqiy fonetik birliklarida namoyon bo'ladi. Talaffuzning muayyan optimal variantda qo'llanilishi, mukammal fonetik apparat bilan bog'liq intilishni izohlaydi. Shu jihatdan fonetik birliklardagi pragmatik mujassamlik tilni o'rgatuvchi mahorati bilan ajralib turadi.

Pragmatik tahlil doirasiga, shuningdek, so'zlarning, so'z shakllarining va uslubiy vositalarning tanlanishi ham kiradi, chunki bu jarayonlar o'zaro muloqotdagi ma'no, stilistik qatlam va kontekstual izohlarni shakllantiradi. Shunday qilib, matnning pragmatik tadqiqotida semantika, stilistika va sintaksis kabi sohalarni bir-biridan ajratib ko'rishning imkoni yo'q. Lingvopragmatika, muloqotning real sharoitida mavjudligi va uning vazifa bajarilishiga bog'liq masalalar bilan bog'liq bo'lib, aslida pragmatika kontekst tarkibidagi ma'noning shakllanishi va izohlanishi bilan shug'ullanadi. Bu jarayon, o'z navbatida, tilning maqsadga muvofiq ishlatilishini va muloqotning pragmatik samarasini o'rganishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati // Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Жирмуниский В. М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. Ленинград: Наука, 1997.
3. Rixsiyeva G. Lingvopoyetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti, 2003, №2. – B. 84–86.
4. Qosimova M. Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari (Tog'ay Murod asarlari asosida): Filol. fanlari nomz...diss. – Toshkent: 2007. - B. 17.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.
6. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. dok. diss... avtoref. – Toshkent: 2001.
7. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. Muhammad Yusuf. Saylanma: She'rlar. Dostonlar. Xotiralar. – Toshkent: Sharq, 2007.

Abdulla XUDAYQULOV,
Termiz davlat universitet dotsenti,
falsafa fanlari doktori

AYRIM ANGLITSIZMLARNING SEMANTIK MOSLASHUVI

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr oxiri – XXI asr boshlarida o'zbek tiliga ingliz tilidan kirgan bir qator o'zlashmalarning semantik moslashuvi haqida so'z yuritiladi, ayrim inglizcha so'zlarining o'zbek tiliga o'zlashishi, semantik adaptatsiyasi yoritib beriladi.
Kalit so'zlar: o'zlashma so'z, ekzotizm,neologizm, anglitsizm, adaptasiya, semantika.
Annotation. This article examines the semantic adaptation of a number of English borrowings that entered the Uzbek language in the late 20th and early 21st centuries, highlighting the borrowing and semantic adaptation of some English words into the Uzbek language.
Keywords: borrowing, exoticism, neologism, Anglicism, adaptation, semantics.
Аннотация. В данной статье рассматривается семантическая адаптация ряда заимствований из английского языка, вошедших в узбекский язык в конце XX – начале XXI веков, освещается заимствование и семантическая адаптация некоторых английских слов в узбекский язык.
Ключевые слова: заимствование, экзотизм, неологизм, англицизм, адаптация, семантика.

So'nggi paytlarda tillarning o'zaro ta'siri va tillararo aloqalarning turli jihatlari eng ahamiyatli mavzuga aylanib bormoqda. Jumladan, etimologiyasiga ko'ra xilma-xil tillarga mansub leksik o'zlashmalarning soni o'zbek tilida kun sayin ortib bormoqda. Bu esa globallashuv sharoitida ona tilimizning rivojiga qanchalik ijobiy ta'sir etishi, yoki uning sofligi uchun qay darajada xavfli ekanligi bir qator tilshunoslarning ishlarida aks etmoqda. Bir qator olimlar o'zga tillardan olingan o'zlashmalarni o'zlashtirib olish shartlari, zaruriyatlari, sabablari va albatta ularning so'z oluvchi tillarga moslashishi masalalari ustuda tadqiqotlar olib borishmoqda.

O'zbek tilida leksik birliklarni o'zlashtirish muammosi bilan shug'ullangan qator olimlarning fikricha, anglitsizmlar to'g'ridan to'g'ri yoki boshqa tillar orqali kirib kelgan. Ingliz tilidagi o'zlashmalar o'zbek leksikasiga turli vaqtlarda, asosan XIX–XX asrlarda rus tili vositasida o'tgan. XIX asr oxiri va XX asr boshida o'zbek adabiy tiliga **ekzotizm** yoki **neologizm** sifatida kirib kelgan ko'plab anglitsizmlar, natijada asr oxirida o'zbek tili tomonidan to'liq yoki qisman o'zlashtirilgan. Bugungi kunda turli leksik-semantik guruhlarga mansub anglitsizmlar soni kundan kun ortib bormoqda. Misollar:

– madaniyat sohasida: saundtrek, remiks, 3D format, biznes shou, omad-shou, dizayner va boshq;

– ta'lim va kompyuter texnologiyalari sohasida: *o*nlayn, *o*flayn, inklyuziv, part-time education, tyutor, GPA (Grade Point Average), veb-kamera, brauzer...;

– iqtisodiyot va biznes: *o*ffshor, fyuchers, lizing, startap va boshq;

– sport: fitness-klub, bouling, doping, forvard, seyv...

Avvalgi tadqiqotlarimizda anglitsizmlarning o'zbek tiliga kirib kelish tarixi, hamda ularnng leksik-semantik guruhlanishi, so'z oluvchi tilning ichki qonuniyatlari asosida unga moslashib borishi haqida qisman to'xtalib o'tgan edik. Lekin til taraqqiyoti davomida yangi o'zlashmalar kirib kelaverar ekan, ularning fonetik-grafik, morfologik va semantik jihatdan moslashib borishini o'rganish ehtiyoji tug'ilaveradi. O'zga til leksik birliklarining o'zlashtirilganlik mezonlari so'zning qabul qiluvchi tilda moslashish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. O'zga til so'zining semantik moslashuvi, yoki semantik qayta ishlanishi – bu uning semantik tuzilishini o'zlashtiruvchi til tizimiga moslashtirishdir. Bu borada tadqiqotlar olib borgan rus olimasi Y.B.Marinova shunday fikrni keltiradi: "Yangi o'zlashtirilgan so'zning leksik ma'nosi, so'z qabul qiluvchi til so'zlari bilan sintagmatik va paradigmatik aloqalarga kirishishi davomida shakllanadi, aniqlashtiriladi va sayqallanadi" [7: 266].

Tilshunoslikda ingliz tilidan kirgan o'zlashmalarning semantik moslashuvi bir qator tadqiqtchilarning ishlarida uchraydi. Tilimizdagi ko'plab angltsizmlarning rus tili vositasida kirib kelganligini inobatga olib rus olimlarining ishlarini ko'rib chiqdik. Jumladan, Ye.E.Birjakovaning fikricha, "*o'zlashmalarning semantik moslashuvi – ularni tilning asosiy leksik-semantik tizimiga kiritish, lug'atning mahalliy elementlari bilan xilma-xil aloqalarni o'rnatish va o'zlashmalarni tilning lug'atini turli yo'nalishlarda kesib o'tuvchi turli xil bog'liqliklar qatori va zanjirlariga kiritish masalasidir. Bu yangi so'zni o'xshash so'zlarning sinonim qatoriga ajratish va uni semantik yoki stilistik turdagi boshqa elementlardan ajratish masalasidir; uning yangi tilning semantik tuzilmalari va mikrotuzilmalarida ma'lum bir o'rin egallashi va uning kiritilishi natijasida ulardagi o'zgarishlar*" *[5]*. Albatta ushbu ta'rif, o'zlashmalarning semantik jihatdam moslashuvining mohiyatini yetarlicha to'liq ochib bergan. O'zga til so'zining qabul qiluvchi tilga kirish jarayoni uning semantik rivojlanishi, yangi tizimda so'zning semantik aloqalarining shakllanishi, uning turli kontekstlarda faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq.

O'zlashmalarning semantik o'zgarishlari rus leksikasida sodir bo'layotgan quyidagi jarayonlar bilan bog'liq: deideologizatsiya, boshqa uslubdagi leksik vositalarning faol assimilyatsiyasi, ilgari tilning periferiyasida bo'lgan so'zlarning dolzarblashuvi, ayrim tematik guruhlarning semantikasi transformatsiyasi va ko'pma'nolilikning rivojlanishi, shuningdek, adabiy til leksik tarkibini tizimli ravishda tartibga solishga qaratilgan tendensiya – turli genetik-stilistik

qatlamlar o'rtasidagi tashqi munosabatlarni adabiy tilning yangi leksik-semantik tizimini shakllantiruvchi ichki semantik-stilistik munosabatlarga aylantirishga yo'naltirilgan.

Ushbu fikrga qo'shilgan holda, o'zlashmalarning semantik moslashuvi borasidagi eng so'nggi ishlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Tadqiqotchi F.S.Baxtiyorova arabizmlarning ma'no xususiyatlarini o'rgangan [4]. Yana bir tadqiqotch H.J.Ikramova esa turli tillardan kirgan o'zlashmalarning ingliz va o'zbek tillariga moslashishi haqida umumiy ma'lumotlar beradi [2]. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o'zbek tiliga ingliz tilidan kirgan bir qator o'zlashmalarning semantik moslashuvi alohida o'rganilmagan.

O'zlashmalarning semantik moslashuvi ma'lum bir tizimni ifodalaydi, bu tizimda o'zga til so'zi leksik ma'noni o'zlashtirish bosqichlaridan o'tadi. Biz tomonimizdan tadqiq etilayotgan davrda o'zga til leksikasini semantik o'zlashtirishning quyidagi mezonlari ajratib ko'rsatilgan:

O'zlashgan so'z ma'nolarining qayta taqsimlanishi (torayishi, konkretlashuvi, kengayishi, metaforalashuvi, konnotatsiya, determinologizatsiya).

Semantik dubletlikning paydo bo'lishi.

Stilistik bo'yoqning o'zgarishi.

Quyidagi misollar orqali bu fikrlarni dalillash mumkin. Masalan, inglizcha *sandvich* so'zi o'zbek tilida *sandvich, sendvich* grafik shakllarida ishlatilib, asosan tez tayyorlanadigan taom ma'nosida ishlatiladi. Rus leksikograflari bu so'zning XIX asrda rus tiliga kirganini ta'kidlashadi. Jumladan, L.P. Krisinning "Chet til so'zlarining izohli lug'ati (*Словарь иноязычных слов*)"ga ko'ra: *Sendvich* – inglizcha "sandwich" – Lord Sendwich (Sandwich) nomidan kelib chiqqan – ikki bo'lak non orasiga sariyog' va boshqa yemaklarni solib tayyorlanadi [6]. Bu so'zning etimologiyasi XVIII da yashagan ingliz diplomati graf Jon Montegyu Sandvich nomi bilan bog'liq. U kishi qimorxonada qarta o'yinida uzilish bo'lishing oldini olish maqsadida buterbrodning shunday turini tayyorlab kelsihni buyuradi. Natijada yangi taom paydo bo'lib, unga lordning nomi beriladi. Boshqacha aytganda, mazkur so'z eponimlashadi yoxud atoqli ot turdoshga aylanadi. Hozirgi kunda Tinch okeanidagi *Gavayi orollari* nomi bilan mashhur orollar, 1775-yilda bu yerlarni topgan dengizchi Jeyms Kuk keyinchalik o'sha davrdagi admirallikning birinchi lordi bo'lgan graf *Jon Montegyu* nomi bilan eponimlashib, *South Sandwich Islands* nomini oladi.

Rus olimi *A*.I. Dyakovning fikricha, *sendvich* so'zi *broyler, yogurt, ketchup, kivi, lobste* kabi anglitsizmlar bilan birgalikda rus tiliga *XX* asrning o'rtalarida kirib kelgan [19]. XX asr oxirida *sendvich* yangi ma'no oldi va shu ma'noda XXI asr rus va o'zbek tillaridagi turli matnlarda ishlatilib kelinmoqda: "*Стены из панелей сэндвич*", "*Панели сэндвич* (*пенополистирол*, *стеновые панели на основе пенополистирола*)" [9]; "... to'rt tipdagi gipermarket, supermarket va minimarketlar ko'rinishidagi, shuningdek, ularga tutash maydonlarda barpo etiladigan sendvich-panellardan keng foydalanilgan yengil konstruksiyali, vaqtinchalik yig'ma pavilonlardan iborat zamonaviy savdo majmualarining (keyingi o'rinlarda zamonaviy savdo majmualari deb ataladi) namunaviy loyihalari ishlab chiqilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin" [14]. "Chimboy, Andijon, Chust, Sirdaryo, Farg'ona tumanlarida yengil qurilish konstruksiyalaridan (shu jumladan, "sendvich" tipidan) foydalangan holda tog'li va borish qiyin bo'lgan tumanlarda bolalar sportini rivojlantirish dasturi doirasida 5 ta loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish"... [15]. Ushbu misollar orqali so'z ma'nosining ko'chganligini ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunda bu so'z har ikki ma'noda keng qo'llanilmoqda: "...Endi Surxondaryoda mashhur "Champion" sendvichlari!" [21].

Yana bir anglitsizm – *mikser* so'zining ham semantikasi ham o'zgarishlarga uchraganligini kuzatishimiz mumkin. L.P.Krisinning "*Толковый словарь иноязычных слов*" nomli lug'atiga ko'ra: [Inglizcha mixer < to mix aralashtirmoq]. 1. Biror narsani aralashtirish, ezish qurilmasi. 2. Domna pechlari yoki gumbazlardan olingan eritilgan cho'yanni saqlash uchun mo'ljallangan idish, unda cho'yanning kimyoviy tarkibi va harorati tenglashtiriladi va undan aralashmalar chiqarib yuboriladi [6: 487]. *Mikser* so'zi ham avval rus tiliga o'zlashib, qurilma ma'nosidan tashqari, kasb nomini ham bildiradi: " ....- *как миксеровым*, *подручным миксеровых*, *бригадирам миксеров*" [8].

Mikser so'zi o'zining birinchi ma'nosida XX asr rus va o'zbek rasmiy-idoraviy hujjatlari matnlarida tez-tez uchraydi: "*В данную товарную позицию включаются машины, оборудованные нагревательными или охлаждающими устройствами либо устройствами для приготовления продаваемого продукта* (*например*, *соковыжималками для приготовления фруктовых соков*, *миксерами для смешивания кофе с молоком*, *миксерами для приготовления мороженого*), *при условии*, *что основной функцией и назначением машин продолжает оставаться автоматическая продажа продукта*" [20]; "...Maishiy elektr mashinalari va priborlar, shu jumladan, go'sht maydalagichlar va elektr go'sht maydalagichlar, sharbat siqqichlar, oshxona kombaynlari, elektr mikserlar, sochni quritish uchun fen, kofe yanchgichlar, elektr drellar, tosterlar, isituvchi koloriferlar, mikroto'lqinli pechlar, elektr dazmollar, idish-tovoq va oshxona priborlari" [13].

Mikser so'zi o'zining ikkinchi ma'nosida nisbatan kam ishlatiladi: "*Единичные расценки на работы с применением монолитного (армированного и неармированного) бетона, а также раствора разработаны из условия доставки бетонной смеси автобетоносмесителями-миксерами*" [10]. O'zbek tilining izohli lug'ati (O'TIL)da *mikser* sozining faqat bir ma'nosi ko'rsatiladi [инг.л. mixer – *аралаштиргич* < лот. mixtus – aralash, aralashgan]: "Turli suyuq va quyuq narsalarni bir-biriga aralashtirish (krem, biror ichimlik tayyorlashda), tuxum oqi yoki qaymoqni ko'pirtirish uchun qo'llanadigan, dastaki yoki elektr asbob" [11: 593]. O'zbek tilidagi rasmiy-idoraviy hujjatlar matnlarida ham bu so'z ikki ma'noda uchraydi: 1. Kasb-hunar nomi – mikserchi [13]; 2. Metallurgiya sohasi atamasi – "Mikser kraniga xizmat ko'rsatish" [16], ammo mikser so'zining ushbu ma'nolari o'zbek tilining leksikografik manbalariga kiritilmagan. Ushbu misollardan ko'rinadiki, o'zlarma leksik birliklar, jumladan anglitsizmlar ham semantik o'zgarishlarga uchraydi. Bu esa o'zlarma birlikning asl ma'nosi passivlashuviga olib keladi.

Shunday qilib, o'zbek tili rasmiy-idoraviy hujjatlari matnlarida ishlatilayotgan ko'plab o'zlashmalarni kuzatish shuni ko'rsatdiki, ular orasida ingliz tilidan kirgan o'zlashma so'zlar ham ko'p uchraydi. Ingliz tilidan olingan o'zlashmalarning aksariyati ot so'z turkumiga mansub so'zlar bo'lib, ularning ayrimlari semantik jihatdan o'zgarishlarga uchragan. Bu kabi til hodisalari o'zbek tilida o'zlashma birliklar lug'atlari, tarjima lug'atlarini tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ingliz tili yoki boshqa tillardan ozlashtirilgan so'zlar so'z oluvchi tilda semantik jihatdan o'zgarislarga uchraydi. Jumladan, XIX-asrda ingliz tilidan rus tiliga, keyinchalik o'zbek tiliga o'zlashgan sandvich, mikser kabi angltsizmlarning semantikasini tahlil qilish natijasida mazkur so'zlarning semantik doirasining sezilarli darajada kengayganligini kuzatishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эшкувватова Г.А., Худайкулов А.Э. Употребление английских ксенизмов в узбекском деловом дискурсе // Евразийский научный журнал, 2021, (11). – P. 42–44.
2. Ikramova H.J. The Semantic Adaptation and Integration of Loanwords in English and Uzbek Languages // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2025, 5(9). – P. 103–115.
3. Baxtiyarova F., Nuriddinova Ch. Arabcha o'zlashmalar o'zbek tilida: shakl, ma'no va ishlatilish xususiyatlari // Tadqiqotlar, 2025, 71(1). – P. 51–55.
4. Биржакова Е.Э. Очерки по исторической лексикологии русского языка XVIII века. Л.: Наука, 1972.
5. Крысин Л.П. Толковый словарь иноязычных слов. М.:Эксмо, 2010 - С. 487.
6. Маринова Е.В. Иноязычные слова в русской речи конца XX – начала XXI в.: проблемы освоения и функционирования / Е.В. Маринова. М., 2008
7. Постановление Госкомтруда СССР, Секретариата ВЦСПС от 02.04.1976 N 81/8 (ред. от 27.12.1983) "Об утверждении разъяснения "О порядке применения утвержденных Постановлением Совета Министров СССР от 22 августа 1956 г. N 1173
8. Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-2388 "О дальнейших мерах по упорядочению внешнеэкономической деятельности Республики Узбекистан" от 13 августа 2015 г.
9. Приказ Минстроя России от 04.09.2019 N 519/пр "Об утверждении Методических рекомендаций по применению федеральных единичных расценок на строительные, специальные строительные, ремонтно-строительные, монтаж оборудования и пусконаладочные работы". Режим доступа: http://www.consultant.ru/document/ cons_doc_LAW_336055
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. ЎзРЎ
11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 19-yanvardagi 2/B-sonli "Kon-metallurgiya ishlab chiqarish korxonalari xodimlari uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarini bepul berishning namunaviy me'yorlarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'i.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi "2017–2019-yillar davrida dehqon bozorlarini rekonstruksiya qilish va ularning hududida zamonaviy savdo majmualari qurish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-2853-sonli qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" davlat dasturi to'g'risida PQ-1046-son Qarori.
14. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2009-yil 26-iyundagi "O'n sakkiz yoshdan kichik shaxslarning mehnati qo'llanishi taqiqlanadigan noqulay mehnat sharoitlari ishlari ro'yxatini tasdiqlash haqida" 33Q/B-sonli qarori.
15. Дьяков А.И. Особенности функционирования англицизмов тематической группы "обиходно-бытовая лексика. Режим доступа: https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-funktsionirovaniya-anglitsizmov-tematicheskoy-gruppy-obihodno-bytovaya-leksika.
16. "Пояснения к единой Товарной номенклатуре внешнеэкономической деятельности Евразийского экономического союза (ТН ВЭД ЕАЭС)" (ред. от 25.06.2019). Режим доступа: http://www.consultant.ru /document/cons_doc_LAW_284836
17. https://www.instagram.com/reel/DPJR9K-CPrU/.

Gulnoza NAJMIDDINOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

VIZUAL NARRATIVLAR POETIKASI VA SEMIOTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy kommunikatsiya va san'atning muhim yo'nalishi hisoblangan vizual narrativlar – rasmli kitoblar, grafik romanlar va so'zsiz kitoblarning (silent books) poetikasi hamda semiotikasini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda G.Kress va T. van Leuvenning vizual grammatika nazariyasi, P.Nodelman va M.Nikolayevaning matn-tasvir munosabatlari tipologiyasi asosida vizual matnlarning ishlash mexanizmlari tahlil qilingan. Art Shpigelman, Shon Tan, Entoni Braun, Syuzi Li va Volf Erlbrux kabi jahon vizual adabiyoti namoyondalarining asarlari misolida metafora, intermatnlilik, vaqt va makon kategoriyalari hamda travmatik xotira ifodalanishining o'ziga xosliklari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari vizual savodxonlikni (visual literacy) rivojlantirish va O'zbekiston ta'lim tizimida multimodal yondashuvlarni joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: vizual narrativ, grafik roman, vizual semiotika, multimodal tahlil, vizual grammatika, intermatnlilik, vizual savodxonlik.

Annotation. This article is dedicated to the study of the poetics and semiotics of visual narratives – illustrated books, graphic novels, and "quiet" books, which are considered an important area of contemporary communication and art. In the study, the working mechanisms of visual texts were analyzed based on the theory of visual grammar by G.Kress and T. van Leuven, the typology of textual-figurative relationships by P.Nodenman and M.Nikolaeva. The article explores the works of world visual literature representatives such as Art Spiegelman, Sean Tan, Anthony Brown, Suzy Lee, and Wolf Erlbruch, exploring metaphor, intertextuality, time and space categories, and the specific features of traumatic memory expression. The research results serve to form scientific and practical recommendations for the development of visual literacy (visual literacy) and the implementation of multimodal approaches in the education system of Uzbekistan.

Keywords: visual narrative, graphic novel, visual semiotics, multimodal analysis, visual grammar, intertextuality, visual literacy.

Аннотация. Эта статья посвящена изучению поэтики и семиотики визуальных нарративов – иллюстрированных книг, графических романов и «тихих» книг, считающиеся важным направлением современной коммуникации и искусства. В исследовании проанализированы механизмы работы визуальных текстов на основе теории визуальной грамматики Г.Кресса и Т. ван Лёвена, типологии текстово-образных отношений П.Нодельмана и М.Николаевой. В статье на примере произведений представителей мировой визуальной литературы, таких как Арт Шпигельман, Шон Тан, Энтони Браун, Сьюзи Ли и Вольф Эрлбрух, раскрываются метафора,

интертекстуальность, категории времени и пространства, а также особенности выражения травматической памяти. Результаты исследования служат формированию научно-практических рекомендаций по развитию визуальной грамотности (visual literacy) и внедрению мультимодальных подходов в систему образования Узбекистана.

Ключевые слова: визуальный нарратив, графический роман, визуальная семиотика, мультимодальный анализ, визуальная грамматика, интертекстуальность, визуальная грамотность.

Insoniyat madaniyati va kommunikatsiya tizimlari tarixiga nazar tashlasak, so'nggi asrlarda axborot uzatishning asosiy vositasi sifatida yozma matn (verballik) hukmronlik qilib kelganini ko'ramiz. G'arb va qisman Sharq akademik an'analarida "savodxonlik" tushunchasi asosan o'qish va yozish ko'nikmalari bilan tenglashtirilgan. Biroq, XXI asrga kelib, raqamli texnologiyalar va global vizual madaniyatning yuksalishi bilan bu paradigma tubdan o'zgardi. Biz endi "monomodal" dunyodan "multimodal" (mazmunni ifodalashda bir vaqtning o'zida bir necha kommunikatsiya kanallaridan foydalaniladigan) dunyoga o'tdik [4]. Ushbu jarayon nafaqat axborotni iste'mol qilish usullarini, balki insonning fikrlash tarzi, dunyoni anglash mexanizmlari va ta'lim tizimini ham qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Gyunter Kress (Gunther Kress) va Teo van Leuven (Theo van Leeuwen) kabi ijtimoiy semiotika namoyondalari ta'kidlaganidek, an'anaviy tilshunoslik (lingvistika) faqat so'zlar orqali yaratilgan ma'nolarni tahlil qilishga ixtisoslashgan edi. Biroq, zamonaviy jamiyatda ma'no faqat so'zlar bilan emas, balki tasvir, rang, dizayn, harakat, musiqa va makon kabi turli semiotik resurslarning murakkab uyg'unligi orqali yaratiladi [4]. Bu holat yangi ilmiy yo'nalish – **vizual adabiyot** va **vizual narrativlar** tahlilini dolzarb qilib qo'ydi. Vizual adabiyot tushunchasi bugungi kunda bolalar uchun mo'ljallangan rasmli kitoblardan (picturebooks) tortib, murakkab ijtimoiy-siyosiy mavzularni ko'taruvchi grafik romanlar (graphic novels), so'zsiz kitoblar (silent books) va raqamli vizual hikoyalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi vizual narrativlarning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, ularning ishlash mexanizmlarini semiotik tahlil qilish va jahon adabiyotining eng sara namunalari orqali vizual matnlarning kognitiv, estetik va ijtimoiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy savollarga javob izlanadi: Tasvirlar qanday qilib til kabi "grammatik" tuzilishga ega bo'lishi mumkin? Matn va tasvir bir sahifada uchrashganda ular o'rtasida qanday dinamik munosabatlar yuzaga keladi? Vizual narrativlar travma, xotira va o'zlikni anglash kabi murakkab psixologik jarayonlarni qanday ifodalaydi?

Vizual adabiyotni tahlil qilish uchun shunchaki san'atshunoslik yondashuvi – ya'ni tasvirning estetik go'zalligini baholash – yetarli emas. Bizga tasvirning qanday qilib ma'no tashishi va tomoshabinga ta'sir o'tkazishini tushuntiruvchi aniq ilmiy apparat kerak. Bu borada Gyunter Kress va Teo van Leuvenning "Tasvirni o'qish: Vizual Dizayn Grammatikasi" (Reading Images: The Grammar of Visual Design) kitobi fundamental ahamiyatga ega.

Vizual grammatika – tasvirlardagi elementlarning (odamlar, joylar va buyumlar) qanday qilib mazmunan yaxlit tuzilmaga birlashishini o'rganadigan sohadir. Bu shunchaki "to'g'ri" rasm chizish qoidalari emas, balki ma'no yaratish uchun tasvirda mavjud bo'lgan resurslarning tavsifidir. Vizual grammatika rang, perspektiva, freyming va kompozitsiya kabi tuzilmalarga e'tibor qaratadi va tasvirlarni tushunish uchun "vositalar to'plami"ni taqdim etadi. Kress va van Leuven o'z nazariyalarini Maykl Hollideyning (Micheal Halliday) Tizimli-Funksional Tilshunoslik nazariyasiga (Systemic Functional Linguistics - SFL) asoslanib qurdilar. Hollideyning fikricha, har qanday til uchta asosiy metafunksiyani bajaradi. Kress va van Leuven esa bu funksiyalarni vizual modaga tatbiq etib, tasvirlar ham xuddi til kabi quyidagi uch funksiyani bajarishini isbotladilar [4]:

– ifoda funksiyasi (fikr, g'oya ifodalash vositasi) – voqelik, narsa-hodisalarnng tasviri;

– muloqot funksiyasi (interpersonal muloqot vositasi) – tasvirning tomoshabin bilan muloqoti (nigoh), smayliklar, gif-tasvirlar, memlar, mimika, qo'l harakatlari va hkz. orqali shaxslararo muloqot;

– matn yaratish funksiyasi (yaxlit, tugallangan mazmun birligini shakllantirish vositasi) – tasvir orqali hikoya qilish.

Kanadalik olim Perri Nodelman o'zining "Words About Pictures" (1988) fundamental asarida ta'kidlaganidek, matn va tasvir birga kelganda, ular "bir-birini cheklaydi" va ayni paytda "bir-birini boyitadi" [9].

Nodelman rasmli kitoblarning asosiy kuchi ulardagi ironiyada ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, so'zlar bir voqeani hikoya qilishi, tasvirlar esa butunlay boshqa, ba'zan zid voqeani ko'rsatishi mumkin. Masalan, Pat Hatchinsning "Rosie's Walk" kitobida matn tovuqning bamaylixotir sayr qilayotganini ifodalaydi ("Rozi hovli bo'ylab yurdi"), lekin rasmlarda uning ortidan och tulki quvib kelayotgani va har qadamda turli to'siqlarga (narvonga, xaskashga) urilayotgani ko'rsatiladi. Bu yerda bolalar matndagi sodda hikoya va tasvirdagi haqiqiy drama o'rtasidagi farqni anglash orqali zavq oladilar va tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

1-rasm. P. Hatchisonning "Rosie's Walk" kitobidan parcha

Nodelman yana bir muhim jihatga e'tibor qaratadi: so'zlar tasvirlarning ko'p ma'noliligini (polisemiya) cheklaydi va aniqlashtiradi. Tasvir o'z holicha minglab talqinlarga ega bo'lishi mumkin, ammo uning ostidagi matn ("Bu – qayg'uli / chiroyli / xunuk ayol") bizning idrokimizni ma'lum bir yo'nalishga soladi. Aksincha, tasvirlar matnning mavhumligini konkretlashtiradi (matnda shunchaki "uy" deyilgan bo'lsa, tasvir uning qanday uy ekanligini ko'rsatadi).

Mariya Nikolayeva va Kerol Skott "How Picturebooks Work" (2001) asarida matn va tasvir o'rtasidagi munosabatlarning eng keng tarqalgan va mukammal ilmiy tasnifini ishlab chiqdilar [8]. Ushbu tasnif tadqiqotchilarga har qanday vizual asarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval. Vizual narrativlarda matn va tasvir munosabatlarining Nikolayeva va Skott taklif etgan tasnifi

Munosabat Turi (Kategoriya)	Tavsif va mexanizm	Tahliliy ahamiyati
Simmetrik	Matn va tasvir bir xil axborotni takrorlaydi. Masalan, matnda "Bola koptok o'ynadi" deyiladi va rasmda koptok o'ynayotgan bola tasvirlanadi.	Bu ko'pincha yosh bolalar uchun mo'ljallangan kitoblarda uchraydi. U o'quvchiga xavfsizlik va tushunish osonligini beradi, ammo narrativ murakkabligi past bo'ladi.
To'ldiruvchi	Matn va tasvir bir-birini to'ldiradi. Matnda aytilmagan detal rasmda, rasmda ko'rinmagan hissiyot matnda beriladi. Birgalikda ular to'liq manzarani hosil qiladi.	Bu eng keng tarqalgan munosabat turi. U o'quvchidan ikkala modalni – matn va tasvirni ham diqqat bilan o'qishni talab qiladi.
Kengaytiruvchi	Tasvir matn ma'nosini sezilarli darajada kengaytiradi, unga yangi atmosferani, qo'shimcha syujet chiziqlarini yoki ramziy ma'nolarni qo'shadi.	Matn oddiy voqeani aytsa-da, tasvirdagi syurrealistik detallar psixologik chuqurlikni "kengaytiradi".
Kontrapunkt	Matn va tasvir bir-biriga zid keladi yoki turli xil hikoyalarni so'zlaydi.	Bu munosabat kitobxondan eng yuqori intellektual faollikni talab qiladi. O'quvchi ziddiyatni o'z ongida hal qilishi va muallifning asl maqsadini topishi kerak.
Silleptik	Matn va tasvir mutlaqo mustaqil rivojlanadi, ba'zan bir-biriga bog'lanmaydigan ikki xil hikoya chizig'ini hosil qiladi.	Bu eksperimental va postmodern asarlarda uchraydi. U an'anaviy narrativ qoliplarini buzadi.

Nikolayeva va Skottning ta'kidlashicha, eng badiiy jihatdan boy asarlar ko'pincha **kontrapunkt** va **kengaytiruvchi** munosabatlarga asoslanadi, chunki ular "bo'shliqlarni to'ldirish" (gap-filling) jarayonini faollashtiradi [8].

Vizual adabiyot turli formatlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri o'ziga xos tuzilishga va o'qish strategiyasiga ega. Rasmli kitoblar an'anaviy ravishda 32 sahifadan iborat bo'lib, unda har bir sahifaga o'tish (page turn) hikoyaning ritmini belgilaydi. Bu yerda tasvir odatda butun sahifani egallaydi va ramziy xususiyatga ega. Nodelman ta'kidlaganidek, rasmli kitoblarda vaqt ko'pincha "muzlatilgan" lahzalar ketma-ketligi sifatida qabul qilinadi [9]. Komiks va grafik romanlar "sekvensional san'at" (Sequential Art) deb ataladi [2]. Ularning asosiy farqi – sahifaning **panellarga** (kadrlarga) bo'linganligidir.

- **Vaqt va harakat:** Komiksda vaqt makon orqali ifodalanadi. Ko'z bir paneldan ikkinchisiga o'tganda, vaqt o'tadi. Panellar qanchalik ko'p va kichik bo'lsa, vaqt shunchalik sekin va chuqur his qilinadi. Katta, hoshiyasiz panellar (bleed) esa vaqtsizlik yoki keng makonni bildiradi [7].
- **Nutq pufakchalari (Speech Balloons):** Komikslarda matn tasvirning ichiga kirib boradi. Bu matn va tasvirning vizual integratsiyasini kuchaytiradi. Nodelman ta'kidlaganidek, komikslar rasmli kitoblarga qaraganda murakkabroq kodlash tizimiga ega, chunki o'quvchi bir vaqtning o'zida matnni o'qishi, tasvirni ko'rishi va panellar ketma-ketligini kuzatishi kerak.

Nov (hoshiya oralig'i): Komiks va vizual narrativ nazariyasida eng muhim tushunchalardan biri bu – **gutter** yoki **nov** (panellar yoki sahifalar orasidagi bo'sh joy). Skott MakKlaud (Scott McCloud) o'zining "Understanding Comics" asarida novni "xayolot Makoni" deb ataydi. Ikki panel orasida nima sodir bo'lganini tasvirlash muallifning emas, balki o'quvchining vazifasidir. Bu jarayon **"to'ldirish, yopish" (closure)** deb ataladi. Masalan, birinchi panelda qotil pichoq ko'tardi, ikkinchi panelda qurbon yerda yotibdi. Pichoq urish jarayoni novda, ya'ni o'quvchining ongida sodir bo'ladi [7].

Tarix, travma va metafora – Art Shpigelman (Art Spiegelman)ning "Maus" grafik romanida. Art Shpigelmanning "Maus" (1986, 1991) asari Pulitser mukofotini qo'lga kiritgan yagona grafik roman bo'lib, u vizual adabiyotning jiddiy tarixiy va psixologik mavzularni ko'tarishga qodirligini isbotladi. Asar Holokost (Ikkinchi jahon urushidagi yahudiylar qirg'ini) dahshatlarini va omon qolgan ota – Vladekning o'g'li – asar muallifi Art Shpigelman bilan murakkab munosabatlarini hikoya qiladi [10].

- **Yahudiylar = sichqonlar:** Natsistlar targ'ibotida yahudiylar doimo "zararkunandalar", "kalamushlar" sifatida tasvirlangan va ularni "yo'q qilish" talab qilingan. Shpigelman bu haqoratli metaforani qabul qilib, uni o'zgartiradi: sichqonlar zaif, ammo yashovchan, hamma joyga kira oladigan va omon qoladigan jonzotlarga aylanadi.
- **Nemislar = mushuklar:** Tabiatan sichqonlarning dushmani, yirtqich va shafqatsiz. Shpigelman nemislarni (hatto oddiy askarlarni ham) individual qiyofasiz, bir xil vahshiy mushuk niqobida tasvirlaydi, bu esa natsistlar tizimining mashinasimon ekanligiga ishora qiladi.
- **Polshaliklar = cho'chqalar:** Bu tanlov ko'plab bahslarga sabab bo'lgan. Tarixiy kontekstda natsistlar slavyanlar,

xususan, polyaklarni ham "past irq" deb hisoblashgan, ammo yahudiylardek "zararli" emas, balki "mehnatga yaraydigan chorva" kabi qarashgan.

• **Amerikaliklar = itlar:** Mushuklarni quvuvchi va sichqonlarni qutqaruvchi kuch.

"Maus"ning eng bahsli va ayni paytda daho darajasidagi uslubiy yechimi bu – turli millat vakillarining hayvon qiyofasida tasvirlanishi. Bu shunchaki Ezop masallari uslubidagi allegoriya emas, balki natsizm mafkurasining vizual dekonstruksiyasidir.

Kress va van Leuven nuqtai nazaridan, bu usul **Konseptual Tasniflash jarayoniga** kiradi. Shpigelman personajlarni individuallashtirishdan (inson yuzi) mahrum qilib, ularni guruhlarga ajratadi. Biroq, asarning o'zida bu "niqoblar" yechilishi yoki o'zgarishi mumkin. Masalan, Vladek omon qolish uchun o'zini polyak deb ko'rsatganda, u sichqon yuziga cho'chqa niqobini taqib oladi.

"Maus"da ikki xil vaqt chizig'i parallel rivojlanadi: 1930–1940-yillar (Holokost) va 1970-80 yillar (Nyu-Yorkdagi ota va o'g'il suhbati). Shpigelman sahifa tuzilishi orqali bu ikki davrni bir-biriga bog'laydi. Masalan, bir panelda Vladek velotrenajyorda mashq qilayotgan bo'lsa, uning qo'lidagi konslager raqami (tatuirovka) ko'zga tashlanadi va keyingi panelda biz to'g'ridan-to'g'ri Osvensimga tushib qolamiz. Quyidagi jadvalda "Maus"dagi vaqt va xotira ifodalash vositalari keltirilgan:

2-jadval.

Vizual Vosita	Funksiyasi	Misol
Blid (hoshiyasiz panel)	O'tmishning bugungi kunga "qorishuvi", o'tmishning xotirlanishi	Tutun, tikanli simlar yoki osilgan odamlarning oyoqlari sahifa chetidan chiqib, hozirgi zamon panellariga "osilib" turadi.
Qora fon	Jarohat, alam va umidsizlik	Eng og'ir sahnlarda (masalan, gaz kameralari) fon butunlay qora rangga aylanadi.
Meta-narrativ	Reallikka savol berish	Art (muallif) kitob ichida o'zini niqob taqqan odam sifatida chizadi va "Men buni qanday chizishni bilmayman" deb o'quvchiga murojaat qiladi.

So'zsiz Narrativ va Begonalashuv — Shon Tan (Shaun Tan) ning "The Arrival" so'zsiz qissasi

Avstraliyalik rassom va yozuvchi Shon Tanning "The Arrival" (Kelish, 2006) asari vizual adabiyotning cho'qqilaridan biri hisoblanadi. U butunlay matnsiz grafik asar bo'lib, migratsiya, yangi dunyoga moslashuv va insoniy birdamlik mavzularini yoritadi [12]. Nega Tan matndan butunlay voz kechdi? Muallifning talqinicha, muhojir (migrant) yangi mamlakatga kelganda, u yerdagi yozuvlarni, gapirilayotgan tilni tushunmaydi. U uchun hamma narsa "so'zsiz" va tushunarsiz belgilar yig'indisidir. Kitobxon "The Arrival"ni qo'lga olganda, u ham xuddi shu muhojir holatiga tushadi. U hech qanday tushuntirishsiz tasvirlarni o'zi dekodlashi, g'alati alifbodagi yozuvlarni, imo-ishoralarni va notanish urf-odatlarni tushunishga harakat qilishi kerak. Bu Nodelman aytganidek, o'quvchini passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Shon Tan asarni yaratishda eski oilaviy fotoalbomlardan va Ellis orolidagi (AQSh) immigrantlar arxivlaridan ilhomlangan. Asar to'liq **sepia** (sarg'ish-jigarrang) rangida ishlangan bo'lib, bu unga hujjatlilik, qadimiylik va nostalgiya ruhini beradi. Har bir tasvir xuddi vaqt o'tishi bilan sarg'aygan eski suratdek taassurot qoldiradi. Biroq tasvirlangan dunyo realizmdan yiroq. Bu **syurrealistik** dunyo

yangi shaharda odamlar bilan birga yashaydigan uy hayvonlari biz bilgan mushuk yoki it emas, balki g'alati, dumi uzun, og'zi katta mavjudotlardir. Bu defamiliarizatsiya (noodatiylashtirish) usuli bo'lib, oddiy narsalarning muhojir ko'ziga qanchalik g'alati ko'rinishini ifodalaydi.

shahar osmonida suzuvchi kemalar, tushunarsiz shakldagi binolar va ulkan haykallar yangi jamiyatning qudrati va murakkabligini ko'rsatadi. Kress va van Leuvenning **rakurs** nazariyasiga ko'ra, Tan ko'pincha shaharni juda uzoq va yuqori rakursdan (High angle/Long shot) tasvirlaydi, bu esa muhojirning bu ulkan tizim oldida qanchalik kichik va himoyasiz ekanligini ta'kidlaydi.

Tan panellar o'lchami va joylashuvi orqali vaqtni boshqaradi:

Kichik panellar (Grid). Bir sahifada 12 yoki undan ortiq kichik kadrlar joylashganda, vaqt sekinlashadi. Masalan, bosh qahramonning hujjatlarni tekshirayotgan amaldorga qarashi, muhr bosilishi, qo'l harakati – bularning barchasi sekundma-sekund ko'rsatiladi. Bu byurokratiyaning og'irligi va kutish azobini his qildiradi.

To'liq sahifa (Full-bleed spread). To'satdan sahifa butunlay ochilganda (masalan, yangi shaharning ilk ko'rinishi), bu hayrat lahzasini bildiradi. Vaqt to'xtaydi va makon kengayadi. Bu ideal. Orzu qilingan manzil tushunchasining vizual ifodasidir.

Psixoanaliz va Intermatnlilik – Entoni Braun (Anthony Browne) ning "The Tunnel" vizual hikoyasi. Britaniyalik muallif Entoni Braun (Anthony Browne) o'zining ko'p qatlamli va ramzlarga boy rasmli kitoblari bilan mashhur. Uning "The Tunnel" (Tunel, 1989) asari aka-singil o'rtasidagi ziddiyat, qo'rquv va o'zgarish (transformatsiya) mavzularini Freyd psixoanalizi va ertaklar intermatnliligi orqali yoritadi [1].

Hikoyaning boshida aka va singil bir-biriga butunlay zid xarakterlar sifatida tanishtiriladi. Braun buni vizual detallar orqali ko'rsatadi:

Fon va Rang. Akasi o'ynayotgan sahifalar tartibsiz, ranglar to'q va quyuq, orqa fonda chiqindilar va vayronalar ko'rinadi (tashqi dunyo, xavf, faollik). Singlisi kitob o'qiyotgan sahifalar esa toza, yorug', gulli naqshlar (wallpaper) bilan bezatilgan (ichki dunyo, xavfsizlik, xayolparastlik).

Vektorlar. Akasi doimo harakatda (yuguradi, toqqa chiqadi), uning vektorlari dinamik. Singlisi esa statik, ko'pincha boshi egilgan holda tasvirlanadi.

Braun asarlarining eng qiziqarli jihati – bu tasvirlarga yashirilgan boshqa matnlarga ishoralardir. Qizcha o'rmonga kirib ketganda, daraxtlarning shakli va po'stlog'i turli ertak qahramonlariga aylanadi:

Daraxt shoxlari jodugar shaklini oladi ("Henzel va Gretel" ertagiga ishora).

Bo'ri boshlari daraxt kovaklaridan mo'ralaydi ("Qizil qalpoqcha").

Savat va qizil palto ("Qizil qalpoqcha").

Nikolayeva va Skott tasnifiga ko'ra, bu **kengaytiruvchi** munosabatdir [8]. Matn shunchaki "o'rmon qo'rqinchli va jimjit edi" deydi. Ammo tasvir bu qo'rquvning manbasini – bolaning ongostidagi ertaklar va arxetiplarni ochib beradi. Bu "o'rmon" shunchaki daraxtzor emas, balki psixologik sinov maydonidir.Asar kulminatsiyasida aka toshga aylanib qoladi (hissiy sovuqlik ramzi). Singlisi uni quchoqlab yig'laganda, tosh asta-sekin rangga kiradi va ilib, bolaga aylanadi. Braun bu jarayonni ranglarning sovuq kulrangdan issiq qizil va pushtiga o'tishi orqali tasvirlaydi. Bu sevgi va hamdardlikning insonni "tiriltiruvchi" kuchga egaligi haqida vizual bayonotdir.

Kitob Moddiyligi va Chegara – Syuzi Li (Suzy Lee) asarlari. Koreyalik rassom Syuzi Li (Suzy Lee / Yi Soo-ji) kitobni shunchaki matn va rasm tashuvchi vosita emas, balki o'ziga xos fizika qonunlariga ega bo'lgan obyekt deb biladi. Uning mashhur "Chegara Trilogiyasi" *(Mirror, Wave, Shadow)* kitobning eng e'tiborsiz qoldiriladigan qismi – nov (ikki sahifa o'rtasidagi buklama)dan unumli foydalanishga asoslangan [5].

"To'lqin" ("Wave") so'zsiz kitob bo'lib, qizaloqning dengiz to'lqini bilan o'yini haqida hikoya qiladi. Kitob gorizontal formatda bo'lib, uzun sohil chizig'ini eslatadi.

Chap Sahifa: qizaloq turgan quruqlik, reallik, xavfsizlik.

O'ng Sahifa: dengiz, to'lqin, tabiat kuchi, noma'lumlik.

Dastlab qizaloq chapda, to'lqin o'ngda turadi. O'rtadagi buklama chizig'i ular o'rtasidagi psixologik to'siqni bildiradi. Qizaloq to'lqinni mazax qilganda yoki undan qochganda, u chiziqdan uzoqlashadi yoki unga yaqinlashadi. Qizaloq suvga tushganda va suv uning ustiga sachraganda, suv tomchilari va chag'alaylar chap va o'ng sahifa o'rtasidagi chiziqni kesib o'tadi. Eng muhim sahnada to'lqin butun ikkala sahifani qoplab oladi – chegara yo'qoladi, inson va tabiat birlashadi. "Soya" ("Shadow") kitobida esa nov yuqori va pastki qismni ajratib turadi (kitob vertikal ochiladi).

Yuqori qism: Omborxona yoki chordoq, turli buyumlar (supurgi, velosiped, qutilar). Bu – real dunyo.

Pastki qism: Ushbu buyumlarning soyasi. Bu xayolot dunyosi. Qizaloq soyalar bilan o'ynay boshlaydi. Dastlab soyalar buyumlarga mos keladi. Lekin tez orada soyalar o'zgarib, yirtqich hayvonlarga, o'rmonlarga aylanadi. Syuzi Li bu orqali bolalar o'yinining transformatsion kuchini ko'rsatadi. Nov – bu o'tish zonasi. Bola xayolotining kuchayishi sariq rang hajmining ortishi bilan ifodalanadi. Kitob oxirida qizaloqning onasi chiroqni yoqadi ("Click!") va soyalar yo'qoladi, lekin qizaloqning yuzidagi tabassum, egnidagi dastlab oq-qora, so'ng sariq tusga kirgan ko'ylakchasi sehr, u yaratgan xayoliy olam hali ham tirikligini bildiradi [6].

Tekstura va Tungi Tasavvur – Volf Erlbruh (Wolf Erlbruch) ning "Nachts" rasmli kitobi. Nemis rassomi Volf Erlbruhning "Nachts" (Tunda, 1999) asari vizual adabiyotda **kollaj** va **miks-media** (aralash texnika) uslubining yorqin namunasidir. Asar tunlari uxlay olmaydigan bola (Fons) va uning otasi haqida [3].

Erlbruh an'anaviy rasm chizishdan tashqari, turli xil qog'oz qiyqimlaridan foydalanadi: 1940-yillarning nemis gulqog'ozlari, Xitoy temir yo'l chizmalari, matematik formulalar yozilgan qog'ozlar. Kress va van Leuvenning **modallik** (modality - haqiqiylik darajasi) nazariyasiga ko'ra, bu usul qiziq paradoksni keltirib chiqaradi. Foydalanilgan materiallar (xaritalar, formulalar) – real dunyoning, kattalar dunyosining, mantiq va ratsionallikning belgilari. Ammo Erlbruh ulardan g'aroyib, mantiqsiz tush jonzotlarini qirqib yasaydi. Bu vizual metafora: bola kattalarning jiddiy, zerikarli va ratsional dunyosini o'z tasavvuri bilan o'yinchoqqa aylantiradi va uni irratsional mo'jizaga burkaydi. Otasi shaharni aylanayotganda faqat do'konlar va uylarni ko'radi, Fons esa xuddi shu narsalarda sehrli mavjudotlarni ko'radi. Asarning vizual tili qora fon (tun) va yorqin kollaj elementlari kontrastiga qurilgan. Har bir sahifada Oy tasviri bor, lekin u ham oddiy oy emas, balki turli qog'ozlardan (masalan, chizmalardan) yasalgan. Bu tunning qo'rqinchli emas, balki ijodiy imkoniyatlar makoni ekanligini anglatadi.

Maqolada keltirilgan tahlillar asosida quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Birinchidan, multimodallikning ustuvorligi. XXI asr axborot almashinuvi jarayonida monomodal yondashuv o'z o'rnini multimodal tizimlarga bo'shatib bermoqda. G.Kress va T. van Leuven nazariyalari tasvirning ham tildagi kabi qat'iy grammatik va semantik qonuniyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Vizual savodxonlik endilikda shunchaki estetik did masalasi emas, balki axborotni to'g'ri dekodlash va tushunish shartiga aylanmoqda. Ikkinchidan, matn va tasvir dialektikasi. P.Nodelman va M. Nikolayeva qarashlari asosida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, eng badiiy yetuk vizual asarlar matn va tasvirning shunchaki bir-birini takrorlashi (simmetriya) emas, balki o'zaro ziddiyati (kontrapunkt) yoki to'ldirishi (kengaytiruvchi) evaziga yuzaga keladi. Bu kitobxondan passiv qabul qilishni emas, balki faol intellektual ishtirokni talab etadi. Uchinchidan, vizual narrativning ijtimoiy-psixologik funksiyalari. Tahlil qilingan keyslar vizual adabiyotning keng qamrovli imkoniyatlarini namoyon etdi.

Umumiy qilib aytganda, vizual adabiyot – zamonaviy madaniyatning alohida, mustaqil va murakkab turi. O'zbekiston ilm-fani va ta'lim tizimida ushbu yo'nalishni chuqur o'rganish yosh avlodda vizual savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Browne A. The Tunnel. – London: Walker Books, 1989.
2. Eisner W. Comics and Sequential Art. – Tamarac: Poorhouse Press, 1985.
3. Erlbruch W. Nachts ['s Nachts]. Peter Hammer Verlag, 1999.
4. Kress G., Leeuwen ven T. Reading Images: The Grammar of Visual Design (2nd ed.). – London: Routledge, 2006.
5. Lee S. Wave. – California: Chronicle Books, 2008.
6. Lee S. Shadow. – San Francisco: Chronicle Books, 2010.
7. McCloud S. Understanding Comics: The Invisible Art. HarperPerennial, 1993.
8. Nikolajeva M., Scott C. How Picturebooks Work. – London: Routledge, 2001.
9. Nodelman P. Words About Pictures: The Narrative Art of Children's Picture Books. – Georgia: University of Georgia Press, 1988.

10. Spiegelman A. Maus I: A Survivor's Tale: My Father Bleeds History. – Pantheon: Pantheon Books, 1986.
11. Spiegelman A. Maus II: A Survivor's Tale: And Here My Troubles Began. – Pantheon: Pantheon Books, 1991.
12. Tan S. The Arrival. Hodder. – London: Children's Books, 2006.

Mastura XAITOVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi

JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA PR TEXNOLOGIYALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada PRning shakllanish jarayonini, jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatining asoslari, PR texnologiyalar tamoyillari, o'ziga xos xususiyatlari hamda mamlakatimiz jamoatchilik fikrini shakllantirishda uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish usullari tahlil etilgan.
Kalit so'zlar. jamoatchilik bilan aloqalar, RR, PR texnologiyalar, jamoatchilik fikri, xolis axborot yetkazish, ommaviy axborot vositalari.
Annotation. The article analyzes the PR formation process, the basics of public relations activities, the principles and features of PR technologies, and the methods for effectively utilizing its capabilities in shaping public opinion in our country.
Keywords: public relations, PR, PR technologies, public opinion, providing objective information, mass media.
Аннотация. В статье анализируется процесс формирования PR, основы деятельности по связям с общественностью, принципы и особенности PR-технологий, а также методы эффективного использования его возможностей в формировании общественного мнения нашей страны.
Ключевые слова: связь с общественностью, PR, PR-технологии, общественное мнение, предоставление объективной информации, средства массовой информации.

PR – inglizcha "public relations" iborasining qisqartirilgan shakli bo'lib, tashkilot faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Zero, PR – jamoatchilik bilan aloqalar faoliyati maqsadli auditoriyani muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash yoki ishontirish maqsadida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyadagi PR sohasi bo'yicha eng yirik va birinchi taqiqotchilardan biri Sem Blek PRga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Pablik rileyshnz – aniq, haqqoniy axborotlarlarga asoslangan, o'zaro bir-birini tushunish to'g'risidagi fan va san'atdir" [1: 17].

Jamoatchilik bilan aloqalar, ya'ni PR inglizcha "Public relations" iborasining qisqartirilgan shakli bo'lib, tashkilot faoliyatini to'g'ri va samarali tashkil etishning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Zero, PR faoliyati maqsadli auditoriyani muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash yoki ishontirish maqsadida amalga oshiriladi. Buyuk Britaniyadagi PR sohasi bo'yicha eng yirik va birinchi taqiqotchilardan biri Sem Blek PRga quyidagicha ta'rif bergan edi: "Pablik rileyshnz – aniq, haqqoniy axborotlarlarga asoslangan, o'zaro bir-birini tushunish to'g'risidagi fan va san'atdir"

"Vebster lug'atidan esa (Webster New International Dictionary) quyidagi ta'rif joy olgan: "Pablik rileyshnz" – izohlovchi materiallarni tarqatish, axborot almashinuvini rivojlantirish, jamoatchilik munosabatini baholash orqali inson, tashkilot va boshqa shaxslar, jamoa guruhlari yoki jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonch va kelishuvga asoslangan munosabatlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdir" [2: 7]. Ushbu ta'rif PR nafaqat jamoatchilik bilan aloqalarni o'rnatish va axborot almashinuvini rivojlantirish balki jamiyat a'zolari bo'lgan fuqarolar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratishga qaratilgan soha ekanligiga alohida urg'u beradi. "1948 yil Buyuk Britaniyada tashkil etilgan jamoatchilik bilan aloqalar instituti (IPR) quyidagi trantovka (talqin)ni qabul qilgan: "Pablik Rileyshnz" – tashkilot bilan jamoatchilik o'rtasida samimiy va o'zaro tushunishga qaratilgan aloqalarni yuzaga keltirish va qo'llab-quvvatlashning doimiy harakatidir" [3: 12].

Hozirda amalda bo'lgan eng ommalashgan ta'riflardan biri bu 1978 yili 11 avgustda Mexiko shahrida qabul qilingan Mexsikancha bayonotdir. Bu ta'rif 30 dan ortiq PR bo'yicha milliy va maxalliy assosiatsiyalar tomonidan tan olingan. Ushbu ta'rif quyidagicha: PR amaliyoti – tendensiya tadqiqotiga ijodiy va ijtimoiy-ilmiy qarash bo'lib, natijalarini oldindan ko'ra bilib rejalashtirilgan dasturlarni amalga oshirishda tashkilot va omma manfaatiga mos keladigan tavsiyalarni tashkilot rahbarlariga berishdir.

Yuqoridagi ikki ta'rifdan ham PR mohiyatini anglash mumkin. Ammo jamoatchilik bilan aloqalar instituti (IPR) taqdim etgan talqin biroz soddaroq shaklga ega. Chunki PR nafaqat "tashkilot bilan jamoatchilik o'rtasida samimiy va o'zaro tushunishga qaratilgan aloqalarni yuzaga keltirishi" balki ikki tomon manfaatlariga mos keladigan tavsiyalarni ishlab chiqishi, o'zaro aloqalarning natijalarini oldindan ko'ra bilib rejalashtirgan dasturlarni tashkilot rahbarlariga taqdim etishi lozim.

Demak, o'zbek tilida jamoatchilik bilan aloqalar deb ta'kidlangan PR kommunikatsiyaning ob'yekti ekan, PR texnologiyalar esa uning sub'yekti sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi, ya'ni fuqarolik jamiyati asoslari shakllanadi. Shu jihatdan jamoatchilik fikri va kayfiyatini o'rganish unga ta'sir etishning imkoniyatlarini yaratadi, uning sub'yekt sifatida faollashishiga turtki bo'ladi.

Bu jarayonni aniq idrok etish uchun texnologiya so'zining asl ma'nosiga to'xtalsak. Texnologiya – yunoncha "techne" (san'at, mahorat) hamda "logos" (ta'limot) so'zlarining birikmasidan olingan bo'lib, eng samarali ishlab chiqarish jarayonlarini tizimlashtirish hamda amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi [4: 287]. Texnologiya – ko'zlangan natijaga erishish imkonini beruvchi faoliyat shakllari, vosita, usul, andoza, qoida va me'yorlarning o'ziga xos tizimi. Texnologiyalashtirish jarayonini faqatgina ishlab chiqarish sohasi bilan bog'lash noto'g'ri bo'ladi. Fanga ham amaliy vazifalar yuklatilganidan so'ng texnologiyalar qo'llaniladigan sohalar ko'paydi, ijtimoiy jarayonlarga ham texnologiyalashtirish ob'yekti sifatida qarash odat tusiga kirdi. Bu aynan biz o'rganmoqchi bo'lgan PR faoliyatiga ham aloqador bo'lib, rivojlangan davlatlar siyosiy jarayonlarida bir qator PR texnologiyalar samarali qo'llanilishi ma'lum. Negaki, biror voqea va fikrni ommaga yetkazish, ya'ni axborot almashinuvini ta'minlash ijtimoiy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Shunday ekan, axborot almashinuvi jarayonini tartibga solish, boshqarish va samarali tashkil etish jarayonlari texnologiyalashtirish ob'yektiga aylanishi muqarrar. Tadqiqotimiz ob'yekti sifatida

tanlangan PR texnologiyalari ham aynan shu maqsadlarga xizmat qiladigan vosita sifatida yuzaga kelgan.

PR texnologiyalarining haqqoniy axborot tarqatishga asoslanishi mavjud muammolarni keng jamoatchilik o'rtasida erkin muhokama qilish, fuqarolarda tashkilot haqida ijobiy tasavvur uyg'otishga xizmat qilish demakdir. Shunga asoslanib, PR texnologiyalar bir qator tamoyillarga asoslanadi [5: 20]:

• Birinchi tamoyil – axborotning xolisligi va oshkoraligi;

• Ikkinchisi – o'zaro munosabatlarda kommunikatorning ham, resipiyentning ham manfaatlarini hisobga olish. PR texnologiyalari axborot yetkazuvchining maqsadlarini o'zida namoyon etsa-da, bu axborotlarni kishilar ongiga "tiqishtirmay", balki axborot yetkazishning jozibador usullari bilan kishilar e'tiborini jalb qiladi.

• Uchinchisi – jamoatchilik fikriga tayanib faoliyat yuritish, jamoatchilik fikrini hurmat qilishga asoslanishdir. Darhaqiqat, axborot yetkazish faoliyatining bunday tashkil etilishida axborot uzatuvchi tomon – davlat idorasi axborot qabul qilib oluvchi taraf – fuqaroga axborotning iste'molchisi sifatidagina emas, balki o'z dunyoqarashiga ega bo'lgan shaxs sifatida murojaat qiladi.

PR texnologiyalari ilmiy tadqiqotlar ob'yekti sifatida o'rganilar ekan, ularga "ta'sir etish va boshqaruvning alohida vazifasi" sifatida nisbat berilishi ko'plab olimlarning e'tiborini tortgan. Gap shundaki, PR texnologiyalari samarali ta'sir qilish tufayli boshqaruvni amalga oshirish, qarorlar qabul qilish va uni ijro etish bilan bog'liq kompleks jarayonning tarkibiy qismi sifatida qo'llanilganidagina samara berishi mumkin. Bunda PR texnologiyalari qabul qilingan qarorlarning mohiyatini aholiga tushuntirish bilan cheklanmay, qarorning qabul qilinishi uchun zarurat-ehtiyojni o'rganish, oqu-qorani ajratib olishda ko'maklashish, tegishli tavsiyalar ishlab chiqish, qaror qabul qilinishiga jamoatchilik fikrini tayyorlash kabi vazifalarni ham amalga oshiradi.

PR texnologiyalarining qo'llanilishi bevosita jamoatchilik fikri, qarashi, hatti-harakati bilan bog'liq ekan, bu sub'yektni alohida tadqiq etish juda muhim.

Jamoatchilik deganda ijtimoiy doirada faoliyat yuritadigan ijtimoiy birlashmalar va individlar majmui tushunilib, ayni paytda ular ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan umumiy manfaatlar va qadriyatlarga ega bo'ladi [6: 20].U yoki bu ijtimoiy subyekt keng ma'noda tushuniladigan jamoatchilik elementiga aylanishi uchun quyidagilar lozim:

– boshqa subyektlar bilan uning mushtarak manfaati yoki qadriyatlarining mavjudligi;

– mazkur manfaat yoki qadriyatni boshqa sub'yektlar bilan umumiy ekanligini anglashi;

– bu umumiy manfaat yoki qadriyatni dolzarb ommaviy muhokamaga taqdim etish;

– subyektning ommaviy aloqalar qatoriga kiritish.

Pablik rileyshnz sohasida esa jamoatchilik tushunchasi yuqorida keltirilgan ma'noda ham, nisbatan tor ixtisoslashgan ma'noda ham ishlatiladi. Tor ma'nodagi jamoatchilik deganda, PR subyektlarining iqtisodiy, siyosiy yoki ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyati bilan manfaat va qadriyatlari bog'liq bo'lgan keng jamoatchilikning bir sigmenti tushuniladi. Pablik rileyshnz nazariyasida bunday jamoatchilik maqsadli auditoriya yoki PR jamoatchiligi deb ataladi. Sodda qilib aytganda, bu yerda biror-bir tashkilot ta'sir o'tkazadigan jamoatchilik guruhlari haqida fikr yuritilmoqda va o'z navbatida tashkilot faoliyatining muvaffaqiyati shu guruhlar bilan bo'lgan aloqalarga bog'liq.

Jamoatchilik bilan aloqalar faoliyatida jamoatchilik fikridan avval jamoatchilikning o'zini, ya'ni maqsadli auditoriyani tadqiq etish birlamchi masala hisoblanadi. Auditoriyani geografik, demografik, psixografik, ijtimoiy-madaniy tavsifiga ko'ra sigmentlab o'rganish, uning mental jihatlariga e'tibor berish muhim.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, PR jamoatchilik fikrini boshqarish bilan bog'liq kasbiy amaliyot namunasi hisoblanadi. Jamiyatning ahamiyati oshgan davrlarda PR hukmron mavqega ko'tariladi. Jamoatchilik bilan aloqalar shakllanib borayotgan axboriy jamiyat uchun muhim omil bo'lib, uni o'rganish, nazariy manbalarini yanada takomillashtirib hamda yangi izlanishlarni amalga oshirish bugungi kunimizning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Блэк С., Паблик рилейшнз. Что это такое? Москва: Финикс, 1998.
2. Mualliflar jamoasi, Zamonaviy media muhitda PR-xizmatlar. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019.
3. Чумиков А.Н. Паблик рилейшнз. Связи с обвдественностью. – Москва: Дело, 2000. Б. 12.
4. Политология. Словарь-справочник. Москва: Гардарики, 2001.
5. Овчинникова М.А. Связи с общественностью как технология президентской власти в США. – Москва: 2002. С. 20.
6. Королько В.Г. Основы паблик рилейшнз. Москва: Рефл-бук, 2000.

Muqaddas ALLAMBERGENOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

QADIMGI TURKIY MANBALARDA "INSONIY FAZILATLAR" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida "insoniy fazilatlar" konsepti xususida so'z boradi. Yodgorliklar matnidan aniqlangan bir nechta so'zlar tahlilga tortilib, kognitiv-semantik jihatdan o'rganiladi. Tilshunoslik fani rivojlanishining zamonaviy bosqichida kognitiv (bilish) jarayonlari, tilda mujassamlashgan mental tuzilmalar hamda umumiy tizimli ilmiy tamoyillar (antropotsentrizm, eksplonatorlik) fonida til tuzilmalarini o'rganishga qaratilgan aniq xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: konsept, insoniy fazilatlar, kognitiv tadqiq, axloqiy fazilatlar, qadimgi turkiy yodgorliklar.

Annotation. This article discusses the concept of "human qualities" in the language of ancient Turkic written monuments. Several words identified from the text of the monuments are analyzed and studied from a cognitive-semantic point of view. At the current stage of linguistic development, specific conclusions are being made aimed at studying language structures against the background of cognitive processes, mental structures embodied in language, and general systematic scientific principles (anthropocentrism, exploitation).

Keywords: concept, human qualities, cognitive research, moral qualities, ancient Turkic monuments.

Аннотация. В данной статье речь пойдёт о концепте «человеческие качества» в языке древнетюркских письменных памятников. Несколько слов, выявленных из текста памятников, анализируются и изучаются с когнитивно-семантической точки зрения. На современном этапе развития лингвистики даются конкретные выводы, направленные на изучение языковых структур на фоне когнитивных (познавательных) процессов, ментальных структур, воплощенных в языке, и общих системных научных принципов (антропоцентризма, эксплонаторства).

Ключевые слова: концепт, человеческие качества, познавательное исследование, нравственные качества, древнетюркские памятники.

Rivojlanishining zamonaviy bosqichida tilshunoslik fani kognitiv (bilish) jarayonlarini, tilda mujassamlashgan mental tuzilmalarni, hamda umumiy tizimli ilmiy tamoyillar (antropotsentrizm, eksplonatorlik) fonida til tuzilmalarini o'rganishga qaratilgan aniq bir moyillikka ega bo'ldi [1].

Bugungi kunda tilning kognitiv xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar kognitiv fanning butun bir yo'nalish sifatida mustahkam o'rnashishiga va rivojlanishiga olib kelgan aktsiomalar shakllanishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotchilar inson faoliyatining turli sohalaridagi kognitiv jarayonlarga ta'sir etuvchi atrof-muhitdagi ob'yektlarni nomlash usullarini tanlashni maxsus tahlil qilishga e'tibor qaratmoqdalar. Kognitiv fanning markaziy va boshlang'ich tushunchasi sifatida leksemalar xizmat qiladi, ular obyekt yoki hodisa haqidagi ma'noli (ongli) bilimlarning birliklarini ifodalaydi. Inson nutq faoliyati jarayonida foydalanadigan alohida ob'yektlar, xususiyatlar, boshqa predmetlar va hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklar [Boldirev, 2009]. Nutq vaziyatiga qarab, leksema kognitiv mexanizm orqali allaqachon mavjud bo'lgan xususiyatlar asosida ikkilamchi birlikka aylanishi mumkin.

Lingvokognitiv yondashuv tadqiqot maqsadlari, xususiyatlari va o'ziga xosligi kabi omillarga bog'liq holda juda ko'p yo'nalishlarga ega. Mahalliy filologiyada etnolingvistik nuqtai nazarlar ancha mustahkam. Etnolingvistik tadqiqotlar doirasida tilning muhim xususiyati hisobga olinadi, bu xususiyat shundaki, u obrazli **dunyoqarashni kodlaydi** va uni so'z shakliga o'tkazib, uning kognitiv jihatdan o'rganilishiga asos bo'ladi. Til tizimining leksik birligi formal-mantiqiy tartibga ega. Bu ma'noda, leksikaning ideografik xarakteristikasi to'rtta kognitiv soha:

I. Tabiat (jonsiz, jonli);
II. Inson (fizik-biologik mavjudot sifatida);
III. Jamiyat (jamiyatning funksional birligi sifatida inson);
IV. Birlamchi bilim doirasida ko'rib chiqiladi.

G.D.G'achev, V.V.Morkovkin, Y.N.Qaraulov, A.T.Qaydarov, J.A.Mankeyeva, O.A.Kornilov, E.I.Zelenev, A.G'.Shayxulov, F.G'. Xisamitdinova, L.X.Samsitova, o'zbek olimlaridan **B.Mengliyev (**Kognitiv semantika, lingvomadaniyatshunoslik, matn kognitivasi. Uning ishlari til va tafakkur munosabatlari, jumladan, o'zbek tilidagi konseptlar tahliliga bag'ishlangan). **N.Mahmudova (**Konseptual metafora nazariyasi, kognitiv poetika. U adabiy matnlardagi va kundalik tildagi konseptual metaforalarni o'rganishga katta e'tibor qaratgan.), **D.G'afforova (**Kognitiv leksikologiya, so'zning konseptual tahlili. Uning tadqiqotlari leksik birliklarning ongda aks etishi masalalariga bag'ishlangan), **Sh.Rahimova (**Kognitiv frazeologiya, emotsional konseptlar, til va madaniyat. U frazeologizmlarning kognitiv asosini tahlil qilgan), **D.Jabborova** (Kognitiv grammatika, mental makon nazariyasi. Uning ishlari tilning grammatik qurilmasining kognitiv jihatlarini o'rganishga qaratilgan) va boshqa taniqli olimlarning ishlarida kognitiv fanning asosiy tamoyillari sifatida qaraladi.

Inson fazilatlari (inglizcha: *human virtues* yoki *qualities*) – shaxsning ichki dunyosini, xulq-atvorini va boshqalar bilan munosabatini belgilaydigan, **ijobiy** hisoblangan barqaror xususiyatlari, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari majmuasidir. Bu konsept insonning **eng yaxshi tomonlarini** o'z ichiga oladi va shaxsning nafaqat o'ziga, balki jamiyatga ham foydali bo'lishini ta'minlaydi. Axloqiy yaxshilik-fazilatlar insonning to'g'ri (adolatli), halol va insonparvar bo'lishiga yordam beradigan ichki kompas vazifasini o'taydi [5: 65].

Tilshunoslik fanining hozirgi bosqichida bilish jarayonlari, ya'ni kognitiv tahlil ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv orqali har qanday etnosning dunyoni anglash usuli va mental tuzilmalari uning tili, xususan, leksik tizimida qanday aks etganini aniqlash mumkin. O'rxun-Enasoy yozuvi yodgorliklari tili, barcha turkiy tillar, jumladan O'zbek tili uchun ham asosiy leksik va ma'naviy manba hisoblanadi. Bu matnlar orqali qadimgi turklarning o'zini o'zi anglash modeli, ya'ni jamiyatda qadrlangan "inson" tushunchasi va "fazilat" konseptlari (masalan, *küč, alp, erdem* kabi birliklar) qanday shakllangani haqidagi mental tasavvurlarni tiklash mumkin. Shuningdek, qadimgi turkiy leksikani kognitiv jihatdan tahlil qilish o'zbek tilining tub leksik qatlamidagi qadriyatlarni arab va fors o'zlashmalari ta'siridan oldingi holatda o'rganish imkonini beradi. VII–VIII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yodgorliklari materiallari asosida "inson" va "fazilat" konseptlarini ifodalovchi leksik birliklarni kognitiv usullar bilan tahlil qilish va ularning qadimgi turk dunyoqarashidagi o'rnini belgilashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun biz tanlangan leksemalarning semantik maydonini va ularning konseptual belgilarini aniqlaymiz. Shuningdek, ushbu qadimgi leksemalarni zamonaviy O'zbek tilidagi mos keladigan birliklar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali konseptual davomiylikni ko'rsatib berish ham tadqiqot vazifalari jumlasidandir.

Nazariy tavsiflarni qadimgi turkiy matnlardagi ba'zi misollarni tahlil qilish bilan davom ettiramiz**:** Masalan: "Bilga" (Donolik) bu – aql (Bil-) bilan bog'liq bo'lgan konsept. Lekin bu yerda "aql – ko'rish" (Körüg) metaforasi mavjud bo'lib, donolik faqat bilim emas, balki bashorat qilish fazilati ekanligini ifodalaydi. Leksik birlik kognitiv tilshunoslikda shunchaki bir so'z emas, balki madaniyat tomonidan shakllantirilgan va miyada saqlanadigan kompleks g'oya (konsept) ni til orqali ifoda etuvchi kod (belgi) dir [6: 123]. **"Bilga"** (Билгэ) leksemasining lug'aviy (denotativ) ma'nosi: dono, aqlli, bilimdon. Aqliy ustunlik, uzoqni ko'ra bilish, strategik qobiliyat. Bu misol Bilga Xoqon tomonidan o'zining otasi Eltarish Xoqon ta'rifida keltirilgan bo'lib, insoniy fazilatlarni baholashning yuqori namunasidir.

"Bilig bilmez kişi erinç, eligin anta yitürürmiş" [Tonyuquq]. Mazmuni: Bilim bilmas kishi ekan, elini o'sha yerda yo'qotgan ekan. Mazkur gapda konseptual Freym: Donolik ya'ni elning asosi "*Bilig bilmez kişi*" (Bilim bilmas kishi) jumlasi orqali Donolik (Bilig) konseptining qarama-qarshi qutbi (nodonlik) ta'kidlanmoqda. Kognitiv nuqtayi nazardan, bu jumlada noodnlik (fazilatsizlik) – xato harakat – elning yo'qolishi zanjiri mavjud.

Fazilatli inson (bilimli) davlatni saqlaydi, Fazilatsiz inson (bilimsiz) esa davlatni yo'q qiladi. Bu "Bilga" konsepti turkiy madaniyatda hokimiyatning eng asosiy fazilati ekanligini ko'rsatadi. Misolda kognitiv metafora: "Bilim – Ko'rish", "Bilga" leksemasi nafaqat ma'lumotga egalikni, balki voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyatini ham anglatadi. Masalan, Tўnyuquq o'zini "*Bilge Tўnyuquq*" deb atagan, ya'ni strategik jihatdan uzoqni ko'ra olgan. Fazilat bu yerda shaxsning ko'z bilan ko'ra olmaydigan xatarlarni aql bilan ko'ra olish qobiliyatiga tenglashtiriladi. Prototiplar tahlili esa, Bilga xoqon yoki maslahatchi prototipi hisoblanadi. Uning fazilati uni oddiy "kişi" (inson) dan ajratib turadi va yetakchilik o'rni uchun yaroqli qiladi. Qadimgi yodgorliklarda shunga o'xshash bo'lgan juda ko'plab so'zlarni tahlil qilishimiz mumkin. Masalan:

Leksema (Qad.turkiy)	Hozirgi ma'nosi	**Konseptual freym / Kognitiv tahlil (fazilat)**
Kiši (kishi)	inson, odam, shaxs.	Eng umumiy konsept; insonni biologik va ijtimoiy mavjudot sifatida anglashning asosiy birligi.
Er (er)	erkak, botir, mard.	Gender va fazilat metonimiyasi: erkak kishi (biologik gender) bilan jasurlik, kuch, qahramonlik (fazilat) konseptlari tenglashtirilgan.
Bilge (Bilge)	dono, aqlli.	Bilgelik konsepti: donolik – ko'rish qobiliyatidir. *Bilim – Körüg* (Oldindan Ko'rish) metaforasi orqali aks etadi. Bu strategik fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish fazilatidir.
Alp (alp)	botir, qahramon	Harakatdagi kuch prototiplari: jang maydonidagi matonat, qo'rqmaslik va o'zini fido qilish fazilatlarini anglatadi. Jamiyatda eng yuqori baholangan jismoniy-ruhiy kuch.
Tüz (tuz)	to'g'ri, adolatli, qonuniy.	Axloqiy fazilat: shaxsning halollik, to'g'rilik, tartibga amal qilish kabi axloqiy me'yorlarga amal qilish fazilati. Bu shaxsiy fazilat "Törü" (qonun/tartib) konsepti bilan bevosita bog'liq.
Bäg (bek)	boy, hukmdor, aslzoda	Ijtimoiy rol/fazilat: bu leksema shaxsiy boylikdan ko'ra, boshqaruv, yetakchilik va mas'uliyat kabi ijtimoiy fazilatlarni anglatadi.
Qutlug (qutlug')	mubarok, baxtli, barokatli.	Ilohiy fazilat: shaxsning omad, baxt va ilohiy Himoya konseptlari bilan bog'liqligi. Bu fazilat hokimiyatning legitimligi (qonuniyligi) uchun muhim bo'lgan.
Yablaq (yablaq)	yomon badfel.	Salbiy fazilat (antifazilat): yaxshi (yaxşı) konseptining qarama-qarshi qutbi. Xoinlik, tartibsizlik, noto'g'ri harakat kabi axloqiy kamchiliklar freymini ochadi.
Ač (ach)	ochko'z	Ochko'zlik konsepti: dastlabki ma'nosi "och qolish" bo'lsa-da, ko'pincha moddiy narsalarga hirs qo'yish (ochko'zlik) fazilati sifatida ishlatilgan.
Bodun (bodun)	xalq, el.	Ijtimoiy bog'liqlik: insonning yakkalik emas, balki jamoa ichidagi qiymati va ijtimoiy sadoqati fazilati. Matnlar shaxsni doimo jamoa kontekstida baholaydi.

O'zbek tilshunosligida "Inson fazilatlari konsepti" bevosita shu nom bilan o'rganilmasa-da, bu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya, aksiologik leksika (qadriyatga oid lug'at), kognitiv lingvistika va lisoniy manzara kabi yo'nalishlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. "Inson fazilatlari" – kognitiv tilshunoslikdagi **konsept** (tushuncha) hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida konseptlarni o'rganish borasida quyidagi olimlarning ishlari muhim:

A.Nurmonov, N.Mahmudov, I.Qo'chqortoyev, B.Mengliyev kabi taniqli tilshunoslar o'zbek tilining semantikasi, leksikologiyasi va kognitiv asoslari haqidagi fundamental tadqiqotlarida bilvosita ushbu mavzuga oid asoslarni yaratishgan. Bu yo'nalish, aynan insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar va axloqiy tushunchalarning tilda qanday ifodalanishi, ularning milliy tafakkurdagi o'rnini o'rganadi.

Inson fazilatlari (inglizcha: *human virtues* yoki *qualities*) bu – shaxsning ichki dunyosini, xulq-atvorini va boshqalar bilan munosabatini belgilaydigan, ijobiy hisoblangan barqaror xususiyatlari, axloqiy me'yorlari va qadriyatlari majmuasidir. Qadimgi turk xalqi (O'rxun-Enasoy yodgorliklari yozilgan paytda) uchun qanday insoniy sifatlar muhim bo'lganini tushunish uchun ularning eski tosh yozuvlarini ko'rib chiqdik. Xalqning boshlig'i (xoqon) uchun *Kuch (botirlik)* va *Donolik (aql)* eng muhim fazilatlar bo'lgan. Chunki bu sifatlar bilan u davlatni saqlay olgan. Xalqning o'z boshlig'iga sodiq bo'lishi va tartib-qoidalarga (to'riga) amal qilishi ularning asosiy qoidasi bo'lgan. Birlik bo'lmasa, davlat qulagan. Eng yomon ish bu – sotqinlik va davlatni buzadigan ochko'zlik hisoblangan. Bu, xoqonlikning bo'linib ketishiga sabab bo'lgan [5: 14].

Xullas, qadimgi turkiylar uchun yaxshi odam – kuchli, aqlli va sodiq davlatning mustahkam turishiga yordam beradigan shaxs. Ularning fazilatlari xalqqa xizmat qilish bilan bog'liq edi. Qadimgi bitiklarni semantik-kognitiv jihatdan tahlil qilish insoniyat uchun muhim hisoblangan juda ko'plab tushunchalarni tahlil qilishda, odamzotning tarixiy dunyoqarashini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev A. Qadimgi turkiy bitiklar tili. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
2. Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. O'zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
3. Abdullayev N.I. O'rxun-Yenisey yodgorliklari leksikasining semantik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri. diss... – Toshkent: 2021.
4. Xolmanov B. Qadimgi turkiy til: morfonologik tizim. – Toshkent: Navro'z, 2023.
5. Mamadaliyev X. Qadimgi turkiy tilda "davlat" konseptining lingvistik ifodasi // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2022, №3. – B. 45–56.
6. Mirzayeva D. Run yozuvlari matnlarining so'z yasalishi xususiyatlari // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2024. №1. – B. 68–75.

Bashorat BOVMANOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

MAQOLLARDA ZIDLASH ORQALI "HALOLLIK" TUSHUNCHASINING VOQEALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada zidlanish orqali "halollik" tushunchasini ifodalovchi maqollar tahlilga tortilgan. Dastlab tildagi zidlanish hodisasiga to'xtalib, so'ng fikrlar dalili sifatida maqollar keltirilgan.
Kalit so'zlar: halollik, zidlanish, to'g'rilik, poklik, harom, egrilik.
Annotation. This article analyzes proverbs expressing the concept of "honesty" through contradiction. First, the phenomenon of contradiction in language is considered, then proverbs are cited as proof of the opinions.
Keywords: honesty, opposition, straightforwardness, purity, forbidden, dishonesty.
Аннотация. В данной статье анализируются пословицы, выражающие понятие «честность» через противоречие. Сначала рассматривается явление противоречия в языке, затем в качестве доказательства мнений приводятся пословицы.
Ключевые слова: честность, противопоставление, прямота, чистота, запретное, лживость.

Ma'lumki, ma'noviy ziddiyat maqollarda, asosan, antonimiya orqali yuzaga chiqadi. Leksik antonimiya deb qarama-qarshi ma'no anglatadigan leksemalar munosabatiga aytiladi. Antonimiya ikki leksema o'rtasidagi munosabat bo'lib, ushbu leksemalarning semalaridan biri zid, qolgan semalari esa aynan bo'ladi. *Novcha – pakana* antonimik juftligida *novcha* zid: "bo'y o'lchami me'yordan ortiq", *pakana* "bo'y o'lchami me'yordan oz" ma'nolarni bildiradi. Ushbu zidlik *oz* va *ortiq* o'zaro antonim bo'lgan bir sema doirasida yuzaga chiqqan.

Antonimlar asosan sifat, ravish va fe'l so'z turkumida ko'p uchraydi. Ot turkumiga oid so'zlarda ham antonimlar mavjud. Lekin ular o'z mohiyatiga ko'ra ot kabi predmetlik ma'nosiga ega emas. Ular ma'nosi asosida hamma vaqt belgi yoki harakat yotadi. Darhaqiqat, predmetni ifodalovchi konkret otlar muayyan aniq bir predmetni nomlagani uchun ularda antonimiya munosabati kuzatilmaydi. *Kitob, qalam, qog'oz, uy, xona, eshik* kabi konkret buyum va narsa nomlari antonimiya munosabatini hosil qila olmaydi. Zero, mazkur leksemalarning leksik ma'nosi o'z ziddiga ega emas. Konkret so'zlardan faqat qarama-qarshi tomon nomlarida *(sharq* va *g'arb*, *janub* va *shimol),* fasl nomlarida *(yoz* va *qish*, *kuz* va *bahor),* sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda *(kecha* va *kunduz*, *kun* va *tun*) antonimlik munosabatini ko'rish mumkin. Abstrakt nomlarda esa antonimiya munosabati ancha yorqinroq kuzatiladi: *mehr-nafrat, shodlik-qayg'u, yaxshilik-yomonlik, tinchlik-urush, quvonch-tashvish, havas-hasad, do'stlik-dushmanlik.*

H.Jamolxonov antonimiya hodisasi kengroq tarqalgan holatlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tadi:

1) "belgi-xususiyat" ma'noli leksemalar doirasida: *katta* va *kichik*, *issiq* va *sovuq;*

2) "payt", "holat", "miqdor" ma'noli leksemalar doirasida: *kecha* va *ertaga*, *tez* va *sekin*, *ko'p* va *oz*;

3) "predmet" va "belgi" semalari mujassamlashgan leksemalarda: *boylik* va *kambag'allik*, *botirlik* va *qo'rqoqlik* [4].

E'tibor qilinsa, olim ajratilgan va abstrakt otlarni "predmet" va "belgi" semalari mujassamlashgan leksemalar sifatida talqin qilmoqda. Bu ham o'ziga xos yondashuv bo'lib, bu kabi belgi ma'noli abstrakt otlar belgini predmetlashtirgan holda nomlaydi va o'z-o'zidan, boshqa belgi bildiruvchi leksemalar qatori antonimlik munosabatlar hosil qilish imkoniyatlari yuqori bo'ladi.

Agar antonimik juftlik ifodalayotgan ma'no o'rtasida oraliq hodisalar mavjud bo'lsa, ushbu antonimiya munosabati darajalanish asosida shakllangan, deya olamiz. Bunda ma'noviy darajalanishning birinchi va oxirgi leksemalaridagi farqlilik kuchayib, eng oxirida antonimiyaga yetib borgan: yorug'likning kamayib borishi asosidagi darajalanish: ***kun*** *– oqshom –* ***tun***, quyosh haroratining oshib borishi asosidagi darajalanish: ***qish*** *– bahor –* ***yoz.*** Bu kabi antonimlar kontrar, *rost – yolg'on, arzon – qimmat* kabi oraliq holatlar mavjud bo'lmagan antonimlar esa komplementar antonim deyiladi.

So'zlarning faqat nutq jarayonida qarama-qarshi ma'no anglatishi nutqiy antonimiya deyiladi. Nutqiy antonimiya xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollar, matallarda, dostonlarda ko'p uchraydi. Maqollar xalq og'zaki ijod namunasi sifatida millatning olamni idrok etishini o'zida aks ettiradi. Til egasi bo'lmish xalq o'zaro zid bo'lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtirgan, zidlagan va buning natijasida maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilingan.

Ma'lumki, muayyan konsept maqollarda yuzaga chiqar ekan, u teskari ma'noli so'z bilan zidlanadi. Demak, halollik tushunchasi maqollarda ziddiyat orqali yuzaga chiqar ekan, halol va harom antonimiyasi bunda asosiy vazifani bajaradi. Bu ziddiyatga ega maqollarni yuqoridagi bandda tahlilga tortganimiz uchun mazkur o'rinda boshqa oppozitiv juftliklar orqali mazkur konseptning shakllanishiga to'xtalib o'tamiz.

O'zbek xalq maqollarida halollik tushunchasi *to'g'ri* va *to'g'rilik* so'zlari orqali ham voqelanadi. O'zbek tilida *to'g'ri* va *egri* so'zlari antonim sanaladi. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'atida *to'g'ri* so'zi *egri* so'zlari antonim sifatida beriladi (Sh.Rahmatullayev, 1980) hamda bu so'zlar maqollar shakllantirishda ham faol ishtirokchilardir:

To'g'ri bola o'stirsang, Xalq ichida sher bo'lar.
Egri bola o'stirsang, Ikki ko'zi ko'r bo'lar.
To'g'ri o'zar, egri ozar.

Ushbu maqollarda *to'g'ri* so'zi halollikni, *egri* so'zi esa haromni anglatadi. Bu kabi maqollarda xalq halollik va to'g'rilikni ulug'laydi, egrilikni qoralaydi, ularning yaxshi-yomon oqibatlarini ko'rsatadi:

To'g'ri – maqsadga yetar, Egri – maqsadsiz yitar;
To'g'ri yuk manzilga yetar, Egri yuk yo'lda bitar;
To'g'rilik nadot yo'liga boshlar, Egrilik halok chohiga tashlar;
To'g'ri yurdim – yetdim murodga, Egri yurdim – qoldim uyatga;
To'g'ri tayoq bilan egri tayoq ko'targanni ur!;
To'g'ri tayoq – baloga to'g'anoq;
To'g'ri bola o'stirsang, Xalq ichida sher bo'lar.
Egri bola o'stirsang, Ikki ko'zi ko'r bo'lar.
To'g'ri boshni egri qilich kesmas;
To'g'ri oshini yer, Egri boshini;
To'g'ri yurdim – yetdim murodga,
Egri yurdim – qoldim uyatga;

To'g'ri o'sgan gul bo'lar, Egri o'sgan kul bo'lar;
To'g'riga balo yo'q, Yomonda hayo yo'q.

Lekin xalq maqollarida *to'g'ri* va *egri* antonimiyasi bilan birga *to'g'ri* va *o'g'ri* so'zlarining nutqiy antonimligi ham ko'p kuzatiladi. *To'g'ri* va *o'g'ri* hamda *to'g'rilik* va *o'g'rilik* so'zlarining zid semantikasi ularning nutqiy antonimligini belgilovchi yagona mezon emas. Bu so'zlardagi paronimlik ham maqol qofiyasini shakllantirishda ahamiyatlidir. Shu tariqa bu ikki so'zning ma'nosi ham, nomemasi ham nutqiy antonimlikni shakllantiruvchi vositalar bo'lib hisoblanadi:

Ko'ngil to'g'ri uchun, Qulf o'g'ri uchun.
To'g'rilik to'rga tortar, O'g'rilik – go'rga.
O'g'rilik ko'zdan boshlanar, To'g'rilik – so'zdan.

Xuddi shunday holat *to'g'ri* va *yomon* leksemalarida ham kuzatiladi: *To'g'riga balo yo'q, Yomonda hayo yo'q.*

Bu kabi maqollarda *to'g'ri va yomon* ziddiyati *halol va harom* ziddiyatiga tengdir.

Maqollarda so'z birikmasi va frazemalarning antonimiyasi ham ko'p kuzatiladi: *To'g'ri oshini yer, Egri boshini. Egri bo'lsang, sinar qanoting, To'g'ri bo'lsang, chiqadi oting. Oshini yemoq* va *boshini yemoq, sinar qanoting* va *chiqadi oting* antonimiyasining hosil bo'lishida har ikki birikmaning ma'nosi, qofiyadoshligi hamda *to'g'ri, egri* so'zlari bilan shartlangan leksik qurshovi asos bo'lmoqda.

Nutqiy antonimlikni belgilovchi mezonlardan biri ma'nolarning zidligidan farqli o'laroq, ma'nolarda zid semalarning mavjudligidir. Uzual antonimiya ma'nolarning to'liq zidligiga asoslansa, nutqiy antonimiya esa semalarning zidligi bilan kifoyalanadi. *To'ni yomonni it qopar, ko'ngli yomonni haq topar* maqolida *to'n* va *ko'ngil* leksemalari orasida antonimlik hosil qilinmoqda. Ushbu maqolda *to'n* leksemasining "ustki (kiyim)" semasi va *ko'ngil* leksemasining "ichki" semalari ularning zidlanishiga sabab bo'lmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'zbek xalq maqollarida nutqiy antonimiya juda ko'p uchraydi. Bu hodisaning yuzaga kelishi ot, sifat, son turkumida juda faol. Maqol janrining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ma'nolarning zidlanishi bilan birga, qofiyadoshlik va leksik kontekstni ham nutqiy antonimlikni belgilovchi mezon deb hisoblash mumkin.

Dilnoza AXMEDOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o'qituvchisi

EPITETLARNING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI NUTQIDA QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada epitetlarning ommaviy axborot vositalari (OAV) nutqida qo'llanilishi lingvopoetik va pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. OAV matnlarida epitetlar axborotni emotsional-ekspressiv jihatdan kuchaytirish, baholovchi munosabatni shakllantirish hamda auditoriyaga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Zamonaviy o'zbek matbuoti, internet nashrlari va tele-radio nutqidan olingan misollar asosida epitetlarning semantik, uslubiy va kommunikativ xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: epitet, ommaviy axborot vositalari, publitsistik nutq, ekspressivlik, baholovchi birlik, pragmatika.

Annotation. The article analyzes the use of epithets in mass media discourse from linguopoetic and pragmatic perspectives. It demonstrates that epithets in media texts serve to enhance emotional expressiveness, form evaluative attitudes, and influence the audience. Based on examples from modern Uzbek press, online media, and broadcast discourse, the semantic, stylistic, and communicative features of epithets are examined.

Keywords: epithet, mass media, publicistic discourse, expressiveness, evaluative units, pragmatics.

Аннотация. В статье рассматривается использование эпитетов в дискурсе средств массовой информации (СМИ) с лингвопоэтической и прагматической точек зрения. Показано, что в медиатекстах эпитеты выступают как средство усиления эмоционально-экспрессивной окраски информации, формирования оценочного отношения и воздействия на аудиторию. На основе примеров, взятых из современной узбекской прессы, интернет-изданий и теле-радио дискурса, раскрываются семантические, стилистические и коммуникативные особенности эпитетов.

Ключевые слова: эпитет, средства массовой информации, публицистическая речь, экспрессивность, оценочная единица, прагматика.

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari jamiyat ongiga ta'sir ko'rsatishda muhim kommunikativ maydon hisoblanadi. OAV nutqi nafaqat axborot yetkazish, balki voqelikni muayyan baholash asosida talqin qilish vazifasini ham bajaradi. Shu jihatdan publitsistik matnlarda ekspressivlikni ta'minlovchi badiiy-vositalarning, xususan, epitetlarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Epitet – predmet, hodisa yoki shaxsning muhim belgisini ta'kidlab, unga emotsional-baholovchi tus beruvchi tasviriy vositadir. OAV nutqida epitetlar o'quvchi yoki tomoshabinning hissiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Epitet tilning tasviriy-ifodaviy vositalaridan biri bo'lib, predmet, hodisa yoki shaxsning muhim belgisini emotsional-baholovchi jihatdan ta'kidlashga xizmat qiladi. Tilshunoslikda epitet ko'pincha badiiy nutq doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, zamonaviy tadqiqotlar uning publitsistik va ommaviy axborot vositalari nutqida ham faol qo'llanilishini ko'rsatmoqda [1]. Shu sababli epitetni faqat poetik hodisa sifatida emas, balki funksional-uslubiy birlik sifatida tahlil qilish zarur.

Lingvistik nuqtayi nazardan epitet aniqlovchi vazifasida keluvchi leksik birlik bo'lib, u predmetning obyektiv belgisini emas, balki muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydi. Rahmatullayevning ta'kidlashicha, epitet oddiy sifatlovchidan farqli ravishda konnotativ ma'noga ega bo'lib, nutqda baholovchi va ekspressiv vazifani bajaradi [3]. Masalan, *katta bino* birikmasi neytral xususiyatga ega bo'lsa, *ulug'vor bino* birikmasida muallifning estetik munosabati ifodalanadi. Epitetlarning lingvistik mohiyati ularning ko'p qatlamli semantik tuzilmasida namoyon bo'ladi. Ular nominativ ma'noni saqlagan holda, qo'shimcha ravishda baholovchi va emotsional ma'nolarni ifodalaydi. V.Vinogradov epitetlarni "nutqning baholovchi-semantik markazi" sifatida talqin qilib, ularning kommunikativ vazifasiga alohida urg'u beradi. Bu jihat epitetlarning pragmatik xususiyatini ochib beradi.

Epitetlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning kontekstga bog'liqligidir. Bir xil leksik birlik turli nutqiy vaziyatlarda epitet yoki oddiy aniqlovchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, *yangi loyiha* birikmasida "yangi"

so'zi faktologik belgi bo'lsa, *yangi davr*, *yangi tafakkur* kabi birikmalarda u baholovchi va ramziy ma'no kasb etadi. Bu holat epitetning kontekstual hodisa ekanini tasdiqlaydi [6]. Semantik jihatdan epitetlar ko'chma ma'no asosida shakllanib, metaforik yoki metonimik xususiyat kasb etishi mumkin. Galperin epitetlarni obrazlilikni yuzaga keltiruvchi asosiy stilistik vositalardan biri sifatida baholab, ularning nutqning estetik ta'sirini kuchaytirishdagi rolini ta'kidlaydi. Masalan, *oltin imkoniyat*, *sovuq munosabat*, *qaynoq bahs* kabi birikmalar shunchaki belgi emas, balki muallifona bahoni ifodalaydi.

Shuningdek, epitetlar baholovchi semantika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular orqali ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalanadi. Publitsistik va OAV nutqida bu xususiyat ayniqsa muhimdir, chunki epitetlar auditoriyani muayyan talqin va xulosaga yo'naltirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan epitetlar diskursiv va ideologik tahlil uchun ham muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Epitet lingvistik birlik sifatida grammatik, semantik, uslubiy va pragmatik jihatlarning kesishuv nuqtasida joylashgan murakkab hodisadir. Uning chuqur tahlili, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari nutqini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari nutqining asosiy vazifalaridan biri axborotni tezkor va aniq yetkazish bilan birga, auditoriyaga kuchli ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, epitetlar OAV matnlarida axborotning emotsional-ekspressiv darajasini oshiruvchi muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Epitetlar yordamida xabar mazmuni nafaqat fakt sifatida, balki muayyan munosabat va baho bilan taqdim etiladi [1]. Axborotning ta'sirchanligini oshirishda epitetlar hodisa yoki voqeaning eng muhim, auditoriya e'tiborini tortuvchi jihatini ajratib ko'rsatadi. Masalan, *yig'ilish bo'lib o'tdi* kabi neytral xabar bilan *muhim yig'ilish bo'lib o'tdi* birikmasi o'rtasida sezilarli semantik va pragmatik farq mavjud. Ikkinchi holatda epitet axborotga dolzarblik va ahamiyat yuklab, o'quvchining qiziqishini oshiradi.

OAV nutqida epitetlar ko'pincha voqea miqyosini kengaytirish yoki kuchaytirish maqsadida qo'llaniladi: *keskin muammo, jiddiy vaziyat, ulkan yutuq, muhim tashabbus*. Bunday epitetlar axborotning intensivligini kuchaytirib, auditoriyada hissiy reaksiya uyg'otadi. Galperinning fikricha, epitetlar nutqda "emotsional rezonans" hosil qilib, matnning ta'sirchanligini sezilarli darajada oshiradi [5]. Shuningdek, epitetlar OAV matnlarida xabarni vizual va obrazli qabul qilishga yordam beradi. Masalan, *og'ir iqtisodiy ahvol*, *qaynoq siyosiy muhit* kabi birikmalar o'quvchi ongida aniq tasavvur hosil qiladi. Bu holat epitetlarning faqat emotsional emas, balki kognitiv vazifani ham bajarishini ko'rsatadi [6].

Televideniye va radio nutqida epitetlarning ta'sirchanligi yanada kuchliroq namoyon bo'ladi, chunki og'zaki nutqda intonatsiya va urg'u bilan birgalikda epitetlar auditoriyaga bevosita hissiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *nihoyatda muhim xabar*, *og'ir yo'qotish* kabi birikmalar tinglovchining diqqatini jamlashga xizmat qiladi. Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, publitsistik nutqda bunday birliklar axborotning psixologik ta'sir kuchini oshiradi (Yo'ldoshev, 2010). Epitetlar OAV nutqida axborotning ta'sirchanligini oshiruvchi yetakchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular xabarni emotsional-ekspressiv jihatdan boyitib, auditoriyaning diqqatini jalb qiladi hamda axborotning kommunikativ samaradorligini ta'minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari nutqining muhim xususiyatlaridan biri axborotni mutlaqo neytral tarzda emas, balki muayyan baholovchi munosabat asosida taqdim etishidir. Bu jarayonda epitetlar voqea, hodisa yoki shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatni shakllantiruvchi asosiy lingvistik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Epitetlar orqali muallif yoki OAV subyekti o'z pozitsiyasini bilvosita tarzda auditoriyaga yetkazadi [1]. Baholovchi epitetlar OAV matnlarida axborotning interpretativ xarakterini kuchaytiradi. Masalan, *qaror qabul qilindi* kabi neytral xabar bilan *mas'uliyatli qaror qabul qilindi* yoki *bahsli qaror qabul qilindi* birikmalari o'rtasida semantik va pragmatik farq mavjud. Ikkinchi holatda epitet auditoriyada voqea haqida oldindan baholangan munosabatni shakllantiradi. Bu jihat epitetlarning baholovchi semantikaga ega ekanini yaqqol ko'rsatadi [3].

OAV nutqida ijobiy baholovchi epitetlar ko'pincha davlat siyosati, ijtimoiy tashabbuslar yoki muhim tadbirlarni yoritishda qo'llaniladi: *muvaffaqiyatli islohot, samarali loyiha, muhim tashabbus*. Bunday epitetlar axborotga optimistik ruh bag'ishlab, auditoriyada ishonch va ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Aksincha, salbiy baholovchi epitetlar muammo va tanqidiy holatlarni ifodalashda ishlatiladi: *og'ir muammo, keskin vaziyat, xavfli holat*. Bu epitetlar auditoriyaning e'tiborini muammo jiddiyligiga qaratadi.

Baholovchi epitetlarning muhim jihati shundaki, ular ko'pincha fakt va baho o'rtasidagi chegarani noaniqlashtiradi. Vinogradov ta'kidlaganidek, bunday birliklar nutqda baholovchi semantikaning ustuvorligini ta'minlab, axborotni subyektiv talqin doirasiga olib kiradi. Natijada auditoriya voqeani mustaqil baholashdan ko'ra, tayyor baho asosida qabul qilishga moyil bo'ladi. Shuningdek, baholovchi epitetlar OAV diskursida ideologik funksiya ham bajaradi. Ular orqali "ijobiy" va "salbiy" hodisalar chegarasi belgilanadi, ijtimoiy me'yorlar mustahkamlanadi. Masalan, *asossiz da'volar*, *noqonuniy harakatlar* kabi epitetlar muayyan hodisani oldindan rad etuvchi baho bilan taqdim etadi. Arnoldning fikricha, bu holat epitetlarning diskursiv va manipulyativ salohiyatini oshiradi [6]. Epitetlar OAV nutqida baholovchi munosabatni shakllantirishning muhim uslubiy vositasi hisoblanadi. Ular axborotni faqat faktlar majmui sifatida emas, balki muallifona pozitsiya va ijtimoiy talqin bilan boyitib, auditoriya ongiga maqsadli ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalari nutqi o'z mohiyatiga ko'ra pragmatik yo'naltirilgan bo'lib, u nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaning qarashlari, baholari va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishni ham ko'zda tutadi. Ushbu jarayonda epitetlar auditoriyani muayyan talqin va xulosaga yo'naltiruvchi muhim lingvistik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Epitetlar orqali axborotning semantik markazi qayta tashkil etilib, muallif yoki OAVning kommunikativ maqsadi amalga oshiriladi.

Pragmatik jihatdan epitetlar axborotning qabul qilinish jarayonini boshqaradi. Masalan, *oddiy voqea* o'rniga *kutilmagan voqea* yoki *xavfli voqea* birikmalarining qo'llanishi auditoriyada voqeaning muhimligi yoki tahlikaliligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Bu holatda epitet faktning o'zidan ko'ra, uning qanday qabul qilinishini belgilaydi. Arnoldning ta'kidlashicha, epitetlar nutqning pragmatik yo'nalishini kuchaytirib, auditoriyani muayyan interpretatsiyaga undaydi. Manipulyativ funksiya, ayniqsa, OAV sarlavhalari va yetakchi jumlalarida yaqqol namoyon bo'ladi. *Keskin tanqid*, *jiddiy tahdid*, *bahsli tashabbus* kabi epitetlar o'quvchi e'tiborini jalb qilish bilan birga, axborotni muayyan ideologik ramkaga joylashtiradi. Van Deykning diskurs nazariyasiga ko'ra, bunday baholovchi birliklar ommaviy ongda "to'g'ri" va "noto'g'ri" talqinlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Epitetlar orqali auditoriyani yo'naltirish jarayoni ko'pincha bilvosita, yashirin xarakterga ega bo'ladi. Ochiq baho bildirilmagandek tuyulsa-da, *asossiz da'volar*, *xavfli tendensiya*, *mas'uliyatsiz bayonot* kabi epitetlar

auditoriyani ma'lum pozitsiyani qabul qilishga undaydi. Bu holatda epitetlar diskursiv manipulyatsiya vositasi sifatida ishlaydi.

Televideniye va radio nutqida epitetlarning manipulyativ ta'siri intonatsiya va urg'u bilan yanada kuchayadi. *Nihoyatda xavfli holat*, *o'ta muhim qaror* kabi birikmalar tinglovchining hissiy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, axborotni tanqidiy tahlil qilish imkoniyatini qisqartiradi. Yo'ldoshevning fikricha, publitsistik nutqda bunday birliklar auditoriyani "tayyor xulosa" tomon yo'naltiradi. Epitetlar OAV nutqida auditoriyani yo'naltiruvchi kuchli pragmatik va manipulyativ funksiya bajaradi. Ular orqali axborot muayyan talqin doirasida taqdim etilib, ommaviy ongga maqsadli ta'sir ko'rsatiladi. Shu bois epitetlarni OAV diskursida tahlil qilish media tilining ijtimoiy va ideologik mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari epitetlarning ommaviy axborot vositalari nutqida muhim lingvistik va kommunikativ vosita sifatida faol qo'llanilishini ko'rsatadi. Epitetlar OAV matnlarida axborotning emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirish, voqea va hodisalarga nisbatan ijobiy yoki salbiy baholovchi munosabatni shakllantirish hamda auditoriyani muayyan talqin va xulosaga yo'naltirish vazifalarini bajaradi. Ularning kontekstual va konnotativ xususiyati axborotning neytral taqdim etilishidan chekinib, muallif yoki OAV subyekti pozitsiyasini bilvosita ifodalashga xizmat qiladi. Natijada epitetlar publitsistik diskursning pragmatik va manipulyativ mexanizmlarini faollashtirib, ommaviy ongda muayyan baho va stereotiplarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan epitetlarni OAV nutqi doirasida tahlil qilish media tilining uslubiy, ijtimoiy va ideologik xususiyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umrqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. – Toshkent: Fan, 1998.
2. Yo'ldoshev J. Publitsistik nutq va uning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
3. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2006.
4. Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – Москва: Наука, 1972.
5. Galperin I. R. Stylistics. – Moscow: Higher School Publishing House, 1981.
6. Arnold I. V. Stylistics of Modern English. – Moscow: Flinta, 2002.

Shohsanam BAXROMOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINING TURLI JANRLAR KESIMIDA NUTQ RIVOJIGA TA'SIRI: TAHLIL VA KLASSIFIKATSIYA

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og'zaki ijodi namunalarining turli janrlar kesimida bolalar nutqini rivojlantirishdagi o'rni va funksional ahamiyati tahlil qilinadi. Folklor namunalari bolalarning fonetik, leksik, grammatik va kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, folklor materiallarining metodik ahamiyati, pedagogik jarayonga integratsiya qilish imkoniyatlari hamda ularning psixolingvistik omillar bilan bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: folklor janrlari, nutq rivoji, pedagogik metodika, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, qo'shiq, til kompetensiyasi, leksik rivojlanish.

Annotation. This article analyzes the role and functional significance of oral folk art examples in the development of children's speech across various genres. The influence of folklore samples on the formation of children's phonetic, lexical, grammatical, and communicative competencies is scientifically substantiated. The methodological significance of folklore materials, their integration into the pedagogical process, and their connection with psycholinguistic factors are also substantiated.

Keywords: folklore genres, speech development, pedagogical methodology, fairy tale, riddle, proverb, tongue twister, song, language competence, lexical development.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и функциональное значение образцов устного народного творчества в развитии детской речи в разрезе различных жанров. На научной основе освещается влияние фольклорных образцов на формирование фонетических, лексических, грамматических и коммуникативных компетенций детей. Также обосновывается методическая значимость фольклорных материалов, возможности их интеграции в педагогический процесс и их связь с психолингвистическими факторами.

Ключевые слова: фольклорные жанры, развитие речи, педагогическая методика, сказка, загадка, пословица, скороговорка, песня, языковая компетенция, лексическое развитие.

Xalq og'zaki ijodi (folklor) insoniyatning ko'p asrlik ma'naviy merosi bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari, til boyligi va badiiy tafakkuri mujassamdir. Folklorning tarbiyaviy kuchi uning qamrovchan shakllari, qisqa va sodda mazmuni, ritmik ohangi, obrazlilik darajasi bilan bog'liqdir. Shu boisdan ham xalq og'zaki ijodi an'analari bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida muhim metodik vosita sifatida qadrlanadi. So'nggi yillarda pedagogika, psixolingvistika va maktabgacha ta'lim metodikasi sohalarida xalq og'zaki ijodining nutq rivoji bilan bog'liq tadqiqotlar tobora kengayib bormoqda [1]

Nutq rivoji bolaning tilni egallash jarayoni, unda fonetik, leksik, grammatik, badiiy va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadi. Vygotskiy (1996) bolalarda nutq rivoji ijtimoiy muhit va madaniy tajribaga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bois folklor badiiy obrazlarga boy, ritmik, takroriy, sodda ifodali matnlar nutq rivoji uchun tabiiy lingvistik material hisoblanadi. Folklor bolalar nutq faoliyatining barcha asosiy tarkibiy qismlariga kompleks ta'sir ko'rsatadigan badiiy-pedagogik hodisa hisoblanadi. Birinchidan, u fonetik rivojlanishga – tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, intonatsion turlanishni anglash va nutq ohangini shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, leksik rivojlanishga – so'z boyligi, sinonimiya, antonimiya, ko'chma ma'no, epitet va metaforalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Uchinchidan, grammatik rivojlanishga – gap tuzilishi, so'zlarning o'zgarishi, fe'l zamonlari, sifatdosh va ravishdosh kabi tuzilmalarning tabiiy ravishda shakllanishiga turtki beradi. To'rtinchidan,

kommunikativ rivojlanishga – muloqot madaniyati, muomala, dialogga kirishish, o'z fikrini asoslab ayta olish, odobiy nutq normalarini egallash imkonini beradi. Beshinchidan, badiiy nutqni boyitadi, chunki folklordagi ritm, takror, obrazli tasvirlar, personaj nutqlari bolada badiiy-estetik idrok va obrazli fikrlashni shakllantiradi. Shu sabab folklor janrlari bolalar nutqining fonetik, leksik, grammatik, kommunikativ va badiiy bosqichlariga bir vaqtning o'zida kompleks ta'sir ko'rsatadi [1].

Topishmoqlar tasviriylik, mantiqiy mushohada, abstrakt fikrlash va metaforik nutqni rivojlantiradigan eng samarali janrlardan biridir. Topishmoqlar o'zining qisqa, lo'nda, mantiqiy konstruktsiyasi bilan bolani ma'noni yashirin shaklda izlashga undaydi. Vygotskiyning ta'kidlashicha, bolada tahlil va sintez jarayonlari aynan obrazlar orqali shakllanadi, topishmoqlardagi metonimiya va metafora esa bolani majoziy fikrlashga o'rgatadi. Masalan: "Uzi yo'qning ichi bor, ichi yo'qning uzi bor" topishmog'i (tuxum) ikki qarama-qarshi holatni solishtirishga asoslanadi. Bu jarayonda bola predmetning tashqi va ichki belgilari o'rtasidagi bog'lanishni topadi, rasmli tasavvurni jonlantiradi, mantiqiy xulosa chiqaradi. Topishmoq aytish jarayonida savol-javob shakli ustun bo'lgani uchun faol nutq, tezkor javob berish, muloqotga kirishish, nutqiy faollik kabi kompetensiyalar ham shakllanadi.

Maqol va matallar esa axloqiy tushunchalarni shakllantirish, qisqa, mazmunli gap qurish malakalarini rivojlantirishda muhim vositadir. Qosimova ta'kidlaganidek, maqollar qisqa sintaktik birikmalar asosida jamiyatning qadriyatlarini ifodalaydi va bolada fikrni ixcham bayon qilish malakasini rivojlantiradi [2]. Masalan, "Mehnat qilgan to'yar" maqoli sabab-oqibat munosabatlarini sodda konstruksiya orqali ochib beradi. Bu jarayonda bola fe'lning zamonlari, gap bo'laklari, sodda gaplardan murakkab gaplarga o'tish jarayonini ongli ravishda anglaydi. Maqollardagi antonim juftliklar ("Yaxshi – yomon", "Do'st – dushman"), sinonimlar va ko'chma ma'no elementlari leksik boylikni sezilarli oshiradi.

Tez aytishlar fonetik apparatni rivojlantirishda nihoyatda samarali bo'lib, nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishga, artikulyatsiya a'zolarining elastikligini oshirishga va nutq tezligini nazorat qilishga o'rgatadi. Bu janr bolalar uchun tabiiy logopedik mashq vazifasini bajaradi. Masalan: "Qiziquvchan qiz Chinnigul chiroyli chinni choynak ko'rdimi?" kabi tez aytishlar undosh tovushlarning almashinuvi, urg'u va ritmning boshqarilishi orqali bola talaffuzini ravonlashtiradi. Psixolingvistik tadqiqotlarda qayd etilishicha, tovushlarni tez-tez takrorlash orqali nutq motorikasi shakllanadi va fonematik eshituv kuchayadi [3]. Alla esa bolaning emotsional rivoji, ritmik eshitish va melodik nutq shakllanishi uchun beqiyos ahamiyatga ega. Alla janrida ko'p uchraydigan takroriy satrlar ("Alla-alla bolamga, bechora onamga...") bola uchun qulay ritmik muhit yaratadi. Bolaning ohangni ajratish, urg'uni sezish, nutq ritmini tushunish kabi ko'nikmalari aynan shu jarayonda shakllanadi.

Musiqiy ritm va nutq ritmining uyg'unligi bolaning fonetik o'sishini tezlashtiradi (Ergasheva, 2020). Bola qo'shiqlari esa leksik boylikni kengaytiradi, gap bo'laklarining ketma-ketligi, urg'u, intonatsiya, ritmik nutq elementlarini o'rganishga yordam beradi. Qo'shiqlarda takrorlar ko'p bo'lganligi sababli, bola so'zlarni yod olishda qiynalmaydi va ularni faol nutqida qo'llay boshlaydi. Laparlar esa dialogik shaklga ega bo'lib, ikki tomonlama muloqotning tabiiy modeli sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda bola savol-javob tuzilmasi, muloqot navbatini kutish, javobni mantiqiy shakllantirish kabi kommunikativ kompetensiyalarni egallaydi.

Ertaklar bolalarda mazmunni ketma-ketlikda aytish, voqealarni bog'lash, muallif nutqi va qahramon nutqini farqlash, emotsional va obrazli nutqni rivojlantiradi. "Zumrad va Qimmat", "Bo'ri va echki" kabi ertaklarda antonim juftliklar, xarakterlarning nutq uslubi, dialoglar, kechikishlar va dramatik qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, ular bolada syujetni qayta hikoyalash ko'nikmasini shakllantiradi. Qosimova qayd etishicha, ertaklar estetik idrokni, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarni mustahkamlaydi, nutqning emotsional-ekspressiv qatlamini boyitadi [2]. Afsona va rivoyatlar esa tarixiy tasavvurni shakllantiradi, voqealar sababini izohlash, ularning oqibatini tushunish, vaqt ketma-ketligini anglash kabi murakkab tahliliy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu janrlarning leksik tuzilishi ko'proq obrazlar va qadimiy so'zlarga boy bo'lganligi sababli, ularni yoshiga moslashtirish talab etiladi.

Folklor o'yinlari, masalan, "Oq terakmi, ko'k terak" kabi o'yinlar harakat va nutq uyg'unligini rivojlantiradi. O'yin qo'shiqlari emotsional nutqni kuchaytiradi, tengdoshlar bilan muloqotga kirishishni osonlashtiradi, ijtimoiy nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Rolli folklor o'yinlari esa nutqning dramatik funksiyasini rivojlantirib, bolani sahnalashtirilgan nutqga – intonatsiya, pauza, ohangdorlik va obrazli nutq elementlarini qo'llashga o'rgatadi.

Xalq og'zaki ijodi bolalar nutqini jadal, tabiiy va samarali rivojlantiruvchi bebaho vositadir. Uning janrlar tizimi fonetik, leksik, grammatik, badiiy va kommunikativ ko'nikmalarni kompleks shakllantirish imkonini beradi. Tez aytishlar talaffuzni mustahkamlasa, ertaklar tafakkur va badiiy nutqni rivojlantiradi, maqol va matallar esa qisqa, mazmunli gaplarni tuzishga o'rgatadi. Shunday ekan, xalq og'zaki ijodi namunalaridan metodik jihatdan to'g'ri foydalanish maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova N. Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Qosimova M. O'zbek xalq ertaklarining badiiy xususiyatlari. – Samarqand: SamDU, 2018.
3. Hasanov A. Folklorning bolalar nutqiga ta'siri // Ta'lim va taraqqiyot, №3, 45–52. 2019.
4. Выготский Л. Педагогическая психология. Москва: Педагогика, 1996.
5. G'ulomov A. O'zbek folklori asoslari. – Toshkent: Universitet, 2015.
6. Jo'rayev N. Nutq rivojida ertaklarning roli // Til va adabiyot ta'limi, 2021, №2. – B. 33–39.
7. Mirziyoyeva Z. Bolalar folklori va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
8. Sodiqova D. Til rivojiga yo'naltirilgan o'yin texnologiyalari. – Buxoro: BDU, 2017.Rahimov Sh. O'zbek bolalar folklori: janr va struktur tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
9. UNESCO. Early Childhood Development and Culture. – Paris: UNESCO – Publishing, 2019.

Axadjon ATABOYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti

XUSUSIY VA IJTIMOIY ONGNING MOHIYATI HAMDA TUZILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada xususiy va ijtimoiy ongning mohiyati hamda ichki tuzilishi falsafiy-lingvistik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Ong individual va kollektiv darajalarda namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Xususiy ongning shaxsiy tajriba va idrok bilan bog'liqligi, ijtimoiy ongning esa tarixiy-madaniy omillar orqali shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, ularning o'zaro aloqasi, funksional qatlamlari va til orqali verbalizatsiya mexanizmlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: xususiy ong, ijtimoiy ong, ong tuzilishi, individual idrok, kollektiv tafakkur, ijtimoiy tajriba, til va ong, kognitiv jarayon, konseptual tizim, madaniy omillar, ong verbalizatsiyasi, ijtimoiy borliq.

Annotation. This article explores the essence and structural organization of individual and social consciousness from a philosophical and linguistic perspective. Consciousness is viewed as a complex social phenomenon manifested at both individual and collective levels. The study examines the relationship between individual consciousness and personal experience, as well as the formation of social consciousness under historical and cultural influences. Particular attention is paid to their interrelation, functional layers, and mechanisms of verbalization through language.

Keywords: individual consciousness, social consciousness, structure of consciousness, individual perception, collective cognition, social experience, language and consciousness, cognitive processes, conceptual system, cultural factors, verbalization of consciousness, social reality.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность и структура индивидуального и общественного сознания с философско-лингвистических позиций. Сознание интерпретируется как сложное социальное явление, проявляющееся на индивидуальном и коллективном уровнях. Анализируется зависимость индивидуального сознания от личного опыта и восприятия, а также формирование общественного сознания под воздействием историко-культурных факторов. Особое внимание уделяется их взаимосвязи, функциональным уровням и механизмам вербализации посредством языка.

Ключевые слова: индивидуальное сознание, общественное сознание, структура сознания, индивидуальное восприятие, коллективное мышление, социальный опыт, язык и сознание, когнитивные процессы, концептуальная система, культурные факторы, вербализация сознания, социальная реальность.

Falsafada ong insonning tashqi dunyoni va o'z mavjudligini idrok etishning shaxsiy tajribasini, bu tajribani tushunish qobiliyatini qamrab oladi. Biologik jihatdan ong – insonning o'zi va atrof-muhit, jumladan, turli hodisalar haqida fikr yuritish imkonini beruvchi miya funksiyasi. Kognitiv, kumulyativ, baholovchi, obyektiv, kommunikativ, tartibga soluvchi va ijodiy funksiyalar kabi ongning turli jihatlari yagona tizim ichida chambarchas bog'liqdir. Bu funksiyalar bilish, bilimlarni egallash, qiymatni baholash, maqsadlarni belgilash, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar va xatti-harakatlarni boshqarish, atrof-muhit va jamiyatni anglash, shuningdek, interaktiv muhitda noyob ijodkorlikni yuzaga chiqarish kabi jarayonlarni olib boradi.

Ongning diniy talqinlari ko'pincha uni ilohiy hodisa, Xudoning mo'jizaviy ijodi deb biladi. Ko'pgina diniy an'analarda inson ongi cheklangan deb qabul qilinsa ham, ilohiy aql va uning namoyon bo'lishining aksi sifatida tasvirlangan. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir. Jon o'lishi bilan ong ham o'ladi. Bunday qarashlarning ildizi juda qadimga borib taqalsa ham, hamon ko'plab tarafdorlariga ega. Zero, bu odam va olam yaratilgani masalasi bilan bevosita bog'liq. Biologik nuqtai nazardan esa ong ong moddiy jarayon bo'lib, inson tanasining faoliyati bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

Shaxsiy ong "xususiy ong" deb ham ataladi va har bir inson uchun o'ziga xos bo'lgan aqliy jarayonlarni qamrab oladi. U tug'ma fazilatlar, shaxsiy tajriba, tarbiya, ta'lim va boshqa turli omillar kombinatsiyasi ta'siri ostida shakllanadi. O'z-o'zini anglash, dunyoqarash, qadriyat va e'tiqod, kognitiv qobiliyatlar (idrok, xotira, fikrlash, aql) hamda hissiy soha (shaxsiy tajriba, kayfiyat, hissiyot) shaxsiy ongni tashkil etuvchi asosiy yelementlardir. Shaxsning o'zini o'zi anglashi uning yaxlitligini, o'ziga xosligini va o'zini ifoda etish qobiliyatini saqlashida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

"Falsafa qomusiy lug'ati"da **ijtimoiy ong** "jamiyatning moddiy va ma'naviy tomonlarini o'z ichiga olgan, doimiy o'zgarish, aloqa va o'zaro ta'sir bilan tavsiflangan tushuncha" sifatida tavsiflanadi. Ijtimoiy ongga jamiyatning rivojlanish darajasi va uning siyosiy imkoniyatlarini ko'rsatadigan falsafiy kategoriya sifatida qaraladi. Ijtimoiy ongning turli shakllari, shu jumladan, axloq, din, san'at va fan madaniy tizimning ajralmas qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, lug'atda ijtimoiy ong va ijtimoiy mavjudlik o'rtasidagi munosabat quyidagicha tushuntiriladi: "Binobarin, ijtimoiy borliqsiz ijtimoiy ongning, ijtimoiy ong faol ishtirokisiz jamiyatning moddiy rivojlanishini ta'minlab bo'lmaydi". Ijtimoiy ong ma'lum bir ijtimoiy guruh, sinf yoki jamiyat ichidagi umumiy g'oyalar, qadriyatlar va me'yorlar to'plamini o'z ichiga oladi. Uning asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

1. Axloq va axloqiy me'yorlar (to'g'ri va noto'g'rini, yaxshi va zararli narsalarni hamda tegishli xatti-harakatlarni belgilaydigan tamoyillar).
2. Mafkura. Unga ma'lum bir ijtimoiy guruh manfaatlarini ifodalovchi, dunyoni tushunish va undagi rolimiz uchun asos yaratadigan e'tiqod hamda qadriyatlar doirasi sifatida qaraladi.
3. Ijtimoiy psixologiya odamlarning ijtimoiy kontekstda qanday fikrlashi, his qilishi va harakat qilishini o'rganadi, boshqalarning fikr, his-tuyg'u va xatti-harakatlarimizga ta'sirini, shuningdek, guruhlar ichidagi o'zaro ta'sirini tahlil qiladi.
4. Jamoatchilik fikri – muhim ijtimoiy hodisa va atrofda sodir bo'ladigan voqealarni jamoaviy baholash.
5. Ma'naviy madaniyat ilm-fan, san'at va din kabi sohalarni qamrab oladi, jamiyatning intellektual hamda ijodiy ifodasini namoyon yetadi.

Ijtimoiy ongni shakllantirishda turli omillar, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, siyosiy ta'sir, ma'naviy jihatlar, milliy an'ana, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining barcha turlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jamiyat ichidagi shaxslarni bog'laydigan ko'prik bo'lib xizmat qiladi. U individual ong bilan o'zaro dinamik ta'sirda bo'lib, shaxsiy qadriyatlar va istiqbollarni shakllantiradi. Jamiyat sohasida keng tarqalgan qadriyat va e'tiqodlar shaxsning rivojlanishi hamda dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, xususiy ong jamoatchilikni yangi g'oyalar bilan oziqlantiradi, mavjud g'oyalarni o'zgartiradi.

Shaxsiy va ijtimoiy ongning asosiy elementlari:

1. Shaxsiy va jamoat sohalari o'rtasidagi bog'liqlik juda muhimdir. Ijtimoiy me'yor va qadriyatlar shaxs tafakkurini shakllantiradi, intellektual rivojlangan shaxslarning g'oya hamda harakatlari esa ijtimoiy fikrlashni kuchaytiradi.

2. Jamiyat ongi ko'plab qatlamlardan, shu jumladan, ziyolilar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan falsafiy va ilmiy konsepsiyalar kabi nazariy tarkibiy qismlardan iborat. Amaliy darajada bu o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirga ega umumiy aholining kundalik e'tiqodlari hamda qarashlari bilan bog'liq.

3. Yillar davomida ham shaxsiy, ham ijtimoiy ong sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Jamiyat iqtisodiy va madaniy taraqqiyot sifatida shaxslar va jamoalarning qadriyatlari, axloqi va e'tiqodlari ma'lum o'zgarishlarga uchraydi.

4. Har bir millatning ijtimoiy ongiga uning o'ziga xos madaniy, tarixiy va psixologik xususiyatlari ta'sir qiladi, bu o'z navbatida, fuqarolarning qarash va xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlar milliy xarakter, urf-odatlar va yetnik stereotiplarning shakllanishiga yordam beradi. Ular shu tarzda shakllanadi.

5. Sinfiy differensiatsiya turli ijtimoiy guruhlardagi odamlarning idrokida farqlarni keltirib chiqaradi. Hukmron sinflarning manfaatlari, qadriyatlari va mafkurasi ko'pincha keng aholi manfaatlaridan ajralib turadi, bu ijtimoiy kelishmovchilik va raqobatga olib keladi. Shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy ong o'rtasidagi murakkab munosabatlar insoniyatning jamiyatdagi taraqqiyot darajasini aks ettiradi. Ularni har tomonlama chuqur o'rganish ijtimoiy jarayonlarning qonuniyatlarini tushunish uchun zarurdir.

Tilning kognitiv qobiliyatlarga ko'plab ilmiy sohalarda tadqiqot obyekti bo'lib qolmoqda. Ushbu sohani o'rganishda sezilarli yutuqlarga qaramay, til va fikrlash o'rtasidagi bog'liqlikning ko'plab jihatlari tadqiqotchilar e'tiborini jalb qilmoqda. Ayniqsa, turli tillarda g'oyalarni ifodalash muammosi dolzarb masalalardan biridir. Ba'zi tillarda ma'lum so'zlar yoki tushunchalarning aniq ekvivalentlari mavjud emas, bu esa ularni to'liq va aniq ifodalashni qiyinlashtiradi. Shu bilan birga, bu holat turli tillarda so'zlashuvchilar voqelikni konsepsiyalashda farq qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аршинов В.И., Свирский Я.И. Синергетическое движение в языке // Самоорганизация и наука: опыт философского осмысления. М., 1994.
2. Гердер И. Трактат о происхождении языка. М.: Изд-во ЛКИ, 2007.
3. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода. «Хрестоматия по истории языкознания XIX–XX веков», сост. В.А.Звегинцевым. М.: Учпедгиз, 1956.
4. Донских О.А. Происхождение языка как философская проблема. Новосибирск: Наука, 1984.
5. Гураль С.К. Язык как саморазвивающаяся система / под науч. ред. В.Н.Сушковой. Томск: Изд-во Томск. ун-та, 2009.
6. Матяш Т.М. Марксов метод анализа сознания: объективно-мыслительные формы // Гуманитарий Юга России, 2018, т.7, №3.
7. Петровский А.В. Общая психология. М., 1976.
8. Whitehead A.N. Process and reality. – New York, 1978. – 413 p.

Zuxro AKBAROVA,
Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi professori filologiya fanlari doktori;

Baxtiyorjon XALIMOV,
Farg'ona davlat universiteti magistranti

O'ZBEK TILIDA SO'ZLASHUVCHI BOLALAR NUTQIDA DISLEKSIYANI ANIQLASH UCHUN LINGVISTIK TESTLAR YARATISH MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar nutqida disleksiyani erta aniqlash uchun lingvistik testlar ishlab chiqish masalalariga bag'ishlanadi. Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilining fonetik, morfologik va grafik xususiyatlarini inobatga olgan holda, xalqaro psixolingvistik tamoyillarga tayangan diagnostik vosita ishlab chiqish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslashdir. Maqolada xalqaro test tizimlari (CTOPP, DEST, DIBELS, PhAB, ЗАРЯ) tahlil qilinadi, ularni o'zbek tili uchun moslashtirishdagi qiyinchiliklar aniqlanadi hamda tilga xos o'qish strategiyalari asosida test tuzish mezonlari ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: disleksiya, diagnostik test, fonologik xotira, o'zbek tili, psixolingvistika, o'qish qobiliyati, neyrolingvistika.

Annotation. The article is dedicated to developing linguistic tests for early detection of dyslexia in the speech of children who speak in Uzbek language. The purpose of the study is to scientifically and practically substantiate the need to create a diagnostic tool, based on international psycholinguistic principles and taking into account phonetic, morphological, and graphical features of the Uzbek language. The article analyzes international testing systems (CTOPP, DEST, DIBELS, PhAB, ZARYA), difficulties in their adaptation to the Uzbek language are identified, and criteria for constructing tests are developed, taking into account the specifics. Uzbek reading strategies.

Keywords: dyslexia, diagnostic test, phonological memory, Uzbek language, psycholinguistics, reading ability, neurolinguistics.

Аннотация. Статья посвящена разработке лингвистических тестов для раннего выявления дислексии в речи детей, говорящих на узбекском языке. Цель исследования – научно и практически обосновать необходимость создания диагностического инструмента, основанного на международных психолингвистических принципах и учитывающего фонетические, морфологические и графические особенности узбекского языка. В статье анализируются международные тестовые системы (CTOPP, DEST, DIBELS, PhAB, ЗАРЯ), определяются трудности их адаптации к узбекскому языку и разрабатываются критерии построения тестов с учётом специфики узбекских стратегий чтения.

Ключевые слова: дислексия, диагностический тест, фонологическая память, узбекский язык, психолингвистика, способность к чтению, нейролингвистика.

So'nggi o'n yilliklarda inson miyasining tilni o'zlashtirish jarayonini chuqur o'rganishga qaratilgan kognitiv lingvistika, neyropsixologiya va psixolingvistika sohalari sezilarli rivojlandi. Bu jarayon, o'z navbatida, tilni o'zlashtirishdagi individual farqlar va o'qishdagi buzilishlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar sonining

ortishiga sabab bo'ldi. Shulardan biri – disleksiya, ya'ni o'qish malakasining neyrolingvistik asosdagi buzilishi masalasidir.

Disleksiya – intellektual darajasi normal bo'lgan bolalarda o'qish, yozish, tovushlarni tahlil qilish va grafema-fonema mosligini o'zlashtirishda kuzatiladigan doimiy kognitiv-lingvistik qiyinchilik bo'lib, asosan miyaning chap yarimsharidagi tilni qayta ishlovchi zonalar faoliyatining sustligi bilan izohlanadi [1: 45]. Bugungi kunda disleksiyani aniqlash bo'yicha standartlashtirilgan diagnostik testlar (masalan, *CTOPP*, *DEST*, *DIBELS*, *PhAB*, ***ЗАРЯ***) AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Finlandiya, Yaponiya kabi davlatlarda maxsus tizimlar asosida o'qish buzilishlarini erta skrining qilish, ya'ni maktabgacha yoki boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq aniqlash imkoniyati yaratilgan [3: 113]. Ammo o'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar uchun bunday milliy diagnostik vositalar hali mavjud emas. O'zbek tilining o'ziga xos fonetik-morfologik tizimi, grafik yozuv tuzilishi va bo'g'in strukturasining ingliz yoki boshqa tillardan sezilarli farq qilishi buning asosiy sababidir. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar uchun disleksiyani aniqlovchi testlarni yaratish jarayoni soddalashtirilgan tarjima emas, balki tilning ichki tuzilishi, tovush tizimi, morfologik birliklari va bo'g'in tuzilishini hisobga olgan psixolingvistik modellashtirishni talab etadi. Shunday qilib, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi o'zbek tilida so'zlashuvchi bolalar nutqida disleksiya alomatlarini aniqlash uchun lingvistik, nevrologik va psixologik mezonlarga asoslangan diagnostik test yaratish zaruratini ilmiy jihatdan asoslash hamda bu jarayonning metodologik va amaliy qiyinchiliklarini aniqlashdan iboratdir.

Yaqin yillarda disleksiyani erta aniqlash va to'g'ri baholash masalasi ko'plab mamlakatlarda davlat miqyosidagi ilmiy va amaliy dasturlarga aylangan. Disleksiyaning tabiati fonologik, orfografik va morfologik jarayonlarning neyrolingvistik darajadagi buzilishi bilan bog'liq bo'lgani sababli, xorijda ishlab chiqilgan testlar ko'proq **fonologik defitsit modeli**ga (phonological deficit model) tayanadi. Ushbu modelga ko'ra, o'qishdagi asosiy qiyinchilik tovushlarni tahlil qilish, biriktirish va yozma belgilar bilan bog'lash jarayonlaridagi sustlikdan kelib chiqadi [5: 47]. Xalqaro testlarning umumiy metodologik asoslari quyidagilarga tayanadi:

Fonologik tahlil – tovushlarni eshitish, ajratish, almashtirish, qo'shish va so'zlarni segmentatsiya qilish topshiriqlari orqali o'lchanadi.

Orfografik jarayonlar – so'zning yozma shaklini tanish, o'qilgan so'zni ma'nosi bilan bog'lash ko'nikmalari baholanadi.

Ishchi xotira va tezlik – tovush va so'zlarni eslab qolish tezligi, qayta ishlash tezligi va so'z tanish avtomatizatsiyasi aniqlanadi.

1-jadval. Eng ko'p qo'llaniladigan xalqaro diagnostik testlar

Test nomi	Asosiy yo'nalish	Yosh guruhi	Asosiy o'lchov
CTOPP (Comprehensive Test of Phonological Processing)	tovushlarni eshitish, tovush manipulyatsiyasi, fonologik tezlik	5–24 yosh	fonologik xotira, tovush manipulyatsiyasi, tezlikni o'lchash
DEST (Dyslexia Early Screening Test)	4–7 yoshli bolalarda erta disleksiya ehtimolini aniqlash	4–7 yosh	tovush tahlili, so'z tanish tezligi, vizual-motor muvofiqligi
DIBELS (Dynamic Indicators of Basic Early Literacy Skills)	boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'qish avtomatizmi va tezligini aniqlash	5–10 yosh	so'z o'qish tezligi, dekodlash va avtomatizatsiya darajasi
PhAB (Phonological Assessment Battery)	fonologik eshituv, verbal xotira, ritm va tovush ajratish qobiliyatini baholaydi	6–14 yosh	fonemik farqlash, tovush birikmalari bilan ishlash, verbal xotira
ЗАРЯ (Звуковой Анализ Русского Языка)	fonologik diskleksiyani aniqlash; fonemik anglash, segmentatsiya, fonemik manipulyatsiya, fonologik xotira, grafema-tovush mosligi	6–12 yosh	fonemalarni farqlash, tovushlarni ajratish/ manipulyatsiya qilish, fonologik xotira, grafema-tovush mosligini baholash

Bu testlarning barchasi o'qish qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy komponentlar – **fonologik idrok**, **vizual-dekodlash**, **verbal ishchi xotira** va **grafem–fonem muvofiqligi**ni aniqlashga qaratilgan.

Xorijda yaratilgan testlar ingliz, nemis yoki fransuz tillarining fonetik va morfologik tuzilishiga moslashtirilgan. Ingliz tili orfografik jihatdan **murakkab (deep** orthography) til bo'lgani sababli, tovush–grafema muvofiqligi har doim bir xil emas. Shu sababli xorijiy testlar tovushlarni kodlash, o'qish avtomatizmi va tezlikni o'lchashga ko'proq urg'u beradi. O'zbek tili esa **yuzaki orfografik tizim** (shallow orthography)ga ega bo'lib, tovush va harf o'rtasida yaqin moslik mavjud. Shu bois, xorijiy testlardagi ba'zi komponentlar (masalan, so'z o'qish tezligini o'lchash yoki fonemik manipulyatsiyalarni inglizcha tovush tizimi asosida tekshirish) o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri mos kelmaydi. Shuning uchun **milliy diagnostik testlar yaratishda xalqaro metodologik asoslardan foydalanish bilan birga, o'zbek tilining fonetik va morfologik xususiyatlari chuqur hisobga olinishi zarur.** Shu bois O'zbekiston sharoitida ishlab chiqiladigan har qanday diagnostik test **xalqaro mezonlarga tayanishi**, ammo **milliy til tizimiga moslashgan lingvistik model** asosida tuzilishi lozim.

O'zbek tilida disleksiya diagnostikasi uchun test ishlab chiqish jarayoni murakkab va ko'p qatlamli til tizimini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Chunki bu tilning fonetik, morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari ingliz, rus yoki fin tillaridan tubdan farq qiladi. Shuning uchun xorijiy disleksiya testlarini

bevosita tarjima qilish emas, balki **o'zbek tilining ichki tuzilish qonuniyatlariga moslashtirilgan yangi diagnostik model** ishlab chiqish zarur. Quyida bu jarayonda uchraydigan asosiy lingvistik qiyinchiliklarni tahlil qilamiz.

O'zbek tili fonemik yozuv tizimiga ega bo'lib, unda **harf va tovush o'rtasida deyarli to'liq moslik mavjud**. Masalan, ingliz tilida bir tovush turli harflar bilan ifodalanishi yoki bir harf bir nechta tovushni anglashi mumkin ("a" harfi *cat*, *cake*, *car* so'zlarida turlicha talaffuz qilinadi), o'zbek tilida esa **har bir harf ma'lum bir fonemaga qat'iy mos keladi**, lekin disleksiyaning namoyon bo'lish shakli ingliz tilidagidan farq qiladi. Xususan, **disleksiya belgilarining asosiy manbayi** tovushlarni idrok etish yoki ajratishdagi qiyinchilik emas, balki **tovushlarni manipulyatsiya qilishdagi sekinlik va noaniqlik**da namoyon bo'ladi. Shu sababli o'zbek tilidagi testlarda **tovush manipulyatsiyasi** – ya'ni so'zdan tovushni olib tashlash, almashtirish, yangi so'z hosil qilish, tovushlar ketma-ketligini o'zgartirish kabi topshiriqlar muhim diagnostik rol o'ynaydi.

Diagnostik vositalarning samaradorligi, ularning madaniy mosligi bilan chambarchas bog'liq. O'zbek bolalari uchun test materiallarida kundalik hayotga yaqin, milliy madaniyatga oid mavzular – "maktab", "oila", "bayramlar", "tabiat", "do'stlik" kabi sohalardan so'z va jumlalar tanlanishi tavsiya etiladi. Bu nafaqat semantik yukni kamaytiradi, balki bola uchun testni tushunarli va qulay qiladi. Xorijiy tajribada ham testlarning madaniy neytralligini ta'minlash disleksiya diagnostikasida asosiy shart sifatida ko'rsatilgan [5: 87].

Disleksiyani aniqlashga mo'ljallangan diagnostik testni yaratish murakkab, ko'p bosqichli va ilmiy asosga ega jarayondir. U nafaqat lingvistik va psixolingvistik bilimlarni, balki testologiya, statistika va ta'lim psixologiyasiga oid yondashuvlarni ham talab etadi. Ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bir nechta yo'nalishda namoyon bo'ladi. Eng avvalo, o'zbek tilida milliy disleksiya diagnostika tizimini yaratish orqali lingvistika, neyropsixologiya va ta'lim sohalarining kesishgan nuqtasida yangi ilmiy yo'nalish shakllanadi. Hozirga qadar o'zbek tilida disleksiya uchun maxsus standartlashtirilgan testlar mavjud emas. Shuning uchun ushbu ish **milliy neyropsixolingvistik diagnostika modeli**ni ishlab chiqishga yo'naltirilgan birinchi bosqich sifatida katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, ushbu tadqiqot nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, o'zbek tilida disleksiya muammosini aniqlash, tushuntirish va bartaraf etish yo'lidagi birinchi tizimli ilmiy qadam sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shaywitz S.E. *Overcoming Dyslexia: A New and Complete Science-Based Program for Reading Problems at Any Level.* – New York: Alfred A. Knopf, 2003.
2. Snowling M.J. *Dyslexia (2nd ed.).* – Oxford: Blackwell Publishing, 2000.
3. Vellutino F.R., Fletcher J.M., Snowling M.J., Scanlon D.M. *Specific reading disability (dyslexia): What have we learned in the past four decades?* // Journal of Child Psychology and Psychiatry, 2004, 45(1). – P. 2–40.
4. Reid G. *Dyslexia: A Practitioner's Handbook (5th ed.).* – Chichester: Wiley-Blackwell, 2016.
5. Stanovich K.E. *Explaining the differences between the dyslexic and the garden-variety poor reader: The phonological-core variable-difference model* // Journal of Learning Disabilities, 1988, 21(10). – P. 590–604.

Surayyo ESHONQULOVA,
Alfraganus universiteti dotsenti;
filologiya fanlari doktori

NODIRA LIRIKASIDA TASAVVUFIY TIMSOL VA IRFONIY TALQINLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nodira lirikasidagi tasavvufiy timsollar va ularning irfoniy talqinlari aniqlangan, mazkur obrazlarning badiiy vazifasi ochib berilgan hamda shoira poetik tafakkurida ilohiy va majoziy ma'nolar uyg'unligi ilmiy asosda tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: Nodira, tasavvuf, irfon, tasavvufiy timsol, ishq, mumtoz o'zbek adabiyoti, poetik tafakkur.
Annotation. This article identifies Sufi images in Nodira's lyrics and their mystical interpretations, reveals the artistic function of these images, and scientifically analyzes the harmony of divine and metaphorical meanings in the poet's poetic thinking.
Keywords: Nodira, Sufism, images of spiritual worldview, Sufi symbol, love, classical Uzbek literature, poetic thinking.
Аннотация. В данной статье выявлены суфийские образы в лирике Надиры и их мистические интерпретации, раскрыта художественная функция этих образов, а также на научной основе проанализирована гармония божественных и метафорических значений в поэтическом мышлении поэтессы.
Ключевые слова: Надира, суфизм, образы духовного мировосприятия, суфийский символ, любовь, классическая узбекская литература, поэтическое мышление.

Sharq mumtoz adabiyotida tasavvuf faqat diniy-falsafiy ta'limot sifatida emas, balki badiiy tafakkurning muhim manbayi sifatida shakllangan. Tasavvufiy g'oyalar insonning ma'naviy kamoloti, ruhiy poklanishi va Haqiqatni anglashga intilishini markazga qo'ygani bilan mumtoz she'riyatda keng ifodalangan. Shu bois tasavvufiy timsollar va irfoniy talqinlarni tahlil qilish Sharq adabiyotining poetik tizimi, ma'no qatlamlari hamda estetik xususiyatlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy poetika asrlar davomida shakllanib, ramz, ishora va obrazlar orqali badiiy ifoda topgan. Bu jarayonda g'azal janri tasavvufiy g'oyalarni ifodalashning eng qulay va samarali shakli sifatida namoyon bo'lgan. G'azallarda ishq tushunchasi faqat shaxsiy tuyg'u sifatidagina emas, balki ilohiy ma'rifatga yetaklovchi ma'naviy yo'l sifatida talqin qilingan.

XIX asr o'zbek adabiyotida Nodira lirikasi ushbu an'analarning davomchisi sifatida o'ziga xos o'rin tutadi. Shoira ijodida tasavvufiy ramzlar va irfoniy mazmunlar nafaqat an'anaviy poetik qoliplar doirasida, balki ayol ijodkor tafakkuriga xos ichki kechinmalar, ma'naviy izlanishlar bilan uyg'un holda ifodalangan. Bu esa Nodira lirikasini tasavvufiy estetika nuqtayi nazaridan o'rganishni ilmiy jihatdan dolzarb masalaga aylantiradi. XX asr nodirashunoslikda shoira ijodini atroflicha o'rganilganligi bilan ajralib turadi. Nodira tarjimayi holi, ijodiy merosiga oid bir qator tadqiqotlar adabiyotshunos olimlar tomonidan turli aspektlarda tadqiq etilgan [4]. Mustaqillik

yillaridan so'ng ham shoira shaxsiyati va she'riyatini yoritishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan [3: 292].

Qayd etilgan tadqiqotlarda Nodira shaxsiyati, dunyoqarashi, asarlaridagi tarixiy obrazlar tizimi, poeziyasi borasida turli yo'nalishlarda turli munosabatlar bilan fikr-mulohazalar milliy istiqlol nuqtayi nazaridan biografik va qiyosiy-tipologik metod orqali tahlil etilgan. Biroq, mumtoz o'zbek adabiyotida tasavvufiy poetika, irfoniy timsollar va badiiy ma'no qatlamlarini o'rganish, Nodira she'riyatida tasavvuf – ma'naviy tamoyil sifatida tarixiy-adabiy metod asosida, Nodira lirikasi XIX asr adabiy muhiti, tasavvufiy an'analar va mumtoz she'riyat poetikasi kontekstida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv shoira ijodidagi tasavvufiy g'oyalarning shakllanish manbalari va ma'naviy-estetik asoslari masalasi alohida tahliliy-talqin (interpretativ) metod orqali g'azallardagi tasavvufiy timsollar, ramzlar va ishoralar orqali kompleks tahlil etilmagan, irfoniy mazmunlarning chuqur ma'no qatlamlari izohlanmagan, germenevtik usullaridan foydalanilgan holda maxsus tadqiqot doirasiga tortilmagan.

Tadqiqot natijasida Nodira lirikasida tasavvufiy poetika tizimli ravishda shakllangani aniqlandi. Shoira g'azallarida tasavvufiy timsollar tasodifiy obrazlar emas, balki irfoniy ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi barqaror badiiy vositalar sifatida qo'llanilgan. Aniqlanishicha, Nodira lirikasida uchraydigan tasavvufiy timsollar asosan ishq, ma'rifat va ruhiy kamolot tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, inson va Yaratgan o'rtasidagi botiniy aloqani ifodalashga qaratilgan va ular orqali ma'naviy poklanish va ruhiy yuksalish g'oyalari ifodalangan. Shuningdek, Nodira lirikasida tasavvufiy obrazlar ayol ijodkor tafakkuriga xos ichki kechinmalar bilan uyg'unlashgani aniqlandi. Bu holat tasavvufiy g'oyalarning individual poetik ifodada namoyon bo'lishini ta'minlagan. Nodira lirikasining o'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy estetikani ifodalovchi muhim namunalar qatoridan o'rin egallashini hamda shoira ijodida irfoniy talqinlar yaxlit poetik tizim darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi.

Shariat – ruhiy-ma'rifiy kamolot yuksakligining birinchi pog'onasidir. Usiz erishilgan har qanday daraja mardud bo'lishi so'fiylar qarashlarida ham, so'fiyona she'riyatda ham o'z aksini topgan. Shunday ekan, tasavvufda ham, uning ta'siridagi adabiyotda ham "Shariat – mash'al, tariqat – yo'l, haqiqat – boradigan manzildir" [12: 14], degan qarash umumiy va o'zgarmas qoida hisoblanadi. Tasavvufning adabiyot, xususan, she'riyat bilan yaqinlashuvi tasodifiy hodisa bo'lmagan. Chunki xuddi adabiyot singari tasavvuf ham inson axloqi, ko'ngli, ruhi va tafakkuri bilan mashg'ul bo'lishni qo'llab-quvvatlagan. Qolaversa, "Tasavvuf adabiyotini o'rganmay turib musulmon Sharqi madaniy hayoti haqida yorqin tasavvur olib bo'lmaydi" [6: 54], – deydi Y.E.Bertels. Bundan tashqari, filologiya fanlari doktori Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, "Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni so'fiylar va ijodkorlarning ruhan yaqinligidan ham izlasa bo'ladi" [7: 156]. Binobarin, "...tasavvuf jahon tafakkuri tarixining uzviy bo'lagi" sifatida ma'lumdir [8: 26].

Qur'oni Karim ta'limi va tasavvufning ma'naviy tamoyil sifatidagi o'rnini o'zbek mumtoz adabiyotining har bir bosqichi hamda obidalari misolida kuzatishimiz mumkin. Adabiyot tarixiga doir qaysi bir nodir asarni qo'lga olmaylik, unda insonning ma'naviy kamoloti va shaxs sifatidagi takomilida islom ta'limi, Qur'on oyatlari hamda tariqatga oid qarashlarning ulkan ma'rifiy o'rni borligini ko'ramiz [10: 3].

Nodira lirikasida an'anaviy ishq-muhabbat, irfoniy, axloqiy-ma'rifiy, hamd, na't va munojot mavzulariga alohida ahamiyat berilgan. G'azallarida tasavvufiy timsol va irfoniy talqinlar ham muayyan o'rin tutadi. Shoira *mahbub, sham', parvona, o't, orif, ko'ngil, ruh, but, butxona* kabi timsollar vositasida Inson va Alloh o'rtasidagi botiniy bog'liklikni ifodalaydi. Aytish mumkinki, "... agar so'zlarda faqat lug'atda qayd etilgan muayyan ma'nogina bo'lganda va ikkinchi til (badiiy til – izoh bizniki S.E.) tilning bunday to'g'riligini buzmaganida va undan ozod qilmaganda edi, adabiyot ham bo'lmas edi" [13: 79]. Tasavvufiy ruh bilan sug'orilgan ushbu misralarda shoira ishq yo'lidan bexabar zohidni qabihguftor shaxs sifatida ta'riflaydi. Nodira o'zini "ishq oinasi" deb ataydi. Shu oinada inson o'zining butun orzu va o'ylari bilan namoyon bo'ladi [9: 31–32].

"Komila devonida o'zini rind, qalandar deb atagan baytlar, g'azallar ham mavjud. Ilohiy ishq talqin etilgan "omadam" radifli g'azalida shoira "ishq libosini kiyganman, murod tojini boshimga qo'yganman, aylanib turgan charx piyolamdir, men bir rind qalandarman", – deb yozadi:

Kisvati ishq dar baram, toji murod bar saram,
Gardishi charx sog'aram, rindi qalandar omadam.

Keyingi baytlar shoira mushohadalarini yanada aniqroq ifodalaydi:

Fahru fano tariqi man, mehru vafo rafiqi man,
Ishqi butan shafiqi man, valai dilbar omadam.
Bas, ki rahi malak zadam, naqshi vujudi haq zadam,
Pay ba no'h falak zadam, bar sari chambar omadam...

Bu baytlarda shoira mutasavvuf ayol qiyofasida namoyon bo'ladi. U faqr va fano yo'lida yo'lchi ekanligini bayon etmoqda. Shoira qaysidir tariqatga rasman aloqador bo'lmasa-da, qalban ixlosmand bo'lgan. Balki, keyingi baytda ishora etilayotganidek, "Haq vujudini naqsh etib", naqshbandlarga ixlos qilgandir" [11: 111]. Biroq shuni alohida qayd etish joizki, Nodira ijodida "ishqi ilohiy" bilan hamohang tarzda "ishqi majoziy" ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shoira ash'orlarida ishqi ilohiy bilan ishqi majoziy uyg'unlikda yuqori cho'qqi, go'zal tuyg'u sifatida talqin etilishi bilan birga, shoira lirik qahramon – oshiq ahvolidan darak berib, tuyg'ulari bilan majoziy hamda ilohiy g'oyalarni uyg'unlashtiradi. Bu g'oyalar shoira ko'zlagan mehr-vafo, insoniylik, yaxshi axloqni va fazilatlarni ifodalasa, boshqa jihatdan, Yaratganga bo'lgan mislsiz intilish bilan bog'liq tasavvurlarni ham qamrab oladi. Adabiyotshunos olim A.Hayitmetovning: "Garchi Sharq poeziyasi tarixida biz satirik, falsafiy, avtobiografik g'azallarni, tabiat, may haqidagi g'azallarni uchratsak ham, lekin g'azalning asosiy spetsifik mavzusi ishqdir. Buni faqat g'azal nazariyachilarining fikrigina emas, balki shu narsaning necha yuz yillik taraqqiyot tajribasi ham ko'rsatib turadi" [14: 56], – degan qarashlari naqadar asosli ekanligini Nodira lirikasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, Nodira lirikasi tasavvufiy timsollar va irfoniy talqinlar orqali mumtoz o'zbek she'riyatida ishqning estetik, ma'naviy va falsafiy mohiyatini yuksak badiiy darajada ifodalagan adabiy hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Nodira lirikasida tasavvufiy timsollar va irfoniy talqinlar izchil va tizimli poetik hodisa sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Shoira ijodida tasavvuf diniy-falsafiy qarashlar majmuyi sifatida emas, balki badiiy tafakkurni boyituvchi estetik va ma'naviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Shoira lirik tafakkurida tasavvufiy timsollar ayol ijodkor ruhiyatiga xos nozik kechinmalar bilan uyg'unlashib, mumtoz o'zbek adabiyotida irfoniy estetikani yangi poetik ohang va individual talqin bilan boyitgan. Shu jihatdan Nodira lirikasi tasavvufiy poetikani o'rganishda muhim ilmiy-adabiy manba sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonqulova S. Nodira she'riyatida tarixiy obrazlar talqini: Filol. fan. nomz. diss... – Toshkent, 2011.
2. Eshonqulova S. Nodiraning badiiy mahorati: Filol. fan. dokt. ...diss. – Jizzax, 2022.
3. Nusratullo Atoullo o'g'li Jumaxo'ja. Milliy mustaqillik mafkurasi va adabiy meros (XVII–XIX asrlar o'zbek she'riyati asosida): Filol. fan. d-ri... diss. – Toshkent, 1999.
4. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti (XVIII–XIX asrlar): Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 1961.
5. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi: Filol. fan. nom. ... diss. – Toshkent, 1961. – bet 182.
6. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. – Москва: Наука, 1965.
7. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.
8. Qayumov A. Bu ohang ila bo'lg'asen naqshband. – Toshkent: 1993.
9. Qodirova M. XIX asr o'zbek shoiralari ijodida inson va xalq taqdiri. –Toshkent: Fan, 1977.
10. Qodirova M. She'riyat va muhabbat malikasi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1998.
11. Muhitdinova N. Nodira she'riyatida tasavvufiy qarashlar talqini // "Tasavvuf adabiyotining o'rganilishi va tarjimashunoslik muammollari: respublika ilmiy nazariy anjumani materiallari, 2018.
12. Rafiddinov S. Shariat, tariqat va haqiqat // Naqshbandiya, 2010, №1. – B. 14.
13. Ржевская Р.Ф. О семиотических исследованиях литературоведении // Семиотика и художественная творчество. Москва: Наука, 1977.
14. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: O'zR FA, 1961.

Gulnoraxon NIYAZOVA,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti

GENDER VA TIL: PATRIARXAL DISKURSNING XUSUSIY NUTQDA FEMINISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender va til o'rtasidagi murakkab munosabatlar xususiy diskurs doirasida tahlil qilinadi. Feministik lingvistika nazariyalari asosida tilning patriarxal ijtimoiy tuzilmalarni qanday aks ettirishi va qayta ishlab chiqarishi ko'rsatib beriladi. R.Lakoffning "oyna modeli" konsepsiyasi, S.Whedon, D.Cameron, N.Henley va boshqa tadqiqotchilarning fikrlari asosida gender tengsizliklarining diskursiv tabiati yoritiladi. "Cho'qintirgan ota" asaridagi ayol obrazlari misolida patriarxal diskursning amaliy ko'rinishlari keng tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: gender, feministik lingvistika, patriarxal diskurs, verbal gigiyena, ideologiya, xususiy nutq, diskurs tahlili.

Annotation. This article analyzes the complex relationship between gender and language within personal discourse. Based on the theories of feminist linguistics, it is demonstrated how language reflects and reproduces patriarchal social structures. Based on R.Lakoff's concept of the "mirror model", as well as the opinions of S.Widone, D.Cameron, N.Hanley, and other researchers, the discursive nature of gender inequality is illuminated. On the example of female characters in the work "The Godfather", the practical manifestations of patriarchal discourse are considered.

Keywords: gender, feminist linguistics, patriarchal discourse, verbal hygiene, ideology, private speech, discourse analysis.

Аннотация. В данной статье анализируются сложные взаимоотношения между гендером и языком в рамках личного дискурса. На основе теорий феминистской лингвистики демонстрируется, как язык отражает и воспроизводит патриархальные социальные структуры. Опираясь на концепцию «зеркальной модели» Р.Лакоффа, а также мнения С.Уидона, Д.Кэмерон, Н.Хенли и других исследователей, освещается дискурсивная природа гендерного неравенства. На примере женских персонажей произведения «Крёстный отец» рассматриваются практические проявления патриархального дискурса.

Ключевые слова: гендер, феминистская лингвистика, патриархальный дискурс, вербальная гигиена, идеология, личная речь, анализ дискурса.

Til va gender masalasi sotsiolingvistika, diskurs tahlili va feministik tadqiqotlarning kesishgan nuqtasidagi masalasidir. Gender kategoriyalari lingvistik birliklar, nutq aktlari va ijtimoiy rol kutishlarida chuqur ildiz otgan bo'lib, patriarxal jamiyatlarda til ayollarning ijtimoiy mavqeini belgilash, cheklash va legitimlashtirishning eng muhim vositalaridan biridir. R.Lakoff tilni ijtimoiy kuchni tabiiylashtiruvchi vosita sifatida ko'radi, poststrukturalist yondashuv esa gender ma'nolarining konstruktiv tabiatini ta'kidlaydi [4]. Maqolada genderning xususiy diskursda aks etishi, tilning patriarxal strukturalarni mustahkamlashdagi roli va ayollarning lingvistik periferiyaga surilishi tahlil qilinadi. Adabiy misol sifatida "Cho'qintirgan ota" asari tanlandi.

R.Lakoffning "Language and Woman's Placeasari ayollar nutqi orqali jamiyatdagi subordinatsiyani aks ettirishni ko'rsatadi. Ayollarning nutq xususiyatlari (ehtiyotkorlik, muloyimlik, ko'plik istagi) patriarxal ijtimoiy tartib tomonidan shakllantiriladi. Stenli, C.Miller va K.Swift ayollar tashqi ko'rinishi va hissiyotlariga e'tibor qaratadigan leksik maydon orqali patriarxal stereotiplarni mustahkamlaydi. S.Whedon ayol va erkak tushunchalarining mohiyatga ega emasligini, ularning ma'nosi diskurs orqali doimiy qayta ishlab chiqarilishini ta'kidlaydi [9]. Gender ijtimoiy konstruksiya sifatida til orqali namoyon bo'ladi. D.Cameron nutq me'yorlarini ijtimoiy nazorat vositasi deb biladi, N.Henley esa ilmiy diskursning patriarxal kuchni mustahkamlashdagi rolini tahlil qiladi.

Ushbu tadqiqot gender va til munosabatlarini xususiy diskurs doirasida tahlil qilish uchun bir nechta metodologik yondashuvlarni uyg'unlashtiradi. Metodologiya nazariy va empirik jihatlarni birlashtirib, tilning patriarxal tuzilmalarni yaratish va mustahkamlashdagi rolini aniqlashga qaratilgan. Asosiy yondashuvlar quyidagilar:

Diskurs tahlili gender va til o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o'rganishning markaziy vositasi sifatida tanlandi. Foucault va van Dijk nazariyalari asosida quyidagi aspektlar ko'rib chiqildi:

Nutqdagi hokimiyat. Til orqali ijtimoiy tartib va kuch munosabatlarini yaratish; masalan, erkaklar nutqi qaror qabul qilishni normallashtirsa, ayollar nutqi cheklanadi.

Subyekt-obyekt munosabatlari. Ayol obyekt sifatida tasvirlanishi, qarorlari diskursdan chiqarilishi; "Cho'qintirgan ota" asaridagi Kay obrazida namoyon.

Ayollarning kommunikativ agentligi. Fikr ifoda qilish imkoniyati va sukut orqali bosim mexanizmlari.

Bunday yondashuv tilni ijtimoiy strukturalarni shakllantiruvchi faol mexanizm sifatida ko'radi.

Genderning lingvistik va kommunikativ konstruksiyasini quyidagilar o'rganadi:

Nutq aktlari. Ayollar muloyim takliflar, erkaklar deklarativ buyruqlar ishlatadi.

Ijtimoiy rollar. Ayollar passiv tinglovchi, erkaklar faol hukmron sifatida tasvirlanadi.

Kommunikativ kompetensiya kutishlari. Ayollardan va erkaklardan kutiladigan nutq me'yorlari, "verbal gigiena" orqali ijtimoiy nazorat.

Pragmatik presuppozitsiyalar. Ishora orqali kuchni aks ettirish; masalan, Kayga "sizga bu kerak emas" deyilishi uning chetlashtirilishini bildiradi.

Bu tahlil ayollarning diskursiv periferiyaga surilishini aniqlaydi. "Cho'qintirgan ota" asaridagi lingvistik xatti-harakatlar, dialoglar, sukut roli va eshik metaforasi diskursiv jihatdan tahlil qilindi. Leksik birliklarning qiymati, konnotatsiyasi va ijtimoiy aks sadosi baholandi.

Gender ijtimoiy konstruksiya bo'lib, til orqali yaratiladi va mustahkamlanadi. Nutq ayollarni periferiyaga suradi; masalan, Kayga *You don't need to know this* deyilishi uning bilish huquqini inkor qiladi, Michael esa subyekt sifatida qoladi. Kayning muloyim savollari ijtimoiy nazoratni namoyish etadi. Ayollar nutqi so'roq va ehtiyotkor takliflarda, erkaklar nutqi buyruq va deklaratsiyalarda ifodalanadi. Masalan, Kayning *Do you really think this is safe?* savoli cheklanganini, Michaelning *We make the decision now* iborasi hokimiyatini ko'rsatadi. Bu patriarxal ierarxiyani mustahkamlaydi. Kay qarorlardan chetda qoladi, nutqi e'tiborsizlanadi. Masalan, *I thought you wanted me to stay out of it...* nutqi uning agentligini cheklaydi. Eshik yopilishi metaforasi ayolning diskursdan chiqarilishini ifodalaydi: sukunatga mahkum, qaror markazidan tashqarida.

Natijalar patriarxal tizimlar til orqali qayta ishlab chiqarilishini ko'rsatadi. Til ijtimoiy munosabatlarni normallashtiradi; Kayning sukutga mahkumligi ayollarning subyektlik cheklanishini, erkaklar nutqi esa hokimiyatni ta'kidlaydi. Ayollar nutqi so'roq va takliflarda chegaralanadi, jimlik jazo sifatida ishlatiladi. Nutq me'yorlari gender farqida ijtimoiy nazoratni ta'minlaydi: ayolning baland ovozi *"janjalko'ylik"*, sukut esa *"odob"* deb baholanadi. Bu ayollarning kommunikativ agentligini cheklaydi.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, til patriarxal diskursning asosiy quroli sifatida gender ierarxiyasini doimiy ravishda yaratib, ayollarning kommunikativ agentligini cheklaydi, ularni sukutga va qaror qilish maydonidan tashqariga surib, hokimiyat munosabatlarini "tabiiy" hol sifatida yashirincha normallashtiradi – bunga "Cho'qintirgan ota" asaridagi Kay obrazining nutqi va eshik oldidagi sukunati eng yorqin misol bo'la oladi. Shuning uchun feministik lingvistika ta'kidlaydiki, haqiqiy gender tengligi faqat qonuniy islohotlar bilan emas, balki til me'yorlari, nutqiy ideologiyalar va semantik tuzilmalarni tubdan o'zgartirish orqali amalga oshadi; chunki til o'zgarishi ijtimoiy adolat va transformatsiyaning birinchi va eng muhim bosqichidir. Shu nuqtayi nazardan, til o'zgarishi nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural va ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida ham ahamiyatga ega.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. Cameron D. Gender, language and discourse. – London: Routledge, 1998.
2. Foucault M. The archaeology of knowledge. – New York: Pantheon Books, 1972.
3. Henley N. Toward a feminist philosophy of language. – New York: Academic Press, 1977.
4. Lakoff R. Language and woman's place. – New York: Harper & Row, 1975.
5. Miller C., Swift K. Words and women. – New York: Doubleday, 1976.
6. Talbot M. Language and gender: An introduction. – Cambridge: Polity Press, 1998.
7. Umarbekov U. Cho'qintirgan ota. – Toshkent: Sharq, 1998.
8. Van Dijk T.A. Principles of critical discourse analysis // Discourse & Society, 1993, 4(2). – P. 249–283.
9. Whedon S. Poststructuralist approaches to gender and discourse. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
10. Ниязова Г. Основы прагматизма в лингвистике и определение прагматического подхода. Образование и наука в XXI веке, 2021.
11. Niyazova G., Raupova L. Ayollar nutqida gender o'ziga xoslikni ifodalovchi lingvistik vositalar. Ta'lim va innovasion tadqiqotlar, 2021, №3. – P. 6–15.
12. Ниязова Г Социопрагматический подход к лингвистическому анализу прозаических текстов // Образование и инновационные исследования, 2023, №3.

Nodira MUSTAFAYEVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

SHAROF BOSHBEKOV DRAMALARIDA LISONIY BIRLIKLAR VA NOVERBAL VOSITALARNING SOTSIAL XOSLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharof Boshbekov dramaturgiyasida lisoniy birliklar, verbal va noverbal vositalarning sotsial xoslanishi lingvopoetik tahlil asosida yoritilgan. Dramaturg asarlarida nutqning ijtimoiy qatlamlari, dialog va sahna ko'rsatmalaridagi verbal va noverbal elementlarning kommunikativ vazifalari ilmiy asosda tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, dramaturgiya, lisoniy birlik, noverbal vosita, mimika, jest, pauza, sahna nutqi, konflikt.

Annotation. In this article, the social specificity of linguistic units, verbal and nonverbal means in Sharaf Boshbekov's dramaturgy is illuminated based on linguopoetic analysis. In the works of the playwright, the social layers of speech, the communicative functions of verbal and nonverbal elements in dialogues and stage productions have been scientifically investigated.

Keywords: sociolinguistics, dramaturgy, linguistic unit, non-verbal means, mimicry, gesture, pause, stage speech, conflict.
Аннотация. В данной статье на основе лингвопоэтического анализа освещается социальная специфика языковых единиц, вербальных и невербальных средств в драматургии Шарафа Бошбекова. В произведениях драматурга на научной основе исследованы социальные пласты речи, коммуникативные функции вербальных и невербальных элементов в диалогах и сценических постановках.
Ключевые слова: социолингвистика, драматургия, языковая единица, невербальные средства, мимика, жест, пауза, сценическая речь, конфликт.

Dramaturg Sharof Boshbekov o'zbek zamonaviy dramaturgiyasining eng yorqin vakillaridan bo'lib, uning asarlari xalqona ruh, hayotiylik, ijtimoiy tanqid, komedik konflikt, va satirik yo'nalish bilan ajralib turadi. Sharof Boshbekov nutq qurilishiga, qahramonlar tilining o'ziga xosligiga, xalq tilining badiiy imkoniyatlariga va sahna harakatlarining mosligiga alohida e'tibor beradi. Dramaturg bu jarayonda noverbal vositalar – mimika, jest, tana harakati, intonatsiya, masofa kabi elementlarni qo'shadi. Shuning uchun uning dramatik asarlarida ijtimoiy mazmun ko'p qatlamli, murakkab va estetik jihatdan boy korinishda ko'zga tashlanadi. Sharof Boshbekov asarlarida qahramon nutqi ularning jamiyatdagi o'rnini aniqlash, xulq-atvorning ijtimoiy jihatlarini ochish kabi vazifalarini bajaradi. Tilning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: so'zlashuvga xos sintaktik soddalik, xalq og'zaki ijodi nutq birliklari, maqol, iboralar, kulgi va kinoya, kasbiy va jargonlar. Masalan, "Temir xotin" dramasi qahramonlarning nutqi patriarxal jamiyat mentalitetini ochib beradi. Xususan, erkaklarning qo'pol, keskin, kinoyali gaplari ularning ijtimoiy hukmron mavqeini ifodalaydi; ayollar nutqi esa siniq, ehtiyotkor va ko'proq noverbal fasllar bilan to'ldirilgan.

Sharof Boshbekov dramalarida nutqning dramatik ziddiyat yaratishdagi roli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalar lingvistik matnni to'ldiradi, matndan kuchliroq semantik yukni tashiydi. Dramaturg asarlarida pauza alohida badiiy vosita sifatida ishlaydi. Sukut ba'zida o'zini ifoda qilishdan qo'rqish, jamiyat bosimi ostidagi ichki iztirob, noqulay ijtimoiy vaziyatni, yashirin norozilik kabi holatlarga ishora qiladi. Muloqot jarayonida nafaqat so'zlar vositasidagi axborotni tinglaymiz, balki bir-birimizning ko'zlarimizga qarab, ovoz tembri, intonatsiya, mimika, jestlar orqali ham bir-birimizni anglaymiz, o'zaro suhbatlashamiz. So'zlar bizga mantiqiy axborotni uzatsa, jestlar, mimika, ovoz ushbu axborotni to'ldiradi. Tilshunos olim A. Nurmonov: "O'zbeklarda substitutiv funksiya bajara oladigan imo-ishoralar har qanday informatsiyani ifodalamaydi, ularning vazifa doirasi nihoyatda cheklangan, asosan, kundalik og'zaki aralashuv uslubi bilan bog'liq", - deb uqtirsa [3: 78], M. Saidxonov "Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar" nomli asarida kommunikativ jarayon uchun xizmat qiluvchi ma'lum axborotni uzatish vositalaridan bo'lgan ramzlar, shartli belgilar, morze tili, ishoralar va boshqa bir qancha vositalar borki, ular ichida til tabiiy, shu til sohiblari uchun tushunarli, tayyor holdagi aloqa vositasi sanalishini aytib, ishoralar, mimika, ovozdagi turli holatlar va gavda harakatlari aloqa-aralashuv vazifasini bajarishdan qat'iy nazar kommunikatsiyada ikkilamchi vosita vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [4: 2].

Verbal xabar bilan birga kechuvchi noverbal signallar, ularni takrorlashi (ayniqsa tuyg'ularni ifodalaganda), aniqlashtirishi (jestlar), o'rnini bosishi) so'zlardan qochish vaqtida) yoki ularga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Noverbal signallar mustaqil ma'noni ifodalash, verbal xabarni to'ldirish, shuningdek, ishtirokchilarni jumlalar almashinuv vaqti, kommunikativ akt tugashi, ishonchsizlik yoki noqulaylikning yuzaga kelishi haqida xabar bilan ta'minlash, verbal muloqot jarayonini boshqarish uchun ishlatilishi mumkin. Olimlarning fikricha, noverbal muloqot tilshunoslikning bir qismi sifatida tadqiq etiladi va uning komponentlari quyidagilar:

1. Paralingvistika (noverbal muloqotning ovoz kodlari);
2. Kinesika (imo-ishora harakatlari);
3. Okulesika (ko'z harakatlari);
4. Auskultatsiya (insonlarning ovoz ohangi);
5. Gaptika (inson gavda qismiga teginish suhbati);
6. Gastika (oziq-ovqat va ichimliklar belgisi yoki ta'm bilish);
7. Olfaksiya (hid bilish orqali muloqot);
8. Proksemika (muloqot maydoni);
9. Xronemika (muloqot vaqti);
10. Sistemologiya (insonni o'rab turgan atrof-tevarak).

Noverbal muloqot odatda o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ko'pincha o'z fikrimizni so'zlar ko'rinishida shakllantiramiz, holatimiz, mimikamiz va jestlarimiz ongimizdan tashqarida beixtiyor paydo bo'ladi. Garchi noverbal muloqot ko'pincha ongsiz jarayon bo'lsada, bugungi kunda u ancha o'zgartirilgan va kerakli natijaga erishish uchun muvaffaqiyatli nazorat qilinishi mumkin. Noverbal til yordamida o'z hislarimizni ifodalaymiz, muhabbat va nafrat, ustunlik yoki tobelik, hurmat yoki hurmatsizlik. Ichimizda bo'lmagan noverbal signallarni, hislarni atayin uzatish qiyin, deyarli imkonsiz jarayon. Aynan shuning uchun artistlar suratga olish jarayonlarida obrazga kirishishga va uzatishlari kerak bo'lgan hislarni boshdan kechirishga harakat qiladilar.

Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan remarkalar tarkibiy va grammatik jihatdan dramatik janrga mansub boshqa birliklardan farqli bo'lib, ularni semantik jihatdan o'rin-joy, harakat, holat, yo'nalish, makon, payt va maqsad ma'nosini bildiruvchi remarkalarga ajratish mumkin. To'liq ochiq ko'zlar ochiqlik belgisi, biroz yopilgan, "qovoqlar osilganroq" bo'lsa, qiziqishning yo'qligidan dalolat. Boshning o'zi ham muloqot jarayonida fikrlarni suhbatdoshga so'zlarsiz yetkazib berish vazifasini bajaradi. Ayniqsa, dramatik asarlarda qahramonlar tomoshabinga voqeani faqat so'zlar vositasida emas, butun tana harakatlari orqali ham ifodalab beradi. Tomoshabinga, asosan, holat orqali ko'rsatib berish ko'proq ta'sir qiladi. Jumladan, kinoqissalar ham faqat o'quvchilar emas, aktyor, rejissyor va tomoshabinlarga mo'ljallab yoziladigan asar bo'lgani uchun uning matnida ham tana harakati orqali muloqot qilish asosiy masala hisoblanadi.

Dramalarda qahramon dunyoqarashi, voqelikka munosabatini ifodalashda o'zlashma so'zlardagi tovushlarni o'zgartirish, tovush tushirish kabi usullardan mahorat bilan foydalanilgan. Masalan:

***Olimjon**. Xafa bo'lmang-u, Qo'chqor aka, kennoyimga ham qiyinda. Ahvolni qarang: haliyam o'choq, haliyam tezak yoqiladi. Progress yo'q qishloqlarimizda turmush darajasi past, chidab bo'lmaydigan darajada past!*

***Qo'chqor.** (asabiyroq). Past, degin? Senlarning turmushing balandmi? Davlat o'qitdi, odam qildi, olim degan noming bor, ko'tar-da, past bo'lsa! **"Prigres-mrigres"** qilasan bu yerga kelib olib! Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani to'g'rila* [1: 170].

Bunday paralingvistik vositalar dastlab 1644-yili Angliyada D.Bulverning "Nutq va muloqot qiluvchi imo-ishora harakatlarini ifodalovchi qo'lning tabiiy tili va xronologiyasi" nomli asarida tadqiq qilingan. [5: 8] Jestlarni so'zlovchining milliy o'ziga xosligini hisobga olmay talqin qilish qanday anglashilmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Suning uchun jestlar va tana tilining ma'nosi haqida xulosa chiqarishda oldin insonning milliy mansubligini hisobga olish zarur.

Paralingvistika (yunon tilida "*para*" - atrofida va "*linguistics*" - ingvistika so'zlaridan olingan):

1) nutqiy aloqada verbal vositalar bilan birga qo'shimcha axborot berish uchun mo'ljallangan noverbal (verbal tilga oid

bo'lmagan) vositalarni o'rganishni o'z ichiga olgan tilshunoslik bo'limi;

2) nutqiy muloqotda foydalaniladigan noverbal vositalar umumiyligi aytiladi. Tilshunoslikning o'zaro aloqa-aralashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi sohasi. Fransuzlarning jestlar tili ancha ekspressiv (bo'yoqdor). Fransuzlar nimadandir hayratlansa, uchta barmog'ining uchini birlashtirib, lablariga olib boradi, iyagini yuqori ko'tarib, havoga nafis o'pichni yuboradi. Agar u ko'rsatkich barmog'i bilan burnining asosini qashlasa, "bu yerda bir gap bor", "bu odamga ishonib bo'lmaydi" deb ogohlantirgan bo'ladi [5:12].

Sharof Boshbekov dramalarida qo'llanilgan individual nutq neologizmlari muallifning kutilmagan va g'ayrioddiy obraz yaratish ehtiyoji, nutq vaziyatidagi yumoristik muhit hosil qilish hamda dramatik matn ekspressivligini oshirish, qahramon nutqini individuallashtirish zarurati tufayli personaj nutqiga olib kirilgan bo'lib, ular orqali dramaning emotsional-ekspressivligi ta'minlanadi.

O'rganilgan ma'lumotlarga tayangan holda, Sharof Boshbekov dramalarida lisoniy birliklar va noverbal vositalar ijtimoiy mazmunni ochishning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Tilning ijtimoiy qatlamlari, xalqona nutq unsurlari, dialektizmlar, pauzalar, mimika, jestlar orqali jamiyatdagi gender munosabatlar, tabaqalanish, ijtimoiy tazyiq, ma'naviy inqiroz kabi mavzularga chuqur yondoshadi. Sharof Boshbekov sahnaviy ko'rsatmalarni verbal, noverbal belgilar bilan boyitib, zamonaviy o'zbek dramaturgiyasiga yangi badiiy , tabiiy nafas olib kirdi. Lisoniy va noverbal vositalar uyg'unligi uning dramatik matnlarining asosiy lingvopoetik xususiyatini belgilaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Boshbekov Sh. Temir xotin (komediya). https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/sharof-boshbekov-1951/sharof-boshbekov-temir-xotin-komediya.
2. Boshbekov Sh. Taqdir eshigi (komediya). https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/sharof-boshbekov-1955/sharof-boshbekov-taqdir-eshigi-komediya.
3. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Saidxonov M. Aloqa-aralashuv va imo-ishoralar. – Toshkent: Fan, 2008.
5. Крейдлин Г. Невербалная семиотика. Москва: Новое литературно обозрение, 2002.

Gulhayo XOLMURODOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA "UYAT" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONINING TARKIBIY TUZILISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi "uyat" (shame) konseptining leksik-semantik maydoni lingvomadaniyatshunoslik va tizimli semasiologiya asosida chuqur yoritiladi. "Uyat" tushunchasining semantik yadrosi, yaqin va uzoq periferiyasi, konseptual metaforalari, badiiy matnlarda qo'llanilishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik funksiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda komponent tahlil, assotsiativ maydon tahlili, konseptual xaritalash, kontekstual tahlilga asoslangan metodlar qo'llanildi. Olingan natijalar o'zbek mentalitetida "uyat" konsepti jamoaviy axloqiy nazoratning markaziy kategoriyasi bo'lib, shaxsning jamiyat oldidagi mas'uliyati, sha'ni, qadr-qimmati, obro'si va oilaviy tarbiya bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: uyat, hayo, or-nomus, leksik-semantik maydon, konsept, kognitiv lingvistika.

Annotation. This article, based on linguoculturology and systemic semasiology, provides an in-depth analysis of the lexico-semantic field of the concept of "shame" in the Uzbek and English languages. The semantic core of the concept of "shame," its near and distant periphery, conceptual metaphors, usage in literary texts, as well as its socio-psychological functions in society are examined. The study employs methods such as componential analysis, associative field analysis, conceptual mapping, and contextual analysis. The results demonstrate that in the Uzbek mentality, the concept of "shame" is a central category of collective moral control and is inseparably linked with an individual's responsibility to society, honor, dignity, reputation, and family upbringing.

Keywords: shame, modesty, honor, semantic field, concept, cognitive linguistics.

Аннотация. В данной статье на основе лингвокультурологии и системной семасиологии глубоко освещается лексико-семантическое поле концепта «стыд» (shame) в узбекском и английском языках. Проанализированы семантическое ядро понятия «стыд», его близкая и дальняя периферия, концептуальные метафоры, использование в художественных текстах, а также социально-психологические функции в обществе. В исследовании использовались методы, основанные на компонентном анализе, анализе ассоциативного поля, концептуальном картировании и контекстуальном анализе. Полученные результаты показывают, что концепт «стыд» в узбекском менталитете является центральной категорией коллективного нравственного контроля и неразрывно связан с ответственностью личности перед обществом, честью, достоинством, репутацией и семейным воспитанием.

Ключевые слова: стыд, скромность, стыдливость, лексико-семантическое поле, концепт, когнитивная лингвистика.

Til va madaniyat munosabati o'zaro ta'sir jarayonida shakllanib, xalqning ma'naviy qarashlari tilda konseptlar orqali ifodalanadi. Shulardan biri — "uyat" konsepti bo'lib, u o'zbek xalqining axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlarida chuqur ildiz otgan. Tadqiqotchilarning fikricha, "Sharq xalqlarida uyat jamoaviy ongga xos bo'lgan axloqiy nazorat tizimidir" [1: 42]. Bu yondashuv "uyat" konseptini semantik struktura, ijtimoiy funksiya va kognitiv modellar orqali tahlil qilish zaruratini tug'diradi.

"Uyat"ning til tizimidagi namoyon bo'lishi shaxsning xatti-harakati, jamiyat bahosi, gender rollari va ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning tarkibini o'rganish o'zbek mentalitetining chuqur qatlamlariga kirib borish imkonini beradi [3: 58]. Leksik-semantik maydon nazariyasiga ko'ra, har bir konsept yadro va periferiyadan iborat bo'ladi [2: 29]. "Uyat" maydonida periferik qatlamlar juda keng. Masalan, yaqin periferik qatlam hissiy-fiziologik belgilarni o'z ichiga oladi: qizarish, yerga qarash, o'zini yo'qotib qo'yish, dovdirash, noqulaylik sezish. Misol: "Qiz uyatdan ko'zini yerga tikdi" (uyatning kinestetik ifodasi). Uzoq periferik qatlam esa ijtimoiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, obro', gap-so'z, tarbiya, el nazari, andisha, sha'n kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Masalan, *Mahalla oldida uyatga qoldi* jumlasida uyatning jamoaviy xarakteri namoyon bo'ladi [4: 92].

Leksik–semantik maydonning modeli

Yadro	Yaqin periferiya	**Uzoq periferiya**
uyat	qizarish	obro‘
hayo	noqulaylik	sha’n
xijolat	o‘zini yo‘qotish	gap-so‘z
or-nomus	sharmandalik	el nazari
	yerga qarash	andisha
		odob
		tarbiya

Ushbu model “uyat” konseptining psixologik, fiziologik va madaniy qatlamlardan iborat yagona tizim ekanini tasdiqlaydi. “Uyat” leksik-semantik maydonining markaziy semasi bevosita shu so‘zning o‘zi bo‘lib, “o‘z qilmishi, noo‘rin xatti-harakatidan xijolatlik hissi; nomus”, “axloq-odob, taomil talabiga to‘g‘ri kelmaydigan, unga zid ish, xatti-harakat va sh.k”, “uyat bo‘ladigan, uyatli”, “uyatli ish, xatti-harakat, holat kabilarni alohida ta’kidlash, qayd etish uchun qo‘llanadi” [6: 314]. Semantik yadroni quyidagi birliklar tashkil etadi:

1. Uyat. Asosiy axloqiy-emotsional kategoriya. “Uyat” ko‘pincha moral baho, jamoaning fikridan qo‘rquv va ichki o‘z-o‘zini nazorat kabi komponentlarga ega.

2. Hayo. O‘zini tiyish, muloyimlik, kamtarinlik, o‘zini nazorat qilish. Hayo ko‘proq ijobiy bahoga ega bo‘lib, ayollarga nisbatan ko‘proq qo‘llanadi.

3. Xijolat. Vaziyatga bog‘liq noqulaylik, o‘zini uyalganday his qilish. “Xijolat bo‘lish” ko‘proq yumshoq, shaxsiy emotsional holatni bildiradi.

4. Or-nomus. O‘zbek madaniyatining eng kuchli axloqiy qadriyatlaridan biri. U nafaqat shaxsiy, balki oilaviy va jamoaviy sha’nni ifodalaydi. “Or-nomus qilish” uyat konseptining eng yuqori darajasidir.

Komponent tahlilga ko‘ra, ushbu leksemalarning umumiy semasi: axloqiy norma, hissiy reaksiya, ijtimoiy baho. Ammo har birida turli darajadagi intensivlik va ijtimoiy konnotatsiya mavjud.

O‘zbek tilidagi asosiy leksemalar komponent tahlili:

Leksema	[+axloqiy norma]	[+hissiy reaksiya]	[+ijtimoiy baho]	Xususiy semalar	Misol
uyat	+	+	+ (juda kuchli)	jamoaviy nazorat, qoidabuzarlik	Bu ish uyat.
hayo	+	+ (yumshoq)	+ (ijobiy)	kamtarinlik, muloyimlik, nafis fazilat	Qizda hayo bo‘lishi kerak.
xijolat	– (zaif)	+ (eng kuchli)	o‘rta	vaziyat noqulayligi, ijobiy yumshoqlik	U xijolat bo‘lib kulimsiradi.
or-nomus	+ (eng yuqori)	–	+ (juda kuchli)	sha’n, qadr-qimmat, oila obro‘si	Odamda or-nomus bo‘lishi kerak.

Lexeme	[+moral norm]	[+emotional reaction]	[+social evaluation]	Specific features	Example
shame	+	+ (strong)	+	guilt, moral failure	She felt deep shame after. lyi
embarrassment	–	+ (strong)	– / weak	situational discomfort	He felt embarrassed when he forgot the words.
modesty	+	+ (mild)	+ (positive)	humility, self-restraint	Her modesty impressed everyone.
honor	+ (high)	–	+ (strong)	dignity, reputation	He defended his family’s honor.

Shunday qilib, o‘zbek tilidagi “uyat–hayo–xijolat–or-nomus” tizimi ingliz tilidagi “shame–modesty–embarrassment–honor” tizimiga qisman mos keladi, ammo madaniy yuklama, jamoaviy nazorat va gender bog‘liqlik darajasi o‘zbek tilida ancha kuchli. Ingliz tilida esa bunday qat’iylik mavjud emas [4: 115]. “Uyat” nafaqat leksik birlik, balki madaniy fenomen sifatida quyidagi funksiyalarga ega:

1. Axloqiy me’yorlarni boshqarish. O‘zbekona tarbiyada uyat axloqiy cheklov va o‘zini tiyish vositasidir: *Uyat bo‘ladi, bolam, uyda mehmon bor.*

2. Genderga oid funksiyalar. Ya’ni hayo, andisha tushunchalari eng ko‘p ayollarga nisbatan qo‘llaniladi: *Hayo – ayolning ziynati* iborasi bu konseptning gender xususiyatini ko‘rsatadi.

3. Obro'-sha'nni himoya qilish. Uyat o'zbek jamiyatida "sha'n" tushunchasini tartibga soluvchi mexanizm sifatida ishlaydi: *Or-nomus qil!* iborasi axloqiy mas'uliyat yuklaydi.

4. Jamoaviy nazorat O'zbek madaniyati ko'proq jamoaviylik tamoyiliga asoslangan bo'lgani uchun, uyat jamiyatning ko'zga ko'rinmas nazorati sifatida ishlaydi [5: 137].

"Uyat" konsepti o'zbek madaniyatida ko'p qatlamli va barqaror semantik maydon sifatida shakllangan. U shaxsiy hissiy kechinma bilan cheklanib qolmay, ijtimoiy nazorat, gender normalari, estetik me'yorlar va axloqiy talablar bilan bog'langan murakkab konseptdir. Kognitiv metaforalar orqali "uyat" kinestetik, psixologik va ijtimoiy tajribaga asoslangan holda konseptuallashtiriladi. Badiiy matnlardagi ifodalanishi mazkur konseptning o'zbek xalq ongida chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari leksik-semantik maydon nazariyasi "uyat" tushunchasining tizimli, konseptual va lingvomadaniy tabiatini ochishda samarali yondashuv ekanini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карасик В. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. Москва: Гнозис, 2004.
2. Wierzbicka, A. Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.
3. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
4. Benedict R. The Chrysanthemum and the Sword: Patterns of Japanese Culture. – Houghton Mifflin, 1946.
5. Tangney C., Kurman J. Shame and Guilt in Cultural Contexts // Personality and Social Psychology Review, 2022.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. Tuzatilgan 2-nashri. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2020.

Hayitgul MO'MINOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi,
2-bosqich tayanch doktoranti

BALZAK ASARLARIDA QISHLOQ HAYOTINING IJTIMOIY-TARIXIY KONTEKSTDAGI TALQINI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Onore de Balzakning "Inson komediyasi" turkumiga mansub qishloq hayotini aks ettiruvchi asarlari – "Qishloq tabibi", "Qishloq ruhoniysi" va "Shuanlar" romanlari asosida XIX asr birinchi yarmidagi Fransiya qishlog'ining ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy manzarasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Balzak realizmi doirasida qishloq jamiyatining sinfiy tuzilishi, yer-mulk munosabatlari, iqtisodiy transformatsiyalar, siyosiy qarama-qarshiliklar hamda ma'naviy-axloqiy muammolarining badiiy talqini yoritiladi. Shuningdek, yozuvchining qishloq hayotiga munosabati, romantik idealizatsiyadan voz kechgan holda hayotni barcha murakkabliklari bilan tasvirlashga intilishi hamda batafsil tasvir va ijtimoiy tahlilga asoslangan realistik metodologiyasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Balzak, qishloq hayoti, realizm, ijtimoiy tasvir.

Annotation. In this article, the socio-historical and economic picture of the French village of the first half of the 19th century is analyzed based on the novels of Honoré de Balzac "The Rural Doctor," "The Rural Priest", and "The Juanes, or Brittany in 1799" from the cycle "The Human Comedy", which depicts rural life. The study illuminates the artistic interpretation of the class structure of rural society, land-property relations, economic transformations, political contradictions, and spiritual-moral problems within Balzac's realism. The writer's attitude towards rural life, his striving to depict life in all its complexities, abandoning romantic idealization, and his realistic methodology based on detailed description and social analysis are also revealed.

Keywords: Balzac, rural life, realism, social depiction.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-историческая и экономическая картина французской деревни первой половины XIX века на основе романов Оноре де Бальзака «Сельский врач», «Сельский священник» и «Шуаны, или Бретань в 1799 году», относящихся к циклу «Человеческая комедия», где изображена сельская жизнь. В исследовании освещается художественная интерпретация классовой структуры сельского общества, земельно-имущественных отношений, экономических трансформаций, политических противоречий и духовно-нравственных проблем в рамках реализма Бальзака. Также раскрывается отношение писателя к сельской жизни, его стремление изобразить жизнь во всех ее сложностях, отказавшись от романтической идеализации, а также реалистическая методология, основанная на подробном описании и социальном анализе.

Ключевые слова: Бальзак, сельская жизнь, реализм, социальное изображение.

Onore de Balzak (1799–1850) XIX asr Fransiya adabiyotining eng buyuk namoyandalaridan biri bo'lib, Yevropa realizmi asoschilaridan hisoblanadi. Uning "Inson komediyasi" (La Comédie humaine) deb nomlangan ulkan adabiy epopeyasi 90 dan ortiq roman va qissalarni o'z ichiga oladi hamda Napoleon hokimiyatidan keyingi Fransiya hayotining keng panoramasini taqdim etadi. Balzak jamiyatning barcha qatlamlarini, jumladan, qishloq hayotini ham chuqur tahlil qilgan va hayotni ideallashtirmasdan tasvir etgan birinchi yozuvchilardan biri sifatida tan olingan.

Balzak asarlarining muhim qismi qishloq hayotiga bag'ishlangan. "Scènes de la vie de campagne" (Qishloq hayoti sahnalari) turkumiga kiritilgan romanlarida yozuvchi XIX asr birinchi yarmidagi Fransiya qishloqlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini, sinfiy munosabatlarini va madaniy holatini tasvirlagan. Balzakning qishloq hayotiga bo'lgan qiziqishi tasodifiy emas, u dehqon oilasidan bo'lgan va jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi farqlarni tushungan. Balzak realizmi Yevropa adabiyotida yangi yo'nalishni belgiladi. "Le Père Goriot" (Gorio ota, 1835) romanida qo'llagan batafsil tavsif uslubi va "Le Médecin de campagne" (Qishloq tabibi, 1833) kabi asarlarida berilgan ijtimoiy tahlil yozuvchining realistik metodologiyasining asosini tashkil etadi. Balzak o'z asarlarida romantizmning idealizatsiyasidan voz kechdi va hayotni uning barcha murakkabliklari bilan tasvirlay boshladi [5: 45].

"Qishloq tabibi" romani 1833-yilda nashr etilgan bo'lib, Balzakning qishloq mavzusidagi eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Asosiy qahramon doktor Benassis Alp tog'lari

etaklaridagi kichik qishloqqa kelib, mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashga harakat qiladi [1: 92]. Roman qishloq iqtisodiyotini rivojlantirish, ta'lim va tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalarni ko'taradi. Balzak bu asarda qishloq jamiyatining ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy muammolari va rivojlanish imkoniyatlarini batafsil tahlil qilgan.

"Le Curé de village" (Qishloq ruhoniysi) romani dastlab 1839-yilda "La Presse" jurnalida nashr etilgan va 1841-yilda kitob shaklida chiqarilgan [2: 156]. Bu asarda Balzak qishloq jamoasining ma'naviy hayoti va diniy ta'sirini o'rganadi. Kurasi Bonnet obrazi orqali qishloq aholisining axloqiy muammolari va ijtimoiy islohotlarini tasvirlaydi. Roman qishloqdagi hokimiyat tizimi, mulkchilik munosabatlari va dinning jamiyatdagi o'rnini ko'rsatadi.

"Les Chouans" romani 1829-yilda nashr etilgan bo'lib, Balzakning o'z nomi ostida chop ettirgan birinchi asari hisoblanadi [3: 45]. Bu tarixiy romanda Fransiya inqilobidan keyingi davri, 1799-yilda Bretani provinsiyasi qishloqlarida sodir bo'lgan qirolchilar qo'zg'oloni tasvirlanadi. Roman qishloq aholisining siyosiy bo'linishi va ijtimoiy ziddiyatlarini ko'rsatadi [6: 89]. Bretani provinsiyasi qishloq dehqonlari "shuanlar" deb atalgan va ular respublikaga qarshi qirolchilar harakatini qo'llab-quvvatlagan. Balzak bu romanida qishloq jamiyatining siyosiy qarashlari, an'anaviy turmush tarzi va zamonaviy siyosiy o'zgarishlarga munosabatini tahlil qiladi. Asar harbiy tarix bilan sevgi hikoyasini uyg'unlashtiradi va qishloq hayotining murakkabligini ko'rsatadi. Bu romaning yaratilishi Balzakning 1828-yilda Bretaniga qilgan sayohati bilan bog'liq. Yozuvchi mintaqaning odamlari va muhitidan hayratda qolgan va keyinchalik foydalanish uchun qaydlar to'plagan. Asar bir necha marta qayta ishlangan va har safar muhim o'zgartirishlar kiritilgan [7: 134].

Balzak asarlarida qishloq iqtisodiyoti va ijtimoiy munosabatlarning tasviri alohida ahamiyatga ega. XIX asr boshlarida Fransiya qishloqlarida yer mulkchiligi tizimida o'zgarishlar bo'ldi. **"Les Paysans" (Dehqonlar)** romani 1844-yilda yozila boshlangan, lekin Balzakning o'limigacha tugallanmagan. Bu asarni 1855-yili uning bevasi nashr ettirgan [4: 201]. Romanda qishloq aholisining turmush tarzi, yer uchun kurash va mulkdorlar bilan dehqonlar o'rtasidagi ziddiyatlar tasvirlanadi. Balzak bu asarda qishloq jamiyatining qora tomonlarini ham ko'rsatadi – alkogolizm, savodsizlik va axloqiy muammolar. "Dehqonlar" romanida Balzak qishloq aholisini idealizatsiya qilmaydi. Bu pozitsiya romantik adabiyotning qishloq hayotini ideallashtirish tendensiyasiga zid keladi va Balzakning konservativ qarashlarining kuchayganligini ko'rsatadi.

Balzak qishloq hayotini tasvirlashda batafsil tavsif metodidan foydalanadi. U landshaft, uy-joy, kiyim-kechak va kundalik hayot tafsilotlarini ehtiyotkorlik bilan tasvirlaydi. Bu tafsilotlar orqali yozuvchi qahramonlarning ijtimoiy mavqei, iqtisodiy ahvoli va psixologik holatini ko'rsatadi [5: 92]. "Qishloq tabibi" romanining boshida Balzak qishloq va uning atrofidagi tabiatni batafsil tasvirlaydi. Bu tavsiflar faqat fon vazifasini o'tamaydi, balki qahramonlarning xarakterini shakllantiradigan va ularning hayotini belgilaydigan muhit sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchining tabiiy muhit va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishi uning realistik metodologiyasining muhim qismidir [8: 89].

Balzak dialoglar orqali ham qishloq hayotining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Qahramonlarning nutqi ularning ijtimoiy kelib chiqishi, ta'lim darajasi va madaniy holatini aks ettiradi. Yozuvchi qishloq aholisining og'zaki so'zlashuvini va mahalliy dialektlarni ham ishlatadi, bu asarlarga haqiqiylik beradi. Balzak qishloq hayotini tasvirlash uslubi keyinchalik ko'plab yozuvchilarga ta'sir ko'rsatdi. Frantsuz realizmi vakillari, xususan Gyustav Flober va Emil Zola, Balzakning batafsil tasvif va ijtimoiy tahlil metodlaridan foydalangan [5: 189].

Balzakning qishloq hayotiga bo'lgan yondashuvi romantizmdan farq qilib, hayotni ideallashtirmasdan, uni barcha murakkabliklari bilan ko'rsatishga intildi. Bu yondashuv Yevropa adabiyotida realizm yo'nalishining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi [6: 178]. Andrew Watts o'zining "Preserving the Provinces" (2007) kitobida Balzakning qishloq hayotini tasvirlashdagi o'ziga xos uslubini tahlil qiladi va uning "La Comédie humaine"dagi viloyat hayotining tasvirini muhim badiiy yutuq sifatida baholaydi [8: 67].

Balzak asarlarida qishloq hayoti XIX asr Fransiya jamiyatining muhim qismi sifatida chuqur va har tomonlama tasvirlangan. Yozuvchi qishloq hayotini ideallashtirmasdan, uning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, sinfiy ziddiyatlari va madaniy xususiyatlarini realistik tarzda aks ettirgan. "Qishloq tabibi", "Qishloq ruhoniysi" va "Shuanlar" kabi asarlarda Balzak qishloq jamiyatining tuzilishi, iqtisodiy transformatsiyalari va siyosiy bo'linishlarini tahlil qilgan. Balzak realizmi qishloq hayotini tasvirlashda yangi standart yaratdi va keyingi avlod yozuvchilariga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari XIX asr Fransiya qishlog'ining ijtimoiy tarixini o'rganish uchun muhim manba bo'lib qolmoqda va jahon adabiyotida realizm yo'nalishining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Peter Brooks "Balzac's Lives" (2020) kitobida Balzak ijodining zamonaviy ahamiyatini ta'kidlab, yozuvchining XIX asrni ixtiro qilgani haqidagi Oskar Uayldning fikrini keltiradi [5: 12]. Haqiqatan ham, Balzak asarlari orqali biz nafaqat o'tmish jamiyatni, balki zamonaviy dunyoning ko'plab jihatlarini ham tushunishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Balzak O. Le Médecin de campagne. – Paris: Gallimard, 1974. – 384 b.
2. Balzak O. Le Curé de village. – Paris: Gallimard, 1975. – 512 b.
3. Balzak O. Les Chouans. – Paris: Gallimard, 1972. – 496 b.
4. Balzak O. Les Paysans. – Paris: Gallimard, 1975. – 512 b.
5. Brooks P. Balzac's Lives. – New York: New York Review Books, 2020. – 280 b.
6. Heathcote O., Watts A. (tahr.). The Cambridge Companion to Balzac. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – 246 b.
7. Robb G. Balzac: A Biography. – New York: WW.Norton, 1994. – 522 b.
8. Watts A. Preserving the Provinces: Small Town and Countryside in the Work of Honoré de Balzac. – Oxford: Peter Lang, 2007. – 312 b.

Bahrabarjon OLIMOVA,
Termiz davlat universiteti adabiyotshunoslik: o'zbek adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

ERKIN A'ZAMNING KICHIK NASRIY ASARLARI POETIKASI TAHLILI ("Piyoda" va "Yozuvchi" hikoyalari misolida)

Annonatsiya. Ushbu maqolada Erkin A'zamning "Piyoda" va "Yozuvchi" hikoyalari badiiy-estetik, ijtimoiy-falsafiy hamda poetik jihadan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida adib hikoyalarida oddiy inson obrazi, zamon va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlar, shaxsning ruhiy holati hamda ijtimoiy tanqid masalalari yoritiladi.
Kalit so'zlar: Erkin A'zam, "Piyoda", "Yozuvchi", badiiy tahlil, konflikt, ijtimoiy tanqid, hikoya poetikasi, realizm.
Annotation. This article analyzes Erkin Azam's stories "Piyoda" and "Writer" from the perspective of artistic-aesthetic, socio-philosophical, and poetic aspects. In addition, the unique stylistic features of Erkin Azam's work are examined.
Keywords: Erkin A'zam, "Piyoda", "Yozuvchi", literary analysis, conflict, social critique, story poetics, realism.
Аннотация. В данной статье рассказы Эркина Азама «Пешком» и «Писатель» анализируются с художественно-эстетической, социально-философской и поэтической точек зрения. В процессе исследования в рассказах писателя освещается образ обычного человека, противоречия между временем и обществом, психическое состояние личности и вопросы социальной критики.
Ключевые слова: Эркин Азам, «Пешком», «Писатель», художественный анализ, конфликт, социальная критика, поэтика рассказа, реализм.

O'zbek adabiyotida yangi davr nasrining yirik vakillaridan biri Erkin A'zam ijodi alohida o'rin egallab kelmoqda. Uning asarlarida oddiy insonning ichki kechinmalari, jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy o'zgarishlar hamda hayot falsafasi chuqur badiiy tahlil etiladi. Uning badiiy uslubiga sodda tasvir, teran psixologizm, xalqona ohang va nozik kinoya xos bo'lib, adib yaratgan obrazlar o'zining tabiiyligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Adibning hikoya va qissalari nafaqat adabiyotshunoslar, balki keng kitobxonlar ommasi orasida ham yuqori baholanib, o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga hissa qo'shib kelmoqda. Erkin A'zam ijodini hikoyachilikdan boshlagan bo'lib, bu janrda katta xazinaga ega. Bugungi kunga qadar uning 40 dan ortiq hikoyalari chiqqan. Jumladan, "Anoyining jaydari olmasi", "Piyoda", "Navoiyni o'qigan bolalar", "Yozuvchi", "Ступка" va boshqa bir qator hikoyalarini keng jamoatchilik e'tirofiga sazovor bo'lgan. Adib ijodining yuqori cho'qqisida turuvchi **"Piyoda"** o'z nomi bilan jamiyatdagi insonlardan orqada qolgan, o'zgarishlarga tanqidiy ko'z bilan qarovchi shaxslar gavdalantirilgan asar hisoblanadi. Bosh qahramon Berdiboy davrga moslasha olmayotgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Garchi qilayotgan harakatlari naf bermasa-da, o'jarligi, qaysarligi sabab televizorni, uni ilk bor qishloqqa olib kelgan Rajab bodi deb biladi. Go'yoki odamlar yangiliklarni televizorda ko'rgan, ularning ongi "buzilgan". Berdiboyga haqiqiy tarifni uning singlisi Gulsanam beradi: "Siz, aytaymi..., – dedi u Berdiboyga chaqchayib qarab, – o'tgan asrdan qolgan odamsiz, akajon!" [1: 110] Yozuvchi bu obraz orqali jamiyatdan, hayotdan orqada qolayotgan, kechikayotgan odam timsolini gavdalantirgan [2: 143].

Hikoyani o'qir ekanmiz, qahramonning rivojlanib borayotgan zamonaviy jamiyat unsurlariga qarshi o'z qarashlarini va bu orqali o'z yaqinlari, hatto oilasi bilan ham "yuzko'rmas" bo'lib qolgan obrazni ko'rishimiz mumkin. Televizorni insonlarning ongini va axloqini buzuvchi matoh sifatida ko'rishi, singlisining Toshkentda o'qishiga qarshi chiqishi, umuman olganda, atrofidagi barcha insonlarga norozi kayfiyatda bo'lishi uning jamiyatdan orqada qolayotgan "piyoda" obrazini namoyon qiladi. Hikoyada yozuvchining xalqona so'zlardan, maqol va matallardan foydalanishi ham asarning jonli chiqishini ta'minlagan va adib badiiy uslubini yaqqol ko'rsata olgan. Masalan, *Devor ag'nasa, ichkari ag'nasin, O'zingnikini yomonlasang, yotning mehri qochadi, Begona – sangi devona* kabi maqollarni bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

"Yozuvchi" hikoyasi Shukur Xolmirzayev xotirasiga bag'ishlab yozilgan bo'lib, unda adib o'ta kamtar shaxs ekani, katta davralarga kam qo'shilishi haqida so'z yuritiladi, uning asl adabiyotga yaqinligi, hatto uning sodiq fuqarosiligini ta'kidlab o'tiladi. Bundan tashqari, faqat haqiqatni qalamga oluvchi ijodkor sifatida namoyon bo'lishi, yoshligidan qiyinchilikda, kimsasiz o'sgani haqidagi ma'lumotlarni bilib olamiz. Yozuvchi shaxsiga tarif berar ekan, uning bog'bonchilikka mehri o'zgacha ekanini, ammo o'z kasbiga xiyonat qilmasligini yozadi. Uning adabiy muhitini bog'ga, kasbini esa bog'bonga qiyosan taqqoslaydi. Asar davomida bir voqeani keltirib o'tib, o'z kasbi sabab katta bir bo'g'ga ega bo'lgani va unga umrining oxiriga qadar egalik qilib, aynan shu bog' undan yodgor qolganini hikoya qiladi.

Adib hikoyalarida aforizmlardan unumli foydalanib, ularni mahorat bilan qo'llagan. Natijada lo'nda va qisqa hikmatli so'zlar hikoyaning butun mazmunini o'z ichiga qamrab olgan. Maqol, matal, hikmatli so'zlar hikoyalarning muayyan qismlarida sujet, kompozitsiya, obraz, xarakter, tasvir bayoni va boshqa komponentlar tarkibida keladi va ma'lum badiiy vazifa bajaradi. Adibning "Yozuvchi" hikoyasi bu xususiyatlarning bir qismini aks ettiradi. Hikoya qahramoni yoshi katta zamondoshimiz bo'lib, yozuvchi "yetti pushtining go'riga g'isht qalab charchamagan" muharrirdir. U so'lim bog' qo'ynida yangidan yangi "yozuvchi"larni (ayniqsa, raislardan) yaratadi. Rais tomonidan unga cheksiz marhamat ko'rsatishi sababini u raisning shofyoridan so'raganda adib *u qozonning qopqog'ini ochgisi kelmadi* iborasini qo'llaydi. Bu rais uchun asar yozib berishga yozuvchini yollash edi. Bu qaltis ish bo'lgani uchun ham ochiq emas, balki yashirin ma'noli iboralar orqali ifodalangan, obrazlilig-u va ta'sirchanlik kuchaygan. Ammo boshqa boyvachcha fosh bo'lib qamalganini eshitgan qahramon: "Birovga choh qazisang, o'zing tushasan", – deydi. Bu xalq maqolining varianti bo'lib, adib tomonidan o'rinli qo'llangan va asar mazmuniga singib ketgan.

Xulosa qilib aytganda, Erkin A'zamning uslubi ko'pincha sodda va ta'sirchan bo'lib, o'quvchini voqealar davomida o'zini ko'rgandek his qilishiga olib keladi. Uning hikoyalari ko'pincha kutilmagan yakunlarga ega bo'lib, kitobxonda chuqur taassurot qoldiradi. Adib davr va muhitdagi o'zgarishlar orqali qahramonning ruhiy holatini o'rganadi. Kecha va bugunni taqqoslaydi. Erkin A'zam asarlarida turli xarakterlar o'zining to'liq bo'y-basti va murakkabliklari bilan tasvirlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A'zam E. Piyoda. Ertak bilan xayrlashuv (qissalar va hikoyalar). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2007.
2. Shofiyev O. Kechikayotgan odam obrazi // Sharq yulduzi, 2018.
3. Erkin A'zam badiiy olami: Ilmiy maqolalar va suhbatlar to'plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2014.
4. Normatov U. Yangi asr odamlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2009, №22. – B. 4.
5. Ashurova N. Erkin A'zam uslubining ayrim xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti, 2012. – B. 65–67.

Dilafruz AZIMBAYEVA,
Uzbek State University of World Languages
"Teaching English Language Methodology №3" Senior teacher

SEMANTIC AND THEMATIC CLASSIFICATION OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article explores phraseological units – fixed multi-word expressions such as idioms, proverbs, set phrases and collocations – through semantic and thematic lenses in both English and Uzbek. Linguistic phraseology constitutes a core part of a language's vocabulary system and reflects deeper cultural and cognitive patterns. The article examines definitions and theoretical foundations of phraseological units, outlines major classification principles (semantic, thematic, structural-semantic, motivational), and contrasts how English and Uzbek languages organize these units. The study highlights cross-linguistic similarities and distinctions in classification criteria and shows how sociocultural factors influence phraseology. Implications for translation, comparative linguistics, and language teaching are also discussed.

Keywords: phraseological units, semantic classification, thematic classification, comparative linguistics, idioms, collocations, culture and phraseology.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar – idiomalar, maqollar, barqaror birikmalar va kollokatsiyalar kabi ko'p so'zli turg'un ifodalar – semantik va tematik nuqtayi nazardan o'rganiladi. Til frazeologiyasi har bir tilning lug'aviy tizimining muhim qismini tashkil qiladi va chuqur madaniy hamda kognitiv qonuniyatlarni aks ettiradi. Maqolada frazeologik birliklarning ta'riflari va nazariy asoslari tahlil qilinadi, ularning asosiy tasnif tamoyillari (semantik, tematik, struktur-semantik, motivatsion) yoritiladi hamda ingliz va o'zbek tillarida mazkur birliklarning yuzaga kelishiga oid jihatlar taqqoslanadi. Tadqiqotda tasniflash mezonlaridagi tillararo o'xshashlik va farqlar yoritilgan hamda ijtimoiy-madaniy omillarning frazeologiyaga qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan. Shuningdek, frazeologiyaning tarjima, qiyosiy tilshunoslik va til o'qitishdagi ahamiyati ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birliklar, semantik tasnif, tematik tasnif, qiyosiy tilshunoslik, idiomalar, kollokatsiyalar, madaniyat va frazeologiya.

Аннотация. В данной статье исследуются фразеологические единицы – устойчивые многословные выражения, такие как идиомы, пословицы, устойчивые словосочетания и коллокации – с семантической и тематической точек зрения в английском и узбекском языках. Фразеология представляет собой важнейшую часть лексической системы языка и отражает глубокие культурные и когнитивные закономерности. В статье рассматриваются определения и теоретические основы фразеологических единиц, излагаются основные принципы их классификации (семантические, тематические, структурно-семантические, мотивационные) и сопоставляются особенности организации этих единиц в английском и узбекском языках. Исследование выявляет межъязыковые сходства и различия в классификационных критериях и показывает влияние социокультурных факторов на фразеологию. Также обсуждаются вопросы перевода, сравнительного языкознания и преподавания языков.

Ключевые слова: фразеологические единицы, семантическая классификация, тематическая классификация, сопоставительное языкознание, идиомы, коллокации, культура и фразеология.

Phraseological units are stable combinations of words whose overall meanings cannot be fully deduced from the meanings of their individual components. In linguistics, these expressions remain fundamentally different from free (compositional) word groups and are studied as phrasemes or multi-word lexical units. According to general linguistic definitions, phraseology is the sub-field of linguistics concerned with such fixed expressions – including idioms, set phrases, collocations, and proverbs – that are stored in the mental lexicon as conventional forms. Comparative phraseology – the cross-linguistic study of phraseological units – is particularly insightful for understanding how languages shape and reflect cultural and cognitive patterns. In the context of English and Uzbek, two typologically distinct languages (Germanic vs. Turkic), classification and analysis of phraseological expressions illuminate both universal and language-specific features. A *phraseological unit* refers to a lexicalized combination of words with a fixed form and largely non-literal (figurative) meaning. In idiomatic expressions such as *spill the beans* (to reveal a secret) or *kick the bucket* (to die), the overall meaning cannot be predicted from individual words. In Uzbek, similar semantic structures exist, where the units possess figurative meaning culturally encoded in traditional speech. Several Uzbek linguistic studies describe phraseological units as stable, culturally embedded expressions often rooted in folklore, everyday life, and national mentality.

Phraseological units can have varying degrees of semantic transparency:

- **Transparent:** meaning is clear from constituent words,
- **Semi-transparent:** partial cues exist,
- **Opaque:** meaning unrelated to individual words.

Semantic classification focuses on *meaning content*, while thematic classification groups expressions according to *broader conceptual domains* (e.g., emotions, relationships, nature, animals, human activities). Semantic classification groups phraseological units based on meaning relations, semantic transparency, and the presence of figurative content [1: 502].

Linguistic studies generally recognize the following broad semantic categories:

1. Idioms: Figurative expressions whose meaning cannot be inferred from individual words (e.g., *to break the ice*).

2. Proverbs and Sayings: Fixed traditional expressions conveying moral or cultural wisdom (e.g., *Actions speak louder than words*).

3. Collocations: Recurrent combinations that are semantically motivated but fixed in usage (e.g., *strong wind*).
4. Set Phrases/Formulas: Conventional expressions used routinely in discourse (e.g., *Nice to meet you*).

For Uzbek, similar semantic categorizations exist; for example, Uzbek phraseological units also manifest in proverbs, idiomatic expressions, social sayings, and frequent collocations reflective of the Turkic cultural context. Semantic classification also considers *motivation*, that is, the degree to which an expression's meaning is related to its component parts. Russian linguist V.V.Vinogradov's framework – widely applied in English and related research – distinguishes between [4: 312]:

Phraseological fusions (highly idiomatic, low motivation),
Phraseological unities (partially idiomatic),
Phraseological collocations (motivated and relatively predictable).

In Uzbek comparative studies, similar semantic gradations appear, showing that some Uzbek idioms remain highly opaque, whereas many collocations retain semantic cues based on literal meaning and cultural context. Recent research has applied *cognitive semantic frameworks* to analyze how metaphor and conceptual structures underlie phraseological meanings – for example, relating human intellect, emotions, and body image schemas in idioms across English and Uzbek. Cognitive semantics emphasizes that phraseological meaning arises not just from lexical combinatorics but also from underlying conceptual metaphors and cultural models. Thematic classification groups units according to *broad semantic fields*, such as actions, emotions, animals, body parts, social relationships, nature, etc.

English phraseology thematic groupings typically include:
Human Emotions and States (e.g., *to be over the moon*),
Animal-related Expressions (e.g., *to let the cat out of the bag*),
Body-part Themes (e.g., *to lose face*),
Work and Social Relationships (e.g., *to climb the ladder*),
Nature and Environment (e.g., *to weather the storm*).

Thematic classification assists in tracing conceptual metaphors and cultural priorities in linguistic communities. Uzbek phraseological units likewise cluster around thematic cores [3: 91]. Research has specifically shown:
1. Animal themes (zoonyms) in Uzbek and English phraseologies.
2. Human relationships and social roles, idioms rooted in everyday customs
3. Body-part metaphors, emotions, and societal interactions.

Studies confirm that thematic groups in phraseological units often reflect cultural symbolism: animals, nature, and human behavior frequently represent social values and norms in Uzbek expressions. Semantic and thematic classifications of these units provide linguists with structured insights into how languages encode complex ideas through figurative and culturally embedded expressions. Both English and Uzbek exhibit rich phraseological inventories, and comparative analysis reveals universal patterns as well as language-specific distinctions. Such classifications serve as essential tools in theoretical linguistics, translation studies, and foreign language pedagogy.

Literature

1. Nunberg G., Sag I.A., Wasow T. Idioms. Language, 1994, 70(3). – P. 491–538.
2. Gläser R. The stylistic potential of phraseological units. In A. P.Cowie (Ed.), Phraseology (pp. 125–143). – Oxford: Oxford University Press, 1998.
3. Dobrovol'skij D., Piirainen E. Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives. – Elsevier, 2005.
4. Виноградов В.В. Основне типй фразеологичэскикҳ единиц русского язйка. Москва: Наука, 1977.

Umida MATMUROTOVA,
Jizzakh state pedagogical university, PhD student

DIRECT AND INDIRECT LITERARY TRANSLATION AND THEIR IMPACT ON SEMANTIC-STYLISTIC EQUIVALENCE

(Based on Jack London's works)

Annotation. This article examines the impact of direct and indirect translation approaches on the preservation of semantic and stylistic equivalence in literary translation. The study investigates the mediating role of the Russian language in Uzbek translation practice, using the works of Jack London as illustrative examples. Drawing on the theoretical perspectives of L.Venuti, P.Newmark, M.Baker, L.Molina, A.Albir, N.T.Dosbayeva, and Sh.Omonova, the research highlights the differences between direct and indirect translation with respect to meaning retention and stylistic fidelity. The findings indicate that direct translation more effectively preserves the semantic and stylistic features of the original text, whereas indirect translation often results in semantic shifts and stylistic simplification due to the influence of the intermediary language. These results underscore the importance of direct translation for maintaining semantic-stylistic equivalence, while also acknowledging the communicative and cultural utility of indirect translation in certain contexts.

Keywords: direct translation, indirect translation, semantic-stylistic equivalence, intercultural communication, Jack London.

Annotatsiya. Maqolada badiiy tarjimada bevosita va bilvosita yondashuvlarning semantik-stilistik ekvivalentlikka ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston tarjima amaliyotida rus tilining vositachi til sifatidagi o'rni Jek London asarlari misolida yoritiladi. Tadqiqot L.Venuti, P.Nyumark, M.Baker, L.Molina, A.Albir, N.T.Dosbayeva kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda olib borilgan. Bevosita tarjimada asliyatning mazmuniy va uslubiy xususiyatlari yaxshiroq saqlanishi, bilvosita tarjimada esa oraliq til ta'siri natijasida ma'no va uslubda o'zgarishlar yuz berishi aniqlangan. Natijalar badiiy tarjimada semantik-stilistik ekvivalentlikni ta'minlashda bevosita yondashuvning ustunligini, bilvosita tarjimaning esa ayrim holatlarda madaniyatlararo aloqa vositasi sifatida nisbiy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bevosita tarjima, bilvosita tarjima, semantik-stilistik ekvivalentlik, madaniyatlararo muloqot, Jek London.

Аннотация. В статье анализируется влияние прямого и опосредованного подходов в художественном переводе на семантико-стилистическую эквивалентность. Исследование рассматривает посредническую роль русского языка в узбекской переводческой практике на материале произведений Джека Лондона. Опираясь на теоретические взгляды Л.Венути, П.Ньюмарка, М.Бейкер,

Л.Молины, А.Альбир, Н.Т.Досбаевой, автор выявляет различия между прямым и опосредованным переводом в сохранении смысла и стиля. Установлено, что прямой перевод в большей степени сохраняет семантические и стилистические особенности оригинала, тогда как опосредованный перевод под влиянием промежуточного языка нередко вызывает смещение смысла и упрощение стиля. Результаты подчёркивают значимость прямого перевода для обеспечения семантико-стилистической эквивалентности, при этом признаётся относительная коммуникативная и культурная ценность опосредованного перевода в отдельных случаях.

Ключевые слова: прямой перевод, опосредованный перевод, семантико-стилистическая эквивалентность, межкультурная коммуникация, Джек Лондон.

Literary translation is not merely the transfer of words from one language to another; it involves reconstructing semantic meaning, adapting stylistic features, and considering the cultural context of the source text. The approach adopted – whether direct translation, in which the text is rendered straight from the source language into the target language, or indirect translation, in which an intermediary language mediates the transfer – directly affects the semantic equivalence and stylistic fidelity of the translated work.

T.Dosbayeva emphasizes that, in both direct and indirect translation, the recreation of the author's style, the preservation of content-form integrity, and the reflection of national and cultural specificities remain insufficiently explored areas. Concurrently, globalization, the increasing influence of English-language literature, and the aesthetic expectations of Uzbek readers have made direct translation an increasingly important and prioritized strategy [2: 4].

Historically, in Uzbekistan, Russian has served as a primary mediator for international communication, political discourse, and access to world literature. Consequently, many foreign literary works – including those by T.Dreiser, W.Irving, F.Cooper, Jack London, and H. Longfellow – were translated into Uzbek primarily via Russian. While this approach provided Uzbek readers with access to world literature, it also increased the likelihood of semantic and stylistic losses, a common issue in indirect translation [9: 19].

From this perspective, the present study aims to examine the theoretical and practical distinctions between direct and indirect literary translation, using Jack London's short stories as illustrative examples. The research analyzes their impact on semantic-stylistic equivalence and situates these translation practices within the broader framework of domestication and foreignization strategies.

The object of the study is Jack London's original English texts and their Russian and Uzbek translations, while the subject is the semantic and stylistic transformations, idioms, and culture-specific elements in direct and indirect translation, and their influence on semantic-stylistic equivalence.

This research employs a combination of comparative, semantic, and descriptive-analytical methods, grounded in established theoretical frameworks in translation studies. First, a comparative-contrastive analysis was conducted between Jack London's original English texts, their Russian translations, and the Uzbek versions translated via Russian. Selected passages from The White Silence and The League of the Old Men were examined to identify lexical, semantic, and stylistic transformations occurring across these translation layers.

Second, a textual-semantic analysis was applied to study ironic and metaphorical expressions, idioms, culturally specific realia, epithets, and similes. Particular attention was paid to the extent to which emotional tone and connotative meaning were preserved or lost between the source and target texts.

Finally, a descriptive-analytical approach was used to generalize the mediating role of the Russian language in Uzbek translation practice and to evaluate the strengths and limitations of both direct and indirect translation, supported by theoretical and empirical evidence. The analysis revealed key distinctions between direct and indirect translation in terms of process, accuracy, and stylistic preservation. Direct translation involves rendering a text straight from the source language into the target language, while striving to maintain the semantic structure, grammatical forms, and syntactic organization of the original. This method is particularly effective in technical and academic contexts, but it also allows literary readers to experience the author's unique style more faithfully. By contrast, indirect translation entails rendering a text from language A into language C via an intermediary language B (A → B → C). H. Kittel and A. Frank describe this as a multi-layered communicative process involving three linguistic systems [3: 3]. R. Sharipov identifies two types of indirect translation: translation from a finished intermediary text, and translation based on a literal interlinear version prepared for readers unfamiliar with the source language [10: 112]. Each intermediary stage increases the likelihood of semantic and stylistic shifts, which can affect both meaning and the preservation of the author's stylistic nuances.

Original (Jack London) "White silent"	**Russian Translation (A.Eleonskoy)**	**Uzbek Translation (G.Mo'minova)**
"...and the hoary game of natural selection was played out with all the ruthlessness of its primeval environment." [21].	*"...разыгралась древняя трагедия естественного отбора со всей беспощадностью своей первобытной среды" [53].*	*"...tabiiy tanlanishning qadimiy fojiasi o'zining ibtidoiy muhitiga xos shafqatsizlik bilan namoyon bo'ldi" [75].*

In the original text, the word game (o'yin) functions as an ironic metaphor, depicting the brutal and merciless struggle for survival as if it were a mere "game". In the Russian translation, however, this term is replaced with tragedy, shifting the tone from irony to pathos. The Uzbek version follows the same pattern, rendering the metaphor as fojia ("tragedy"). As a result, the ironic and metaphorical nuance of the original expression is completely lost. In Jack London's text, game conveys subtle irony by framing the harsh struggle for survival as a detached, almost playful contest, yet this semantic layer is obscured when translated as tragedy. The transformation converts the author's ironic detachment into overt emotional dramatization. Consequently, the tone of the passage shifts from objective and metaphorically charged to sentimental and tragic, altering the stylistic essence and diminishing the philosophical depth London intended to

convey through his metaphor. Had the translation been rendered directly from English, a phrase such as "tabiiy tanlanishning qadimiy o'yini" ("the ancient game of natural selection") could have preserved London's original irony and stylistic subtlety, maintaining both semantic and stylistic equivalence.

Original (Jack London)	**Russian Translation (N. Bannikova):**	**Uzbek Translation (S.Saidmurodov):**
"Emily Travis was dainty and delicate and rare, and whether in London or Klondike she gowned herself as befitted the daughter of a millionaire mining engineer".	*"Эмили Трэвис была особой изысканной, утонченной, хрупкой, и одевалась она – будь это в Лондоне или в Клондайке – так, как подобало дочери горного инженера, обладателя миллионов".*	*"Emili Trevis latofatli, noziknihol oyimtilla edi, London yoinki Klondaykda bo'lishidan qat'i nazar millionlarga ega tog' muhandisining arzandasidek kiyinardi".*

In the original text, the phrase "the daughter of a millionaire mining engineer" provides a factual description of Emily's social background. The Russian translation faithfully preserves this information. However, in the Uzbek version, the phrase "arzandasidek kiyinardi" ("dressed like the daughter") transforms a factual statement into a simile, implying that Emily merely appeared to be such a person rather than actually being one.

This transformation results in factual semantic distortion, alters the interpretation of the character's social status, and weakens the author's psychological and social portrait of Emily. A more precise direct translation would be: "...millioner kon muhandisining qiziga mos tarzda kiyinardi" ("she dressed as befitted the daughter of a millionaire mining engineer"), which preserves both the factual content and stylistic integrity of the original text.

These findings can be interpreted through Venuti's concepts of domestication and foreignization. According to P. Newmark, foreignization corresponds to source-oriented strategies, while domestication aligns with target-oriented methods [8: 45]. In Jack London's texts, translating "game of natural selection" as "tragedy" or "fojia" exemplifies domestication and dramatization, whereas "the ancient game of natural selection" would preserve the ironic and metaphorical tone via a foreignizing approach. L. Molina and A. Albir further note that borrowing and calque function along this continuum: pure borrowing emphasizes cultural distinctiveness, while naturalized borrowing facilitates adaptation [7: 520].

Although indirect translation can lead to semantic and stylistic losses, it is not inherently inaccurate. Skilled intermediary translators may sometimes maintain fidelity to the original; however, excessive reliance on intermediary texts often results in factual distortion and stylistic simplification.

Therefore, direct translation is generally more effective in preserving artistic imagery and authorial style, while indirect translation retains functional utility when linguistic or contextual limitations exist. This study leads to several key conclusions: direct and indirect translation represent two distinct strategies for conveying the semantic and stylistic essence of a literary work. In direct translation, the author's style and factual details are preserved with greater accuracy, whereas indirect translation frequently introduces semantic and stylistic shifts due to the mediation of an intermediary language.

Indirect translation increases the likelihood of meaning loss, as exemplified by the shift from *"game"* to *"tragedy."* Idiomatic expressions and culture-specific elements remain particularly vulnerable in preserving semantic-stylistic equivalence, since paraphrasing or omission often diminishes both emotional resonance and stylistic richness.

A balanced application of domestication and foreignization strategies is therefore essential. As Venuti, Newmark, Baker, Molina, and Albir suggest, the choice of strategy should be guided by the purpose, genre, and target audience of the translation.

In the context of Uzbekistan, moving toward direct translation from English has become increasingly relevant. Strengthening translators' linguistic competence will not only enhance the semantic and stylistic quality of future literary translations but also ensure that intermediary translations are employed critically rather than mechanically, minimizing unintended distortions and preserving the authorial voice.

Literature

1. Baker M. In Other Words. – London and New York: Routledge, 1992.
2. Dosbayeva N.T. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash: Filol. fan. nomz. diss... avtoref. – Toshkent, 2011.
3. Kittel H., Frank A.P. Interculturality and the Historical Study of Literary Translations. – 1991.
4. London J. To Build a Fire and Other Stories. – [S.l.]: Global Language Resources, Inc., DjVu Editions, 2003.
5. London Jek. Men anglagan hayot: esse va hikoyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Лондон Дж. Собрание сочинений в 13 томах. Т. 1. Москва: Правда, 1976.
7. Molina L. and Albir A. Translation Technique Revisited: A Dynamic and Functionalist Approach. – Spain: Universitat Autonoma da Barcelona, 2002.
8. Newmark P. A Textbook of Translation. – Hamel Hempstead: Prentice Hall, 1988.
9. Sodikov Z., Abduraxmonova D. Tarjimashunoslik terminlarining ko'ptilli lug'at-ma'lumotnomasi (o'zbek, olmon, ingliz, rus tillari). – Namangan: NamDU, 2013.
10. Sharipov R. Badiiy tarjima: "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2022.
11. Venuti L. The Translator's Invisibility. – London, New York: Routledge, 1995.

Dilshoda OTABOYEVA,
National university of Uzbekistan

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF ZOOMORPHIC PHRASEOLOGISMS IN THE UZBEK LANGUAGE: RECONSTRUCTING ARCHAIC WORLDVIEWS AND TOTEMIC RELICS

Annotation. This study presents a linguocultural analysis of phraseological units in the Uzbek language that incorporate zoonyms (animal names). It is based on the hypothesis that these fixed expressions are not merely reflections of everyday observations but represent linguistic relics of archaic worldview strata, including totemic beliefs and mythopoetic perspectives. Drawing on a corpus of collected phraseologisms, the research demonstrates how concepts such as "*it*" (dog), "*bo'ri*" (wolf), "*ilon*" (snake), "*arslon*" (lion), and "*tulki*" (fox) function to structure ethical, social, and anthropological categories within Uzbek linguoculture. By examining these expressions, the study sheds light on the ways in which cultural codes and archetypal representations are preserved and transmitted through language. This research contributes to the fields of cognitive linguistics and ethnolinguistics by revealing the mechanisms through which historical cultural knowledge is encoded in everyday speech.

Keywords: Uzbek language, phraseology, zoonyms, linguoculture, totemism, cognitive linguistics, cultural codes, archetypes.

Annotatsiya. Tadqiqotda o'zbek tilidagi zoonimlar (hayvon nomlari) ishtirok etgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili keltirilgan. Bu turg'un birikmalar kundalik kuzatuvlarning shunchaki in'ikosi emas, balki arxaik dunyoqarash qatlamlarining, shu jumladan, totemistik e'tiqodlar va mifopoetik qarashlarning lingvistik reliktlari, degan farazga asoslanadi. Tadqiqotda to'plangan frazeologizmlar korpusiga tayangan holda, o'zbek lingvomadaniyatida "it" (kuchuk), "bo'ri" (bo'ri), "ilon" (ilon), "arslon" (sher), "tulki" (tulki) kabi tushunchalar axloqiy, ijtimoiy va antropologik kategoriyalarni shakllantirish vazifasini bajarishi ko'rsatib berildi. Ushbu iboralarni o'rganish orqali tadqiqot madaniy kodlar va arxetipik tasavvurlarning til orqali saqlanishi va uzatilish usullarini yoritadi. Ushbu tadqiqot tarixiy madaniy bilimlarning kundalik nutqda kodlanish mexanizmlarini ochib berish orqali kognitiv tilshunoslik va etnolingvistika sohalariga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, frazeologiya, zoonimlar, lingvomadaniyat, totemizm, kognitiv tilshunoslik, madaniy kodlar, arxetiplar.

Аннотация. В данном исследовании представлен лингвокультурологический анализ фразеологических единиц узбекского языка, включающих зоонимы (имя животных). Она основана на предположении, что эти фиксированные выражения являются не просто отражением повседневных наблюдений, но представляют собой языковые реликвии архаических мировоззренческих пластов, включая тотемистические верования и мифопоэтические взгляды. Основываясь на корпусе собранных фразеологизмов, исследование демонстрирует, как такие понятия, как «it» (собака), «bo'ri» (волк), «ilon» (змея), «arslon» (лев), «tulki» (лиса), служат для построения этических, социальных и антропологических категорий в узбекской лингвокультуре. Изучая эти выражения, исследование проливает свет на способы сохранения и передачи через язык культурных кодов и архетипических представлений. Данное исследование вносит свой вклад в области когнитивной лингвистики и этнолингвистики, раскрывая механизмы, посредством которых историко-культурные знания кодируются в повседневной речи.

Ключевые словы: узбекский язык, фразеология, зоонимы, лингвокультура, тотемизм, когнитивная лингвистика, культурные коды, архетипы.

The phraseological fund of a language represents a concentrated expression of the "linguistic worldview" (LWV) of its speakers. Unlike free lexical combinations, phraseologisms are stable, idiomatic units, making them an ideal object for reconstructing archaic cultural models and societal stereotypes. Within this set, phraseological units containing zoomorphic components constitute a distinct and revealing layer. These units, while based on observations of animal behavior, simultaneously project complex systems of human values, vices, and virtues onto the animal world.

This study focuses on the Uzbek language, whose phraseology developed under the combined influence of nomadic and sedentary lifestyles, as well as ancient Turkic beliefs, including totemism, zoolatry (animal worship), and shamanism. The primary aim of the research is to identify and systematize the linguocultural characteristics of Uzbek phraseologisms containing zoonyms, and to elucidate their connection to archaic worldview models. The scientific hypothesis underlying this work posits that the semantics of many such phraseologisms cannot be fully explained through direct lexical comparison alone; instead, it necessitates consideration of the historical and ethnographic context, where these animals served totemic or symbolic functions.

The research is grounded in several theoretical frameworks:

- Linguocultural Theory (V.A.Maslova, V.I.Karasik), which conceives language as a repository and transmitter of cultural knowledge.
- The Concept of the Linguistic Worldview (J.L.Weisgerber, A.Wierzbicka), which facilitates the analysis of how reality is categorically organized in the Uzbek language.
- The Structuralist Approach to Totemism (C.Lévi-Strauss), according to which animals operate as "logical operators" for classifying social and natural phenomena.

Through this analysis, several key zoomorphic concepts have been identified that play a structuring role within the Uzbek linguistic worldview, reflecting the interplay between language, culture, and cognition.

The Concept "It" (Dog) – A Marker of Negative Social Evaluation. Phraseologisms with the component *it* consistently carry a sharply negative connotation associated with contempt, low status, and immoral behavior:

1. *It kabi yugurmoq* – "to run like a dog" (extreme humiliation and helplessness).
2. *Itning oyog'i tegib* – "(done) by a dog's foot" (done very poorly, of low quality).
3. *Itning oldidagi suyak kabi* – "like a bone in front of a dog" (an object of fierce dispute).

This evaluation may trace back to pre-Islamic Turkic beliefs, where the dog, unlike the wolf, was not a sacred totem but was associated with poverty and impurity. This contrasts with, for example, European cultures where positive connotations exist ("a lucky dog").

The Concept "Bo'ri" (Wolf) – An Ambivalent Symbol of Strength and Solitude. The wolf is a key totemic ancestor in Turkic, including Uzbek, tradition (e.g., the Ashina myth).

Bo'ri kabi och – "as hungry as a wolf" (not merely hunger, but a fierce, predatory desire).

Bo'ri kabi yolg'iz – "as lonely as a wolf" (not just the absence of company, but a proud, tragic independence).

The ambivalence of the wolf image reflects its totemic status. On one hand, it symbolizes strength, ferocity, and pack unity; on the other, the fate of a leader doomed to solitude. This is a direct reflection of the "divine wolf-ancestor" archetype.

The Concept "Ilon" (Snake) – A Symbol of Wisdom and Cunning.

- *Ilon kabi egilmoq* – "to twist/writhe like a snake" (referring to a flattering, insincere person).
- *Ilonning yog'i–zahari* – "the venom and poison of a snake" (deep, hidden hatred).

The image of the snake is connected to chthonic, underworld forces, as well as to wisdom (the motif of the "snake-advisor" in folklore). This concept demonstrates the universality of the image with culture-specific implementations.

The Concept "Arslon" (Lion) – A Symbol of Absolute Power and Nobility

The borrowed image of the lion (*arslon* or *shir*) carries the features of Iranian and general Eastern cultural influence.

- *Arslon kabi mard* – "as brave as a lion."
- *Arslon qalbi* – "a lion's heart" (a noble and brave person).

This concept is not autochthonous to the Turkic environment but was fully assimilated and became a marker of the highest authoritative and heroic qualities, displacing local totems (the wolf, snow leopard) in this function.

Discussion: Totemic Reflexes in Modern Phraseology. The conducted analysis allows us to conclude that Uzbek zoomorphic phraseology represents a palimpsest, where a layer of archaic mythological and totemic representations is superimposed upon direct observations.

1. Structure of Binary Oppositions: Zoonyms in phraseology often form binary oppositions following a Lévi-Straussian principle. For example, **"wolf" (bo'ri) vs. "dog" (it)** is the opposition "freedom/wildness vs. slavery/servitude"; **"lion" (arslon) vs. "jackal" (chiyol)** is "power/nobility vs. cowardice/meanness."

2. Social Projection: Animals are used to classify human types and social roles, a rudiment of the totemic world order where a clan/tribe identified with an animal-ancestor.

3. Semantic Evolution: Initially totemic images (like the wolf) could, over time, undergo demonization under the influence of new religions (Islam), while others (like the lion) became sacralized.

5. Conclusion and Research Perspectives

This study has demonstrated that phraseologisms containing zoonyms in the Uzbek language constitute a valuable resource for reconstructing the archaic layers of cultural consciousness. These expressions not only preserve ethnobiological observations but also encode complex systems of ethnic values, social hierarchies, and relic beliefs, including totemism.

1. The research suggests several avenues for further investigation:
2. Conducting a comparative analysis with the phraseological systems of other Turkic languages to identify both common Turkic patterns and Uzbek-specific zoomorphic models.
3. Performing psycholinguistic experiments to examine the contemporary connotations and associations of these phraseologisms among native speakers.

Investigating phraseologisms that feature domestic animals (such as horses, camels, and sheep) to reconstruct economic and cultural models of Uzbek society.

Overall, the linguocultural analysis of zoomorphic phraseology provides a meaningful pathway for gaining a deeper understanding of the mentality, worldview, and cultural history of the Uzbek people.

Literature

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. – Oxford: Oxford University Press, 1997.
3. Lévi-Strauss C. Totemism. Translated by Rodney Needham. – Beacon: Press, 1962.
4. Karasik V. Language Circle: Personality, Concepts, Discourse. – Volgograd: Peremena, 2002.
5. Sharifjon H., Gulnora R. Cultural Codes in Uzbek Phraseology with Zoomorphic Components // Journal of Ethnolinguistic Studies, 2021, (3). – P. 45–60 p.

Kholniso ALIKULOVA,
Student, Termez State University

THE ELEMENTS OF SUPERNATURAL AND MAGIC REALISM IN "SONG OF SOLOMON" (Novel by Toni Morrison)

Annotation. This article deals with analysis of features of magic realism in the novel called, "Song of Solomon" by Toni Morrison. At the same time, it also compares the role of what is called supernaturality between literal works, particularly in novels. When studying the comparative aspects of this genre, it is impossible not to mention the writer of this book, since her this book is stated as the bright example of magical reality. In this way, we try to show the similarities and differences between the other genres in the languages, the unique culture and mentality of the people who use unnaturality as a powerful descriptive method.

Keywords: magic, supernatural, fantasy, city of mirrors, utopic.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toni Morrisonning "Sulaymon qo'shig'i" romanidagi sehrli realizm xususiyatlari tahlili haqida so'z boradi. Shu bilan birga, adabiy asarlar, xususan, romanlar o'rtasida g'ayritabiiylik hodisasining roli ham taqqoslanadi. Ushbu janrning qiyosiy jihatlarini o'rganish uchun ushbu kitob muallifi haqida gapirmasdan iloj yo'q, chunki u ushbu kitobni sehrli voqelikning yorqin namunasi sifatida ta'kidlaydi. Shu yo'l bilan tillardagi boshqa janrlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni, g'ayritabiiylikni kuchli tasvir usuli sifatida qo'llaydigan xalqning o'ziga xos madaniyati va mentalitetini ko'rsatishga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: sehrgarlik, g'ayritabiiylik, fantaziya, ko'zgular shahri, utopiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается анализ особенностей магического реализма в романе Тони Моррисона «Песнь Соломона». В то же время, она также сравнивает роль так называемого сверхъестественного между буквальными произведениями, особенно в романах.При изучении сравнительных аспектов этого жанра невозможно не упомянуть писателя этой книги, поскольку она утверждает, что эта книга является ярким примером магической реальности. Таким образом, мы стремимся показать сходства и различия между другими жанрами в языках, уникальную культуру и менталитет людей, которые используют неестественность как мощный дескриптивный метод.

Ключевые слова: магия, сверхъестественное, фантазия, город зеркал, утопия.

The term "magic realism" was first introduced by Franz Roh in 1925 in his book Nach Expressionismus: Magischer Realismus (After Expressionism: Magical Realism). Roh used the concept of magischer Realismus to emphasize how ordinary objects of the real world may appear magical, fantastic, or strange when they are perceived with heightened awareness. In brief, magical realism is a literary genre that depicts reality through a subtle fusion of the real and the magical. One of its defining features is that supernatural elements are presented in such a natural and matter-of-fact manner that the reader does not question their abnormality but instead accepts them as part of everyday reality. In this sense, magic realism is, as Ángel Flores and later Leal describe it, "an attitude toward reality" rather than a departure from it [1: 121]. It represents a reality imbued with elements of the supernatural. Magic realism gained particular prominence in twentieth-century literature, especially through the works of Latin American and African American writers. One of the masterpieces written in this style is Song of Solomon by Toni Morrison. Toni Morrison, a prominent American novelist, was born in 1931 in Lorain, Ohio. She gained critical recognition with her early novels, including The Bluest Eye (1970). The novel that brought her national and international acclaim was Song of Solomon. Throughout her literary career, Morrison received numerous prestigious awards, including the National Book Critics Circle Award and the Pulitzer Prize for Beloved (1987), and she was awarded the Nobel Prize in Literature in 1993. Song of Solomon is Morrison's third novel and is distinctive for featuring a Black male protagonist. The central character, Milkman Dead, embarks on a symbolic quest for "gold," which ultimately represents his search for identity, ancestry, and cultural heritage. What he discovers by the end of the novel is the profound significance of the "Song of Solomon" – a song that preserves the collective memory of African American ancestors and their history. From the opening pages of the novel, clear examples of magic realism appear, particularly through mythic and symbolic elements. The narrative begins with Robert Smith's letter announcing his intention to fly from the roof of Mercy Hospital using his own wings. This extraordinary event is followed by a series of strange occurrences in the city. Significantly, as Robert Smith dies, Milkman is born, suggesting a symbolic continuity of life and death, often interpreted as the idea that "one must die so that another may live." Magic realism in the novel is also expressed through the theme of naming, which carries supernatural and symbolic significance. Names in Song of Solomon are not arbitrary labels but bear deep cultural and spiritual meaning. It is suggested that the dead truly pass into the world of death only when no one remains who remembers their names. As Morrison emphasizes, a name is "not a joke, not a mask, not a shameful nickname", but something bestowed with care, love, and profound observation from birth [2: 36]. Through such elements, Morrison uses magic realism not merely as a stylistic device but as a means of preserving memory, identity, and cultural continuity.

To ensure the continuity and immortality of their ancestors, the newly born child is named Macon Dead after his father. Even today, this religious and cultural belief is observed in some communities. Another prominent feature of magic realism in Song of Solomon is embodied in the character of Pilate, the protagonist's aunt. Her physical distinctiveness – being born without a navel – is perceived as a mark of her supernatural powers. Moreover, she serves as a living mediator between the world of the living and the spirits of ancestors. This combination of supernatural and practical abilities makes her both honored and widely respected in her community. In addition to her mystical reputation, Pilate is also recognized as a conventional specialist in herbal medicine and folk remedies. Her status in the village stems from both her self-proclaimed powers and the community's reverence for her knowledge and autonomy.

Throughout the novel, Macon's life is closely intertwined with Pilate. However, he remains curious and skeptical about her supposed abilities to bridge the realms of life and death. It is only toward the end of the novel, after hearing the "Song of Solomon" sung by street children, that Macon begins to comprehend the deeper truths of his heritage and identity. This turning point, which reconnects him with his ancestral roots, demonstrates how Morrison integrates magical realism seamlessly into the narrative, making the extraordinary feel natural within the story's flow. Yet, the magical elements are not literal representations of reality; rather, they function as symbolic and metaphorical devices, inviting the reader to uncover hidden meanings beneath the surface.

In Song of Solomon, Morrison emphasizes two recurring motifs: flight and naming. As she writes, "Ancestors could fly / Children may know their names" [3: 6]. The forced displacement of African people to America as slaves severed their connections with their ancestors and often deprived them of their true names. The state of being nameless symbolizes the oppression, suffering, and erasure of identity endured under slavery, which persisted even after emancipation. Naming in the novel, therefore, becomes a powerful symbol of heritage, identity, and resistance, reflecting the conflict between white oppressors and Black communities. Morrison herself observes, "If you come from Africa, your name is gone" [4: 375].

Flight, another central motif, can be interpreted as an expression of the African American desire for freedom, autonomy, and self-determination. The imagery of flight reflects a longing for liberation and a reclamation of the spiritual and cultural freedoms that existed before slavery and oppression. By employing magical realism, Morrison allows readers to engage with these aspirations and cultural memories in a way that blends realism with metaphorical and surreal dimensions.

Magic realism, as demonstrated in Song of Solomon, is a distinctive and powerful literary strategy of the twentieth century. Morrison uses this style effectively to depict flight, naming, psychic phenomena, and immortality as integral elements of African American cultural identity. While these elements may not correspond to ordinary reality, they reveal a parallel, symbolic world in which Black characters preserve their traditions, culture, and sense of self. This duality—the coexistence of the real and the symbolic—highlights

the necessity of connecting with ancestral heritage and maintaining cultural memory, suggesting that devotion to this spiritual world is both a choice and a requirement for sustaining identity.

Reference

1. Flores A. Magic Realism in Spanish American Fiction. Magic Realism: Theory, History, Community. – Durham: Duke UP, 1995.
2. Morrison T. A Mercy. – New York – Toronto: Alfred A. Knopf, 2009.
3. Pasquier, Marie-Claire. Toni Morrison: Dans ma famille, on racontait tout le temps des histoires // La Quinzaine Litteraire, 1985.
4. LeClair T. The Language Must Not Sweat. Conversation with Toni Morrison. Ed. Danille Tayor-Guthrie. – Jackson: U of Mississippi, 1994.

Nasiba HASANOVA,
English teacher at academic lyceum of Samarkand State University

LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF ANATHEMATIC UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation. This article focuses on what lexical-semantics is, its history and approaches, scientists investigating the field and their findings. Differences between paradigms and syntagms are explained, subcategories of paradigms are thoroughly conveyed. Then the article highlights another version of classification of curse words with examples taken from dictionaries and fictions in both languages.
Keywords: lexical-semantics, paradigms, syntagms, anathematic units, curses, vulgarisms, emphatic, relief-oriented, contempt, disrespect, insult, hatred, vulgarism.
Annotatsiya. Ushbu maqola leksik-semantikaning mohiyati, uning rivojlanish tarixi va tadqiqot yondashuvlariga bag'ishlangan. Sohada faoliyat yuritgan olimlar va ularning ilmiy natijalari tahlil qilingan. Paradigma va sintagmalar o'rtasidagi farqlar tushuntirilib, paradigmalarning turkumlari batafsil yoritilgan. Shuningdek, ikki tildagi lug'at va badiiy adabiyotlardan olingan misollar bilan qarg'ish so'zlari tasnifining yana bir varianti yoritilgan.
Kalit so'zlar: leksik-semantik, paradigmalar, sintagmalar, anatematik birliklar, qarg'ishlar, vulgarizmlar, emfatik, relefga yo'naltirilgan, mensimaslik, hurmatsizlik, haqorat, nafrat, vulgarizm.
Аннотация. Статья посвящена сущности лексической семантики, её историческому развитию и исследовательским подходам. Рассматриваются учёные, занимавшиеся изучением данной области, и результаты их исследований. Объяснены различия между парадигмами и синтагмами, подробно освещены подкатегории парадигм. Кроме того, приведены различные классификации единиц, выполненные узбекскими и английскими лингвистами. В статье также рассматривается классификация ругательных и бранных слов с примерами, заимствованными из словарей и художественных текстов.
Ключевые слова: лексико-семантические, парадигмы, синтагмы, анафемистические единицы, проклятия, вульгаризмы, эмфатические, рельефные, презрение, неуважение, оскорбление, ненависть, вульгаризм.

It is widely recognized that scholars have long been fascinated by words and their meanings, a concern dating back to antiquity. While discussions of meaning can be traced to Aristotle in Western intellectual tradition, lexical semantics emerged as a distinct field only in the nineteenth century. Earlier approaches lacked a unified framework; instead, they consisted of individual scholars' investigations into historical texts and the cultural development of human societies over time. These early semantic inquiries were rooted in historical and philosophical perspectives, emphasizing etymology and diachronic shifts in word meanings.

Geeraerts (2010) notes that in its earliest phase, lexical semantics conceptualized word meaning as a mental construct, with semantic change interpreted as a psychological process. Reacting to this tradition, structuralist theorists influenced by Ferdinand de Saussure reoriented the study of meaning in the early twentieth century. Structuralists viewed language as an internal system shaped by networks of lexical relations [6: 234]. Under this approach, meanings were defined not by mental representation but through the relationships words maintain with one another. Structuralism's key distinction between paradigmatic and syntagmatic relations highlighted how words either substitute for one another or combine within larger syntactic structures. In her work on lexical – semantic relations, C.Paradis (2012) outlines three primary categories: homonymy and polysemy (identical forms with distinct meanings), synonymy and hyponymy (different forms with semantically related meanings), and antonymy (formally and semantically opposed items) [9: 3360]. Expanding on this, M.Yunusova (2024) characterizes lexical semantics as a discipline concerned with how words encode meaning both individually and in context. She argues that words participate in extensive semantic networks and can be analyzed through paradigms such as synonymy, antonymy, polysemy, homonymy, hyponymy, hypernymy, and meronymy [11: 546].

D.Husanova (2024) proposes a dual classification: semantic relations (including synonyms, antonyms, hyponyms, and gradational series) and formal relations (such as homonyms and paronyms). She further observes that synonyms can be differentiated by evaluative nuance, historical stage, or stylistic register, while graduonyms indicate degrees of a particular quality, illustrated by series like baby–child–teenager or large–medium–small [8: 135].

D.Curses uttered by women (May the evil you intend rebound upon you) played an important role in enforcing social norms and communal morality. Especially in maternal speech, expressions like "May the harm you wished my child return to you" operate as assertions of moral influence and social power (Gulomova, 2023). Through these utterances, women position themselves as agents of verbal authority, illustrating how linguistic acts can embody and reproduce forms of symbolic power [7: 1162]. Religious oaths and vows also formed an important category of early curse expressions. Phrases such as *"God's wounds"* or *"Christ's blood"* conveyed disrespect toward God and religion in the Middle Ages [1: 60]. The Reformation and Puritanism imposed stricter taboos, legislatively punishing blasphemy and strengthening the distinction between culturally acceptable and unacceptable language (vulgarisms) – a distinction still noticeable in modern linguistic norms. Anathematic units have undergone significant semantic change over time. The shift of meaning toward either positive or negative connotations reflects

broader transformations in social values [4: 3]. E.Blamir et al. (2013) classify anathematic units into two types according to their discursive function: **Emphatic curses**, which place strong emphasis on a specific object or topic ("That damned dog is trampling my flowers"); **Relief-oriented curses**, used to release intense negative emotions ("Damn it!" when one stubs a toe) [3: 32]. G. Horan (2013) proposes another classification: Formulaic curses directed at the listener *("May you die of a wasting disease," "I hope you…"),* Curses expressed as direct appeals to the Creator (*"May God forgive you…"*). Curses may also target the speaker themselves *("May God strike me dead…"),* or use the word *curse* explicitly *("The curse of hell on you").* In some cases, the appeal is implied rather than explicitly stated *("Oh hell!")* [5: 285]. In Christian belief, such curses are often viewed as flippant or careless invocations of divine intervention and thus interpreted as mocking the sacred [2: 72]. O. Yuldashev and M. Olimova (2023) classify vulgarisms in the novel *Shaytanat* into the following lexical–semantic groups: Words expressing contempt or disrespect *(befarosat, to'nka, megajin), Units denoting hatred (qo'rqoq, hayvon),* Words indicating insult and degradation *(shumshuk, maraz, xunasa, chuvrindi),* Expressions signaling intense anger *(padaringga la'nat, haromi, enagár, juvonmarg)* [10: 720].

As we are searching the meaning of anathematic units, we decided that they can also be divided into four categories from lexical-semantic perspective: anathematic units describing to a person's character (yuzi qora, xudo urgan, Tom of Bedlam), curse words directed to a listener (Woe betide you, qo'ling akashak bo'lsin), foul-words towards things and events (curse the day, osmon yiroq, yer qattiq), fixed expressions having less negative meaning (dog my cats, afti qursin).

The overall analysis of lexical semantics and anathematic expressions shows that word meanings are fluid and interconnected, continually influenced by cultural, psychological, and social forces. From early etymological studies to structuralist theory and contemporary semantic frameworks, research on meaning reveals a complex web of relations among lexical items. The study of curses, in particular, highlights the role of language as a medium for exercising power, shaping identity, and regulating social norms. Whether appearing in mythological narratives, religious formulas, or everyday discourse, anathematic expressions demonstrate how moral values and communicative practices evolve over time. Consequently, curses should not be viewed simply as peripheral linguistic forms; rather, they represent culturally embedded discursive practices that deepen our understanding of how language both reflects and constructs social life.

References

1. Allan K., Burridge, K. Forbidden words: Taboo and the censoring of language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
2. Battistella E.L. Bad language. Are some words better than others? – Oxford: Oxford University Press, 2005.
3. Blamire E., Laturnus R., Perez-Leon A. *Profanity Across Gender and Age // University of British Columbia Sojourners: Undergraduate Journal of Sociology,* 2013. – Vol. 5. – P. 32–50.
4. Deckker D., Sumanasekara S. *Profanity Through Time: A Corpus-Based and Sociolinguistic Study of the Evolution, Usage, and Perception of English Curse Words // International Journal of Southern Economic Light (JSEL)*, 2025. Vol. 13, Issue. 5. – P. 3.
5. Horan G. You taught me language; and my profit on't/ls, I know how to curse': cursing and swearing in foreign language learning // Language and Intercultural Communication, 2013, 13(3). – P. 283–297.
6. Geeraerts D. Theories of lexical semantics. – Oxford: Oxford University Press, 2024.
7. Gulomova R. Социокультурное происхождение слов проклятий // *Лингвоспектр*, 2025, 4(1). – С. 1159–1164.
8. **Husanova D. B.** Tilshunoslikda leksik-semantik munosabatlar *// Zamonaviy ilm-fan va ta'lim istiqbollari:* ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2024. – B. **133–136**.
9. Paradis, C. Lexical Semantics // The Encyclopedia of Applied Linguistics / ed. C. A. Chapelle. Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. – P. 3356–3357.
10. **Yuldashev O., Olimova M.** *Lexical-semantic analysis of certain definitions and vulgarisms used in Tahir Malik's "Shaytanat" //* **International Bulletin of Applied Science and Technology**, 2023. Vol. 3, №5. – P. 718–722.
11. **Yunusova MSh.** Lexical semantics as a branch of linguistic semantics: theoretical foundations and analytical approaches // *New Renaissance International Scientific Journal*, 2024. Volume **2**, Issue **5**. – B. **545–549**.

Elena SURMILOVA,
Urgench State university

LEXICAL STYLISTIC FUNCTIONS OF TONGUE-TWISTERS IN THE ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES: CORPUS ANALYSIS

Annotation. The article studies lexical stylistic mechanisms that provide expressiveness and difficulty of tongue-twisters beyond their phonetic component. Using the material of two corpora, English and Russian, the distribution and interaction of such techniques as paronymy, polyptoton, derivation, cumulation and pun have been analyzed.

Keywords: tongue-twister, paronymy, polyptoton, derivation, pun, lexical stylistics, corpus analysis.

Annotatsiya. Maqolada tez aytish matnlarining fonetik komponentidan tashqari ifodaliligi va murakkabligini ta'minlovchi leksik-stilistik mexanizmlar ko'rib chiqildi. Ingliz va rus tillaridagi ikki tez aytish matnlari korpusi yordamida paronimiya, poliptoton, derivatsiya (yoki yasalish), kumulyatsiya va kalambur kabi usullarning tarqalishi va o'zaro ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: tez aytish, paronimiya, poliptoton, derivatsiya (yasalish), kalambur, leksik stilistika, korpus tahlili.

Аннотация. В статье рассмотрены лексико-стилистические механизмы, делающие возможными выразительность и сложность скороговорок помимо их фонетического компонента. Были изучены распределение и взаимодействие таких приемов, как паронимия, полиптотон, деривация, кумуляция и каламбур посредством использования двух корпусов скороговорок, английского и русского.

Ключевые слова: скороговорка, паронимия, полиптотон, деривация, каламбур, лексическая стилистика, корпусный анализ.

Traditional linguistics and pedagogy look at tongue-twisters solely from the prospective of phonetics and difficult sound clusters. In contrast to this approach, this paper hypothesizes that lexical-stylistic design of tongue-twisters is also an important and autonomous mechanism. A tongue-twister is looked at as a system that is centred around a word, has a complicated structure based on form play, lexical ambiguities and semantic notes, the function and properties of which are retained even if it is not said aloud.

This shift of the research prospective from a sound to a word is important for the stylistics, poethics and text construction practices [1: 195]. The paper addresses the question of which lexical-stylistic devices dominated in the English and Russian texts, how they influence the composition, and how the buildup of tongue-twisters differs in typologically different languages.

The methodological framework of the study is built on the categories of lexical stylistics which are considered separately from phonetics [2: 20]. Paronymy, the play of form between orthographically similar lexemes which generates semantic confusion and comic effect, is central to the analysis. Another important concept being analyzed is polyptoton, which refers to the repetition of a single stem in different grammatical or morphological forms that reinforce the "lexical echo" within a phrase. Furthermore, derivational families (chains of cognate words that create a high root density of the text) and the phenomena of lexical ambiguity, such as puns and homonymy, are considered. The compositional structure of the texts is organized by the series of homogenous terms with ascending order known as enumerations (cumulations) and refrains and repetitions of the words. Semantic analysis is based on the identification of thematic fields, for example, animals, food, everyday life. They are included primarily because they are one of the key factors of the imagery of the text and its memorability.

Historically, tongue twisters have been studied within the framework of folklore studies and phonetics; however, a comprehensive analysis of the lexical architecture of a text requires reference to fundamental works on stylistics and semantics. The work of Russian linguists served as the basis for the study of expressiveness and text organization. V.V.Vinogradov laid the theoretical foundation for understanding styles and linguistic expression, considering vocabulary as the most important component of artistic speech [1: 195]. M.N.Kozhina and I.R.Galperin developed categories of lexical stylistics necessary for classifying repetition and word apposition techniques, which are critical for the analysis of paronymy [2: 20].

Understanding the mechanisms of semantic play and semantic cohesion in a text is based on the research of N.D.Arutyunova on the connection between language and the human world [4: 45] and L.G.Babenko on the lexical semantics of the Russian language [6: 55]. Set expressions and phraseological units, often used in tongue twisters to create a sense of recognition, were analyzed taking into account the theoretical propositions of A.N.Baranov and D.O.Dobrovolsky [5: 102].

A comparative analysis required reference to studies devoted to English stylistics and wordplay. D.Crystal, in her works, provides a comprehensive picture of the lexical and stylistic diversity of the English language [7: 18]. Moreover, the theoretical aspects of language play and puns, which are crucial for understanding the differences between Russian morphological play and English lexical play, are discussed in the classic works of D.Delabastita [8: 90].

Methods and materials of the study. The empirical base of the study are two specially constructed corpora. The English corpus (EN) contains 96 units of tongue-twisters, while the Russian corpus (RU) contains 102 units of them, all of which were pre-normalized and cleared of metadata.The main methodological feature of the study is its complete rejection of phonetic analysis. The research focuses exclusively on lexical and stylistic parameters, such as the frequency of root words, the presence of homonymy, the structure of enumerations, and thematic affiliation of the vocabulary. This approach allows us to isolate and describe the skeleton of a tongue twister, onto which the sound layer is subsequently superimposed.

The analysis of English-language material demonstrates that textual complexity in these tongue-twisters is often achieved through polysemy and homonymy, characteristic of the analytical system. English tongue twisters tend to build semantic nodes at punning intersections. Let's look at the following example:

Can you can a can as a canner can can a can?

Here, systematic polyptotonism, combined with the polysemy of the word *can* (ability to do something and a container), creates a dense lexical network. A tongue-twister *When you write copy you have the right to copyright the copy you write* functions similarly, where the derivational links *copy/copyright* intersect with the homophones *write/right*, forming a complex lexical-semantic node.

Another significant feature of the English corpus is cascading paronymy, found, for example, in

Luke Luck likes lakes. // Luke's duck likes lakes. // Luke Luck licks lakes. // Luck's duck licks lakes. // Duck takes licks in lakes Luke Luck likes. // Luke Luck takes licks in lakes duck likes.

Series of orthographically related words, such as *Luke/Luck/lakes/licks/duck*, create visual and semantic confusion, increasing the difficulty of perceiving the text even without pronouncing it aloud. Formulaic repetitions and refrains at the level of entire phrases are also widely represented.I

n the Russian corpus, the dominant mechanism is play with morphology. A statistically significant predominance of texts built on cognate root sequences is evident, which is ensured by the synthetic structure of the language. Striking examples include the chains *бобр/бор/брев* or *вар/вор*. Phrases like *Бобры храбры... для бобрят добры* or *Проворонила ворона воронёнка* (The crow missed the little crow) create a persistent lexical echo precisely through derivation and inflections, which is less typical in English.

Paronymy in Russian is often realized through long morphological series, where the play on form is combined with a comic shift in meaning. This is confirmed by the high proportion of texts with dense root repetition. As in English, cumulative constructions are active here, but they are more often expressed through lists of features or juxtapositions of circumstances, for example, "на горе - во дворе" (on the mountain - in the yard).

Regardless of language, tongue-twisters actively use the technique of cumulation. Both corpora feature extensive enumerations, where the stringing together of similar terms creates rhythmic and semantic inertia. Semantic analysis also revealed significant similarities: both languages gravitate toward images of animals and food, likely due to the genre's folkloric roots. However, there are also specific features: the Russian corpus is more focused on everyday realities, professions, and objects, while the English corpus contains

a unique layer of textual-legal vocabulary *(copyright, writing),* which correlates with the tradition of puns.

The corpus analysis confirms that lexical-stylistic devices can completely shape the structure of a tongue twister without the use of sound tricks. Eliminating phonetics allowed us to identify typological differences in the design of wordplay. Russian, with its rich morphology, is predisposed to creating complexity through single-root cascades and polyptotone. In contrast, English uses conversion, collocations, and pun-based intersections to create semantic traps more often.

Thus, the tongue twister can be viewed as a flexible lexical tool. Enumerations and refrains define its composition, paronymy and puns create semantic intrigue, and derivation provides textural density. The findings open new perspectives for speech pedagogy and literary creativity, suggesting that educational texts be constructed by managing their lexical, not just phonetic, complexity.

References

1. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. 3-е изд., доп. Москва: Гослитиздат, 1959. – 524 с.
2. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. Москва: Просвещение, 1994. – 288 с.
3. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. 6-е изд., испр. Москва: Высшая школа, 1981. – 334 с.
4. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., доп. Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
5. Баранов А.Н., Добровольский Д.О. Идиомы русского языка. Москва: Языки славянской культуры, 2008. – 544 с.
6. Бабенко Л.Г. Лексическая семантика русского языка. Екатеринбург: УрГУ, 2000. – 368 с.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. 499 p.
8. Delabastita D. There's a Double Tongue: An Investigation into the Translation of Wordplay in Shakespeare's Plays. Amsterdam – Atlanta: Rodopi, 1993. 318 p.

Sardor SHERKULOV,
Head of Interfaculty department of foreign languages,
Associate professor, PhD

TRAUMATIC WAR MEMORY IN VIRGINIA WOOLF'S "MRS DALLOWAY" IN THE FRAMEWORK OF TRAUMA NARRATOLOGY

Annotation. This study examines the representation of traumatic war memory in Virginia Woolf's "Mrs Dalloway" within the analytical framework of trauma narratology. The research explores how Woolf employs fragmented temporality, flashbacks, shifting focalization, and stream-of-consciousness techniques to depict the psychological impact of World War I.

Keywords: trauma narratology, traumatic memory, flashbacks, temporality, focalization, modernism, shell shock, cognitive poetics.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda Virginia Vulfning *"Mrs Dalloway"* romanida urush bilan bog'liq travmatik xotiraning aks ettirilishi travma narratologiyasi nazariyasi doirasida tahlil qilinadi. Vulfning parchalangan vaqt ketma-ketligi, fleshbeklar, fokalizatsiyaning almashinishi va ong oqimi texnikalari orqali Birinchi jahon urushining ruhiy oqibatlarini qanday tasvirlagani yoritiladi

Kalit so'zlar: travma narratologiyasi, travmatik xotira, fleshbeklar, vaqt buzilishi, fokalizatsiya, modernizm, kognitiv poetika.

Аннотация. В статье исследуется репрезентация травматической памяти о войне в романе Вирджинии Вулф *«Миссис Дэллоуэй»* в контексте травматической нарратологии. Вулф использует фрагментарную темпоральность, флэшбеки, смену фокализации и поток сознания для выражения психологических последствий Первой мировой войны.

Ключевые слова: травматическая нарратология, травматическая память, флэшбеки, темпоральность, фокализация, модернизм, шок от снарядов, когнитивная поэтика.

The aftermath of the First World War generated a profound crisis in both individual and collective consciousness, reshaping the cultural, psychological, and literary landscapes of Europe. Among the modernist writers who sought new aesthetic forms to articulate this rupture, Virginia Woolf occupies a central place. Her novel *Mrs Dalloway* presents an intricate narrative experiment in the representation of trauma, memory, and the fragmentation of the self. Although the novel ostensibly follows a single day in postwar London, the experience of Septimus Warren Smith – an ex-soldier suffering from severe psychological distress – reveals the latent presence of war trauma beneath the surface of everyday urban life. In this sense, Woolf's novel becomes a paradigmatic text for analyzing traumatic memory through the frameworks of trauma narratology and cognitive poetics.

Trauma narratology, grounded in the foundational works of Cathy Caruth, Dori LaCapra, and Shoshana Felman, emphasizes that trauma resists straightforward representation. Caruth (1996) argues that traumatic memory is characterized by belatedness, repetition, and fragmentation: the traumatic event "returns in repeated flashbacks, nightmares, and intrusive images" rather than being narratively integrated into a coherent autobiographical memory. Woolf's portrayal of Septimus exemplifies this phenomenon, as his consciousness is marked by dissociation, hallucinations, and involuntary temporal shifts that reflect the disrupted temporality of traumatic recall. The novel's non-linear structure, frequent shifts in focalization, and stream-of-consciousness narration thus demonstrate how literary form can mirror the cognitive processes of trauma [5: 25–57].

At the same time, *Mrs Dalloway* can be situated within the broader cultural context of postwar Britain, where shell shock – now understood as post-traumatic stress disorder (PTSD) – was widely documented yet insufficiently understood. Scholars such as Elaine Showalter (1985) and Allan Young (1995) note that the diagnosis of shell shock exposed deep tensions between military authority, psychological science, and cultural constructions of masculinity. Woolf's representation of Septimus's suffering challenges the dominant medical and ideological discourses of the period, particularly through her critique of psychiatry embodied by Dr. Holmes and Sir William Bradshaw. Their insistence on "proportion" and "conversion" reflects what LaCapra (2001) identifies as attempts to normalize trauma by imposing narrative closure where none is psychologically possible. Woolf, by contrast, foregrounds the unassimilated

and non-narrativizable aspects of Septimus's memory, thereby offering an implicit critique of institutional responses to trauma.

The novel also lends itself to analysis through cognitive poetics, a field concerned with how readers cognitively process narrative structures and mental representations. Scholars such as David Herman (2003) and Monika Fludernik (1996) argue that narrative is fundamentally rooted in human cognitive patterns, including perception, embodiment, and memory. Septimus's traumatic experiences, which manifest through vivid sensory triggers – such as skywriting, rustling trees, and the sound of a car backfiring – activate what cognitive theorists describe as embodied memory, in which sensory impressions evoke involuntary recollections. Woolf's stylistic choices – fragmented syntax, abrupt temporal shifts, and associative mental imagery – thus simulate the disrupted cognitive states associated with trauma. As a result, *Mrs Dalloway* is not merely a text about trauma but a text that formally enacts traumatic perception.

Furthermore, the juxtaposition of Septimus's psychological collapse with Clarissa Dalloway's preparations for a social gathering illuminates Woolf's broader thematic interest in the relationship between private suffering and public life. Critics such as Alex Zwerdling (1986) and Jane Marcus (1987) argue that Woolf employs contrasting narrative perspectives to expose the fragility underlying the veneer of postwar social normalcy. The city of London itself becomes a space in which traumatic memory circulates within everyday life, suggesting that the consequences of war permeate the social fabric even in ostensibly peaceful times. Clarissa's intuitive, though fragmented, response to Septimus's suicide signals what Caruth terms "empathetic unsettlement," a literary effect that compels readers to confront the ethical dimensions of trauma.

Taken together, these approaches demonstrate that *Mrs Dalloway* exemplifies the convergence of trauma narratology and cognitive poetics. Through its innovative narrative techniques and psychologically nuanced portrayal of war trauma, the novel reveals how traumatic memory disrupts linear temporality, destabilizes identity, and resists conventional narrative containment. Woolf's exploration of Septimus's interior world anticipates contemporary understandings of trauma while offering a profound critique of the cultural mechanisms that silence or pathologize psychological suffering. By analyzing *Mrs Dalloway* within this interdisciplinary framework, the present study aims to shed new light on Woolf's contribution to the literary representation of war trauma and to deepen our understanding of how narrative form can embody the cognitive and emotional realities of traumatic experience [4: 26].

Trauma narratology is an interdisciplinary field that integrates insights from psychological trauma studies and narrative theory in order to examine how literary texts represent, encode, and formally reproduce traumatic experience. Emerging in the 1990s alongside the broader "trauma turn" in the humanities, trauma narratology foregrounds the idea that trauma is not merely a thematic element but a formative force that shapes narrative form, temporality, and modes of consciousness. Scholars such as Cathy Caruth, Shoshana Felman, Dori LaCapra, and Anne Whitehead argue that trauma disrupts conventional narrative structures because traumatic memory itself is fragmented, repetitive, and resistant to integration into a coherent chronological account.

The narratological study of trauma builds upon foundational psychological research by Sigmund Freud, Pierre Janet, Bessel van der Kolk, and Judith Herman. According to Freud's early theorization, traumatic events overwhelm the psyche's capacity for symbolic processing, producing what he terms "repetition compulsion" – the involuntary return of repressed memories through dreams, flashbacks, or bodily symptoms. Janet, by contrast, emphasized dissociation and the subject's inability to synthesize traumatic experience into narrative memory, a concept later developed by contemporary trauma theorists who argue that trauma is often registered as sensory fragments rather than as verbal or conceptual memory [4: 14].

Judith Herman identifies three core features of psychological trauma: intrusion, constriction, and hyperarousal. Intrusion refers to the involuntary and vivid re-experiencing of the traumatic event; constriction involves emotional numbing and dissociation; and hyperarousal reflects the persistent activation of the body's fear responses. These psychological characteristics provide a crucial framework for understanding why trauma disrupts narrative linearity and profoundly affects the literary representation of subjectivity.

Cathy Caruth's work is particularly central to the development of trauma narratology. In *Unclaimed Experience* (1996), Caruth argues that trauma is defined by belatedness – the notion that the traumatic event is not fully experienced in the moment of its occurrence but returns later through intrusive recollections. Because the event escapes immediate comprehension, it cannot be narrated through conventional causal or chronological forms. As a result, traumatic narratives frequently employ fragmented structures, temporal looping, and narrative discontinuity in order to mirror the survivor's disrupted experience of time.

Sh.Felman and Dori LaCapra extend this argument by emphasizing the ethical and representational challenges trauma poses. Felman and Laub assert that trauma demands a witnessing position: the text becomes a space where trauma is articulated, but also where the unspeakable nature of trauma is exposed. LaCapra distinguishes between "acting out", characterized by uncontrolled repetition of traumatic memory, and "working through", which involves integrating traumatic experience into a more coherent narrative framework. Literary texts often oscillate between these modes, producing narrative forms that simultaneously represent trauma and critique dominant cultural narratives surrounding it.

Anne Whitehead situates trauma fiction within a larger cultural memory framework, arguing that trauma narratives employ stylistic and structural features–such as repetition, silence, gaps, and hybrid temporalities–to evoke the incompleteness of traumatic recall. Such techniques not only represent trauma but enact its cognitive effects, creating what she terms a "traumatic aesthetic."

One of the key contributions of trauma narratology is its focus on disrupted temporality. Trauma literature frequently resists chronological sequencing, instead favoring narrative patterns that mirror the associative, non-linear structure of traumatic memory. According to Gérard Genette's narratological categories (order, duration, frequency), trauma narratives tend to violate standard expectations of narrative time:

Order: Flashbacks, analepses, and temporal disjunctions dominate, reflecting the intrusive nature of traumatic recollection.

Duration: Moments of traumatic intensity may be narrated in extreme slow-motion or expanded time, while long periods of everyday life may be condensed or skipped.

Frequency: Traumatic scenes often recur multiple times (repetition) as memory forces itself upon the narrative.

Cognitive narratology provides additional insights into why such disruptions occur. Scholars like David Herman (2003) and Marco Caracciolo (2014) argue that narrative comprehension is tied to human cognitive architecture, particularly the

ways in which the mind handles memory, emotion, and sensory experience. Traumatic memories, which are stored in implicit and episodic memory systems rather than linguistic or autobiographical forms, naturally emerge in narratives as fragmented or non-linear episodes.

Trauma narratology also examines how narrative voice and focalization shape the representation of traumatized minds. The stream-of-consciousness technique, widely used in modernist literature, provides a fertile ground for exploring the internal ruptures caused by trauma.

Modernist writers such as Woolf, Eliot, Joyce, and Faulkner developed new narrative forms precisely at a moment when cultural and psychological understandings of trauma were rapidly evolving. Their emphasis on interiority, fractured temporality, and experimental narrative voice aligns closely with the principles trauma narratology later articulated. Woolf's *Mrs Dalloway*, for example, becomes a central case study in how narrative form can mimic the rhythms of traumatic memory and critique the social structures that obscure or silence psychological suffering.

The analysis of traumatic memory in Virginia Woolf's *Mrs Dalloway* demonstrates the profound extent to which narrative form can embody the psychological realities of trauma. Through the character of Septimus Warren Smith, Woolf constructs an interior landscape marked by fragmentation, temporal dislocation, and perceptual instability–core features identified by trauma theorists such as Caruth, Herman, and LaCapra. Septimus's consciousness becomes a narrative site where the boundaries between past and present collapse, revealing the persistence of wartime suffering within the rhythms of postwar everyday life. His intrusive memories of Evans, sensory flashbacks triggered by urban stimuli, and hallucinatory perceptions illustrate the paradox of trauma as both unassimilable and inescapable. Woolf's narrative technique plays a decisive role in shaping this representation. Flashbacks, disrupted temporality, and shifting focalization collectively reveal trauma's resistance to coherent narration. This narratological design aligns closely with what trauma narratology identifies as the formal imprint of psychological rupture: broken chronology, gaps in memory, and a destabilized narrative voice.

References

1. Whitehead A. *Trauma Fiction.* – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2004.
2. Young A. The Harmony of Illusions: Inventing Post-Traumatic Stress Disorder. – Princeton: Princeton University Press, 1995.
3. Zwerdling A. Virginia Woolf and the Real World. – Berkeley: University of California Press, 1986.
4. Van der Kolk B. The Body Keeps the Score: Brain, Mind, and Body in the Healing of Trauma. – New York: Viking, 2014.
5. Caruth C. Unclaimed Experience: Trauma, Narrative, and History. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1996.
6. Herman D. Narrative Theory and the Cognitive Sciences. – Stanford: CSLI Publications, 2003.
7. Howalter E. The Female Malady: Women, Madness, and English Culture, 1830–1980. – London: Virago Press, 1985.
8. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. – Ithaca: Cornell University Press, 1980.
9. Herman J. Trauma and Recovery. – New York: Basic Books, 1992.
10. Marcus J. Virginia Woolf and the Languages of Patriarchy. – Bloomington: Indiana University Press, 1987.

Gavhar QURBONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsent v.b.;

Farida HAKIMOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi;

Zebiniso TOSHQULOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

METAFORALARDA ASTRONIMLAR IFODASI

Annotatsiya. Maqolada astronimlarning metaforik ifodalarda aks etishi haqida so'z yuritilgan. So'z birikmasi, gap, mikromatn shaklidagi metaforalarda astronimlar tahlili olib borilgan.
Kalit so'zlar: metafora, astronimlar, ifoda vositasi, zoometaforalardagi astronimlar.
Annotation. The article discusses the representation of astronyms in metaphorical expressions. The analysis is carried out on astronyms in phrases, sentences, and microtext-level metaphors.
Keywords: metaphor, astronyms, means of expression, astronyms in zoometaphors.
Аннотация. В статье рассматривается отражение астрономических имен (астронимов) в метафорических выражениях. Проведен анализ астрономических имен в словосочетаниях, предложениях и метафорах на уровне микротекста.
Ключевые слова: метафора, астрономы, средства выразительности, астрономы в зоометафорах.

Metaforani o'rganishda turli xil yondashuvlar bir qancha tasniflarning yuzaga kelishiga olib keladi. Tadqiqotchilar esa metaforalarni o'zlarining mezonlari va yondashuvlari asosida bir qancha turlarga ajratadilar.

Olima D.Xudoyberganova metaforik ifodalarni lisoniy sathga ko'ra to'rt asosiy guruhga ajratadi: so'z, so'z birikmasi, gap va mikromatn shaklidagi metaforalar [1: 36]:

Sodda (so'z shaklidagi) metaforalarda ifodalangan astronimlar. So'z shaklidagi metaforalar tilshunosligimizda yetarli darajada o'rganilgan desa ham bo'ladi. Shakl jihatdan bitta leksema bilan ifodalanadigan so'zlar ushbu guruh metaforalariga kiradi. Masalan, *Osmon Peshtoqiga **taqa** ilibdi* (M.Abdusamad, "Parvozga shay daraxt"). So'z metaforalarni kognitiv tomondan ikki tushunchaning shaxs tafakkurida o'zaro qiyosiy munosabati tarzida izohlash mumkin. Bu kabi misollarni yana davom ettirish mumkin:

Oydin tun,
*Nozlanib suzmoqda **malak** (I.Narzullo, "Vaqt izi").*

2. So'z birikmasi shaklidagi metaforalarda ifodalangan astronimlar. Dastlab birikma shaklidagi metaforalar haqida M.Mukarramov fikr bildirgan. Olim birikmalar bilan ifodalangan

metaforalar bitta leksema ma'nosiga to'g'ri kelishini misollar bilan dalillaydi: ***Zangori kema kapitanlari oq oltin*** *terish uchun o'z* ***po'lat otlarini*** *tayyorlab qo'ydilar* [2: 12]. Olim misollarni keltirayotganda birikmaning ko'chma ma'noda ekanligiga e'tibor qaratgan, shuni unutmasligimiz kerakki, metafora oddiy ko'chim emas, balki o'xshashlik asosidagi ko'chimdir. Yuqoridagi misollarda o'xshashlik bilan bir qatorda tasviriylik ham kuchlidir. Va biz bularni metaforalar asosida yuzaga kelgan *tasviriy ifodalar* deb hisoblaymiz. Birikma shaklidagi metaforalar she'r va nasrdagi matn referentlarini ifodalab, ular aniqlovchi-aniqlanmish shaklidagi birikma sifatida reallashishi mumkin:

Zulmat esa yopmoq istadi,
Oppoq yuzga *qora chimmatin (S.Avaz, "Tonggi hislar").*

Bu o'rinda ***oppoq yuz*** metaforasi oy semasini yuzaga keltirib, predikat *(yopgan qora chimmatni)*ning ko'chma ma'no ifodalashiga sabab bo'lgan. Yuqorida aytganimizdek, keltirilayotgan misol ham obrazli ifodalar uchun sifatlovchi-sifatlanmish qolipidagi metaforik birikmani hosil qiladi. Masalan:

Samovot – bir juldur dasturxon,
Somon yo'li unda qand yuqi,
Tunga va'da etar ***oltin non.***
Yulduzlarning so'nggi qo'shig'i (O.Matjon. "Maqsudam").

Berilgan matn tarkibidagi ***oltin non*** metaforik birikmasi ot+ot shaklidagi sifatlovchili birikma bo'lib, tobe qism rang, hokim qism shakl jihatdan *oy* astrosemasi uchun ko'chim hosil qilgan. Yoki:

Tog' aro yoshundi chu ***zarrin g'izol,***
Mushki Xo'tan sochdi nasimi shamol (Alisher Navoiy,
"Hayrat ul-abror").

G'izol – G'azol ***(ar.*** **لازغ** **–** kiyik, ohu). Kiyiklar oilasiga mansub chiroyli, juda chopqir hayvon (O'TIL, V, 428). **Zar –** qadimda oltin ma'nosida ishlatilgan. Oltin va g'izol rangi (*rangi* qo'ng'ir) bilan quyosh rangi orasida o'xshashlik bor. Quyoshning tog'lar orqasiga o'tib botishi holatini tasvirlab, ijodkor hayratlanarli tarzdagi ta'rifni topgan.

3. Gap shaklidagi metaforalar bilan ifodalangan astronimlar. Bu kabi shakllar bilan ifodalangan osmon jismlari o'zida boshqa bir nutqiy vaziyat ifodasini implitsit tarzda namoyon etadi. Bu vaziyatda nasr va folklor namunalarida gap shaklidagi eng ma'qul metaforik birliklar ishlatilganligini ko'rish mumkin: *Ikki og'ayni bir-birini quvlaydi* ("O'zbek xalq topishmoqlari").

Tadqiqotchi A.T.Ryabov bu kabi jumlalarni "muayyan til birliklari vositasida ifodalanuvchi freymning boshqa bir jumla mazmunida ifodalangan freymga joylashtirilishi" [4: 107] tarzida izohlaydi. Ya'ni *oy* va *quyosh* leksemasi gap shaklidagi topishmoq konstruksiyasiga joylashtirilgan.

"Metaforik ma'noli gaplar bir vaziyatdagi belgilar orqali ikkinchi bir vaziyat to'g'risidagi hukmga asoslanadi" [4: 1107], – deganda faqat ma'lum bir ma'noni ifoda etish uchun metaforik gaplarning ishlatilishi to'g'risida fikr bildirgan. "So'z birikmasi shaklidagi metaforalar bitta tushuncha yoki alohida denotatning nomlari sifatida shakllanar ekan" (D.Xudoyberganova ta'rifi), gap shaklidagi metaforalar bilan ham shunday holat yuzaga kelishi, ya'ni bir tushunchani ifodalashi kuzatilishi mumkinligini shu o'rinda aytib o'tishimiz o'rinlidir (ta'rif bizniki). Masalan, quyida berilgan topishmoqlarda bitta *oy*, yoki *yulduz* semasini ifodalash maqsadida metaforik gap konstruksiyasidan foydalanilgan:

Bir oyoq qatiq,
Olamga tatiq ("O'zbek xalq topishmoqlari").

Bu misollar orqali biz butun bir gap orqali bitta *osmon jismlari* semasini ifodalash mumkinligini aytmoqchimiz. Tadqiqotlarda metaforalar antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik kabi turlarga ham ajratiladi [3:86].

Kosmik olamni obrazlar yordamida tasvirlashda ijodkor obyektga o'zining borliqqa nisbatan subyektiv bahosini bilan birga o'z lingvomadaniy, estetik xususiyatlarini ham jamlaydi. Ijodkorlar *"Osmon jismlari"* konseptining ifodasida atrof-muhitdagi turli xil predmet va hodisalarga murojaat qiladilar. Masalan, litosonimlar (***nuqrai anvar*** – *quyosh* konsepti uchun), fitonimlar (***guli lola*** – *oy* konsepti uchun), zoonimlar (***zarrin g'izol*** – *quyosh* konsepti uchun), teonimlar (***farishta*** – *quyosh* konsepti uchun) kabi obrazlarni misol sifatida keltirish mumkin. Tahlillardan astronimlar ifodasi uchun zoonimlarning badiiy matnlarda bir necha xil turlari keltirilganligini ko'ramiz: yovvoyi hayvonlar *(g'izol, yo'rg'a)*, uy hayvonlari *(qulun)*, qush va parrandalar *(kaptar)*, hasharotlar (*kuya, qoraqurt)*. Bu holat esa obrazlar xilma-xilligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyosh astronimini ifodalash uchun milliy she'riyatimizda foydalanilgan obraz turlari xalqimizning milliy-madaniy qarashlari va etnik jihatlari bilan bog'liqlik kasb etadi.

1. Rang, ko'rinish bilan bog'liq holda zoometaforalash.

Tog' aro yoshundi chu ***zarrin g'izol,***
Mushki Xo'tan sochdi nasimi shamol (Alisher Navoiy,
"Hayrat ul-abror").

So'z sultoni quyoshning tog' orasiga yashirinishini *g'izol* zoonimi orqali, Sharq tomondan kelayotgan qorong'ulikni esa *mushki Xo'tan* leksemasi bilan ifodalagan va metafora vositasida ajoyib obrazli ifodani yarata olgan. *G'izol*ning rangi qizg'ish bo'lgani bois *quyosh* leksemasi o'rnida obrazli ko'chim sifatida ifodalangan.

G'izolning terisi mayin, ko'zlarining tagidan to og'zigacha ikkita qora chiziq tortilgan. Rangi qizg'ish, qorin qismi oq rangda. Ijodkor botayotgan quyoshni tasvirlashda bejizga ushbu zoonimni tanlamagan. Tabiat manzarasiga e'tibor bersak, quyosh botayotgan vaqtda qizg'ish rangda bo'ladi. Kiyik terisining qizg'ish rangi bilan quyosh botayotgandagi rang o'rtasida mutanosiblik bor. Subyekt ongidagi mavjud bilimga ko'ra, *g'izol (g'azol)* – qizg'ish rangda, quyoshning botayotgan holatdagi ko'rinishi ham qizg'ish. Quyosh va g'izol uchun tegishli bo'lgan semalar kognitiv metafora mexanizmining natijasi o'laroq, shoirning emotsional-subyektiv bahosini yuzaga chiqargan. ***G'izol*** leksemasi *quyosh* konseptining ijodkor tasavvuri bilan ifodalangan ko'rinishidir.

2. Harakat o'xshashligi jihatidan zoometaforalash. O'zbek she'riy namunalarida *ot* leksemasini ham ko'p o'rinlarda obrazli ifoda sifatida uchratamiz. Ot obrazi Osiyo va Yevropa xalqlari hayoti va adabiyotidagi muhim timsollardan biri sanalishi ma'lum. ***Ikki yo'rg'a*** *kecha-kunduz yuradi, changi yo'q* ("O'zbek xalq topishmoqlari"). Bu yerda *quyosh* hamda *oy* bitta semali birikma bilan ifodalangan.

Yo'rg'a – mayda qadam tashlab tez yuradigan (ot yoki eshak haqida) (O'TIL, VI, 320). Topishmoq javobini topishda bizga misoldagi *kecha-kunduz* so'zi kalit so'z bo'lib xizmat qiladi. *Quyosh*ning ***g'izol*** metaforik o'xshatishi bilan ifodalanishida rang bilan bog'liqlik yetakchilik qilgan bo'lsa, keltirilgan topishmoqlarda *oy* va *quyosh*ning metaforik usulda ***yo'rg'a*** obrazini ifodalashida esa harakat o'xshashligi asosga olingan. Sababi, oy va quyosh ham kecha-yu kunduz bir maromda harakatlanadi.

3. Hajm o'xshashligi jihatidan zoometaforalash.

Osmonda porlaydi yulduzlar bosh-bosh,
Ko'kda ***poda*** *boqib yuribdi hilol!* (R.Musurmon, "Oshi halol").

Poda (*f.* **ده‌داپ** – gala, to'da, uyur; yaylov). Birga haydab borilayotgan yoki birga o'tlab yurgan, odatda bir turga oid chorva mollari to'dasi (O'TIL, III, 759). Yulduzlarning son-sanoqsiz ekanligi podadagi chorva hajmining ko'pligi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: 2012, №1.
2. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. – Toshkent: Fan, 1976.
3. Xo'jamqulov A. O'zbek tilida metaforaning tasniflanishiga doir // O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan ilmiy maqolalar to'plami. Lingvist. 2-kitob. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
4. Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.

Dildora RAVSHANOVA,
Guliston davlat universiteti magistranti

O'ZBEK TILI SINONIMIKASINING DINAMIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili sinonimikasining tarixiy ildizlari, taraqqiyoti, zamonaviy o'zgarish omillari hamda funksional-uslubiy rivoji tahlil qilinadi. Til tizimida sinonimlarning paydo bo'lishi, yo'qolishi, semantik kengayishi va aktiv–passiv qatlamlarining almashuvi dinamik jarayon sifatida yoritiladi. Shuningdek, o'zbek tili sinonimikasiga globallashuv, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy-madaniy omillar, internet nutqi va yoshlar leksikasining ta'siri ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: sinonimika, dinamik jarayon, leksik tizim, yangi sinonimlar, semantik o'zgarish, funksional uslub.

Annotation. This article analyzes the historical roots of synonymy in the Uzbek language, its development, modern factors of change, and functional-stylistic development. The emergence, disappearance, semantic expansion, and change of active-passive layers of synonyms in the language system are considered as a dynamic process. Also, the influence of globalization, technological progress, sociocultural factors, internet speech, and youth vocabulary on the synonymy of the Uzbek language is revealed on a scientific basis.

Keywords: synonymy, dynamic process, lexical system, new synonyms, semantic change, functional style.

Аннотация. В данной статье анализируются исторические корни синонимии узбекского языка, ее развитие, современные факторы изменения и функционально-стилистическое развитие. Появление, исчезновение, семантическое расширение и смена активно-пассивных слоев синонимов в языковой системе рассматриваются как динамический процесс. Также на научной основе раскрывается влияние глобализации, технологического прогресса, социокультурных факторов, интернет-речи и молодежной лексики на синонимику узбекского языка.

Ключевые слова: синонимика, динамический процесс, лексическая система, новые синонимы, семантическое изменение, функциональный стиль.

Til – jamiyatning eng asosiy kommunikativ tizimi bo'lib, u doimiy harakat, taraqqiyot va o'zgarish jarayonida bo'ladi. Tilning ichki tizimlari – fonetika, morfologiya, sintaksis va ayniqsa leksik qatlam eng faol o'zgaradigan birliklardan sanaladi. Shular orasida sinonimika tilning semantik boyligini belgilab beruvchi, nutqning uslubiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi, ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qiluvchi eng muhim qatlam hisoblanadi.

Har qanday tilda bir xil yoki yaqin ma'noni anglatadigan so'zlar tizimi – sinonimik qatlam – jamiyat taraqqiyotiga, ilm-fan yutuqlariga, madaniy aloqalarning kengayishiga va texnologik yangiliklarga juda sezgir bo'ladi. Shu bois sinonimikaning strukturasini o'rganish tilning rivojlanish bosqichlarini aniqlash, yangi semantik tendensiyalarni ko'rsatish va milliy til tafakkurining o'zgarishini namoyon etish imkonini beradi. Sinonimika – tilning eng murakkab leksik qatlamlaridan biri bo'lib, u nafaqat sinonim bo'lgan leksemalar yig'indisidan iborat, balki o'zgaruvchi, harakatdagi semantik tizimni tashkil etadi. Har bir tilda sinonimik qatlamning tarkibi ham, uning ichki munosabatlari ham tarixiy, ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar ta'sirida doimo o'zgarib boradi. O'zbek tili ham shu jarayondan mustasno emas. Uning sinonimik tizimi ming yillar davomida turkiy ildiz, arab-fors leksikasi, tajriba, madaniyat, fan-texnika va yangi kommunikatsiya shakllari ta'sirida shakllangan. Bugungi kunda axborot oqimi tezlashgani, global lingvistik muloqot kuchaygani, yoshlar nutqi yangilanganligi sababli sinonimik qatlamdagi o'zgarish sur'ati oldingidan keskin oshdi. Shundan kelib chiqib, sinonimikaning dinamikasi tilshunoslik tadqiqotlarida eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib bormoqda.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo'llandi: tarixiy–qiyosiy metod – sinonimlar qatlamining tarixiy ildizlarini o'rganishda; semantik tahlil – lug'aviy ma'no o'zgarishlarini aniqlashda; korpus lingvistika metodlari – zamonaviy nutq materiallarida sinonimlarning qo'llanish chastotasini baholashda; sotsiolingvistik kuzatish – internet tilshunosligi va yoshlar jargonining ta'sirini aniqlashda; funksional-uslubiy tahlil – sinonimlarning janr va uslubga mos ravishda differentsiatsiyasini tekshirishda.

Tadqiqot davomida o'zbek tili sinonimik tizimining tarixiy, strukturaviy va funksional jihatdan o'zgaruvchan, harakatdagi semantik tizim ekanligi keng qamrovda aniqlab berildi. Asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Sinonimik qatlamning tarixiy manbalarida dinamik jarayonlar aniqlandi. Turkiy ildizli sinonimlar qadimgi manbalardan boshlab bugungi kungacha faol ishlatiladi. Ularning ko'pchiligi hozirgi zamon nutqida yangi kontekstlarda ma'no kengayishiga ega bo'lgan: *tez – chaqqon – shiddatli – yalt etgan; ko'ngil – dil – ruhiyat – ichki tuyg'u*

Arabcha sinonimlar ko'proq ilmiy va rasmiy uslubda faol bo'lib, ularning bir qismi hozirda nutqda passivlashgan: *fazilat – xislat – xulq*; *adolat – haqqoniyat – insoflik*

Fors-tojikcha sinonimlar badiiy uslubda emotsional-estetik ma'no yukini saqlab qoldi: *g'am – mung – iztirob – g'ussa – hasrat*; *orzu – tilak – havas – armon.*

1-jadval

3. Zamonaviy davrda sinonimik tizimga ta'sir qilayotgan yangi leksik oqimlar aniqlandi. Globallashuv natijasida inglizcha o'zlashmalar sinonim qatoriga qo'shildi: *tahlil – analiz – monitoring – revive*; *loyiha – plan – dastur – project*; *onlayn – masofaviy – virtual – remote*.

Yangi terminlar ma'lum sohalarda semantik ustunlikka ega bo'la boshlagan. Internet va ijtimoiy tarmoq nutqi sinonimlarni yangilamoqda. Yoshlar va ommaviy tarmoq nutqida emotsional, qisqa, "ta'sirli" sinonimlar paydo bo'ldi: *yaxshi → zo'r, bomba, top, super*; *yomon → slab, minus, krinj*; *tushunarli → aniq, ok, clear*.

Bu birliklar nutqda faol bo'lib, ayrimlari hatto rasmiy nutqqa kirib bormoqda. Sleng sinonimlar semantik tizimni faol o'zgartirmoqda. Yoshlar tilida sinonimlar tez yangilanadi, qisqa umr ko'radigan bo'lsa-da, til dinamikasini belgilaydi. Sinonimlarning chastotaviy (statistics) tahlili ularning qo'llanish sur'ati oshganini ko'rsatdi. O'zbek Milliy Korpusi va internet matnlari asosida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki,

– *onlayn* so'zi 2020–2024 yillarda 50 barobar ko'paygan;

– *tezkor* so'zining qo'llanishi 15–20% oshgan;

– *g'am* so'zining qo'llanishi kamaygan, o'rnini *tashvish, qayg'u, stress* sinonimlari egallamoqda;

– internet matnlarida *zo'r, super* kabi so'zlar *yaxshi* so'zidan uch barobar ko'proq ishlatilmoqda.

2-jadval

Sinonimik birliklarning yillar bo'yicha ulushi – Pie Chart



Bu ma'lumotlar sinonimlarning jamiyat ehtiyojiga mos ravishda tez o'zgarishini tasdiqlaydi.

4. Sinonimlarning funksional-uslubiy differentsiatsiyasi kuchaygan.

Ilmiy uslub: *jarayon – mexanizm – dinamika – algoritm; tahlil – sintez – ekspertiza*

Rasmiy uslub: *masala – muammo – kolliziya – vazifa; nazorat – monitoring – boshqaruv*

Badiiy uslub: *muhabbat – ishq – sevgi – oshuftalik – hayrat; qo'rquv – vahima – hadik – xavotir – sergaklik*

So'zlashuv uslubi: *gap – so'z – muhokama – g'ap; charchadim – holdan toyganman – gandiraklayapman*

Uslubiy farqlar sinonimik qatlamning boyligi va moslashuvchanligini oshirmoqda.

5. Semantik jarayonlar: kengayish, torayish va almashuv kuzatildi.

Semantik kengayish: *yengil → oson, qulay, arzon, sodda* kabi kontekstlarda kengaydi. *og'ir → mashaqqatli, qiyin, jiddiy, salbiy holat* ma'nolarini qamrab oldi.

Semantik torayish. Ba'zi so'zlar o'z keng ma'nosini yo'qotib, tor doiralarga cheklanmoqda: *fursat* so'zi asosan adabiy uslubda qoldi. *muhokama* so'zi o'rnini *tahlil, baholash* egallamoqda.

Almashuv jarayonlari. *zamonaviy* so'zi ba'zi kontekstlarda *innovatsion* sinonimi bilan almashmoqda. *odamparvarlik* o'rnini ko'proq *insonparvarlik, gumanizm* egalladi.

6. Sinonimik tizimning psixologik va kognitiv asoslari kuchaymoqda. Semantik tadqiqotlar shuni ko'rsatdik,

– odamlar sinonimlarni ma'no chuqurligi, emotsional ta'siri, uslubiy mosligi, soddaligi asosida tanlaydi;

– internet nutqida tezlik va qulaylik ustuvor bo'lgani uchun qisqa sinonimlar faol qo'llanadi;

– badiiy uslubda esa sinonimlarning obrazlilik darajasi muhim.

7. Yangi sinonimik qatlam shakllanmoqda. Tahlil davomida zamonaviy o'zbek nutqida butunlay yangi sinonim paradigmalar paydo bo'layotgani aniqlandi. Bu jarayon global muloqotning bevosita ta'siriga bog'liq: *ko'p → kuchli, massiv, katta hajm, volyumli; yaxshi → sifatli, premium, yuqori daraja, top-level; chaqqon → aktiv, mobil, dinamik, skorostli*.



O'zbek tili sinonimikasining rivojlanish manbalari turkiy ildizli so'zlar, arabcha va forscha qatlamning tarixiy ta'siri, mustaqillikdan keyingi davrda shakllangan yangi siyosiy-iqtisodiy terminlar, global inglizcha leksik o'zlashmalar, shuningdek internet kommunikatsiyasi orqali kirib kelgan ekspressiv birliklar bilan bevosita bog'liq. O'zbek sinonimik tizimi ayniqsa so'nggi 20–25 yilda sezilarli darajada o'zgarib, nutqning barcha shakllarida – rasmiy-idoraviy uslubdan tortib, so'zlashuv, yoshlar slengi, ommaviy axborot vositalari hamda badiiy matnlargacha – faol dinamika kasb etdi. Tilning global axborot makoniga kirib borishi, internet lug'atlari va so'zlashuv shaklining tezkorlik bilan yangilanishi yangi sinonim variantlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

Zamonaviy tilshunoslikning semantik, sotsiolingvistik, kognitiv va korpus yondashuvlari sinonimik qatlamni o'rganishda yangicha talqinlarni yuzaga keltirdi. Xususan, sinonimlarning chastotaviy dinamikasi, kontekstual qo'llanish xususiyatlari, uslubiy funksiyalari, psixologik-assotsiativ mazmuni, internet tilidagi moslashuvi va yangi ijtimoiy guruhlar nutqida shakllanish jarayoni keng ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, sinonimik qatlamning o'zgarishini aniqlash orqali:

– tilning zamonaviy holati haqida ilmiy tasavvur shakllanadi;

milliy leksik tizimning rivojlanish tendensiyalari ochiladi;

– yangi leksik-semantik jarayonlar aniqlanadi;

– til siyosati, ta'lim va lug'atshunoslikka amaliy xulosalar beriladi.

Shu bois mazkur tadqiqot doirasida o'zbek tili sinonimikasining shakllanishi, tarixiy ildizlari, semantik doirasi, funksional-uslubiy farqlari, zamonaviy til jarayonidagi o'rni va internet texnologiyalari sharoitida yuzaga kelayotgan yangi sinonimlar tizimli ravishda o'rganildi.

O'zbek tili sinonimikasining dinamikasi bo'yicha olib borilgan mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sinonimik qatlam tilning eng harakatchan, eng o'zgaruvchan va ijtimoiy-madaniy jarayonlarga bevosita sezgir bo'lgan leksik-semantik tizimlaridan biridir. Birinchidan, sinonimlar tarkibining doimiy ravishda yangilanib borishi tilning evolyutsion rivojlanishining tabiiy belgisi bo'lib, yangi texnologiyalar, axborot oqimi, global madaniy ta'sirlar, so'z yasash jarayonlari va ijtimoiy munosabatlar tarmoqlanishi natijasida yangi sinonimik qatorlarning shakllanishi kuzatildi. Mazkur jarayon o'zbek tilining zamonaviy rivojlanishida "global sinonimika", "internet sinonimlari", "xalqaro terminlarning ichki o'zlashuvi" kabi yangi hodisalarni yuzaga keltirganini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida sinonimlarning funksional-semantik guruhlari o'rtasidagi nisbatning o'zgarishi ham aniqlandi. Xususan, so'zlarning betaraf (neytral) qatlamiga qaraganda ekspressiv-bo'yoqdor sinonimlarning faolroq kengayib borayotgani, publitsistik, badiiy, internet tilida esa emotsional-ekspressiv sinonimlar yetakchiligi shakllangani kuzatildi. Bu holat o'zbek tilida uslubiy differensiasiyaning kuchayayotganini, adabiy tilning ko'p qavatli semantik tuzilmasi mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, tahlillar shuni ko'rsatdiki, sinonimik qatorlarning dinamikasiga diaxron va sinxron jarayonlar baravar ta'sir ko'rsatadi. Diaxron kesimda ayrim sinonimlarning passivlashuvi, eskirishi, tarixiy qatlamga ko'chishi kuzatilsa, sinxron kesimda yangi sinonimlarning faol paydo bo'layotgani, kommunikativ ehtiyojga ko'ra tez ommalashayotgani kuzatildi. Shu bilan birga, o'zbek tilida o'xshash ma'nodagi birliklar orasida semantik farqlanish, ma'no torayishi, ma'no kengayishi, baholash komponentining o'zgarishi kabi jarayonlar ham sinonimik tizimning ichki dinamizmini belgilab berdi.

To'rtinchidan, o'zbek tili sinonimikasida milliylik va zamonaviylik tendensiyalari o'zaro uyg'unlashib borayotgani aniqlandi. Milliy leksik qatlamga xos bo'lgan so'zlarning kuchli salohiyati saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, global til muhitidagi o'zgarishlar tufayli inglizcha va ruscha manbali sinonimlar faol ravishda ishlatilmoqda. Bu jarayon bir tomondan lug'at boyligini boyitayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sinonimik qatorlar ichida raqobatni kuchaytirib, milliy til me'yoriga ta'sir qilmoqda. Shundan kelib chiqib, til siyosati, normativ lug'atlar va ilmiy-lingvistik monitoringning ahamiyati yanada oshadi.

Beshinchidan, tadqiqot o'zbek sinonimikasining pragmatik asoslarining kuchayayotganini ko'rsatdi. Xususan, nutq jarayonida sinonim tanlash jarayonini shaxsning maqsadi, auditoriyasi, axborot uslubi, aloqa muhiti va ijtimoiy konteksti belgilab bermoqda. Bu esa sinonimik birliklarning kommunikativ qiymatini zamonaviy lingvistika nuqtai nazaridan qayta baholash zarurligini ko'rsatadi.

Olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

O'zbek tili sinonimikasi zamonaviy davrda sezilarli darajada dinamik jarayonlarni boshdan kechirmoqda va bu jarayon til tizimining tarkibiy o'zgarishlarini chuqur aks ettiradi.

Sinonimlarning semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlarida sezilarli diversifikatsiya kuzatilmoqda, bu esa tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yangi sinonimik qatlamlarning shakllanishi o'zbek tilining global jarayonlarga moslashuvchanligini namoyish qiladi.

Sinonimik tizimni muntazam ilmiy monitoring qilish, o'zgarishlar xaritasini tuzish, yangi paydo bo'layotgan birliklarni tahlil qilish kelajak tadqiqotlar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot o'zbek tilida sinonimika sohasining nazariy asoslarini boyitadi, til madaniyati, leksikografiya, terminologiya va nutq madaniyati bo'yicha amaliy xulosalar chiqarishga zamin yaratadi. Yakunda aytish mumkinki, sinonimikaning dinamik o'zgarishlari tilning hayotiyligi, rivojlanish darajasi va jamiyat bilan uzluksiz munosabatda ekanining bevosita ko'rsatkichidir. O'zbek tili sinonimikasining chuqur ilmiy tahlili nafaqat lingvistika uchun, balki ta'lim, tarjima, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya sohalari uchun ham amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Mengliyev B. O'zbek tili sinonimikasining nazariy asoslari. – Toshkent: O'zMU, 2020.
3. Rasulov R., To'laganov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
5. Fillmore Ch. Frame Semantics. – New York: Linguistic Society of America, 1982.
6. O'zbekiston Milliy Korpusi materiallari (2020–2024).
7. Internet tarmoqlari asosida leksik tahlillar (Telegram, Instagram, YouTube – 2021–2024).
8. Bateman J. Text and Context: Linguistic Theory in the Information Age. – London: Routledge, 2018.

Zarifa SULTANOVA,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

YEVGENIY POLIVANOVNING O'ZBEK SHEVALARINI O'RGANISHDAGI FAOLIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Y.D.Polivanovning umumiy tilshunoslikdagi va o'zbek shevalarining o'rganilishidagi o'rni, sharq tillari shevalarini o'rganishdagi faoliyati va uning ilmiy merosini o'rganish, nazariy va amaliy jihatlarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek shevalari, turkiy tillar, lahja, klassifikatsiya, dialektalogiya, singormonizm, millat, elat, gibridizatsiya, metisatsiya.

Annotation. The article examines the role of E.D.Polivanov in general linguistics and Uzbek dialect studies, his work in studying the dialects of oriental languages, and the theoretical and practical aspects of his scientific heritage.

Keywords: Uzbek dialects, Turkic languages, dialect, classification, dialectology, synhormonism, nation, elat, hybridization, cross-breeding.

Аннотация. В статье рассматривается роль Е.Д.Поливанова в общем языкознании и узбекском диалектоведении, его деятельность по изучению диалектов восточных языков, теоретические и практические аспекты его научного наследия.

Ключевые слова: узбекские диалекты, тюркские языки, диалект, классификация, диалектология, сингормонизм, нация, элат, гибридизация, метизация.

D.Polivanovning o'zbek shevalari tasnifi o'zbek dialektologiyasi bo'yicha yaratilgan barcha darslik va qo'llanmalarda aks ettirilgan. U o'zbek shevalari tasnifida turkiy tillar tarixi hamda o'zbek tili rivojlanishida gibridizatsiya va metisatsiya hodisalarining xususiyatlarini hisobga olgan. 1970-yillarga qadar yer sharida o'ttizdan ortiq turkiy tilli millatlar va elatlar mavjud deb qaralgan.1970-yillarning boshlarida esa ularning umumiy soni yetmish millionga yaqin deb hisoblangan. Ba'zi manbalarda esa turkiy tillarning miqdori 51 ta deb ko'rsatiladi [2: 45].

Qadimiy badiiy va ilmiy adabiyotlardan bizga ma'lumki, o'zbek urug'-qabilalari va ularning tillari 92 ta deb qayd etiladi. Xalqimiz tarkibi va har bir tarkibiy qismning tillari-shevalari haqidagi raqamlar 92 ta deb belgilanishi turli shajaralar va so'nggi ayrim tafsilotlarda o'z ifodasini topib kelmoqda. Turkiy xalqlardan 12 tasi (tatar, qozoq, qirg'iz, boshqird, qoraqalpoq, qo'miq, qrim-tatar, qorachoy, balqar, oltoy, no'g'ay, qaraim) 15 milliondan ko'proq bo'lib, ular qipchoq guruhi turkiy tillarini tashkil etadi. Turkiy tillardan 11 tasi (turk, ozarbayjon, turkman, afshar, qashqar, Eronning janubi-sharqidagi turkiy xalqlar, shaxsevon, gagauz, qaraparax, kadjor, krimchak) 37 million kishini o'z ichiga olgan bo'lib, turkiy tillarning o'g'uz guruhiga kiradi. 55 million turklar (Turkiya) ham o'g'uz guruhiga taalluqlidir. Besh xalq (o'zbek, uyg'ur, salar, sariq uyg'ur, xo'tan) 15milliondan ortiqdir. Bular turkiy tillarning qarluq guruhini o'z ichiga oladi. Chuvashlar (1,7 million) bulg'ar guruhini va 8 xalq (yoqut, tuva haqas, tog'li oltoyliklar) Sibir guruhi (0,6 million) deb yuritiladi [4: 10].

Biz yuqorida ham ta'kidlab o'tganimizdek, turkiy tillarni o'rganish sohasida anchagina olimlarimiz samarali mehnat qilishgan. Ularning ayrimlari mavjud turkologiya manbalariga asoslangan holda o'z tasniflarini ham taqdim qilishgan. Bu borada hech ikkilanmay turkiy tillar asoschisi Mahmud Qoshg'ariyning xizmatlarini yuqori baholashimiz mumkin. "To'liq ismi Mahmud Ibnulhusayn ibn Muhammadil Qoshg'ariy bo'lgan turkalogiya asoschisi yashagan XI asrda turkiy qabilalar va qabilalar ittifoqi o'zaro birlashib, xalqni shakllantira boshlagan davr edi. U til, madaniyat, tarix va adabiyot kabi turli sohalarga oid ko'plab qimmatli ilmiy asarlar yaratgan buyuk olim edi. Mahmud Qoshg'ariyning tilshunosligimizga, aynan dialektologiya sohasiga taaluqli qarashlari hozirgacha bizga dasturul amal bo'lib hisoblanadi. Mahmud Qoshg'ariy ilk turkolog sifatida turkiy tillar va lahjalarni o'ziga xos qonun-qoida asosida tahlil qilgan.

Turkiy tillarning-yirik bo'g'ini hisoblangan o'zbek tili va o'zbek shevalarini o'rganishda ham talaygina olimlarimiz samarali mehnat qilishgan. Bu borada rus turkologlarining o'rni beqiyosdir. Aynan o'zbek shevalarini tasniflash jarayoni bunga yaqqol misoldir".

O'zbek shevalari mashhur turkolog va dialektologlar tomonidan turlicha tasnif qilindi. Bu boradaI.I.Zarubin, Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, Gozi Olim, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi professorlarning klasifikatsiyasi diqqatga sazovordir. Ular o'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik va morfologik xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlari haqida tasavvurlarni shakllantirishdi va rivojlantirishdi. Xususan, bugun biz o'zbek tilshunosligidagi samarali mehnatini yoritmoqchi bo'lganimiz professor Y.D.Polivanov bir qator o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek tilidagi sheva va lahjalar orasidagi eng mayda farqlarni ham ko'rsatib beruvchi klassifikatsiyani ishlab chiqdi. U o'zi to'plagan materiallari orqali hech qanday e'tirozlarga o'rin qoldirmay, aniq faktlar bilan izohlab bergan fikrlari va til hodisalariga bergan asosli sharhlari tufayli ham o'zbek dialektalogiyasida betakror klassifikatsiyani birinchilar qatorida ko'rsatib bera oldi. Y.D.Polivanov o'z davrida izlanishlari davomida to'plagan materiallari va bir qator ishlarida o'zbek shevalarining klassifikatsiyasi hali mukammal emasligini qayd qilib, o'zbek tilshunosligi shevalarni detallashtiruvchi klassifikatsiyaga muhtoj deb ko'rsatadi.

O'zbek dialektalogiyasining atoqli vakillari V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonolarning "O'zbek dialektalogiyasi" darsligida shunday fikrlar mavjud: "ProfessorY. D.Polivanovning ayrim nazariy xulosalari to'g'ri emas. Chunki u o'z klassifikatsiyasida va boshqa ilmiy tadqiqot ishlarida o'zbek shevalaridagi taraqqiyotni faqat tashqi faktorlarga bog'lab tekshiradi. O'zbek tili va uning shevalarida ro'y bergan o'zgarishlar tilning davrlar mobaynida o'z ichki taraqqiyot jarayoninig natijasi ekanini ko'rmaydi"... Bu jihatlar qaysidir ma'noda to'g'ridir, lekin olim o'zbek dialektologiyasida asosiy uch lahjani ko'rsatib o'tgan. Bular: 1. "Chig'atoy" lahjasi. 2. "O'g'uz" lahjasi. 3. "Qipchoq" lahjasi.

ProfessorY. D.Polivanov o'zining tasniflash jarayonida tildagi ikki holatni ko'zda tutib, asoslab berdi: 1) Metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibridizatsiya (turli sistemadagi tillarning chatishuvi). Olim shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib, o'zbek shevalarini bir necha guruhlarga ajratdi. Eronlashish nuqtai nazaridan, ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish jarayonida tojik tilining ishtirokini hisobga olib, shevalarni quyidagicha guruhlashtiradi: 1) eronlashmagan shevalar va 2) eronlashgan shevalar. Bu guruhlarni asoslab berish jarayonida Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarda eronlashish unsurlarini mavjudligini qayd qilsa, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini (ohang) o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi. Eronlashmagan shevalarga Farg'onaning singormonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent), o'zbek-qipchoq (j-lovchi) lahjasidagi shevalarni kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
2. Muhammadjonov Q. Turkiston shevasi, kandidatlik dissertatsiyasi. 1-kitob, – Toshkent, 1970.
3. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. Hozirgi zamon o'zbek tili, 1957. 392–bet.
4. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent, 1996.
5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik.Respublika oliy o'quv yurtlarida o'zbek filologiyasi fakulteti bakalavrlari uchun darslik. – Toshkent, 2010.
6. Usmonov S. Hozirgi o'zbek tilida so'zning morfologik tuzilishi. Nizomiy nomidagi TDPI ilmiy asarlari, 42 – tom, 1 – kitob, 1963, 108 – 109 betlar.

Maftuna MAJIDOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich tayanch doktoranti

TILSHUNOSLIKDA KINESIK BELGILAR TIZIMINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida kinesik belgilar tizimining ahamiyati va ular bildirgan ma'nolar xususida so'z boradi. Shuningdek, kinesik birliklar orasidagi ma'nodoshlik, shakldoshlik, ko'pma'nolilik va zid ma'nolilik hodisalarini ochib berish uchun jadval ko'rinishida misollar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: kinesika, paralingvistika, mimika, okulesika, iyerarxiya, omonimiya, sinonimiya, paronimiya, haptika, proksemika, paradigma.

Annotation. This article examines the significance of the kinetic sign system in Uzbek linguistics and the meanings they express. Examples are also presented in the form of a table to identify the phenomena of synonymy, homonymy, polysemy, and antonymy between kinetic units.

Keywords: kinesics, paralinguistics, mimicry, oculesics, hierarchy, homonymy, synonymy, paronymy, haptics, proxemics, paradigm.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение системы кинетических знаков в узбекском языкознании и значения, которые они выражают. Также представлены примеры в виде таблицы для выявления явлений синонимии, омонимии, многозначности и антонимии между кинесическими единицами.

Ключевые слова: кинесика, паралингвистика, мимикрия, окулесика, иерархия, омонимия, синонимия, паронимия, тактильные ощущения, проксемика, парадигма.

"Kinesika" lotincha "kinesis" – harakat va ingliz tilidagi *-ics* – soha oti yasovchi qo'shimchaning qo'shilishidan hosil bo'lgan. Kinesika atama sifatida ilk marotaba 1952-yilda Rey Birdvistell ismli antropolog tomonidan qo'llanilgan. Birdvistell odamlarning sokin holatda turishi, imo-ishoralari, pozitsiyasi va harakatlari orqali qanday qilib so'zsiz muloqot qilishlarini kuzatadi va bu jarayonni o'rganishni boshlaydi. Uning bir necha o'n yillar davomidagi g'oyalarini sintez qilishi natijada "Kinesika va kontekst" ("Kinesics and context") [2] kitobi yaratiladi.

O'zbek tilshunosligida paralingvistikaning, xususan, kinesikaning o'rganilishi A.Nurmonov nomi bilan bog'liq. U o'zining "O'zbek tilining paralingvistik vositalari" kitobi o'zbek paralingvizmlarini tubdan tahlil qilish bo'yicha tamal toshini qo'yib bergan. Keyinchalik, M.Saidxonov, M.Qurbonov, G.Toirova, M.Barotovalar tomonidan tilshunoslikning bu sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Kinesik belgilar tilshunoslik tarkibida o'rganilar ekan, demak tilshunoslikka xos qonun-qoidalar imo-ishoralar nutqi uchun ham ahamiyatlidir. Sistem-struktur tilshunoslikning asosini tizim tushunchasi tashkil etadi. Demak, tizim tushunchasi kinesikaga ham aloqador. Bundan kelib chiqib, kinesika tilshunoslik bilan quyidagi ko'rinishda iyerarxik munosabatda bo'ladi, deb ayta olamiz: (1-chizmaga qaralsin)

1-chizma. Kinesikaning iyerarxik munosabatga kirishishi

Kinesikaning paradigmatik qatori – birini almashtirishib qo'llanilishi mumkin bo'lgan va shu bilan bir xil yoki yaqin konteksda ishlatiladigan kinesik belgilar to'plamidir. Paradigmatik qatorda belgilar oppozitsiyasiyaga asoslangan, ya'ni ular o'zaro ma'no jihatdan farq qiladi, lekin bir pozitsiyada ishlatiladi. Kinesikaning paradigmatik qatori quyidagi ko'rinishda bo'ladi (1-jadval):

Holat	Jestlar paradigmasi
salomlashish	qo'l siqish; bosh egish; qo'lni ko'tarish; qo'lni ko'ksiga qo'yish.
rad etish	qo'lni siltab "yo'q" deyish; bosh chayqatish.
taklif	qo'l bilan ishora qilish; mimik ifodalar bilan.
qo'llab-quvvatlash	orqani qoqish; qo'lini yelkasiga qo'yish; bosh irg'ash.

1-jadval. Kinesikaning paradigmatik qatori

Nutqimizdagi so'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonim, omonim, antonimlarga bo'lingani singari kinesik muloqot vositalarini ham o'zaro yaqin yoki zid ma'noni ifodalashi yoki bir harakatning birdan ortiq ma'nolar kasb

etishi nuqtayi nazaridan kinesik sinonimlar, kinesik omonimlar, kinesik antonimlar va kinesik paronimlarga ajratish o'rinlidir.

Kinesik belgilarda sinonimiya – turli shakldagi belgilarning bir xil yoki yaqin ma'noni ifodalash hodisasidir. Lingvistikada sinonim so'zlar bir ma'noni turlicha ifodalaganidek, kinesikada ham turli tana harakatlari (jestlar, mimika va hokazo) bir xil tuyg'u, niyat yoki axborotni ifodalashi mumkin (2-jadval).

T/r	Ifodalanilayotgan ma'no	Kinesik sinonim harakatlar	izoh
1	rozilik	boshni pastga qimirlatish; tabassum.	har xil shakldagi ijobiy munosabat
2	hayrat/ajablanish	ko'zlarni katta ochish; og'izni ochish; yuzning chakka qismini qo'l bilan yopish.	hayrat, shokka tushish
3	norozilik/g'azab	qosh chimirish; labni tishlash; qo'lni musht qilish.	hissiy bosimni bildirish
4	e'tiborsizlik/ befarqlik	yelkani qisish; yuzni burishtirish; ko'z fokusini boshqa narsalarga qaratish.	suhbatga qiziqmaslik
5	o'ylanish/ikkilanish	boshni egib qarash; qo'lni iyakka qo'yish; ko'z qirida qarash.	ichki tahlil, ishonchsizlik holati
6	ishonch	ko'zga tik boqish; yengil bosh egish.	samimiylik va yaqinlik bildirish uchun qo'llaniladi
7	bezovtalik/hayajon	qo'l bilan yuzni ishqalash; barmoqlarni o'ynash; sochga besabab teginish.	ichki ruhiy holatni bilvosita yuzaga chiqarish

2-jadval. Kinesik sinonimlar jadvali

Kinesik jestlarda omonimiya – bu bir xil shakldagi ifodaning turli ma'nolarda qo'llanilishidir. Tilshunoslikda so'z omonim bo'lishi mumkin bo'lganidek, kinesik belgilar ham bir xil harakat bilan bir nechta ma'noni ifodalashi mumkin. Bunday holatlar kinesik omonimiya deb ataladi. Kinesik omonimiya bir xil jestning turli kontekstlarda boshqa-boshqa ma'noni anglatishi bilan bog'liq bo'ladi (3-jadval):

Boshni egish	
Yevropa madaniyatida	salomlashish
O'zbek madaniyatida	kamtarlik, itoatkorlik
Janubi-sharqiy Osiyo madaniyatida	uzr so'rash

3-jadval. Kinesik omonimiya

Kinesik antonimiya hodisasi bu kinesik belgilar orqali ifodalanadigan ikki yoki undan ortiq harakat, mimika yoki holatlarning semantik jihatdan bir-biriga zid ma'noda qo'llanilishidir. Bu hodisa og'zaki nutqda uchraydigan antonimiya kabi noverbal muloqotda ham asosiy kommunikativ vosita sifatida xizmat qiladi (4-jadval).

Rozilik ↔ Rad etish		
Kinesik belgi	Ma'nosi	ottenkasi
Boshni yuqoriga – pastga silkitish	"ha"; rozilik berish.	ijobiy
Boshni chapga-o'ngga silkitish	"yo'q"; rad etish.	salbiy

4-jadval. Kinesik antonimiya

Kinesik polisemiya – birgina kinesik belgi (jest, mimika, tana holati) kontekstga qarab bir nechta ma'noni anglatishi hodisasidir. Ya'ni, bitta tana harakati bir nechta semantik konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin va bu ma'nolar kontekst, vaziyat, intonatsiya va madaniy kodlarga bog'liq ravishda talqin qilinadi. Xususan, o'ng qo'l kafti oldinga ochilgan va tepaga ko'tarilgan holatda oldin chap tomonga, so'ngra o'ng tomonga gorizontal ravishda silkitilib, qo'l yana o'rtaga kelganda to'xtaydi. Bu harakat ko'p ma'noli bo'lib, bir umumiy inkor ma'nosi bilan quyidagi ma'nolarni ifodalashi mumkin:

1. Ma'lum harakatni yuzaga chiqarish inkori:

a) gapirish harakatining inkori – "aytma" vazifasida;

b) kelish harakatining inkori – "kelma" vazifasida;

d) tegish harakatining inkori – "tegma" vazifasida va boshqalar.

2. Mavjudlikning inkori – "yo'q" vazifasida.

Bu harakatning birinchi ma'nolari buyurish, ikkinchisi esa darak berish vazifalarini bajaradi [4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, kinesik belgilarni o'rganish va tahlil qilish tilshunoslik, xususan, psixolingvistika tarmog'i uchun muhim ahamiyatga egadir. Okulesik, mimik, proksemik belgilarning ma'nolarini bilish, ularning sinonim, omonim, antonim va ko'pma'noliligi kabi xususiy belgilaridan boxabar bo'lish shaxsning nafaqat til bilimini oshirishga, balki muloqot madaniyatini shakllantirishga, samarali muzokazalar olib borishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Knapp M. Nonverbal communication in human interaction – New York: Hort, Reinhart and Winston, 1972.
Birdwistell R. Kinesics and context – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 1970.
Majidova M., Issues of creating general analysis principles of kinesic gestures // O'zMU xabarlari, 2025. – B. 313.
Yuldosheva M. So'zlashuv nutqida noverbal vositalarning qo'llanilishi – Toshkent: ZDAF, 2022.
Reis H.T., Sprecher S. Encyclopedia of human relationships // Sage Reference Publication, 2009. Volume 1. – P. 260– 261.
Алекберова И.Э. Особенности кинесики в процессе межкультурного взаимодействия // Lingua mobilis, 2013. – С. 23–26.
Лабунская В.А. Невербальное поведение (социально-перцептивный подход). Ростов: Изд-во Ростов. ун-та, 1986.

Shokirjon TURSUN,
"Synergy School" NTM ona tili fani o'qituvchisi,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

MAGISTRATURA BOSQICHIDA "TILNI ONA TILI VA IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISH" MAVZUSINI O'RGATISHNING METODIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limning magistratura bosqichida "Lingvodidaktika asoslari" fani doirasida "Tilni ona tili (T1) va ikkinchi til (T2) sifatida o'qitish" mavzusining metodik talqini va o'rganish obyekti yoritilgan. Maqolada har ikki yo'nalishning maqsad va vazifalari, dars berishdagi metodologik tafovutlar hamda magistrantlarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda qiyosiy-metodik tahlilning o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, bo'lajak oliy ta'lim (yoki umumta'lim) o'qituvchilari uchun darsliklar bilan ishlash va o'quv materiallarini loyihalash bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so'zlar: lingvodidaktika, T1 (ona tili), T2 (ikkinchi til), til o'zlashtirish, til o'rganish, kommunikativ kompetensiya, interferensiya, interlingva.
Annotation. This article covers the methodological interpretation and object of study of the topic "Teaching Language as Native (L1) and Non-Native (L2)" within the framework of the "Fundamentals of Linguodidactics" discipline at the master's level in the higher education system. The article substantiates the goals and objectives of both directions, methodological differences in teaching, and the role of comparative-methodological analysis in the formation of master's students' professional competence. In addition, practical recommendations for working with textbooks and designing educational materials for future teachers of higher (or general education) educational institutions are presented.
Keywords: linguodidactics, L1 (first language), L2 (second language), language acquisition, language learning, communicative competence, interference, interlanguage.
Аннотация. В данной статье освещаются методическая интерпретация и объект изучения темы «Преподавание языка как родного (L1) и как неродного (L2)» в рамках дисциплины «Основы лингводидактики» на уровне магистратуры в системе высшего образования. В статье обосновываются цели и задачи обоих направлений, методологические различия в преподавании, а также роль сравнительно-методического анализа в формировании профессиональной компетенции магистрантов. Кроме того, представлены практические рекомендации по работе с учебниками и проектированию учебных материалов для будущих преподавателей высших (или общеобразовательных) учебных заведений.
Ключевые слова: лингводидактика, L1 (родной язык), L2 (неродной язык), усвоение языка, изучение языка, коммуникативная компетенция, интерференция, интерлингва.

Zamonaviy lingvodidaktik parametrlarning o'zgarishi oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatiga yangicha talablar qo'ymoqda. Xususan, magistratura bosqichida "Lingvodidaktika asoslari" fanini o'qitishda talabalarga tilning nafaqat lisoniy qurilishini, balki uni turli auditoriyalarda o'qitishning metodologik asoslarini chuqur yetkazish dolzarb masalalardan biri aylanmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi pedagogik reallik shuni ko'rsatadiki, ona tili va ikkinchi til o'qitish metodikasi o'rtasidagi farqlar nazariy jihatdan aniq chegaralanmagan. Bu esa amaliyotda ona tili darslarida qo'llaniladigan usullarning ikkinchi til (masalan, rus guruhlarida o'zbek tili) darslariga yoki aksincha holatlarda mexanik ko'chirilishiga sabab bo'lmoqda.

Magistrant – nafaqat metodist, balki bo'lajak tadqiqotchidir. U til o'zlashtirishning psixolingvistik tabiatini tushunishi shart: ona tili asosan tabiiy muhitda o'zlashtiriladi, ikkinchi til esa sun'iy (akademik) muhitda ongli ravishda o'rganiladi. Ushbu farqni anglash darsning maqsadini belgilashda fundamental ahamiyatga ega. Quyida keltirilgan sabablar magistratura bosqichida ushbu mavzuni o'qitish lozimligini ko'rsatadi:

1. Metodik tavofutni anglash zarurati. Amaliyotda o'qituvchilarning eng katta xatosi – ona tili metodikasini ikkinchi til darslariga ko'r-ko'rona tatbiq etishidir. Magistrant ushbu mavzuni o'rgangach, ona tilini o'qitishda (T1) asosiy diqqat tahlil va adabiy me'yorga qaratilishi, ikkinchi tilni o'qitishda (T2) esa kommunikativ ehtiyoj va nutqiy konstruksiyalarni qurishga qaratilishi shartligini anglaydi.

2. O'quv dasturlari va darsliklarni loyihalash kompetensiyasi bo'lishi shart. Magistratura bitiruvchisi turli darajadagi ta'lim muassasalarida (oliy yoki umumta'lim) dars berish bilan birga o'quv dasturlarini ishlab chiqish huquqiga ham ega bo'ladi. T1 va T2 o'rtasidagi farqni bilmasdan turib, har ikki yo'nalish uchun alohida darslik yoki o'quv materialini yaratish imkonsiz. Ushbu mavzuning dasturga kiritilishi magistrantga T1 uchun filologik va tanqidiy tafakkurga yo'naltirilgan, T2 uchun vaziyatli-funksional va pragmatik mazmundagi materiallarni saralash ko'nikmasini beradi.

3. Lingvistik interferensiya va xatolar diagnostikasini to'g'ri qo'llash. Ikkinchi til o'rganuvchilarining xatolari ko'pincha ona tili qonuniyatlarini yangi tilga ko'chirish (interferensiya) natijasida yuzaga keladi. Magistrant ushbu mavzuni o'rganish orqali talabaning xatosini shunchaki "bilmaslik" deb emas, balki "ona tili ta'siri" deb diagnoz qo'yishni o'rganadi. Bu esa o'qituvchiga har bir xato ustida ishlashning ilmiy metodini tanlash imkonini beradi.

4. Kognitiv yuklamani to'g'ri taqsimlashni bilish. Ona tili darsida talaba tilning grammatik terminologiyasini o'rganishga kognitiv quvvat sarflaydi (chunki tilda gapira oladi). Ikkinchi tilda esa u ham terminni, ham til tizimini, ham nutqni bir vaqtda o'zlashtirishi kerak. Magistr ushbu farqni bilishi darsda talabani ortiqcha ma'lumot bilan toliqtirmaslik va darsning samaradorlik koeffitsientini oshirish uchun shartdir.

5. Ilmiy tadqiqot bazasini shakllantirish Lingvodidaktika – dinamik fan. Magistrlar oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichiga o'tganda til o'qitishning zamonaviy muammolarini tadqiq etadilar. T1 va T2 metodikasining chegarasini bilish ularga tadqiqot obyektini aniq belgilash va xalqaro miqyosdagi ilmiy yangiliklarni to'g'ri tahlil qilish imkonini beradi.

"Lingvodidaktika asoslari" fanining mazmuninmi yangilashga qaratilgan tadqiqotimizda fanni o'qitishdan oldingi diagnostik test o'tkazdik. Unda "Ona tili hamda ikkinchi tilning konteksti va o'rganish yo'llaridagi 3 asosiy farqni izohlang" topshirig'iga javoblar oldik. Unga ko'ra, qatnashuvchilarning 16 foizi 2 ta farqni to'g'ri izohlay olgan, 23 foizi esa faqat bitta farqni to'g'ri izohlagan. 26 foiz talaba farqlarni noto'g'ri izohlagan bo'lsa, 19 foiz talaba butkul boshqa mazmundagi javoblarni bergan. Qatnashuvchilarning 16 foizi bu savolga javob bermagan. Mana shu kichik tadqiqotning o'ziyoq bu mavzuni o'qitish qanchalik zarur ekanini amalda ham isbotlamoqda.

Talabalar ushbu mavzu bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun quyidagi mazmuniy bloklardan iborat ma'ruza va amaliy darslar tashkillash kerak deb hisoblaymiz:

- tilni egallashning psixolingvistik va ijtimoiy-kognitiv nazariyalari tahlili;
- kontrastiv tahlil;
- metodik dizayn.

Tilni egallashning psixolingvistik va ijtimoiy-kognitiv nazariyalari tahlili

Oliy ta'limning magistratura bosqichida lingvodidaktika fanining mazmunini yangilash, birinchi navbatda, talabalarda tilning miyada shakllanish mexanizmlari haqida tizimli ilmiy tasavvur hosil qilishni taqozo etadi. Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan o'quv modulining fundamental qismi tilni egallashning jahon tan olgan psixolingvistik va ijtimoiy-kognitiv nazariyalariga tayanadi. Xususan, bo'lajak o'qituvchilar uchun S. Krashenning o'zlashtirish va o'rganish gipotezasi metodologik yo'naltiruvchi vazifasini o'taydi. Krashen tilni egallashning ikki xil usulini farqlab, ona tili uchun xos bo'lgan tabiiy singish jarayonini hamda ikkinchi til uchun xos bo'lgan ongli o'rganishni asoslab beradi. Olim ushbu jarayonning mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: "Tilni o'zlashtirish (acquisition) — bu ongsiz jarayondir; til o'rganuvchilar, odatda, tilni o'zlashtirayotganlik faktini anglamaydilar, balki faqat tildan muloqot maqsadida foydalanayotganliklarini his qiladilar. Bu jarayon bolalarning birinchi tilda ko'nikma hosil qilish yo'liga o'xshash, hatto u bilan aynan bir xildir... 'O'rganish' (learning) tushunchasi esa ikkinchi til haqidagi ongli bilimga, qoidalarni bilishga, ularni anglashga va ular haqida so'zlay olish qobiliyatiga ishora qiladi" [1: 10].

Magistrantlar ushbu nazariyani o'zlashtirish orqali dars jarayonida faqat qoidalarni "o'rgatish" bilan cheklanib qolmay, balki tilni tabiiy "o'zlashtirish" uchun zarur bo'lgan kommunikativ muhitni yaratish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Tilni egallashning biologik va kognitiv asoslarini tushunishda N. Chomskiyning tug'ma kompetensiya nazariyasi muhim o'rin tutadi. Olimning fikricha, bola tilni tashqi muhitdan shunchaki nusxa ko'chirish orqali o'rganmaydi, balki unda genetik darajada mavjud bo'lgan ichki mexanizm faollashadi [6: 27]. Ushbu nazariy yondashuv magistrga ona tili o'qitishda o'rganuvchining ichki intuitsiyasiga tayanish samaradorligini, ikkinchi til o'qitishda esa ushbu qurilmaning yangi lisoniy tizimga moslashishidagi qiyinchiliklarni ilmiy tushunish imkonini beradi. Natijada, bo'lajak o'qituvchi o'quv materialini tanlashda insonning kognitiv imkoniyatlari va tilni idrok etish xususiyatlarini inobatga olishni o'rganadi.

Nazariy materialning ijtimoiy-pedagogik jihatlari L.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi orqali boyitiladi. Vigotskiy ta'lim samaradorligi talabaning mustaqil bajara oladigan ishi bilan ustoz ko'magida amalga oshiradigan harakati o'rtasidagi masofada ekanligini ta'kidlab, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Yaqin rivojlanish zonasi – bu bolaning mustaqil muammoni hal qilish orqali aniqlanadigan amaldagi rivojlanish darajasi va kattalar rahbarligida... muammoni hal qilish orqali aniqlanadigan potentsial rivojlanish darajasi o'rtasidagi masofadir" [5: 86].

Ikkinchi til o'qitishda ushbu nazariya skaffolding, ya'ni metodik ko'mak tushunchasini keltirib chiqaradi. Magistrantlar o'z amaliy faoliyatlarida o'rganuvchini yangi lisoniy bosqichga olib chiqish uchun qanday yordamchi vositalardan foydalanish zarurligini ushbu konsepsiya asosida loyihalashtiradilar. Ushbu nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish maqsadida magistrantlar amaliy mashg'ulotlarda vaziyatli tahlil metodi doirasida Krashen nazariyasiga tayangan holda, darsda faqat grammatik mashqlar bilan cheklanish nutq o'sishiga nima uchun to'sqinlik qilishini ilmiy asoslab berishlari topshiriq sifatida berilishi mumkin. Shuningdek, talabalar o'zbek tilidagi qo'shimchalarni o'zlashtirishdagi tabiiy tartibni tahlil qilishlari lozim. Yaqin rivojlanish zonasi yo'nalishida esa magistrantlar murakkab matnni o'qishdan oldin o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan "metodik ko'prik" vazifasini o'tovchi topshiriqlar tizimini yaratishlari mumkin.

Kontrastiv tahlil, lisoniy interferensiya va interlingva hodisalari

Magistratura bosqichida lingvodidaktika fanining mazmunini boyitishda kontrastiv lingvistika va xatolar tahlili masalalari markaziy o'rin egallaydi. Bo'lajak o'qituvchi ona tili va ikkinchi til tizimlarini qiyosiy o'rganish orqali talaba o'zlashtirishi qiyin bo'lgan "metodik tugunlar"ni oldindan bashorat qila olishi lozim. R. Ladoning kontrastiv tahlil gipotezasi ushbu yo'nalishning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi. Lado o'zining asarida til o'rgatishning qiyinchilik darajasi ikki til o'rtasidagi farqlar bilan belgilanishini ta'kidlaydi: "O'z ona tiliga o'xshash bo'lgan elementlar o'rganuvchi uchun oson bo'ladi, ona tilidan farq qiluvchi elementlar esa u uchun qiyinchilik tug'diradi" [2: 2].

Ushbu qiyinchiliklar amaliyotda lisoniy interferensiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Magistrantlar o'z tadqiqotlarida ona tilining salbiy ta'siri (interferensiya) va ijobiy ko'chishi (transfer) hodisalarini farqlashlari shart. Interferensiya hodisasi talabaning T2 tizimiga o'z ona tili qoliplarini (fonetik, leksik, grammatik) ongsiz ravishda ko'chirishi natijasida yuzaga keladi.

Til o'rganish jarayonini dinamik tizim sifatida tushunishda L Selinkerning interlingva nazariyasi metodologik burilish yasadi. Selinker til o'rganuvchining nutqini shunchaki xatolar to'plami emas, balki o'ziga xos uchinchi bir mustaqil lisoniy tizim deb hisoblaydi. Olim interlingva mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Interlingva – o'rganuvchi ikkinchi tilni egallashga urinish jarayonida yaratadigan, ona tili ham, maqsadli til ham bo'lmagan, alohida lisoniy tizimdir" [4: 214]. Magistrantlar ushbu tushunchani o'zlashtirish orqali o'z o'quvchilarining xatolariga nisbatan tanqidiy emas, balki tahliliy munosabatda bo'lishni, ya'ni xatoni til rivojlanishining zaruriy bosqichi sifatida qabul qilishni o'rganadilar. Bu esa talabaning psixologik to'siqlarini kamaytirishga va o'qituvchining metodik strategiyasini aniqroq belgilashga xizmat qiladi.

Ushbu nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish maqsadida magistrantlar uchun bir qator lingvistik laboratoriya topshiriqlari tavsiya etiladi. Jumladan, "Xatolar diagnostikasi" metodikasi doirasida magistrlar o'rganuvchining og'zaki va yozma nutqidan namunalar olib, ularni interlingva g'oyasi asosida tahlil qilishadi. Bunda ular xatoning manbasini aniqlashga urinadilar (u ona tili ta'siridami yoki maqsadli til qoidalarini noto'g'ri umumlashtirish natijasidami?) Shuningdek, "Kontrastiv xarita yaratish" topshirig'i orqali magistrantlar o'zbek va rus (yoki ingliz) tillari tizimidagi tub farqlarni (masalan, kelishiklar, artikllar yoki so'z tartibi) qiyoslab, eng ko'p xato kutiladigan metodik xavf zonalarini aniqlaydilar. Bu kabi amaliy mashg'ulotlar magistrlarda nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatda diagnostika qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Metodik dizayn: deduktiv va induktiv strategiyalar hamda kommunikativ yondashuv tahlili

Oliy ta'lim tizimida lingvodidaktika fanini o'qitishning zamonaviy mazmuni bo'lajak o'qituvchilardan dars jarayonini

auditoriya ehtiyojiga ko'ra loyihalashning differensial usullarini egallashni talab etadi. Ushbu bosqichda magistrantlar darsning mantiqiy tuzilishini belgilovchi deduktiv va induktiv strategiyalarning metodologik mohiyatini chuqur tahlil qiladilar. Richards va Rodgers ta'kidlaganidek, o'qitish metodini tanlash shunchaki texnik qaror emas, balki tilning tabiatini qanday tushunish bilan bog'liqdir [3: 25]. Deduktiv yondashuvda qoida birinchi bo'lib taqdim etiladi va o'rganuvchi uni aniq misollar orqali qo'llaydi; induktiv yondashuvda esa o'rganuvchiga qoidani misollar asosida o'zi chiqarishi uchun imkoniyat beriladi.

Talabalar til o'qitishning qaysi qismlarida deduktiv, qaysi qismlarida induktiv usuldan foydalanish samarali bo'lishi anglashlari kerak. Ikkinchi tilni o'qitishda induktiv usuldan foydalanish o'rganuvchida tilni his qilish ko'nikmasini shakllantirib boradi. Metodik dizaynning keyingi muhim bosqichi kommunikativ til o'qitish paradigmasini o'zlashtirish bilan bog'liqdir. Ushbu yondashuv tilga shunchaki grammatik qoidalar yig'indisi emas, balki ijtimoiy muloqot vositasi sifatida yondashadi. H.G.Widdowson tilni o'qitishda uning funksional tomoniga urg'u berib, "o'rganuvchi tilni shunchaki grammatik jumlalar tizimi sifatida emas, balki muloqotni amalga oshirish vositasi sifatida tushunishi va undan foydalana olishi lozim" [7: 67], degan qarashni ilgari suradi. Magistrantlar ushbu yondashuv doirasida D.Hymes ilgari surgan kommunikativ kompetensiya tushunchasini o'rganadilar. Darslarda asosiy e'tibor jumlani grammatik jihatdan benuqson tuzishga emas, balki ma'lum bir ijtimoiy vaziyatda fikrni tushunarli va mos ravishda yetkazishga qaratiladi.

Nazariy bilimlarni pedagogik ko'nikmaga aylantirish maqsadida magistrantlar uchun bir qator tizimli topshiriqlar berilishi mumkin. "Metodik transformatsiya" mashqi doirasida magistrlar bitta grammatik mavzuni (masalan, "Sifat darajalari") uchun deduktiv hamda induktiv-kommunikativ ssenariyda dars loyihalashni mashq qiladilar.

Shuni xulosa qilish mumkinki, oliy ta'limda lingvodidaktika asoslari fani mazmunini T1 va T2 bilan boyitish bo'lajak o'qituvchilarning professional mahoratini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu mavzuning o'zlashtirilishi magistrantlarda darsni shunchaki o'tish emas, balki uni auditoriya ehtiyojiga ko'ra ilmiy asoslangan holda loyihalash ko'nikmasini shakllantiradi. amaliy mashg'ulotlarda kognitiv-amaliy topshiriqlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Bu o'zgarishlar xalqaro standartlarga mos, metodologik jihatdan ongli professional pedagog kadrlar tayyorlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982.
2. Lado R. Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. – University of Michigan Press, 1957.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
4. Selinker L. Interlanguage // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching, 1972. Vol. 10(1-4).
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard: Harvard University Press, 1978.
6. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965.
7. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. – Oxford: Oxford University Press, 1978.

Shaxlo AXMEDOVA,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

O'QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning bilish faoliyatining imkoniyatini kengaytirishning asosiy omili bo'lgan tasavvur masalasiga e'tibor qaratilgan. Tasavvur psixologik jarayon bilan o'zaro bog'liq, shuning uchun o'quv faoliyatida psixologik jihatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Kalit so'zlar: ijodiy tasavvur, ijodiy faoliyat, bosqich, shaxs, qobiliyat, psixologik omil.

Annotation. This article focuses on the issue of imagination, which is the main factor in expanding the possibilities of students' cognitive activity. Imagination is interconnected with the psychological process, therefore, it is advisable to consider psychological aspects in educational activities.

Keywords: creative imagination, creative activity, stage, personality, abilities, psychological factors.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется вопросу воображения, которое является основным фактором расширения возможностей познавательной деятельности учащихся. Воображение взаимосвязано с психологическим процессом, поэтому целесообразно учитывать психологические аспекты в учебной деятельности.

Ключевые слова: творческое воображение, творческая деятельность, этап, личность, способности, психологический фактор.

Bugungi kunda pedagoglar zamonaviy dars mashg'ulotlarida ijodiy-kommunikativ yondashuvni joriy etar ekanlar, kreativ tasavvurni yuzaga chiqarishga ta'sir etuvchi omillar hamda kreativlikka to'siq bo'luvchi muammolarga duch kelmoqdalar. Shu bois, guruhdagi faol o'quvchilar uchun mantiqiy-evristik yoki nostandart savollardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kreativ faoliyatni tashkil etish, ijodkor shaxsni tarbiyalashni Sh.S.Sharipov psixofiziologik jihatdan bir necha bosqichda amalga oshirilishini aniqlab bergan. Bulardan birinchisi **havas** – ehtiyojlarning eng sodda shakli bo'lib, inson tomonidan ongli boshqariladi. Ikkinchisi, nisbatan yuqoriroq rivojlanish bosqichi bo'lgan **xohish** ham inson tomonidan ongli boshqarilib, u shaxsning ma'lum buyum yoki hodisaga nisbatan munosabatlari majmuasini ifodalaydi. Uchinchi, eng murakkab bosqich bo'lgan **qiziqish** – xohish va u bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar asosida yuzaga keladi. Qiziqish hayotdagi tashqi ta'sirlar, shaxs faoliyati hamda ta'lim-tarbiya jarayoni ta'sirida shakllanib boradi. Bu holatlar psixologik omillar – diqqat, idrok, tushuncha, xotira, fikrlash, tasavvur, sezgi va iroda xislatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatib, shaxsning shakllanishida alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda o'rganishga, o'zlashtirishga xohish va qiziqishni shakllantirishda qiziqarli topshiriqlar, didaktik vositalar, ijodiy

mashg'ulotlarning qo'llanilishi samarali usullardan biri ekanini unutmaslik lozim. Zehnlilik, topqirlik, sinchkovlik, qiziquvchanlik, izlanuvchanlik sifatlari mustaqil va ijodiy faoliyatni tashkil qilishning asosiy omillari hisoblanadi. Ta'lim jarayonining ushbu omillar asosida tashkil etilishi o'qituvchi va o'quvchi muloqotini individual va differensial yondashuvga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi.

Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma'naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin. **Ma'naviy ijodkorlik** – o'qituvchi va o'quvchilar orasida ma'naviy axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas o'ziga xos yondashuvga asoslangan faoliyat turi. **Didaktik ijodkorlik** – o'quv materialini tanlash, loyihalash hamda o'quvchilar o'zlashtirishining yangi yo'nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turi. **Texnologik ijodkorlik** – yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog'liq faoliyat turi bo'lib, u ijodkorlikning o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini butunlay qamrab oluvchi eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlikning o'ziga xosligi yangilik elementlarini texnologiyaga o'tkazish, uning samaradorligini tubdan o'zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi, zamonaviy talablarga mos keladi. **Tashkilotchilik ijodkorligi** – rejalashtirish, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o'quvchilar va o'qituvchi orasidagi bog'lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir.

Bizning tadqiqotda pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining didaktik ijodkorlik va tashkilotchilik ijodkorligi turlariga tayanish mumkinligini ta'kidlab o'tish lozim deb hisoblaymiz. Ijodkorlik jarayonida maqsaddan tashqari inson xususiyatlarining psixologik (ishonch hosil qilish, munosabat, baho berish, did, urf-odatlar), pedagogik (ta'lim berish va ta'lim olish, tarbiyalash va tarbiyalanganlik) jihatlarini ham hisobga olish kerak [2: 300]. B.S.Abdullayevaning tadqiqotida "intellektual imkoniyatlarsiz o'quvchining mehnatga ijodiy munosabatlarini shakllantirish turli o'quv fanlari mazmunini o'zaro uyg'unlashtirish asosida amalga oshiriladi" [1: 19] deb ta'kidlangan. M.Abdullayeva maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ularning estetik tasavvurlari, bilimlari asosida dunyoqarashni shakllantirishning turli shakllari xususida o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. U durdona asarlar namunalari, kino san'ati, musiqa san'ati, tasviriy san'at va bir qancha usullarni tahlil qilib o'tgan. Tasviriy san'at turi, undagi muayyan mazmun va mohiyat mavjudligini tasavvur etish, anglashning birinchi jihati bo'lib, tasviriy san'atning rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik turlaridan, ularning bir-biridan farqini elementar belgilari bo'yicha ajrata olish, uning har bir turining o'z yo'nalishi (manzara, portret, natryumort, batal, maishiy, kompozitsion, anumalistik) mavjudligini va ularning tasavvurni rivojlantirishdagi ahamiyatini yoritib bergan [1: 22]. S.T.Shokirova esa: "Ijodiy faoliyat bizning kundalik hayotimizni jozibaliroq qiladi, fan va san'atni ijodsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ijodsiz matematika, ona tili va boshqa fanlar taraqqiyotini tasavvur qilish mumkin emas. Biz har doim murakkab fikrni ifodalaganimizda yoki oq qog'ozni matn bilan qoraytirganimizda ijod qilamiz. Agar shu ishni samarali va g'ayrioddiy tarzda uddalay olsak, bizni rosmona ijod kishisi deb atash mumkin" [1: 25] deb yozgan.

Kreativ faoliyat o'quvchilarning yangi bilimlarni o'zlashtirishida, mustaqil fikr yuritishida hamda ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, har bir dahoda eng kichik yoshdan boshlab "g'ayritabiiy" alomatlar mavjud bo'lmay, ular hayotiy jarayonlar, atrofdagi shaxslarning xatti-harakatlarini kuzatish, ularga taqlid qilish, kitoblarni o'qish orqali orqali rivojlanadi. Jumladan, Alisher Navoiy shaxsining shakllanishida ruhiy quvvat, qobiliyat va tinimsiz mehnat muhim rol o'ynagan. Shu bois, bolalarni o'rab turgan muhit, voqea-hodisalar va jarayonlar ularning kelajakdagi sifatlari hamda qobiliyatlarini namoyon etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tasavvurda shakllangan obrazlar vaqt o'tib aniq maqsadga aylanishi hayotiy qonuniyatdir.

Ingliz olimi Xeyyes o'rtachadan yuqoriroq intellekt sohibi va ba'zi bir ma'lum ko'nikmalarni egallagan har bir inson hatto buyuk asarni ham yaratishi mumkin degan fikr tarafdori edi. U "ijodiy va ijodiy bo'lmagan odamlarni ajratuvchi qandaydir kognitiv qobiliyatlar yo'q" [3: 76] deb ta'kidlar edi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, bizning ko'pchiligimiz ijod uchun zarur barcha narsalarga ega ekanligimizni, ijodiy fikrlash va ijodiy tasavvurning ancha sodda jarayonlardan iboratligini, barchamiz "shoh asar"lar yarata olishimiz, faqat buning uchun boy tasavvurga ega bo'lishimiz lozimligini anglab yetamiz. N.G.Alavutdinova ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish masalasida olib borgan tadqiqotlarida "umumta'lim maktablari ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantirish, malakalarini hosil qilishda aqliy harakatlarga tayanish zarurdir" [1: 29] deb hisoblaydi.

Kreativ tasavvurni rivojlantirish o'quvchilarning jamiyatda o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishiga, mavjud bilimlarini yanada rivojlantirishiga xizmat qiladi. Chunki o'quvchi maktabga kelguniga qadar ham muayyan tasavvurlarga ega bo'ladi va ta'lim jarayonida ushbu tasavvurlar yanada boyib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alovuddinova N.G. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi: Ped. fan. nomz... diss. – Toshkent, 2007.
2. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: учеб. пос. для студ. высш. уч. заведений. М.: Академия, 2002.
3. Ильин Э.П. Психология творчества, креативности, одаренности. СПб.: Питер, 2013.

Gulruxsor SHARIPOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash instituti dotsenti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY HAMKORLIKNING ROLI

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning o'rni, uning asosiy yo'nalishlari hamda samarali hamkorlikning bolalar ta'lim-tarbiyasiga ijobiy ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, davlat, nodavlat tashkilotlar, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro aloqalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijtimoiy hamkorlik, ta'lim sifati, nodavlat sektor, fuqarolik jamiyati.

Annotation. The article analyzes the role of social partnership in the development of preschool education institutions, its main directions, and the positive impact of effective collaboration on children's education and upbringing. It also highlights the importance of interaction between governmental and non-governmental organizations, parents, and the community.
Keywords: preschool education, social partnership, quality of education, non-governmental sector, civil society.
Аннотация. В статье проанализирована роль социального партнёрства в развитии деятельности дошкольных образовательных учреждений, его основные направления, а также положительное влияние эффективного взаимодействия на обучение и воспитание детей. Также освещено значение взаимосвязей между государственными и негосударственными организациями, родителями и общественностью.
Ключевые слова: дошкольное образование, социальное партнёрство, качество образования, негосударственный сектор, гражданское общество.

Maktabgacha ta'lim – bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun asos bo'luvchi eng muhim bosqichlardan biridir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirishda faqat davlat organlari emas, balki keng jamoatchilik, ota-onalar, nodavlat tashkilotlar, biznes subyektlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy hamkorlik bu jarayonda muhim mexanizm sifatida xizmat qiladi. Ijtimoiy hamkorlik – maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan jamiyatning turli qatlamlari, xususan, ota-onalar, NNTlar, mahalliy hokimiyatlar, homiy tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlikka asoslangan faoliyatdir. Bu hamkorlik ta'lim-tarbiya jarayonini yanada boyitish, resurslarni jalb etish va bolalar ehtiyojlariga yaxshiroq javob berishni ta'minlaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bilan ijtimoiy hamkorlik quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Ota-onalar bilan hamkorlik: ota-onalarning tarbiya jarayonida ishtiroki, oilaviy muhit va MTT o'rtasida uyg'unlik yaratish;

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) ishtiroki: innovatsion dasturlarni joriy etish, treninglar, seminarlar tashkil etish orqali pedagoglar va ota-onalar salohiyatini oshirish;

Mahalliy hukumat organlari va homiylar bilan hamkorlik: moddiy-texnik bazani mustahkamlash, yangi bog'chalar qurilishi, mavjudlarini ta'mirlash;

Fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqa: ekologik, axloqiy, madaniy-ma'rifiy loyihalar orqali bolalarning ijtimoiylashuvi va madaniy saviyasini oshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti (MTT) faoliyatini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlik samaradorligini oshirish uchun **aniq va tizimli mexanizmlarni** qo'llash muhim. Quyida MTT faoliyatini rivojlantirishda samarali hisoblangan **asosiy mexanizmlar**ni keltirib o'tamiz.

1. Ota-onalar bilan pedagogik hamkorlik mexanizmi hisoblanib, uning mazmuni ota-onalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish, oila va MTT o'rtasida pedagogik uyg'unlikni ta'minlashga qaratiladi. Ota-onalar bilan olib boriladigan hamkorlikni amalga oshirish shakllari:

– ota-onalar klublari, ota-onalar universitetlari tashkil etish;

– psixolog-pedagogik maslahatlar, ochiq mashg'ulotlar, seminarlar o'tkazish;

– ota-onalarni bola rivojlanishiga oid davlat talablari, ta'limiy faoliyatga doir hujjatlar mazmuni bilan tanishtirish, bolalar rivojlanish xaritalarini taqdim etib borish zarur.

MTTda **Jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish mexanizmi mazmuni quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

– Mahalla FY, NNTlar, nafaqadagi pedagoglar va jamoatchilik vakillarining MTTga ko'maklashuvini tashkil etish shakllari:

mahalla bilan hamkorlikda tadbirlar, ijtimoiy loyihalar;

– "Tarbiya soatlari"da jamoatchilik vakillarining ishtiroki;

– volontyorlik asosida mutaxassislar ishtirokini ta'minlash (masalan, san'atkorlar, sportchilar).

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) asosida hamkorlik o'rnatish mexanizmi mazmuni xususiy sektorni ta'limga jalb etish, resurslarni ko'paytirish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda

xususiy bog'chalar bilan hamkorlik (tenderlar, litsenziyalar);

texnologik jihozlashda homiylar bilan sheriklik;

korxona va tashkilotlar hisobidan filiallar ochish (korporativ MTTlar) kabi orqali amalga oshirish mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish mexanizmi mazmuni raqamli texnologiyalar orqali hamkorlikni kuchaytirishga qaratiladi:

Telegram/WhatsApp guruhlari orqali ota-onalar bilan tezkor aloqa;

onlayn maslahatlar, vebinarlar, pedagoglar va ota-onalar uchun veb-portal;

bolalar ishtirokidagi virtual ko'rgazmalar, videodarslar.

Ijtimoiy loyihalar va grant asosida hamkorlik qilish mexanizmi NNTlar, xalqaro tashkilotlar yoki mahalliy fondlar bilan loyiha asosida ishlash orqali amalga oshiriladi:

ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya, gender tengligi kabi yo'nalishlarda loyihalar ishlab chiqish;

grant mablag'larini jalb qilish orqali infrastrukturani rivojlantirish yoki kadrlar salohiyatini oshirish;

BMT, UNICEF, O'zbekiston NNTlarining qo'shma dasturlarida ishtirok etish.

Monitoring va baholash mexanizmi mazmuni hamkorlik samaradorligini baholab borish va takomillashtirish jarayonlarini qamrab oladi:

ijtimoiy sheriklarning ishtirokiga doir tahliliy hisobotlar tayyorlash;

ota-onalardan, NNTlardan muntazam fikr olish (so'rovnomalar);

faoliyatga doir ochiq eshik kunlari va hisobot yig'ilishlari o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

MTTda hamkorlik ijtimoiy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining ochiqligini ta'minlash, ota-onalarni pedagogik jarayonga faol jalb etish, hamkor tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlarini yo'lga qo'yish, tizimli monitoring va baholash orqali hamkorlik faoliyatining natijadorligini aniqlash kabi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish samarali hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://taqu.uz/storage/pdfs/1759126539_O%E2%80%98RQ-637%2023.09.2020.pdf.
2. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/acts/-4646908.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori. https://lex.uz/pdfs/4327235.
4. Arziqulova S. Ta'lim-tarbiyada MTT bilan ota-ona hamkorligi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2021, 1(1). – P. 111–119.
5. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2014. – 181 b.
6. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2008. – 138 b.

Yulduz TURAPOVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
2-bosqich magistranti

HAMZA IMONBERDIYEVNING "TURNALAR" VA "OHU" SHE'RLARINI RAQAMLI VOSITALAR YORDAMIDA O'QITISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hamza Imonberdiyev ijodining ikki muhim namunasi – "Turnalar" va "Ohu" she'rlarini raqamli texnologiyalar yordamida o'qitishning zamonaviy metodlari yoritilgan. She'rlarning o'xshash va farqli jihatlari, mazmun-mohiyati, obrazlarning poetik tasviri tahlil qilinib, dars jarayoniga raqamli vositalarni qo'llashning afzalliklari ilmiy asoslangan. Raqamli o'qitishning samaradorligini oshirish bo'yicha multimedia materiallari, interaktiv metodlar, vizual animatsiyalar, virtual kuzatuvlar kabi vositalardan foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.
Kalit so'zlar: Hamza Imonberdiyev, "Turnalar", "Ohu", raqamli ta'lim, poetik tahlil, multimedia, interaktiv metodlar, o'qitish texnologiyalari.
Annotation. This article examines the modern methods of teaching Hamza Imonberdiyev's two important works – the poems "Turnalar" and "Ghazel" – using digital technologies. The article analyzes the similarities and differences between these poems, their content and artistic concept, poetic imagery, and scientifically substantiates the advantages of using digital tools in the educational process. Scientific and practical recommendations are given on the use of multimedia materials, interactive methods, visual animations, virtual observations, and other digital tools to improve learning effectiveness.
Keywords: Hamza Imonberdiyev, "Cranes", "Gazelle", digital learning, poetic analysis, multimedia, interactive methods, educational technologies.
Аннотация. В данной статье рассматриваются современные методы преподавания двух важных произведений Хамзы Имонбердиева – стихотворений «Журавли» и «Газель» с использованием цифровых технологий. В статье анализируются сходства и различия между этими стихотворениями, их содержание и художественная концепция, поэтические образы, а также научно обоснованы преимущества применения цифровых средств в учебном процессе. Приведены научно-практические рекомендации по использованию мультимедийных материалов, интерактивных методов, визуальных анимаций, виртуальных наблюдений и других цифровых инструментов для повышения эффективности обучения.
Ключевые слова: Хамза Имонбердиев, «Журавли», «Газель», цифровое обучение, поэтический анализ, мультимедиа, интерактивные методы, образовательные технологии.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, adabiyot darslarini samarali tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi. Xususan, bolalar adabiyoti vakili Hamza Imonberdiyevning "Turnalar" va "Ohu" kabi chuqur ma'no va tarbiyaviy mazmunga ega she'rlarini talabalarga mazmunan to'liq yetkazishda raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, poetik tafakkurni rivojlantiradi va obrazli fikrlashni faollashtiradi.

Hamza Imonberdiyev (1954–1997) o'zbek bolalar adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida tabiat, mehr-shafqat, insoniylik, birdamlik g'oyalari yetakchilik qiladi. Shoirning "Turnalar" va "Ohu" she'rlari tabiat timsollari orqali murakkab ruhiy holatlarni, mehr, ogohlik, ehtiyotkorlik kabi g'oyalarni ifodalashi bilan ajralib turadi. Raqamli vositalar yordamida mazkur asarlarni o'qitish ularning mazmunini yanada chuqurroq anglashga, badiiy obrazlarni jonli idrok etishga, shuningdek, talabalarda mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Maqola "Turnalar" va "Ohu" she'rlarini o'qitishda raqamli vositalardan foydalanish metodikasini ilmiy asoslar doirasida tahlil qiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli vositalar yordamida she'rlarni o'qitish quyidagi afzalliklarni ko'rsatadi:

"Turnalar" she'ridagi bo'ron, turnalar safining buzilishi, ona turnaning farzandini asrashi kabi epizodlarni animatsiya yoki slayd-shouda ko'rsatish badiiy tafakkurni kuchaytiradi. "Ohu" she'ri odatda insonning ichki kechinmalarini ohu obrazida aks ettiradi. Audio o'qish, fon musiqasi, jonli effektlardan foydalanish kayfiyatni aniq tasavvur qildirishga yordam beradi. Raqamli jadval (Padlet, Miro) orqali ikki she'rning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish o'quvchining analitik tafakkurini rivojlantiradi.

Quizz yoki LearningApps orqali tuzilgan testlar, bo'sh joylarni to'ldirish mashqlari, muqobil yakunlar yaratish, badiiy obrazlarni qayta ishlash kabi topshiriqlar yuksak natijalar berdi. Talaba o'zi quradigan multimedia loyiha (video sharh, audio talqin, grafik tahlil) orqali she'r mazmunini chuqur o'zlashtiradi.

Hamza Imonberdiyev ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, u tabiat obrazlari orqali murakkab ruhiy holatlar, ijtimoiy-ma'naviy g'oyalar va insoniy tuyg'ularni juda nafis, bolalarga ham, kattalarga ham ta'sir qiladigan tarzda ifodalay oladi. Shoirning "Turnalar" va "Ohu" she'rlari aynan ana shunday badiiy va ma'naviy qatlamlarga egaligi bilan ahamiyatli bo'lib, ularni zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli vositalar orqali o'qitish ilmiy-uslubiy jihatdan yuksak samaradorlik beradi.

Avvalo, "Turnalar" she'rining poetik strukturasini tahlil qilganda, undagi dramatik voqelik – bo'ron, turnalar safi, ona turnaning xavotiri va bolasini himoya qilishga bo'lgan intilishi she'rning asosiy emotsional yadrosini tashkil etadi. Turnalar odatda birdamlik, vaqtning o'tishi, uzoq masofalarga intilish, umid kabi ramziy ma'nolarga ega bo'ladi. Shoir aynan mana shu tabiat jonzoti orqali o'zining tarbiyaviy va falsafiy g'oyalarini ko'rsatadi. She'rda bo'ron – hayot sinovi, xavf; ona turnaning bolasini asrashga urinishi esa insonning o'z yaqinlarini himoya qilish instinkti sifatida talqin qilinishi mumkin. Mazkur she'rda vaqt o'tishi, yo'lning davomiyligi, birdamlikning ahamiyati, kuch va jasorat g'oyalari ustuvordir.

Shuningdek, dramatik manzara – kuchli bo'ronning turnalar safini buzib yuborishi – jamoaning birligi qanchalik muhimligini eslatadi. Ona turnaning turnachasi uchun qayg'urishi esa ona mehrining oliy namunasi sifatida tasvirlanadi. Bu yerda bolalar adabiyoti uchun juda muhim bo'lgan hissiy tarbiya, mehr-muhabbat, g'amxo'rlik kabi fazilatlar badiiy obrazlar vositasida chuqur anglatiladi. She'rning badiiy vositalari – takrorlar, jonsiz narsalarning jonlantirilishi, personifikatsiya, poetik metaforalar – matnning estetik qiymatini belgilaydi va raqamli vositalar orqali o'qitilganda ushbu badiiy qatlamlar ancha yorqin ochiladi.

"Ohu" she'ri mazmunan boshqacha yo'nalishga ega. Unda shoir ohu timsolidan foydalanib, insonning nozik hissiyotlari, ichki iztiroblari, ruhiy izlanishlari, qo'rquvi, yolg'izligi va najot izlash kabi psixologik holatlarni aks ettiradi. Ohu – sharq adabiyotida azaldan noziklik, poklik, iztirob, himoyasizlik ramzi sifatida kelgan. Imonberdiyev ham aynan shu ramziy ma'nodan foydalanib, lirik-falsafiy she'r yaratadi.

Bu she'r voqeiy emas, balki ruhiy-metaforik tabiatga ega. Unda kitobxonga biror syujet emas, balki ichki kechinma yetkaziladi. Ohu timsoli tabiat bilan uyg'un holda berilib, inson va tabiat o'rtasidagi ruhiy aloqani eslatadi. She'rda qo'rquv, xavotir, noziklik, umidsizlik, ammo bir vaqtning o'zida qochish, najot izlash, erkinlikka intilish motivlari mujassamdir. Bu jihatlar aynan raqamli media orqali o'qitilganda yanada chuqurroq idrok etiladi, chunki audio-vizual effektlar ohuning kayfiyatini, titroq ovoz ohangini yoki tabiatning sokin, biroq xavfli muhitini jonli tasvirlash imkonini beradi.

Ikkala she'rning o'xshashliklari ham, farqlari ham ilmiy nuqtai nazardan turib tahlil qilinsa, o'qitish jarayonida ularni birgalikda o'rganish ta'limiy samarani ancha oshiradi. Ularning asosiy mushtarak jihati – tabiat obrazlaridan foydalanib, tuyg'ularni poetik ifodalashdir. Turna obrazida mehr, birdamlik, ogohlik ifodalansa, ohu obrazida noziklik, iztirob, ruhiy izlanish ifodalanadi. Har ikki she'rda dramatik kayfiyat mavjud: "Turnalar"da bo'ronning tahdidi; "Ohu"da esa ichki qo'rquvning hukmronligi.

Farqli jihatlari esa shundaki, "Turnalar" voqeiy syujetga ega bo'lgan dramatik she'r bo'lsa, "Ohu" ruhiy kechinmalarni tasvirlovchi lirik-falsafiy she'rdir. "Turnalar"da jamoaviylik, birdamlik ustun bo'lsa, "Ohu" she'rida yakka shaxsning kechinmalari markazda turadi. "Turnalar" da ona-bola munosabatlari tarbiyaviy o'q tashlasa, "Ohu" she'rida insonning ichki olami va hissiyati haqida mulohaza qilish birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu she'rlarni raqamli platformalar orqali o'qitish masalasi ham tahlilning muhim qismidir. Raqamli vositalarning adabiyot o'qitishdagi o'rni bugungi kunda sezilarli darajada oshdi. Xususan, "Turnalar" she'rini o'qitishda bo'ron manzarasini animatsion grafikalar orqali jonlantirish o'quvchilar ongida she'rning obrazini kuchaytiradi. Turnalarning uchish manzarasini 3D animatsiya yoki videotasvirlardan foydalanib ko'rsatish poetik obrazlarni intuitiv tarzda idrok etishga yordam beradi. Ona tumanning xavotirga to'la nigohi yoki bo'ron paytidagi shovqin effektlari she'rni ko'ngilga yaqinlashtiradi.

"Ohu" she'rini o'qitishda sokin tabiat manzaralari, ohu harakatini tasvirlovchi videolar, yumshoq fon musiqasi, professional diktor o'qishi orqali yaratilgan audio talqin — bularning barchasi o'quvchida ichki holatni sezish, his qilish, she'r kayfiyatini yurakdan idrok etish imkonini beradi. Shuningdek, interaktiv savollar, onlayn taqqoslash jadvallari, virtual tabiat sayohatlaridan foydalanish poetik tafakkurni mustahkamlaydi.

Raqamli vositalar she'rni chuqur tahlil qilishda ilmiy yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini ham kengaytiradi. Misol uchun, kompozitsion tahlil, semantik maydon tahlili, obrazlar tizimi tahlili, psixologik tahlil kabi ilmiy metodlar grafiklar orqali ko'rsatilsa, o'quvchilarda mavzuni chuqur tushunish jarayoni yanada tezlashadi. Bundan tashqari, multimedia taqdimotlar orqali she'rning faktik, hissiy va ramziy qatlamlarini bosqichma-bosqich ochish o'quv jarayonining sifatini oshiradi.

Hamza Imonberdiyevning "Turnalar" va "Ohu" she'rlari yuqori badiiy qiymatga ega bo'lib, ularni raqamli vositalar yordamida o'qitish adabiy ta'lim samaradorligini sezilarli oshiradi. Raqamli texnologiyalar poetik matnni jonlantiradi, obrazlarni vizual ravishda yaqqol ko'rsatadi, o'quvchilarda tahliliy va ijodiy kompetensiyalarni kuchaytiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, multimediya, interaktiv platformalar, animatsiyalar va virtual kuzatuvlar she'r mazmunini chuqur o'zlashtirish, badiiy tafakkurni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. Ta'lim jarayonida ushbu metodlardan keng foydalanish zamonaviy adabiy ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Bolalar adabiyoti asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Tursunov S., Qodirova M. Adabiy tahlil metodlari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdullayeva N. Raqamli pedagogika asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
4. Raxmatullayev A. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
5. Hasanov Sh. Adabiyot darslarida zamonaviy metodlar. – Qarshi: QDPU, 2016.
6. Karimova F. Raqamli o'qitishning psixologik asoslari. – Farg'ona: FDU, 2022.
7. Ismatova Z. Poetika va badiiy obraz. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2018.
8. Hamza Imonberdiyev. Turnalar. – Toshkent: Cho'lpon, 1989.

Sultanbek DAVLETMURATOV,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti qishki va murakkab-texnik sport turlari nazariyasi va uslubiyati kafedrasi professori

YUKLAMALAR TUZILISHINI ASOSLASH VA TAYYORGARLIK DAVRINI TASHKIL ETISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada yillik siklning tayyorgarlik davrida futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tashkil etish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mahalliy va xorijiy ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, musobaqa natijalarining samaradorligi ko'p jihatdan aynan shu bosqichda mashg'ulot yuklamalarini rejalashtirish va amalga oshirish sifati bilan belgilanadi. O'zbekiston futbol jamoalari amaliyotida

yuklamalar hajmi va shiddati nisbatida nomutanosibliklar, turli yo'nalishdagi va koordinatsion murakkablikdagi vositalarni taqsimlashda ratsionallikning pastligi futbolchilarning texnik-taktik harakatlari va tezlik sifatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Kalit so'zlar: tayyorgarlik davri, mashg'ulot yuklamalari, alaktat va glikolitik yuklamalar, koordinatsion murakkablik, o'quv-mashg'ulot jarayoni, mikrotsikl, yuklama dinamikasi, sport tayyorgarligi.

Annotation. The article examines the specifics of organizing the training process for football players during the preparatory period of the annual cycle. Analysis of domestic and foreign scientific and methodological literature has shown that the effectiveness of competitive results is largely determined by the quality of planning and implementing training loads at this stage. It has been revealed that in the practice of Uzbekistan's football teams, discrepancies in the ratio of volume and intensity of loads, low rationality in the distribution of resources of various directions and coordination complexity are observed, which negatively affects the technical-tactical activity and speed qualities of the players.

Keywords: football players, preparatory period, volume and intensity, alactatic and glycolytic loads, coordination complexity, training process, microcycle, load dynamics, sports training.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности организации учебно-тренировочного процесса футболистов в подготовительном периоде годичного цикла. Анализ отечественной и зарубежной научно-методической литературы показал, что эффективность соревновательных результатов во многом определяется качеством планирования и реализации тренировочных нагрузок именно на данном этапе. Выявлено, что в практике футбольных команд Узбекистана наблюдаются несоответствия в соотношении объёма и интенсивности нагрузок, низкая рациональность распределения средств различной направленности и координационной сложности, что отрицательно влияет на технико-тактическую деятельность и скоростные качества игроков.

Ключевые слова: футболисты, подготовительный период, объем и интенсивность, алактатные и гликолитические нагрузки, координационная сложность, учебно-тренировочный процесс, микроцикл, динамика нагрузки, спортивная подготовка.

Bir qator adabiyotlarda keltirilgan materiallarni tahlil qilish natijasi shuni ko'rsatdiki, futbolchilar tayyorgarlik davrida eng ko'p mashg'ulot ishlarini bajaradilar va musobaqalardagi natijalar ko'p jihatdan ushbu davrdagi o'quv-mashg'ulot jarayonining samaradorligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan tayyorgarlik davri bosqichlarida tayyorgarlikni tashkil etish va ularning mohiyati aniqlash masalalari juda muhim. Biroq o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston ustalari jamoalarini tayyorlashda hajm va intensivlikning optimal nisbati, turli kattaliklarning kombinatsiyasi va ularning ixtisoslashuvi, shuningdek, turli ustuvor yo'nalishdagi yuklamalarning nisbati va ularni qo'llash ketma-ketligi bilan bog'liq masalalar ratsional hal qilinmagan. Bu musobaqa faoliyatining past ko'rsatkichlariga, ayniqsa, maksimal jismoniy kuch talab qiladigan ko'plab texnik-taktik harakatlarning yetarli darajada samarali emasligiga sabab bo'ladi. Xorijiy futbolchilarga nisbatan o'yinlardagi harakat faolligi ko'rsatkichlari, ayniqsa, tezlik yetarli emas.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ilmiy-uslubiy adabiyotlarda malakali futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayonini tuzish bo'yicha ko'rib chiqilgan ishlar mavjud. Biroq yuklamalarning yo'nalishi, ixtisoslashuvi va koordinatsion murakkabligi bo'yicha ratsional nisbati bilan bog'liq bir qator masalalar yetarli darajada o'rganilmagan va ba'zi masalalar zamonaviy futbolning rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'zgartirishni talab qiladi. Tayyorgarlik davrida optimal rejalashtirilgan va shunga muvofiq amalga oshirilgan futbolchilarni tayyorlash dasturi ko'p jihatdan jamoaning 7–8 oylik musobaqa davridagi muvaffaqiyatini belgilaydi. O'quv-mashg'ulot jarayonining tuzilishini tahlil qilish orqali sport o'yinlari va futbol bo'yicha, xususan, uslubiy tavsiyalarda taklif qilingan ma'lumotlarga nisbatan yuklamalarning optimal bo'lmagan nisbatlari aniqlandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz 2024-yilda jamoalarda pedagogik tajribalar o'tkazdik. Tayyorgarlik davri boshlanishidan oldin jamoa murabbiylari bilan hamkorlikda M.A.Godik va R.A.Akramovning uslubiy tavsiyalari asosida dastur ishlab chiqildi. Ushbu dastur avvalo quyidagi talablarni nazarda tutgan: tayyorgarlik davrining birinchi bosqichida bir vaqtning o'zida yuklamalarning ham hajmi, ham shiddati ortib borgan, bunda hajmning o'sishi kuzatilgan. Ikkinchi bosqichda yuklamalar miqdori o'sishda davom etdi, ammo endi bu mashqlar shiddatining oshishi hisobiga sodir bo'ldi, bu esa ularning tezligi ortishida namoyon bo'ldi. Shiddat o'sishi bilan yuklamalarning umumiy hajmi dastlab barqarorlashdi, davrning oxiriga kelib esa kamaydi. Ayniqsa davrning o'rtasi va oxirida katta yuklamalarga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, alaktat va glikolitik yo'nalishdagi mashqlar nisbati oshirildi.

Tortuvchi va umumiy tayyorgarlik bosqichlarida ixtisoslashgan yuklamalar foizi kamaytirildi va nospetsifik yuklamalar foizi oshirildi. Chunki ixtisoslashtirilmagan mashqlarda yuklamalar yo'nalishiga samaraliroq ta'sir ko'rsatish mumkin. Maxsus yuklamalarning koordinatsion murakkabligiga kelsak, u oldingi mavsumdan farqli o'laroq, maxsus tayyorgarlik bosqichining oxiriga kelib eng yuqori darajaga yetdi. Bajarilgan yuklamalarni nazorat qilish va tahlil qilish taklif etilgan sxema bo'yicha amalga oshirildi.



1-rasm. Taklif etilgan mashg'ulot soni bo'yicha yuklamalar hajmi dinamikasi.

Rasmdan ko'rinib turibdiki, haftalik mikrotsikllardagi mashg'ulotlar sonining taklif etilgan dinamikasi mavjud dinamikadan farq qiladi. Birinchidan, mashg'ulotlar soni biroz oshirildi. Masalan, dekabr oyida mashg'ulotlar soni 32 tadan 35 taga ko'paygan bo'lsa, yanvar oyida 42 tadan 50 taga, fevral oyida esa 48 tadan 52 taga ko'paygan. Umumiy davrda – 78 mashg'ulot kunida 122 dan 137 gacha mashg'ulotlar soni oshirildi.

2-rasmda mashg'ulot vaqti bo'yicha yuklamalar hajmining taklif etilgan dinamikasi keltirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, u asosan mashg'ulotlar soni dinamikasi bilan mos keladi. Biroq, ba'zi o'xshash bo'lmagan holatlar ham mavjud. Masalan, agar 1-mikrotsikldan 4-mikrotsiklgacha vaqt hajmi asta-sekin oshsa, 4-mikrotsikldan 7-mikrotsiklgacha maxsus tayyorgarlik bosqichiga o'tish bilan u keskin oshadi va haftasiga 1400–1500 daqiqagacha yetadi. Maxsus tayyorgarlik bosqichi oxiriga kelib, rasmiy o'yinlarga yaqin

vaqt oralig'ida vaqt hajmi asta-sekin pasaytiriladi (10-12 MO'M) va 1300 daqiqaga tushiriladi. Bunga sabab, tayyorgarlik davrining yakuniy haftalik mikrotsikli musobaqa mikrotsikli kabi o'tkaziladi, shu sababli mashg'ulotlar vaqti qisqaradi. Shuning uchun tayyorgarlik davrida mashg'ulotlar soni bo'yicha ham, vaqt bo'yicha ham mashg'ulot yuklamalari hajmining umumiy dinamikasi shiddatning tez o'sishi va keyinchalik barqarorlashuvi, so'ngra uning pasayishi bilan tavsiflanadi.



2-rasm. Mashg'ulotlarni o'tkazish vaqti bo'yicha yuklamalar hajmining taklif etilgan dinamikasi

3-rasmda taklif etilgan turli kattalikdagi yuklamalar dinamikasining nisbati ko'rsatilgan. Birinchi va ikkinchi mikrotsikllarda katta yuklamali mashg'ulotlarning foizi atigi 10-15% ni tashkil etadi. Keyin u sikldan siklga asta-sekin oshib boradi va umumiy tayyorgarlik bosqichining oxiriga kelib eng yuqori darajaga (40%) yetadi. Katta yuklamalarning 35-40% oralig'idagi yetarlicha yuqori darajasi 5 dan 10 mikrotsiklgacha stabil saqlanadi. Musobaqa davriga yaqin katta yuklamalar kamaytiriladi (11 va 12 mikrotsikllar). Umuman olganda, butun davr davomida katta yuklamalarning nisbati taxminan bir xil bo'lib, birinchi holatda 28,3% va ikkinchi holatda 29,1% ni tashkil etdi.



3-rasm. Tayyorgarlik davrining haftalik mikrotsikllarida taklif etilgan turli kattalikdagi yuklamalar dinamikasining nisbati

Ushbu holatda aynan tayyorgarlik davrida chidamlilikning har xil turlarini takomillashtirishda to'liq bo'lmagan tiklanish fonida mashg'ulot o'tkazish maqsadga muvofiq ekanligidan kelib chiqish mumkin. O'rtacha mashg'ulot yuklamalarining ulushi biroz pasayadi va butun davrda 30% dan 50% gacha o'zgarib turadi. Kichik yuklamali trenirovka mashg'ulotlar boshida, tortuvchi siklda va oxirida rejalashtirilgan kalendar musobaqalari oldidan mavjud bo'ladi.

Futbolchilarning o'quv-mashg'ulot jarayoni tuzilmasining tahlili O'zbekiston jamoalarida qo'llaniladigan yuklama sxemalarida, ayniqsa, hajm va shiddat nisbati, turli yo'nalishdagi va koordinatsion murakkablik darajasidagi mashqlarni ratsional taqsimlashda sezilarli kamchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Ushbu omillar musobaqa faoliyatining yetarlicha samarador emasligi va tezlik tavsiflarining xorijiy futbolchilarga nisbatan orqada qolishining sabablaridan biriga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе: уч. пос. Т.: Абу Али Ибн Сино, 2000.
2. Акрамов Р., Тихонов В., Нуримов Р. Планирование и организация учебно-тренировочного процесса высококвалифицированных футболистов: метод. рекомендации. Т., 1997.
3. Аладашвили Г.А. Прыжковая подготовленность футболистов и методика ее оценки: автореф. дис. ... канд.пед.наук. М.: РГАФК, 1999.
4. Байрбеков М.Г. Педагогический контроль специализированных нагрузок прыжковой направленности волейболистов высшей квалификации в соревновательном периоде и прыжковой деятельности: автореф. дис. ... канд.пед.наук. Т., 2002.
5. Бакиев М.О. Методика этапного программирования тренировочных нагрузок у высококвалифицированных футболистов в годичном цикле: автореф. дис. ... канд.пед.наук. М., 1990.

Fotima XAMIDULLAYEVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

GAPIRISH KO'NIKMASINING PSIXOLINGVISTIKA BILAN BOG'LIQLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada gapirish ko'nikmasining til o'rganish jarayonidagi murakkabligi psixolingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Chet tili sifatida o'zbek tilini o'rgatishda gapirishni shakllantirishni izohlovchi asosiy psixolingvistik jarayonlar – nutqni rejalashtirish, kodlash, artikulyatsiya, monitoring, avtomatlashtirish kabi omillar ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: gapirish ko'nikmasi, psixolingvistika, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, chet tili sifatida o'qitish, kodlash, ikkinchi til.

Annotation. This article analyzes the complexity of developing speaking skills in the language learning process from a psycholinguistic perspective. In teaching Uzbek as a foreign language, the main psycholinguistic processes that explain the formation of speaking skills – such as speech planning, encoding, articulation, monitoring, and automatization – are examined based on scholarly sources.

Keywords: speaking skills, psycholinguistics, oral speech, communicative competence, teaching as a foreign language, coding, second language.

Аннотация. В данной статье сложность формирования навыка говорения в процессе изучения языка анализируется с позиций психолингвистики. В обучении узбекскому языку как иностранному освещаются основные психолингвистические процессы, объясняющие формирование говорения, такие как планирование речи, кодирование, артикуляция, мониторинг и автоматизация, на основе научных источников.

Ключевые слова: говорение, психолингвистика, устная речь, коммуникативная компетентность, преподавание иностранного языка, кодирование, второй язык.

Bugungi globallashuv jarayonida o'zbek tilini chet tili sifatida o'rgatish masalasi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bu ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasida fikr yoki ma'lumotni ifodalash faoliyatidir. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rgatishdan maqsad nafaqat o'rganuvchilarning 4 ta ko'nikma bo'yicha (gapirish, o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish savodxonligi) til egallashlarini ta'minlash, balki o'zbek madaniyatiga olib kirish, milliy qadriyatlarimiz bilan yanada yaqindan tanishtirishdir.

Til o'rganishda gapirish ko'nikmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Nutqdagi muloqot odatda yuzma–yuz amalga oshiriladi. Nutq faoliyatida tana tilidan foydalanish ham tinglovchilarga mo'ljallangan xabarni tushunishga yordam beradi. Nutq mahorati o'rganuvchilarning fikrlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Hozirgi vaqtda til o'zlashtirish borasidagi eng asosiy duch keladigan muammolardan biri gapirish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Ikkinchi tilda yoki xorijiy tilda gapirish ko'nikmasini o'rgatish, ko'pincha, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xorijiy o'rganuvchilar turli xil bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari va tengdoshlari, o'qituvchilari yoki boshqa ona tilida so'zlashuvchilar bilan og'zaki muloqot qilishda ularni real vaqtda muvofiqlashtirishlari kerak. Ular nafaqat grammatika, lug'at va talaffuz bo'yicha asosiy bilimlarni (rasmiy yoki norasmiy sharoitlarda odamlar bilan qanday muloqot qilish, o'tmishdagi voqea haqida qanday qilib gapirish, notanishlarga ko'rsatmalar berish va akademik muhitda qanday nutq so'zlash), balki bu bilimlarni turli xil muloqot maqsadlarida ishlatish ko'nikmalarini ham bilishlari kerak.

Gumbold psixolingvistikaning asoschisi sifatida nutq faoliyati goyasini shakllantirdi, tilni jamiyat va shaxs o'rtasidagi "bog'lovchi" sifatida ko'rib chiqdi, bu esa psixolingvistik g'oyalarning asosini tashkil etdi [9: 78].

Vigotskiy til va tafakkur o'rtasidagi murakkab psixologik jarayonlarni birinchi bo'lib tizimli ravishda ilmiy asosda tahlil qilgan. Uning asari psixolingvistikaning fundamental manbai hisoblanadi:

– gapirish **ichki nutq va tashqi nutq** transformatsiyasidan iborat psixik jarayon;

– nutq ishlab chiqarish (speech production) – psixik faoliyatning eng murakkab ko'rinishi;

– gapirish jarayonida diqqat, xotira, motivatsiya, fikrni rejalashtirish va konseptualizatsiya bir vaqtning o'zida ishga tushishini tahlil qilgan [8: 95–96].

Psixolingvistika og'zaki nutqni inson ongida kechadigan kodlash, rejalashtirish, verbalizatsiya va monitoring jarayonlari sifatida izohlaydi. Levelt tomonidan ishlab chiqilgan "Nutq ishlab chiqarish modeli" bu jarayonning eng mukammal nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, gapirish uch bosqichda kichadi [6: 45–46]:

Konseptualizatsiya – aytiladigan mazmunni rejalashtirish.

Formulyatsiya – grammatik modelni tanlash va til birliklarini kodlash.

Artikulyatsiya – tovushlarni ishlab chiqarish jarayoni.

Nutq ishlab chiqarishning bu modeli chet tilida gapirishning murakkabligini ilmiy asoslaydi: o'rganuvchi bir vaqtning o'zida lug'at, grammatik shakllar, talaffuz, pragmatika va muloqot strategiyalarini boshqarishi kerak.

Bygate gapirishni "Spontan (to'satdan) va real vaqt talab qiladigan, yuqori darajada avtomatlashtirilgan ko'nikma" deb ta'riflaydi [2: 85]. Unga ko'ra, gapirish nafaqat lingvistik bilim, balki muloqot vaziyatini boshqarish va mazmunga mos til birligini tez topishni talab qilishini ta'kidlagan. Gower, Phillips, Walters og'zaki nutqni o'rgatishda talaffuz, ravonlik, interaktiv qobiliyat uchligi muhimligini ta'kidlaydi. Ular gapirishni faol jarayon, ya'ni o'rganuvchi nutqni ishlab chiqaruvchi sifatida maydonga chiqadigan jarayon deb baholaydi [5: 95–96]. Richards & Newton og'zaki nutqni o'rganishni kognitiv yuklama (processing load) bilan izohlaydi. Ularning fikricha, o'rganuvchi chet tilida gapirayotganda miyaga katta yuk tushadi: u so'z topadi, grammatikani moslaydi, talaffuzni nazorat qiladi va muloqot sharoitiga mos pragmatik qarorlar qabul qiladi. Anne Burns ham gapirishni "murakkab ijtimoiy va psixik jarayon" deb ta'riflaydi va uni muloqot konteksti bilan bog'laydi [7: 123]. Goh esa gapirishni **metakognitiv jarayon** sifatida ko'radi: o'rganuvchi nutq jarayonida o'z natijasini baholaydi, fikr oqimini boshqaradi va xatolaroni ongli kuzatadi [1: 122].

Vazifaga asoslangan o'qitish nazariyasiga ko'ra, gapirish eng samarali tarzda real kommunikativ vazifalar orqali rivojlanadi [3: 95]. Ular quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

– o'quvchi real hayotdagi muloqot vaziyatiga yaqin sharoitda gapiradi;

– maqsad – tilni emas, vazifani bajarish (muammoni yechish, fikr bildirish, kelishuvga erishish);

– nutq tabiiy ravishda shakllanadi;

– ravonlik birinchi o'ringa qo'yiladi, aniqlik esa jarayon davomida shakllanadi.

Bu yondashuv psixolingvistika bilan bevosita bog'liq, chunki insonga tabiiy vazifalar berilganda u nutq ishlab chiqarishni avtomatlashtiradi.

Fulcher gapirishni baholash jarayonida psixolingvistik omillarning ahamiyatini ko'rsatadi [4: 65–66]. Uning tahliliga ko'ra, og'zaki nutq testlarini tuzishda quyidagi psixik jarayonlar hisobga olinishi kerak:

– real vaqt (real–time processing);

– nutqning ma'nodorliligi;

– fikrlash tezligi;

– xotira va lug'at chaqirish mexanizmlari;

– dialog jarayonidagi o'zaro ta'sir.

Fulcher gapirishni baholashda oddiy "grammatika + so'z boyligi" bilan o'lchash xato ekanini tanqid qiladi va nutqni integral psixolingvistik kompetensiya sifatida baholashni taklif qiladi.

Rus psixolingvistika maktabida esa nutq ishlab chiqarish nazariyasiga katta hissa qo'shgan olimlaridan Luriya nutqni bosh miya faoliyatining murakkab psixofiziologik tizimi sifatida talqin qilgan bolsa [11: 45], Leontyev nutq faoliyatini motiv, maqsad, amalga oshirish bosqichlariga bo'ladi [10:75].

Vygotskiy nutq va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlagan, bu esa bugungi kommunikativ metodikaning asosiga aylangan [8: 101–102] . Bu qarashlar chet tilida gapirishni o'rgatishda psixologik tayyorgarlik, motivatsiya va nutq faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Gapirish ko'nikmasi psixolingvistikaning markaziy obyektlaridan biri bo'lib, u inson ongida kechadigan murakkab kognitiv jarayonlarga tayanadi. Og'zaki nutqning murakkabligi turli olimlar – Bygate, Goh, Richards, Newton, Levelt, Fulcher va boshqalar tomonidan izchil ilmiy asoslab berilgan. Shuning uchun chet tilida gapirishni o'rgatish metodikasi har doim psixolingvistik nazariyalar bilan uyg'un bo'lishi va asoslanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burns A., Goh C.C.M. Teaching Speaking: A Holistic Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
2. Bygate M. Speaking. – Oxford: Oxford University Press, 1987.
3. Ellis R. Task–Based Language Learning and Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 2003.
4. Fulcher G. Testing Second Language Speaking. – London: Pearson Education, 2003.
5. Gower R., Phillips, D., Walters S. Teaching Practice: A Handbook for Teachers in Training. – Oxford: Heinemann, 1995.
6. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. – Neyw York: MIT Press, 1989.
7. Richards J.C., Newton J. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.

Райхан АЛЕУОВА,
доцент кафедры «Дошкольное образование»
Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

ГОТОВНОСТЬ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация. В статье рассматривается структура готовности будущих педагогов дошкольного образования к инновационной деятельности и обосновывается проектировочный компонент как один из наиболее значимых в структуре инновационной деятельности педагога.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, креативность, целеустремленность, инновационная деятельность, проектирование.

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarining innovatsion faoliyatga tayyorligi tuzilmasi ko'rib chiqilgan va loyihalash komponenti pedagogning innovatsion faoliyati tuzilmasida eng muhimlaridan biri sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: professional kompetensiya, kreativlik, maqsadga intiluvchanlik, innovatsion faoliyat, loyihalash.

Annotation. The article examines the structure of readiness of future preschool teachers for innovative activities and the justification of the design component as one of the most significant in the structure of innovative activities of a teacher.

Keywords: professional competence, creativity, determination, innovation, design.

Система дошкольного образования осуществляет поиск качественно новых подходов к организации дошкольного образования на основе сбережения здоровья, развивающего проблемно-игрового обучения, личностно-ориентированного подхода. Успешность реализации инновационных процессов в дошкольном образовании зависит от восприимчивости педагогов к новым идеям, их готовности и способности к поддержке и реализации новшеств в контексте профессиональной деятельности. На современном этапе развития дошкольного образования инновационная деятельность – один из важнейших компонентов профессиональной компетентности педагога [1], что обусловливает рост требований к подготовке педагога дошкольного образования, который должен владеть психолого-педагогическими знаниями, профессиональными умениями и такими личностными качествами, как креативность, адаптивность, критичность мышления, самостоятельность в принятии решений, целеустремленность, способность к профессиональному росту.

Для успешной профессиональной деятельности педагогу необходимо уметь проектировать образовательный процесс, эффективно использовать современные информационные технологии, создавать для детей условия, наиболее полно раскрывающие их наклонности и способности, способствующие достижению высокого качества и результативности обучения. Соответственно возникает задача формировать готовность будущего педагога дошкольного образования к инновационной деятельности на основе проектного обучения. Проектная инновационно-исследовательская деятельность педагогов формирует у них способность решать комплексные проблемы в области педагогики, переосмысливать имеющиеся и создавать новые целостные решения. В педагогике активно исследуются различные аспекты подготовки педагогов к инновационной деятельности, в частности формирование готовности учителей к инновационной педагогической деятельности в процессе профессиональной подготовки; подготовка будущих воспитателей дошкольных учреждений к инновационной педагогической деятельности [2].

Готовность педагога к инновационной деятельности ученые рассматривают как интегративное качество личности, что является регулятором и условием успешной профессиональной деятельности, направленной на создание, внедрение и распространение образовательных новаций; устойчивое новообразование в структуре личности студента. Признаками инновационной деятельности педагога дошкольного образования является осознание новых целей и задач дошкольного образования, овладение системой знаний по развитию личности ребенка дошкольного возраста, умение разрабатывать новое содержание дошкольного образования, новых форм, методов и технологий обучения и воспитания детей, способность создавать инновационную образовательную среду в системе дошкольного образования, направленность инновационной деятельности на сохранение и укрепление физического и психического здоровья детей. Поэтому подготовка будущего педагога к инновационной деятельности должна заключаться в актуализации личностных качеств и творческих способностей последнего, мотивирующих его

на сознательное профессиональное развитие и создание педагогических новшеств в дошкольном образовании. Большинство исследователей выделяют в структуре инновационной деятельности педагога проектировочный компонент как наиболее значимый, обеспечивающий технологизацию педагогического процесса, определяющий его эффективность [3].

Проектирование – это способность намечать, определять план действий, конструировать, планировать и осуществлять замысел, намерение, это создание прототипа, прообраза предполагаемого объекта. Обобщенную логику проектирования можно представить следующим образом: смысловое пространство – выбор темы – замысел – идея – цель – план (программа действий) – задача – выбор методов, форм – ресурсы – результат.

Учитывая подходы современных ученых к обоснованию критериев готовности будущих педагогов к инновационной деятельности и структуре проектировочной компетентности педагога, нами выделены следующие компоненты готовности будущих педагогов дошкольного образования к инновационной деятельности: ценностно-мотивационный, информационно-когнитивный, профессионально-деятельностный.

Ценностно-мотивационный компонент определяется следующими показателями: ценностное отношение педагога к инновациям, познавательный интерес к их поиску и творческое овладение инновациями через процесс проектирования, осознанная потребность в разработке и реализации проектов как способу инновационной деятельности, наличие высокого уровня восприимчивости к нововведениям, стремление к успеху в профессиональной деятельности.

Информационно-когнитивный компонент отображает следующие показатели: знание о сути и специфике инноваций, их видах и признаках, знание особенностей педагогического проектирования и логики построения его этапов, знание ИК-технологий, профессиональных инноваций и особенностей инновационной деятельности педагога дошкольного образования.

Деятельностно-творческий компонент отражает исследовательские, проектировочные, организационно-коммуникативные умения педагога по созданию, оценке, освоению и внедрению педагогических инноваций и определяется следующими показателями: способностью планировать образовательный процесс в соответствии с целями обучения, умением находить нестандартные решения педагогических задач, психологическими закономерностями, оптимальными условиями, конструировать проект в соответствии с логикой построения его этапов (выбирать оптимальные методы и электронные средства обучения, формы работы, учебный материал), прогнозировать результаты проектирования, творчески подходить к реализации педагогического процесса.

Профессионально-рефлексивный компонент отражает сформированность рефлексивных умений осуществления самоанализа и анализа деятельности других, саморегуляции и самоконтроля, самооценки личных достижений в инновационной деятельности, осознания и оценивания деятельности других.

Научный анализ проблемы формирования готовности будущих педагогов дошкольного образования к инновационной деятельности на основе проектного обучения позволил прийти к выводу о том, что проектное обучение помогает развивать у будущих педагогов профессиональные потребности и интересы, знакомить со спецификой инновационной проектной деятельности, вызывать потребность в глубоком и полном приеме средств обучения и воспитания дошкольников.

Литература

1. Юсуфбекова Н.Р. Общие основы педагогической инноватики: опыт разработки теории инновационных процессов в образовании. М., 1991.
2. Сластенин В.А. и др. Педагогика. М., 2002.
3. Чумичева Р.М. Управление дошкольным образованием. М., 2011.

Жулдыз ДАРМЕНБАЕВА,
воспитатель Дошкольной образовательной организации №10 Нукусского района

ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УМЕНИЙ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В статье *рассматриваются особенности использования детской современной книги-картинки родителями и педагогами ДОО с целью развития коммуникативной компетентности детей дошкольного возраста.*
Ключевые слова: искусственный интеллект, коммуникативная компетентность, коммуникация, народные сказки.
Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari tomonidan zamonaviy rasmli kitoblardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.
Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kommunikativ kompetensiya, muloqot, xalq ertaklari.
Annotation. The article examines the features of the use of modern children's picture books by parents and teachers of preschool educational organizations in order to develop the communicative competence of preschoolers.
Keywords: artificial intelligence, communicative competence, communication, folk tales.

Современный мир стремительно меняется благодаря значительным достижениям в научно-технической сфере, однако вопрос развития личности, ее возможностей, способности коммуницировать, четко, правильно и понятно выражать собственное мнение было, является и будет ключевым, своеобразным фундаментом, на который опирается человеческая цивилизация. Всё чаще в средствах массовой информации появляются сообщения о грядущем кризисе человечества, связанном с ценностными ориентирами, что обусловливает реформирования образовательной системы. Образование открывает перед человеком широкий круг возможностей, обеспечивает потребность в достойном существовании. Сегодня уже не секрет, что искусственный интеллект заменит людей во

многих областях, однако машина не способна сделать того, что может человек: не может коммуницировать, выражать собственные мысли, рождать новые идеи – она может только их применять.

Именно поэтому мы должны учить детей быть непохожими на других, креативными и конструктивными, сосредоточиться на воспитании человека, который должен изменить мир, станет носителем общих ценностей и может их задекларировать. Итак, миссия каждого педагога – формирование ценностей, умения коммуницировать у каждого ребенка. Благодаря процессу коммуникации людей, взаимодействию со словом мы можем формировать ценности будущих поколений. В этом случае незаменимым помощником каждого педагога становится художественная и научно-познавательная литература, значение которой состоит в воспитании детей и определении ценностных ориентиров общества.

Для детей дошкольного возраста наиболее типичны книги-картинки, которые «благодаря вербальной и визуальной синергии не только обогащают их читательский опыт, но и пробуждают любопытство, открывают новое, способствуют самоидентификации, развлекают или улыбаются, расслабляют или активируют фантазию». Ведущие ученые мира в вопросах современной детской литературы отмечают, что мы живем во время бурного развития книги-картинки, что побуждает к чтению и помогает нам формировать грамотных и упорных читателей. Разнообразие современных книг-картинок достаточно велико [1].

Научить дошкольника задавать вопросы, обсуждать увиденное и услышанное, корректно комментировать высказывания других собеседников, сопереживать, аргументировать, давать оценку, выражать рефлексивные впечатления, уметь «услышать» собеседника – это и есть формирование его коммуникативной компетентности, осуществляемое через разные подходы – компетентностный, личностно-ориентированный, творческий. Однако главным мы считаем деятельностный, ведь коммуникация обеспечивает и самостоятельную творческую активность личности, и личностное развитие индивида в целом.

Критериями оценки сформированности коммуникативной компетентности можно назвать способность ребенка успешно действовать в проблемных ситуациях и быстро адаптироваться в информационной среде. Показателями коммуникативной компетентности является свободное использование языковых и внеязыковых средств для общения в конкретных социально-бытовых ситуациях, умение ориентироваться в ситуации общения, инициативность во время общения. Следовательно, к вопросу формирования коммуникативной компетентности следует подходить комплексно, учитывая два вектора – психологический, рассматривающий коммуникацию как процесс взаимодействия между двумя и более личностями, и речевой, учитывающий умение человека свободно использовать в процессе общения как словесные, так и невербальные средства и работать в обоих направлениях с помощью книги [2].

Процесс коммуникации носит переменный характер, ведь круг людей, с которыми ребенок взаимодействует, постоянно расширяется, меняется, а на смену коммуникации, базирующейся на основе практических действий, приходит умственная деятельность. В процессе общения ребенок учится договариваться, планировать свою деятельность, у него формируется отношение к другим участникам образовательного процесса. И все эти особенности мы можем формировать с помощью произведений изобразительного искусства и иллюстративного материала, которыми насыщены книги-картинки. Процесс коммуникации доставляет удовольствие и радость, но чтобы упомянутые эмоции стали реальностью, воспитателю и родителям нужно целенаправленно работать над умением взаимодействовать. Ведь при общении детей дошкольного возраста мы часто наблюдаем чрезмерную эмоциональность, когда малыш восклицает определенные слова, фразы или, наоборот, шепотом говорит, потому что чувствует себя неуверенно.

Часто дети не могут выслушать мнение взрослого или сверстника, потому что им важнее выразить собственное. Малыши перебивают собеседника, рассказывают о своем, ответы последнего их не интересуют. Следовательно, дошкольный возраст сенситивен для формирования коммуникативной компетентности, способности взаимодействовать с партнером. Именно поэтому мы предлагаем более подробно исследовать образовательные возможности книги-картинки. Рассматривая привлекательную книгу, ребенок получает удовольствие от визуального изображения, цветов, которыми он насыщен, а еще от возможности встречи с небанальным, загадочным сюжетом, привлекательными и интересными персонажами. Часто они неповторимы, фантастичны или, наоборот, реальны, близки и понятны. Поэтому книга-картинка существует в разных жанрах и форматах – от алфавита, книги-концепта, исторической или современной прозы, фэнтези, народных сказок [3].

К современным книгам-картинкам можем отнести следующие виды: иммельбухи (книга по одной теме с большим количеством мелких рисунков), дудлинги (книга, содержащая картинку, состоящую из мелких элементов и которую можно раскрашивать), скетчбук (книга с заметками, в которой можно собственноручно нарисовать свою историю), сторибук (книга с иллюстрацией и минимальным использованием слов). Иногда книги-картинки содержат только визуальную составляющую (книги без слов), но бывает и так, что они содержат небольшой текст, один рассказ, стихотворение или новеллу.

Учитывая указанное выше, мы пришли к выводу, что способность ребенка свободно и легко строить личное общение с разными людьми и в различных жизненных ситуациях представляет собой коммуникативную компетентность, наилучшим образом формирующуюся на этапе дошкольного детства, а современная книга-картинка является эффективным средством его формирования.

Литература

1. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения. М., 2012.
2. Эльконин Д.Б. Психология игры. М., 2012.
3. Лисина М.И. Общение, личность и психика ребенка. М., 2001.

Зулфия КАРИМОВА,
старший преподаватель кафедры педагогики Университета Альфраганус

ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ГОТОВНОСТИ К РАЗВИТИЮ ПЕРЦЕПТИВНЫХ НАВЫКОВ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и современные педагогические технологии формирования готовности учащихся и будущих педагогов к развитию перцептивных навыков, раскрываются сущность перцептивных процессов, их значение в обучении, а также эффективные методические подходы по совершенствованию визуальной, аудиальной и пространственной перцепции, особое внимание уделяется использованию цифровых инструментов и инклюзивных технологий.

Ключевые слова: перцептивные навыки, сенсорное развитие, педагогические технологии, визуальная перцепция, аудиальная перцепция, пространственное восприятие, готовность, инклюзивное образование.

Annotatsiya. Maqolada talabalar va bo'lajak o'qituvchilarning perseptiv ko'nikmalarni rivojlantirishga tayyorligini shakllantirishning nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik texnologiyalari, perseptiv jarayonlarning mohiyati, ularning ta'limdagi ahamiyati, shuningdek, vizual, audial va fazoviy idrokni takomillashtirish bo'yicha samarali uslubiy yondashuvlar, raqamli vositalar va inklyuziv texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: perseptiv ko'nikmalar, sensor rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, vizual persepsiya, audial persepsiya, fazoviy idrok, tayyorlik, inklyuziv ta'lim.

Annotation. The article examines the theoretical foundations and modern pedagogical technologies for preparing students and future teachers to develop perceptual skills. It reveals the essence of perceptual processes, their significance in learning, and effective methodological approaches aimed at improving visual, auditory, and spatial perception. Special attention is given to the use of digital tools and inclusive technologies.

Keywords: perceptual skills, sensory development, pedagogical technologies, visual perception, auditory perception, spatial perception, readiness, inclusive education.

Перцепция – сложный психический процесс восприятия информации от внешней среды посредством органов чувств и её переработки центральной нервной системой. Перцептивные навыки играют ключевую роль в учебной деятельности: они определяют успешность чтения, письма, пространственной ориентации, формирования речевых и когнитивных функций.

Формирование готовности к развитию перцептивных навыков рассматривается как одно из приоритетных направлений современного образования, особенно в условиях инклюзивной практики. Готовность включает мотивационный, когнитивный, операционный и рефлексивный компоненты и обеспечивает эффективность коррекционно-развивающей работы.

Изучение перцептивных навыков у детей, включая детей с особенностями развития, получило широкое освещение в трудах отечественных и зарубежных учёных. Л.С.Выготский одним из первых показал, что восприятие ребёнка является социально обусловленным процессом и формируется в зоне ближайшего развития. Он подчёркивал, что у детей с отклонениями в развитии перцептивные функции могут развиваться компенсаторным путём при правильной педагогической организации [1, с. 312]. А.Р.Лурия заложил нейропсихологические основы изучения перцепции, разработав методики исследования зрительного гнозиса, слухового восприятия, фонематического слуха. Его труды стали основой диагностики перцептивных нарушений у детей с органическими и функциональными расстройствами [2, с. 120].

А.В.Запорожец исследовал сенсорное развитие и показал роль двигательной активности, ориентировочно-исследовательских действий и манипулятивной деятельности в формировании зрительного и пространственного восприятия [3, с. 75]. П.Я.Гальперин доказал, что перцептивные навыки можно формировать поэтапно, как и любые умственные действия, через ориентировочную основу, материализацию и постепенную интериоризацию действий [4, с. 58].

Ж.И.Шиф изучала особенности зрительного анализа, синтеза и пространственного восприятия у детей с интеллектуальными нарушениями, выявив качественные отличия их перцептивной деятельности [5, с. 58]. В.В.Лебединский рассматривал восприятие как один из ключевых компонентов психического развития ребёнка и описал характерные особенности перцептивной сферы у детей с задержкой психического развития и другими формами дизонтогенеза [6, с. 20]. М.М.Кольцова исследовала сенсомоторные механизмы перцепции и её связь с развитием речи и моторики у детей с речевыми нарушениями [7, с. 55]. Р.И.Лалаева раскрыла особенности фонематического восприятия [8, с. 102].

Перцептивные навыки включают следующие компоненты: в*изуальную перцепцию* – умение различать формы, размеры, цвета, анализировать зрительные образы, а*удиальную* – способность дифференцировать звуки, воспринимать речевые и неречевые стимулы, т*актильную* – восприятие предметов через осязание, п*ространственную перцепцию* – ориентацию в пространстве, понимание направлений, схемы тела, и*нтегративные навыки* – связь сенсорного восприятия с речью, моторикой, памятью. Недостаточная сформированность этих процессов приводит к трудностям обучения: дисграфии, дислексии, моторным нарушениям, снижению познавательной активности.

Сущность готовности к развитию перцептивных навыков включает несколько структурных компонентов: м*отивационный* – интерес к развивающей деятельности, позитивная установка на работу с детьми, к*огнитивный* – знания о видах перцептивных процессов, методах диагностики и развития, о*перационно-деятельностный* – владение технологиями, приёмами и развивающими упражнениями, р*ефлексивный* – способность анализировать собственную деятельность, корректировать педагогические решения.

Следует также просмотреть технологии формирования готовности. Информационно-образовательные технологии делятся на лекционные модули по сенсорному развитию, мультимедийные презентации, интерактивные карты восприятия, онлайн-платформы для диагностики и тренировки перцептивных навыков (визуальные упражнения, аудиальные тренажёры).

Практико-ориентированные технологии включают проведение коррекционно-развивающих занятий, наблюдение и анализ кейсов, разработку собственных игровых упражнений.

Мультимодальные и мультисенсорные технологии используют несколько каналов восприятия одновременно (визуальный + слуховой + двигательный), методику «рука-глаз-звук», которая усиливает интеграцию сенсорных процессов, применение сенсорных материалов (тактильные карточки, 3D-модели, конструктивные наборы) [9, с. 91].

В работе с детьми с особыми потребностями эффективно используются технологии инклюзивного обучения, такие как визуальная поддержка (пиктограммы, расписания, схемы), адаптация заданий по уровню сложности, использование альтернативной коммуникации (PECS, визуальные сценарии).

Наиболее эффективные методические подходы в обучении перцепции – деятельностный, игровой и компетентностный.

Деятельностный подход – согласно ему, психическое развитие ребёнка происходит не само по себе, а в процессе активного взаимодействия с окружающим миром. Восприятие рассматривается не как пассивное получение информации, а как активное, избирательное и целенаправленное действие на анализ и преобразование предметной среды. А.Н.Леонтьев и С.Л.Рубинштейн подчёркивали, что любая психическая функция формируется в структуре деятельности, имеет цель, мотив и операционную структуру. Следовательно, перцептивные навыки могут развиваться только тогда, когда ребёнок включён в такие виды деятельности, которые требуют анализа, сравнения, выделения признаков, пространственной ориентации [10].

Игровой подход – один из наиболее продуктивных и доказательно подтверждённых методов развития перцептивных навыков у детей, в том числе у детей с особыми образовательными потребностями. Игра становится ведущей деятельностью дошкольного возраста (Л.С.Выготский, Д.Б.Эльконин), в рамках которой наиболее эффективно формируются процессы восприятия, внимания, аналитико-синтетической деятельности, пространственной ориентировки и моторно-перцептивных механизмов. С позиции культурно-исторической теории Л.С.Выготского игра создаёт «зону ближайшего развития», в которой ребёнок получает возможность выполнять действия, недоступные ему в реальном повседневном опыте. Благодаря этому игровой подход позволяет организовать развитие перцептивных функций в мягкой, мотивирующей и эмоционально комфортной форме. В исследованиях Д.Б.Эльконина, А.В.Запорожца, Л.А.Венгера отмечается, что игровые действия способствуют целостному вовлечению различных анализаторов, координации зрительных и моторных процессов, развитию чувственного опыта. Игра создаёт условия для многократного повторения сенсорно-перцептивных действий без возникновения утомления, что особенно важно при работе с детьми, испытывающими трудности в восприятии [11].

Игровой подход также коррелирует с современными практиками нейропсихологически ориентированной коррекции (Т.В.Ахутиной, Е.М.Мастюковой). В игре активизируются механизмы межполушарного взаимодействия, развивается зрительно-пространственный гнозис, улучшается устойчивость внимания и скорость переработки информации. Благодаря этому игровые методы рекомендуется использовать на всех этапах формирования перцептивных навыков: от сенсорной базы до сложных операций анализа и сравнения [12].

Особое значение имеет использование структурированных развивающих игр: дидактических, сенсорных, моторно-двигательных, предметно-манипулятивных, сюжетно-ролевых, позволяющих целенаправленно воздействовать на такие компоненты перцептивной деятельности, как зрительная дифференциация, узнавание, соотнесение, классификация, анализ формы, величины, положения в пространстве.

Компетентностный подход – одна из ключевых методологических основ современного образования, используемая как база для разработки технологий формирования перцептивных навыков у детей, включая детей с особыми образовательными потребностями. Его основная идея заключается в том, что результат образования определяется не объёмом усвоенной информации, а сформированностью компетенций – интегративных свойств личности, включающих знания, умения, навыки, способы деятельности и готовность применять их в реальной ситуации (А.В.Хуторской, И.А.Зимняя, В.В.Сериков) [13, с. 120].

С позиции компетентностного подхода формирование перцептивных навыков рассматривается не как изолированное тренирование отдельных сенсорных функций, а как развитие у ребёнка целостной способности воспринимать, интерпретировать, анализировать и использовать информацию из окружающей среды для решения разнообразных учебных и жизненных задач, что позволяет связывать перцептивные процессы с развитием регуляторных, когнитивных и коммуникативных компетенций, особенно важных при коррекционной работе.

Компетентностный подход ориентирует педагога на достижение реального практического результата: ребёнок должен не только корректно различать форму, цвет, величину или пространственные признаки, но и применять эти умения при чтении, письме, ориентировке на листе, выполнении учебных заданий, коммуникативной деятельности и в бытовых ситуациях. Таким образом, развитие перцептивных навыков становится элементом становления ключевых образовательных компетенций.

По мнению И.А.Зимней, компетенции формируются через активную деятельность ребёнка, что делает данный подход созвучным деятельностному и игровому подходам. Педагог создаёт условия, в которых обучающийся получает возможность самостоятельно действовать, выбирать, анализировать и применять способы восприятия в новых контекстах, что усиливает устойчивость и перенос сформированных перцептивных действий.

Компетентностный подход также предполагает индивидуализацию, вариативность и диагностическую направленность образовательного процесса. При работе с детьми с особенностями в развитии педагог определяет уровень сформированности базовых перцептивных умений, выделяет дефицитные зоны, подбирает методы и упражнения, позволяющие сформировать необходимые компоненты компетенции (зрительное различение, анализ, синтез, классификация, зрительно-моторные связи и др.).

Формирование готовности к развитию перцептивных навыков является важным условием успешной педагогической деятельности, особенно в работе с детьми, имеющими нарушения в развитии. Эффективное сочетание современных технологий, мультисенсорных методов и цифровых инструментов обеспечивает высокий уровень сформированности перцептивной компетентности и создаёт условия для успешной социализации и обучения детей.

Литература

1. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. М.: Педагогика, 1984.
2. Лурия А.Р. Основы нейропсихологии. М.: Медицина, 1973.
3. Запорожец А.В. Развитие сенсорных функций у ребёнка. Л.: Наука, 1976.
4. Гальперин П.Я. Психология обучения. М.: Просвещение, 1988.
5. Шиф Ж.И. Особенности зрительного восприятия у детей с умственными нарушениями. М.: Наука, 1982.
6. Лебединский В.В. Нарушения психического развития у детей: Учебное пособие. М.: Изд-во Московского университета, 1985.
7. Кольцова М.М. Сенсомоторное развитие детей. М.: Педагогика, 1989.
8. Лалаева Р.И. Фонематическое восприятие и коррекция дислексии. М.: Педагогика, 1991.
9. Ayres A.J. Sensory Integration and the Child. Los Angeles: Western Psychological Services, 1979.
10. Леонтьев А.Н., Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. М.: Педагогика, 1980.
11. Эльконин Д.Б., Венгер Л.А. Психология игры. М.: Просвещение, 1981.
12. Ахутиной Т.В., Мастюкова Е.М. Нейропсихологическая коррекция. СПб.: Речь, 2002.
13. Хуторской А.В., Зимняя И.А., Сериков В.В. Компетентностный подход в образовании. М.: Изд-во РАНХиГС, 2015.

Диана РУЗМЕТОВА,
и.о. доцента (PhD)
Чирчикского государственного педагогического университета

РАЗВИТИЕ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ У МОЛОДЁЖИ ЧЕРЕЗ ПРОЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБУЧЕНИЕ

Аннотация. В статье описывается эффективность проектно-ориентированного обучения (Project-Based Learning, ПОО) как педагогического подхода к развитию лидерских навыков у молодёжи, анализируются теоретические аспекты и практическая реализация ПОО в образовательных и неформальных учебных средах на основе кейс-стадий и эмпирических данных, обсуждаются роль преподавателей и наставников как фасилитаторов, значение реальной практической направленности проектов и влияние групповой динамики на формирование лидерского поведения, подчёркивается, что ПОО не только расширяет академические знания, но и способствует формированию социально ответственных и инициативных молодых лидеров.

Ключевые слова: развитие лидерства, расширение прав и возможностей молодёжи, проектно-ориентированное обучение (ПОО), навыки XXI века, совместное обучение, опытное обучение, навыки решения проблем, образовательные инновации.

Annotatsiya. Maqolada yoshlarda yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga pedagogik yondashuv sifatida loyihalarga asoslangan ta'lim (Project-Based Learning, PEO)ning samaradorligi tavsiflangan, ta'lim va norasmiy ta'lim muhitlarida PEOning nazariy jihatlari va amaliy tatbiqi keys-stadilar va empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan, o'qituvchi va murabbiylarning fasilitator sifatidagi roli, loyihalarning haqiqiy amaliy yo'naltirilganligining ahamiyati va guruh dinamikasining yetakchilik xulq-atvorini shakllantirishga ta'siri muhokama qilingan, PEO nafaqat akademik bilimlarni kengaytirishi, balki ijtimoiy mas'uliyatli va tashabbuskor yosh yetakchilarni shakllantirishga ham hissa qo'shishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: yetakchilikni rivojlantirish, yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, loyihaga asoslangan ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, hamkorlikda o'qitish, tajribali o'qitish, muammolarni hal qilish ko'nikmalari, ta'lim innovatsiyalari.

Annotation. The article describes the effectiveness of project-based learning (PLE) as a pedagogical approach to developing leadership skills in young people, analyzes the theoretical aspects and practical implementation of PLE in educational and informal learning environments based on case studies and empirical data, discusses the role of teachers and mentors as facilitators, the importance of real practical project orientation and the influence of group dynamics on the formation of leadership behavior, emphasizes that PLE not only expands academic knowledge but also contributes to the formation of socially responsible and proactive young leaders.

Keywords: leadership development, youth empowerment, project-oriented learning, 21st-century skills, collaborative learning, experiential learning, problem-solving skills, educational innovations.

Актуальность данного исследования обусловлена растущим мировым запросом на компетентных, этичных и инновационных молодых лидеров, способных справляться со сложными социальными, экономическими и технологическими вызовами. Традиционные методы обучения часто не формируют практических лидерских навыков, сосредоточиваясь преимущественно на теоретических знаниях и пассивном обучении. В отличие от них проектно-ориентированное обучение предлагает активную, ориентированную на учащегося модель, отражающую реальные контексты и стимулирующую автономию, ответственность и креативное мышление. Однако несмотря на потенциал ПОО всё ещё недостаточно распространено во многих образовательных системах, а комплексных исследований его влияния именно на развитие лидерских качеств у молодёжи недостаточно.

Проектно-ориентированное обучение (ПОО) широко продвигается как педагогический подход, вовлекающий учащихся в длительные, аутентичные задания и способствующий развитию компетенций высокого уровня – **сотрудничества, решения проблем, коммуникации и саморегулируемого обучения. Классические исследования определяют ПОО как студентоцентричную методологию, в которой обучающиеся исследуют сложные, реальные проблемы и создают публичные продукты, получая устойчивые возможности для практики и рефлексии. Эмпирические обзоры показывают, что ПОО способствует развитию переносимых навыков, востребованных в современных образовательных программах, хотя его влияние на стандартизированные академические результаты остаётся смешанным и зависит от качества реализации [1; 2].**

Эмпирические исследования влияния ПОО на лидерские результаты у молодёжи пока ограничены, но демонстрируют перспективные тенденции [3; 4]. Кейсы и оценки программ показывают улучшение коммуникации, координации в команде, инициативности и гибкости ролей у молодёжи, если проекты включают ротацию лидерских ролей,

задания на рефлексию и фасилитацию, направленную на понимание групповых процессов. Небольшие исследования подтверждают, что при проектировании ПОО с лидерскими целями (например, определённые лидерские задания, коучинг сверстников, оценка групповых процессов) молодые люди сообщают о росте уверенности и демонстрируют более частые проявления лидерского поведения. Тем не менее количественные, продольные и контролируемые исследования, измеряющие конкретные лидерские конструкты (например, трансформационное поведение, принятие решений, гражданское лидерство), остаются редкими.

Исследования смежных программ развития молодёжи дают дополнительные доказательства того, что хорошо организованные опытные программы в школах и сообществах повышают личностные и социальные компетенции – результаты, тесно связанные с лидерскими навыками [5; 6]. Метаанализы молодёжных программ показывают положительное влияние на **социальные навыки, самоэффективность и социальное поведение, если программы структурированы, устойчивы и включают практику навыков с обратной связью – элементы, которые ПОО также может обеспечивать при условии ориентации на лидерство, подчеркивая значимость качества реализации, рефлексии, роли взрослых фасилитаторов и постепенного расширения ответственности как факторов, усиливающих лидерский рост в рамках ПОО**.

В конце 1920-х годов данный метод получил широкое внедрение в советских школах как ведущая образовательная технология, подробно проанализированный в работах С.Т.Шацкого, П.П.Блонского, П.Ф.Каптерева и др. [7]. **Некоторые сторонники считали его единственно эффективным школьным методом, превращавшим «школу учения» в «школу жизни». В этот период метод проектов также применялся в высшем образовании**, его **активно использовал в педагогической практике и А.С.Макаренко**. Организация обучения через разработку проектов детально рассматривалась в работах **Е.Г.Кагарова**. Однако в 1931 году метод проектов был официально осуждён как не соответствующий формированию глубоких теоретических знаний и был впоследствии запрещён [**там же**].

Проектно-ориентированное и исследовательское обучение часто сравниваются, поскольку многие педагоги считают их схожими по целям и содержанию. Однако А.И.Савенков [8] подчёркивает принципиальное различие: исследование направлено на открытие неизвестного и получение нового знания, тогда как проектная деятельность предполагает создание заранее планируемого продукта или результата. Аналогичную позицию занимает **А.С.Обухов**, отмечая, что **при ориентировании проекта на создание чего**-то **ещё не существующего исследование стремится наблюдать, интерпретировать и анализировать существующие явления для раскрытия истины [**9]. **Кроме того, в отличие от исследования, проект всегда ориентирован на практическое решение проблемы. Реализуя проект**, учащиеся **не только ищут новую информацию, но и стремятся решать реальные жизненные задачи.**

В настоящее время одним из главных приоритетов государственной молодежной политики является развитие активного молодого поколения, способного участвовать в решении социально значимых проблем, а также стать ценным трудовым ресурсом в управлении производственными процессами, что **подчеркивает важность формирования лидерских качеств у молодежи. Современную молодежь можно условно разделить на две группы: студентов и работающую молодежь.**

В процессе обучения особое внимание следует уделять развитию способности ставить конкретные, актуальные и соответствующие цели, исходя из конкретного контекста или «среды», а также решать реальные задачи на местном, региональном и национальном уровнях. Необходимо обучать студентов выбирать стратегии, ведущие к достижению поставленных целей, различать стратегические и тактические задачи, определять качественные и количественные критерии реализации проекта, составлять проектный таймлайн, включающий этапы реализации и предполагаемые сроки получения результатов. Не менее важно обучать студентов представлять свои проекты потенциальным заинтересованным сторонам и целевым группам, сообщать о результатах общественности и СМИ, применять положительные результаты проектов в социально-политическом и идеологическом контекстах. **Важным компонентом подобной подготовки должны стать психологические тренинги, направленные на формирование мотивации и развитие межличностных навыков с использованием «мягких технологий», воспитание готовности к взаимодействию с различными аудиториями по содержательным (проектным) вопросам и обучение созданию «имиджа проекта», соответствующего современным ожиданиям и восприятиям.**

Литература

1. Bell S. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. Retrieved from ERIC, 2010.
2. Condliffe B. et al. Project-Based Learning: A Literature Review. MDRC, 2017.
3. Durlak J.A., Weissberg R.P., Pachan M. A Meta-analysis of After-school Programs that Seek to Enhance the Personal and Social Skills of Children and Adolescents // American Journal of Community Psychology / related meta-analytic report, 2010.
4. Hasanah E. Enhancing Student Leadership Skills through Project-based Learning. The Qualitative Report, 2023.
5. Kouzes J.M., Posner B.Z. (various eds.). The Student Leadership Challenge: Five Practices for Exemplary Leadership. Jossey-Bass / Wiley, 2014.
6. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. Retrieved from bobpearlman.org / TECFA, 2000.
7. ПООWorks. (n.d.). A Review of the Research on Project-Based Learning. ПООWorks research summaries.
8. Research Gate and Academic Case Studies on ПОО and Leadership Development (e.g., Leadership Development through Project Based Learning).
9. Сарсенбаева З. Modernism in Uzbek literature and interpretation of images // Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2024, т. 2, №1.

Светлана ИМ,
доктор филологических наук, профессор
Узбекского государственного университета мировых языков

МОРФОНОЛОГИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА НОСИТЕЛЯМИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. При изучении русского языка носителями узбекского языка возникают существенные трудности в двух формах речевой деятельности на русском языке – аудировании и произношении, связанные с грамматическими значениями слов русского и узбекского языков, которые выражаются различными средствами, не сводимыми к правилам или соответствиям. При изучении русского языка носителями агглютинирующих языков необходимо установить соответствия и различия, обусловленные фузией русского языка и агглютинацией узбекского. Различия заключаются в подвижном ударении в русском языке и чередованиях. Типологические различия между узбекским и русским языками необходимо свести к определенным правилам.

Ключевые слова: типологические различия, фузия, агглютинация, алломорфизм, изоморфизм, морфонология, ударение, чередование, аффиксация.

Annotatsiya. O'zbek tilida so'zlashuvchilar tomonidan rus tilini o'rganishda rus tilidagi nutq faoliyatining ikki shakli - rus va o'zbek tillaridagi so'zlarning grammatik ma'nolari bilan bog'liq tinglab tushunish va talaffuz qilishda sezilarli qiyinchiliklar yuzaga keladi, ular qoidalar yoki muvofiqliklarga olib kelmaydigan turli vositalar bilan ifodalanadi. Agglyutinatsiyalanuvchi tillarda so'zlashuvchilar tomonidan rus tilini o'rganishda rus tilining fuziyasi va o'zbek tilining agglyutinatsiyasi bilan bog'liq moslik va farqlarni aniqlash zarur. Farqlari rus tilidagi ko'chma urg'u va almashinuvlarda. O'zbek va rus tillari o'rtasidagi tipologik farqlarni ma'lum qoidalarga keltirish lozim.

Kalit so'zlar: tipologik farqlar, fuziya, agglyutinatsiya, allomorfizm, izomorfizm, morfonologiya, urg'u, alternatsiya, affiksatsiya.

Annotation. When studying Russian by native speakers of Uzbek, significant difficulties arise in two forms of speech activity in Russian - listening and pronunciation, related to the grammatical meanings of Russian and Uzbek words, which are expressed by various means that are not reduced to rules or correspondences. When studying Russian by native speakers of agglutinating languages, it is necessary to establish correspondences and differences due to Russian language fusion and Uzbek agglutination. The differences lie in the mobile stress in the Russian language and alternations. The typological differences between Uzbek and Russian languages must be reduced to certain rules.

Keywords: typological differences, fusion, agglutination, allomorphism, isomorphism, morphonology, stress, alternation, affixation.

Типологические различия русского и узбекского языков представляют существенные трудности для овладения студентами-узбеками русским языком. Основная трудность заключается в том, что грамматические значения слов русского и узбекского языков выражаются различными средствами, которые не сводимы к правилам или соответствиям. Это явление называется алломорфизмом языков, вызывающим так называемую интерференцию: опыт изучения родного языка и опыт речевой деятельности узбеков мешают их речевой деятельности на русском языке, что создает определенные трудности, которые состоят не только в распознавании фонологического членения русского языка на фонемы и слоги, но и в распознавании в русской речи морфем и слов, а следовательно, значимых единиц русского языка. Иначе говоря, у узбеков возникают существенные трудности в двух формах речевой деятельности на русском языке – аудировании и произношении [1, с. 193].

Аудирование – это распознавание речи на слух. При восприятии русской речи студент-узбек вынужден делить речевой поток русского языка на фонемы и слоги, а также на морфемы и слова, при этом приходится учитывать различия фонологических систем русского и узбекского языков. Узбеки испытывают затруднения в восприятии некоторых сочетаний согласных, чуждых узбекскому произношению. Так, например, вместо одного слога русского языка узбек «слышит» два слога: вместо книга он «слышит» кинига; вместо стол – истол, штаны – иштон и т.п.

Однако помимо фонологического членения на фонемы, слоги и слова, чуждые узбекскому произношению, вызывающие перенос опыта распознавания и произношения узбекского языка на русский, существуют и другие трудности, тесно связанные с распознаванием плана выражения русского язык узбеками, обусловленные принципиальными различиями в морфологической структуре русского и узбекского слова, или в морфологическом алломорфизме.

Под типологическим алломорфизмом мы понимаем такие различия между языками различных систем, например, между узбекским и русским языками, которые сводимы к определенным правилам, обусловленным типологическими различиями агглютинирующим узбекским языком и фузионным русским.

Алломорфизму противопоставляется понятие изоморфизма – однозначное соответствие между описываемыми объектами, например, тип ударения имен существительных в русском литературном языке находится в отношениях однозначного соответствия с ударением на основе во всех словоформах глагола, ср.: книга, книги, книге, …книгам и т.п.

Описание системы состоит в установлении системы изоморфизма между элементами языка. Фактически понятие системы и изоморфизма в языковом плане является синонимом.

Сопоставление языков, особенно неродственных, состоит в установлении алломорфизма и изоморфизма сравниваемых языков. В данном случае оно заключается в установлении соответствий и различий, обусловленных фузией русского языка и агглютинацией узбекского.

«Агглютинация (от лат. agglutinare – приклеивать). Способ образования форм слова и производных слов механическим присоединением стандартных суффиксов к неизменяемым (лишенным внутренней флексии) основам или корням. Каждый аффикс имеет только одно грамматическое значение, равно как каждое грамматическое значение выражается всегда одним и тем же аффиксом» [2, с. 11].

«Фузия (фр. fusion – сплавление, слияние от лат. fusio – литьё). Слияние морфем, сопровождающееся изменением их фонемного состава. Чаще происходит тесное морфологическое соединение изменяемого корня с многочисленными нестандартными аффиксами, приводящее к стиранию границ между морфемами» [там же, с. 379].

«Тесное присоединение нестандартных аффиксов, могущих быть многозначными, к корням, которые могут изменяться, называется фузией... Механическое присоединение

однозначных стандартных аффиксов к неизменяемым корням называется агглютинацией» [3, с. 272].

Из приведенных определений следует, что при агглютинации грамматическое значение выражается специальной морфемой, которая однозначно выражает грамматическое значение. В результате слово выстраивается из цепочки корневой и грамматических морфем, которые не могут заменяться вариантами, например, для выражения множественности в узбекском языке используется суффикс -лар: бог+лар, дафтар + лар, доктор +лар. В узбекском языке, как и в других агглютинирующих языках, не происходит чередования аффиксов, имеющих одинаковое значение, но различающихся фонетическим обликом в отличие от русского языка. Так, например, флексия д.п. ед.ч. женского рода может выражаться морфемами -е-, -и-: ноге и нити. В предл.п. ед.ч. в мужском и женском роде возможно употребление дублетов: ногою – ногой, о лесе – в лесу.

Кроме того, в узбекском языке отсутствует категория рода, поэтому распознаванию словоформ препятствуют не только те грамматические различия, которых нет в узбекском языке и в других агглютинирующих языках, но и различия между морфемами русского языка, не связанными с грамматическими значениями русского языка, а обусловленными чередованием морфем. Чередования подобного типа чужды агглютинирующим языкам, в частности узбекскому [4, с. 315].

Фузионные языки, такие как русский, литовский, имеют в отличие от агглютинирующих, пограничные сигналы слов и морфем [5, с. 70], также в них наблюдается чередование морфем. Например, суффиксы -ость (-есть), -ота (-ета), -ина, -изна являются членами одной парадигмы, а следовательно, вариантами одного словообразовательного суффикса. Их инвариант состоит в образовании абстрактных имен женского рода от прилагательных [6, с. 102]. Указанные суффиксы служат для выражения одного и того же грамматического значения абстрактного качества; различия между ними не обусловлены их значением: они зависят от ударения и консонантного исхода производящей основы прилагательного, т.е. от морфонологических характеристик производящего. В результате в русском языке возникают разновидности морфем и словоформ в плане выражения, которые вслед за Н.С.Трубецким принято считать объектом морфонологии. Такое употребление нескольких суффиксов для выражения одного и того же значения не свойственно узбекскому языку.

Помимо чередования морфем, в русском языке существует чередование фонем и их элементов. Так, в глагольных формах читаю – читала настоящее время характеризуется наличием /J/, а форма прошедшего времени характеризуется отсутствием этого звука. В словоформах огонёк – огонька чередуется фонема /о/ с нулем звука о. В словоформах жму – жать чередуется гласная /а / с согласным /н/, а в словоформах сохну – сушить гласная /о/ – с гласным /у/. Возможно также чередование согласного с согласным: лечу – летишь: чередуются /ч/ – /т/. Встречаются и более сложные чередования, например, грести – гребу /ст/ – /б/, любить – люблю /б/ – /бл'.

Морфонология – это раздел лингвистики фузионных языков, изучающий правила внутреннего сандхи – сочетаемость и чередование фонем на морфемном шве, которая практически не изучалась, что создает у всех носителей агглютинативных языков трудности как при фонологическом членении и восприятии русских слов, так и при овладении речевой деятельностью русского языка.

Для построения методики преподавания русского языка носителям тюркоязычных языков, в частности узбекского, необходимо выявить минимум тех фузионных характеристик, которые надлежит изучить представителям тюркоязычных национальностей, в связи с чем необходимо выработать методику обучения этому минимуму.

При определении понятий морфонологии учитывались только чередования фонем, но не учитывались чередование ударения и чередование суффиксов [7, с. 63].

До настоящего времени методика преподавания русского языка в национальной школе недостаточно разработала технику изучения фузионных характеристик русского языка, которые включают в себя чередование фонем при склонении, спряжении и словообразовании, чередование ударения, чередование морфем.

В настоящее время существует морфонология словоизменения, склонения и спряжения, выполненная проф. В.А.Редькиным [8, с. 425]. Однако в методике русского языка отсутствует не только фонологический, но и морфонологический подход к изучению русского слова, что создает определенные трудности в преодолении интерференции родного языка на речевую деятельность носителей агглютинирующих языков.

Задачи методики преподавания должны включать использование фонологии с целью изучения речевой деятельности на русском языке носителями агглютинирующих языков, построение методики морфонологии русского языка, включающей альтернации фонем, альтернации ударения и альтернации морфем.

Таким образом, создание методики преподавания морфонологии русского языка является актуальной задачей, решение которой позволит создать реальную базу для обеспечения активных форм речевой деятельности.

Литература

1. Им С.Б. Типологические различия между фузионными и агглютинирующими языками // Международный конгресс «Языковая политика Содружества Независимых государств, 2–4 декабря 2019 г. Минск, 2019.
2. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь–справочник лингвистических терминов. М.: Просвещение. 1985.
3. Реформатский А.А. Введение в языковедение, изд. 5. М.: Аспект Пресс, 2004.
4. Им С.Б. Морфонологические явления в словообразовании диминутивов мужского рода // Сборник статей Международной научной конференции «Горизонты современной русистики», посвященной юбилею акад. В.Г.Костомарова, 30-31 января 2020 г. М., 2020.
5. Им С.Б. Понятие фузии и агглютинации в морфонологическом плане// Бухоро давлат университети илмий ахбороти, 2020, №3.
6. Им С.Б. Морфонологические явления в процессе синтеза звукового облика слова. Т.: Изд-во Vneshinvestprom, 2020.
7. Им С.Б. Значимость морфонологических явлений в словообразовании диминутивов среднего рода // Вестник Челябинского государственного университета, 2020, №7.
8. Редькин В.А. Ударение. Альтернации. (Чередование фонем) // Грамматика современного русского литературного языка. М.: Наука, 1970.

Komila AYTMURATOVA,
Innovatsion texnologiyalar universiteti
maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi assistent o'qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SHE'RIY ASARLARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda she'riy asarlardan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. She'riy asarlarning bolalar tasavvuri, nutqi, emotsional holati va estetik didini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy faoliyat, she'riy asarlar, bolalar ijodkorligi, nutq rivoji, estetik tarbiya.
Annotation. This article analyzes the pedagogical and psychological aspects of using poetic works in developing creative activity of preschool children. The role of poetry in the development of speech, imagination, emotional sensitivity, and aesthetic perception is discussed.
Keywords: preschool education, creative activity, poetic works, children's creativity, speech development, aesthetic education.
Аннотация. В статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты использования поэтических произведений в развитии творческой деятельности детей дошкольного возраста. Проанализировано влияние поэзии на речь, воображение, эмоциональное состояние и эстетическое воспитание детей
Ключевые слова: дошкольное образование, творческая деятельность, поэтические произведения, детское творчество, развитие речи, эстетическое воспитание.

Bugungi globallashuv va ta'lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri. Chunki ijodiy fikrlashga ega, estetik didi shakllangan, nutqi rivojlangan va emotsional jihatdan boy shaxsni tarbiyalash jamiyatning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha bo'lgan yosh bolaning shaxsiy imkoniyatlari, tasavvuri va ijodiy faolligi eng tez rivojlanadigan davr bo'lib, ushbu bosqichda berilgan ta'lim-tarbiya keyingi rivojlanish jarayoniga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy adabiyot, xususan, she'riy asarlar bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. She'rlar ohangdorligi, obrazliligi va hissiy ta'sir kuchi bilan bolalarni tez jalb etadi, ularning ichki dunyosini boyitadi hamda ularga estetik zavq bag'ishlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida she'riy asarlardan foydalanish metodikasini ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb masala sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyati ularning tabiiy ehtiyojlari, qiziqishlari va psixologik rivojlanish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu davrda bola atrof-muhitni faol idrok etadi, o'z taassurotlarini turli obrazlar orqali ifodalashga harakat qiladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, 3–7 yosh oralig'ida tasavvur va fantaziya yuqori darajada rivojlanadi, bu esa ijodkorlikning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ijodiy faoliyat bolaning bilish jarayonlarini faollashtiradi, xususan, tafakkur, xotira, diqqat va nutqning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ijod jarayonida bola mustaqil fikrlash, tanlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun erkin va qulay muhit yaratish, ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. She'riy asarlar bolalarning psixologik rivojlanishiga mos keladigan badiiy vosita bo'lib, ular orqali bola o'z hissiyotlarini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. She'r tinglash, yod olish va ifodali aytish jarayonlari bolalarning nutq faolligini oshirib, ularni ijodiy faoliyatga jalb etadi [1]. She'riy asarlar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali badiiy adabiyot shakllaridan biridir. Ularning qisqa, lo'nda va ohangdor bo'lishi bolalarning e'tiborini uzoq vaqt davomida saqlab turishga yordam beradi. She'rlar orqali bolalar tabiat hodisalari, insoniy fazilatlar, mehnat jarayonlari va ijtimoiy munosabatlar haqida dastlabki tushunchalarga ega bo'ladilar [1].

She'riy obrazlar bolaning tasavvurini kengaytirib, uni mustaqil fikrlashga undaydi. Masalan, tabiat haqidagi she'rlar bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirsa, axloqiy mazmundagi she'rlar mehr-shafqat, do'stlik va hamjihatlik kabi sifatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda bola she'r mazmunini o'z hayotiy tajribasi bilan bog'lashga harakat qiladi, bu esa ijodiy tafakkurning rivojlanishiga zamin yaratadi. Bundan tashqari, she'riy asarlar bolalarda emotsional sezgirlikni kuchaytiradi. Ritm va ohang bola nutqining intonatsion jihatdan boyishiga yordam beradi, to'g'ri talaffuz va ifodali nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan she'rlar nafaqat ijodiy, balki nutqiy rivojlanish vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida she'riy asarlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, avvalo, mazmun va shakl uyg'unligini ta'minlashni talab etadi. She'r tanlashda bolalarning yosh xususiyatlari, psixologik ehtiyojlari va qiziqish doirasi e'tiborga olinishi zarur. Mavzusi sodda, mazmuni hayotga yaqin, obrazlari aniq she'rlar bolalarda ijodiy faollikni kuchaytiradi. Mashg'ulot jarayonida she'riy asarlardan foydalanishda interfaol metodlarga tayanish muhimdir. Jumladan, she'r mazmuni asosida savol-javoblar tashkil etish, rolli o'yinlar va dramatizatsiya elementlaridan foydalanish bolalarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Shuningdek, she'rni musiqa, harakatli o'yinlar va tasviriy faoliyat bilan integratsiyalash ijodiy jarayonning yanada boyishiga olib keladi [2].

Tarbiyachining she'rni ifodali, his-tuyg'u bilan o'qib berishi bolalarda badiiy idrokni shakllantiradi. Bolalarni mustaqil ravishda she'r davom ettirishga, obrazlar o'ylab topishga yoki qisqa qofiyalar tuzishga undash esa ularning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bunday yondashuv bolada o'ziga ishonch va ijodiy tashabbusni mustahkamlaydi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, she'riy asarlardan tizimli va maqsadli foydalanilgan mashg'ulotlar bolalarning ijodiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar o'z fikrini erkin ifodalashga, yangi obrazlar yaratishga va guruh bilan hamkorlikda ishlashga intiladi.

She'r asosida sahnalashtirilgan kichik dramatik ko'rinishlar bolalarning nutq faolligi, emotsional ifodaliligi va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiradi. Shuningdek, she'r mazmuniga mos rasm chizish, qo'g'irchoq teatri va harakatli mashg'ulotlar bolalarda barqaror qiziqish uyg'otadi hamda ijodiy mustaqillikni shakllantiradi. Natijada, bolalarda estetik tafakkur, ijodiy fikrlash va badiiy idrok tizimli ravishda rivojlanadi. Bu esa ularning keyingi ta'lim bosqichlariga muvaffaqiyatli tayyorlanishiga xizmat qiladi [3].

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda she'riy asarlardan foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarga ega. She'rlar bolalarning tasavvuri, nutqi, hissiy dunyosi va estetik didini rivojlantirib, ularni faol ijodiy jarayonga jalb etadi. She'riy asarlardan foydalanish metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlar, interfaol metodlar va tarbiyachining ijodiy yondashuvi bolalarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishga imkon yaratadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida she'riy asarlardan foydalanishga ilmiy asoslangan holda yondashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva D. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2022.
2. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Abdullayeva N., Dustov D., Rustamova M. va boshqalar. "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati". – Toshkent, 2025.

Нуржамал САПАРОВА,
кандидат педагогических наук, старший преподаватель
кафедры современного русского языка
Узбекского государственного университета мировых языков

ДИДАКТИЧЕСКИЕ МАТЕРИАЛЫ И ПРИЁМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОСЛОВИЦ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-БИЛИНГВОВ

Аннотация. В данной статье предлагаются конкретные упражнения и рекомендации по включению пословиц в уроки русского языка, обеспечивающие оптимальное усвоение новых лексических единиц и стилистических особенностей языка.
Ключевые слова: пословицы, учебно-языковые задания, упражнения на анализ лексико-семантических особенностей языковых единиц.
Annotatsiya. Ushbu maqolada rus tili darslarida maqollarni kiritish bo'yicha aniq mashqlar va tavsiyalar taklif etilgan bo'lib, ular yangi leksik birliklar va tilning uslubiy xususiyatlarini optimal darajada o'zlashtirishni ta'minlaydi.
Kalit so'zlar: maqollar, o'quv-lisoniy topshiriqlar, til birliklarining leksik-semantik xususiyatlarini tahlil qilish mashqlari.
Annotation. This article proposes specific exercises and recommendations for incorporating proverbs into Russian language lessons, ensuring optimal acquisition of new lexical units and stylistic features of the language.
Keywords: proverbs, language-learning tasks, exercises for analyzing the lexical and semantic features of language units.

Пословицы являются важной частью народной мудрости и культурным наследием многих народов мира. Они аккумулируют накопленный поколениями опыт и помогают передавать нравственно-эстетические ценности следующим поколениям. Именно благодаря своему лаконичному и образному характеру пословицы легко запоминаются и широко применяются в повседневной жизни, литературе и искусстве.

Особенно ценны пословицы в учебном процессе, особенно при изучении иностранного языка. Их активное использование способствует обогащению лексического запаса, улучшению навыков чтения и письма, а также пониманию культурной среды изучаемого языка. Важно отметить, что пословицы часто демонстрируют косвенность значения, формируя у учащихся навыки распознавания переносных значений и идиоматических выражений.

Цель данной статьи состоит в том, чтобы рассмотреть потенциал использования пословиц в обучении русскому языку, особенно среди тюркоязычных студентов, и предложить эффективные методики, которые позволят сделать этот процесс увлекательным и продуктивным.

Богатый материал дают пословицы при изучении антонимии. При помощи пословиц человек сопоставляет и противопоставляет окружающие его явления.

В качестве компонентов пословицы выступают антонимы, относящиеся к различным частям речи:

А) существительные: Ученье- свет, а неученье – тьма;

Б) прилагательные: Старый друг лучше новых двух.;

В) наречия: Мягко стелет, да жёстко спать;

Пословицы целесообразно использовать и при изучении синонимии, например: Что нагой, что голый – всё одно: Что скупой, что жадный – всё одно.

В пословицах представлены почти все части речи русского языка, например:

1) Имена существительные: *Правда глаза колет. Делу время, потехе – час.*

2) Имена прилагательные: *Старость не радость. Ум хорошо, а два лучше.*

3) Имена числительные: *Семь раз отмерь, один раз отрежь. Третий – лишний.*

4) Местоимения: *Чем богаты, тем и рады. Сам кашу заварил, сам и расхлебывай.*

5) Наречия: *Близок локоть, да не укусишь. Легко пришло, легко ушло.*

Употребительны в составе пословиц различные глагольные формы:

А) глаголы повелительного наклонения: *Не спеши языком, торопись делом; Любишь кататься – люби и саночки возить; Не хвали сам себя, пусть другие похвалят тебя.*

Б) инфинитив: *Жизнь прожить – не поле перейти; Хозяйство вести – не рукавом трясти.*

В) глаголы изъявительного наклонения: *Обжёгшийся на молоке дует на воду; Шила в мешке не укатишь.*

Вышеприведённые пословицы могут быть использованы для развития навыков правописания:

1) окончаний глаголов 2-го лица единственного числа: Поспешишь – людей насмешишь.

2) НЕ с глаголами: *Не в свои сани не садись. Не зная броду, не суйся в воду.*

3) правописание -ТСЯ и -ТЬСЯ в глаголах: *Не плюй в колодец, пригодится воды напиться.*

Целесообразно использовать пословицы и при изучении синтаксиса. Так, правило о постановке тире между подлежащим и сказуемым при отсутствии связки иллюстрируется следующими примерами: Свой глаз алмаз; Жизнь прожить – не поле перейти.

Материал пословиц используется при изучении распространённых и нераспространённых предложений односоставных и двухсоставных предложений. В частности, многие пословицы представляют собой обобщенно- личные предложения например: *На сердитых воду возят. Цыплят по осени считают.*

Многие пословицы используются при изучении сложных предложений в качестве примера для различных пунктуационных правил:

А) в сложносочинённых предложениях: *Ученье – свет, а неученье – тьма;*

Б) в сложноподчиненных предложениях: *Хорошо смеётся тот, кто смеётся последним;*

В) в бессоюзных сложных предложениях: *Поспешишь – людей, насмешишь;*

Предлагаем ряд упражнений, содержащих пословицы, используемые для выработки навыков правописания.

Упражнение 1. Вставьте недостающие буквы в пословицу.

1) Врем... не дремлет, ч...сы не стоят
2) Вчерашне...о дня не в...ротиш...
3) Утро вечер... мудрене...
4) Дома и ст...ны помога...т
5) Без хороше...о труда нет пло...а

Упражнение 2. Допишите окончания слов.

1) Глаза страш...тся, а руки дела...т
2) Человек от лени боле...т, а от труда здорове...т
3) Дружба дружб....., а служба служб.....
4) Горьк..... работа, зато сладок хлеб
5) На будущ..... осень, годов через восем...

Упражнение 3. Установите правильное написание слов.

1) (Шестой/седьмой/шестая/седьмая) вода на киселе.
2) (Красивые/умные/глупые) речи — что пыль на ветру
3) (Хорошая/красивая/плохая) речь коротка
4) Человек без (денег/человека/друзей) не обойдется
5) Уважение человека в его (друзьях/деньгах/руках)

Упражнение 4. Объясните смысл следующей пословицы.

1) В благополучии человек сам себя забывает
2) Береги честь смолоду а платье снову
3)Языком не спеши, а делом не ленись
4) Семь бед – один ответ
5) Два сапога — пара, и оба на левую ногу

Упражнение 5. Подберите синонимы к данным словам из пословицы

1) Много снегу – много хлеба.
2) Друга на деньги не купишь
3) Кто рано встает, тому Бог подает
4) Без хорошего труда нет плода
5) Глупа та птица, которой гнездо свое немило

Разработанные упражнения предоставляют разнообразные инструменты для углубленного изучения языковых структур и способствуют осознанному восприятию текста. Практическое использование предложенной системы позволит оптимизировать процесс овладения русским языком, сделав его более целенаправленным и эффективным.

Таким образом, предлагаемая методика соответствует современным принципам педагогического процесса, таким как ориентация на коммуникацию, последовательность и постепенность, дифференцированный подход, интеграция теоретических знаний и практики. Это обеспечит стабильные положительные результаты и повысит уровень владения русским языком у студентов-билингвов.

Использованная литература

1. Иманбекова Г.С. Обучение студентов-казахов лексико-семантической группе глаголов чувственного восприятия русского языка: дисс. … канд.пед.наук. Алматы, 1999.
2. Сапарова Н.Б. Лингводидактические основы обучения студентов-казахов номинацентрическим пословицам русского языка: дисс… канд.пед.наук. Т., 2001.

Gulmira AHMEDOVA,
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti

8–9-SINF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA PROJECT-BASED LEARNING (PBL) METODINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 8–9-sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda Project-Based Learning (PBL) metodining pedagogic, didaktik imkoniyati tahlil qilinadi. Dars jarayoniga PBL metodini tatbiq etishga oid amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, Project-Based Learning, raqamli ta'lim, didaktik imkoniyat.

Annotation. This article analyzes the pedagogical, didactic possibilities of the Project-Based Learning (PBL) method in the development of communicative competence of students in grades 8–9 in English. Practical recommendations for implementing the PBL method in the educational process are provided.

Keywords: communicative competence, Project-Based Learning, digital education, didactic opportunity.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические, дидактические возможности метода Project-Based Learning (PBL) в развитии коммуникативной компетенции учащихся 8–9 классов на английском языке. Даются практические рекомендации по внедрению метода PBL в учебный процесс.

Ключевые слова: коммуникативная компетенция, Project-Based Learning, цифровое образование, дидактическая возможность.

Zamonaviy til o'qitish paradigmasi an'anaviy grammatik-tarjima metodidan – tilni real kontekstlarda va kommunikativ maqsadlarda qo'llashga yo'naltirilgan yondashuvga o'zgarmoqda [4: 25–30]. Ayniqsa, o'rta maktabning 8–9-sinflarida o'quvchilar til o'rganishga sezuvchan va motivatsiyaga moyil davrda bo'ladi [1: 12–13]. Shu nuqtayi nazardan, **PBL** metodini til darslariga tatbiq etish – o'quvchilarga real hayotiy vazifalar orqali tilni amaliyotda qo'llash, mustaqil va ijodiy fikrlash, hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi [2: 11].

So'nggi tadqiqotlar PBL yordamida til kompetensiyasi yaxshilanishini ko'rsatmoqda: 2025 yilda nashr etilgan tadqiqotlarda 13–16 yoshdagi o'quvchilar bilan 6 haftalik PBL intervensiyasi natijasida ularning og'zaki nutqi, lug'at boyligi va motivatsiyasi oshgani aniqlangan [1: 11]. Shuningdek, PBL metodining biznes-ingliz tili muhitida og'zaki kommunikativ kompetensiyani oshirishga samara bergani tasdiqlangan [2]. Bundan tashqari, PBL metodini raqamli va kollaborativ vositalar bilan birlashtirish, ya'ni **PBL + digital tools** modelini qo'llash til o'qitishda samarali yondashuv ekanligi ham tadqiq etilgan [6]. Bu esa o'quvchilar uchun dars va loyihalarni zamonaviy, ijodiy va interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli, maqolani yozishdan maqsadi 8–9-sinf o'quchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda PBL + raqamli yondashuvning didaktik salohiyatini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish [6: 10–14].

Tadqiqot adabiyotlarni tizimli tahlil va so'nggi empirik tajribalar asosida olib borildi. Asosiy manbalar sifatida 2022–2025-yillarda nashr etilgan maqolalar tanlandi, jumladan: "O'rta maktab o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda PBLning o'rni" [1: 11], "PBL + raqamli vositalar integratsiyasining til ta'limidagi afzalliklari" [6], "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida PBLning yozma ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli" [4], "Loyihaviy ta'lim orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish: ESLni mustaqil rivojlantirish yo'li" [5] va PBLni biznes-ingliz kontekstida qo'llash samaradorligi [2]. Tahlil jarayonida har bir manbaning metodologik yondashuvi, ishtirokchilar darajasi, ta'lim konteksti va natija ko'rsatkichlari o'rganildi. Shuningdek, ularning 8–9-sinf darajasiga mosligi, **PBL + digital tools** kombinatsiyasining mumkin bo'lgan didaktik afzalliklari va cheklovlari baholandi.

A.K.Talapova va G.Abay o'tkazgan 6 haftalik PBL intervensiyasi natijasida o'quvchilarda og'zaki nutq ravonligi, lug'at kengligi va muloqotga bo'lgan ishonch darajasi sezilarli darajada oshgani aniqlangan [1: 11]. Ushbu natija PBL metodining o'quvchilarni real kommunikativ vazifalarda faol ishtirok etishga undashdagi pedagogik ahamiyatini ko'rsatadi. Shuningdek, Cong Li va boshqalarning tadqiqotida PBL guruhi biznes-ingliz yo'nalishidagi talabalar bilan solishtirilganda og'zaki kompetensiyada sezilarli yaxshilanish kuzatilgani aniqlangan [2]. Bu natija PBL metodining turli kontekstlarda, xususan, tilni professional va real hayotiy vazifalar bilan integratsiya qilgan holda qo'llash samaradorligini tasdiqlaydi. Uzoq muddatli PBL mashg'ulotlari ham ijobiy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan. Abu Bakar va boshqalar 12 haftalik PBL dasturida o'quvchilarning og'zaki kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada oshganini qayd etgan [3]. Bu esa metodning muntazam tatbiqi orqali o'quvchilarning kommunikativ malakalarini barqaror shakllantirish imkonini beradi.

Yozma nutq bo'yicha ham PBL samaradorligi tadqiq qilingan. Mamarajabova olib borgan tadqiqotda PBL yordamida o'quvchilarning matn tuzilishi, leksik va grammatik aniqligi an'anaviy dars guruhidan sezilarli ustunligi bilan ajralib turgan. Ushbu natija PBL metodining nafaqat og'zaki, balki yozma kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishdagi salohiyatini ko'rsatadi. Bundan tashqari, Z.Nurmira tadqiqotida PBL doimiy qo'llanilganda o'quvchilarning og'zaki va tinglash ko'nikmalari, shuningdek, mustaqil o'rganish faoliyati sezilarli darajada rivojlangani qayd etilgan. Shu bilan PBL o'quvchilarning mustaqil o'rganish va tanqidiy fikrlash qobiliyatini ham shakllantirishga yordam beradi.

Oxirgi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, PBLni raqamli kollaborativ platformalar bilan birlashtirish o'quvchilarning tilga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va speaking hamda writing ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Saydullayeva va Baratova o'z tadqiqotida PBL + digital tools kombinatsiyasi orqali dars jarayonini interaktiv va samarali qilish mumkinligini ta'kidlagan [6]. Yuqoridagi tadqiqotlar PBL metodini 8–9-sinf o'quvchilari uchun samarali ekanligini ko'rsatadi. PBL o'quvchilarga tilni real vazifalarda qo'llash, hamkorlikda ishlash, ijodiy va tanqidiy fikrlash, mustaqil o'rganish kabi XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar 8–9-sinf o'quchilarida PBL metodini qo'llashning samaradorligini ko'rsatadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, PBL + raqamli vositalar kombinatsiyasi 8–9 sinf o'quvchilarini tilni amaliy, kommunikativ va madaniy kontekstda egallashga imkon beruvchi eng samarali pedagogik yondashuv hisoblanadi. Shu yondashuv bilan o'quvchilarning nutq va yozma ko'nikmalari, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko'nikmalari bir vaqtning o'zida rivojlantiriladi, bu esa ularni real hayot va professional faoliyatga tayyorlaydi [8: 30–35].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Talapova A.K., Abay G. The Role of Project-Based Learning in Developing Speaking Skills Among Secondary School Students // Progress in Science, 2025, №11.
2. Li C., Noordin N.B., Ismail L. Effectiveness of Project-Based Learning in Improving Chinese EFL Learners' Oral Communicative Competence // English Language Teaching, 2025, 18(8).
3. Abu Bakar N.I., Noordin N., Razali A.B. Improving Oral Communicative Competence in English Using Project-Based Learning Activities // English Language Teaching, 2008, №4.
4. Mamarajabova F.B. Using Project-Based Learning to Improve English Writing Skills in Secondary Schools // Pedagogs, 2024. Vol 80, Issue 1.
5. Nurmira Z. va boshq. Fostering Communicative Competence Through Project-Based Learning: A Pathway to Autonomous ESL Development // International Journal of Innovative Research and Scientific Studies, 2025, 8(4). – P. 1788–1794.
6. Saydullayeva O., Baratova K. Improving English Language Education through Project-Based Learning and Collaborative Digital Tools // Modern Science and Research, 2025, 4(4). – P. 210–211.
7. Tursunova H.B. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) // Modern Education and Development, 2025, 24(4). – P. 10–14.
8. Malaysian Technical College PBL Study // E-Conference Series, 2025, 5(1). – P. 30–35.

Dilobar ANVAROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich magistranti

TIL TA'LIMIDA SOTSIOPRAGMATIK KOMPETENSIYANI MEDIAVOSITALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada til ta'limida sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda mediavositalarning o'rni va ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda autentik media materiallar orqali o'rganuvchilarning ijtimoiy-madaniy kontekstga mos nutq ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sotsiopragmatik kompetensiya, til ta'limi, mediavositalar, madaniy kontekst, kommunikativ kompetensiya.

Annotation. This article examines the role of media tools in developing sociopragmatic competence in language education. It analyzes how authentic media materials contribute to learners' ability to use language appropriately in social and cultural contexts.

Keywords: sociopragmatic competence, language education, media tools, cultural context, communicative competence.

Аннотация. В статье рассматривается роль медиасредств в развитии социопрагматической компетенции в языковом образовании. Анализируются возможности использования аутентичных медиаматериалов для формирования навыков речевого общения с учетом социально-культурного контекста.

Ключевые слова: социопрагматическая компетенция, языковое образование, медиасредства, культурный контекст, коммуникативная компетенция.

Sotsiopragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u til o'rganuvchining ijtimoiy vaziyatga mos ravishda til birliklarini tanlashi, madaniy kontekstni hisobga olgan holda muloqot qilishi, nutq madaniyatini to'g'ri qo'llashi kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Canale va Swain ishlab chiqqan kommunikativ kompetensiya modelida sotsiopragmatik jihatlar sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi [1]. Byram esa intermadaniy kompetensiyani til o'rgatishda asosiy omil sifatida ko'rsatadi [2]. Unga ko'ra, til o'rganuvchi nafaqat tilni, balki madaniyatlararo muloqotda qanday harakat qilishni ham bilishi kerak. Bu esa sotsiopragmatik kompetensiyaning muhimligini yanada oshiradi. Sotsiopragmatik kompetensiya tarkibida quyidagi elementlar mavjud:

– ijtimoiy kontekstni anglash (status, yosh, yaqinlik darajasi);
– madaniy skriptlar (salomlashish, minnatdorchilik, rad etish);
– muloyimlik strategiyalari (yumshatish, bilvosita ifoda);
– nutq janrlari va ularning konvensiyalari.

Bu elementlar til o'rganuvchining real hayotdagi muloqotda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlaydi.

Mediavositalar – audio, video, matnli va interaktiv platformalar bo'lib, ular orqali til o'rganuvchilar real hayotiy muloqot namunalarini kuzatishlari, tahlil qilishlari va ulardan foydalanishlari mumkin. Masalan, filmlar, seriallar, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlar, yangiliklar va reklama roliklari sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi.

J.P.Gee ta'kidlaganidek, mediavositalar orqali o'quvchilar kontekstual tilni o'rganadilar, bu esa ularning pragmatik sezgirligini oshiradi [4]. Chapelle esa texnologik vositalarning til o'rgatishdagi afzalliklarini ko'rsatib, ularni sotsiopragmatik kompetensiyani shakllantirishda qo'llashni tavsiya qiladi [5]. Mediavositalarning afzalliklari:

– autentik materiallar asosida o'rganish;
– multimodal (audio, video, matn) yondashuv;
– interaktivlik va refleksiya imkoniyati;
– madaniy kontekstni real ko'rinishda o'rganish.

Shuningdek, mediavositalar yordamida o'quvchilar o'z nutqini yozib olib tahlil qilish, xatolarini aniqlash va tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zamonaviy til ta'limida mediavositalardan foydalanishning yangi bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Interaktiv platformalar orqali ssenariy asosida muloqot mashqlari yaratish.
2. Sun'iy intellekt yordamida real vaqtli muloqot simulyatsiyalarini tashkil etish.
3. Madaniy kontekstli video materiallar asosida tahliliy topshiriqlar ishlab chiqish.
4. Ijtimoiy tarmoqlardagi real muloqotlarni tahlil qilish orqali pragmatik xatolarni aniqlash va tuzatish.
5. Multimodal vositalar (audio, video, matn) orqali sotsiopragmatik vaziyatlarni modellashtirish.

N.Taguchi, N.Ishihara va Cohen tadqiqotlarida mediavositalar yordamida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish samarali ekani ko'rsatilgan. Bu yondashuvlar orqali o'quvchilar nafaqat tilni o'rganadilar, balki uni real hayotda qanday qo'llashni ham o'zlashtiradilar. Masalan, ingliz tilida *Could you please...* kabi iboralar yordamida muloyimlik ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu vazifani *iltimos, marhamat* kabi so'zlar bajaradi. Mediavositalar orqali bu kabi iboralarni kontekstda ko'rish va ularni taqqoslash orqali o'quvchilar sotsiopragmatik farqlarni anglaydilar. Boshqa misollar:

✓ Rad etish: *I'm afraid I can't make it today* (yumshatilgan rad etish).
✓ Tanqid: *You did well, but maybe next time try...* (sandwich feedback).
✓ Ijtimoiy tarmoqlarda: emoji, qisqartmalar, hashteglar orqali ifoda etilgan hissiyotlar.
✓ Bu misollar orqali o'quvchilar turli kontekstlarda qanday nutq strategiyalarini qo'llashni o'rganadilar. Sotsiopragmatik kompetensiyani baholash uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

– Pre- va post-testlar orqali o'zgarishni o'lchash;
– dialog tahlili va transkripsiya asosida xatolarni aniqlash;
– reflektiv esse va portfel baholash;
– analitik rubrikalar: muloyimlik, kontekstga moslik, madaniy sezgirlik.

Kasper va Rose, Vandergriff tadqiqotlarida sotsiopragmatik baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Bu yondashuvlar o'quvchilarning rivojlanishini aniq ko'rsatishga yordam beradi.

Sotsiopragmatik kompetensiyani rivojlantirish til o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mediavositalar esa bu jarayonda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish orqali o'quvchilarning tilni ijtimoiy-madaniy kontekstda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalari shakllanadi. Kelgusida bu yo'nalishda yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // Applied Linguistics, 1980ю Vol. 1, №1.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Bristol: Multilingual Matters, 1997.
3. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993.
4. Gee J.P. Situated Language and Learning: A Critique of Traditional Schooling. – London: Routledge, 2004.
5. Chapelle C.A. English Language Learning and Technology. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2003.
6. Taguchi N. Teaching pragmatics: Trends and issues // Annual Review of Applied Linguistics, 2011. Vol. 31, №1.
7. Ishihara N., Cohen A.D. Teaching and Learning Pragmatics: Where Language and Culture Meet. – Boston: Pearson Education, 2010.
8. Kasper G., Rose K.R. Pragmatic development in a second language. – Malden: Blackwell Publishing, 2002.
9. Vandergriff I. Second-language Discourse in the Digital World. – Amsterdam: John Benjamins Publishing, 2016.
10. Thorne S.L. Artifacts and cultures-of-use in intercultural communication // Language Learning & Technology, 2003. Vol. 7, №2.

Mexroj QUDRATOV,
Xalqaro innovatsion universiteti pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

MAKTAB O'QUVCHILARINI MUSIQA DARSLARI ORQALI ESTETIK TARBIYALASHNING MAZMUN VA MOHIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 6–7-sinflarda musiqa darslari orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashning mazmun-mohiyati, ularning estetik madaniyatini shakllantirish masalalari bayon etilgan.
Kalit so'zlar: musiqa darsi, estetik tarbiya, milliy ashula, estetik did, musiqiy idrok, musiqa madaniyati, badiiy tafakkur, pedagogik mahorat.
Annotation. This article outlines the content of aesthetic education for students in grades 6–7 through music lessons and the issues of shaping their aesthetic culture.
Keywords: music lesson, aesthetic education, national song, aesthetic taste, musical perception, musical culture, artistic thinking, pedagogical mastery.
Аннотация. В данной статье изложено содержание эстетического воспитания учащихся 6–7 классов посредством уроков музыки, вопросы формирования их эстетической культуры.
Ключевые слова: урок музыки, эстетическое воспитание, национальная песня, эстетический вкус, музыкальное восприятие, музыкальная культура, художественное мышление, педагогическое мастерство.

Bugungi kunda jamiyat hayotida ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarning o'zaro ta'siri kuchayib borayotgan bir sharoitda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasida musiqa va san'at darslarining maktablarda har tomonlama yaxshi tashkil etilishi va o'tkazilishi yosh avlod ongi va qalbiga milliy-ma'naviy merosimizni singdirish va milliylik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Aynan umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa darlsarining ustozlar tomonidan mahorat bilan o'tilishi bolalarning qalbida go'zallikka bo'lgan muhabbatni uyg'otadi, axloqiy qadriyatlarni singdiradi va ularni ijodiy faoliyatga ilhomlantiradi. Musiqa madaniyati fani umumta'lim maktablarida o'quvchilarning estetik dunyoqarashini kengaytiribgina qolmay, ularni ma'naviy jihatdan boyituvchi muhim fanlardan biridir. Ayniqsa, 6–7-sinflarda o'quvchi yoshlarning psixologik, hissiy va idrok qobiliyatlari tez va aniq rivojlanadigan davr bo'lib, musiqa san'ati orqali ularda go'zallikni his etish, milliy qadriyatlarimizga hurmat va e'zoz bilan qarash, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqa madaniyati darslari o'quvchilarning ijodiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, ularni musiqaviy ifoda vositalarini anglash, kuy hamda ritmni his qilishga o'rgatadi. Shu orqali estetik idrok va musiqiy didni shakllantirish uchun yoshlarimizga zarur sharoit yaratiladi [1]. Holbuki bu ulug'vor vazifalarni amalga oshirishda musiqashunos, shoir va qo'shiq ijrochilarining maqbul kashf qilgan usullari katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayon asrlar davomida yanada mukammal takomillashib sayqal topib borgan. Inson san'atga, adabiyotga bo'lgan mehr bevosita ta'lim va tarbiya bilan shug'ullana boshlagan davrlardan boshlangan desak xato bo'lmaydi. Ammo, musiqa va sharq adabiyoti namunalarini sharhlash, uning matn mohiyatini chuqur anglash uchun talabgordan o'tkir zehn, esda saqlab qolish bilan bog'liq xotira, ma'nan yuksak tafakkur talab qilingan.

Estetik tarbiya bu – o'quvchilarda go'zallikni anglash, his etish va uni hayotda, san'atda ifodalash qobiliyatini shakllantirish va dunyoqarashini mukammallashtirish jarayonidir. Musiqa darslari estetik tarbiyaning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Chunki musiqa insonning ruhiyatiga bevosita ta'sir etib, his-tuyg'ularini uyg'otadi, ularni ijobiy yo'nalishga yo'naltiradi.

6–7-sinflarning musiqa darslarida o'quvchilarni milliy va jahon klassik musiqa merosi bilan tanishtirib, musiqaning badiiy ahamiyatini anglash, qo'shiqlar mazmuni orqali axloqiy-estetik g'oyalarni singdirishga qaratiladi. Ushbu jarayonda o'quvchi yoshlar nafaqat musiqani tinglaydilar, murakkab asarlardan oddiy asarlarni, balki uni tahlil qilish, o'z fikrini bildirish, va his etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.Umumta'lim makta blarida musiqa darslarida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash masalasi, ularni har tomonlama tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlari sifatida ilmiy va amaliy tadqiqotlar keng qamrovli tahlilni talab qiladi. Ushbu sohada yaratilgan adabiyotlar inson shaxsiyati rivojida musiqa va san'atning muhimligini chuqur yoritib beradi. Dastlabki tadqiqotlar axloqiy-estetik tarbiyaning nazariy asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan. Jumladan, J.Dewey, I.Kant va boshqa klassik pedagoglar axloqiy-estetik tarbiyaning jamiyat rivoji va shaxsiy kamolotdagi o'rnini ta'kidlab, san'atni shaxsiy tajribani boyituvchi vosita sifatida ko'rsatgan. Ularning asarlarida san'atning inson hissiyotlari va axloqiy qarashlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Ushbu g'oyalar zamonaviy musiqa ta'limi pedagogikasining nazariy asoslarini tashkil qiladi [2].

Umumta'lim maktablarining o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan musiqa madaniyati faniga alohida e'tibor berilib borilmoqda. Masalan, 6-sinflarning musiqa darslarida mumtoz musiqa haqida umumiy tushunchalar, mumtoz kuy va qo'shiqlar, II chorakda esa zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari mavzusi asosida folklor va bolalar asarlari mavjud. Shuningdek keying choraklardagi sharq xalqlari mumtoz musiqasi va qardosh halqlar qo'shiq va kuylari xam, yevropa mumtoz musiqasi haqida tushunchalar, chet el kompozitorlari asarlari xam shular jumlasidandir. 7-sinflarda esa mavzular murakkablashib, xalq musiqasining mahalliy uslublari, dostonchilik aytimlari, shashmaqom tushunchalari berilib boriladi. Dasturga kiritilgan barcha asarlar vositasida o'quvchilarni ma'naviy tafakkurini shakillantirish, estetikasini boyitish uchun xizmat qiladi. Mazkur masalani amalga oshirish uchun, bevosita muqobil usullarni yaratish va ularni amalda qo'llash ushbu maqolamizning asosini tashkil qiladi.

O'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalash usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish, bugungi kunda musiqa darslarida estetik tarbiya muammosini chuqur tadqiq etishni talab etmoqda. Bu jarayon bizning oldimizga katta vazifalarni qo'yadi. Ushbu vazifalarni bajarish orqali umumta'lim maktablarida o'quvchilarni estetik tarbiyalash metodlarini shakllantirish, Sharqona va milliy ashulalar hamda ular uchun tanlangan she'riy matnlar vositasida o'quvchilarning estetik didini rivojlantirishga erishiladi [3]. Shuningdek, o'quv predmetlari doirasida sohaga oid muammolarni hal etish tamoyillari, shakl va metod vositalarini nazariy asoslash hamda ularni amaliyotga joriy etish jarayoni ham shu yo'nalishga xizmat qiladi.

Ushbu tamoyillar asosida umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlarni estetik tarbiyalash metodlarini ishlab chiqish jarayonida pedagogik ta'sir ko'rsatish usullarini aniqlashga intildik. Chunki har bir mashg'ulot turi o'ziga xos pedagogik vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- **An'anaviy tur** – musiqiy faoliyatning barcha ma'lum turlaridan izchil tarzda foydalanishni o'z ichiga oladi.
- **Ustun tur** – bu turda musiqiy faoliyatning bir turi asosiy o'rin egallaydi.
- **Mavzuli tur** – mashg'ulotlar muayyan mavzu atrofida tashkil etiladi.
- **Kompleks tur** – turli san'at turlari materiallariga tayanib, muayyan mavzuni yoritishga qaratiladi.

Musiqa madaniyati darslarini o'rgatib borishda musiqa o'qituvchilariga 6-7 sinflar uchun nashr etilgan "Umumiy ta'lim maktablari musiqa dasturlari" manfaatli yordam beradi. Darslarni o'tish hamda tajriba o'tkazish jarayonida dasturlarda ko'rsatib berilgan asarlardan to'laqonli foydalanish yoki ulardan ayrimlarini ularning salohiyatiga mos ravishda boshqa maqbul asarlar bilan almashtirib ham mumkinligini unutmaslik lozim [4]. Bunday repertuarlarni tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish zarur:

– o'zbek musiqasi asarlarining yuksak badiiy va tarbiyaviy ahamiyati.

– unda yoritilgan she'riy matnning mazmun-mohiyati orqali o'quvchilarni estetik tarbiyalashga xizmat qilishi.

– o'quvchilarning musiqa asarini idrok etish va ijro qilishi uchun qulay bo'lishi.

– musiqa asarlari janr va turlarining xilma-xilligi.

– hissiy va estetik ta'sir ko'rsatish kuchi, yorqin va xilma-xil hissiyotlar uyg'onish imkoniyatlari darajasi musiqiy idrok va faoliyatning ijodiy tomonlarini faollashtirish imkoniyati.

Musiqani xalq yaratadi. Bastakor va kompozitorlar esa uni xalqdan olib qayta ishlab, jilo berib, mukammal ijro sifatida yana xalqqa namoyon qiladilar. 6–7-sinflar o'zbek xalq qo'shiqlarini maroq bilan sevib tinglaydilar va tushunadilar. Bundan tashqari ashula, yalla, lapar va terma janrlaridagi turli asarlar ham ularda zo'r qiziqish uyg'otadi.

Bugungi kunda estetik tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli va izchil hal etish maktab yoshlarini tarbiyalash jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida alohida e'tibor markazida turganligini bilamiz. Estetik tarbiyaning eng asosiy hamda murakkab yo'nalishlaridan biri bu – musiqa tarbiyasi. U yosh avlodni musiqa san'ati asarlarini anglash, his etish va ijro etish ko'nikmalariga ega bo'lishga yo'naltiradi hamda bu jarayonni kichik yoshdan boshlash zaruratini taqozo etadi.

Musiqa va san'at o'zining boy va ta'sirchan imkoniyatlari bilan har doim axloqiy-estetik tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bugungi globallashuv sharoitida bu sohalar faqat badiiy ijodiyotni rivojlantirish vositasi emas, balki yoshlarda insoniy qadriyatlarni shakllantirish, ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan boyitish uchun muhim poydevor sifatida qaralmoqda. Muhokama davomida musiqa va san'at maktablarida axloqiy-estetik tarbiyani amalga oshirish masalalari atroflicha ko'rib chiqiladi. Avvalo, musiqa va san'atning shaxs rivojiga ta'sirini tushunish lozim. San'at o'quvchilarning nafaqat ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning ichki dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Masalan, musiqiy asarlarni ijro etish jarayonida o'quvchi inson ruhiyatini anglashni o'rganadi, san'at asarlarini tahlil qilish orqali estetik didini shakllantiradi va o'zining axloqiy qarashlarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, musiqa va san'at maktablari o'quvchilarni nafaqat ijodkor, balki insoniylik fazilatlarini teran anglaydigan shaxs sifatida tarbiyalaydi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda bir qancha muammolar mavjud. Ulardan biri – zamonaviy texnologiyalar va ommaviy madaniyatning yoshlarga bo'lgan ta'siridir. Shunday bo'lsada, musiqa mashg'ulotlarining innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishi darslarning qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlasada o'quvchilarda o'zbek musiqasi mazmuni va o'ziga xos xususiyatlariga doir tushuncha va tasavvur hosil qilish ancha murakkabdir. Har bir so'zlarni ongli tushunib idrok etish, ma'naviy jihatdan singdirish uzoq vaqt davom etadigan jarayondir [5]. Bunda vazifa o'quvchilarning musiqani va uning mazmunini ongli idrok etishlari elimentar tahlil qilishlari va ularning musiqa haqidagi bilimlarini boyitib borish asosiy vazifa deb bajarilishi qaraladi.

Yuqoridagi fikr-mulohalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, maktablarda musiqa darslarida milliy ashula, kuy va xalq og'zaki ijodi namunalarining ustozlar tomonidan mahorat bilan kuylanishi, talabalarga yetkazilishi o'lmas madaniy meros sifatida nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantiruvchi kuchli vositadir. Musiqa va san'at maktablarida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash bu murakkab jarayon bo'lib, u nafaqat o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki ularning insoniylik fazilatlarini mustahkamlaydi, ma'naviy dunyosini boyitadi va hayotga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, maktablarda musiqa o'qituvchilarining musiqiy savodxonligi va ijro mahoratining yuksakligi va dars o'tishdagi pedagogik mahoratini namoyon etishi o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishi va axloqiy ma'naviyatining shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Demak, bu jarayon muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun o'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarni o'rgatuvchi, balki ilhomlantiruvchi shaxs bo'lishi kerak. Ularning mahorati, o'quvchilarga individual yondashuvi va ijodkorlikka rag'batlantirishi axloqiy-estetik tarbiyaning natijadorligiga

bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, musiqa va san'at ta'limida milliy qadriyatlarni jahon madaniyati bilan uyg'unlashtirish yosh avlodni keng dunyoqarashli va madaniy jihatdan boy shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev R. Maktabda musiqa madaniyati darslarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
2. Mardonova A. O'zbek musiqasi va madaniy qadriyatlar. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020.
3. Fayzullayev E. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. – Toshkent, 2008.
4.Qurbonov B. Estetik tarbiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2016.
5. Sharipov G. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2001.

Marjona HAKIMOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA VENN DIAGRAMMASIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'qish savodxonligi darslarida Venn diagrammasidan foydalanishning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Grafik tashkilotchilar, xususan, Venn diagrammasi, boshlang'ich sinf o'quvchilarining taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutishi asoslab beriladi. Metoddan foydalanishning afzalliklar dars jarayonida qo'llash bosqichlari hamda amaliy misollar bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: Venn diagrammasi, o'qish savodxonligi, grafik tashkilotchi, taqqoslash, tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim.

Annotation. This article analyzes the effectiveness of using Venn diagrams in reading literacy lessons scientifically, theoretically, and practically. It has been substantiated that graphic organizers, particularly Venn diagrams, play an important role in the formation of comparison, analysis, generalization, and critical thinking competencies in primary school students. The advantages of using the method are explained by the stages of its application in the lesson process and practical examples.

Keywords: Venn diagram, reading literacy, graphic organizer, comparison, critical thinking, primary education.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируется эффективность использования диаграммы Венна на уроках грамотности чтения. Обосновано, что организаторы графиков, в частности, диаграммы Венна, играют важную роль в формировании компетенций сравнения, анализа, обобщения, критического мышления учащихся начальных классов. Преимущества использования метода объясняются этапами применения в процессе урока и практическими примерами.

Ключевые слова: Диаграмма Венна, читательская грамотность, графический организатор, сравнение, критическое мышление, начальное образование.

So'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, pedagogik ta'limni maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimi bilan uzviy bog'lashga oid yangi yondashuvlar, boshlang'ich ta'lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda o'quvchilarning nutq kompetensiyasini shakllantirish, fikrni mantiqan izchil ifodalash, muloqot madaniyatini rivojlantirish hamda matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash dolzarb masalaga aylandi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchini faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ko'rishni taqozo etmoqda. Shu sababli dars jarayonida interfaol strategiyalar, kommunikativ metodlar, savol-javob texnologiyalari, muammoli vaziyatlar asosida o'qitish va raqamli vositalardan foydalanish keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq kompetensiyasini rivojlantirishda tinglab tushunish, o'qib anglash, og'zaki izoh berish, ijodiy fikrlash, matnni tahlil qilish kabi faoliyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun pedagogning metodik tayyorgarligi, darsda qo'llaniladigan usullar xilma-xilligi va ularning o'quvchi yosh xususiyatiga mosligi muhim hisoblanadi. Shu ma'noda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq kompetensiyasiga doir ilmiy-tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari, zamonaviy texnologiyalarning amaliy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Global miqyosda o'quvchilarning o'qish savodxonligi darajasi ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanmoqda. Xususan, PISA tadqiqotlarida matnni tahlil qilish, taqqoslash, asosiy g'oyani anglash kabi ko'nikmalar asosiy kompetensiyalar qatoriga kiradi. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda grafik tashkilotchilardan, ayniqsa, Venn diagrammasidan samarali foydalanish ta'lim jarayonida yuqori natija beradi [1: 12]. Venn diagrammasi ikki yoki undan ortiq obyektni taqqoslash va ularning umumiy hamda farqli jihatlarini aniqlash imkonini beruvchi vizual metod bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qulay va tushunarli vosita hisoblanadi [2: 45].

Venn diagrammasining nazariy asoslari. Ta'lim jarayonida vizual grafik tashkilotchilar, ayniqsa, taqqoslash va tahlilga asoslangan topshiriqlarda muhim vosita hisoblanadi. **Grafik tashkilotchilar** – ma'lumotni **ko'rgazmali chizma, jadval yoki diagramma** ko'rinishida ifodalashga yordam beradigan didaktik vositalardir. Ular o'quvchining fikrini tartibga soladi, matnni tushunishni osonlashtiradi va tahlil qilishni yengillashtiradi [5]. Shulardan biri bo'lgan Venn diagrammasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Venn diagrammasi dastlab mantiqiy munosabatlarni ifodalash uchun yaratilgan bo'lsa-da, zamonaviy pedagogikada uni kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi universal metod sifatida qo'llash ommalashgan. Tadqiqotlar ushbu metod o'quvchilarning matnni chuqur tushunish darajasini oshirishda yuqori samara berishini ta'kidlaydi, chunki u axborotni qayta ishlash, strukturalash va mazmunlararo aloqalarni aniqlashni osonlashtiradi [3: 102].

Venn diagrammasini ingliz matematigi Jon Venn XIX asrda ishlab chiqqan bo'lib, dastlab mantiqiy to'plamlar nazariyasini oson ifodalash uchun qo'llangan. Ammo keyinchalik diagramma ta'limning lingvistika, adabiyotshunoslik, biologiya, tarix, matematika va boshlang'ich ta'lim kabi yo'nalishlarida juda keng qo'llanila boshladi. Buning sababi shundaki, u ikki yoki undan ortiq obyektlar yoki hodisalarni bir vaqtning o'zida ko'rish, solishtirish va farqlash imkonini beruvchi eng qulay grafik model hisoblanadi.

Zamonaviy konstruktiv ta'lim nazariyalari – Piajening kognitiv rivojlanish bosqichlari, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi hamda Brunerning kashfiyotga asoslangan o'qitish modeli – o'quv jarayonida vizual modellar qo'llanilishini qo'llab-quvvatlaydi. Xususan, grafik tashkilotchilardan foydalanish o'quvchilarni faol o'rganishga undaydi, mustaqil izlanish va tahlilga yo'naltiradi [4: 59].

Venn diagrammasining asosiy ustun jihatlaridan biri – o'quvchi fikrini faollashtirish va jarayonda bevosita ishtirokchi sifatida jalb qilishidir. O'quvchi ikki matn, ikki qahramon, ikki voqea yoki ikki tushunchani solishtirish jarayonida ma'lumotlarni saralaydi, o'xshashlik va farqlarni mustaqil aniqlaydi, bu esa uning tanqidiy fikrlashini kuchaytiradi. Shu bois ushbu metod boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash madaniyatini shakllantirishda, o'qish savodxonligini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi.

O'qish savodxonligi darslarida Venn diagrammasining didaktik ahamiyati. O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar matnlar bilan ishlash jarayonida ma'lumotlarni taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi ko'nikmalarga ehtiyoj sezadilar. Venn diagrammasi esa bu jarayonni soddalashtirib, o'quvchiga ikki matn yoki ikki obraz o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniq ko'ra olish imkonini beradi. Shu bois ushbu metod tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda juda qulay vosita sifatida baholanadi [2: 48].

Venn diagrammasining didaktik ahamiyati bir necha jihatda ko'zga tashlanadi. Avvalo, u o'quvchi ongida ma'lumotlarning tartibli joylashishiga yordam beradi. Matndagi asosiy mazmunni ajratish, voqealar rivoji yoki qahramonlarning xatti-harakatlarini solishtirish o'quvchilar uchun ancha yengillashadi. Bu jarayonda o'quvchilar sabab va oqibatlar o'rtasidagi bog'lanishlarni ham mustaqil topa boshlaydi. Shuningdek, murakkab yoki mavhum tushunchalar ham grafik tasvir tufayli tushunarliroq bo'lib qoladi.

Ushbu metod ayniqsa qiyoslashga asoslangan topshiriqlarda yuqori natija beradi. Masalan, ikki ertakdagi qahramonlarning xarakterini solishtirish yoki voqealarning qanday tarzda rivojlanishini ko'rib chiqishda o'quvchi mustaqil xulosaga keladi. Bu esa o'qish savodxonligining asosiy kompetensiyalari – tahlil, solishtirish, xulosa chiqarish, fikrni asoslashni faol shakllantiradi. Tadqiqotlar ham Venn diagrammasining o'quvchilarning matnni tushunish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan. O'quvchi matndan muhim ma'lumotlarni ajratib oladi, fikrlar orasidagi bog'lanishlarni ko'ra boshlaydi, o'z qarashini mantiqiy asoslay oladi [1: 25]. Bu esa uning savodxonlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Dars jarayonida Venn diagrammasidan foydalanish bosqichlari. Venn diagrammasidan dars jarayonida samarali foydalanish uni izchil bosqichlarda tashkil etishni talab qiladi. Avvalgi bosqichda o'qituvchi taqqoslashga qo'yiladigan obyektlarni aniqlab oladi. Bu ikki matn, ikki qahramon, ikki voqea yoki o'quvchilarga tanish bo'lgan boshqa tushunchalar bo'lishi mumkin. Taqqoslanadigan materialning to'g'ri tanlanishi keyingi jarayonning mazmunli tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Asosiy bosqichda o'quvchilar diagramma ustida mustaqil faoliyat olib boradilar. Ular o'xshash belgi va xususiyatlarni diagrammaning kesishgan qismida, farqli tomonlarini esa har bir doira ichida alohida joylashtirib boradilar. Bu jarayon o'quvchilarni fikrlashga undaydi, o'qishda faol ishtirok etishga yo'naltiradi. Darsning ana shu qismi ayniqsa jonli, savol-javobga boy, interaktiv tarzda kechadi [3. 104]. Yakuniy bosqichda o'quvchilar tuzilgan diagramma asosida umumiy xulosaga keladilar. Ular hikoyadagi qahramonlarning xulq-atvori yoki matnlardagi g'oyaviy farqlarni taqqoslab, o'z fikrlarini asoslab berishga harakat qiladilar. Mazkur jarayon o'quvchilarning tahliliy fikrlashini kuchaytiradi, matn mazmunini teran anglashga yordam beradi [4: 66]. Amaliyotda bu metod ko'pincha adabiy o'qish darslarida qo'llanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda "O'rtoq kitob" hamda "Do'st" hikoyasini taqqoslash jarayonida o'quvchilar ikki qahramonning hulqi, duch kelgan muammosi, voqea rivoji va hikoyalarning umumiy g'oyasini osongina solishtira oladilar. Bu ularga o'xshash va farqli tomonlarni mustaqil ravishda aniqlash, hikoyalar mazmunini chuqurroq tushunish imkonini beradi [2: 51]. Umuman olganda, Venn diagrammasidan foydalanish o'quvchi tafakkurini faollashtiradi, ularda tahlil, solishtirish, umumlashtirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Eng muhimi, o'quvchi matn mazmunini passiv o'zlashtirmaydi, balki uni faol qayta ishlaydi va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadi.

O'qish savodxonligi darslarida Venn diagrammasidan foydalanish o'quvchilarning matn ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Diagramma orqali o'quvchi berilgan ma'lumotlarni solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish va o'z xulosasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday faol jarayon tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga, matn mazmunini chuqurroq anglashga va o'qish jarayoniga qiziqishning ortishiga xizmat qiladi. Metodning sodda va tushunarli tuzilishi, vizual ko'rinishining qulayligi uni boshlang'ich ta'limda ayniqsa samarali qiladi. O'quvchilar grafik tasvirlar orqali matnlar o'rtasidagi bog'lanishlarni tezroq anglaydilar, asosiy mazmunni ajratish va fikrlar o'rtasidagi munosabatni aniqlash ularga osonroq kechadi. Eng muhimi, Venn diagrammasidan muntazam foydalanish o'quvchilarni matnni faqat o'qib chiqishga emas, balki uni qayta ishlash va chuqur tahlil qilishga o'rgatadi. Shu bois ushbu meto o'qish savodxonligi darajasini oshirishda, o'quvchilarning tafakkurini faollashtirishda va o'quv jarayonini mazmunan boyitishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanov B. O'qish savodxonligi asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Yo'ldosheva M., Abdurahmonova S. Boshlang'ich ta'limda grafik tashkilotchilar. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
3. Johnson D., Pearson P. Graphic Organizers in Reading. – New York: Scholastic Press, 2018.
4. Karimova D. Tanqidiy fikrlash texnologiyalari. – Toshkent: Talqin, 2019.
5. Matyokubova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Ziyo-Media, 2022.

Laylo MIRZOXIDOVA,
Pedagogik mahorat instituti boshlang'ich ta'lim va filologiya fanlari metodikasi kafedrasi dotsenti

ONA TILI MASHG'ULOTLARIDA ILMIY MATN BILAN ISHLASH USULLARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida ilmiy matnlar bilan ishlashning didaktik ahamiyati, ilmiy matnning o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdagi o'rni hamda funksional-uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy matnning aniqlik, obyektivlik, mantiqiylik, terminologik izchillik kabi belgilari o'quvchilar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishdagi asosiy omil sifatida yoritiladi. Shuningdek, "Oy" mavzusi misolida ilmiy matn bilan ishlashning bosqichlari, ilmiy-uslubiy tahlil, dalil–fikr–xulosa usuli hamda evristik savollar orqali o'quvchilarda ilmiy tafakkur va mustaqil fikrlashni faollashtirish yo'llari metodik jihatdan yoritib beriladi.
Kalit so'zlar: ilmiy matn, ilmiy uslub, tahliliy fikrlash, tanqidiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash, matn tahlili, ilmiy nutq.
Annotation. The article analyzes the didactic significance of working with scientific texts in modern educational the process, the role of the scientific text in the development of analytical and critical thinking in students, as well as its functional methodological features. Such features of the scientific text as accuracy, objectivity, logicality, terminological consistency, are highlighted as the main factor in the formation of necessary competencies in students. Also using the example "Moon" topics methodically illuminate the stages of working with a scientific text, scientific-methodological analysis, and the method of argumentation-thought. Conclusions, as well as ways to activate scientific thinking and independent thinking in students through heuristic questions.
Keywords: scientific text, scientific style, analytical thinking, critical thinking, scientific worldview, text analysis, scientific speech.
Аннотация. В статье анализируется дидактическое значение работы с научными текстами в современном образовательном процессе, роль научного текста в развитии аналитического и критического мышления у учащихся, а также его функционально-методические особенности. Такие признаки научного текста, как точность, объективность, логичность, терминологическая последовательность, освещаются как основной фактор формирования необходимых компетенций у учащихся. Также на примере темы «Луна» методически освещаются этапы работы с научным текстом, научно-методический анализ, метод аргументации-мысли-вывода, а также способы активизации научного мышления и самостоятельного мышления у учащихся посредством эвристических вопросов.
Ключевые слова: научный текст, научный стиль, аналитическое мышление, критическое мышление, научное мировоззрение, анализ текста, научная речь.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchidan nafaqat tayyor bilimlarni qabul qilishni, balki ularni mustaqil tahlil qilish, fikrlarni asoslash, dalillarni tekshirish va xulosa chiqarishni talab qiladi. O'quvchilarda bunday ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishda ilmiy matnlar alohida ahamiyat kasb etadi [1: 2].

Ilmiy matn – aniq faktlar, dalillar va mantiqiy asoslar yordamida biror hodisani, jarayonni yoki fikrni izohlovchi, isbotlovchi matndir. U o'quvchi yoki tinglovchiga **bilim berish, tushuntirish, tahlil qilish** va **xulosa chiqarish**ni maqsad qiladi [3: 10]. Ona tili darslarida ilmiy matn bilan ishlash o'quvchilarning **mantiqiy tafakkuri, tahliliy fikrlashi, dalillash madaniyati** va **nutq aniqligini** rivojlantiradi. Ilmiy matn o'quvchilarni fakt va dalillar asosida fikr yuritishga o'rgatadi [1: 4], bu **PISA** yondashuvi bo'yicha "**o'qish savodxonligi**"ning eng muhim tarkibiy qismidir [6]. Ona tili darsliklariga **ilmiy matnlar** kiritilishining bir necha asosiy sabablari bor. Bular quyidagilar:

1. **Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.** O'quvchilarda tahliliy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida ilmiy matnlar tanlanadi. Ular orqali: hodisalarni sabab-oqibat bog'lanishida tushunish, dalil va isbotga asoslangan fikrlash, ilmiy terminologiyani o'zlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa o'quvchining tafakkurini faollashtirib, uni mustaqil fikr yuritishga undaydi [2: 7].
2. **Tilning uslubiy boyligini ko'rsatish.** Ona tili darsliklarida ilmiy matnlar tilning **ilmiy uslubi**ni amalda ko'rsatadi [11]. Bu orqali o'quvchi quyidagilarni farqlay oladi:
   - badiiy, publitsistik va ilmiy uslublarning o'ziga xos jihatlarini;
   - ilmiy uslubdagi aniq, mantiqli, hissiyotsiz ifoda shakllarini;
   - ilmiy tilda so'z tanlash va gap tuzishning o'ziga xos me'yorlarini.
3. **Fanlararo integratsiyani ta'minlash.** Ilmiy matnlar boshqa fanlar bilan bog'lanishni kuchaytiradi. Masalan: "C vitamini" mavzusi – biologiya bilan; "Energiyaning saqlanish qonuni" – fizika bilan; "Orol fojiasi" – geografiya va ekologiya bilan uzviy aloqador. Bu yondashuv o'quvchining umumiy saviyasini kengaytiradi va fanlararo fikrlashni shakllantiradi.
4. **Axborot savodxonligini rivojlantirish.** Ilmiy matnlar bilan ishlash orqali o'quvchi: ma'lumotni tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish, jadval, diagramma, grafik kabi axborot turlarini o'qish, fakt va fikrni ajrata olish ko'nikmalarini egallaydi. Bu zamonaviy ta'limning muhim talabi bo'lgan **axborot madaniyatini** rivojlantiradi.
5. **Nutq madaniyatini shakllantirish.** Ilmiy matnlar o'quvchiga: mantiqan izchil, aniq va dalillarga asoslangan nutqni shakllantirishni, fikrni qisqa, lo'nda va to'g'ri ifodalashni, so'z boyligini boyitishni o'rgatadi [11].

Ilmiy matnning asosiy xususiyatlari:

Aniqlik va mantiqlilik:
Fikrlar bir-biriga sabab-natija munosabatida bog'lanadi.
"Nima uchun?", "Qanday qilib?" kabi savollarga aniq javob beradi.
Obyektivlik [13]:
Matn muallifning shaxsiy hissiyotidan xoli bo'ladi.
Dalillar tajriba, kuzatuv yoki statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi.
Atamalardan foydalanish [9: 10]:
– Har bir sohada maxsus terminlar mavjud (masalan, "modda almashinuvi", "elektr toki", "morfologiya", "apendiks", "vitamin", "kodeks" kabi).
Izchillik va tizimlilik [3]:
– Matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'ladi.
– Fikrlar bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.
Aniq grammatik shakllar [10]:
– Odatda hozirgi yoki o'tgan zamon shakllari ishlatiladi.
– *Ko'rinadiki, demak, shuning uchun* kabi izohlovchi, aniqlovchi bog'lovchilari ko'p uchraydi.

1-jadval. Ilmiy matnning turlari

Turi	Maqsadi	Misol
ma'lumot beruvchi	ilmiy faktni tushuntirish	Suv 100°Cda qaynaydi.
tahliliy	hodisani izohlash, sababini ochish	Iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikka ta'sir qiladi.

isbotlovchi	fikrni dalillar bilan mustahkamlash	Tajriba natijasida bu nazariya tasdiqlandi.

Ilmiy matnlar bilan ishlash orqali o'quvchida quyidagi ko'nikmalar shakllanadi va rivojlanadi:

• **Tahliliy fikrlashi kuchayadi: o**'quvchi sabab-natija zanjirlarini ko'ra oladi, dalillarni tahlil qilishni o'rganadi.

• **Tanqidiy yondashuv shakllanadi: m**a'lumotni dalilsiz qabul qilmaydi, balki dalil bilan isbotini izlaydi.

• **Mantiqiy nutq rivojlanadi: f**ikrni tartibli, izchil va asosli bayon etish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

• **Mustaqil izlanish va xulosa chiqarish qobiliyati rivojlanadi: o**'quvchi o'rganilgan bilim asosida yangi savol va yechimlar taklif eta oladi.

Ilmiy matn bilan ishlash bosqichlari:

I. Tayyorgarlik bosqichi.

• mavzu haqida umumiy tushuncha berish;

• matnda uchraydigan ilmiy terminlarni tushuntirish;

• "Siz bu mavzu haqida nimalarni bilasiz?" savoli asosida K**laster** tuzish.

II. Idrok bosqichi.

• matnni ifodali o'qish (o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan);

• asosiy g'oya va dalillarni ajratish;

• muhim so'zlarni belgilash (INSERT belgilaridan foydalanish: + (bilgan ma'lumotim), – (men uchun yangi ma'lumot), ? (tushunarsiz, aniqlashtirish kerak), ! (juda muhim, e'tiborga loyiq fikr, dalil).

III. Tahlil bosqichi.

• asosiy dalil va xulosani ajratish;

• *"Sabab – natija – dalil"* zanjiri bo'yicha tahlil qilish;

• matn strukturasi (kirish, asosiy qism, xulosa)ni aniqlash.

IV. Ijodiy faoliyat bosqichi.

O'quvchi matnga nisbatan o'z fikrini bildiradi yoki yangi matn yaratadi.

V. Refleksiya bosqichi.

• Bu matndan nimalarni bildingiz?

• Qaysi fikr sizda eng katta taassurot qoldirdi?

• Bu mavzu hayotingizda qanday ahamiyatga ega?

2-jadval. Ilmiy matn bilan ishlashda samarali usullar

Metod nomi	Qisqacha mazmuni	Maqsad
INSERT	belgilab o'qish metodi	matnni faol o'qish
Klaster	mavzuni tarmoqlab yozish	asosiy tushunchalarni aniqlash
Fishbone	sabab-oqibat tahlili	mantiqiy zanjirni tushunish
SQ3R	umumiy fikr – savol – o'qish – qayta eslash – umumlashtirish – baholash	o'qish strategiyasini rivojlantirish
Diagramma	fikrni grafik shaklda ifodalash	mantiqiy bog'liqlikni ko'rish

Ona tili darsligida berilgan "Oy" matni asosida ilmiy matn bilan ishlash

OY

Xalqimizda "Oyda ham dog' bor" degan naql bor. Bu naql bejiz aytilmagan. To'liq oy paytida Oyga tikilib qarasangiz, haqiqatan ham uning sirtida qandaydir dog'lar borligini ko'rasiz. Uzoq vaqtlargacha bu dog'lar sirligicha qolib keldi. Yerdan Oy oddiy ko'z bilan kuzatilsa, har doim uning sirtida bir xil kulrang dog'larni ko'rish mumkin. Bu shuni bildiradiki, Oy Yerga hamisha faqat bir tomoni bilan o'girilib turadi. [1] Oyning o'z o'qi atrofida aylanish vaqti uning Yer atrofida aylanish vaqtiga, ya'ni 1/3 sutkaga teng...

Matnning ilmiy-uslubiy xususiyatlari tahlili

Belgilar	Tavsif	Matndan misol
aniqlik	Faktlarga tayanadi, subyektiv baho yo'q.	Oyning o'z o'qi atrofida aylanish vaqti 1/3 sutkaga teng.
obyektivlik	His-tuyg'udan xoli, kuzatishga asoslangan.	Oyning Yerdan ko'rinmaydigan teskari tomonini kosmik apparatlar yordamidagina tadqiq qilish mumkin.
mantiqiylik	Fikrlar sabab-natija asosida izchil.	Oyning atmosferasi yo'q, shuning uchun harorat keskin o'zgaradi.
terminologiya	Ilmiy terminlardan foydalanilgan.	"ellips shaklida", "sun'iy yo'ldosh", "krater", "vulqon jismlar"
Dalillilik	Isbot va tajriba asosida fikr yuritilgan.	1969-yil 21-iyulda N.Armstrong Oyga qadam qo'ygan.

2. "Dalil + Fikr + Xulosa" usuli asosida tahlil

Bosqich	Mazmun	Matndan misol
dalil	fakt, ilmiy ma'lumot	Oy o'z yorug'ligini chiqarmaydi, Quyosh nurlarini qaytaradi.
fikr	O'quvchi tahliliy fikr bildiradi.	Demak, biz tunda ko'radigan nur – aslida Quyosh nuri.

xulosa	umumlashtirilgan natija	Oy Quyosh nurlarini qaytaruvchi tabiiy koʻzgudek jism.

3. Ilmiy tahlil savollari (evristik yondashuv)

- Oyning sirtida nega harorat juda keskin oʻzgaradi?
- Nima uchun Oy har doim Yerga faqat bir tomoni bilan oʻgirilib turadi?
- Oyning teskari tomonini qanday oʻrganish mumkin?
- Oy yorugʻligi aslida qayerdan keladi?
- Oyda hayot boʻlishi mumkinmi? Nega?
- "Oyda ham dogʻ bor" maqoli matn mazmuni bilan qanday bogʻliq?

Ilmiy matn bilan ishlash bosqichlari

Bosqich	Oʻquv faoliyati	Natija
tayyorgarlik	matndagi terminlarni tushuntirish (krater, atmosfera, orbita)	Soʻz boyligi ortadi (ilmiy terminlar boʻyicha).
idrok	matnni oʻqish, asosiy faktlarni ajratish	Axborotni tahlil qilish oʻrganadi.
tahlil	"Dalil–Fikr–Xulosa" jadvalini tuzish	Mantiqiy tafakkur rivojlanadi.
ijodiy faoliyat	"Agar men kosmonavt boʻlsam..." mavzusida matn yozish	Tasavvur va ijodkorlik rivojlanadi.
refleksiya	"Bu matn menga nimani oʻrgatdi?" savoli asosida xulosa	Ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

5. Didaktik topshiriqlar

1-topshiriq (tahliliy): Matndan Oyni oʻrganish boʻyicha insoniyat yutuqlarini ketma-ket yozing.

Javob namunasi:

"Luna – 2" 1959-yilda Oyga yetib bordi.
"Luna – 9" 1966-yilda yumshoq qoʻndi.
"Luna – 10" 1966-yilda birinchi sun'iy yoʻldosh.
"Apollon – 11" 1969-yilda odamlar Oyga qadam qoʻydi.

2-topshiriq (ijodiy): Oyda doimiy ilmiy stansiyalar qurilsa, siz qanday tadqiqot olib borar edingiz?

Maqsad: Fikrni dalilga tayanib ifodalash, ilmiy faraz yaratish.

3-topshiriq (sabab-natija tahlili jadvali):

Sabab		Natija
Oyda atmosfera yoʻq.	shuning uchun	Harorat keskin oʻzgaradi.
Oyning massasi kichik.		Ogʻirlik kuchi Yerdagidan 6 marta kam
Oyning Quyosh nurlarini qaytarishi		Oy tunda Yerni yoritadi.

Demak ilmiy matn faqat ma'lumot emas, balki **fikrlash jarayoni ham hisoblanar ekan.** U orqali oʻquvchi tafakkurini mantiq, dalil va isbot asosida shakllantiradi. Shu bois, ilmiy matnlarni tahlil qilish, ularning tuzilishi va uslubini oʻrganish oʻquvchilarda **ilmiy dunyoqarash va tahliliy tafakkur**ni rivojlantiradi.

Ilmiy matn asosida oʻquvchida **fikrini dalil bilan isbotlash**, **hodisani tahlil qilish**, **mustaqil xulosa chiqarish** madaniyati shakllanadi. Bu jarayonning yakunida oʻquvchida **ilmiy tafakkur** (tahliliy fikrlash), **ilmiy nutq** (aniq va dalillangan soʻzlash), **ilmiy qadriyat** (haqiqatga sadoqat) shakllanadi, bu esa **ilmiy dunyoqarash va hayotiy koʻnikmalarning poydevori**dir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asanov A., Yoʻldosheva M. Ona tili ta'limida matn bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Fan va ta'lim, 2020.
2. Qodirova F. Ona tili ta'limida oʻquvchilarning tafakkurini rivojlantirish metodlari. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019.
3. Toʻlqinova Z. Ona tili oʻqitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Salomova X. Matn ustida ishlash usullari // Ta'lim va fan, 2021, №2.
5. Qoʻchqarova S. Interfaol metodlar va kommunikativ yondashuv. – Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2024, №8.
6. OECD. PISA Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019.
7. Fisher A. Critical Thinking. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020.
8. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: McKay, 1956.
9. Karimov A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Jumaniyozova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
11. Xudoyberganova M. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: 2017.
12. Halliday M. & Hasan R. Cohesion in English. – Longman, 1976.
13. Van Dijk T. Discourse and Context. – Cambridge University Press, 2008.
14. Ennis R. Critical Thinking. – Prentice Hall, 2011.

Dilfuza JUMAYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti umumiy pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK KOMPETENTLIGINI UZLUKSIZ RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini uzluksiz rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. "Kasbiy kompetentlik" tushunchasi ochib berilib, bo'lajak o'qituvchilarni tarbiya fanini o'qitishga tayyorlashda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, kasbiy-metodik kompetentlikni rivojlantirish modeli, uning asosiy tarkibiy qismlari va pedagogik shart-sharoitlari belgilab beriladi. Maqola natijalari bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, texnologiya, model, kreativlik, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, ma'rifatparvarlik.

Annotation. This article analyzes the issues of continuous development of the professional and methodological competence of future teachers of the subject upbringing. The concept of "professional competence" is revealed, the importance of using modern pedagogical and information and communication technologies, interactive methods in preparing future teachers for teaching the subject upbringing is highlighted. The model for developing professional-methodological competence, its main components, and pedagogical conditions are also defined. The results of the article will serve to improve the professional training of future teachers of the subject upbringing.

Keywords: competence, competency, technology, model, creativity, commitment, legal consciousness and culture, enlightenment.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы непрерывного развития профессионально-методической компетентности будущих учителей предмета «Воспитание». Раскрывается понятие «профессиональная компетентность», освещается важность использования современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов в подготовке будущих учителей к преподаванию предмета «Воспитание». Также определяются модель развития профессионально-методической компетентности, ее основные компоненты и педагогические условия. Результаты статьи послужат повышению профессиональной подготовки будущих учителей предмета «Воспитание».

Ключевые слова: компетенция, компетентность, технология, модель, креативность, обязательство, правосознание и культура, просвещение.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda mamlakatimizda tarbiya fanining mazmun va mohiyatini barkamol avlodni tarbiyalash va ta'lim berishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. Yurtimizda sog'lom, yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr texnika asri talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida voyaga yetkazish bo'yicha zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Tarbiya jarayonida o'quvchilarning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish muhim masalalardan biridir. Axloq normalarini o'quvchilar ongiga singdirish zarur. Respublikamizda milliy ta'lim tizimining huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratilgan. o'z navbatida, islohotlar ta'lim tuzilmasi va mazmun mohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz" [1]. Bugungi kunda ta'lim sifati nafaqat bilim olish jarayoni, balki o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali muloqot, innovatsion yondashuvlar, hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanishga bog'liq. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bugungi kundagi asosiy masalalardan biridir. Kasbiy kompetensiya – o'qituvchining ta'lim jarayonida nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan birlashtirib, ularni ijodkorlik bilan qo'llash qobiliyatidir.

Tarbiya – yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi. Shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda tutgan o'rni va turmush tarzini yaxshilashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuyini anglatadi. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlari amaliy tajribalar orqali mustahkamlanadi. Ta'lim muassasalarida nazariy darslar bilan bir qatorda, pedagogik amaliyotlarni keng joriy etish lozim. Bu jarayon o'qituvchilarga sinf muhitini boshqarish, darslarni tashkil qilish va o'quvchilarning ehtiyojlarini hisobga olishni o'rgatadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish kasbiy kompetensiyaning muhim qismidir. Masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, multimedia vositalari orqali dars o'tish va interaktiv dasturlarni qo'llash bo'lajak o'qituvchilarga zamon talablariga moslashishga yordam beradi. Ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash O'qituvchi ta'lim jarayonida yangi metodlarni qo'llab, ijodiy loyihalarni ishlab chiqishi kerak. Bu o'quvchilarni qiziqtiradi va ularning faolligini oshiradi. Masalan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim usullarini qo'llash samarali natijalar beradi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish Malaka oshirish kurslari, seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish o'qituvchilarning bilimlarini yangilash imkoniyatini beradi.

Tarbiya nafaqat oilada, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo'libgina qolmay, balki uning yetakchi g'oyalari gazeta va jurnallar, ommaviy axborot vositalari orqali singdirilgan mafkurani ham o'z ichiga oladi. Chunonchi, tarbiya ta'limga nisbatan kengroq bo'lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Ta'lim-tarbiya orqali shaxsda ezgu ma'naviy-axloqiy sifatlar tarkib topib boradi. Tarbiya fani o'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020–2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqotlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi

fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining ko'rinishiga, g'ururi hayot yo'liga olib chiqishiga yordam beradi. Shu bois biz uchun qadrli bo'lgan allomalarimizdan Bahovuddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Asqar Zununov va boshqalarning ta'lim-tarbiya va ma'rifat haqidagi g'oyalaridan keng foydalanish bugungi kun talabiga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy metodik tayyorgarlik tamoyili muhim o'rinni egallaydi. Kasbiy-metodik tayyorgarlik va kasbga yo'naltirilganlik asosida, insonning kelajak kasbiga nisbatan munosabatini ifodalovchi ehtiyojlar, qiziqish va nizomlar tizimi tushuniladi. V.Kuzmina va V.A.Slastenin o'z asarlarida pedagogik mutaxassisliklarga nisbatan kasbiy-metodik tayyorgarlik muammolarini o'rganib chiqadilar [3]. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlanishini takomillashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etib, ushbu jarayonni amalga oshirish quyidagi tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi kerak degan xulosaga keldik.

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarida kasbiy-metodik rivojlanishni takomillashtirish modelining yana bir asosiy tarkibiy qismlaridan biri – ta'lim tamoyillari. *Prinsip* atamasi lotincha *principium* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "asos", dastlabki, nazariyaning boshlang'ich holati, ilm-fan, mashqlar" degan ma'noni anglatadi. Prinsiplar – asosan nazariya va fanning asosiy taxminlari bo'lib, ular har bir inson javob berishi kerak bo'lgan asosiy talablardir. Pedagogik tamoyillar-bu asosiy g'oyalar bo'lib, unga rioya etilishi pedagogik maqsadlarga erishishga yordam beradi. O'quv jarayonini o'rganayotgan olimlar quyidagi didaktik prinsiplarni tanlaydilar: onglilik va faollik; muntazam va izchil; ilmiy tavsif; ko'rinish; mahkamlik; mavjudlik; nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik [6: 296]. Buning uchun esa dunyo ilm-fanida o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish orqali ularni kasbiy rivojlantirish bo'yicha pedagog va uslubchi olimlar tomonidan olg'a surilgan ilmiy-nazariy qarashlarni o'rganish lozim [13: 14]. Ammo mazkur tadqiqotlar va boshqa pedagogik-psixologik ilmiy tadqiqot ishlarida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish ilmiy pedagogik muammo sifatida yetarli darajada tadqiq etilmagan.Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirishga doir xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning fikrlari umumlashtirilmagan. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish va kasbiy rivojlantirish muammolari alohida qayd etilmagan. Bu esa, o'z vaqtida, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni hal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy rivojlantirishga doir tizimli va uzviy amalga oshirish lozim bo'lgan ustuvor vazifalarni aniqlash va belgilash. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy rivojlantirish omillari, o'qituvchida professionallikni rivojlantirishga doir kasbiy rivojlanishning bosqichlari va darajalarini aniqlash va belgilash.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani rivojlantirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bu jarayonni amalga oshirishda uzluksiz ta'lim, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, shaxsiy rivojlanish va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini yanada oshirishini kafolatlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha o'zbekiston va xorijlik pedagog-olimlarning ilmiy ishlaridan kelib chiqib uning didaktik imkoniyatlari va modelini ishlab chiqildi. Unga ko'ra kasbiy-metodik tayyorgarlik jarayonini maqsadi, vazifalari, tamoyil va mazmun, shakl, uslublar va vositalarga rioya etilishida pedagogik natijalarga erishiladi. Bunga kasbiy metodik tayyorgarligi takomillashtirish bevosita ta'lim jarayonini tashkil etishning shakl, usul va vositalarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi / O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – Toshkent, 2017.
3. Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N., Normurodova B., Matnazarova K. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografiyada nashr qilindi. – Toshkent, 2004.

Nargiza NURMATOVA,
Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi 24-maktab direktori,
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'QUVCHILARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH KOMPONENTLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash jarayonining nazariy asoslari va tarkibiy komponentlari tahlil qilinadi. "Tadqiqotchilik faoliyati" va "ilmiy izlanish" tushunchalarining mazmun-mohiyati ochib berilib, o'quvchilarda muammoni aniqlash, axborot izlash, ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim jarayonida, xususan, ona tili va adabiyot darslari doirasida kichik tadqiqot faoliyatini tashkil etish imkoniyatlari hamda uning o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, individ, tadqiqotchilik, qobiliyat, texnologiya, metodologiya, innovatsion yondashuvlar.

Annotation. This article analyzes the theoretical foundations and structural components of the process of preparing students for research activities. The essence of the concepts of "research activity" and "scientific inquiry" is clarified, and the pedagogical significance of developing students' skills in problem identification, information searching, data analysis, and conclusion formulation is substantiated. The article also highlights the possibilities of organizing small-scale research activities within general secondary education, particularly in the context of native language and literature lessons, as well as their role in fostering students' independent thinking and creative potential.
Keywords: education, individual, research, ability, technologies, methodologies, innovative approaches.
Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы и структурные компоненты процесса подготовки учащихся к исследовательской деятельности. Раскрывается сущность понятий «исследовательская деятельность» и «научный поиск», обосновывается педагогическая значимость формирования у учащихся навыков выявления проблемы, поиска информации, анализа данных и формулирования выводов. Также освещаются возможности организации малой исследовательской деятельности в процессе общего среднего образования, в частности, в рамках уроков родного языка и литературы, а также ее роль в развитии самостоятельного мышления и творческого потенциала учащихся.
Ключевые слова: образование, индивид, исследование, способность, технология, методология, инновационные подходы.

Ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida [1] bo'lajak mutaxassislarning o'z yo'nalishlarida tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi ta'limni rivojlantirishning strategik vazifalari qatorida keltirilgan [3]. Ilmiy izlanishlarga kirishish, avvalo, individdagi tadqiqotchilik qobiliyatining shakllanishiga bog'liq bo'ladi. Bu qobiliyatning ilk bosqichlari muayyan soha muammolarini aniqlash, zarur ma'lumotlarni izlab topish, yig'ilgan ma'lumotlarni tizimli qayta ishlash hamda tanqidiy tahlil orqali ijodiy yechimlar ishlab chiqish kabi ko'nikmalardan iborat bo'ladi.

Jumladan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tasarrufidagi ixtisoslashgan maktablar umuman umumiy o'rta ta'lim tizimi zimmasiga quyidagi qo'shimcha funksiyalarni bajarish yuklatilgan:

– milliy qadriyatlar va ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratish;

– maktab yoshidagi bolalarni ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini tizimli joriy etish;

– har bir bolaning o'ziga xos qobiliyatini kashf qilish yo'llarini tadqiq qilish...

Maktab davridan o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga oid ilmiy manbaalarni tadqiq qilishda faoliyat, amaliy jarayonlar, tadqiqot, ilmiy tadqiqot tushunchalarini aniqlashtirish muhim sanaladi. Faoliyat nima? Bu atrof-olamga maxsuslashtirilgan faol munosabatning maxsus shakli bo'lib, uning mazmuni atrof-olamni maqsadga muvofiq o'zgartirish va insonlarning qiziqishiga mos holda amalga oshiriladi. Olim J.Hasanboyev va boshqalarning pedagogika fanidan izohli lug'atida *faoliyat* atamasiga quyidagicha ta'rif keltiriladi: "Faoliyat – biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon)" [2].

Faoliyat – kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohasi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasi va usullar yig'indisidir. Insonning har qanday faoliyati pirovard maqsadida shaxsiy yoki ijtimoiy muammolar yechimini topishga yo'naltirilgan bo'ladi. Inson o'z aqliy faoliyatida mulohaza qilishi muhim. Shuning uchun uning yordamida inson ongida paydo bo'ladigan hayotning moddiy va ma'naviy jihatlari ustida fikr yuritadi, ular haqida hukm chiqaradi va faoliyatdagi ehtiyojini amaliy maqsadga aylantiradi. Demak, ehtiyoj maqsadga aylangandan keyin unga erishish uchun taxminiy reja (gipoteza), prognoz tuziladi va faoliyatning navbatdagi bosqichini amalga oshirish mexanizmlari boshlanadi. Mazkur faoliyatni dastlabki tushunish ilmiy tadqiq qilishda A.N.Leontyev ishlab chiqqan konseptual modelda faoliyat bu – faollik shakli bo'lib, u ehtiyojdan, ya'ni individning muayyan sharoitlarda normal ishlashi uchun zarur bo'lgan holatda uyg'onishi asoslangan bo'lib, inson faoliyati tuzilmasi ehtiyoj, motiv, maqsad, maqsadga erishish shart-sharoitlari, harakatlar, operatsiyalardan iboratligi ta'kidlanadi. Bu 6 ta komponentni quyidagi uchliklarda tashkil etadi: ehtiyoj, motivlar, maqsadlar; harakatlar, operatsiyalar, shart-sharoitlar [3]. Yuqoridagi izohlardan ko'rinadiki, faoliyat deganda kishining ma'lum ehtiyoj va shart-sharoitidan kelib chiqqan, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlari va faolligi tushuniladi. Demak, ilmiy tadqiqot tushunchasining mazmuniga batafsil to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ayrim manbalarda keltirilgan ta'rif va tushunchalardan namunalarni ko'rish mumkin: "Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlar va nazariyalarni aniqlash jarayoni" [4], "Har qanday ilmiy tadqiqot bu – bilishning maxsus tashkil qilingan jarayoni bo'lib, unda voqelik haqidagi nazariy bilimlar o'rganiladi, o'zlashtiriladi" [5]. Ilmiy tadqiqot – mavjud voqelikni, axborotlarni ilmiy asosda o'rganib, tahlil qilish va yangidan yangi bilimlarni aniqlash maqsadiga yo'naltirilgan izlanishli faoliyat bo'lib, u farazni isbotlash uchun olib boriladi, tadqiq qilinadi va dalillarga tayanilgan holda natija yakunida muayyan ilmiy ish shaklida ifodalanadi.

O'quvchilar uchun olib boriladigan ilmiy tadqiqot faoliyatining ahamiyatini anglash muhim jarayon bo'lib, avvalo "ilmiy tadqiqot" tushunchasining mazmun-mohiyatini ochish birinchi qadam hisoblanadi. Ilmiy manbalarda bu atama turlicha izohlanadi va tadqiq qilinadi. Jumladan, ba'zi ta'riflarda ilmiy tadqiqot – bu yangi nazariy qarashlar va bilimlarni aniqlashga yo'naltirilgan jarayon sifatida izohlanadi. Boshqa manbalarda esa, bu jarayon mavjud voqelikni ilmiy asosda idrok etish, uni tizimlashtirish va chuqur o'rganish bilan bog'liq bo'lgan, oldindan belgilangan maqsad sari ketma-ket va izchil olib boriladigan izlanishlar majmui sifatida talqin etiladi.

Yuqoridagi fikrlardan aytishimiz mumkinki, ilmiy tadqiqot – bu muayyan sohaga tegishli yangi ilmiy muammo mahsuli bo'lib, mavjud haqiqatlarni aniqlashga xizmat qiladi, dalillarga tayanadi, tartibli, mantiqiy asosga ega nazariy va amaliy holdagi tizimli faoliyat, kashf etilgan ilmiy mehnat natijasidir. Ba'zan manbalar tahlil qilinganda ilmiy tadqiqot tushunchasi u qadar keng ma'noda talqin etilmagan bo'lib, uning natijasi ilmiy ishda yangi tadqiqot natijasini izohlashga xizmat qiladi. Bunda voqelik va hodisa, obyektlarni o'rganishga qaratilgan ilmiy nazariy faoliyat jarayoni mahsuli sifatida ko'rsatiladi. Har tomonlama yondashuvlarga ko'ra, ilmiy izlanishlar – jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi strategik ahamiyatga ega, murakkab va uzluksiz rivojlanishga yo'naltirilgan, natijasi kafolatlangan tizimli jarayon. Aynan umumiy ta'lim bosqichi bu jarayonning ilk kompleks shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Umumiy o'rta ta'lim bosqichida, ayniqsa, ona tili va adabiyot darslarini o'qish davomida o'quvchilar fanni egallash jarayonida ilmiy tadqiqotning turli ilk shakllarini amaliyotga tadbiq qiladilar. Bunga kichik matnlar tuzish, ijodiy mavzulardagi bayon va insholar yozish, mustaqil ishlarni bajarish, laboratoriya ishi, amaliy ishlari yoki boshqalarini tayyorlash kiradi. Ushbu faoliyat turlari ilmiy tadqiqot asosida shakllansa-da, ular umumiy o'quv dasturiga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli to'liq erkin ilmiy-ijodiy izlanish sifatida e'tirof etilmaydi va alohida baholanishiga

katta e'tibor berilmaydi. Ammo bunday ilmiy ijodkorlik qobiliyatiga ega o'quvchilar esse yoki erkin insho, mavzuli referat yozish, mustaqil ishni tayyorlash kabi oddiy o'quv topshiriqlarini bajarishni haqiqiy ilmiy-ijodiy jarayonga aylantirishlari va o'zlarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini namoyon qilishga muvaffaq bo'la olishlariga imkoniyat ekanligini ham to'liq anglamaydilar. Aynan mana shu bosqich – mustaqil ilmiy fikrlash va individual izlanishning birinchi qadami hisoblanadi. Ana shunday tizimli olib borilgan faoliyatning natijaga xizmat qilishiga yo'naltirilgan ta'lim komponentlari asosidagi erkin tadqiqot faoliyatining boshlang'ich shakllari dunyo yuzini ko'radi va alohida ijodiy ish sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413.
2. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi). – Toshkent: Asian Book House, 2020.
3. Леонтьев А. Н. Эволюция, движение, деятельность. Издание подготовлено при поддержке Российского гуманитарного научного фонда, проект 04-06-00183а «Научное наследие А.Н. Леонтьева и его школы» Издание осуществлено при поддержке Российского гуманитарного научного фонда, проект № 12-06-16068д Издательство «Смысл», 2012.
4. Pedagogik atamalar lug'ati. – Toshkent: Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI, 2017.
5. Яковлев Е.В, Яковлева Н.О..Педагогическое исследование: содержание и представление результатов /. – Челябинск.: Изд-во РБИУ, 2010.

Nargiza QAYIMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchi-assistenti

CHET TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda nutqni tanish tizimlari, chatbotlar hamda avtomatlashtirilgan teskari aloqa platformalarining og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt talaffuzni yaxshilash, nutqiy qo'rquvni kamaytirish va mustaqil o'rganishni qo'llab-quvvatlashda samarali vosita sifatida baholanadi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt o'qituvchining pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita ekani ta'kidlanadi. Xulosa sifatida gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda sun'iy intellektdan oqilona va metodik asosda foydalanish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, gapirish ko'nikmasi, chet tilini o'qitish, og'zaki nutq, ta'lim texnologiyalari.

Annotation. This article examines the use of artificial intelligence technologies in the process of forming foreign language speaking skills. The study analyzes the pedagogical possibilities of speech recognition systems, chatbots, and automated feedback platforms in the development of oral speech competence. Artificial intelligence is considered an effective tool for improving pronunciation, reducing speech fear, and supporting independent learning. At the same time, it is emphasized that artificial intelligence is a tool for supporting the teacher's pedagogical activity. In conclusion, the necessity of rational and methodological use of artificial intelligence in the development of speaking skills is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, speaking skills, foreign language teaching, oral communication, educational technology.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос использования технологий искусственного интеллекта в процессе формирования навыков говорения на иностранном языке. В исследовании анализируются педагогические возможности систем распознавания речи, чат-ботов и автоматизированных платформ обратной связи в развитии устной речевой компетенции. Искусственный интеллект рассматривается как эффективный инструмент для улучшения произношения, снижения речевого страха и поддержки самостоятельного обучения. В то же время подчеркивается, что искусственный интеллект является инструментом поддержки педагогической деятельности учителя. В заключение обосновывается необходимость рационального и методического использования искусственного интеллекта в развитии навыков говорения.

Ключевые слова: искусственный интеллект, навыки говорения, обучение иностранным языкам, устная речь, образовательные технологии.

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida chet tillarni o'rganish, ayniqsa, ingliz tilida erkin muloqot qila olish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri. Chet tilini o'qitishda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lsa-da, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, aynan gapirish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilar uchun eng murakkab jarayonlardan biridir. Buning asosiy sabablari sifatida til muhitining yetishmasligi, nutqiy qo'rquv, cheklangan dars vaqti hamda individual yondashuvning kamligi ko'rsatiladi [1: 45–49].

So'nggi yillarda ta'lim jarayoniga sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi chet tillarni o'qitishda, xususan, gapirish ko'nikmasini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqardi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi nutqni tanish, dialog olib borish, avtomatik tahlil va teskari aloqa beruvchi dasturlar o'quvchilarga real muloqotga yaqin sharoitda mashq qilish imkonini bermoqda [2: 32–36]. Ushbu maqolada chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik ahamiyati, imkoniyatlari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Gapirish ko'nikmasi chet tilini o'zlashtirishda kommunikativ kompetensiyaning markaziy unsuri hisoblanadi. U nafaqat grammatik bilimlarni, balki leksik boylik, talaffuz, intonatsiya, pragmatik moslik va muloqot strategiyalarini ham o'z ichiga oladi. An'anaviy darslarda o'qituvchi barcha o'quvchilarga teng darajada nutqiy mashq berishga ko'pincha ulgurmaydi [3: 67]. Aynan shu nuqtada sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sun'iy intellektga asoslangan nutqni tanish (speech recognition) tizimlari o'quvchilarning talaffuzi, urg'u va intonatsiyasini tahlil qilib, darhol teskari aloqa beradi. Bu esa o'quvchilarga xatolarini mustaqil aniqlash va tuzatish imkonini yaratadi. Masalan, AI asosidagi mobil ilovalar yoki onlayn platformalar orqali o'quvchi

chet tilida gapirib, o'z nutqini audio shaklda yozib olishi va tizim tomonidan baholanishi mumkin. Bunday yondashuv darsdan tashqari mashq qilish imkoniyatini kengaytiradi. Sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar gapirish ko'nikmasini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ular real muloqotga yaqin bo'lgan dialoglarni modellashtirib, o'quvchini turli kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi [4: 58–62]. O'quvchi sun'iy suhbatdosh bilan muloqot qilish jarayonida xato qilishdan cho'chimaydi, chunki baholovchi omil yo'q. Bu esa nutqiy qo'rquvni kamaytirib, ishonchni oshiradi. Ayniqsa, boshlang'ich va o'rta darajadagi o'quvchilar uchun bu juda muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini shakllantirish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutq faolligini sezilarli darajada oshiradi. AI asosida ishlovchi nutqni tanish tizimlari va interaktiv chatbotlar orqali olib borilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning talaffuz aniqligi, nutqiy ravonligi hamda gapirishga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, an'anaviy darslarda kamroq faol bo'lgan o'quvchilarning ham muloqotga jalb etilgani kuzatildi.

Natijalar shuni tasdiqladiki, sun'iy intellekt tomonidan taqdim etilgan tezkor va individual teskari aloqa o'quvchilarning xatolarini anglash va ularni mustaqil tuzatish jarayonini samaraliroq qildi. Talaffuz va intonatsiyaga oid xatolarni avtomatik aniqlash o'quvchilarda o'z nutqiga nisbatan tanqidiy yondashuvni shakllantirdi. Bu holat gapirish ko'nikmasining bosqichma-bosqich rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Munozara jarayonida aniqlanishicha, sun'iy intellektdan foydalanish nutqiy qo'rquvni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. AI bilan muloqot qilish jarayonida o'quvchilar baholanish bosimidan holi bo'lib, xato qilishdan cho'chimay gapirishga harakat qildilar. Bu esa kommunikativ faollikni oshirib, real muloqotga tayyorgarlikni kuchaytirdi. Ushbu holat ilgari olib borilgan xorijiy tadqiqotlar natijalari bilan hamohang ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Shu bilan birga, munozara davomida sun'iy intellekt texnologiyalarining ayrim cheklovlari ham qayd etildi. AI tizimlari nutqning madaniy va pragmatik jihatlarini to'liq baholash imkoniyatiga ega emas. Masalan, kontekstga mos so'z tanlash, muloqot etiketi va emotsional ohang kabi omillar inson omiliga bog'liq bo'lib qolmoqda [5: 21–25]. Shu sababli sun'iy intellekt o'qituvchini to'liq almashtira olmaydi, balki uning pedagogik faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim. Natijalar va munozara shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellektdan samarali foydalanish o'qituvchining metodik rahbarligi bilan uzviy bog'liqdir. AI texnologiyalarini kommunikativ yondashuv asosida rejalashtirilgan mashg'ulotlarga integratsiya qilish eng maqbul natijalarni beradi. Demak, chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini shakllantirishda sun'iy intellekt pedagogik jarayonni boyituvchi, ammo insoniy muloqotni to'ldiruvchi vosita sifatida qaralishi zarur. Shuningdek, sun'iy intellekt individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. AI tizimlari o'quvchining darajasi, nutqiy tezligi va xatolariga qarab mashqlar murakkabligini moslashtiradi [6: 17–19]. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos tempda gapirish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu holat an'anaviy darslarda kam uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini shakllantirishda sun'iy intellektdan foydalanish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. AI texnologiyalari o'quvchilarga ko'proq nutqiy mashq qilish, xatolarini mustaqil tahlil etish va real muloqotga yaqin sharoitda tajriba orttirish imkonini beradi. Bu esa gapirish ko'nikmasining samarali va bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga joriy etishda pedagogik muvozanatni saqlash muhimdir. O'qituvchining metodik rahbarligi, insoniy muloqot va madaniy kompetensiyani shakllantirishdagi roli har doim ustuvor bo'lib qoladi. Sun'iy intellekt texnologiyalarini maqsadli va ongli qo'llash orqali chet tilini o'qitishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Chet tillarni o'qitishda kommunikativ yondashuvning ahamiyati // **Xalq ta'limi**, B. 45–49 b.
2. Karimova D. Raqamli texnologiyalar asosida ingliz tilida og'zaki nutqni rivojlantirish masalalari // *Zamonaviy ta'lim,* 2022. – B. 32–36 b.
3. Qodirov B. Chet tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 67 b.
4. Rahimov Sh. Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarning samaradorligi // Pedagogik mahorat. – 2021. – B. 58–62 b.
5. Saidova N. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari // Ta'lim va innovatsiya, 2023. – B. 21–25.
6. To'xtayeva L. Chet tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirishning metodik asoslari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2019.

Nigina AKHMEDOVA,
Samarkand Institute of Economics and Service
Assistant-teacher of the Department of Teaching Languages

THE ADVANTAGES OF THE CONTENT-BASED APPROACH IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO ON-PHILOLOGICAL STUDENTS

Annotation. The growing demand for specialists who can effectively communicate in a foreign language within their professional fields has led to the search for innovative teaching approaches. One of such approaches is the content-based approach, which integrates subject matter and foreign language instruction. This article examines the advantages of applying a content-based approach in teaching foreign languages to non-philological students.

Keywords: content-based instruction, foreign language teaching, non-philological students, professional competence, interdisciplinary learning.

Annotatsiya. Kasbiy faoliyat sohalarida xorijiy tilda samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarga bo'lgan talabning ortib borishi innovatsion o'qitish yondashuvlarini izlashga olib kelmoqda. Shunday yondashuvlardan biri **mazmun asosida o'qitish yondashuvi** bo'lib, u fan mazmuni bilan xorijiy tilni o'qitishni integratsiyalashni nazarda tutadi. Mazkur maqolada filologik bo'lmagan yo'nalish talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda mazmun asosida yondashuvni qo'llashning afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mazmun asosida o'qitish, xorijiy tilni o'qitish, filologik bo'lmagan talabalar, kasbiy kompetensiya, fanlararo integratsiya.

Аннотация. Растущий спрос на специалистов, способных эффективно общаться на иностранном языке в рамках своей профессиональной деятельности, обусловил поиск инновационных подходов к обучению. Одним из таких подходов является **контентно-ориентированный подход,** который интегрирует изучение профильных дисциплин и иностранного языка. В статье рассматриваются преимущества применения контентно-ориентированного подхода в обучении иностранным языкам студентов нефилологических направлений.

Ключевые слова: контентно-ориентированное обучение, обучение иностранному языку, студенты нефилологических направлений, профессиональная компетентность, междисциплинарное обучение.

In the context of globalization and increasing international mobility, foreign language learning has become an essential requirement for non-philological students in fields such as economics, engineering, medicine, and management. Traditional language teaching methods that focus primarily on grammar and general vocabulary often prove insufficient in addressing the professional needs of these learners. As a result, modern language education increasingly emphasizes approaches that integrate language instruction with subject-specific content. Content-based learning, closely related to CLIL (Content and Language Integrated Learning), seeks to provide meaningful contexts for foreign language acquisition through academic or professional subject matter. These approaches encourage learners not only to develop linguistic competence but also to acquire disciplinary knowledge alongside language-learning outcomes [1: 23]. Therefore, research into content-based foreign language instruction for non-philological students is both timely and highly relevant.

Content-Based Instruction (CBI) emerged as an alternative to traditional language teaching methods in response to the growing demand for functional and contextualized language use. According to Brinton, Snow, and Wesche, CBI focuses on teaching language through subject matter that is directly relevant to learners' academic or professional goals [2: 5]. This approach emphasizes authenticity, meaning-focused input, and active cognitive engagement. Similarly, Coyle, Hood, and Marsh highlight the importance of connecting content and language in higher education by enabling students to engage with information both linguistically and conceptually [3: 18]. Research supports content-based instruction as a key factor in the effective acquisition of vocabulary and field-specific terminology, as it allows learners to encounter new lexical items in meaningful, context-rich academic and professional settings [4: 64]. Moreover, CBI fosters the development of higher-order thinking skills, including analytical and problem-solving abilities, which are particularly important for non-philological students [1: 47].

These conclusions are grounded in qualitative research methods drawing on established theoretical frameworks in content-based foreign language instruction. Through comparative analysis, the study identifies the advantages of content-based learning over traditional language teaching approaches in non-philological contexts. The findings demonstrate that integrating subject content with language instruction promotes deeper cognitive engagement, critical reflection, and more effective application of knowledge in both academic and professional settings. Earlier literature reviews of empirical research in higher education further support these conclusions, corroborating pedagogical observations reported in previous studies at the tertiary level. Overall, both theoretical and empirical analyses provide compelling reasons to adopt a content-based approach to foreign language teaching for non-philological students.

Development of professional communicative competence. The content-based approach is one of the major benefits of content-based approaches, in that it uses professes professional communication. The process of incorporating subject-related texts, authentic materials, and tasks, allows students to practice using the foreign language in real contexts and classroom settings, rather than only in a tense classroom environment. [2: 12]. This practice gives learners an opportunity to understand the terminology, the discourse conventions, and the proper communication strategies. In this way content-based learning provides a tremendous contribution to the professional development of professional communication performance, critical for future professionals in multilingual and intercultural professional areas of work.

Increased motivation and learner engagement. Students are happier when learning material is directly related to the field of study [3: 41]. Content-based instruction increases learners' interest by demonstrating how foreign language skills will help them in their future careers. As students become more involved with learning, they become more actively engaged in the learning process [4: 70].

Cognitive and interdisciplinary benefits. The integration of language and content further enhances cognitive processes. In addition to critical thinking abilities, learners must understand, analyze, compare, and evaluate information in a foreign language in order to improve critical thinking skills [1: 52]. Also, the content-based approach benefits holistic learning and knowledge transfer across subjects [3: 29].

Authenticity of learning materials. Another significant advantage of the content-based approach is the extensive use of authentic learning materials, including academic articles, case studies, professional reports, and discipline-specific documents. These materials reflect real-world language use and professional discourse, allowing students to become familiar with the linguistic features, terminology, and stylistic conventions of their fields of study. Exposure to authentic content helps learners develop stronger reading comprehension skills, as they must interpret complex ideas, arguments, and data presented in a foreign language. In addition, working with genuine academic and professional texts enhances students' academic writing abilities by providing clear models of structure, coherence, and appropriate register. As a result, the use of authentic materials not only bridges the gap between classroom learning and real professional practice but also prepares students more effectively for future academic and career-related communication tasks.

These collaborative efforts are supported by the use of content-based content and language instruction and providing professionals with professional communication skills and the ability to work effectively through a foreign language in the context of real-life classroom or school settings. In addition, content-based education dramatically promotes student motivation and engagement with demonstrating the practical value of foreign language skills as future careers. This process also teaches cognitive and multidisciplinary learning, and contributes to critical thinking and knowledge transfer among subjects. For this reason, content-based instruction is thought to be an appropriate pedagogical strategy for

improving language and professional competences in higher education.

The content-based approach to teaching foreign languages offers significant advantages for non-philological students. It not only improves language proficiency but also supports the development of professional, cognitive, and communicative competencies. By integrating subject content into language instruction, this approach ensures relevance, authenticity, and meaningful learning. Despite certain challenges related to teacher training and material selection, content-based instruction remains a highly effective method for foreign language teaching in non-philological higher education contexts. Future research may focus on empirical studies that measure the long-term impact of content-based instruction on students' academic and professional performance.

References

1. Richards J.C., Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
2. Brinton D.M., Snow M.A., Wesche M.B. Content-Based Second Language Instruction. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2003.
3. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
4. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
5. Akhmedova N. Challenges in Teaching Foreign Languages Using Modern Innovative Pedagogical Technologies // Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 2025, Vol. 44. – P. 45. https://doi.org/10.5281/zenodo.15547729.

Jamshid KARIMOV,
Independent Researcher, Bukhara State University
Lecturer, Department of General Pedagogy, Bukhara State Pedagogical Institute

THE PRIORITY OF APPLYING ABDURAHMON JAMI'S EDUCATIONAL DOCTRINE IN THE MODERN EDUCATIONAL PROCESS

Annotation. The article examines the educational views of Abdurahmon Jomiy and their relevance to contemporary pedagogy. It highlights the priority of integrating Jami's moral and intellectual principles into modern teaching practices, emphasizing their role in fostering critical thinking, ethical values, and holistic personal development. The study argues that applying Jami's legacy through learner-centered and interactive approaches enhances both the educational process and students' moral culture.

Keywords: Abdurahmon Jomiy, educational thought, modern pedagogy, moral upbringing, practical application.

Annotatsiya. Maqolada Abdurahmon Jomiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari va ularning zamonaviy pedagogikaga aloqasi o'rganilgan. Unda Jomiyning axloqiy va intellektual tamoyillarini zamonaviy o'qitish amaliyotiga joriy etish ustuvorligi, ularning tanqidiy fikrlash, axloqiy qadriyatlar va shaxsni har tomonlama rivojlantirishdagi roli ta'kidlangan. Tadqiqotda ta'kidlanishicha, Jomiy merosini shaxsga yo'naltirilgan va interaktiv yondashuvlar orqali qo'llash ta'lim jarayonini ham, talabalarning axloqiy madaniyatini ham oshiradi.

Kalit so'zlar: Abdurahmon Jomiy, tarbiyaviy fikr, zamonaviy pedagogika, axloqiy tarbiya, amaliyot.

Аннотация. В статье рассматриваются воспитательные взгляды Абдурахмона Джами и их актуальность для современной педагогики. В ней подчеркивается приоритетность интеграции моральных и интеллектуальных принципов Джами в современную педагогическую практику, подчеркивая их роль в развитии критического мышления, этических ценностей и всестороннего личностного развития. В исследовании утверждается, что применение наследия Джами посредством личностно-ориентированного и интерактивного подходов повышает как учебный процесс, так и нравственную культуру учащихся.

Ключевые слова: Абдурахмон Джами, образовательная мысль, современная педагогика, нравственное воспитание, практическое применение.

At all stages of historical development, including the present day, society has required highly educated, morally stable, and intellectually capable individuals who can actively contribute to the construction of a democratic, legal, secular, and unified state. Achieving this goal necessitates the revitalization and effective application of the artistic and pedagogical heritage of classical scholars, including the legacy of Abdurahmon Jami.

The application of Abdurahmon Jami's teachings should be regarded as a complex and systematic process that cannot develop spontaneously. This complexity is обусловлена several key factors. First, it is necessary to clearly demonstrate the significance of the thinker's views on the priority of scientific knowledge and the cultivation of moral qualities in children. Second, engaging with Jami's ideas requires a sufficiently high level of learning and intellectual development, enabling learners to synthesize, analyze, and critically interpret the ideas presented in the poet's works. Third, there must exist an intrinsic motivation to comprehend the poet's philosophical and pedagogical views. Finally, the practical application of Jami's teachings presupposes the development of skills that allow the acquired knowledge to be implemented in real-life contexts.

Within the framework of the present research, and in light of contemporary socio-historical development, particular aspects of Abdurahmon Jami's artistic and pedagogical heritage – especially his views on the primacy of scientific inquiry and the moral education of students – are examined and interpreted. The essential logical outcome of this process is to demonstrate the continuing relevance and priority of the thinker's teachings for the modern educational system.

This conclusion is particularly important because the interpretation of Jami's pedagogical legacy may be approached from two perspectives. The first concerns how his ideas are understood, evaluated, and perceived by readers and scholars. The second focuses on how these ideas can be applied in modern society and translated into educational practice. If analysis remains confined to the first perspective, the study risks being limited to a descriptive account of the poet's views or a mere retelling of their content, with only superficial connections to contemporary realities.

From the second, practice-oriented perspective, however, the enduring value of Abdurahmon Jami's pedagogical ideas – particularly his emphasis on the pursuit of knowledge – can be reaffirmed in relation to the development of modern Uzbek society. In this context, it may be argued that contemporary youth, guided by the demands of society, are increasingly motivated to acquire scientific knowledge and professional competencies, thereby reflecting the continued relevance of Jami's educational philosophy.

Understanding children's motivation to acquire scientific knowledge and pursue a profession requires a deeper comprehension of the actual significance of individual academic subjects, the enrichment of knowledge in accordance with contemporary demands, and an evaluation of its quality within real social relations and socially useful labor activities.

Identifying the actual significance of Abdurahmon Jami's views on the priority of science and the formation of moral qualities entails determining the specific social tasks that pedagogical science sets for the younger generation, including their socio-economic aspirations and social value. Social value, in turn, can be assessed through an analysis of learners' beliefs, ideals, and perspectives concerning both the present and the future. Ultimately, these beliefs and ideals shape not only an individual's worldview but also their socially active position in society. From this perspective, effective engagement with Jami's teachings presupposes that learners master not only the content itself but also the methods, forms, and ways of transforming acquired knowledge into personal convictions and value orientations.

The process of teaching the heritage of classical scholars in general educational institutions is therefore of particular importance. In presenting Abdurahmon Jami's legacy, teachers should consistently introduce the author's ideas and views to students, clarify the internal logic of his works, explain the importance of acquiring knowledge, and simultaneously apply methods that develop intellectual activity. Through this process, the teacher directly influences the formation of students' cognitive abilities and essential character traits. However, as in many aspects of teaching and upbringing, there is no single universally accepted methodological approach.

It has been established that the distinctive features of Abdurahmon Jami's teachings were shaped under the influence of Naqshbandi doctrines, in which service to others, tolerance, and leniency toward people were regarded as fundamental human obligations. This ethical orientation is illustrated by the thinker's observation: "...If a magnanimous person is offended by a friend, he turns away and distances himself, yet neither harms nor speaks ill of him".

Masnavi:

"If a friend remains an enemy to you,
Do no harm, just part ways.
Do not inflame hostility further;
A peaceful moment brings joy to the heart" [1].

The value of this guidance lies in the fact that Abdurahmon Jami encourages the younger generation to embrace peace and harmony in personal relationships. He cites the proverb *"dushmanatro bo shakar kush"* ("one should defeat an enemy with sweetness"), meaning that evil should not be met with evil, but rather responded to with goodness.

In the context of new socio-economic and market relations, many parents tend to accumulate wealth for their children. This process occurs not only before the eyes of the children themselves, but parents directly involve children from an early age in the pursuit of wealth and greed, increasing material possessions at the expense of spiritual values, thus fostering avarice and materialism. Abdurahmon Jami warns his readers as follows: "...do not take pride in wealth. Even if it is abundant, ultimately it will be destroyed by the vicissitudes of life".

Rubai:

One should not foolishly cling to wealth,
For wealth is like a cloud full of hail.
It will pass, spilling its pearls,
And the wise will not even glance back at it.

Many of Abdurahmon Jami's moral teachings are of particular value in educating parents themselves, as they bear primary responsibility for maintaining strong family relationships, fostering a healthy moral and psychological climate within the household, developing a culture of communication, and promoting mutual understanding with others, including teachers, relatives, and neighbors. Parents have always needed to enhance their pedagogical culture in the moral upbringing of their children and to establish positive and trusting parent–child relationships within the family. Educators – especially class teachers and literature teachers – are encouraged to make effective use of stories, parables, rubāʿī, masnavī, qiṭʿa, and poems from Bahoriston (The Spring Garden) in their work with both parents and children, including the organization of extracurricular reading activities that involve family participation.

In shaping students' scientific worldviews, national celebrations dedicated to Eastern scholars, poets, thinkers, and encyclopedists play a significant educational role. In general educational institutions across the Republic of Uzbekistan, "Knowledge Day" is traditionally celebrated at the beginning of the academic year. On this occasion, teachers conduct open lessons devoted to "Book Day," and materials drawn from pedagogical practice are published in the press. Special attention is given to quotations from classical world literature, proverbs and folk sayings, examples of parental experience in family reading, and information about the activities of family libraries.

In the contemporary era, marked by the rapid development of information and communication technologies, it has become increasingly challenging to explain to children the distinction between fiction and fantasy. Nevertheless, the ideas and views of Uzbek literary classics – including Abdurahmon Jami – have consistently served as a theoretical and methodological foundation for organizing educational work in the country's general educational institutions.

References

1. Джами А. Лирика. Поэмы. Весенний сад: сборник / А.Джами; вступ. ст.; сост. и прим. А.Афсаньзод; ред. С.Ховари. Душанбе: Адиб, 1989. – 624 с.
2. Джами, А. Нур-эд-дин Абд-эр-рахман ибн Ахмед. Бахаристон = [Весенний сад] / А.Джами. Ленинград: Академия, 1935.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-avgustdagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260 sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4545884.

Ziyada DJUMANAZAROVA,
Senior teacher, Tashkent state university of law

A HYBRID APPROACH TO GRAMMAR AND COMMUNICATIVE TEACHING: REVISITING BETTY AZAR'S PERSPECTIVE

Annotation. This article examines the complementary roles of grammar-based teaching (GBT) and communicative language teaching (CLT) in second language acquisition. Drawing on Betty Azar's perspective and key SLA research, it argues that grammar and communication are mutually supportive. Using the concept of interlanguage, the paper shows how learners develop accuracy and fluency through both explicit instruction and meaningful use. The review demonstrates that combining GBT and CLT leads to more effective language development. An integrated hybrid model, balancing grammar instruction and communicative practice, is proposed as the most effective approach for contemporary classrooms.

Keywords: grammar-based teaching, communicative language teaching, interlanguage, accuracy, fluency, second language acquisition, pedagogical integration.

Annotatsiya. Ushbu maqolada grammatikaga asoslangan o'qitish (GBT) va kommunikativ o'qitish (CLT)ning ikkinchi tilni o'rganish jarayonidagi o'zaro to'ldiruvchi roli tahlil qilinadi. Betty Azarning qarashlari va asosiy SLA tadqiqotlariga tayangan holda, maqolada grammatika va muloqot bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, degan fikr ilgari suriladi. Intertil (oraliq til) tushunchasiga tayangan holda, maqolada o'quvchilar aniq va ravon nutqni ham aniq ko'rsatmalar, ham ma'noli ishlatish orqali rivojlantirishi ko'rsatiladi. Tadqiqot shuni isbotlaydiki, GBT va CLTni birlashtirish tilni o'rganish samaradorligini oshiradi. Grammatik ko'nikmalar va kommunikativ amaliyotni muvozanatlashgan integratsiyalashgan gibrid model zamonaviy sinflar uchun eng samarali yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: grammatikaga asoslangan o'qitish, kommunikativ til o'qitish, intertil (oraliq til), aniqlik, ravonlik, ikkinchi tilni o'zlashtirish, pedagogik integratsiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются взаимодополняющие роли обучения на основе грамматики (GBT) и коммуникативного обучения языку (CLT) в освоении второго языка. Опираясь на точку зрения Бетти Азар и ключевые исследования SLA, автор утверждает, что грамматика и коммуникация взаимно поддерживают друг друга. Используя концепцию интеръязыка, статья показывает, как учащиеся развивают точность и беглость речи как через явное обучение, так и через осмысленное использование языка. Обзор демонстрирует, что сочетание GBT и CLT способствует более эффективному развитию языковых навыков. Предлагается интегрированная гибридная модель, балансирующая грамматическое обучение и коммуникативную практику, как наиболее эффективный подход для современных классов.

Ключевые слова: обучение на основе грамматики, коммуникативное обучение языку, интерязык, точность, беглость, усвоение второго языка, педагогическая интеграция.

The question of how grammar should be taught has long been debated in language pedagogy. Traditionally, Grammar-Based Teaching (GBT) dominated classrooms through explicit instruction and rule-based exercises. With the rise of Communicative Language Teaching (CLT), the emphasis shifted to meaning-focused activities promoting fluency and real-world communication. This shift often produced a perceived opposition between grammar and communicative practice.

Betty Azar, a leading ESL materials writer, challenges this binary by advocating a hybrid model. In her talk "Grammar Teaching and Communicative Teaching: A Hybrid That Works," Azar argues that grammar instruction is not about memorizing rules but about developing an interlanguage capable of accurate and meaningful communication. Her view aligns with SLA research showing that learners benefit from both explicit grammar knowledge and communicative exposure.

This article situates Azar's perspective within SLA theory, reviews relevant literature, and evaluates hybrid pedagogical approaches.

The study employs a qualitative, analytical, and interpretive research design. Its methodological procedures include:

1. Primary Source Analysis: Azar's speech and her 2007 article were systematically examined to identify her core pedagogical principles, especially those relating to the role of grammar and communicative exposure in SLA.

2. Theoretical Integration: A review of foundational SLA literature, including Corder (1971) and Lightbown and Spada (2006), was conducted to position Azar's claims within established theoretical frameworks. Additional insights from communicative and form-focused instruction research were incorporated to strengthen the analytical depth.

3. Comparative Pedagogical Evaluation: GBT and CLT were critically compared with hybrid models to determine the extent to which Azar's perspective aligns with contemporary evidence-based practices.

Given the conceptual and theoretical nature of the study, no empirical data were collected. The methodology reflects common approaches used in theoretical and pedagogical journals when synthesizing existing literature and evaluating conceptual claims.

Grammar-Based Teaching (GBT):

GBT emphasizes explicit rules, structured drills, and accuracy. Though sometimes criticized for isolating grammar from communicative context, research shows that explicit instruction supports long-term accuracy and interlanguage restructuring.

Communicative Language Teaching (CLT):

CLT prioritizes interaction, meaning, and fluency. Learners engage in authentic tasks and negotiation of meaning. Without form-focused instruction, however, errors may fossilize, especially among adult learners.

Interlanguage Theory:

Corder (1971) described interlanguage as a dynamic system learners construct en route to L2 mastery. Lightbown and Spada (2006) emphasize that interlanguage is systematic, not merely an incomplete L2. Key principles:

- Learners progress through stages;
- Accuracy does not emerge automatically;
- Explicit instruction accelerates development;
- Meaningful communication stabilizes language;
- Errors indicate development, not failure.

Hybrid Pedagogical Models:

Hybrid models integrate GBT and CLT, allowing learners to acquire structures explicitly and then practice communicatively. SLA research (e.g., form-focused instruction, task-based learning) supports this integration as effective for balanced language development.

Discussion and Results. *1. Purpose of Grammar Instruction:*

Azar emphasizes that grammar teaching should foster interlanguage, not merely impart rules. Vocabulary alone is insufficient; grammar structures meaning and enables coherent expression.

2. Fluency and Accuracy. Fluency and accuracy are complementary. Fluency without accuracy leads to fossilized errors; accuracy without fluency produces hesitant speech. Azar advocates "do both," incorporating inductive and deductive techniques flexibly.

3. Limitations of Naturalistic Approaches. Adult learners do not acquire grammar naturally as children do. Azar cites a student immersed in a U.S. school whose accuracy did not improve without explicit instruction, illustrating the need for structured grammar teaching in adult SLA.

4. Strengths of a Hybrid Model. Hybrid instruction enhances form-meaning connections, prevents fossilization, supports developmental progression, and motivates learners. It allows adaptation to diverse learner profiles and institutional contexts.

5. Implications for Practice:

- Modern classrooms benefit from a hybrid approach:
- Explicit instruction for complex structures;
- Communicative tasks requiring target grammar;
- Flexible inductive/deductive teaching;
- Monitoring both accuracy and fluency;
- Feedback supporting interlanguage refinement.

Azar concludes: "Grammar teaching and communicative teaching are not mutually exclusive but mutually supportive. They fit hand in glove".

Betty Azar's hybrid approach demonstrates that grammar and communicative teaching complement, rather than compete with, each other. Explicit instruction ensures accuracy; communicative practice develops fluency and real-world competence. Integrated hybrid models align with SLA theory, cognitive and developmental realities, and contemporary classroom needs. As Azar succinctly states: "Grammar teaching or communicative teaching? Do both". This balanced approach provides a practical, evidence-based framework for effective language pedagogy.

References

1. Azar B. Grammar-based teaching: A practitioner's perspective // TESL-EJ, 2007.
2. Corder S. P. Idiosyncratic dialects and error analysis // International Review of Applied Linguistics, 1971. P. 147–159.
3. Lightbown P. Spada N. How Languages Are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2006.
4. Azar B. (n.d.). Azar Grammar. Retrieved 2013 from Teaching Grammar in
5. Azar B., Folse K., Swan M. Teaching Grammar in Today's Classroom- Part 1: (TESOL panel). https://www.youtube.com/watch?v=YJwbnQOguEk.
6. Azar, B., Folse, K., & Swan, M. (2008). Teaching Grammar in Today's Classroom- Part 2: Q&A [Video]. https://www.youtube.com/watch?v=-jutpjRc-So.
7. Azar B., Folse K., Swan M. Teaching Grammar in Today's Classroom [Video]. – TESOL International, 2008. https://www.youtube.com/watch?v=YJwbnQOguEk.

Guljaxan TUREBEKOVA,
Nukus davlat pedagogika institutikaktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Go'zzal JANABAEVA,
Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MATEMATIKAGA QIZIQISH UYG'OTISH TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda matematika faniga bo'lgan qiziqishni shakllantirishga doir zamonaviy pedagogik yondashuvlar, o'yinli texnologiyalar, raqamli vositalar hamda STEAM asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, matematika, qiziqish, o'yin texnologiyasi, STEAM, sanash, mantiqiy tafakkur, innovatsion metodlar.

Annotation. This article highlights the importance of modern pedagogical approaches to the formation of interest in mathematics in preschool children, game technologies, digital tools, and classes organized on the basis of STEAM.

Keywords: preschool education, mathematics, interest, game technology, STEAM, counting, logical thinking, innovative methods.

Аннотация. В данной статье освещены современные педагогические подходы к формированию интереса к математике у детей дошкольного возраста, игровые технологии, цифровые средства и значение занятий, организованных на основе STEAM.

Ключевые слова: дошкольное образование, математика, интересы, игровые технологии, STEAM, счёт, логическое мышление, инновационные методы.

Maktabgacha ta'lim – bola shaxsining asosiy poydevori shakllanadigan, intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishning eng faol bosqichi hisoblanadi. Shu davrda qo'yilgan bilimlar, ko'nikmalar va qiziqishlar keyingi ta'lim bosqichlarida yuqori natijalarga erishishning kafolatidir [1]. Xususan, matematika fanining asosiy elementlarini maktabgacha yoshdan boshlab o'rgatish – bolada mantiqiy tafakkur, muammoli vaziyatni hal qilish, tahlil qilish va umumlashtirish kabi aqliy faoliyat turlarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, pedagoglar malakasini oshirish kabi keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [1]. Bunda matematika faniga qiziqishni uyg'otish bo'yicha yangi metod va texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, matematika nafaqat sanash yoki shakllarni tanish, balki bolalarda mustaqil fikrlashning asosiy mexanizmini shakllantiradigan fan hisoblanadi. Shu bois maktabgacha

yoshdagi bolalarda matematika bo'yicha motivatsiyani kuchaytirish, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etish, o'yin, texnologiya va interfaol metodlar asosida o'qitish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Maktabgacha yosh – bola tafakkuri jadal rivojlanadigan, atrof-muhit haqidagi bilimlar amaliy faoliyat orqali shakllanadigan davrdir. Bolalar "ko'rish va ushlash orqali o'rganadilar". Bu fikr Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasida ham ochiq namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, 3–7 yoshdagi bolalar **ko'rgazmali-harakat** va **ko'rgazmali-obrazli** tafakkur bosqichida bo'ladilar. Bu esa matematik bilimlarni quruq tushuntirish emas, balki predmetlar, o'yinchoqlar, rangli materiallar orqali berishni talab qiladi. Bolalarda matematik tasavvurlar quyidagi tushunchalar orqali shakllanadi:

Miqdor va sanash tushunchalari. Bola avval predmetlar miqdorini ko'z bilan taqqoslaydi, so'ng amaliy sanashga o'tadi. Sanashni o'rgatishda quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: ketma-ketlikni eslab qolish (1–10 gacha, keyin 20 gacha), predmetlarni moslashtirib sanash, miqdoriy taqqoslash ("ko'p - kam", "teng").

2. Shakl va o'lchamni idrok etish. Geometrik shakllar bilan tanishtirish bolalarda tasniflash, guruhlash, tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Fazoviy tasavvurlar. Bolalar fazoviy yo'nalishni o'yin orqali o'rganadilar: yuqori–past, oldinda–ortda, o'ng–chap va h.k.

4. Mantiqiy fikrlashning dastlabki elementlari: tartiblash, qiyoslash, juftlashtirish, ortiqcha elementni aniqlash. Demak, matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayoni o'yin, amaliy faoliyat va bolalarning tabiiy bilishga bo'lgan qiziqishlariga asoslanadi [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar matematikaning mohiyatini tushunishdan ko'ra, mashg'ulotning qiziqarli yoki qiziqarsiz ekaniga ko'proq e'tibor qaratadilar. Shu sababli pedagog quyidagi omillarni to'g'ri yo'lga qo'yishi zarur:

- **O'qitish jarayonining o'yin faoliyatiga asoslanishi.** Bola uchun o'yin o'rganishning eng tabiiy shaklidir. Matematika o'yinlar orqali berilganda bola uni majburlik deb qabul qilmaydi.
- **Ko'rgazmali qurollardan faol foydalanish.** Rangli kubiklar, geometrik shakllar, LEGO, kartochkalar, didaktik materiallar – qiziqish uyg'otuvchi asosiy vositalar.
- **Pedagogning emotsional-motivatsion yondashuvi.** O'qituvchi faol, energiyaga boy, bolalar bilan muloqotga kirishadigan bo'lsa, fan yanada qiziqarli bo'ladi.
- **Mashg'ulotlarning xilma-xilligi.** Har bir dars bir xil shaklda o'tsa, bola charchaydi. Shuning uchun mashg'ulotlar kombinatsiyalangan, interfaol bo'lishi kerak.
- **Endi matematika bo'yicha bolalarning qiziqishini uyg'otishning zamonaviy texnologiyalarini ko'rib chiqamiz:**
- **O'yin texnologiyalari.** O'yin faoliyati matematika mashg'**ulot**larining eng asosiy texnologiyasi hisoblanadi. Mashhur o'yinlar: "Sanash estafetasi", "Geometrik shakllar olamida", "Miqdorlar bo'yicha poyga", "Kim tez topadi?", "Mo'jizalar qutisi", "Rangli bloklardan uycha quramiz". O'yinlar matematik bilimlarni mustahkamlaydi, qiziqish hosil qiladi va bolani faol ishtirokchi qiladi [3].
- **STEAM texnologiyasi.** STEAM - matematika, texnologiya, san'at va muhandislikni birlashtiruvchi yondashuv. STEAM asosida: LEGO konstruktorlar bilan sanash, shakllardan inshoot barpo etish, suv, qum, toshlar bilan tajribalar, shakllarni san'at orqali tasvirlash. Bu bolalarda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash va qiziqishni bir vaqtda rivojlantiradi [3].
- **Raqamli didaktik o'yinlar va multimedia texnologiyalari.** Bugungi raqamli avlod uchun interaktiv ilovalar juda motivatsion ahamiyatga ega: matematik sanash o'yinlari, geometrik shakllar topish aplikatsiyalari, multfilmlar orqali o'rgatish, bolalar uchun mo'ljallangan mantiqiy mini-o'yinlar. Raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini jonlantiradi va bolalar uchun qiziqarli muhit yaratadi.
- **Interfaol metodlar.** Matematikani maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol metodlar yordamida o'qitish samaradorlikni oshiradi. Masalan, "Aqliy hujum", "Blits-savollar". Bu metodlar bolalarni fikrlashga undaydi.

Ushbu texnologiyalar asosida olib borilgan mashg'ulotlar quyidagi natijalarga olib keladi: matematik bilimlarga barqaror qiziqish hosil bo'ladi; mantiqiy fikrlash, solishtirish, tahlil qilish ko'nikmalari rivojlanadi; sanash, tasniflash, guruhlash, shakllarni farqlash ko'nikmalari mustahkamlanadi; mustaqil fikrlashga intilish kuchayadi; bola maktab ta'limiga psixologik-intellektual jihatdan tayyor bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematika faniga qiziqishni uyg'otish o'quv jarayonining eng muhim yo'nalishlaridan biri deb hisoblaymiz. Matematik o'yinlar, STEAM, raqamli resurslar, interfaol metodlar orqali berilsa, bola nafaqat bilim oladi, balki fan bilan doimiy qiziqib qoladi. Pedagogning innovatsion va ijodiy yondashuvi matematika faniga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shunday ekan, matematika maktabgacha ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bolalarda intellektual rivojlanishning asosiy negizini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. 2."Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. 3. Abdullayeva N., Dustov D., Rustamova M. va boshq. "Metodik mahorat kuni" va "Metodik mahorat soati" (o'quv qo'llanma). – Toshkent: – 2025.

Mamarajab TUROBOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

Anotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo aloqadorlik asosida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni yoritilgan. Sun'iy intellektning tor va umumiy turlari, mashinaviy o'rganish va chuqur o'rganish jarayonlarining ta'limga ta'siri tushuntirilgan. ChatGPT, Bard, Wolfram Alpha kabi SI vositalari yordamida axborotni izlash, tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, matematika, fizika, informatika kabi

fanlar o'rtasida integratsion yondashuvning o'quvchilarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fanlararo aloqadorlik, axborot bilan ishlash kompetensiyasi, sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, vizualizatsiya, kreativ fikrlash, integratsiya, ta'lim olish.

Annotation. The article examines the role of artificial intelligence technologies in developing students' information competence through interdisciplinary connections. It describes the characteristics of narrow and general AI, machine learning, and deep learning, and their impact on education. The paper highlights how tools such as Chat GPT, Bard, and Wolfram Alpha enhance information searching, analysis, visualization, and creativity. It also argues that interdisciplinary integration of mathematics, physics, and computer science fosters students' independent thinking, decision-making, and problem-solving skills.

Keywords: interdisciplinary, information literacy, artificial intelligence, machine learning, visualization, creative thinking, integration, learning.

Аннотация. В статье рассматривается роль технологий искусственного интеллекта в развитии информационной компетентности учащихся на основе межпредметных связей. Раскрываются особенности узкого и общего ИИ, машинного обучения и глубокого обучения, а также их влияние на образовательные процессы. Показаны возможности инструментов ИИ, таких как ChatGPT, Bard, Wolfram Alpha, при поиске, анализе и визуализации информации. Обосновано, что междисциплинарная интеграция математики, физики и информатики способствует формированию у учащихся критического мышления, самостоятельности и навыков решения проблем.

Ключевые слова: междисциплинарный, информационная грамотность, искусственный интеллект, машинное обучение, визуализация, творческое мышление, интеграция, обучение.

Bugungi globallashuv jarayonida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish barqaror vazifa bo'lib qolmoqda [2: 15]. Axborot bilan ishlash komptensiyasi – o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotga tadbiq etish. Bu kompetensiya zamonaviy axborot oqimi keskin ortib borayotgan davrda ta'limning ajralmas qismi sifatida ko'rilmoqda [1: 63].

Fanlararo aloqadorlik asosida bu kompetensiyani rivojlantirishning afzalligi, o'quvchilar turli fanlardan olgan bilimlarini yagona axborot makonida qo'llay olishi bilan belgilanadi [6: 41]. Masalan, matematika darsida masalani yechish jarayonida o'quvchi nafaqat matematik bilim, balki fizika yoki informatika fanidan olgan tasavvurlarini ham qo'llaydi. Bu jarayonda sun'iy intellekt (SI) o'quvchilarning bilimlarni integratsiyalashuvi va mustaqil fikrlashini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi [3: 22]. Sun'iy intellekt quvvati inson intellekti talab qiladigan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan kompyuter tizimlari majmuidir. Bu jarayonlarga o'rganish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni qayta ishlash va qaror qabul qilish kiradi [4: 102]. Sun'iy intellekt murakkab muammolarning yechimini topishda inson aql-idrokiga taqlid qilgan holda samaradorlikni oshiradi.

Sun'iy intellektning bir qancha turlari mavjud. Masalan, tor sun'iy intellekt aniq vazifalarni bajarishga mo'ljallangan bo'lib, imkoniyatlari chegaralangan [5: 38]. Umumiy SI esa inson kabi fikrlash va o'rganish qobiliyatiga ega bo'lgan tizim bo'lib, hozircha faraziy konsepsiya sifatida qaraladi. ML (Machine learning) – SI ning asosiy yo'nalishi bo'lib, tizimlar aniq dasturlashtirilmasdan tajriba orqali o'zini takomillashtiradi.

Axborotni tezkor izlash va ishlash. Sun'iy intellekt vositalari, xususan ChatGPT, Bard va Perplexity AI kabi til modellari o'quvchilar uchun murakkab matnlarni tahlil qilish, izoh berish va qisqa xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Masalan, tarixiy matnlardagi murakkab tushunchalarni oddiy tilda sharhlash o'quvchilarda axborot bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Bu vositalar o'quvchilarga izlanish jarayonida vaqtni tejash, kerakli ma'lumotlarni tezkor topish va uni qayta ishlash imkonini beradi.

Vizualizatsiya va modellash. Matematika, fizika, biologiya kabi fanlardagi murakkab jarayonlarni vizual ko'rinishda berilishi tushunishni osonlashtiradi [6: 93]. GeoGebra AI, Wolfram Alpha kabi vositalar funksiyalar grafigi yoki fizik jarayonlarni tez chizib berishi o'quvchilarning bilimni eslab qolishini yaxshilaydi.

Tahliliy va kreativ fikrlashni rivojlantirish. Sun'iy intellekt o'quvchilarni muammolarga turli burchaklardan undaydi, bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi [5: 67]. Masalan, murakkab masalalarni yechishda bir nechta alternativ echimlarni taklif qiladi yoki mavjud nazariyani boshqa sharoitda sinab ko'rishga undaydi. Bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi, o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish, yangicha yechimlar topish va innovatsion yondashuvlar ishlab chiqish ko'nikmalarini ortadi.

Fanlararo qo'llab-quvvatlash. Sun'iy intellekt yordamida bir fanni boshqa fanlar bilan integratsiya qilish imkoniyatini kengaytiradi: Masalan, matematik masalalarni yechishda fizik qonuniyatlardan foydalanish, kimyoviy jarayonlarni matematik modellar orqali ifodalash yoki biologik jarayonlarni algoritmik modellashtirish mumkin. Bu kompleks yondashuv o'quvchilarda chuqur tahliliy kompetensiyani shakllantiradi [2: 49].

Axborot bilan ishlash kompetensiyasida SI o'quvchilarda ko'rishni boshqarishda yordam beradi:

- muayyan mavzuga oid manbalarni tezkor topish;
- kerakli axborotni filtrlash va belgilash;
- turli formatdagi (matn, rasm, jadval, grafik) ma'lumotlarni qayta ishlash;
- axborotni mustaqil va undan samarali yo'lga qo'yish.

Amaliy misol sifatida matematika va informatika fanlarida ma'lumotlar bazasidan yuklab olishni keltirish mumkin. O'quvchilar sun'iy intellekt yordamida murakkab hisob-kitoblarni jamlash, mavjud algoritmlarni optimallashtirish va statistik ma'lumotlarni qabul qilish uchun foydalanishadi. Bu esa ularda axborotni samarali tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Ta'lim jarayonida sun'iy intellektning qo'llanilishi natijasida nafaqat o'quvchilarning axborotlar bilan ko'proq ishlashini rivojlantiradi, balki o'qituvchilar uchun ham metodik yengilliklar yaratadi. Masalan, test savollarini avtomatik generatsiya qilish, dars rejalarini tuzishda yordam berish, ta'lim olishni monitoring qilishda juda qulay bo'ladi.

Fanlararo aloqadorlik asosida axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshiradi. O'quvchilarda mustaqil izlanish, kreativlik va tanqidiy fikr kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Yo'ldoshev J. Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.

3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. Москва: Педагогика, 1989.
4. Delors J. Learning: The Treasure Within. – Paris: UNESCO Publishing, 1996.
5. Bruner J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2009.
6. Drake S., Burns R. Meeting Standards Through Integrated Curriculum. – Alexandria, VA: Association for Supervision and Curriculum Development, 2004.

Dilfuza XODJIYEVA,
Buxoro Davlat Universiteti tayanch doktoranti

FORTEPIANO DARSLARINI TEXNOLOGIK TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada fortepiano darslarini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari yoritilgan. Musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda shaxsga yo'naltirilgan o'qitish tamoyillari asosida mashg'ulotlarni tashkil etishning afzalliklari tahlil qilingan. Fortepiano darslarida pedagogik texnologiyalarning o'quvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash, tinglash madaniyati va musiqiy tasavvurni shakllantirishdagi roli alohida o'rganilgan.
Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalar, fortepiano ta'limi, innovatsion metodlar, interfaol o'qitish, ijodiy yondashuv, musiqiy qobiliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, musiqiy tafakkur, individual yondashuv.
Annotation. This article examines the relevant aspects of applying modern pedagogical technologies in the effective organization of piano instruction. It analyzes the advantages of employing innovative methodological approaches, interactive teaching techniques, information and communication technologies, as well as learner-centered principles within music education. Special attention is given to the role of pedagogical technologies in fostering students' independent creative thinking, musical listening culture, and imaginative capacities in piano lessons. The study highlights pedagogical conditions that enhance the effectiveness of piano training and stimulate learners' cognitive, analytical, and performance-related activities.
Keywords: pedagogical technologies, piano education, innovative methods, interactive teaching, creative approach, musical ability, information and communication technologies, musical thinking, individual approach.
Аннотация. В статье рассматриваются актуальные аспекты применения современных педагогических технологий в процессе эффективной организации обучения игре на фортепиано. Анализируются преимущества использования инновационных методических подходов, интерактивных форм обучения, информационно-коммуникационных технологий, а также принципов личностно-ориентированного образования в музыкальной педагогике. Особое внимание уделено роли педагогических технологий в формировании у учащихся самостоятельного творческого мышления, культуры музыкального восприятия и развитого музыкального воображения. Выделены педагогические условия, способствующие повышению эффективности фортепианных занятий и активизации познавательной, аналитической и исполнительской деятельности обучающихся.
Ключевые слова: педагогические технологии, фортепианное образование, инновационные методы, интерактивное обучение, творческий подход, музыкальные способности, информационно-коммуникационные технологии, музыкальное мышление, индивидуальный подход.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar pedagogik jarayonga zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni talab qilmoqda. Xususan, musiqa ta'limida fortepiano darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chunki fortepiano mashg'ulotlari nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki o'quvchilarning estetik didi, musiqiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida fortepiano darslarini tashkil etish o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularda musiqiy asarlarni mustaqil tahlil qilish, ijro etish va baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. An'anaviy o'qitish metodlari bugungi axborot asrida yetarli samaradorlik bermagani sababli, ta'lim jarayoniga interfaol metodlar, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), muammoli o'qitish hamda ijodiy yondashuv kabi metodlarni joriy etish zarur bo'lib qoldi [1: 45].

Pedagogik texnologiyalar fortepiano o'qituvchisiga darslarni o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish, ularning mustaqil fikrlash va musiqiy obrazlar yaratish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday yondashuvlar orqali o'quvchi dars jarayonida faol ishtirok etadi, ijodiy izlanadi va o'z ustida mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Fortepiano ta'limida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalasini ko'plab tadqiqotchilar o'rgangan. G.Abdullayeva o'z tadqiqotida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan musiqa ta'limida foydalanishning samaradorligini ko'rsatadi va ularning o'quvchilarda mustaqil fikrlash hamda musiqiy tasavvur shakllanishidagi roliga alohida e'tibor qaratadi [1]. O.Alimov (2017) fortepiano san'ati va uni o'qitish metodikasi bo'yicha olib borgan fundamental ishida musiqa pedagogikasida o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish zarurligini asoslaydi. Ushbu maqola fortepiano darslarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishni taklif etadi va Alimovning g'oyalari mazkur yondashuvning ilmiy asoslanishiga xizmat qiladi. N.Davronova interfaol metodlardan foydalanishga e'tibor qaratadi. U o'quvchilarda musiqa ijodiga bo'lgan qiziqishni savol-javoblar, rolli o'yinlar va musiqiy topishmoqlar orqali oshirishni taklif qiladi [2]. D.Jalilova dars samaradorligini differensial yondashuvning o'rganilishi va har bir o'quvchining tayyorgarligi, psixologik holati hamda musiqiy qobiliyatini hisobga olish orqali oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [3]. F.Sobirova taklif etgan portfolioga asoslangan baholash tizimi maqolada keng muhokama qilinadi [5]. Bu usul o'quvchining yutuq va kamchiliklarini tizimli tahlil qilish hamda mustaqil ishlarni rag'batlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur usul maqolada natijalarni aniqlash va monitoring qilishda ham qo'llaniladi.

Zamonaviy metodlar va innovatsion yondashuvlar pedagogik texnologiyalarga asoslangan fortepiano darslarini o'tkazishda muhim o'rin tutadi. Bunday darslar nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda ijodiy potensial, musiqiy eshitish va tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda

shaxsga yo'naltirilgan yondashuv katta ahamiyat kasb etadi. Bu har bir o'quvchining individual qobiliyatlarini aniqlash va ularga mos metodlarni tanlash imkonini yaratadi. Xususan, modulli o'qitish texnologiyasi yordamida o'quv dasturi ma'lum mavzular asosida bosqichlarga ajratiladi va har bir bosqichda mustaqil tahlil, amaliy mashqlar va ijro muhim o'rin egallaydi [2: 22]. Umuman olganda, fortepiano ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars jarayonini zamon talablariga moslashtiradi, samaradorlikni oshiradi va o'quvchining shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi [3: 60].

Fortepiano ta'limida pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshiradi. O'tkazilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy o'qitish metodlari orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, ularning ijodiy salohiyati rivojlanadi hamda musiqiy tafakkur ko'nikmalari chuqurlashadi. Xususan, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarga fortepiano ijrosini mustaqil o'rganish, turli musiqiy asarlarni tahlil qilish va baholashga yordam beradi. Interfaol metodlar, guruh bilan ishlash, savol-javoblar va muammoli vazifalar orqali o'quvchilar bilimlarni faol o'zlashtiradilar, bu esa ularning tanqidiy va analitik tafakkurini shakllantiradi. Ushbu yondashuvlarning amaliy natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy metodlarga asoslangan darslarga nisbatan pedagogik texnologiyalar bilan boyitilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar darsga yanada faol jalb etiladi. O'quvchilar ijro etayotgan musiqiy asarlarga mustaqil yondashadi, ularni o'z ijodiy tafakkuri asosida anglaydi va musiqiy asarning mohiyatini to'g'ri tushunadi. Bu esa fortepiano o'qituvchisining vazifasi nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, rag'batlantiruvchi va maslahatchi sifatidagi rolini ham kuchaytiradi. Shuningdek, differensial yondashuv orqali har bir o'quvchining individual xususiyatlari aniqlanadi va mashg'ulotlar ularning qobiliyatiga mos ravishda tashkil etiladi, bu esa o'zlashtirish samaradorligini yanada oshiradi [4: 15].

Dars davomida o'quvchilar multimedia vositalari, audio va video materiallar, raqamli notalar hamda virtual pianino dasturlaridan foydalanish orqali musiqiy san'atning boy olamiga chuqurroq kirib boradilar. Shuningdek, ular o'z ijrolarini yozib, ijro jarayonini tahlil qilish va professional ijrochilar ijrolarini tomosha qilish orqali ijro mahoratini takomillashtirishga intiladilar. Bu nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki estetik didni, tinglash madaniyatini hamda sahnada o'zini tutish qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, portfolioga asoslangan baholash tizimi o'quvchining yutuq va kamchiliklarini real baholash, uni o'z ustida mustaqil ishlashga rag'batlantirish uchun muhim vosita hisoblanadi [5: 70].

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalar asosida fortepiano darslarini tashkil etish o'quvchilarning musiqiy salohiyatini rivojlantirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltirish hamda o'zlashtirish samaradorligini oshirish uchun muhim vositadir. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, modulli o'qitish, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, differensial yondashuv va portfolioga asoslangan baholash kabi metodik yondashuvlar fortepiano darslari sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Pedagogik texnologiyalar o'qituvchiga dars mazmunini o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirish, ularni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish va musiqiy tafakkurini shakllantirish imkonini beradi. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar musiqiy materiallarni vizual va eshitish orqali yanada chuqurroq tushunishga, shuningdek, o'zini o'zi baholash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva G. Musiqa ta'limida pedagogik texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // Ta'lim va fan. 2018. 3(12), 45–50.
2. Davronova N. Musiqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanish // Pedagogika va psixologiya, 2020, 4(8). – B. 22–28.
3. Jalilova D. Musiqa ta'limida differensial yondashuv // Ilmiy ishlanmalar to'plami, 2018, 6(2). – B. 60–66.
4. Kadirov B. Musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalar // Musiqa va madaniyat, 2019, 1(4). – B. 15–21.
5. Sobirova F. Fortepiano ta'limida portfolioga asoslangan baholash tizimi // Ilmiy maqolalar, 2021, 3(10). – B. 70–75.

Faxriddin YUSUPOV,
Yangiyo'l tumani 3-son texnikumi direktori;

Zafar MAHMUDOV,
Yangiyo'l tumani 3-son texnikumi o'qituvchisi

KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISLOHOTLAR

(Yangiyo'l tumani 3-sonli texnikum faoliyati misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar Yangiyo'l tumani 3-sonli texnikum faoliyati misolida yoritilgan. Unda texnikumlarda yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish, dual ta'limni joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, ijtimoiy va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda bitiruvchilarning bandligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, texnikum, ta'lim islohotlari, dual ta'lim, kadrlar tayyorlash, yoshlar bandligi, hamkorlik.

Annotation. This article examines the reforms being implemented in the vocational education system in Uzbekistan, using the example of the activities of Technical School No. 3 in the Yangiyul district. It will analyze the work being carried out in technical schools to guide young people in professions, introduce dual education, improve the quality of education, develop social and international cooperation, and ensure the employment of graduates.

Keywords: vocational education, technical school, educational reforms, dual education, personnel training, youth employment, cooperation.

Аннотация. В данной статье освещаются реформы, осуществляемые в системе профессионального образования в Узбекистане, на примере деятельности техникума No 3 Янгиюльского района. В нем будет проанализирована работа, проводимая в техникумах по профессиональной ориентации молодежи, внедрению дуального образования, повышению качества образования, развитию социального и международного сотрудничества, а также обеспечению занятости выпускников.

Ключевые слова: профессиональное образование, техникум, образовательные реформы, дуальное образование, подготовка кадров, занятость молодежи, сотрудничество.

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganiga mana 34 yil bo'ldi. Shu davr mobaynida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy sohalarda bo'lgani kabi yurtimiz ta'lim tizimida ham islohotlar izchil amalga oshirib kelinayotganiga guvoh bo'lib kelmoqdamiz. Bu o'zgarishlar nafaqat mamlakatimiz ahlining, balki ko'pgina xorijliklarning ham e'tirofiga sazovor bo'layotgani quvonarlidir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi, qolaversa, kasbiy ta'limni rivojlantirish yuzasida rejalashtirilgan va amalga oshirib kelinayotgan ustuvor maqsadlar yurtimizda kadrlar tayyorlashning milliy modeli va dasturi hayotga, ta'lim tizimiga tatbiq qilib kelinmoqda. Prezidentimizning kasbiy ta'limni isloh qilish bo'yicha va tizimda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qaror va farmonlari texnikum va akademik liseylar faoliyatini yangi bosqichga chiqarish, jamiyatda kasbiy ta'lim nufuzini oshirishga qaratilgan. Umumta'lim maktablarining to'qqizinchi sinfini bitirgan yoshlarimiz, farzandlarimiz o'qishini texnikumlarda davom ettirib kasb-hunar egallashlari bo'yicha sharoitlar yaratilmoqda.

O'tgan davr mobaynida o'quvchi-yoshlar hamda ularning ota-onalari orasida o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda texnikumlar tashkil qilinib, ilmga va kasb-hunar o'rganishga chanqoq bo'lgan o'g'il-qizlarimiz ularga jalb qilinmoqda. Bu hol o'qishni istovchi umumta'lim maktablarining 9-sinfini bitiruvchilarida mamlakatimizda joriy etilgan yangi ta'lim tizimidan qoniqish va faxrlanish tuyg'usini uyg'otayotgan bo'lsa, ularning ota-onalaridan esa davlatimiz rahbariyatining yoshlar kelajagiga va insonparvarlik siyosatiga katta e'tibori uchun minnatdorchilik bildirmoqda.

Bugungi texnikumlar O'zbekistondagi ta'limni ilg'or zamonaviy darajaga ko'tarayotgan yangi tizim bo'lib, ularda yoshlarga ta'lim berish, o'g'il-qizlarimizda kasb-hunarga bo'lgan qiziqishlarini ro'yobga chiqarishiga xizmat qilmoqda. Hayot yangicha yashash, yangicha ishlashni talab qiladi. Demak, bunga yoshlarimizga puxta bilim berish bilan, ularni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash orqaligina erishish mumkin. Mazkur vazifalarni o'zining ustuvor vazifasi qilib belgilagan Yangiyul tumani 3-sonli texnikum rahbariyati, o'qituvchi-xodimlar jamoasi har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirish maqsadida asosiy e'tiborni o'quvchilarga puxta bilim berish maqsadida o'quv yurtiga fan va texnikaning turli sohalarida ko'zga ko'ringan salohiyatli o'qituvchi, yuqori tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarni taklif etishga qaratib kelmoqda. Texnikum 2006-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda 52 nafar o'qituvchi-xodimlar faoliyat yuritmoqda.

Texnikumda 8 ta yo'nalish mavjud bo'lib, 547 nafar o'quvchi-talabalar tahsil oladi. O'quv yo'nalishi bo'yicha chet (ingliz) tili o'qituvchilari bosqichma-bosqich attestatsiyalarga jalb qilinib, sinovlar muvaffaqiyatli o'tmoqda. Tarix fanidan 1 nafar o'quvchi tuman bosqichida 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichida ishtirok etishi uchun tayyorgarlik ko'rmoqda. Avtorun dasturi bo'yicha o'qituvchilar ish hujjatlarini joylashtirish bo'yicha maxsus fan o'qituvchilari Nodir Xudayberdiyev va informatika fani o'qituvchisi Normurod Bekmurodovlar natijalarga erishib yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va yoshlar bilan ishlash yo'nalishi bo'yicha texnikumda doimiy ravishda madaniy-ma'rifiy va profilaktik tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. "Barkamol avlod" sport o'yinlarida sportning Dzyudo turi bo'yicha viloyat bosqichida 2 ta birinchi va 1 nafar o'quvchi uchinchi o'rinni egalladi. Texnikumda ushbu o'quv yilida dual ta'lim yo'lishi yo'lga qo'yilib, 3 ta mutaxassislikda (tikuvchi, sotuvchi-kassir va kompyuter injenering yo'nalishlarida) o'quvchilar qabul qilindi. Tuman prokuraturasi tashabbusi bilan 2024–2025-o'quv yili bitiruvchilarining bandligini ta'minlash maqsadida Texnikumda "Bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi" tashkil etildi.

Texnikumda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi PF-190-sonli "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirishchora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda PQ-316-sonli "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori mazmun-mohiyatini tumanda ish beruvchi korxona va tashkilotlar hamda aholiga yetkazish maqsadida seminar tashkil etildi. Seminarda Yangiyo'l tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi xodimlari va tumandagi korxona hamda tashkilotlar vakillari va texnikum rahbariyati ishtirok etib 22 ta korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalari tuzildi.

Prezidentimizning 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158 sonli qarori asosida Texnikumga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti biriktirilgan. Shu maqsadda universitet Yangiyo'l 3-sonli texnikumini otaliqqa olgan. Doimiy ravishda texnikumni ilmiy-tadqiqot ishlarini moddiy va ma'naviy hayotini yaxshilash borasida qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 2025-yilning 15-oktyabr kuni texnikumga universitet ilmiy jamoasi va rahbariyati tashrif buyurib, hamkorlik uchrashuvi o'tkazdi. Uchrashuvda "Tilami" Milliy tadqiqot universiteti Kelmyung kollej universiteti o'rtasida Ikki diplomli ta'lim dasturi asosida hamkorlik memorandumi imzolandi. Undan ko'zlangan maqsad 2026-yildan boshlab "Rabotexnika" va "Mexatronika" yo'nalishlarini ochib o'qitishni yo'lga qo'yish kelishildi. Uchrashuvda texnikum talabalari va ularning ota-onalari ishtirok etib o'zlarini qiziqtirgan savollariga javoblar olishdi. Shu bilan birga, 2025-yil 14-noyabr kuni Rossiya Federatsiyasining Kostroma viloyati Davlat qishloq xo'jalik akademiyasi bilan hamkorlik kelishuvi imzolanib, unda ta'lim sifatini yaxshilash, kasbga yo'naltirish ilmiy-ijtimoiy va professional sohalardagi hamkorlik belgilandi. Iqtidorli bolalar yurtimiz boyligi mustaqil yurtimizning ishonchidir. Bunday o'quvchi- yoshlarga yoshlikdan e'tibor berib, qo'llab-quvvatlansa, ular orasidan yangilik yaratuvchi iste'dodlar, iqtidorli kasb-hunar egalari yetishib chikishi muqarrar. Bu holni amalga oshirish esa ustoz murabbiylardan tinimsiz mehnat va izlanishni talab etadi. Hozir mamlakatimizda kasb-hunar ta'limi tizimida soha xodimlari oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri yoshlarga har tomonlama chuqur bilim berish, ayniksa, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan bir paytda yoshlarimizning kompyuter sohasiga bo'lgan qiziqishlarini hamda chet tillarni o'rgatish bugun muhim ahamiyat kasb etadi. Texnikumda talaba – yoshlarni ana shunday zamonaviy bilim olishlari borasida muayyan ishlar amalga oshirilayapti. Bu borada davr talablari darajasida jihozlangan bir necha o'quv xonalari va labaratoriyalarning imkoniyat yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Prezidentimizning farmon va qarorlari ijrosini taminlash bo'yicha kasbiy ta'lim nufuzini oshirish borasida jamoa va hamkor tashkilotlar bilan hamkorlikda kelajak yoshlarimizni kasbiy ta'lim olishlari va hunarlarni egallash borasida texnikum jamoasi bor kuch-g'ayratini ishga solib shijoat bilan mehnat qilishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 23-oktyabrdagi PF–190-sonli "Kasbiy ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–316-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF–158-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining kasbiy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qaror va farmoyishlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish agentligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari.
7. Yangiyo'l tumani 3-sonli texnikumining 2023–2025-o'quv yillariga oid ichki hisobotlari va statistik ma'lumotlari.

Zafar MAXMUDOV,
Yangiyo'l tumani 3-sonli texnikum o'qituvchisi

BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY QADRIYATLAR NEGIZIDA TARBIYALASHNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada barkamol avlodni ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning nazariy jihatlari yoritilgan. Unda Uchinchi Renessans g'oyalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimida tahsil olayotgan o'quvchi-yoshlarda ma'naviy barkamollikni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashning dolzarb jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, ma'naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, yoshlar, kasbiy ta'lim, ijtimoiy faollik, Uchinchi Renessans.

Annotation. This article covers the theoretical aspects of raising a harmoniously developed generation based on spiritual values. It analyzes the ideas of the Third Renaissance, the role of national and universal values in the upbringing of youth, especially the issues of forming spiritual maturity in student youth studying in the vocational education system. Attention will also be paid to the current aspects of increasing the social activity of young people and raising them as well-rounded individuals.

Keywords: harmoniously developed generation, spiritual education, national values, universal values, youth, vocational education, social activity, Third Renaissance.

Аннотация. В данной статье освещены теоретические аспекты воспитания гармонично развитого поколения на основе духовных ценностей. В нем анализируются идеи Третьего Ренессанса, роль национальных и общечеловеческих ценностей в воспитании молодежи, особенно вопросы формирования духовной зрелости у учащейся молодежи, обучающейся в системе профессионального образования. Также будет уделено внимание актуальным аспектам повышения социальной активности молодежи и воспитания ее как зрелой личности.

Ключевые слова: гармонично развитое поколение, духовное воспитание, национальные ценности, общечеловеческие ценности, молодежь, профессиональное образование, социальная активность, Третий Ренессанс.

Uchinchi Renessans ostonasida turgan xalq sifatida biz yuksak ma'naviyat, teran tafakkur va bunyodkorlik g'oyalarini bayroq qilib, kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga moddiy boylikdan ko'ra mustahkam oila, sog'lom muhit va eng asosiysi, to'g'ri tarbiya berish haqida ko'proq qayg'urishimiz darkor. Zero, millatning ertangi kuni uning bugungi ma'naviy kamolotiga bevosita bog'liq.

Mamlakatimiz ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan bormoqda. Bu yil Vatanimiz o'z mustaqilligining 34 yilligini keng nishonladi. O'tgan davr ichida Yangi O'zbekistonimiz milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, ularni kelajak avlod qalbiga, ongi va shuuriga singdirishga, shuningdek, barkamol avlodni milliy an'analar hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat berib kelmoqda. Bunda mamlakatimiz yoshlarining o'rta bo'g'in kasbiy ta'lim tizimida texnikum va akademik litseylarda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi-yoshlarga e'tibor qaratish, ularni ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu xususda Prezidentimiz "Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz – jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'z-o'zini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdir" degan mazmunda fikr bildirgan edilar. Prezidentimizning ushbu fikri yoshlarni, ayniqsa, mamlakatimiz kasbiy ta'lim tizimidagi bo'lajak mutaxassis kadrlarni ma'nan yetuk shaxs sifatida tarbiyalash masalasi muhim ma'naviy jarayon ekanligidan dalolat beradi. Eng muhimi, ushbu vazifalarni amalga oshirishda texnikum va akademik litseylarda ta'lim-tarbiya olayotgan yoshlarimizda milliy qadriyatlarimizga, shuningdek, o'tmishda va bugungi kunda mavjud bo'lgan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga to'g'ri munosabatni shakllantirish masalasi eng dolzarb va nozik jihatlardan biridir. Tarbiyaning ushbu jihatlarini tahlil etmasdan, yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga to'g'ri munosabatni shakllantirmasdan turib, ko'zlangan maqsadlarga erishish mushkul.

Milliy qadriyatlar – xalqimizning boy moddiy, ma'naviy va falsafiy merosi, urf-odat va an'analari, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlardir. Ularni kasbiy ta'lim tizimida ta'lim olayotgan o'quvchi-talaba yoshlar ongiga singdirish, barkamol inson sifatida shakllantirish muhim masala. Jamiyatimiz ulkan islohotlar davrini boshdan kechirayotgan bugungi kunda yoshlar, ayniqsa kasbiy ta'lim tizimidagi talaba-yoshlarning ma'naviy shakllanishiga e'tibor berish davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi bejiz emas. Negaki, hozirgi kun talaba-yoshlarining hayotiy maqsadlari bilan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o'zaro amal qilish doirasi, ularning bir-biri bilan mushtarakligi hamda ma'naviyatga ta'siri masalalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish, respublikamizda bo'lajak kasb-hunar sohiblarini ma'naviy tarbiyalash va barkamol inson sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarning ushbu qatlamining jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzi, ijtimoiy hayotga ta'siri, shuningdek, ularni ta'lim jarayoniga jalb etish, ma'naviy faollik darajasini oshirish, bandlik muammolarini hal etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. O'quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ma'naviy

barkamol kasb sohiblarini tarbiyalashning jamiyat hayotidagi ahamiyati va muhimligini quyidagi jihatlar bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, o'tgan davr mobaynida yoshlarning jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Endi esa ularni maxsus ilmiy tadqiq etish va ushbu yo'nalishda istiqbolga mo'ljallangan vazifalarni yanada takomillashtirish vaqti keldi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har qanday o'zgarishlar, eng avvalo, yoshlar hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'lim jarayonini yaxshilash, yoshlarning o'qishdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-murabbiylar mehnatini rag'batlantirishning yangi mexanizmlarini yaratish lozim.

Uchinchidan, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Ular orasida 16–20 yoshdagi texnikum va akademik litsey o'quvchi-yoshlari ham bor. Zero, demokratik islohotlarning muvaffaqiyati asosan yoshlarning bu jarayonlarda qanchalik faol ishtirok etishiga bog'liq. Shu bois yoshlarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashning ilmiy-nazariy konsepsiyasini rivojlantirish hamda amaliy takliflar ishlab chiqish davr talabi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

Guljaxan TUREBEKOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim kafedrasi katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori;

Sadoqat MELIBOYEVA,
Nukus davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA BOLALARDA HOZIRJAVOBLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblik ko'nikmasini xalq og'zaki ijodi orqali shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, hozirjavoblik, ko'nikma, xalq og'zaki ijodi.

Annotation. This article explores the pedagogical and psychological foundations of forming resourcefulness skills in preschool children through oral folk art.

Keywords: preschool education, educator, pupil, quick-wittedness, skill, folklore.

Аннотация. В данной статье освещаются педагогико-психологические основы формирования навыков находчивости у детей дошкольного возраста посредством устного народного творчества.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитатель, воспитанник, находчивость, умение, устное народное творчество.

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bola atrofdagi hodisalarni o'ziga xos tarzda qabul qiladi, voqealarga darhol munosabat bildiradi, savollarga javob izlaydi va o'z fikrini ifodalashga urinadi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish, ayniqsa, hozirjavoblik, ya'ni savol yoki vaziyatga mos tarzda tez, izchil va mazmunli javob bera olish qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'limning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada xalq og'zaki ijodi vositalari o'zining tabiiy, qiziqarli va bolaga yaqinligi bilan alohida o'rin egallaydi.

Xalq og'zaki ijodi milliy madaniyatning ko'p asrlik merosi bo'lib, undagi ertaklar, topishmoqlar, maqollar, matallar, qo'shiqlar va tez aytishlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, tasavvurini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi va hozirjavoblikning shakllanishiga xizmat qiladi [1]. Hozirjavoblik bu – bolaning savol yoki vaziyatga mos ravishda o'z fikrini qisqa, aniq va lo'nda ifodalashi, muloqotda faollik ko'rsatishi, tasavvurini ishga solib darhol javob bera olishi demakdir [1]. Psixologik manbalarda hozirjavoblik quyidagi ko'rsatkichlar orqali tavsiflanadi: **tezkor fikrlash**, **nutqning ravonligi**, **hissiy sezgirlik**, **vaziyatni to'g'ri anglay olish**, **muloqotga kirisha olish.**

V.V.Zenkovskiy o'z tadqiqotlarida bolalarning hissiy tajribasi ularning ruhiy hayotida asosiy o'rinni egallashini ta'kidlaydi. Demak, hozirjavoblik ko'nikmalarini shakllantirish faqat nutqiy jarayon emas, balki bolaning hissiy olamini boyitishni ham talab etadi. Chunki maktabgacha yoshdagi bola ko'pincha vaziyatga his-tuyg'u ta'sirida javob beradi. Ayni paytda hozirjavoblik bolaning ijtimoiy moslashuvi, tengdoshlari bilan erkin muloqot qilishi, mashg'ulot va o'yinlarda faol ishtirok etishiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblik ko'nikmalarini **rivojlantirish zarurati quidagilardan iborat, m**azkur yosh davrida bola savollarni tushunishga, o'z fikrini ifodalashga, mantiqiy zanjir yaratishga, vaziyatga mos ravishda reaktsiya bildirishga yangi o'rganib boradi. Agar bu ko'nikmalar o'z vaqtida shakllantirilmasa bola nutqi sust rivojlanadi, muloqotda qiynaladi, o'yin jarayonida ishtirok etishda tortinchoqlik yuzaga keladi, emotsional holati beqaror bo'ladi. Demak, hozirjavoblik ko'nikmalari maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida yetilishi uchun muhim psixologik mexanizmdir.

Xalq og'zaki ijodining hozirjavoblik ko'nikmalarini **shakllantirishdagi o'rniga keladigan bo'lsak, x**alq og'zaki ijodi – bolalar tarbiyasining bebaho manbaui. U o'zining badiiy ifoda vositalari, ritmik ohanglari, obrazli tasvirlari orqali bolada emotsional faollikni uyg'otadi va tafakkurni faol harakatga keltiradi. **Masalan, t**opishmoqlar bolani fikrlashga undaydi, mantiqiy mushohada yuritishga yordam beradi. Bola topishmoqni tinglab voqeani tasavvur qiladi, tasvirga mos javob izlaydi, tezkor fikr bildiradi. Bu jarayon hozirjavoblik

ko'nikmalarining eng muhim tarkibiy qismi -u **tez fikrlash** qobiliyatini rivojlantiradi [3]. Tez aytishlar esa bolalarning nutqini ravonlashtiradi, talaffuzini yaxshilaydi, so'zlarni tez va aniq aytishga o'rgatadi. Ular nutq apparatini faollashtiradi, artikulyatsiyani rivojlantiradi, chaqqon javob berishga yordam beradi. Ertaklar bola dunyoqarashini kengaytiradi, tasavvurini boyitadi, qahramonlar bilan birga his-tuyg'ularni boshdan kechirish imkonini beradi. Ertak tinglagan bola obrazli fikrlaydi, qahramon hislarini his etadi, voqeaga munosabatini bildiradi. Bu esa hozirjavoblikning hissiy komponentini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda hozirjavoblik ko'nikmalarini rivojlantirishda ertaklar va bolalar uchun yozilgan badiiy asarlar juda muhimdir. Chunki bunday asarlar bolalarning his-tuyg'ulariga tez ta'sir qiladi va ularni o'ylashga undaydi. Ertak va hikoyalar orqali bolalarning bilimlari ko'payadi, tasavvurlari kengayadi va turli ko'nikmalar asta-sekin shakllanadi. Badiiy asarlarda tabiat manzaralari, qiziqarli voqealar, qahramonlarning harakatlari, ular o'rtasidagi suhbatlar va his-tuyg'ular o'ziga xos tarzda tasvirlanadi. Bu esa bolalarga voqealarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bolalar ertak qahramonlari bilan birga o'sha voqealarni "his qilib", ular bilan quvonadi, ular bilan birga xavotirlanadi. Qahramonning quvonchi, g'am-tashvishi bolaga ham o'tadi. Shu tariqa bola boshqalarning his-tuyg'ularini tushunishni, ularga hamdard bo'lishni o'rganadi. Bunday asarlar bolalarning o'y-fikrlashini faollashtiradi, savollarga tez va aniq javob berishga o'rgatadi hamda ularning nutqini boyitadi. Ertakdagi voqealar bola tasavvurida jonlanib, uning idrokini rivojlantiradi [2].

Maqollarga keladigan bo'lsak, ular qisqa, mazmunli va hayotiy tajribaga boyligi bilan diqqatni tortadi. Bola ularni eshitib dono fikrni tushunadi, uni kundalik hayotga tatbiq qiladi, kerakli vaziyatda mos javob berishni o'rganadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari bolalarda hozirjavoblik ko'nikmalarini rivojlantirishda quyidagi psixologik omillarga e'tibor qaratishlari lozim:

- **Hissiy muhit.** Bola o'zini erkin his qiladi, qo'rquv va tortinchoqlik bo'lmasa savollarga dadil javob beradi, fikrini ochiq aytadi, muloqotga kirishadi.
- **Muloqot madaniyati.** Tarbiyachi bolaning har bir javobini qo'llab-quvvatlashi, fikr bildirishi uchun qulay sharoit yaratishi muhim.
- **Faol o'yin mashg'ulotlari.** Rolli o'yinlar, dialogli o'yinlar, sahna ko'rinishlari hozirjavoblikni kuchli rivojlantiradi.
- **Individual yondashuv.** Har bir bolaning nutqiy faolligi, xarakteri, emotsional sezgirligi turlicha bo'lgani bois tarbiyachi bunga mos usullarni qo'llashi zarur.

Xalq og'zaki ijodi asosida hozirjavoblikni shakllantirish uchun pedagoglar va ota-onalar bolalar bilan topishmoq aytish mashg'ulotlari tashkil etishi, t**ez aytishlar musobaqalarini** o'tkazishi, ertaklarni **dramatizatsiya qilib o'ynash**, maqollarni vaziyatga mos **topish mashqlari**ni berishi, "Kim tez aytadi?", "Kim topadi?", "Kim davomini aytadi?" kabi o'yinlar o'tkazishi va har bir mashg'ulotda bolani **fikr bildirishga undashi,** "Sen nima deb o'ylaysan?" kabi savollar berishi kerak, shunda bolalarda **hozirjavoblik ko'nikmalari shakllanib boradi.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda **hozirjavoblik ko'nikmalarini** shakllantirish ularning shaxsiy, nutqiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadigan jarayondir. Bu jarayonni xalq og'zaki ijodi vositalari orqali amalga oshirish eng tabiiy va samarali yo'ldir. Ertaklar, topishmoqlar, tez aytishlar, maqollar bolaning tasavvurini boyitadi, fikrlashini faollashtiradi, nutqini ravonlashtiradi va vaziyatga mos ravishda tezkor javob berishga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 5-jild. – Toshkent: Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. https://ziyouz.uz/kutubxona/ziyouz/uzbek-xalq-ogzaki-ijodi.
3. Husainova Z. Topishmoqlar. O'zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, – 1988. – 176 b.

Sanjarbek ATAKHANOV,
Fergana Medical Institute of Public Health
Lecturer, Information Technology in Medicine

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING CRITICAL THINKING IN STUDENTS THROUGH BIOLOGICAL PROBLEM MODELING IN MEDICAL EDUCATION

Annotation. This article examines the pedagogical potential of biological problem modeling technologies in developing critical thinking skills among medical students. The study highlights how digital simulations, interactive learning platforms, and AR/VR technologies facilitate the analysis of complex biological processes and support independent decision-making in professional medical contexts. The use of modeling technologies enhances students' analytical abilities, integrates theoretical knowledge with practice, and improves professional readiness. The findings indicate that biological modeling is an effective tool for fostering critical thinking in modern medical education.

Keywords: medical education, critical thinking, biological modeling, digital simulations, AR/VR technologies, interactive learning, professional competence.

Annotatsiya. Maqolada tibbiyot ta'limida biologik muammolarni modellash texnologiyalari asosida talabalarda kritik fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Raqamli simulyatsiyalar, interaktiv platformalar hamda AR/VR texnologiyalaridan foydalanish murakkab biologik jarayonlarni tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari biologik modellash zamonaviy tibbiyot ta'limida samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tibbiyot ta'limi, kritik fikrlash, biologik modellash, raqamli simulyatsiyalar, AR/VR texnologiyalari, interaktiv ta'lim.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические возможности технологий моделирования биологических задач в развитии критического мышления у студентов медицинских вузов. Использование цифровых симуляций, интерактивных образовательных платформ и технологий дополненной и виртуальной реальности способствует анализу сложных биологических процессов, интеграции теоретических знаний с практикой и формированию навыков самостоятельного принятия решений. Результаты исследования подтверждают эффективность биологического моделирования как средства развития критического мышления в медицинском образовании.

Ключевые слова: медицинское образование, критическое мышление, биологическое моделирование, цифровые симуляции, технологии AR/VR, интерактивное обучение.

The rapid development of information and digital technologies has significantly transformed modern education and medicine. In particular, medical education increasingly requires innovative teaching approaches that develop not only professional knowledge but also higher-order thinking skills. One of the most important competencies for future medical professionals is critical thinking, which enables effective analysis, evaluation, and decision-making in complex clinical situations.

Traditional teaching methods often focus on the transmission of theoretical knowledge, whereas modern medical practice demands the ability to analyze dynamic biological processes and respond to uncertain conditions. In this context, biological problem modeling technologies play a crucial role by creating learning environments that integrate theory with practice.

Biological Modeling as a Pedagogical Tool

Biological modeling involves representing complex biological systems and processes using digital, mathematical, or visual models. In medical education, such models allow students to explore physiological mechanisms, disease development, and treatment outcomes in a controlled and safe environment.

Through computer-based modeling, students can analyze processes such as blood circulation, neural transmission, or metabolic regulation. This approach encourages analytical reasoning, hypothesis testing, and independent problem-solving, which are essential components of critical thinking.

Digital Simulations in Medical Education

Digital simulations provide virtual environments where students can observe and analyze biological and clinical scenarios. These simulations enable learners to:

- visualize complex biological processes;
- test theoretical assumptions in practice;
- analyze disease progression and treatment effects;
- receive immediate feedback on decision-making outcomes.

Simulation-based learning enhances students' practical readiness while minimizing risks associated with real clinical practice. As a result, students develop confidence and critical judgment in professional contexts.

Interactive Learning Platforms and Critical Thinking

Interactive educational platforms engage students in solving complex biological problems through case studies, virtual laboratories, and problem-based tasks. Active participation in such environments promotes deeper understanding and encourages students to view biological phenomena from multiple perspectives.

Collaborative tasks within interactive platforms also foster communication and teamwork skills, which are essential for effective medical practice. Moreover, personalized learning paths allow students to work at their own pace, supporting individual cognitive development.

Application of AR and VR Technologies

Augmented reality (AR) and virtual reality (VR) technologies significantly enhance the visualization of biological structures and processes. By virtually modeling organs, tissues, and physiological systems, students gain a comprehensive understanding of the interconnections within the human body.

These immersive technologies provide experiential learning opportunities that simulate real clinical situations. As a result, students develop scientific reasoning and critical thinking skills based on observation, analysis, and practical experimentation. The integration of modeling technologies into medical education offers several advantages:

- simplification of complex biological concepts through visualization;
- development of analytical and problem-solving skills;
- enhancement of technological competence relevant to the modern labor market;
- increased motivation and active engagement in learning;
- support for independent and collaborative learning.

By working with models and simulations, students learn to evaluate data, test hypotheses, and make evidence-based decisions.

Biological problem modeling technologies represent an effective pedagogical approach for developing critical thinking skills in medical students. Digital simulations, interactive platforms, and AR/VR tools bridge the gap between theoretical knowledge and clinical practice. Their integration into medical education enhances professional competence, analytical reasoning, and independent decision-making. Therefore, the systematic use of modeling technologies is essential for improving the quality of modern medical education.

References

1. Атаханов С.А., Рахматжонова М. Развитие медицинских компетенций студентов посредством использования технологий биологического моделирования в медицинском образовании // Tadqiqotlar, 2025, 60(1). – B. 3–7.
2. Anvarovich A. Sun'iy intellekt yordamida yurak-qon tomir kasalliklarini erta tashxislash // IMRAS, 2025, 8(11). – B. 96–99.
3. Anvarovich A., Omonjon o'g'li M. The role of modern computer technologies in the diagnosis and treatment of gastritis. Eduvision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements, 2025, 1(4) – P. 766–770.

Sarvinoz SHARIPOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
3-bosqich tayanch doktoranti

O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA YOZMA ISHLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada yozma nutqni grammatik jihatdan to'g'ri qurish, so'zlarni o'rinli qo'llash uchun nazariy bilim bilan bir qatorda **uzluksiz mashq** zarurligi, faqat muntazam amaliyotgina barqaror ko'nikma va malakalarni shakllantirishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: yozma nutq, leksik birliklar, ilmiy tafakkur, lingvistik, ekstralingvistik, matn.

Annotation. This article discusses the need for continuous practice, along with theoretical knowledge, to construct written speech grammatically correctly and use words appropriately, and that only regular practice can form stable skills and competencies.
Keywords: written speech, lexical units, scientific thinking, linguistic, extralinguistic, text.
Аннотация. В данной статье обсуждается необходимость прстоянной практики, наряду с теоретическими знаниями, для грамматически правильного построения письменной речи и уместного использования слов, а также то, что только регулярная практика способна сформировать устойчивые навыки и умения.
Ключевые слова: письменная речь, лексические единицы, научное мышление, лингвистический, екстралингвический, текст.

Yozma nutqni rivojlantirishda biror mavzu yuzasidan nafaqat ijodiy tafakkur yuritish, balki allaqachon o‘qilgan yoki og‘zaki tarzda eshittirilgan matnlar ustida ishlash, ularni qayta talqin qilish hamda aynan shu matn asosida mustaqil fikr bildirish imkoniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bunday faoliyat o‘quvchiga tayyor matn bilan ishlash, undan tayanch sifatida foydalanib yozma ijod yaratish, dalil va mulohazalarini mustaqil ifodalash imkonini beradi.

O‘quvchilarning tayyor matnlar ustida ishlashi va shu matnga tayanib ijodiy faoliyat yurita olishi uchun **bayon shakllari** alohida o‘rin tutadi. Ijodiy bayonlar o‘quvchi yozma nutqining poydevorini barqaror shakllantiradi: bayon yozayotgan shaxs matn doirasida o‘z tasavvurlarini jamlaydi, fikr-mulohazalarini mushohada qiladi, mazmunga mos rejani tuzadi va g‘oyalarini izchil, mantiqan tartibli bayon etishga intiladi. Shu tariqa, bayon turlari fikrni tashkil etish, tarkibiy qismlarni muvofiqlashtirish va konseptual yaxlitlikni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

O‘quvchilarning yozma nutqi va savodxonlik darajasini oshirishda ular ustida ishlaydigan matnlarni **grammatik** va **semantik** jihatdan mos holda tanlash hal qiluvchi omildir. Matn tanlashda murakkablik darajasi, til materialining soddaligi yoki ko‘p qatlamliligi, muallif uslubining o‘quvchi yoshiga va bilim salohiyatiga mosligi, shuningdek, maqsadli kompetensiyalarni (tahlil, talqin, qayta tuzish) rivojlantirishga xizmat qilishi e’tiborga olinadi.

Yozma nutqni takomillashtirishda **leksika** va leksik ishlanmalar alohida ustuvorlikka ega. Shu sababli o‘quv jarayonida **o‘quv lug‘atlari** va **qomuslar** muhim vosita hisoblanadi. Matnning tushunarli va aniq bo‘lishida imloviy xatolarning minimallashtirilishi muhim; o‘qituvchi yozma topshiriqlarni tashkil etishda **imlo lug‘ati**ga tayanishi, o‘quvchilarni esa uni muntazam qo‘llashga o‘rgatishi lozim.

Yozma nutqni grammatik jihatdan to‘g‘ri qurish, so‘zlarni o‘rinli qo‘llash uchun nazariy bilim bilan bir qatorda **uzluksiz mashq** zarur. Faqat muntazam amaliyotgina barqaror ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Demak, nutqni o‘stirish bevosita tilning **grammatik tuzilishi** va **lug‘at tarkibi**ni chuqur o‘zlashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Badiiy asarlarni muntazam o‘qish, zarur parchalarni ko‘chirma qilish, yodlash va turli yozma mashqlarni bajarish yozma nutq taraqqiyotini sezilarli darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

Shu o‘rinda yana bir jihat: grammatika o‘quvchining mustaqil xulosa chiqarishi, bilimni amaliyotga tatbiq etishi, boshqacha aytganda, **kuzatishdan qo‘llashgacha** bo‘lgan zanjirni mustaqil bosib o‘tishiga xalaqit bermasligi kerak. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘p o‘quvchilar darslikda berilgan grammatik qoidalarni real hayot bilan bog‘lay olmaydi, oqibatda bu qoidalar tezda unutiladi.

Shunday ekan, ona tili ta’limida asosiy e’tibor o‘quvchining **so‘z boyligini kengaytirish**, **ma’no nozikliklari**ni farqlay olish, **bexato yozish, begona fikrni to‘g‘ri anglash, bir fikrni turli shaklda ifodalash**, **uzilgan fikrni tiklash**, **nutq vaziyatini baholash** va **til imkoniyatlaridan kontekstga mos foydalanish** ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

O‘quvchiga mazkur jarayon uchun zarur bo‘ladigan ayrim **fonetik**, **leksik** va **grammatik** qoidalarning o‘zi kifoya. Buning uchun fikrni anglash va ifodalashning turli mexanizmlarini, ularni turli nutq sharoitlarida qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatish, shu asosda mashq-topshiriqlar tizimini yaratish va **madaniy nutq** mashg‘ulotlarini kuchaytirish zarur.

O‘quvchilarni **matn yaratish** faoliyatiga jalb etishda maxsus tayyorlangan matn ustida ishlash bo‘yicha topshiriqlar ham samaralidir. Jumladan:

Matnni ifodali o‘qib berish va ma’noli qismlarga ajratish; 2) Mazmundan kelib chiqib reja tuzish; 3) Matn mazmunini ochib beruvchi savol va testlar yaratish; 4) Matndagi xulosani kengaytirib, shaxsiy fikrni yozish.

Berilayotgan topshiriqlar **bosqichma-bosqich murakkablashib boradi**, bu esa o‘quvchini izchil fikrlashga, to‘g‘ri mushohada yuritishga, nutqiy hodisalarni qiyoslashga va mavzuga mos uslub tanlashga o‘rgatadi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish maqsadida taqdim etiladigan matnlarda **muallif aniq ko‘rsatilishi** lozim. Manbalar badiiy asardan parchalar, ma’rifiy matnlar, kichik hikoya va rivoyatlar, qissa bo‘laklari, rasmiy ish qog‘ozlari, maktublar, taklifnoma va tabrik maktublaridan iborat bo‘lishi mumkin. Asosiy talab — matnlar o‘quvchi yoshiga mos, qiziqarli va diqqatni jalb etadigan bo‘lishidir.

Tanlangan matnni tushunish jarayoni quyidagicha darajalandi va tahlil qilindi[1]:

Assotsiativ daraja — tayanch matn uslubi, unda qo‘llangan so‘zlarning ma’nosi, matnda bo‘lmagan so‘zlardan foydalanish yoki sinonim almashtirish holatlari;

Struktural daraja — tayanch matndagi mazmuniy tarkiblarning ketma-ketligi va o‘zaro bog‘liqligi;

Matn darajasi — eshittirilgan matnni yaxlit ko‘rinishda qayta yaratish: mazmun va shakl jihatdan boyitish, ammo tayanch matnning asosiy mazmunini buzmaslik.

Matnni tushunish darajalari belgilanganidan so‘ng, yozma nutqni tekshirish va tahlil qilishda quyidagi talablar hisobga olindi:

Mazmundorlik — asosiy fikrning mavjudligi, axborot dalillarining dolzarbligi va yangiligi;

Tushunarlilik — matnning mantiqiy izchilligi, tilning aniqligi va ravshanligi;

Ifodalilik — leksik boylik darajasi va uslubiy rang-baranglik [2].

Yozma nutq mazmunli bo‘lishi uchun material yig‘ilgach, uni **sistemalashtirish**, **reja tuzish**, **xomaki nusxa** yaratish, matn ustida qayta ishlash va **oq nusxa**ga ko‘chirish talab etiladi. Yozma nutq sifati ko‘p jihatdan **fikrning mustaqil bayoni** bilan belgilanadi.

Yozma nutq turli janrlardagi topshiriqlar orqali namoyon bo‘ladi. Umuman, yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda murakkabroq jarayondir: u o‘quvchidan grammatik va mazmuniy jihatdan to‘g‘ri gap tuzishni, so‘zlarni o‘rnida qo‘llashni, fikrni ixcham va izchil, usluban sodda va ravon ifodalashni, bildirilgan g‘oyalar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Yozma nutqning murakkabligi, shuningdek, **imlo**, **tinish belgilari** va **uslub** bilan bog‘liq. So‘zlarni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, uslub talablariga muvofiq bayon etish o‘quvchidan yuqori darajadagi mas’uliyatni taqozo etadi. Shu sababli bu yo‘nalishdagi taraqqiyot nisbatan sekin va murakkab kechadi.

Nutq madaniyatini rivoj topishiga ulkan hissa qo'shgan Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda, shuningdek, Behbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizovlarining ijod namunalarida o'quvchi nutqini o'stirish haqida qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Masalan, Alisher Navoiyning shunday misralari bor:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,
So'zdirki, berur jonga xabar jonondin.
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilki, gavhari sharifroq yo'q ondin.

Nutqni zamonaviy va to'laqonli rivojlantirish uchun atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlik o'quvchining muloqotga bo'lgan ehtiyoji tarkibini boyitishi zarur.

O'quvchilar nutqni to'g'ri egallab olishlarining sababi ularning muloqot faoliyatlarining asosini ehtiyoj-motivatsiya tashkil qilishi, uning tarkibi o'zgarganligidadir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalardagi mustaqil fikrlash va mulohaza yuritish jarayonlari 3–5 yoshdan boshlab faollashadi. Shuning uchun oilaviy muhitda hamda maktabgacha ta'lim muassasalarida so'z boyligini kengaytirish maqsadida tilning ertak, doston, topishmoq, qo'shiq kabi nutqiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarur. Badiiy asarlar o'quvchilarni to'g'ri yo'naltiradi. Shu bois xalqimizga xos o'zbekona qadriyatlar va ulug'lanuvchi jihatlarni aks ettiruvchi o'zbek xalq og'zaki ijodiga ko'proq murojaat etish tavsiya etiladi. Ular uchun asar tanlashda ularning qahramonlariga o'xshab ketish istagini hisobga olish lozim.

Nutq o'stirish bo'yicha ishlarni rejalashtirishda o'quvchilarning ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari hisobga olinishi kerak. Ular atrofdagilarning nutqini tushunishi va idrok etishi uning nutq organlari muskullarining qanchalar mashq qilinganiga bog'liq. Bolalarning tovush madaniyati bo'yicha nutqiy faolligini oshirish mashg'ulotlaridagina emas, balki mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda ham rejalashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: F.f.n.dis. monografiya. –Toshkent: 2008. – 114 b.
2. Muhitdinova H. Ta'lim bosqichlarida o'zbek tili o'qitilishi uzluksizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish. P.f.d. diss. – Toshkent, 2011.